| | 2.2.Madaniyat va san'atning aloqadorligi, uning asosiy belgilarini sharhlaydilar. | 1-sonli slayd mazmunini o'r-ganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini aytadi. |
| **III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)** | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (4-ilova). | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

**1 – mavzu bo'yicha glossariy**

Arxitektura — binolar va boshqa inshootlarni barpo etish san'ati.

Antik tarix — Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi.

Arxeologiya — ashyoviy manbalarni o'rganuvchi va ular bo'yicha tarixiy o'tmishni qayta tiklovchi fan; qadimshunoslik.

Ellada — Qadimgi Yunoniston.

Ellinlar — qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan.

**2- mavzu: Qadimgi davr madaniyati va san'ati, uning taraqqiyot bosqichlari. 6 – soat.**

**1 - mashg'ulot: 2-soat**

**Reja:**

3. Qadimgi davr madaniyati va san'atining o'ziga xos xususiyatlari.Diniy e'tiqodlar, urf – odatlar, axloqiy me'yorlardagi umumiylikning madaniy umumiylikning shakllanishdagi ahamiyati.

4. O'rta Osiyo yaxlit madaniyatini tashkil qiluvchi submadaniyatlar(qadimgi davlatlar( Baqtriya, So'g'd, Xorazm, Farg'ona, Marg'iyona) submadaniyati, sak va massagetlar submadaniyati).

3. O'rta Osiyoning Sharq va G'arb madaniyati va san'ati o'rtasidagi vositachilik missiyasi. Madaniyat rivojida zardushtiylik va "Avesto"ning o'rni.

Bugungi O'zbekiston hududi insoniyatning qadimiy manzillaridan hisoblanadi. Jayhun va Sayhun kabi ikki daryo oralig'ida joylashgan bu hududda qadimshunoslarning fikriga ko'ra million yildan ortiq vaqt mobaynida odam yashab keladi. Shu uzoq asrlik taraqqiyot davomida bu yerlarda turli davlat va birlashmalar paydo bo'ldi yoki atrofda ashakllangan yangi davlatlar tarkibiga kirdi. Ana shu jarayon va taraqqiyot goh ko'tarilib, goh so'nib o'z yo'lida izlarini qoldirib keldi. O'zbekiston san'ati tarixi ayni shu izlarni o'rganib uni san'atdagi namunalari orqali tahlil etadi. Ma'lumki san'at tushunchasi keng Biz san'at deganda inson hissiyoti bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni nazarda tutamiz. lnson esa o'z hissiy tuyg'ularini ovoz-tovush, imo-ishora, xatti-harakatda ifodalashi yoki bo'lmasa chizish, shakllar, bo'yoqlar orqali ko'rsatishi, so'z bilan bayon qilishi mumkin. Shulardan kelib chiqib san'at o'z yo'nalishini belgilaydi.
Ularni eshitish yoki ko'rish mumkin. Musiqa, teatr, adabiyot, she'riyat,raqs, kulolchilik, zargarlik, me'morchilik, rassomlik , haykaltaroshlik va boshqa san'at turlari shunday belgilanadi. Shuning uchun ham biz san'at yo'nalishini chegaralab faqat ko'rishga mo'ljallangan tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atini O'zbekiston hududidagi taraqqiyot yo'lini o'rganib chiqamiz. Bu san'atni o'rganishning ikki muhim tomoni bor. Birinchisi bu san'atni faqat ko'rish, idrok etish orqali o'rganish mumkin. Har qanday so'z san'ati uni ta'riflashga ojizlik qiladi. Ikkinchi tomondanbugun biz yashayotgan va o'rganmoqchi bo'lgan O'zbekiston hududida bir birini almashtirgan davlat birlashmalari, mustaqil qudratli davlatlar bo'lgan, ba'zida bu hudud o'zga davlatlar tarkibiga kirgan. Uning san'ati ham shu jarayonlarda o'zgarib borgan. Shuning uchun bu san'atni o'rganish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. San'atning evolyutsion taraqqiyotini ko'rish uchun esa san'at tizimi qatori bo'lishi kerak. Afsuski ana shu ko'rish, idrok etish qatorida o'pirilish va uzulishlar bor. Bu esa san'at taraqqiyotini rivojidagi ketma-ketlikni to'g'ri tasavvur etishga xalaqit beradi. Shunday paytda qiyosiy taqqoslash, ya'ni u yoki bu davrda qo'shni davlat va xalqlar san'atining ayni shu davrdagi holati va ko'rinishini o'rganish, xalq og'zaki ijodi, afsona va rivoyatlar, shuningdek shu

davrga oid yozma manbalar, arxeologik topilmalar qo'l keladi. Shuning uchun biz ham shu uslubdan foydalanib qo'shni davlatlar Turkmaniston, Qozog’iston Tojikiston, Afg'oniston san’ati namunalariga murojaatqilamiz.

## **Ibtidoiy jamoa davri san’ati**.

O’rta Osiyo hududi dunyoning eng qadimgi odamlari yashagan makon bo`lganligi yuqorida ta'kidlandi. Ammo bu hududda odamzodning dastlabki avlodlarining paydo bo`lganligiga necha yil bo`ldi, degan savolga olimlar turli xilda javob berib keldilar. Ba'zi manbalarda dastlabki odam izlari bundan 500 ming yil ilgari topilgan deyilsa, boshqalarida 800 ming yil sanasi tilga olinadi. Arxeologlarning eng so`nggi xulosasiga ko`ra, eng qadimgi odamsimon maymunlar ajdodi hisoblangan zin-jantroplardan keyin paydo bo`lgan pitekantroplar bundan I million yil ilgari yashaganlar.

Tabiatdagi bunday o`zgarishlar mintaqaning ayrim tumanlarida ilk ajdodlarimizning makon topishiga imkon bergan. Vatanimiz hududida yashagan ilk ajdodlarimizning manzilgohlari Farg`ona vodiysining Sux tumanidagi Selung`ur g`oridan va Toshkent viloyatining Angren shaxri yaqinidagi Ko’lbuloq makonida topib o`rganildi.. Qadimgi tosh davri (paleolit) ning o`rta bosqichi (bundan qariyb 100—40 ming yil avval) arxeologiya fanida Muste davri deb ataladi. Bu davrda muzlanish keng tarqala boshlagan, iqlim sharoiti ancha yomonlashgan. Bu hol ibtidoiy odamlarni tabiat kuchlariga qarshi kurashga va himoyalanishga majbur qilgan. Ular ilgarigidek yirik xayvonlarni ovlaganlar, olov chiqarishning turli yo`llarini ixtiro qilganlar, turli sharoitlarda yashash uchun o`zlariga boshpanalar izlaganlar. Bu davrda yangi mehnat qurollaridan qo`l ***cho`qmori*** paydo bo`lgan. To`da-to`da bo’lib yurish bu davrda ham davom etgan. Insoniyat tarixi shajarasida bu davrning odami neandyertal odami nomi bilan yuritiladi. ,.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida ***Mezolit*** deb atalmish davr o`ziga xos bir davr hisoblanadi.Bu davrda ovchilik hayot manbai hisoblanar edi. Bu borada o`q-yoyning kashf etilishi katta ahamiyat kasb etdi. O`q-yoy inson kashf etgan birinchi mexanizmdir.

Ibtidoiy rassomlar odamlarning tabiat kuchlariga munosabatlarini, dunyoqarashlarini qoyalarga chizilgan rangli suratlari orqali ifodalaganlar. Shu xildagi manzilgohlardan biri Surxondaryoning Zarautsoy darasi qoyalariga solingan suratlar hisoblanadi. Bu suratlar orasida «Yovvoyi hayvonlarni ov kilish» deb nomlangan manzara diqqatga loyiqdir. Unda bir poda yirik shohli hayvonlar orqasidan ovchilarning o`z itlari bilan quvib ketayotgan manzarasi tasvirlangan. Yana bir qoyada esa ikki guruh ovchilarning yovvoyi buqani o`rab olish manzarasi aks ettirilgan. Ibtidoiy jamoa davrining yangi tosh davrida yana bir yangilik — bu bo`lajak hunarmandchilik xo`jaligining muhim tarmog`i hisoblangan sopol buyumlar (keramika) ishlab chiqarishning kashf etilishi

bo`ldi. Insoniyat hayotida katta voqea bo`lgan bu yangilikka asoslanib ayrim arxeologlar, hatto neolit davrini «sopol asri» deb atashni ilgari surganlar, bu kashfiyotlar Neolit davrida sodir bo'ldi ***hunarmandchilikning*** vujudga kelishi endi ibtidoiy odamlar faqat hayvon terilaridan tayyorlangan kiyim-kechaklarnigina emas, balki uning junidan hamda o`simliklar tolasidan to`qilgan matolardan kiyim-kechaklar tikib kiyadigan bo`ldilar. Bu davrda jamoada hali ibtidoiy urug`chilik «kommunasi» hukmron bo'lib, ona urugi davom etar edi. Shu boisdan dunyo olimlari neolit davrini matriarxat urugchilik tartiblarining gullagan davri, deb baho beradilar. Marmardan ishlangan ***≪Qayiqdagi buqa≫***, ***≪Toshbaqa≫*** haykali, toshdan yasalgan ***≪Erkak boshi≫*** haykali davr haykaltaroshlik namunasi sifatida e'tiborga loyiq Mirshodi manzilidan topilgan qora toshdan ishlangan ≪Erkak boshi≫ haykalida qattiq materialga ishlov berib katta shakllarda odam bosh xususiyatlarini ko'rsatishga muyassar bo'lgan.

Eneolit davrida xom g'isht qurilishda ishlatildi, qishloqlarda ko'p xonali uylar va katta-katta inshoatlar qurish ishlari amalga oshiriladi. Milloddan avvalgi 4-mingyillikda O'rta Osiyoning janubida sug'orma dehqonchilik vujudga kelib, anhorlar va ariqlar ochildi, unumdor erlardan keng foydalanib, turli o'simliklar arpa, bug'doy, javdar ekildi, mevachilik rivojlandi.

Mis-tosh davri makonlari janubiy Turkmanistondagi Anov, Namozgohtepa, O'zbekistondagi Amudaryoning quyi oqimlari va Zarafshon vohalaridan, jumladan, Lavlakon, Beshbuloq, Zomonbobo, Kaptarqumi, Kattatuzkon makonlari Sarazm kabilarda qazib o'rganilgan. Kulolchilik ancha ravnaq topgan: idishlarga geometrik naqshlar solingan, odam va hayvon tasvirini solish ham odat bo'lgan. Eneolit davri yodgorliklaridan qazish paytida pishirilgan loydan yasalgan ko'plb ayol haykalchalari ma'budalar topilgan.

Sekin-asta mehnat qurollari takomillashtirilib, rudali metallar, mis, qalay, kumush, oltinni ixtiro qilganlar va ularni eritish, quyish, ulardan foydalanish yo`llarini o`rganganlar.

Bronza mis va qalay aralashmasidan iborat bo'lib, u misga qaraganda katta afzalliklarga ega. Ishlab chikarishda bronzaning ishlatila boshlanishi bilan jamiyat taraqqiyotida **Bronza davri (mil. avv. 3 mingyillik o'rtalari – 2 mingyillik) boshlangan**. Insoniyat jamiyat taraqqiyotida xalq xo`jaligi, texnika va madaniyat soxasidagi erishilgan yutuqlar ana shu' davr bilan bog`liqdir. Zarafshonning quyi oqimidagi Zamonbobo ko`li yonida va Sarazmda o`tkazilgan arxeologiyaga oid tadqiqot natijalari yuqoridagi fikrlar xaq ekanligiga guvoxlik beradi. Zamonbobo ko`li atrofidagi qabrlar ochib ko`rilgan. Ularda bittadan, ikkitadan va hatto uchtadan ko`milgan mayit qoldiqlari, naqshli sopol idishlar va har xil buyumlar topilgan. Erkaklarning qabrlarida chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar, pichoqsimon yapasqi buyumlar topilgan. Ayollarning qabrlarida esa qizil va sariq oxra, surma uvoqlari, misdan ishlangan kichik-kichik ko`rakchalar

hamda lojuvarddan, aqiqdan, firuzadan ishlangan bezaklar, tosh bezaklari va hatto oltindan yasalgan marjonlar bo`lgan.

**O’zbekistonda diniy qarashlarning paydo bo’lishi va uning san’atdagi o’rni.**

Markaziy osiyoda diniy qarashlarning shakllanishi deganda u bizni uzoq o’tmishga diniy tushunchalarning paydo bo’lishiga yetaklab boradi. Ilk diniy tushunchalar **anemizm, fetishizm, totemizm, magiya.** Diniy tushunchalar o’lganlar ruhi aniq moddiy narsalarda o’z aksini topgan, 1938 yilda Boysun tog`ining Teshiktosh deb atalgan g`oridan topilgan yodgorliklar alohida qimmatga egadir. *Bu yerda o`tkazilgan arxeologiyaga oid izlanish natijasida ko`pgina ashyoviy dalillar bilan bir qatorda g`or devorining ostidan 9 yashar bolaning qabri topilgan. Undagi suyak qoldiqlari mayitning chalqanchasiga yotqizilgani va qabr atrofi xayvon shohlari bilan o`ralganligidan dalolat beradi.* Bundan shu narsa ma'lum bo`ladiki, neandertal odamlarning asosiy mashg`uloti hayvon ovi bo`lgan. Shu sababdan bo`lsa kerak teshiktoshliklar o`zlari uchun muqaddas hisoblangan xayvon shohlari bilan bolalarini o`rab**, «narigi dunyoga»** jo`natganlar. Bu hol neandyertal odamlar yashagan zamonda asta-sekinlik bilan diniy tasavvurlarning dastlabki belgilari paydo bo`la boshlaganligini ko`rsatadi. Mezolit davri odamlari tasavvurida «narigi» dunyoga ishonish, olovga talpinish alohida ahamiyat kasb etgan. Buni Qayla qabristonidan topilgan mayitga sepilgan qizil rang bo’yog`i isbotlaydi. Diniy tushunchalar keng mushohadali falsafiy tus olib, ko'p dinlilik ko'p xudoga sajda qilishasta-sekin yakka ilohga sajdaga aylana bordi. Yangi-yangi dinlar yuzagakeldi. Ana shunday yirik dinlardan biri zardushtiylik dini edi. Mil. avvalgiVII asrda shakllangan bu diniy ta’limot odamlarning turmush tarzi,urf-odatiga ta’sir etdi, odamlar yurish-turishi, kiyinishida shu din talabiva ta’siri bo'ldi. Zardushtiylik dini me’morlik, amaliy va tasviriy san’atda ham o'z aksini topgan. Zardushtiylik diniga binoan suv, havo, yer, olov muqaddas bo'lib, olov esa tozalovchi, poklovchi ilohiy kuch hisoblandi. Ana shu otashparastlik dini uchun muqaddas olov uylar qurilgan. Bu uylarda olov doim yonib turishi uchun uni qo'riqlab, yaxshi turish **otrabonlarga** topshirilgan. logik topilma asosida tiklangan olov uyining ko'rinishi tepaga kichrayib boruvchi to'rtburchak shakllardan tashkil topgan. Uning tepasidan tutun chiqishi ichki xonasida muqaddas olov yonib turganligini bildiradi. Ibodatxona kompleksining xo'jalik xonalari bo'lib, u yerda turli buyumlar, jumladan, taqinchoqlar saqlangan. Odamlar shu uma atrofida aylanib marhum bilan xayrlashgan holda muattar hidli gullar sochganlar. Marosimning ajralmas qismi qurbonlik qilish va marosim oshi berish bo'lgan. Mazkur ibodatxona taxminan yangi eraning 1 minginchi yillar o'rtasida qurilgan uning katta xonasining devorlari rasmlar bilan bezatilgan bo'lgan. Zardushtiylik ma’lumotiga ko'ra, odamlar o'lgandan keyin uning jasadini yerga ko'mish gunoh hisoblangan. Shuning uchun odam o'lgandan keyin uning jasadini maxsus tepalikka olib borib qo'yishgan.Bu tepalik odamlar yashaydigan joydan uzoqda bo'lib, tepalikda esa turli itlar, burgut, yovvoyi qushlar bo'lgan va ular odam

go'shtini suyagidan ajratib bergan. Yomg'ir esa suyakni yanada tozalagan. Quyosh esa uni obdan quritgan. Shundan so'ng tepalik atrofida yashovchi odamlar suyaklarni yig‘ib, sopoldan yasalgan idishchalarga solib, ko‘p hollarda marhumning o‘z uyiga ko'mganlar. Bu idishchalami ostadonlar yoki ossariylar deb atashgan Ostadonlarning yuzalariga esa bo'rtma tasvirlar ishlangan yoki rasm chizilgan. Bu tasvirlarda o‘sha davrlardagi odamlar urf-odati, masalan, aza tutish voqealari aks ettirilgan. Bu ostadonning tashqi tomonida bo'rtma tasvir bo'lib, unda yonib turgan olovga ikki tomondan odamlar o'tin, yoqimli is tarqatadiga giyohlar tashlab turgan payti tasvirlangan. Ular og'izlarini maxsus bog'lagich bilan berkitib olganlar. Chunki olov muqaddas, unga hatto odamning nafasi ham tegmasligi kerak. Olov yonishi rasmi ham xarakterli. Olovning alangalari chiroyli va tartibli qilib ishlangan shakli keyinchalik bezak san’atida keng ishlatila boshlangan, bu shaklni antifiks deyiladi. Oqtepa (Chilonzor tumani. Toshkent.) yodgorligi ham shu davming muhim yodgorligidir. Burchaklari minoralarga ega bo'lgan bu qo'rg'on ikki qavatli bo'lib, uning asosan burchaklaridagi xona va tokchalarining usti berk bo'lgan. Bu ibodatxona shahardan tashqarida bo'lib, kata marosim va tantanalar uchun foydalanilgan. Bu ibodatxona VIII asrda arablar yurishidan keyin tashlandiq holga kelgan bo'lsa ham, otashparastlar bu yerdan uzoq foydalanishgan va ostadonsiz ko'mishmarosimlari o'tkazilgan. Zardushtiylik dini jahon dinlarining qadimiysi bo'lib, ming yildan ortiq vaqt mobaynida ko'pgina Sharq xalqlarining asosiy dini bo'lib keldi. Markaziy Osiyo Eron, Ozarboyjon xalqlari islom diniga qadar shu dinga e ’tiqod qildilar. Hatto islom kirib kelgandan keyin ham bu din uzoq vaqt mavqeyini saqlab kelgan. Ibn Sino davrida (X—XI asrlar) ham shu dinga e’tiqoqiluvchilar mavjudligi e ’tirof etilgan. Bu dinning ta’siri O’rta Sharqdaqator davlatlar tuzilganda yanada ortib bordi, keyinchalik uning urfodatva qoidalari vangi shakllangan din va odatlarga ta’sir etdi.

## Dastlabki istilolar va ularning inqirozi natijasida vujudga kelgan mustaqil davlatlar davri san’ati

Markaziy Osiyoning yerlari qadimdan bosqinchilar uchun boylik orttirish o'lkasi bo‘lib kelgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko'ra miloddan avvalgi IX—VII asrlarda dushmanlar Markaziy Osiyoning janubiy tomonlariga yurish qilib juda ko'p boyliklar orttirib qaytishgan. Mil. av. VI asrlardan esa O'rta Osiyo yerlarining katta qismi Ahamoniylar davlati tomonidan bosib olinib qariyb 200 yildan ortiq vaqt mobaynida uning asoratida bo'lgan. Lekin bu davlatlar orasidabirlik yo'q edi. Shuning uchun ham Eron qo'shinlari bu davlat vaqabilalarning yerlarini tezlikda bosib olishga muyassar bo'ldilar. Xalqning ozodlik uchun kurashi esa To'maris, Shiroq kabi qahramonlarning afsonaviy jasoratlarida saqlanib qoldi.

***Galikarnasli Geradot va Knidli Ktesiylar shu davr haqida qiziqarli ma’lumotlarni yozib qoldirganlar. Jumladan, Knidlik Ktesiy mutaxassisligi vrach bo'lgan. U Eron shohi Artaksereks 11 xizmatida bo ‘lib, 17 yil So ‘zada yashagan va o ‘z davri***

***voqealari, turli afsona va rivoyatlarni to'plab Vataniga qaytgach shular haqida yozib qoldirgan. Shulardan biri To'maris afsonasi bo'lgan.***

Eronliklar bosib olgan yerlarida o'z tartiblarini o'matganlar. Ularbosib olingan yerlarni satrapliklarga bo'lib chiqqanlar. Satrap eroncha hokim ma’nosini anglatib, satraplik deganda uning boshqargan hududi nazarda tutiladi. Satrap podshohga bo'ysunib, uning ko'rsatmalarini bajargan, uning ko'rsatmasi bilan soliqlar yiqqan. Satrapliklar hukmdorlari lavozimiga asosan ahamoniylar avlodidan odam tayinlanar edi.

**Me’morlik.**

Me’morlikjonlandi, shaharsozlikda hamsiljish ro'y berdi.

Eski shaharlar qaytadan tiklandi, rivojlantirildi, yangi shaharlar vujudgakela boshladi. Bu me’morlik komplekslari awalgi davr an’analarini davomettirish asosida yuzaga kelgan. Ular qalin devor bilan o'rab chiqilgan,darvoza va minoralari mavjud bo'lgan. Ularning markazida sun’iy tepalik bo'lib, unda saroyyoki ibodatxona joylashgan. Saroylar uchun ishlatilgan ustunlar ko‘p hollarda kapitellar bilan tugallangan. Eramizdan awalgi VI—IV asr me’morligining ilk namunasi Xorazmdagi Kallaliqir saroy qoldiqlariclir. Saroyning asosiy qismi kvadratga yaqin bo'lib, unga sharq va janubdan hovlilar tutashgan. Shu hovlilaming so‘nggisida binoga kirish uchun mo'ljallangan asosiy darvoza bo’lgan. Saroy xonalari esa,odatda, ichki ikki hovli atrofida joylashgan. Saroy tomlari tekis qilib yopilgan. Ustunlar uzun to'sinlarga mustahkamlik bergan va tayanch vazifasini o'tagan. Bino ustunlari tepaga kichrayib boruvchi to'rtburchak va aylanalardan tashkil topgan tagkursiga o'rnatilgan va ular toshlardanishlangan.(Ustunlar esa yog'ochdan yasalgan bo'lib, uning kapitelihaykalga o'xshatib ahamoniylar kapitellaridan o'mak olingan holda ishlangan. Ahamoniylar davrida me’morlik san’ati tizimida ham qator o'zgarishlar sodir bo'lgan**. Plyastr, kapitel, ustun, taglik (baza**) va boshqa bir qator me’morlik shakllari ahamoniylar davri Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan satrapliklarda, ulaming markazlari va bosqinchilar homiyligida dabdabali hayot kechirayotgan mahalliy boy-zodagonlarning qo'rg'on va saroylarida o'z ifodasini topgan.

Miloddan avvalgi IV asrga kelib Markaziy Osiyo yerlariga boshqa istilochi Makedoniyalik Iskandar yurishi Ahamoniylar istilosi o'rnini egalladi. U Ahamoniylar davlatini tor-mor etib, O'rta Osiyo yerlarining ko'pgina qismini qattiq janglardan so'ng bo'ysundirishga erishdi. Xorazm, Farg'ona va Sirdaryo bo'yidagi ko'chmanchi qabilalar esa o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Lekin Iskandarning hukmronligi uzoqqa bormadi, uning vafotidan(e.a. 323) keyin Markaziy Osiyo yerlari boshqaruvi grek-makedon otliq jangchilar qo‘mondonlari va ularning vorislari qo'liga o‘tdi. Makedonskiy imperiyasining parchalangan sharqiy qismini dastlab grek-makedon otliq jangchilar qo‘mondoni Perdikki o‘z qo'liga oldi, lekin uning O’rta Osiyodagi hukmronligi ham uzoqqa bormadi. Miloddan avvalgi 321-yili Perdikkining yaqin yordamchisi Salavk

mamlakatdagi notinchlikdan foydalanib hokimiyatni qo'lga oldiva ***Salavkiylar davlatiga asos soldi.***

Odatda miloddan avvalgi IV - yangi eraning IV asrlarini antik davrga kiritiladi va bu davr avvalgilaridan san’at va madaniyatda Sharq va G'arb san’atining o'ziga xos murakkab aralashuv, uchrashuv va taraqqiyoti bo'lganligi e’tirof etiladi. Shu davrda Markaziy Osiyo san’ati madaniyati rivojlanishning yangi bosqichini boshidan kechirdi. Salavkiylar davrida Markaziy Osiyo yerlariga yunon (ellin) madaniyati tezkorlik bilan kirib kela boshlaydi. Hukmdorlar shu yerda o'zlarining mavqelarini mustahkamlab olishga harakat qilib, ko'plab yunonistonlik san’atkorlarni taklif qiladilar, turli yerlarda yangi shaharlar barpo etadilar, mahalliy din va urf-odatlariga tegmaganlari holda yunon madaniyatining tarqalishiga e’tibor beradilar. Tijorat, savdo-sotiq ishlari jonlandi, hunarmandchilik, dehqonchilik, qurilishda sezilarli ishlar amalga oshirildi. Muomalaga pul kiritildi. Salavkiylar va undan keyingi Grek — Baqtriya podsholigi davrida Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida me’morlik komplekslari yuzaga keladi, shaharsozlik yangi davrni boshidan kechirdi. Me’morlikda yangi g‘oyalar rivojlandi, yangi-yangi shaharlar barpo etildi. Shulardan biri Demetriy asos solgan (II asr) Termiz (Demet- Termet o‘zgarishida) shahri rivojlandi. Bu davrda, ayniqsa, Ellin san’ati ta’siri sezilarli darajada bo'ldi. Qurilishda ellin me’moriy uslublari ishlatilgan. Jumladan, ustun, kapitel ishlatilgan, pollarga mozaika yotqizilgan, ustunlar ko‘p hollarda kapitellar bilan tugallangan. Tasviriy san’at o'z rivojini davom ettirdi, saroy va zodagonlarning uylari rassomlik va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatildi, mahobatli haykaltaroshlik va mayda plastika san’atida asarlar yaratildi. Marmardan haykallar, fil suyagidan ritonlar ishlandi. Gretsiya san’ati ta’siri shu davrda zarb etilgan tangalarda va ularga ishlangan bo'rtma tasvirlarda ham seziladi. Bu davrda quyish san’ati rivojlandi. Bu san’at rivoji numizmatika — tangalar zarblash san’atida yaqqol bilinadi. Markaziy Osiyo yerlariga bo'rtma tasvirli tangalaming kirib kelishi Salavkiylar sulolasi nomi bilan bog'liq. Bunday uslubda tangalar chiqarish Yunon mamlakatida keng rivoj topgan bo'lib, uni

O'rta Osiyo madaniy-iqtisodiy hayotiga kirib kelishi muhim voqea edi.O'rta Osiyoda pullar zarb etish maqsadida o'lkaga Yunon ustalariningkeng ko'lamda jalb etilishi *≪O'rta Osiyocha≫* mo'jaz portret san’atiningrivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu yerda ishlangan shunday portretlar davr hukmronligining nafaqat tashqi ko'rinishiga, balki fe’l-atvorini ham o'z ***Oyxonum saroyining poliga ishlangan mozaika Saroyda ishlatilgan kapitel!*** haqqoniy tasvirlanishi bilan Yunonistonda yaratilgan tanga yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvirlardan o'tib ketdi.Tangalarning old tomonida hukmdor (podshoh) homiysi bo'lgan ma’buda tasviri va yozuv mavjud, tanganing orqa tomonida esa hukmdorning aylana ichidagi bo'rtma tasviri yon tomonidan ishlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, bu tangalar yuzasidagi bo'rtma tasvirlar uslubi jihatidan yunon klassik san’ati an’analarida, eng awalo Fidiy, Praksitel, Lissip ijodiga xos uslubda bajarilgan, jumladan, Fidiyning O.limpdagi Zevs haykaliga taqlid qilishi

sezilarli. Podshoh bo'rtma tasvirlari real va haykaltarosh tasvirlanuvchini faqat o'xshatib qolmasdan, balki uning xarakterini ham ochishga intilganligi bilinadi. M. Demetriy tasviri tushirilgan tangada Demetriy xarakteri va mavqeyi fil shakli bor bo'lgan
bosh kiyimda tasvirlangan. Bu belgi podshoning Hindistonni zabt etganligiva uning hukmdorligiga ishora hisoblangan.

## Markaziy Osiyo hududida mustaqil davlatlaming tashkil topishi va antik davr san’ati.

**Xorazm davlati.** Antik davming yirik davlatlaridan biri Xorazm davlati hisoblanadi. Miloddan avvalgi IV asrda ahamoniylar zulmidan ozod bo'lgan Xorazm makedoniyalik Iskandar (Aleksandr ***Demetriy portreti*** Makedonskiy) bilan aloqalarini yaxshiladi. Xorazm shohi Farasnmn Iskandarga sovg'asalomlar yuborib o'z o'rnini mustahkamladi. Shu davrdan boshlab Xorazm o 'z ining rivojlangan davrini boshidan kechirdi va bu taraqqiyot yangi eraning IV asrigacha davom etdi. Shu davrda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatidan rivojlanib O'rta sharqdagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Shu davrga oid yodgorliklardan biri Qo'yqirilgan qal’a hisoblanadi. Qal’a qalin devor bilan o'ralib, atrofi esa suv to'ldirilgan zovur bilan aylantirilgan. Qal’a xonalarining devorlari esa rasmlar bilan bezatilgan bo'lganligi shu davrdan saqlanib qolgan devor parchalarida ko'rinadi. Bu yerdan ko'plab sopoldan yasalgan turli idish va haykallar topilgan. Bular ichida sher boshi haykali ishlangan idish dastagi, sharob ichishga mo'ljallangan ritonlar, yuzasiga turli tasvirlar ishlangan maishiy buyumlar, afsonaviy mavjudotlar, erkak va ayol haykallari bor. Ayniqsa kvadrat, ba’zida dumaloq qilib ishlangan qutilar qopqog'ida yarim beligacha, ba’zida bo'y-basti bilan ishlangan o'tirgan odam(ayol,erkak) haykali bo'lgan topilmalar betakror. Ular zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan va marhumlarning suyagini saqlash uchun ishlatilgan. Xorazmning bu davr me’morligi xususida fikr yuritganda shu davrdan saqlanib qolgan Jonbos, Burgutqal’a me’moriy majmualarini eslash kerak. Xorazm davlatining muhim qo'rg'onlaridan hisoblangan bu manzillar me’morlikning davr mafkurasi, uning asosiy dini bo'lgan zardushtiylik bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu yerda ham muqaddas olov saqlanadigan uylar bo'lganligi shundan dalolat beradi. Xorazmning Ko'zaliqo'rg'onni qalin devor bilan o'ralgan, devor minoralar bilan mustahkamlangan. Qo'rg'on markazida katta inshoot - hukmdor saroyi qarorgohi qad ko'targan. Olimlar fikriga ko'ra bu qo'rg'on qadimgi Xorazm davlatining dastlabki poytaxti bo'lgan. O'rta Osiyodagi nodir yodgorliklardan biri Tuproqgal’a hisoblanadi. 12 m balandlikka ega bo'lgan sun’iy tepalik ustiga qurilgan bu qal’a to'rtburchak shaklida bo'lib, 500x350 m maydonni egallaydi. Maydon atrofi mustahkam devor bilan o'rab chiqilgan. Saroy xonalari haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan. Qabulxona (mehmonxona) serbezak bo'lgan. Devoriy surat va bo'rtma tasvirlar xonaning ko'rkam va go'zalligini oshirgan. Loydan yasalgan haykallar devor bo'ylab qilingan

supachalarga o'matilgan. Supachalar jimjimador panjaralar bilan alohida seksiyalarga ajratilgan. Har bir seksiyada mustaqil haykaltaroshlik kompozitsiyasi bo'lgan. Bu haykallar bizgacha qisman saqlanib qolgan. O'tirgan holda tasvirlangan podshohlar (natural o'lchamdan ikki marta katta), yon tomondan turgan holda tasvirlangan erkak, ayol va bolalaming haykali qo'yilgan. **≪Suvoriylar (jangchilar) zali≫** deb nomlangan xona devorida qoldirilgan tokchalarda podshohlar haykali qo'yilgan. Devor oldida esa qo‘lida qurol ushlab turgan jangchilar haykali bo’lgan**. ≪Qayiqlar zali≫** deb nomlangan xonada o'simliklar, pastroq tomonda natural kattalikda kiyiklaming bo'rtma tasviri — barelyefi ishlangan. Tuproqqal’adagi kichik xonalar faqat devoriy suratlar bilan bezatilgan. Shunday xonalardan birining devoriga ishlangan arfa chaluvchi qiz surati bizgacha birmuncha yaxshi saqlangan.

Bu yer me’morchiligida awalgi davr an’analari davom etdi, shu bilan birga yangi g'oyalar rivojlandi. Jumladan, oldi ochiq ayvonli binolar qurildi. Buddaviylik dini bilan bogMiq monastir, stupalar ishlandi. Ayritom monastiri, Dalvarzintepa ibodatxonasi shu davr yodgorliklaridir. Yana bir muhim tomoni bu davrda san’at sintezi yuqori darajaga ko'tarildi. Saroylar, zardushtiylik va buddaviylik dinlari bilan bogMiq me’moriy majmualarda ishlatilib, ularning estetik jihatlari oshirildi. Dalvarzintepa Kushon davlatining muhim shaharlaridan bo'lib, u o'z vaqtida Koshon davlatining dastlabki poytaxti bo’lgan. Dalvarzinda buddizm diniga e’tiqod qilishgan va shu dinga atab ibodatxona va monastirlar qurishgan. Bu yerdagi ibodatxona serhasham bo'lib, unda Baqtriya ma’budasi haykali bo'lgan. Bino bezagida akanf bargi, antefiks va bezakdor ustunlar keng ishlatilgan. Ayritomdan (Termiz yaqinidan) topilgan toshdan ishlangan relyef — hoshiyalar va so'nggi Kushon davlati me’morligining xarobalari bu yerda ham buddizm keng yoyila boshlaganligini ko'rsatadi. Ayritomdagi ibodatxonaga kiraverish tomonga karniz tarzida ishlangan friz hoshiyalarda akanf barglari orasida yarim beligacha tasvirlangan q o 'sh n ay , nog'ora (baraban), lyutna va arfa chalayotgan sozandalar tasvirlangan haykallar (ular14 ta) bino mazmuni bilan bog’liq bo’lgan. Buddizm dini bilan bogliq me’morlik majmua - ***Ayritom bo 'rtma tasviri***lari, monastir va ibodatxonalar O’zbekistonning janubiy tomonlaridakeng tarqalgan bo’lgan. Eski Termiz yaqinidagi ≪Zurmala qal’a≫ me’morlik qoldig‘i shu o'rinda muhimdir. . Kushon davri haykaltaroshligi ikki yo'nalishda — mahobatli haykaltaroshlik va mayda sopol haykaltjroshljgi tarzida rivojlangan. Mahobatli haykaltaroshlik ko'proq maxsus loy va qorishmalarda ishlangan va ko‘p hollarda bo'yalgan bo'lgan. Mayda haykaltaroshlikda sopol, tosh, bronza, kumush, oltin, shuningdek, yog'och keng ishlatilgan, inkrustatsiya, kandakorlik uslublaridan ham dumaloq va bo'rtma tasvirlar ishlashda qo'llanilgan. Haykaltaroshlik mavzusi diniy va dunyoviy bo'lib, diniy haykallar zardushtlik va buddizm bilan bog'liq holda ishlangan. Buddizmning O'rta Osiyoda tarqalishi bevosita haykaltaroshlik yo'nalishiga o'z ta’sirini o'tkazdi. Budda, bodisatva va boshqa diniy personajlaming haykallari ishlandi va ular

ibodatxonalarning oldi va ichkari qismida o'rnatilgan. Bu haykallarning ishlanish prinsiplari Hindistonda yaratilgan kanonlarga asoslangan.

Yozuvlar esa **Kushon — baqtriya** tilida bo‘lib, yozishuchun grek alfaviti asosida yaratilgan Kushon harflari ishlatilgan. Kushon davlati ko‘p millatli va ko'pdinli davlat edi. Uning hududida yashaydigan turli xalq va qabilalar o'z diniga va qarashlariga ega bo'lgan. Dinlar ichida zardushtiylik dini keng yoyilganligini e’tirof etish kerak. Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Marg'iyona yerlarida shu din bilan bog'liq ko'pgina yodgorliklarning topilishi ham shundan dalolat beradi. Lekin Kushon davri zardushtiylik dini hind va ellin dinlari ta’sirida yangilanish jarayonini boshidan kechirdi, ossuariylar tiplari toraya bordi. Odam shaklidagi (ayol va erkak shaklidagi) ossuariylar 11—III asrlardan boshlabkamayib ketdi va to'xtatildi. Deyarli besh asrli Kushon davlati tarixida o'ziga xos san’at tarixi shakllandi. Xarakteri jihatidan lokal xususiyatga ega bo'lgan Kushon san’ati o'z rivojida nafaqat davlat tarkibiga kiigan mavjud xalq va elatlarning san’ati zaminida kamol topdi,balki davming silsilasida yuzaga kelgan Sharq va G'arb falsafasi va estetikasi ta’siridan ham chekkada qolmadi. Shuning uchun ham bu san’at idrokida Yunon, Baqtriya san’ati an’anasi va o'ziga xos yo'nalishi, shimoliy ko'chmanchi-qabilalar san’ati an’analari o'zida sharq va g'arb madaniyati sinteziga yo'l ocha borgan Ahamoniylar davri san’ati belgilari Hindiston, Pokiston, Afg'oniston madaniyati tarixidagi ko'pgina belgi va o'ziga xosliklari sezilib turishi ko'rilayotgan masalaning naqadar keng va murakkabligini ko'rsatadi. Kushon san’ati va madaniyati keyinroq o'z hududidan tashqariga chiqib ko'pgina boshqa xalqlar va davlatlaming san’at va madaniyatida ta’sirini o'tkazdi. Kushon san’ati o'z rivojida qator xalq va elatlar san’ati ta’sirida yuzaga kelgan bo'lsa ham, lekin uning o'ziga xos, lokal va shu bilan birga boshqalardan ajralib turadigan tomoni mavjudligini qayd etish lozim. Kushon davlati jahon tarixida o'ziga xos tuzumga ega bo'lgan davlatlardan edi. Bu davlat hududida turli din va e’tiqod mavjud bo'lib, san’at va madaniyat mazmuni va yo'nalishida ham o'z aksini topgan. Zaostrizm, moniylik, buddizm va boshqa diniy yo'nalish va e’tiqodlar san’at uslubiy rang-barangligini ham keltirib chiqardi. Me’morlik, tasviriy va amaliy san’at uslub va yo'nalishlari shu davr e’tiqod va qarashlari bilan rivojda bo'ldi. Kushon davridan boshlab O'zbekiston janubiy tomonlarida Budda bilan bog'liq bo'lgan haykallar keng tarqala boshladi. Buddaning inson qiyofasidagi tasviri yuzaga keldi. Grek mifologiyasi bilan bog'liq obrazlar yaratila boshlandi. Ular mahalliy qiyofa va liboslarda tomoshabin ko'z o'ngida gavdalanadi. Monumental rassomlik san’atining namunalari sharq va g'arb badiiy dunyosi sintezi sifatida yuzaga keldi. Shuni qayd etish lozimki, Kushon podshohligi davrida ham, ellin san’ati, ayniqsa, grek san’ati ta’siri sezilarli o'rinni egallagan. O'rta Osiyo, jumladan, yuqorida ko'rib o'tgan O'zbekiston hududining janubiy tomonlaridan grek uslubida ishlangan metall idishlar, ko'za va haykallar topilganligi fikrimiz dalilidir. Kushon davri mafkurasida so'zsiz buddizm dini muhim o'rinni egalladi. U odamlarning turmush tarzi, madaniyati, yashaydigan muhitida o'z aksini topdi.

Tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik xususiyatlarini belgilovchi muhim vosita vazifasini bajardi.

Бақтрия – Жанубий Ўзбекистон, Жанубий Тожикистон ва Шимолий Афғонистон ҳудудларида Амударёнинг юқори оқимида ҳукм сурган, бронза давридан бошлаб илк давлатчилик ва илк цивилизацияга асос солинган ўлка. Қадимги Шарқ ҳудудларидан топилган муҳрлар ясалиш услуби, уларда ифодаланган тасвирларга қараб Месопотамия, Сурия, Анадоли, Бобил, Миср каби мактабларга бўлинади. Сўнгги йилларда археология илмида муҳрларнинг Бақтрия-Марғиёна варианти ҳам пайдо бўлди. Бизнинг ушбу маърузамиз Бақтрия глиптикасига бағишланади.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон-Германия археологик экспедициясининг Жарқўтон ва Тиллабулоқ ёдгорликларида олиб борилаётган илмий изланишлар натижасида Бақтрия глиптикасига оид бой манбалар тўпланди.

Бақтриянинг бронза даври глиптикаси олтин, тош, гипс, бронза, сопол ва ёғочдан ясалган муҳрларда ва туморларда ўз аксини топгпн. Инсониятнинг ички дунёсини, фалсафик қарашларини, мифологик туйғуларини акс эттирган глиптика бошқа моддий маданият манбаларидан кўра кўпроқ маълумотлар беради.

Тарих фанида муҳрларнинг вазифаси ҳақидаги баҳслар ўз ниҳоясига етган масала эмас. Жарқўтондан топилган муҳр изи босилган лой парча бу масалага ечим берди. Муҳрлар шахсий омборхона эшикларини тамғалашда қўлланилган. Ушбу лой парчада(булла) илонлар мажмуаси ифодаланган.

Жарқўтон ёдгорлигидан топилган цилиндр шаклли муҳр Сополли маданиятига оид ягона топилмадир. Ушбу муҳрда бир-бирига симметрик жойлашган иккита тоғ эчкиси ифодаланган. Икки эчки ўртасида илоҳий дарахт, орқа тарафида эса икки барг ва очилиб турган гулдан иборат бўлган ўсимлик тасвирланган. Цилиндр шаклидаги ушбу муҳр шакл бўйича Хараппа маданиятига тегишли. Аммо, унда ифодаланган тасвир маҳаллий анъаналар асосида чизилган. Тоғ эчкиси Бақтрия глиптикасига хосдир. Бу муҳрда икки маданият Бақтрия ва Хараппа маданиятлари симбиозими кузатилади.

Жарқўтондан топилган қора хлорид тошдан ясалган муҳрнинг биринчи томонида ўлжага ташланаётган шер, оёқлари остида эса уч бошли аждар-илоннинг шерга интилиб турган ҳолати ифодаланган.

Иккинчи юзасида ҳўкизнинг оёқлари ва гавдасига интилаётган икки бошли илонга қарши курашаётган ҳолати тасвирланган.

Илонлар ёки аждарнинг ҳайвонлар билан курашаётган манзараси Бақтрия муҳрларида кўплаб учрайди. Ушбу тасвир илдизларини тадқиқотчилар Сурия глиптика мактабидан излайди.

Бақтрия глиптикасида чаён тасвири марказий ўринда туради. Чаён - Месопотамияда уруғ ёки қабила тотеми сифатида ҳам қабул қилинган.

Чаённинг тунда ов қилишини, қуёшдан яшириниб, сояда кун кўришини, инсонларни ўлдириш даражасида заҳарлилигини инобатга олиб «табиатнинг сирли кучлари худо»си деб таъриф берилса, қадимги яждодларимизнинг мифологик қарашларини тўғри англаган бўламиз.

Қанотли одам ва қанотли ҳайвонлар тасвири эллинизмнинг энг хусусиятли белгиларидан бири ҳисобланади. Бақтрия муҳрларида қанотли одамлар бронза даврида тарқалган бўлса, Зардуштийликда Ахурамазда қанотли борлиқ сифатида тасвирланган.

## ***Xulosa:***

O’zbekiston san’ati, ayniqsa uning me’morlik, tasviriy, amaliy bezak san’ati milliy qadriyatlarimiz tizimida alohida o‘rinni egallaydi. Qadim paytlarda paydo bo‘lib rivojlangan bu san’at turlari uzoq evolyutsion taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tib turli davrlarda goh yuksalib, goh inqirozni boshidan kechirib o‘zining bugungi professional ravnaq bosqichiga erishdi. Shu murakkab taraqqiyot yo‘lida yaratilgan betakror me’moriy obidalar, tasviriy va amaliy san’at asarlari bugungi milliy merosimizning xazinasini tashkil etadi. Bunday boy qadimiy an’analarga ega bo‘lgan merosni o‘rganish xalqni o‘z o‘zini anglashga , o‘tmish haqida tasavvurga ega bo‘lish , bugungi o‘zbek va jahon san’ati va ma’naviy rivojidagi o‘zgarishlam chuqurroq tushunish, his etishga xizmat qiladi. o'zbek san’atiga bag'ishlangan kitoblar, ulardagi rasmlar, O'zbekiston va undan tashqarida muzeylarda saqlanayotgan san’at asarlari bilan yaqindan tanishib borish orqaligina san’atning tub mohiyatini undagi go'zallikni ochib boradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**


- N. Abdullayev “O’zbekiston sanati tarixi” T.: 2007
- Hakimov. “Markaziy osiyo xalqlari amaliy san’ati tarixi” T.: 2004
- Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. “ История искусств Узбекистана с древнейших времен до середини XIX века”. М.: 1965
- “O’zbekiston san’ati”. T.: 2001
- “O’zbekiston XX asr avangardi” T.: 2003
- SH. Karimov. “Vatan taixi” 1-qism. T.: 2010


## **1 - mashg'ulot: 2-soat**

## **– KEYS – STADI**

## **O’qitishning keys – texnologiyasi**

### **2.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli**

| Talabalar soni: | Vaqti: 2 soat |
|---|---|

| Mashg`ulot shakli | Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza. |
|---|---|
| Ma’ruza rejasi | 1. Qadimgi davr madaniyati va san’atining o’ziga xos xususiyatlari. Diniy e’tiqodlar, urf – odatlar, axloqiy me’yorlardagi umumiy-likning madaniy umumiylikning shakllanishdagi ahamiyati.<br>2. O’rta Osiyo yaxlit madaniyatini tashkil qiluvchi submadaniyatlar (qadimgi davlatlar( Baqtriya, So’g’d, Xorazm, Farg’ona, Marg’iyona) submadaniyati, sak va massagetlar submadaniyati).<br>3. O'rta Osiyoning Sharq va G'arb madaniyati va san'ati o'rtasidagi vositachilik missiyasi. Madaniyat rivojida zardushtiylik va “Avesto” ning o’rni. |
| Mashg`ulotning maqsadi: O'rta Osiyoda qadimgi davr madaniyati va san'ati haqida tushuncha berish | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * O’rta Osiyo qadimgi madaniyati va san’atining o’ziga xos xususiyatlarisida tushuncha beradi.<br>* Baqtriya, Xorazm va So'g'd madaniyati to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Sharq va G'arb madaniyatini tushuntirib, video proyektor orqali ko'rsatib beradi. | * O’rta Osiyo qadimgi madaniyati va san’atining o’ziga xos xususiyatlarini aytib beradilar.<br>* Baqtriya, Xorazm, so'g'd madaniyati haqida gapirib beradi.<br>* Sharq va g'arb madaniyatining uyg'unlashuvi, madaniyat va san’atning yuksalishi to'g'risida o'z fikrlarini bildiradilar. |
| **O'qitish usullari va texnika** | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| **O'qitish vositalari** | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, skoch, A3 |

| | |
|---|---|
| | formatli qog`oz. |
| **O'qitish shakllari** | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**2.1.2 - Ma’ruzaning texnologik xaritasi**

| **Ish jara yon lari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bos qich. Kursga va mavzu ga kirish. (20 minut) | 1.1. Mavzu doskaga yozilib,mavzu va uning rejalari to'g'risida umumiy tushuncha beradi, hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha o'rganiladigan ,foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi va yozdiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| | 1.3. o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. | Mavzu nomini yozib oladilar. |
| II-bos qich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: | Savollarga javob beradi. |
| | - O’rta Osiyo qadimgi madaniyati va san’atining o’ziga xos xususiyatlari.<br>- Xorazm, So'g'd va Baqtriya davlatlari madaniyati va san'atining rivojlanishi to'g'risida nimalarni bilasiz? | 1-sonli slayd mazmunini o'rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida |

| | | |
|---|---|---|
| | - Sharq va G'arb davlatlari xalqlari madaniyati haqida gapirib bering?<br>- Avestoning O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati taraqqiyotidagi o'rni to'g'risida talabalarga tushuncha berib, ularning fikrini so'raydi, muhokama qiladi, slaydlar orqali namoyish etadi | o'z fikr-mulohazalarini aytadi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriq yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

**2 – mashg'ulot: (2 soat)**

**Reja:**

5. Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga O'rta Osiyo xalqlarining qo'shgan hissasi. Oromiy yozuvi.
6. O'rta Osiyoning yunon makedon qo'shinlari tomonidan bosib olishi. Ellin madaniyati va san'ati elementlarining kirib kelishi.
7. Salavkiylar davri ellin madaniyati va san'ati. Yunon - Baqtriya davlatida yunonlar va mahalliy madaniyat sintezi.
8. Sharq ellin madaniyati va san'atining vujudga kelishi. Me'morchilikda ellin uslubining qo'llanilishi. Haykaltaroshlik san'ati. Teatr san'ati va musiqa. Yunon - Baqtriya yozuvi.

**O`RTA OSIYOGA YUNON MAKIDON QO`SHINLARINING BOSTIRIB KELISHI**

**Ellinizm** — Makedoniya, Yunoniston, O`rta dengizning sharqiy sohillari, G`arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining Aleksandr (Iskandar) istilosi (mil.av. 334—323 yillar)dan mil. av. 30 yilda Misr Rim qo`shinlari tomonidan ishg`ol etilgan paytgacha o`tgan davr. "E." atamasi ilmda dastlab nemis olimi I.G. Droyzenning 1836—43 yillarda chop etilgan 2 jildli "Ellinizm tarixi" asarida qo`llangan va ushbu atama orqali ellinlarning Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi va ular madaniyatining Sharq xalqlari madaniyati bilan uyg`unlashib hosil qilgan yangi madaniyat tushunilgan. Keyinchalik ayrim tadqiqotchilar ellinistik olam hududi va davr doirasini kengaytirib, madaniyati yunonlar ta`sirida shakllangan barcha mamlakat va xalqlarni ko`zda tutadilar. "E." deganda, yunon madaniyati rivojinigina nazarda tutib, yunon madaniyatidan Rim madaniyatiga o`tish davrining o`zi, deb hisoblaydiganlar ham bor.

Mil. av. 336 yilda Makedoniya shohi Aleksandr Yunonistonni zabt etib, yunon, makedon xalqlaridan to`plangan katta qo`shin bilan Sharq mamlakatlariga qarshi urush boshlaydi va ko`p o`tmay Hindistonga qadar cho`zilgan bepoyon o`lkaning yakka hukmdoriga aylanadi. Aleksandr vafot etganda (mil.av. 323 yil), uning davlati tarkibida Bolqon ya.o., Egey dengizidagi orollar, Kichik va G`arbiy Osiyo, Misr, Markaziy Osiyoning bir qismi bor edi. Aleksandr vafot etgach, uning merosxo`rlari o`rtasida hokimiyat uchun kurash borib, mamlakat parchalanib ketgan. Shu tariqa ellinistik davlatlar yuzaga kelgan. Biroq E. davrida bu hududdagi turli mamlakat va viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli pog`onasida bo`lganlar: ba`zilarida quldorlik munosabatlari (Makedoniya), ayrimlarida polis tuzumi tarqalib, qulchilik va qullikning antik shakllari vujudga kelgan (Misr, Salavkiylar davlati). Ko`pgina qabilalar (ayniqsa, ellinistik davlatlarning chegara hududlarida yashaganlar) uchun esa urug`chilikdan sinfiylik jamiyatiga o`tish davri bo`lgan.

E. davri sharqiy mamlakatlar uchun taraqqiyotning yangi bosqichi bo`ldi. Yunonmakedoniyaliklar Sharqqa ishlab chiqarish malakalarini, o`z davlat va huquq me`yorlarini, urf-odat, din va madaniyatlarini olib keldilar, o`z navbatida, Sharqdan o`rgandilar ham. Davlat boshqaruvida qadimiy sharqiy monarxiya usullaridan foydalanildi. Pul va savdosotiq munosabatlari rivojlangan o`lkalar (Mesopotamiya, Suriya, Kichik Osiyo)da polislar ravnaq topdi. Polislar o`zgardi, ya`ni ular mustaqil respublika bo`lmay, ma`lum siyosiy va iqtisodiy imtiyozlarga ega shahar jamoalariga aylandilar.

Yunonlarning qadimiy nomi — "ellinlar" atamasi o`z etnik mazmunini asta-sekin yo`qota borib, makedoniyalik, yunon va mahalliy yuqori tabaqaga mansub kishilarni ifodalaydigan so`zga aylanib qoldi.

Merosxo`r (diadox)lar o`rtasidagi kurashlar mil. av. 3, mil.av. 2-asr boshlarida ham davom etdi. Ptolemeylar imperiyasi, Salavkiylar davlati, hududiy jihatdan ulardan kichik bo`lsa ham, ijtimoiy tuzum jihatidan ularga yaqin bo`lgan Pergam va Kichik Osiyodagi boshqa hukmdorliklar, yunon polislari, ellinistik olamning chekkalaridagi Skiflar podsholigi, Armaniston, Parfiya va boshqalar o`rtasida

tinimsiz urushlar xalq boshiga qo`p ofatlar keltirdi. Shunga qaramay dengiz sohillari bilan mamlakat ichkarisidagi hududlar o`rtasida iqtisodiy aloqa yaxshilana bordi, mahsulot ishlab chiqarish, savdo (xususan, tashqi savdo) rivoj topdi. Shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida yuksaldi (Iskandariya, Rodos o., Antioxiya, Salavkiya, Pergam). Misr, Suriya, Kichik Osiyo, Yunoniston va Makedoniya o`rtasida doimiy dengiz yo`li mavjud edi. Qizil dengiz hamda Fors qo`ltig`i bo`ylab Hindistonga savdo yo`li ochildi. Misr Qora dengiz atroflari Karfagen va Rim bilan savdo aloqasini yo`lga qo`ydi. qadimiy karvon yo`llarida polislar va gavanlar yuzaga keldi. Shu bilan birga, ushbu davr polislar federatsiyasi (ittifoqi)ga ehtiyoj tug`dirdi (bir necha polislar birlashdi). Ammo bu ittifoqlar orasida ham nizolar davom etdi, ijtimoiy qurash kuchaydi. Mil. av. 2—1-asrlarda isyonlar va ozodlik harakatlari jonlandi. Attika, Pergam, Delos o.larida qullar isyoni, Misr va Salavkiyada dehqonlar qo`zg`oloni yuz berdi. Ayni paytda Rimning mavqei osha bordi. U mil.av. 197 yilda Kichik Osiyoni, Egey dengizidagi orollarni va Yunonistonni bosib oddi. Rim E. davlatlarini birinketin ishg`ol etib, mil.

av. 30-y.da Misrni ham qo`lga kiritdi va E. davriga barham berdi.

E. davrida turli xalqlarning madaniyat darajalari har xil bo`lgan bo`lsada, o`ziga xos rivojlanish yuz bergan edi. Ellinistik mamlakatlarda tabiiy fanlar (jumladan, matematika), kemasozlik, harbiy san`at va shaharsozlik rivoj topdi. Dengiz sohillariga ko`pgina mayoqlar qurildi, savdo yo`llari barpo etildi, savdo kemalari ko`proq yuk ko`taradigan va tezroq suzadigan darajaga yetdilar.

Taraqqiyot asosan ilm-fan borasida bo`lib, avvalo, yunonlarning ilk bor Sharq madaniyati bilan yaqindan tanishishlari ularning ongini yana ham kengaytirib, fanning rivojiga kuchli ta`sir ko`rsatdi. Shu davrda ijod qilgan olimlardan Evklid, Arximed — matematikani; Aristarx, Gipparx — astronomiyani; Eratosfen — geografiyani yuksak darajaga ko`tarib, jahon ilmining kelgusi taraqqiyotiga yo`l ochdilar. Olimlar, shoirlar va san`at ahlining ishlari uchun qulay sharoit tug`dirish maqsadida Misrning dastlabki Ptolemey xoqonlari Iskandariya shahrida hozirgi fanlar akademiyasiga o`xshash muassasa — "muzey", ya`ni muzalar koshonasi ochadilar. Yunonistonning turli yerlaridan chaqirilgan olimlar muzey darsxonalarida ma`ruzalar o`qiydilar, lab.larda har xil tajriba ishlari o`tkazadilar. Muzey qoshida maxsus kutubxona bo`lgan. Mil. av. 3-asrning o`rtalarida muzey qiroatxonalarida yarim mln.ga yaqin papirus o`ramlari saqlangan. 2-asrning boshlarida tashkil etilgan Pergam kutubxonasining fondi Iskandariyanikidan qolishmas edi. Iqtisodiy raqobat tufayli, Ptolemeylar hukumati Misrdan Pergamga papirus chiqarishni taqiqlab qo`yishganida, pergamliklar teridan ishlangan va "pergament" deb ataluvchi maxsus yozuv materiali kashf qildilar. Olimlar esa muzeylarda badiiy asarlarning faqat matnini tekshirish, ya`ni ularning to`g`riligini aniqlash, xatolarini tuzatish, boshqalar tomonidan kiritilgan qo`shimchalarni chiqarib tashlash va h.k. ishlar bilan shug`ullanganlar. Shu tariqa E. davrida

adabiyotshunoslik — filol. ilmi yuzaga keldi. Iskandariya filologlari, asosan, Gomer asarlarini o`rganganlar.

**ELLIN MADANIYATI**

E. davrida ilm-fan, ma`rifat, madaniyat, san`at va adabiyot tamomila ellin hukmdorlari tasarrufida bo`lgan. Iskandariya muzeyining xodimlari davlatdan maosh olganlar, maxsus binolarda yashaganlar, kutubxona rahbarlari esa podshohlarning valiahdlariga tarbiyachi bo`lganlar. E. davrida keng yoyilgan falsafiy ta`limotlar Misr hukmdorlarining manfaatlariga zid bo`lganligi bois Iskandariya muzeylarida falsafa bilan shug`ullanish taqiqlangan. Binobarin, Afina shahri yunon olamining falsafa markazi bo`lib qolgan va yangidanyangi ta`limotlar shu yerda yuzaga kelib, keyin boshqa tomonlarga tarqalgan.

E. falsafasi bu davr uchun muhim omildir. Yunon olamida boshlangan ijtimoiy o`zgarishlar natijasida tug`ilgan siyosiy loqaydlik, beparvolik va umidsizlik kayfiyatlari birmuncha falsafiy ta`limotlarning kelib chiqishiga sabab bo`ldi. Mazkur oqimlarning eng muhimlari — epikurchilar, stoiklar va kiniklar falsafasidir.

Epikur (mil.av. 344—270) o`z ta`limotida Demokritning atom nazariyasini yanada takomillashtirib, axloq masalalariga doir ma`naviy xulosalar chiqargan. Uningcha, modomiki, butun koinot, hatto odamning ruhi ham atomlardan iborat ekan, tabiatda hech qanday g`ayritabiiy hodisalarning bo`lishi mumkin emas. U turli bid`atlarni rad etadi. Koinot haqidagi noto`g`ri tushunchalar odamni har doim qo`rquv va tahlikaga solib, uning osuda hayot kechirishiga xalaqit qiladi. Bo`lmag`ur xavfxatarlardan qutulmas ekan, inson hayotning lazzatlarini his etmaydi, rohatni bilmaydi. Vaholanki, yashashning chin ma`nosi — hayot gashtini surmoqdir. Biroq har bir odam haqiqiy rohatni tashqi olamdan emas, balki o`z ichki dunyosidan, ruhiy erkinlikdan va dilning osoyishtaligidan axtarmog`i kerak.

Stoiklar falsafasi ham ko`p jihatdan Epikur fikrlariga yaqin. Bu oqimga asos solgan Zenon (mil.av. 335—253) o`zining mashg`ulotlarini Afinadagi peshayvon taxlit binoda o`tkazgan. Shuning uchun yunoncha "stoya" (peshayvon) so`zi keyinchalik ushbu oqimga nisbat berilgan. Epikurchilar ruhiy osoyishtalik prinsiplarini targ`ib qilgan bo`lsalar, stoiklar shafqat, saxovat g`oyalarini targ`ib qilganlar. Ularning fikricha, odam bolasi ehtiroslarning ta`sirini yengib, taqdirning izmi, tabiat qonunlari asosida ma`naviy erkin hayot kechirmog`i lozim.

Mil.av. 4-asrda Suqrotning shogirdi Antisfen tomonidan yaratilgan kiniklar falsafasi, shu ta`limot tarafdorlarining mashg`uloti o`tadigan joy — "kinosagers" nomi bilan yuritiladi. Ular jamiyatdagi barcha rasmiy taomillarni, hatto axloqodob qoidalarini inkor qilib, insonni tabiiy holatga qaytishga va soxta udumlarni tashlab, oddiy hayot kechirishga chaqiradilar.

Ular o`z ta`limotlarini epikurchilarning betashvish umr kechirish g`oyalariga qarshi qo`yib, qashshoqlik va gadolikning afzalligini targ`ib etadilar. Kiniklarning bu xildagi "qashshoqlik falsafasi" hukmron tabaqaning barcha an`analariga qarshi qaratilgan isyon edi. Iqtisodiy manfaatdan, ijtimoiy vazifalardan kechib, har qanday rasmiyatchiliqdan xalos bo`lgan va shaxsiy erkinlikni yo`qotmagan holda yaxshi yashashni targ`ib etish orqali ular xususiy mulkni, quldorlikni, diniy tushunchalarni, nikoh tartiblarini va boshqalar usulu qoidalarini inkor etadilar va shu yo`sinda a`yonlarning barcha ma`naviy madaniyatlariga va rasmiy hayotlariga nafrat bilan qaraganliklarini namoyish qilganlar.

Adabiyot va san`at saroyga, ellinistik jamiyatning yuqori tabaqalari manfaatlariga xizmat qildirilgan. Antik adabiyotda, xususan, dramaturgiyada muhim o`rin tutadigan ijtimoiysiyosiy va axloqiy mavzular E. adabiyotida sayozlasha borib, ilgarigi jangovar ruhini yo`qotib, torintim doiraga tushib qolgan. Maishiyoilaviy, ishqiy kechinmalar haqidagi asarlar yozish odat tusiga kirgan. Biroq Afinaning o`zidagi adabiyot ("yangi attika komediyasi" deb ataluvchi yo`nalish) bundan istisno edi. Bu davrning jahon adabiyotiga qo`shgan muhim hissasi ham "yangi komediya"dir. Bu ibora adabiy iste`molga eski zamonlarda kiritilgan bo`lib, E. davrida paydo bo`lgan komediyaning yangi turini attika davridagi "qadimgi" komediyadan hamda 4-asrdagi "o`rta" komediyadan ajratish maqsadida ishlatilgan. Evripid tomonidan dramaturgiyaga kiritilgan qator yangiliklar va "o`rta" komediyaning ijodiy usullari yangi oqimning shakllanishi va taraqqiy etishida adabiy maktab vazifasini bajardi. E. olamida "yangi komediya" qariyb 200 yil (mil. av. 4-asrning 2-yarmi — 2-asrning 1-yarmi) umr ko`rdi. Bu janrda ijod qilgan shoirlarning soni 160 dan ortiq bo`lgan. Ulardan Filemon (taxm. 361— 263), Difil (taxm. 350263) va Menandrning (taxm. 343—292) nomi alohida ta`kidlanadi. Menandr o`zining ba`zi dramalarida ("Hakam sudi", "Qirqilgan soch") davrning dolzarb masalalarini, psixologik jarayonlarni qo`rsatishga intilgan.

E. davridagi komediyanavis shoirlarning bizga qadar yetib kelgan asarlarida (ularning ko`pchiligi tomoshabinga manzur bo`lishi uchun) asosiy e`tibor komediyaning tashqi ta`sirchanligini oshirishga qaratilgan. Ayrimlarida hayotda bo`lmaydigan sun`iy hodisalar, yasama voqealar, uyatli gaplar, beo`xshov masxarabozliklar bilan kuldirishga harakat qilingan lavhalarni kuzatish mumkin.

E. davri she`riyatida, asosan, kichik hajmdagi adabiy asarlar: epilliya, elegiya, epigramma va idilliyalar avj oldi. Katta shaharlarning jonsarak shovqinsuronidan, ig`vo va fitnalaridan tinkasi qurigan inson hayotning g`alvalaridan bosh olib tabiat quchog`iga ketishni, oddiy dehqonlar, soddadil cho`ponlar singari osuda hayot kechirishni orzu qilganligi natijasida yangi poetik janr — idilliya va bukolika, ya`ni cho`pon poeziyasi yuzaga keldi.

Kamimax (taxm. mil.av. 310—240) davr adabiyotining ko`zga ko`ringan vakillaridan biri bo`lib, uning 800 dan ortiq ilmiy va badiiy asarlari borligi

haqida ma`lumot yetib kelgan. "Jadvallar" nomli bibliografik asari 120 jilddan iborat bo`lib, bu tazkirasifat asarida yozuvchi o`zidan avval o`tgan olimlar va yozuvchilar haqida qisqacha ma`lumotlarni jamlagan. Uning epigrammalari ham aniq, o`tkir va qisqa yozilgan. To`rt kitobdan iborat va elegiya janrida yozilgan "Sabablar" dostoni mifologiyaga oid asardir. Kallimaxning Attis (Kichik Osiyo xalkdarida tabiat xudosi) haqidagi epilliyasi, ma`budlar (Zevs, Apollon, Artemida)ni maqtovchi madhiyalari ham bor. Dostonlar yozgan Rodoslik Appoloniy (taxm. 295—215) "Argonavtika" dostoni bilan bu janrni davom ettirdi. U bu asarida mifologik obrazlarga ko`proq e`tibor bergan. Kichik hajmdagi nazmiy asarlari bilan tanilgan Feokritning (taxm. 300—250) qalamiga mansub "Idilliyalar" to`plamida 30 she`r va 25 epigramma mavjud. Bu asarda shoir mazmun jihatdan rangbarang asarlar yaratgan va unda asosiy o`rinni sokin tabiat qo`ynidagi hayotni tasvirlovchi asarlar — "bukolika" (cho`ponlar qo`shig`i)lar egallagan.

Davr nasrida folklor an`analari ustunlik qiladi. Shunga qaramay, insonning ruhiy dunyosini va maishiy hayotini tasvirlashda ma`lum yutuqlarga erishilgan. Bu esa keyingi yunon va Rim nazmi va romanchiligiga samarali ta`sir ko`rsatgan.

E. davri qadimiy Yunon va qadimiy Sharqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarining qo`shilish va birbiriga ta`sir ko`rsatish davridir, bu davrda madaniyat va san`atda ham an`analar qo`shilib bordi, uyg`unlikda rivojlandi. Davr ruhi va xususiyatlari, ayniqsa, me`morlik va monumental san`atda o`zining yorqin ifodasini topdi. Hukmdorlar o`zlarining saltanatlarini muhtasham binolar, ajoyib san`at namunalari bilan boyitishga harakat qildi. Yangi shaharlar paydo bo`ldi (Pergam, Iskandariya kabi), ular ulug`vorlikda va serhashamlilikda Afinani ortda qoldirdi. Shaharlar, inshootlar ansambl tarzida bunyod etildi, ko`chalar, maydonlar, binolar haykaltaroshlik asarlari bilan bezatildi, uylar mozaika, devoriy rasm, haykaltaroshlik asarlari bilan ko`rkamlashtirildi. Bog`chorbog` bilan bog`liq bezak haykaltaroshligi keng tarqaldi, yangi inshoot turlari — kutubxona, museyonlar paydo bo`ldi [Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasi, Aleksandriya (Iskandariya) museyoni va boshqalar], bunyod etilgan ibodatxona, altar, memorial inshoot turlarida Sharq san`atining kuchli ta`siri o`z aksini topdi (Pergamdagi Zevs altari va boshqalar).

E. tasviriy san`atida yunon klassikasi bilan mahalliy madaniyat elementlarining uzviy qo`shilishi kuzatiladi; san`at asarlarida fuqarolik ruhi o`rnini hukmdorning harbiy g`alabalarini tarannum etish, umumlashma obrazlar o`rnini yagona shaxsni ulug`lovchi, uning ruhiyatini ifodalovchi asarlar yaratish egallaydi, bezakdorlik bilan birga voqelikni haqqoniy aks ettirish kuchayadi. Monumental haykaltaroshlik (ulutvor bo`rtma kompozitsiyalar yaratish) keng taraqqiy etdi (Zevs mehrobidagi friz), haykaltaroshlik kompozitsiyalari ("Laokoon va uning o`g`illari", "Farnez buqasi" va boshqalar) va portretlari (kichik shakllar haykaltaroshligi)da obrazlarning hayotiyligi ortdi ("O`zi va qallig`ini o`ldirayotgan gall", "O`layotgan gall", shuningdek, Tanagra haykalchalari).

Rangtasvirda ko`p shaklli komggozitsiyalar tarqaldi. Misrda rassomlik ham rivojlangani, adabiy manbalarda Apelles, Antifil kabi rassomlar samarali ijod qilgani to`g`risida ma`lumotlar bor. E.ga xos umumiy xususiyatlar vaza rassomligi, gliptika, torevtika, badiiy shisha idishlarda ham quzatiladi.

E. numizmatika san`atida yaqqol ko`zga tashlanadi. Markaziy Osiyoga bo`rtma tasvirli tangalarning kirib kelishi salavkiylar sulolasi nomi bilan bog`liq. O`rta Osiyoda ishlangan tangalarda portretlar tashqi ko`rinishi bilan birga, shaxsning fe`latvorini ham haqqoniy tasvirlab, yunon bo`rtma tasvirlaridan o`tib ketdi, "o`rta osiyocha" mo``jaz portret san`ati rivojlandi. Demetriy tasviri tushirilgan tangada uning xarakteri va mavqei fil shakli bo`lgan bosh kiyimda tasvirlanadi (bu uning Hindistonni zabt etganiga ishoradir). E. davrida O`zbekistonda mahobatli haykallar ham ishlanganligi ma`lum. Jumladan, Artemida Anaxita siymosida mujassamlashgan. Uning oltindan ishlangan haykallarida boshida nur sochib turgan toji bo`lgan, bunday haykallar Baqtriyaning bosh ibodatxonasiga o`rnatilgan. Bunday nur taratib turgan toj Demetriy tangalaridagi bo`rtma tasvirlarda ham uchraydi.

Zardushtiylik dinining yunonlarga ta`siri qadim davrlarda kuchli bo`lganidek, E. davrida ham bu ta`sir sezilarli edi. Kommagen podshohi Antioxning (mil.av.1-asr) toshga o`yilgan yozuvida "Zevs" va Oramazdning osmon taxtlari" deyilgan. Bu esa zardushtiylik ma`budi Ahuramazda yunonlarning bosh xudosi Zevs bilan bir darajaga qo`yilganligini biddiradi. E. davrida, ayniqsa, zardushtiylik ta`limoti katta rol o`ynadi. Dastavval ahdga sodiqlik, keyinchalik haqiqat uchun kurashuvchilar tomonida jang qiluvchi urush xudosi, buyuk hakam va nihoyat, yorug`lik xudosi Mitra ellinistik mamlakatlarda keng tarqaldi. Bu ma`bud hindlarda "Mitra", Avestoda "Misra", sug`dlarda "Mishra" deyilgan: Avesto tilidagi "r" tovushi sug`d tilida "sh"ga aylangan, natijada "Missha" shakli paydo bo`lib, keyinchalik "Misra" shaklini olgan. Persopoldagi qoyatosh yozuvida ham Mitra "Mishra" shaklida berilgan. qadimiy yunon adabiyotida Mitra dastavval Gerodot "Tarix"ining 1-kitobida tilga olingan.

### ELLIN MADANIYATINING `RTA OSIYOGA KO`RSATGAN TA`SIRI

Mil.av. 4-asrdan Markaziy Osiyo xalqlari tarixida yangi davr boshlangan. Hindistondan Yevropagacha, Yevropadan Misrgacha bo`lgan hududni o`z ichiga olgan ellinistik davlatlarning iqgisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotida Markaziy Osiyo xalklari ham ishtirok etadilar. Shu tariqa, E. davri Sharq va yunon xalqlari madaniyati, adabiyotlarining o`zaro boyishi jarayonining oliy cho`qqisi bo`ldi. E. Aleksandr bosib olgan yurtlardagi xalqlar hayotining turli sohalari — iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiymadaniy hayotidagi katta o`zgarishlarga olib kelib, ellinistik madaniyatning ravnaq topishi va keng tarqalishiga zamin hozirlagan. Osiyo va Yevropaning hamma mintaqalarida E. bir tekisda rivoj topmagan. Ammo ellinistik davlatlar inqirozga uchragandan so`ng bir necha asrlar o`tgandan keyin ham ellinistik madaniyat san`at va adabiyotda davom etib kelgan.

Iskandar boshliq yunon-makedoniyaliklar istilosidan keyingi 300 yillik davr Ellin davlatlari tarixi bilan chambarchas bog`liqdir. Ellin davlatlari tarkibiga Yunoniston, Makedoniya, Misr, Eron, Turonning janubiy viloyatlari va O`rta yer dengizining sharqidagi mamlakatlar kirgan. Bu davlatlar Iskandar vafotidan boshlab miloddan avvalgi 30-yillarga qadar umr ko`rgan. «Ellinizm» atamasini bundan 130 yilcha oldin nemis tarixchisi I. Drayzen ishlatgan edi. Bu davr qadimgi yunon va qadimgi sharq iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning qo`shilib isitishi va bir-biriga ta'sir ko`rsatishi davridir. Turon o`lkasidagi janubiy viloyatlarga ham ellin madaniyati kuchli ta'sir etgan. Ayni paytda o`lkamizning qadimgi madaniyati ham ellin madaniyatiga barakali ta'sir ko`rsatgan. Yuqorida ta'kidlab o`tilganidek, Iskandar vafotidan keyin u istilo etgan o`lkalarda Ptolemeylar, Salavkiylar, yunon-Baqtriya, Pergam podsholiklari, Makedoniya va Yunoniston kabi davlatlar qaror topadi.

Iskandar vafotidan so`ng Misrda Ptolemey va ptolemeylar boshqargan kuchli ellin davlati qaror topadi. Ptolemey Iskandarning mashhur lashkarboshlaridan biri edi. Shuning uchun davlatning nomi ham Ptolemeylar podsholigi deyilgan. Bu podsholikka Afrika shimolidagi Kirenaika, Kipr oroli, Janubiy Suriya, Finikiya, Kichik Osiyoning janubiy va g`arbiy sohilidagi joylar, yunon shaharlari va Egey dengizidagi ayrim orollar ham kirgan. Bu o`lkalar o`z mahalliy boshqarmasini saqlab qolgan bo`lsalar ham ptolemey tayin etgan noiblarning nazorati ostida ish olib borganlar. Ptolemeylar quruqlikda hamda dengizda kuchli qo`shinga ega bo`lib, quruqlik va dengizdagi yo`llarni nazorat qilib turganlar. Ptolemeylar podsholigi salavkiylar bilan olib borilgan tinimsiz urushlar natijasida kuchsizlanib qolgan. Miloddan avvalgi 30 yilda ptolemeylar mulki hisoblangan Misr Rimga qo`shib olingach, podsholik o`z mustaqilligini yo`qotgan. Salavkiylar davlati Yaqin va O`rta Sharqdagi eng yirik ellin davlati edi. Unga Iskandar tuzgan davlat inqirozga uchragach, Bobur satrapligining hukmdori Salavka I Nikator (350-280) tomonidan asos solingan. U ham Iskandarning do`sti va sarkardalaridan biri edi. Salavka va Salavkiylar davlati kuchaygan vaqtda Persida, Midiya, Suriya va Kichik Osiyoning katta qismi podsholik tarkibiga kirgan. Saltanat boshida podsho turib, joylardagi satrapliklarni strateglar boshqarganlar. Salavkiylar podsholigi o`sha davrdagi eng kuchli quldorlik davlati edi. So`nggi salavkiylar davrida bu davlat kuchsizlanib, miloddan avvalgi 190 yilda rimliklar bilan bo`lgan urushda yengilib, ko`p viloyatlaridan ajraladi. Rim imperiyasi kuchaygach, miloddan avvalgi 64 yilda Salavkiylar podsholigining g`arbiy qismini o`z viloyatiga aylantiradi. Salavkiylar podsholigi kuchaygan vaqtda uning xo`jaligi ancha rivojlanadi. Daryo va soy bo`ylaridagi yerlarda dehqonchilik, bog`dorchilik, dasht va tog` yaylovlarida esa chorvachilik ancha taraqqiy etgan. Salavkiylar podsholigining kuchaygan davrida sharqdan g`arbga va shimoldan janubga o`tadigan savdo-tijorat yo`llari podsholikka qarar edi. Shuning uchun bu yerda savdo rivoj topib, shahar va qishloqlarda hunarmandchilik ravnaq topadi.

Miloddan avvalgi III asrning birinchi yarmida Salavkiylar podsholigining sharqiy viloyatlari podsholikka itoat etishni istamay, unga qarshi qo`zg`olon ko`taradilar. Bundan foydalangan ayrim yunon noiblari mahalliy oqsuyak zodagonlarga tayanib, o`zlarini mustaqil podsho deb e'lon qiladilar. Xususan, salavkiylarning Baqtriyadagi noibi Deodod I miloddan avvalgi 250 yilda o`zini Baqtriya podshosi deb e'lon qiladi. Davlat ishlariga mahalliy kishilar ham jalb qilinadi. Shuning uchun bu davlat bu davlat Yunon-Baqtriya nomi bilan atalgan. Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga Baqtriya, So`g`diyona, Marg`iyona, Choch, Davon, Sharqiy Eron ham kirgan edi. Podsholikning bosh shahri va poytaxti Zariasp edi. Yunon-Baqtriya podshosi Deodod I Parfiyani o`z podsholigiga qo`shib olish maqsadida Salavka podshosi bilan ittifoq ham tuzgan. Ammo bu ittifoq kutilgan natijani bermagan. Keyinchalik Parfiyaning kuch-qudrati oshib ketgach, Deodod I ning o`g`li Deodod II Parfiya shohi Arshak II bilan ittifoq tuzib salavkiylarga qarshi kurash olib borgan. Deodod I va Deodod II lar davrida Yunon-Baqtriya davlati ancha kuchayadi. Ilgari Baqtriyaga tobe bo`lgan So`g`diyona noibi Yevtidem I ham Yunon-Baqtriya podsholigini qo`lga kiritish niyatida edi. Miloddan avvalgi 230 yilda Yevtidem I Deodod II ni Yunon-Baqtriya taxtidan ag`darib, taxtni o`zi egallaydi. Miloddan avvalgi 208-206 yillarda Salavka podshosi Antiox III Turon va Sharqiy Erondagi satrapliklarni qaytarib olish uchun shiddatli kurash olib boradi. Miloddan avvalgi 208 yili Antiox III qo`shinlari Tajan (Oh) daryosining quyi oqimidagi joyda Yevtidem I ning o`n ming kishidan ortiq qo`shinini mag`lubiyatga uchratadi. Yevtidem I chekinib Zariasp qal'asiga yashirinadi va uni qattiq himoya qiladi. Antiox III qo`shinlari qal'ani 2 yil qamal qiladilar. Miloddan avvalgi 206 yilda Antiox III bilan Yevtidem I o`rtasida sulh shartnomasi tuziladi. Antiox III Yevtidem I ning shohligini tan olishga majbur bo`ladi. Yevtidem I va uning o`g`li Demetriy davrida Yunon-Baqtriya podsholigi kuchayadi. Yunon-Baqtriya podsholari o`z tasvirlari tushirilgan oltin va kumush tangalar zarb etganlar. Miloddan avvalgi 190-180 yillarda Seyistondan Sind daryosigacha bo`lgan joylar Yunon-Baqtriya podosholigiga qo`shib olinadi. Miloddan avvalgi 175 yilda Demetriy Hindistonda jang olib borayotgan vaqtda uning sarkardasi Yevkradit qo`zg`olon ko`tarib, Yunon-Baqtriya taxtini egallaydi. Demetriy hokimiyatini qaytarib olish uchun bo`lgan janglarning birida halok bo`ladi. Shundan keyin bir butun Yunon-Baqtriya podsholigi ikkiga bo`linib ketadi. Birinchisi g`arbiy viloyatlarni o`z ichiga olgan Yunon-Baqtriya davlati bo`lib, uni Yevkraditning vorislari boshqaradilar. Ikkinchisi poytaxti Sakala bo`lgan Yunon-Hind davlati bo`lib, u Panjob viloyatini o`z ichiga olgan. Uni Demetriy va uning vorislari boshqarganlar. Miloddan avvalgi 162 yilda Yevkradit qo`shinlari Panjobni bosib oladilar. Ammo ko`p o`tmay Yunon-Hind shohi Menandr Yevkradit qo`shinlarining hujumini qaytaradi.
Shu davrda Parfiya podshosi Mitridat I Yunon-Baqtriyaning g`arbiy viloyatlarini bosib oladi. Miloddan avvalgi 160 yilda Yevkradit bilan o`g`li Geleokl o`rtasida nizo chiqib, Yevkradit o`z o`g`li tomonidan o`ldiriladi. Geleokl davrida Yunon-

Baqtriya podsholigi kuchsizlanib, uning ixtiyorida faqat Baqtriyagina qoladi. Miloddan avvalgi 140-130 yillarda Sharqiy Turkiston va Turondan bostirib kirgan sak qabilalari va yuz-chjilarning shiddatli hujumlari natijasida Yunon-Baqtriya davlati ag`darib tashlanadi. Keyinchalik bu yerda Kushon podsholigi tashkil topadi. Shu tariqa 200 yilcha davom etgan Yunon-Makedoniya hukmronligiga barham beriladi. Yunon-Baqtriya davlati Turon va Eron xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta ahamiyatga egadir. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida quldorlik rivoj topib, shahar va qishloqlar ancha yuksaladi. Bu yerda qishloq xo`jaligi va chorvachilik ham ancha ravnaq topadi. Hunarmandchilik, zargarlik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, me'morchilik, to`qimachilik ham juda yaxshi rivojlanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Yunon-Baqtriya podsholigi Turon, Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlar bilan qizg`in savdo-sotiq ishlarini olib boradi. Bu davrda mahalliy xalqlar bilan yunonlar madaniyatining o`zaro ta'siri natijasida o`lkada ellin madaniyati qaror topib rivojlanadi. Ellinizm davri madaniyati murakkab va xilma-xil edi. Bu davrda ayrim mamlakatlar o`rtasida o`zaro aloqalar kuchaydi, ko`plab harbiy yurishlar natijasida Sharq bilan tanishish yunonlar va makedonlarning bilim doirasini kengaytirdi. Ellin madaniyati uchun harakterli narsa uni yunoncha tus olganligida edi. Hukmron sinf va aslzodalar orasida umumyunon tili koyne («umumiy» demakdir) keng tarqaldi. Koyne bilan birga mahalliy tillardan ham foydalanish davom etgan. Miloddan avvalgi IV asrda yunonlar orasida «Kosmopolitizm» («dunyo fuqaroligi») dunyo qarashi shakllandi. O`zi tug`ilib o`sgan yurtidan o`zga joylarda yurgan kishilar uchun boshqa kishilar madadiga ishonmay faqat o`zigagina ishonish kayfiyati asosida individualizm, istiqbolga umidsizlik bilan qarash psixologiyasi asosida esa fatalizm dunyo qarashlari shakllandi.

Bu zamonda texnika ancha rivojlandi. Sharq va yunon tajribasining o`zaro ta'siri natijasida texnika sohasidagi yutuqlar yanada boyidi. Arximed Misr charxpalagini takomillashtirib, «Arximed parragi» ni yaratdi. Harbiy sohada ham tosh otar to`plar yaratilgan. Qal'alarni qamal qilish uchun esa maxsus g`ildiraklar ustida o`rnatilgan harakatlanuvchi minoralar gelepolalar – «shahar olarlar» ixtiro qilingan. Dengizchilikda musson shamollaridan foydalanib, uzoq safarlarga chiqish boshlangan. Miloddan avvalgi II asrda Yunon Gippal Hindistonga borish uchun kema safariga chiqib, musson shamollaridan foydalandi. Portlarda mayoqlar, omborlar va boshqa binolar qurildi.Arxitekturada ham muayyan o`zgarishlar bo`ldi . Klassik davrda yunon arxitekturasida asosiy bino **Peripter** – ibodatxona bo`lsa, endilikda asosiy bino **Peristel** – xususiy uy bo`lgan. Shaharlar odatda reja asosida quriladigan bo`lgan. Quldorlik jamiyati sharoitida arzon mushak kuchlarining mavjudligi ishlab chiqarishda mexanik vositalarni, mexanik dvigatellarni ishlatish yo`llarini qidirishni susaytirib qo`yar edi. Miloddan avvalgi I asrda Pont podsholigida ixtiro qilingan suv tegirmoni butun ellinizm davrining eng katta texnik yutug`i edi. Fan sohasida ham bu zamonda

ajoyib yutuqlar qo`lga kiritildi. Poytaxtlarda ilmiy markazlar va kutubxonalar vujudga keldi. Iskandariya, Pergam, Antioxiya, Afina eng yirik ilmiy markazlar edi. Iskandariya kutubxonasida 700 ming popirus o`ramidan iborat boy kitoblar fondi bor edi. Saroy qoshida kutubxonadan tashqari Museyon – ilmiy muassasa ham tashkil qilinib, unda olimlar uchun yotoqxona ham bor edi. Falsafada stoiklar va epikurchilar oqimlari yuzaga keldi. Stoiklarning asoschisi Zenon (miloddan avvalgi IV-III a.) Afina agorasida naqshin peshayvon stoya ostida va'z aytib ta'lim berganligi uchun shunday nomlangan. Ularning fikricha hamma narsa – fikr, so`z, olov ... hammasi jismdir. Butun olam uzluksiz yonib, turadigan olovdir, deydi ular.
Epikur (miloddan avvalgi IV-III a.) ta'limoti asosida uning izdoshlari epikurchilar deyilgan. Ular Zenoncha qarama-qarshi o`laroq olamning tuzilishini Demokritning atom nazariyasiga asosan izohlaydilar.

***ADABIYOTLAR:***


1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998 y.
2. Asqarov A. 0'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha)
3. Asqarov A. O'zbekiston xalqlaji tarixi. I - jild. T. 1992 y.
4. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., 0'qituvchi» , 1991 y.
5. Karimov SH.. SHamsiddinov R. Vatan tarixi. T.1997 y,. 6.Kvint Kurtsiy Ruf. Istoriya A. Makedonskogo.M. 1963 g.
6. *www.pedagog.uz*


**2 - mashg'ulot: 2-soat**

**– KEYS – STADI**

**O’qitishning keys – texnologiyasi**

**2.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli**

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga O'rta Osiyo xalqlarining qo'shgan hissasi. Oromiy yozuvi.<br>2. O'rta Osiyoning yunon makedon qo'shinlari tomonidan bosib olishi. |

| | |
|---|---|
| | Ellin madaniyati va san'ati elementlarining kirib kelishi.<br>3. Salavkiylar davri ellin madaniyati va san'ati. Yunon - Baqtriya davlatida yunonlar va mahalliy madaniyat sintezi.<br>4. Sharq ellin madaniyati va san'atining vujudga kelishi. Me'morchilikda ellin uslubining qo'llanilishi. Haykaltaroshlik san'ati. Teatr san'ati va musiqa. Yunon - Baqtriya yozuvi |
| Mashg`ulotning maqsadi: O'rta Osiyoda qadimgi davr madaniyati va san'ati haqida tushuncha berish | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * O’rta Osiyo qadimgi madaniyati va san’atining o’ziga xos xususiyatlarisida tushuncha beradi.<br>* Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga O’rta Osiyo xalqlarining qo’shgan hissasi to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Salavkiylar davri bmadaniyati va san'ati,Ellin madaniyati va san'atining kirib kelishi to'g'risida gapirib beradi, video proyektor orqali ko'rsatib beradi.<br>* Sharq ellin madaniyati va san'atining vujudga kelishi. Me'morchilikda ellin uslubining qo'llanilishi. Haykaltaroshlik san'ati. Teatr san'ati va musiqa. Yunon - Baqtriya yozuvi haqida gapirib, uning madaniyati va san’ati taraqqiyotidagi o’rnini izohlab, tushuntirib beradi. | * O’rta Osiyo qadimgi madaniyati va san’atining o’ziga xos xususiyatlarini aytib beradilar.<br>* Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga O’rta Osiyo xalqlarining qo’shgan hissasi to'g'risida gapirib beradi.<br>* Salavkiylar davri bmadaniyati va san'ati,Ellin madaniyati va san'atining kirib kelishi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar.<br>* Sharq ellin madaniyati va san'atining vujudga kelishi. Me'morchilikda ellin uslubining qo'llanilishi. Haykaltaroshlik san'ati. Teatr san'ati va musiqa. Yunon - Baqtriya yozuvi Sharq ellin madaniyati va san'atining vujudga kelishi. Me'morchilikda ellin uslubining qo'llanilishi. Haykaltaroshlik san'ati. Teatr san'ati va musiqa. Yunon - Baqtriya yozuvi, ularning O’rta Osiyo xalqlari madaniyati va san’ati taraqqiyotidagi o’rnini o'rganib, |

| | |
|---|---|
| | gapirib beradi. |
| **O'qitish usullari va texnika** | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| **O'qitish vositalari** | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| **O'qitish shakllari** | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 2.2 - Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jara yon lari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. Mavzu doskaga yozilib,mavzu va uning rejalari to'g'risida umumiy tushuncha beradi, hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha o'rganiladigan ,foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi va yozdiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| | 1.3. o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. | Mavzu nomini yozib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| II-bos qich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: | Savollarga javob beradi. |
| | - O'rta Osiyo qadimgi madaniyati va san'atining o'ziga xos xususiyatlari.<br>- Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga O'rta Osiyo xalqlarining qo'shgan hissasi.<br>- Sharq ellin madaniyati va san'atining vujudga kelishi. Me'morchilikda ellin uslubining qo'llanilishi. Haykaltaroshlik san'ati. Teatr san'ati va musiqa. Yunon - Baqtriya yozuvi to'g'risida talabalarga tushuncha berib, ularning fikrini so'raydi, muhokama qiladi, slaydlar orqali namoyish etadi | 1-sonli slayd mazmunini o'rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini aytadi. |
| III-bos qich. Yakuniy bos qich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

## 3 - mashg'ulot: 2 - soat

## Reja:

1. Xorazm madaniyati. Kushonlar davrida madaniyat va san'atning yuksalishi.
2. Oromiy yozuvi asosida kushon - baqtriya alfaviti, so'g'd va xorazm yozuvlarining rivojlanishi.
3. Buyuk ipak yo'lining O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati taraqqiyotidagi o'rni.

Qadimgi Turon diyorida zamonasining buyuk davlatlaridan Qang' davlati va Kushon podsholigi ravnaq topgan davrda yuksalish boshlangan edi. Bu siljishlar albatta mamlakat aholisining ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida rauhim o'zgarishlarga olib keldi. Shaharlarning soni ko'paydi va hududi kengaydi, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi. Vohalarda yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig'ir va charxparraklar kabi suv inshootlari kashf etildi. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etildi. Ziroatchilikda g'allakprlik, sholikorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog'dorchilik maydonlari kengaydi.

**«Charxpalak» — sug'orish inshootl**

Ekin maydonlarini sug'orish va ishlov berishdagi asriy tajribalari tufayli aholi dehqonchilikdan mo'l hosil oladigan bo'ldi. Shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj topishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Natijada mamlakatning iqtisodiy hayotida xomashyo yetkazuvchi qishloqlarning nufuzi ko'tarildi. Bir tomondan, yerga, ziroatkor maydonlarga bo'lgan munosabat, ularga egalik qilish shakli asta-sekin o'zgara boshladi. Ikkinchi tomondan esa, o'troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi aloqalar rivojlandi. Mamlakatning dasht va tog'oldi mintaqalarida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troq hayot tarziga o'tishi kuchaydi. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib borishi Natijasida qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarilib, kattakatta ekin maydonlari barpo etildi. bunday obodonchilik ishlarini amalga oshirishda elyurtning ijtimoiy hayotida kattagina nufuzga ega bo'lgan mulkdor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari hamda qabila boshliqlari sarkorishboshi sifatida faol qatnashadilar. Qo'riqlarda ochilgan yangi yer maydonlarining ma'lum bir ulushi ularning qo'liga o'tadi va merosiy mulkiga aylanadi. Shu tariqa kattagina yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllanadi.

Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. Ill asr o'rtalarida Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqara tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasining o'rnida bo'lgan.

Poytaxt mudofaa jihatidan nihoyatda mustahkam qurilgan.

Darvoza qarshisida shahar markazini kesib o'tgan ko'chaning har ikki tomoni bo'ylab shaharliklarning turar joylari joylashgan. Shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi, uning shimoli g'arbiy burchak qismida esa balandligi 25 metr bo'lgan uch minorali xorazmshohlar qasri qad ko'targan. Bu davrda Xorazmda atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralgan shaharlar, istehkomli qishloqlar juda ko'p bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, xorazmshohlar unvoni dastlab siyovushlar sulolasi tomonidan qabul qilingan. Miloddan avvalgi VII asrda shakllangan qadimgi Xorazm davlatini avval ahamoniylar, so'ngra esa afrig'iylar boshqargan. Beruniy bu haqda «Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan... tarix oldilar. Shu vaqtdan Kayxusrav... turk podsholari (ustidan) hukmronligini yurg'izgan edi» deb yozgan. O'sha zamonda Kayxusrav, Saksafar, Farasman, Xusrav kabi hukmdorlar «Xorazmshoh» unvoniga sazovar bo'lishgan.

Xorazmshoh - Xorazm davlati hukmdorlarining unvoni. Beruniy asarlarida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, dastlab-Xorazmsttoh unvoni bilan Xorazmni Kayxusrav idora etgan. Quyidagi 4 sulola: afrig’iylar; ma’muniylar; oltintoshlar; anushteginiylar hukmdorlari «Xorazmshoh» unvoniga ega bo‘lganlar

Moddiy madaniy topilmalaridan ayon bo'lishicha, III asrda Xorazm hududida iqtisodiy-siyosiy jihatdan mustaqil bir nechta sug'orma dehqonchilik vohalarni boshqargan mayda hokimliklar tarkib topgan. Tuproqqal’adan qo'lida burgut qo'ndirilgan tojdor hukmdor haykalini yoki Anqaqal'a yaqinidan esa qo'lida shohbozlochin tutgan tojdor tasviri so'qilgan tanganing topilishi shubhasiz hukmronlik ramzidan dalolat beradi. Bu davrda Xorazmda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq, ilm-fan, san'at, xususan haykaltaroshlik yuqori darajada rivoj topgan. III asrdayoq Qang' davlatidan ajralib mustaqillikka erishgan Xorazm o'zaro kurashlarda g'olib chiqadi. Natijada afrig'iylar sulolasi hukmronligiga asos solinadi.

Xorazm vohasi Markaziy Osiyoda sug'orma dehqonchilik madaniyatining eng qadimgi markazlaridan hisoblanadi.

Osiyo aholisi turli tillarda so'zlashgan. Chorvador aholi o'rtasida turkiy til muhiti hukmron edi. O'troq aholining bir qismi sug'd tilida, ikkinchi qismi

turkiy tilda so'zlashgan. Bu davrda sug'd tili xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlarigacha yetib boradi. VII asrlarda Sug'd yozuvi, Xorazm va eftal yozuvlari tarqalgan edi. Eftallar xati Baqtriya yozuvi asosida paydo bo'ladi. Eftallar yozuvi 25 harfdan iborat bo'lgan. Xat chapdan o'ngga tomon ko'ndalangiga yozilgan.

## San'at

Tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi. Ular o'z davrida sodir bo'lgan o'zgarishlardan dalolat beradi. Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'ona vodiysida Quva xarobalarida hamda boshqa yodgorliklardan topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'sha davrning yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi. Devoriy tasvirlar zamonasining o'ta murakkab hayoti, dinu e'tiqodi va tashqi mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalardan hikoya qiluvchi manba hamdir. Haykaltaroshlik rivojiga ayniqsa buddaviylik dini kuchli ta'sir ko'rsatgan. Farg'ona vodiysida Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinidagi Ajinatepadan buddaning bahaybat haykallari topilib, o'rganildi. Ajinatepa buddasi haykalining bo'yi 12 metrga boradi. Bu davrda badiiy yog'och o'ymakorligi san'ati ham yuqori darajada turgan.

Ilk o'rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari Varaxsha topilmalari orqali tadqiq etildi. Turli xil geometrik shakllar, mevali daraxt va o'simliklarning o'ymakor naqshlari, ov manzarasi Buxoro hukmdorfari Varaxshadagi qarorgohining hashamatli saroy devorlarini bezab turgan.

## Musiqa san'ati

O'rta Osiyoda musiqa, raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning turli sohalari ham rivojlangan edi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bilan shuhrat topgan edi. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur «Choch raqsi» yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi «Doira raqsi» Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan.

## Yozuv

Bu davrda Sug'd, Xorazm va Toxariston aholisining alohidaalohida yozuvlari bo'lib, Sug'd va Xorazm yozuvlari qadimgi oromiy yozuvi asosida maydonga kelgan edi. Toxar yozuvi baqtriya yozuvi asosida shakllangan edi. Xat, hujjat va ayrim axborotlar kabi maktubotlar asosan charm, yog'och, sopolga va kamdan kam hollarda qog'ozga bitilardi. Chunki qog'ozning bahosi nihoyatda baland edi. Ayrim bitiklar esa hatto podsho saroylari va ibodatxona devorlariga ham yozilardi. Ular orasida elchilik maktublari, xo'jalik kirim

chiqimlari, yuridik shartnomalar, astronomic hujjat, tarixiy yodnomalar hamda diniy aqidalar bitilgan nodir qo'lyozma topilmalar bor. Bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan Sug'd yozuvlari Panjikent yaqinidagi Mug' qal'asida, Sharqiy Turkistondagi **Turfan** shahri yaqinida, Samarqandning qadimiy xarobasi **Afrosiyobda** qayd etib o'rganilgan.

Ularda Sug'dning siyosiy tarixi, huquq va r qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari xususida muhim ma'Iumotlar keltirilgan. Sug'dda o'g'il bolalar besh yoshga to'lgach, yozuv va hisobga o'rgatilar, so'ngra ular 20 yoshga kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi.

Shuningdek, bu davrda turkiy run (ko'kturk) xati ham keng qo'llanilgan. Tur

## San'at

Tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi. Ular o'z davrida sodir bo'lgan o'zgarishlardan dalolat beradi. Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'ona vodiysida Quva xarobalarida hamda boshqa yodgorliklardan topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'sha davrning yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi. Devoriy tasvirlar zamonasining o'ta murakkab hayoti, dinu e'tiqodi va tashqi mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalardan hikoya qiluvchi manba hamdir. Haykaltaroshlik rivojiga ayniqsa buddaviylik dini kuchli ta'sir ko'rsatgan. Farg'ona vodiysida Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinidagi Ajinatepadan buddaning bahaybat haykallari topilib, o'rganildi. Ajinatepa buddasi haykalining bo'yi 12 metrga boradi. Bu davrda badiiy yog'och o'ymakorligi san'ati ham yuqori darajada turgan.

Ilk o'rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari Varaxsha topilmalari orqali tadqiq etildi. Turli xil geometrik shakllar, mevali daraxt va o'simliklarning o'ymakor naqshlari, ov manzarasi Buxoro hukmdorfari Varaxshadagi qarorgohining hashamatli saroy devorlarini bezab turgan.

## Musiqa san'ati

O'rta Osiyoda musiqa, raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning turli sohalari ham rivojlangan edi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bilan shuhrat topgan edi. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur «Choch raqsi» yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi «Doira raqsi» Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan.

klarning bu yozuvi biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38-40 harflardan iborat edi. U tosh va yog'ochlarga o'yib yozishga nihoyatda qulay edi. Qadimgi *ko 'k turk bitiklari* **(Kultegin va Bilga** xoqon bitiklari) Oltoy va Sharqiy Turkistondan

tashqari, Yettisuv, Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan topilib, o'rganilgan. Ular qabrtoshlari, sopol va metall buyumlar, yog'och hamda tanga pullarga bitilgan.

- **Ilk o’rta asrlarda yurtimizda so’gd xorazm toxar va turkiy run yozuvlari mavjud bo’lgan**

## 3 - mashg'ulot: 2-soat

## – KEYS – STADI

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 3.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:82** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Xorazm madaniyati. Kushonlar davrida madaniyat va san'atning yuksalishi.<br>2. Oromiy yozuvi asosida kushon - baqtriya alfaviti, so'g'd va xorazm yozuvlarining rivojlanishi.<br>3. Buyuk ipak yo'lining O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati taraqqiyotidagi o'rni. |
| Mashg`ulotning maqsadi: O'rta Osiyoda qadimgi davr madaniyati va san'ati haqida tushuncha berish | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * O’rta Osiyo qadimgi madaniyati va san’atining o’ziga xos xususiyatlarisida tushuncha beradi.<br>* Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga | * O’rta Osiyo qadimgi madaniyati va san’atining o’ziga xos xususiyatlarini aytib beradilar.<br>* Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga |

| | |
|---|---|
| O’rta Osiyo xalqlarining qo’shgan hissasi to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>* Xorazm madaniyati. Kushonlar davrida madaniyat va san’atning yuksalishitushuntirib, video proyektor orqali ko'rsatib beradi.<br><br>* Buyuk ipak yo’lining O’rta Osiyo xalqlari madaniyati va san’ati taraqqiyotidagi o’rnini izohlab, tushuntirib beradi. | O’rta Osiyo xalqlarining qo’shgan hissasi to'g'risida gapirib beradi.<br><br>* Xorazm madaniyati. Kushonlar davrida madaniyat va san’atning yuksalishi to'g'risida o'z fikrlarini bildiradilar.<br><br>* Buyuk ipak yo’lining O’rta Osiyo xalqlari madaniyati va san’ati taraqqiyotidagi o’rnini o'rganib, gapirib beradi.. |
| **O'qitish usullari va texnika** | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| **O'qitish vositalari** | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| **O'qitish shakllari** | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 3.1.2 - Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jara yon lari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |

| | | |
|---|---|---|
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. Mavzu doskaga yozilib,mavzu va uning rejalari to'g'risida umumiy tushuncha beradi, hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha o'rganiladigan ,foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi va yozdiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| | 1.3. o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. | Mavzu nomini yozib oladilar. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: | Savollarga javob beradi. |
| | - O'rta Osiyo qadimgi madaniyati va san'atining o'ziga xos xususiyatlari.<br>- Ahamoniylar imperiyasi davri madaniyati hamda bu madaniyatga O'rta Osiyo xalqlarining qo'shgan hissasi.<br>- Xorazm madaniyati. Kushonlar davrida madaniyat va san'atning yuksalishi.<br>- Buyuk ipak yo'lining O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va san'ati taraqqiyotidagi o'rni to'g'risida talabalarga tushuncha berib, ularning fikrini so'raydi, muhokama qiladi, slaydlar orqali namoyish etadi | 1-sonli slayd mazmunini o'rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini aytadi. |
| III-bosqich. Yakuniy bos | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| qich.<br><br>(10 minut) | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

**2- mavzu: Qadimgi davr madaniyati va san'ati, uning taraqqiyot bosqichlari bo'yicha glossariy**

- ✓ **Najjorlik — duradgorchilik.**
- ✓ **Pandus — maxsus ko`tarma.**
- ✓ **Etnik munosabatlar — aholining o`zaro munosabatlari**
- ✓ **Arkon — dindagi eng muhim vazifa;**
- ✓ **Qam-shomon — Ko`k Tangriga sig`inuvchi yakka xudolik dini.**

## 3 - mavzu: Ilk o'rta asrlar madaniyati va san'ati. 4 – soat.

**1 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida san'at.
2. Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyoda shahar va shahardan tashqaridagi qo'rg'onlarning yuzaga kelishi.
3. Turk xoqonligi davri madaniyati va me'morchilik san'ati.

V asrning o`rtalarida diyorimizga kirib kelgan eftaliylar yozma manbalarda eftal, xaftal, xaytal degan nomlar bilan tilga olinadi. "Eftal" degan nom ilk bor "xeptal" shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida "Eftalon" deb yuritilgan shoh nomidan olingan. Uni *Vaxshunvar* deb ham ataganlar, u

eftaliylar yurishiga boshchilik qilgan. Qisqa vaqt ichida Chag`oniyon, Toxariston va Badaxshon bo`ysundiriladi. Bir zarba bilan Sug`dda xioniylar hukmronligi barham topadi. Eftaliylar davlati nihoyatda kuchayadi.

V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning boshlarida O`rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlarini birlashtirgan, ilk o`rta asrlarnirig yangi qudratli davlati hisoblangan Eftaliylar davlati tashkil topadi.

**Xo`jalik hayoti**

Eftaliylar davlatiga birlashgan aholining etnik tarkibi xilma-xil bo`lgan. Ularning ijtimoiy- iqtisodiy hayoti esa biri ikkinchisinikidan keskin farq qilgan. Eftaliylar kelib chiqishiga ko`ra ko`chmanchi qabilalarga mansubligi tufayli chorvachilik bilan shug`ullanib, yaylovlarda kigiz o`tovlarda yashaganlar. Eftaliylar zabt etgan yerlarida obod dehqonchilik vohalariga va savdosi rivojlangan shaharlarga ega bo`ldilar. Yillar o`tishi bilan ular omilkor mahalliy aholi bilan qorishib ketadilar.

Toxariston va Sug`d rivoj topgan dehqonchilik va bog`dorchilikning markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g`alladan tashqari sholi ham yetishtirilar edi. Xitoy manbalarida qayd etihshicha, V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O`rta Osiyo yerlarida paxta ekilar edi. Uning tolasidan oppoq va nihoyatda mayin mato to`qilgan. Xitoy bozorlarida bunday matoga talab katta bo`lgan. Chunki o`sha davrlarda Xitoyda paxta hali ekilmas edi.

**Eftaliylar hukmdori Mihirakula tangasi.**

Aholining dashtliklarda yashovchi yarim ko`chmanchi qismi chorvachilik, xususan mayda va yirik shoxli hayvonlar boqish, tuya- chilik, tog`li va tog` oldi mintaqalarida esa yilqichilik bilan shug`ullanar edi. Farg`ona vodiysi hamon zotli arg`umoqlari bilan mashhur edi.

**Yer egaligi**

| **V asrda Zog`ariq, Bo`zsuv, Darg`om kanallari barpo etiladi.** |
|---|

Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo`lsa-da, ammo mamlakatdagi yer maydonlarining ma'lum bir qismi dehqonlar qo`lida to`plana borgan. Buning natijasida qishloq jamoasining kashovarz - (erkin qo`shchi)lari ma'lum darajada dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylana borgan.



**Chag`oniyon hokimlarining sosoniylarga taqlidan zarb ettirgan kumush tangasi.**

Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug` jamoalari hamda ularning oqsoqollari xvabulari tasarrufida edi.

Hozirgi vaqtda ham Toshkent vohasi va Janubiy Qozog`iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan *Zog`ariq (Zovariq)* va *Bo`zsuv,* Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbai *Darg`om kanali* V asrda barpo etilgan eng yirik sug`orish tarmoqlaridan hisoblanadi. Bu davrda tog` oldi mintaqalarida joylashgan adir yerlarga suv chiqarib, obod etishda o`q, gupchak tishli g`ildirakka asoslangan va o`z davri uchun ancha- muncha murakkab bo`lgan suv inshootlari - charxpalak, chig`ir va boshqalardan foydalaniladi.

Yangitdan o`zlashtirilgan yerlarda mulkdor dehqonlarning yirik qo`rg`onlari hashamatli qasrlari, mehnatkash qo`shchilarning ko`pdan ko`p qishloqlari mayda turar joylari qad ko`taradi. Xuddi shu davrda Chag`oniyon (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to`la o`zlashtirilib, alohida- alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik bu vohalarda yerdor dehqonlarning siyosiy mavqeyi oshib, ular yetakchilik qilgan mayda hokimliklar vujudga keladi.

**Savdo va pul muomalasi**

Tashqi savdo bojidan manfaatdor bo`lgan eftaliylar *"Ipakyo`li"* ni o`z nazoratlari ostida tutib turishga harakat qilgan. Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan bo`lgan xalqaro savdoda ular faol qatnashardi. Ipak yo`li savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan sug`diylar vositachilik rolini o`ynardi.

Xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi bilan mamlakatda tanga pul muomalasi tartibga solinadi. Ichki va tashqi savdo munosabatlarida eftaliylar dastavval sosoniy hukmdorlarining kumush tangalaridan keng foydalanadilar. Bulardan tashqari, Buxoro, Poykand, Vardona, Naxshab, Samarqand va Xorazmda mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar mamlakatning ichki savdosida keng muomalada bo`lgan. Bu mamlakat hayotida mahalliy hokimlar katta nufuzga ega ekanidan dalolat beradi.

Eftaliylarda aholining tabaqalanishi, mulkiy tengsizlik kuchayib borgan. Shu boisdan davlat boshqaruvida qonun va qoidalar qaror topgan. Davlat harbiy kuchga tayangan. Jinoyat uchun juda qattiq jazolar belgilangan.

**Madaniy hayot**

Ko`chmanchi qabilalarning dehqonchilik vohalari atrofiga kelib o`rnashishi bilan ma'lum darajada dasht udumlari va e'tiqodiy tasavvurlari o`troq aholining hayotiga kirib bordi. Asriy madaniy an'analari kuchli bo`lgan Toxariston va Sharqiy Sug`d vohalarida ko`chmanchilar tez orada o`troqlashdilar. Ular mahalliy aholi bilan qorishib, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol



ishtirok etib bordilar. Madaniy hayotda sodir bo`lgan bunday o`zgarishlar ayniqsa binokorlik, me'morchilik va tasviriy san'atning ayrim jabhalarida ko`proq namoyon bo`ldi. Samarqand, Buxoro, Naxshab va Choch (Toshkent) kabi dehqonchilik vohalarida baland tagkursi ustiga bino qilingan ko`plab istehkomli qasrlar va qo`rg`onlar qad ko`tardi.

**Sug`diy qo`lyozma parchasi. VIII asr.**

**Sopol ko`za. Kofirqal'a. VII-VIII asrlar.**

Bu davr binokorligi va me'morchiligida ayniqsa qasrlar alohida o`rin tutgan. Warning ayrimlari hatto ikki qavatli bo`lib, yuqorisiga *pandus* orqali chiqilgan.

**Til va madajniy aloqalar**

O`rta Osiyo aholisi turli tillarda so`zlashgan. Chorvador aholi o`rtasida turkiy til muhiti hukmron edi. O`troq aholining bir qismi sug`d tilida, bir qismi turkiy til da so`zlashgan. Bu davrda sug`d tili xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg`ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlarigacha yetib boradi. V-VI asrlarda Sug`d yozuvi, Xorazm va eftaliy yozuvlari tarqalgan edi. Eftaliylar xati Baqtriya yozuvi asosida paydo bo`ladi. Eftaliylar yozuvi 22 harfdan iborat bo`lgan. Xat chapdan o`ngga tomon ko`ndalangiga yozilgan.

Bu davrda Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib boradi. V asrda o`rta osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o`rgatadilar. O`rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o`z saroylarini bezashda O`rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar. Shunday qilib, O`rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo`shni mamlakatlar, xususan, Hindiston va Eron tasviriy uslublari bilan omixtalashib, ilk o`rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylanadi.

VI asr o`rtalarida Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi. Bu davlat tarixga **Turk xoqonligi** nomi bilan kirgan. Uning asoschisi *Bumin* edi. 552-yilda Bumin *"xoqon"* deb e'lon qilindi.

Oltoy xoqonlikning markazi qilib belgilanadi. Turklarning g`arbga tomon yurishlariga **Istami** boshchilik qiladi. Unga *"Yabg`u xoqon"* degan unvon beriladi. Tez orada Yettisuv va Sharqiy Turkistonga tutashgan yurtlarda yashovchi turkiy qabilalar bo`ysundiriladi. 555-yildayoq turklar Sirdaryo va Orol dengizi bo`ylarigacha cho`zilgan keng o`lkalarni egallaydilar. Xoqonlik chegarasi Eftaliylar davlati hududlariga borib yondoshadi.

558-yilda turklar *Yoyiq* (Ural) va *Itil* (Volga) bo`ylarini zabt etadi. 575-576-yillarda Shimoliy Kavkazning bepoyon yerlarini egallab, Qrim yarim oroliga kirib boradilar. Sosoniylar **Toxariston** va **Chag`oniyonni** eftaliylardan tortib

oladilar.









**1. Turkiy bolbol. 2. Buxorxudotlar dirhami. VIII asr.**
**3. Qo`sh tasvirli Chag`oniyon jez tangasi. 4.Turk runiy qoyatosh bitigi.**



G`arbiy turk xoqonligi tasarrufiga O`rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismi kirardi. Uning markazi Yettisuv edi. G`arbiy xoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutlaqo ajralib turardi. Sharqiy xoqonlik aholisining asosiy qismi chorvador ko`chmanchilar edi. G`arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi esa o`troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg`ul edi.

**Choch tangasi. VII asr.**

Turk xoqonligiga birlashgan aholining hayoti ham, xo`jaligi ham turlicha edi. Ko`chmanchilarning asosiy mashg`uloti chorvachilik boigan. Yilqichilik va tuyachilik muhim o`ringa ega edi. Chorvador ko`chmanchilar orasida mulkdorlar

va ularning xizmatida esa ko`plab qul, cho`ri va xizmatkorlar bo`lardi. Mulkdorlarning eng yirik vakili xoqonning o`zi edi.

Xoqonlikda shaharlar va qishloqlar ko`p bo`lgan. Aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari bilan shug`ullanardi. Dehqonchilikda asosan don ekinlari: bug`doy, arpa, sholi va tariq ekilardi. Paxta, beda ekish, bog`dorchilik va tut ko`chatlari o`tqizish hamda uy hayvonlarini boqish bilan shug`ullanilar edi.

Shahar hunarmandchiligida kulolchilik, to`qimachilik, *sarrojlik,* miskarlik, temirchilik va zargarlik ancha-muncha rivoj topgan edi. Shaharlarda hunarmandchilikning kengayishiga turklar katta ta'sir ko`rsatadilar. Chunki qadimda ularda kasb-hunarning ko`pgina sohalari nihoyatda rivoj topgan edi. Turk hunarmandlari yasagan zeb-ziynatlar va qurol-yarog`lar xilma-xilligi va nihoyatda puxtaligi bilan ayniqsa ajralib turardi. Farg`ona va Sug`dda *oltin, mis, temir va simob,* Iloq (Eloq)da *qo`rg`oshin, kumush* va *oltin* qazib olinardi.

**Shahar me'morchiligi**

V-VII asrlarda O`rta Osiyoda, bir tomondan, yerga egalik qilish munosabatlarining o`rnatilishi va mustahkamlanib borishi, ikkinchi tomondan, ko`chmanchi chorvadorlarning beto`xtov shiddat bilan kirib kelishi va o`troqlashuvi shahar va qishloqlarning qiyofasi va aholisining turmush tarzi-yu ahvoliga jiddiy ta'sir ko`rsatadi. Ziroatkor yerlar kengayib, dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Tog`oldi maydonlariga suv chiqarilib, yangi yerlar o`zlashtirildi. Shaharlar gavjumlashdi. Qishloqlarda *"ko`shk", "qasr", "qo`rg`on"* va *"qo`rg`oncha"* nomlari bilan shuhrat topgan istehkomli turar joylar qad ko`tardi.



**Peshtoq ostida turgan shakllar tasvirlangan ossuariy. VI-VII asrlar.**

Ko`shk, qasr va qo`rg`onlar ko`proq yirik sug`orish shoxobchalari boshida, markaziy shaharlarning tevarak-atrofida hamda dehqonchiJik vohalari chegaralari bo`ylab joylashgan edi. Suv cbiqarilib obod etilgan vohalar bo`ylab katta-kichik qal'alar, mayda qo`rg`onchalar quriladi. Ko`shk va qasrli qo`rg`onlarda mulkdor dehqonlar, qo`rg`onchalarda esa ziroatchi mehnatkash aholi yashar edi.

Istehkomli qasr, qo`rg`on va ko`shklar asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, chokarlar to`planadigan joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol-yarog` saqlanadigan ombor vazifasini o`tagan.

O`rta asrlarda shaharlar uch qismdan iborat bo`lgan. Ular *"ark", "shahriston", "rabod"* deb yuritilgan.Shaharlarning uchala qismi ham alohida-alohida devorlar

bilan o`rab olingan. Ularning bir nechta darvozalari bo`lgan. Shahar devorlari bo`ylab oqib o`tgan anhor *xandaq* vazifasini bajargan.

## *VI-VII ASRLARDA MADANIY HAYOT*

### Yozuv

Bu davrda Sug`d, Xorazm va Toxariston aholisining alohida-alohida ydzuvlari bo`lib, sug`d va xorazm yozuvlari qadimgi oromiy yozuvi asosida maydonga kelgan edi. Toxar yozuvi baxtar yozuvi asosida shakllangan edi. Xat, hujjat va ayrjm axborotlar kabi maktubotlar asosan charm, yog`och, sopolga va kamdan-kam hollarda qog`ozga bitilardi. Chunki qog`ozning bahosi nihoyatda baland edi. Ayrim bitiklar esa hatto podsho saroylari va ibodatxona devorlariga ham yozilardi. Ular orasida elchilik maktublari, xo`jalik kirim va chiqimlari, yuridik shartnomalar, astronomik hujjat, tarixiy yodnomalar hamda diniy aqidalar bitilgan nodir qo`lyozma topilmalar bor. Bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan Sug`d yozuvlari Panjikent yaqinidagi **Qal'ai** Mug`da, Sharqiy Turkistondagi **Turfan** shahri yaqinida, Samarqandning qadimiy xarobasi **Afrosiyobda** qayd etilgan.

Ularda Sug`dning siyosiy tarixi, huquq va qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari xususida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Sug`dda o`g`il bolalar besh yoshga to`lgach, yozuv va hisobga o`rgatilar, so`ngra ular 20 yoshga kirganlarida savdo ishlarini o`rganish uchun o`zga mamlakatlarga jo`natilar edi. Sug`d xati asosida uyg`ur va turk yozuvlari shakllangan. Uyg`ur yozuvidan esa o`z navbatida keyinchalik mo`g`il va manjur xatlari paydo bo`lgan. Sug`diylarning kattagina guruhi doimo turk xoqonlarining qarorgohida yashagan. Ularning ayrimlari saroy a'yonlari va ma'murlari qatoridan o`rin egallab, maslahatchi, elchi, xat va savodga o`rgatuvchi ustoz vazifasini bajarganlar.

Shuningdek, ko`k turk xati ham qo`llanilgan. Turklarning bu yozuvi biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38^40 harflardan iborat edi. U tosh va yog`ochlarga o`yib yozishga nihoyatda qulay edi. Qadimgi *ko`k turk bitiklari* **(Kultegin** va **Bilga** xoqon bitiklari) Oltoy va Sharqiy Turkistondan tashqari, Yettisuv, Farg`ona va Zarafshon vodiylaridan topilib, o`rganilgan. Ular qabr toshlari, sopol va metall buyumlar, yog`och hamda tanga pullarga bitilgan.

| |
|---|
| **Ilk o`rta asrlarda yurtimizda sug`d, xorazm, toxar va ko`k turk yozuvlari mavjud bo`lgan.** |

### Diniy e'tiqodlar

VI-VH asrlarda O`rta *Osiyoda zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, moniylik* va *qam (shomoniylik)* kabi bir nechta mahalliy dinlar mavjud bo`lgan. Aholining ko`pchiligi zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan.

**Quva. Budda ibodatxonasidan topilgan haykalning bosh qismi.**

**O`rta Osiyoda aholi *zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, moniylik* va *qam* (shomoniylik) kabi bir nechta dinlarga sig`ingan.**

Turk xoqonligining chorvador aholisi qadimdan shomoniylik diniga sig`inib kelgan. Bu din jon va ruhlarga, ota-bobolar ruhiga sig`inish e'tiqodini tarbiyalagan. Qadimgi turklar o`z dinini *"qam"* deb yuritganlar. Chunki ularda *"shomon"*degan so`z bo`lmagan. Bu din koinotni yo`qlikdan bor qilgan Ko`k Tangriga e'tiqod qiluvchi yakka xudolik dini hisoblanadi. Chorvador ko`chmanchi aholi Tangriga bag`ishlangan marosimlar o`tkazib, qurbonliklar qilishgan. Masalan, Ko`k Tangri sharafiga qurbonlik uchun qora qashqa ot so`yilgan.

Bu diniy e'tiqodlaming omixtasi asosida O`rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati rivoj topdi.

**San'at**

Tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi. Ular o`z davrida sodir bo`lgan o`zgarishlardan dalolat beradi. Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg`ona vodiysida Quva xarobalarida hamda bbshqa yodgorliklardan topib o`rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o`sha zamonning yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi. Devoriy tasvirlar o`sha ' zamonning o`ta murakkab hayoti, din-u e'tiqodi va tashqi mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalardan hikoya qiluvchi manba hamdir. Haykaltaroshlik rivojiga ayniqsa budda dini kuchli ta'sir ko`rsatgan. Farg`ona vodiysida Quvadan hamda Qo`rg`ontepa yaqinida Ajinatepadan buddaning bahaybat haykallari topilib, o`rganildi. Ajinatepadan topilgan budda haykalining bo`yi 12 metrga boradi.Bu davrda badiiy yog`och o`ymakorligi san'ati ham yuqori darajada turgan.



**Arfa chalayotgan qiz. Ayrtom piramonidan parcha.**

Ilk o`rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari Varaxsha topilmalari orqali tadqiq etildi. Turli xil geometrik shakllar, mevali daraxt va o`simliklarning o`ymakor naqshlari, ov manzarasi Buxoro hukmdorlarining Varaxshadagi qarorgohining hashamatli saroy devorlarini bezab turgan.

**Musiqa san'ati.** O`rta Osiyoda musiqa, raqs, qo`shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning turli sohalari ham rivojlangan edi. Bu davrda san'at

sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent o`yinchi yigit va raqqosa qizlari bilan shuhrat topgan edi.Choch o`yinchi yigitlari ijro etgan mashhur "Choch raqsi" yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o`ynoqi "Doira raqsi" Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni ayratga solgan edi.

## MINGO‘RIK SHAHAR XAROBASI

Mingo‘rik, Mingo‘riktepa — qad. shahar harobasi (1 —13-a.lar). Mahalliy aholi o‘rtasida Afrosiyob tepaligi nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Minoraqasr (to‘rtburchak arkka yondoshgan) va shahristonning tepalikka aylangan hududidan iborat. Toshkent t.y. vokzali yaqinida, Salor kanali sohilida joylashgan; shahar harobasi o‘rnida 19-a.da katta o‘rikzor bo‘lganligi uchun shunday atalgan. Hoz. shahar qurilishi munosabati bilan yodgorlikning madaniy qatlami buzilib ketishi natijasida M.ning bir qismigina saqlangan. Imarta 1896 y. (Ye. T. Smirnov, N. S. Likoshin tomonidan), keyin 1912 y. (A. I. Dobrosmislov, Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi a’zolari tomonidan) qayd qilingan. 20-a.lar M. Ye. Masson arxeologik kuzatish ishlari olib borgan. 1qazish ishlari O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti (Yu. F. Buryakov, D. G. Zilper, O. V. Obelchenko) tomonidan o‘tkazilgan. 1968 y.dan Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi davom ettirmoqda.
Bu ishlar natijasida shahriston (15 ga) va ark (0,5 ga) maydonlari, shahar hayotining 3 asosiy bosqichi aniqlangan. 1-bosqich 1—4-a.larga mansub bo‘lib, ichki turar joy kompleksini muhofaza qilgan uzun yo‘lakli, qo‘shqator qal’a devorlari qoldig‘i topilgan. Devor tashqarisida unga yondoshtirilib qurilgan to‘rtburchakli burj va mo‘lalar bo‘lib, ularning orasi 12 m ga teng bo‘lgan. 2-bosqichda (5—6-a.lar) shahar tez sur’-atda rivojlanib, aholi soni oshib borishi natijasida mustahkam ark va shahristonga, eng yirik shahar markaziga aylangan. 6-a. oxirida shahar Chochning poytaxti bo‘lgan.

Arab manbalarida tilga olingan "Madinat ash-Shosh" shu yodgorlikning aynan o‘zi deb hisoblanadi. 3-bosqich (7—8-a.lar) Arab xalifaligining Chochga yurishi arafasida shahar eng kjsalgan davr bo‘lgan. Barcha me’moriy qurilish uslublari kompleksi, ichki bezaklarda hashamatli devoriy tasvir va naqshlardan foydalanish, uy-ro‘zg‘or asbob uskunalari, idishlar M.ning umumsug‘d madaniyati asosida Sug‘d, Farg‘ona va O‘rta Osiyoning boshqa joylari bilan mu-stahkam aloqada rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga shahar turmush tarzida ko‘chmanchi qabilalarning ta’siri katta bo‘lgan.

Shahar qurilishi kengayib borgan sari qal’a devorlari torlik qilib, uning harobalari ustiga shahriston uylariga nisbatan salobatli saroyqasr kompleksi — Choch hukmdorlarining saroyi qurilgan. Saroyda supa va naqshinkor ustunli hashamatli xonalar va ibodatxonalardan tashqari qo‘shimcha xonalar (xo‘jalik ehtiyojlari uchun) ham bo‘lgan. Bu davrda Choch o‘lkasi Turk xoqonligiga tobe bo‘lgan. Manbalarda qayd qilinishicha, musiqa va raqs san’ati ayniqsa, yuksak

pog‘onaga chiqqan. 8-a. boshlarida Choch poytaxti arab xalifaligi istilochilari tomonidan vayron qilinib, harobaga aylantirilgan. 10-a.da M.ning bir qismidagina hayot tiklangan va 13-a. gacha davom etgan. Markaz yangi shahar — Binkatga ko‘chirilgan.

## 3- mavzu: Ilk o’rta asrlar madaniyati va san’ati. 4 – soat.

### 1 - mashg'ulot: 2 - soat

### - KEYS – STADI
### O’qitishning keys – texnologiyasi

### 3.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida san’at.<br>2. Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyoda shahar va shahardan tashqaridagi qo'rg'onlarning yuzaga kelishi.<br>3. Turk xoqonligi davri madaniyati va me’morchilik san’ati. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Eftaliylar, Turk xoqonligi va arablar davrida madaniyat va san'at to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida san’ati haqida tushuncha beradi.<br>* Turk xoqonligi davri madaniyati va me’morchilik san’ati, ahamiyati haqida tushuncha beradi, izohlaydi. | * Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida san’ati,rivojlanish tarixi to'g'risida gapirib beradilar.<br>* Turk xoqonligi davri madaniyati va me’morchilik san’ati haqida gapirib beradilar |

| | |
|---|---|
| **O'qitish usullari va texnika** | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| **O'qitish vositalari** | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| **O'qitish shakllari** | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 3.1.2 - Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayon lari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv mavzusining nomini aytib, mavzu haqida umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>- Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida san'ati haqida nimalarni bilasiz?<br>- Turk xoqonligi davri madaniyati va me'morchilik san'ati to'g'risida gapirib bering? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi ). | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (2-ilova). | Yozadi. |

**2 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. Arab istilosining mahalliy madaniyat va san'atga ta'siri.

2. Arablarning O'rta Osiyo yerlariga kirib kelishi natijasida rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotning izdan chiqarishi.

***ARABLARNING O`RTA OSIYONI FATH ETISHI***

**Islom dini**

**"Islom" - "bo`ysunish", "itoat etish", "o`zini Alloh irodasiga topshirish" degan ma'nolarni anglatadi.**

Qadimdan Arabiston yarim orolidagi arablar tarqoq holda yashardilar. VII asr boshlarida Arabistonda yagona e'tiqod asosida mamlakatni birlashtirish harakati boshlanadi. Bu buyuk e'tiqod yakka xudolikka asoslangan islom dini edi.

**Movarounnahr arabcha "daryoning narigi tomoni" degan ma'noni anglatadi.**

Allohning rasuli (elchisi) Makka shahrida dunyoga kelgan **Muhammad (s.a.v. - sallalohu alayhi vasallam) binni Abdulloh (570-632)** bu harakatga rahnamolik qiladi. Islomni qabul qilib, rasulullohga ergashgan uning izdoshlari "muslim" (musulmonlar)deb atalgan. Ular insonlarning Xudo oldida teng ekani, rizq-ro`zini barchaga Yaratguvchining o`zi yetkazib berishi hamda jamiyatdagi adolatsizlik barham topishi haq ekanini targ`ib etadilar. Islom bayrog`i ostida Makka shahrida boshlangan *islom dini* targ`iboti Madinaga ko`chadi. Muhammad (s.a.v.) 630-yilda arablarni yagona davlatga birlashtiradi.



**Nurga burkangan bosh tasviri. Varaxsha. VII-VIII asrlar.**

Muhammad (s.a.v.) vafot etgach, uning eng yaqin safdoshi **Abu Bakr (632-634)** xalifa deb e'lon qilinadi.

Arab qabilalarining islomni qabul qilib, siyosiy jihatdan yagona hokimiyatga birlashuvida, islomning jahon dinlaridan biriga aylanishida islom aqidalari, huquqiy va axloqiy me'yorlarini d'z ichiga qamrab olgan **Qur'oni Karimning** ahamiyati buyuk bo`ldi.

Arablar bu yerda o`rnashib olgach, Amudaryodan shimolda joylashgan boy viloyatlarni zabt etishga tayyorgarlik ko`radilar. Bu yerlarni arablar ***Movarounnahr,*** ya'ni *"daryoning narigi tomoni"* deb atardilar.



**Iqtisodiy oqibatlar**

Arablar o`lkani zabt etish jarayonida uning deyarli barcha obod dehqonchilik vohalarini oyoqosti qilib, juda ko`p shahar va qishloqlarga o`t qo`yib vayron etdilar. Suv inshootlari buzib tashlandi. Ekin maydonlari suvsizlikdan qurib qoldi. Zabt etilgan shahar va qishloq aholisidan oltin, kumush, qimmatbaho buyumlar va ko`plab qurol-yarog`lar tortib olindi. Sulh tuzishga majbur bo`lgan Buxoro, Poykand, Sug`d hukmdorlaridan katta miqdorda boj- u tovonlar

undirib olindi. Arablar o`z qo`shinlariga minglab nafar mahalliy yigitlarni jalb etdilar.

Yerli aholi jamoat binolari, suv inshootlarini qurish, sug`orish tarmoqlarini loyqadan tozalash kabi ishlarga safarbar etiladi. "Xiroj", "ushr", "zakot", "jiz'ya" kabi soliqlar joriy etiladi. Istilochilar kuch - xirojda deganlar.

**Arab istilochilari aholidan xiroj, ushr, zakot, jiz'ya soliqlarini undirganlar.**

**Poykand. Rabod plani (rejasi). VII asr.**

**Islomga da'vat etish**

Arablar Movarounnahrda o`rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlash uchun islom dinini da'vat etishga, aholi o`rtasida islomni yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Movarounnahrning bir nechta mahalliy dinlarga topinuvchi taqvodor aholisini uzil-kesil bo`ysundirishda ularni islom diniga birlashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini arab istilochilari yaxshi tushunardilar. Shu boisdan ular Movarounnahr aholisining asosiy dini hisoblanadigan otashparastlik va boshqa dinlarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Ibodatxonalar vayron etilib, ularning o`rniga jome masjidlari bino qilinadi.

**Aholini islomlashtirish yo`llari**

Islom dinini qabul qilib, musulmon bo`lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va jiz'ya soliqlaridan ozod etilgan. Ularga ancha-muncha imtiyozlar berilgan. Islomni qabul qilishdan bosh tortgan kimsalardan esa jon bosh solig`i -*jiz'ya* undirilib olingan. Soliqlarni o`z vaqtida to`lamagan kishilar tutib olinib, bo`yinlariga "qarzdor" deb yozilgan taxtacha osib qo`yilardi. Bunday amaliy tadbir va choralar, shubhasiz, Movarounnahr aholisi o`rtasida islom dinining tarqalishiga yordam beradi. Biroq, shunday bo`lsa-da, islomni qabul qilgan aholining ko`pchiligi nomigagina musulmon bo`lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o`z dini va e'tiqodlariga sodiqligicha qolaveradi.

**Mahalliy madaniyatning poymol etilishi**

Arablar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi oqibatida mahalliy xalqning urf- odati, dini va e'tiqodi, qadimdan rivojlanib kelayotgan madaniyati poymol etildi. Mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan boy ma'naviy hayotiga qayta tiklab bo`lmas darajada putur yetkaziladi. Istilochilar Movarounnahrning harrana joylarida mahalliy din namoyandalarini, madaniyat, adabiyot va ilm ahllarini quvg`in qiladilar. Mahalliy sug`d yozuvida bitilgan diniy va ma'rifiy kitoblarni, ilmiy asarlarni va qimmatli hujjatlarni hamda sanamlarni gulxanlarda yoqib, yo`q qilib tashlaydilar. Quvadagi budda ibodatxonasiga o`rnatilgan turli- tuman haykallarning parchalab tashlangani,

Afrosiyob saroy devorlariga solingan suratlarning, ayniqsa odam rasmlarining ko`zlari o`yilib, bo`yinlariga qilich bilan chizib yuborilganligi bunga yaqqol misoldir. VIII asr oxiri — IX asr boshlarida Arab xalifaligi og`ir siyosiy tanglikka uchradi. Bo`ysundirilgan xalqlarni itoatda tutib turish arablar uchun tobora qiyin bo`lib qoldi. Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo`zg`olon ko`tarib turishi, uzluksiz davom etgan o`zaro urush va ichki ziddiyatlar Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirdi. Bu esa mustaqil davlatlarning pay do bo`lishiga olib keldi.

1 - Slayd

Eftaliylar hukmronligi davriga oid tangalar

2 – slayd Afrosiyobdan topilgan devoriy rasm. VI-VII asrlar.





**2 - mashg'ulot: 2 - soat**

**- KEYS – STADI**

**O’qitishning keys – texnologiyasi**

**3.2.1. O’qitish texnologiyasi modeli**

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Arab istilosining mahalliy madaniyat va san’atga ta’siri.<br>2. Arablarning O'rta Osiyo yerlariga |

| | |
|---|---|
| | kirib kelishi natijasida rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotning izdan chiqarishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Eftaliylar, Turk xoqonligi va arablar davrida madaniyat va san'at to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifala** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Arab istilosining mahalliy madaniyat va san’atga ta’siri to'g'risida gapirib beradi.<br><br>* Arablarning O'rta Osiyo yerlariga kirib kelishi natijasida rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotning izdan chiqarishi sabablarini izohlaydi. | * Arab istilosining mahalliy madaniyat va san’atga ta’siri haqida gapirib beradilar.<br><br>* Arablarning O'rta Osiyo yerlariga kirib kelishi natijasida rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotning izdan chiqarishi sabalarini o'rganib, muhokama qiladilar. |
| **O'qitish usullari va texnika** | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| **O'qitish vositalari** | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| **O'qitish shakllari** | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 3.2.2 - Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayon lari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv mavzusining nomini aytib, mavzu haqida umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>- Arab istilosining mahalliy madaniyat va san’atga ta’siri himalarni bilasiz? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi ). | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (2-ilova). | Yozadi. |

## 3 - mavzu: Ilk o’rta asrlar madaniyati va san’ati bo’yicha glossariy

- ✓ **Jiz'ya — Islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan jon solig`i.**

- ✓ **Zakot — mol- mulkning 1/40 qismi hajmida olingan soliq. p**
- ✓ **Xiroj — hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan yer solig`i.**
- ✓ **Ark — shaharning hokim qasri joylashgan qismi.**
- ✓ **Rabod — shaharning tashqi mavzesi.**
- ✓ **Ixshid — viloyat hokimi.**
- ✓ **Shahriston — shaharning ichki qismi.**
- ✓ **Najjorlik — duradgorchilik.**
- ✓ **Pandus — maxsus ko`tarma.**
- ✓ **Etnik munosabatlar — aholining o`zaro munosabatlari**
- ✓ **Arkon — dindagi eng muhim vazifa;**
- ✓ **Qam-shomon — Ko`k Tangriga sig`inuvchi yakka xudolik dini.**

**Ushr** — idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajmi

**4 - mavzu: IX – XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati. 6- soat.**

**1 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. VIII asr o'rtalarida madaniy va ijtimoiy hayot.

2. Me'morchilik san'atida yangi tipdagi binolar, ijodiy g'oyalar.

3. Qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi va me'morchilikning murakkab kompozisiyalarining yaratilishi.

Me'morchilik va san'at

O'rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli ta'sir qildi. *Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan* va *Marv* kabi shaharlarda bu davrda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvonsaroylar quriladi. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy, Namozgoh, Minorai Kalon hamda Vobkent va Jarqo'rg'ondagi minoralar va ko'pgina boshqa binolar o'sha davr

me'morchiligining namunalaridandir. Bu yodgorliklar o'ziga xos me'morchilikning rivoj topganligidan dalolat beradi. Bu davrda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari — *bandlar,novalar, ko 'priklar, sardobalar* va *korizlar* barpo etiladi. Bunday inshootlarning o'lchamlari matematika nuqtayi nazaridan g'oyat puxta ishlangan. Masalan, X asrda Nurota tizmalaridagi Pastog' darasi to'silib barpo etilgan **Xonbandi** nomli suv omboriga 1,5 mln metr kub suv to'plangan. To'g'on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan qurilgan. Bu suv omborini qurishda suvning vertikal va gorizontal bosim kuchi va bu hududlarda teztez sodir bo'ladigan zilzilalarning silkinish kuchlarini ham hisobga olganlar. Bu, shubhasiz, XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to'g'risida yaratilgan qonun kashfiyotchisidan qariyb 7 asr muqaddam movarounnahrlik muhandislarga ma'lum ekanligidan dalolat beradi. X asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo'shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib ustunlari-yu sarrovlari va to'sinlarigacha yog'ochlarni biriktirish uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlarni qurish hozirgacha saqlanib keladi. *Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro* va *Poykand* shahar xarobalarida kovlab ochilgan turar joy qoldiqlaridan ma'lum bo'lishicha, X-XI asrlarda ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni egallagan.

## Naqqoshlik o'ymakorlik va Xattotlik

IX-XII asr boshlarida me'morchilik bilan birga naqqoshlik va o'ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topadi. Imoratning peshtoqi, eshigi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi. Bu davrda xattotlik xalq san'atining muhim va keng tarqalgan sohalaridan biri edi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo'lyozma kitoblardan nusxalari faqat qo'lda ko'chirilishi tufayli xat-totlik san'ati ancha rivoj topdi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me'moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatiladi.

## Musiqa san'ati

IX-XIII asr boshlarida musiqa san'ati ham g'oyat taraqqiy qiladi. Bayramlar, to'ylar, xalq sa yillari va boshqa marosimlar, shubhasiz, kuy va qo'shiqsiz o'tmas edi. Bu davrda sozandalar ud. tanbur, qo'biz, rubob, nay, surnay, karnay, qo'shnay va qonun kabi g'oyat xilmaxil torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblaridan keng foydalanganlar. Xalq kuylari asosida keyinchalik tojik va o'zbek xalqlarining mumtoz kuyi «Shashmaqom» uchun poydevor bo'lgan *«Rost», «Xusravoniy», «Boda», «Ushshoq», «Zerafkanda» «Buslik», «Sipohon», «Navo», «Basta», «Tarona»* kabi yangiyangi kuylar ijod etilgan. Musiqa san'ati she'riyat hamda musiqashunoslik ilmi bilan uzviy bog'langan holda taraqqiy etadi.

## Din

IX-XIII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini xalq hayotida muhim o'rin egallaydi. Movarounnahr aholisi islom dinini qabul qilib, shariat ahkomlarini bajarishga, arab till va yozuvini o'rganishga kirishdi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi. XII asrda esa Buxoroning Darvozayi Mansur mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus *«Faqihlar madrasasi»* qurilgan. Bunday oliy dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni karim, Hadisi sharif va arab tilini mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkomlarini har tomonlama chuqur o'rgatishda *«Tafsir»* — Qur'oni karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma'lumot beradi.Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida ayniqsa Buxoro shahri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, qozilar, imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab «Qubbat ulislom» — «Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topadi.

## Tasavvuf

Tasavvuf o'rta asrlar musulmon Sharqida keng tarqaladi. Bu ta'limot dastlab VIII asr o'rtalarida Iroqda yuzaga kelgan. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Turkistonning turli o'lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo'ladi. Turkistonda XII asrda *Yassaviya*, XII asr oxirida Xorazmda *Kubroviya*, XIV asrda Buxoroda *Naqshbandiya* va boshqalar vujudga keladi. Movarounnahrda keng yo yilgan tasavvuf — Yassaviya tariqati bo'lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur *«Hikmat»* asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g'oyasi olg'a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog'atidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo'lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas, Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsada, inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday moldunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi. Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri **Najmiddin Kubro** (1145-1221) edi. U Xorazmda «Kubroviya» tariqatiga asos soladi. Yassaviy tariqatidan farqli o'laroq, Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo nozne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi.

- ***Tasavvuf (sufiylik) — musulmonlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadrqimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o'zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da'vat etuvchi ta’limot***

- ***Tariqat — tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni, komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi yo'I***

Tasavvuf XIV asrda *naqshbandiya* tariqatida yanada rivoj topadi. Unga **Bahouddin Naqshband** asos soladi. U 1318 yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni puxta o'rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan. Xoja Bahouddin *«Hayotnoma»* va *«Dalil al-oshiqin»* nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning *«Dil bayor-u dast ba kor»* («ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l mehnat bilan band bo'lsin») degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Naqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shadilar. Mustaqillik sharofati bilan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro singari bobokalonlarimizning aziz nomlari tiklandi, qadamjolari obod etildi. Asarlari chop etilib, ularning bebaho ma'naviy meroslaridan hozirgi avlodlar bahramand bo'lmoqdalar. Holbuki islomiy mafkura va tasavvuf ta'limoti asosida ajdodlarimiz kamol topib, o'zidan o'chmas tarixiy meros qoldirdi.

Bu davrda yo`nilgan tosh, pishiq g`isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari - *bandlar, novalar, ko`priklar, sardobalar* va *korizlar* barpo etiladi. Bunday inshootlarning o`lchamlari matematika nuqtayi nazaridan g`oyat puxta ishlangan. Masalan, X asrda Nurota tizmalaridagi past tog` darasi to`silib barpo etilgan **Xonbandi** nomli suv omboriga 1,5 mln metr kub suv to`plangan. To`g`on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan qurilgan. Bu suv omborini qurishda suvning vertikal va gorizontal bosim kuchi va bu hududlarda tez-tez sodir bo`ladigan zilzilalarning silkinish kuchlarini ham hisobga olganlar. Bu, shubhasiz, XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to`g`risida yaratilgan qonun kashfiyotchisidan qariyb 7 asr muqaddam movarounnahrlik muhandislarga ma'lum ekanligidan dalolat beradi.

**Turar joylar**

X asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo`shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib ustunlari-yu sarrovlari va to`sinlarigacha yog`ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g`isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlarni qurish hozirgacha saqlanib keladi.

*Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro* va *Poykand* shahar xarobalarida kovlab ochilgan turar joy qoldiqlaridan ma'lum bo`lishicha, X-XI asrlarda ham paxsa va xom g`ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o`rinni egallagan.

**Naqqoshlik va o`ymakorlik**

IX-XII asr boshlarida me'morchilik bilan birga naqqoshlik va o`ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topadi. Imoratni o`ymakor ustun va to`sinlar, devorlarini bo`yoqli yoki ganchkori naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Bu davrga kelib naqqoshlik va tasviriy san'at o`zgacha tus oladi. Endilikda jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab geometrik va islimi gulli naqshlar ishlashga o`tiladi. Imoratning peshtoqi, eshigi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi.

## 4 - mavzu: IX – XIII asrlarda O’zbekiston madaniyati va san’ati. 6- soat.

**1 - mashg'ulot: 2 - soat**

**– KEYS – STADI**

**O’qitishning keys – texnologiyasi**

**4.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli**

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. VIII asr o’rtalarida madaniy va ijtimoiy hayot.<br>2. Me’morchilik san’atida yangi tipdagi binolar, ijodiy g’oyalar.<br>3. Qurilishda pishiq g’ishtning keng qo’llanilishi va me’morchilikning |

| | |
|---|---|
| | murakkab kompozisiyalarining yaratilishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** IX – XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * VIII asr o'rtalarida madaniy va ijtimoiy hayot, uning rivojlanish tarixi to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Me'morchilik san'atida yangi tipdagi binolar, ijodiy g'oyalar o'rganilib, tahlil qiladi, tushuntirib beradi.<br>* Qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi va me'morchilikning murakkab kompozisiyalarining yaratilishi to'g'risida tushuncha beradi. | * VIII asr o'rtalarida madaniy va ijtimoiy hayotini aytib beradilar.<br>* Me'morchilik san'atida yangi tipdagi binolar, ijodiy g'oyalarning yaratilishini gapirib beradi.<br>* Qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi va me'morchilikning murakkab kompozisiyalarining yaratilishini muhokama qiladilar . |
| **O'qitish usullari va texnika** | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| **O'qitish vositalari** | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| **O'qitish shakllari** | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**4.1.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi**

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. mavzuga kirish.<br>(20 minut) | 1.1.Mavzu bo'yicha dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy<br>(50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. VIII asr o'rtalarida madaniy va ijtimoiy hayot qanday bo'lgan?<br>2. Me'morchilik san'atida yangi tipdagi qanday binolar qurilgan?<br>3. Qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi va me'morchilikning murakkab kompozisiyalarining yaratilishi to'g'risida nimalarni bilasiz? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich.<br>Yakuniy bosqich.<br>(10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

1 - mashg'ulot bo'yicha glossariy

- ✓ **qarluqlar — qadimiy turkiy qabilalardar biri. Dastlab Oltoyning g`arbiy qismida Irtish daryosi bo`yida yashaganlar. Bu daryoning bir irmog`i hozir ham Qarluq deb ataladi.**
- ✓ **O`g`uzlar — Markaziy va O`rta Osiyoda yashagan turkiy qabila.**
- ✓ **G`oziy — Haq din uchun kurashuvchi jangchi.**
- ✓ **Etnogenez — xalqlarning nasl-nasabi, kelib chiqishi.**
- ✓ **Safforiylik — miskar hunarmandlar.**
- ✓ **Xutba — juma nomozida hukmdor nomini aytib uning haqiga duo o`qish.**

**2 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. Somoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat va san’at.

2. Somoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo’rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e’tibor berilishi.

IX asrda Movarounnahrning siyosiy hayotida ham o`zgarishlar yuz beradi. Yurtga avval Nuh, so`ngra Ahmad boshchilik qiladi. Har biri o`z hukmronligi davrida o`z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning o`g`li Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o`tadi. Nasr butun Movaroun- nahrning hukmdoriga aylanadi, U kumush dirham zarb etadi.

**Ismoil Somoniy**

Ismoil Somoniy o`rta asrlarning qobiliyatli, serg`ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam davlat tuzishga intildi**.** Dashtlik qabilalarning Movarounnahr viloyatlariga bo`lgan uzluksiz

bosqinlari barham topib, aholi vohalar atrofi bo`ylab mudofaa devorlari-yu son-sanoqsiz qal'alarni bino qilish va ularni muttasil ta'mirlab Iturishdek og`ir, mashaqqatli mehnatdan va tashvishdan forig` bo`ladi. 300 km dan oshiqroq masofada Buxoro vohasining atrofini o`rab turgan qadimiy mudofaa inshooti—Kanpirak (Kampir) devorining har yilgi odatiy hashari to`xtatiladi.

Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o`z qo`l ostida birlashtirdi. Buxoro shahri poytaxt bo`lgan.

**Somoniylarda boshqaruv tizimi**

. **Nasr II (914-943)** davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama mana shu maxsus binoga joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniy va zodagon dehqonlardan bo`libgina qolmasdan, shu bilan birga ular muayyan bilimlarga ega bo`lishi shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan birmuncha xabardor bo`lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan.

Viloyatlarda barcha devonlarning vakillari bo`lgan. Viloyat devonlari bir tomondan mahalliy hokimga, ikkinchi tomondan esa, markaziy mahkamaning tegishli devonigtf bo`ysunar edilar.

**IX asr oxirlarida Movarounnahr xalqi Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo`ldi.**

**Iqto mulki**

X asrda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlaydi. Bunday mulk "iqto", unga ega bo`lgan mulkdorlar *"muqto"* yoki *"iqtodor"* deb yuritilardi. Iqto tarzida esa ayrim viloyat yoki shaharlar va tumanlar hadya etilgan. Iqto dastavval asosan oliy tabaqa zodagonlar: sulola a'zolari - amirzodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Iqto mulklari avvalda bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan naslga o`tkazilmagan. Iqtodorlar o`ziga in'om qilingan hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlarning ma'lum qismini yig`ib olish huquqiga ega bo`lganlar.

**Islom dini rivoji**

Movarounnahrning ravnaqida islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo`ldi. Shu boisdan ularning obro`yi oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko`plab ibodatxonalar, shu jumladan *jome masjid*, *xonaqoh* va *namozgohlai* bino qilindi. Shu davrda Buxoro shahrida musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh-madrasa bunyod etiladi. Buxoroning bu qadimiy madrasasi shaharning **Darvozayi Mansur** mahallasida joylashgan edi. Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda^ ***"ustod"*** deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom ***"shayx ul islom"*** nomi bilan yanada ulug`landi. Ustoddan keyin ***xatib**lar* turardi.

Somoniylar masjid, madrasa va xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-u xarajatlari uchun katta-katta mulklar ajratib berganlar.

**Hunarmandchilik**

Movarounnahr va Xorazm shaharlarfda *to`qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik* va *duradgorlik* kabi kasb hunarlar ancha rivoj topadi. Natijada shaharlarning umumiy qiyofasi tubdan o`zgaradi. Unda *katta-katta oliy imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh* va *karvonsaroylar* qad ko`tardi. Endilikda shaharlar o`ndan ortiq darvozali kattagina hunarmandchilik markaziga aylanadi.

Shaharning do`nglik yerida joylashgan arkda odatdagidek podshoning qarorgohi - *dargoh, xazina,* chaqa-tangalar so`qiladigan zarbxona va qamoqxona boiardi. Uning markazida *registon maydoni, devonlar, mahkama saroyi,* shuningdek, amirzodalar, saroy a'yonlari, ruhoniylar, mulkdor dehqonzodalar va davlatmand savdogarlarning hashamatli qasrlari, qurol-yarog`, asbob, egar-jabduq yasaydigan ustaxonalar, hunarmandchilik do`konlari va savdo rastalari joylashgan. Bu davrda shaharga atrof qishloqlardan kosiblar, savdogarlar va boshqalar kelib o`rnashib, uning girdi bo`ylab kosib va hunarmandlarning yangi-yangi mahalla-ko`ylari, bozor va rastalar paydo bo`ladi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Binkat, Kesh, Axsikat kabi shaharlar o`rta asr hunarmandchiligining rivoj topgan yirik markazi va gavjum maskan qiyofasini oladi.

Samarqandda yuqori navli qog`oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o`zining *ko`nchilik* mahsulotlari va *charm mollari* bilan, Iloq esa *kumush* va qo`rg`oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi. Xorazmda *qayiqsozlik* taraqqiy qiladi. Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlar Amudaryo bo`ylab to Orol dengizigacha muttasil mol tashib savdogarlarning yukini yengil, uzog`ini yaqin qilgan.

Bu davrda shaharlar bilan bir qatorda qishloqlar htm mamlakatning iqtisodiy hayotida katta o`ringa ega edi. Buxoroning **Zandana** qishlog`ida to`qilgan malla rang bo`z *"zandanachi",* Samarqandning **Vador** qishlog`ida tayyorlangan mato *"vadoriy"* nomlari bilan Sharqda mashhur edi.

**Konchilik**

Movarounnahrning tog`li mintaqalarida qadimdan davom qilib kelayotgan konchilik IX-X asrlarda nihoyat darajada taraqqiy qiladi. Zarafshon tog`larida *temir, mis, qo`rg`oshin, oltin, kumush, feruza* va boshqa qimmatbaho toshlar qazib olinardi. Iloq viloyati kumush va qo`rg`oshinlarni qazib olishning yirik markazlaridan biri edi. Farg`ona vodiysi tog`laridan *temir, qo`rg`oshin, kumush, simob, mis, qalay, feruza, novshadil* qazib chiqarilgan. Hatto Farg`onadan o`sha vaqtlardayoq *toshko`mir* va *neft* topilib ishlatilgan. Konlarning yaqinida rudalarni eritib ma'dan oluvchi ohangarlar va konchilarning qishloqlari bo`lardi.

**Ichki va tashqi savdo**

IX-X asrlarda mamlakatda ichki va tashqi savdo kengaydi. Qadimgi karvon yo`li bo`ylab quduqlar qazilib, har bir bekatda rabotlar bino qilinadi. Karvonlar o`tadigan shahar va qishloqlarda karvonsaroylar quriladi. Ularda savdogarlar- u sarbonlar va sayyohlar uchuivfrujqilar, mollari uchun omborxonalar, tuyalar, otlar, xachirlar va eshaklar uchun og`ilxonalar bo`lardi, zarur yem-xashaklar va oziq-ovqatlar saqlanardi.

Shimoliy yo`l orqali Janubiy Sibir va Mo`g`ilistonga Movarounnahrning shahar va qishloqlaridan bo`z, kiyim-kechak, egar-jabduq, o`q-yoy, qilich, idish-asbob, zargarlik buyumlari, dori- darmon, quruq meva, kunjut va zig`ir moyi va boshqa shu kabi mollar olib borilgan. Sibirdan turli xildagi qimmatbaho mo`ynalar, chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari keltirilgan. Xitoyga shisha va shisha buyumlar olib borilar edi. Xitoydan ipak, shoyi gazlamalar, chinni idishlar olib kelingan.

Itil, Xazar va Bulg`orga Movarounnahr va Xorazmdan *guruch, quruq meva* (yong`oq, mayiz, o`rik va h.k.), *kanakunjut moyi, shirinliklar, tuzlangan baliq, bo`za, mushk-anbar, paxta, ip* va *shoyi matolar, movut, kimxob, gilam* va *choyshablar, kamon,* shuningdek, Xitoy, Hindiston, Eron, Kichik Osiyo, Iroq va boshqa mamlakatlardan keltirilgan mollar chiqarilar edi.

Bulg`or va Xazardan qimmatbaho *mo`ynalar,* shuningdek, *mum, shamlar, o`qlar, cho`qqi qalpoqlar, baliq moyi, asal, qo`y* va *qoramol* olib kelinar edi.

**Pul**

Ichki bozorlarda "fals" deb atalgan mis chaqa, xalqaro savdo-sotiqda esa kumush tanga - dirhamlar ishlatilardi. Mis chaqalarni markaziy hukumat ham, shuningdek, sulola a'zolaridan bo`lgan ba'zi mahalliy viloyat hokimlari ham chiqarar edilar. Kumush tangalar faqat hukumat boshlig`i nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshda davlat zarbxonalarida so`qilar edi. Somoniylar *"ismoiliy", "muhammadiy"* nomlari bilan yuritilgan bir necha kumush dirhamlar chiqargan edilar. Ular orasida "ismoiliy" tangasi yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, u asosan xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan.



**Somoniylardan Abdulmalik bin Nuh tangasi. Samarqand. 961-962-yillar.**
**Qoraxoniylardan Ibrohim ibn Nasr dirhami. Samarqand. 1041-1042-yillar.**

| **X asrga kelib tarix sahnasida ikkita yangi ijtimoiy tabaqa paydo bo`ldi.** |
| --- |

X asr o`rtalarida Issiqko`lning janubi va Koshg`arda yashagan *yag`mo* qabilasi o`zlaridan shimoli-sharqroqda yashovchi chigil qabilasi bilan yagona ittifoqqa birlashgan. So`ngra Yettisuvga xuruj qilib qarluqlarni bo`ysundiradi va

bu ulkan hududda *Qoraxoniylar davlati tashkil topadi.* Mazkur davlatga Abdulkarim Sotuq Bug`roxon asos soladi. Uning poytaxti Bolasog`un shahri edi.

Qoraxoniylar davlatining hukmdorlari *"arslonxon"* va *"bug`roxon"* unvonlari bilan yuritilgan. Bu ikki so`z oliy darajali hukmdor ma'nosini anglatgan. Buyuklik yoki ulug`lik esa qadimda turkiy xalqlarda *"qora"* so`zi bilan sifatlangan. Shu boisdan taxtda o`tirgan arslonxon yoki bug`roxonlar *"qoraxon"* hisoblangan. Ular hukmronlik qilgan davlat esa tarixda ***"Qoraxoniylar davlatr*** nomi bilan shuhrat topgan. Aslida "arslon" *chigil* qabilasining totemi - ajdodi ibtidosi hisoblangan. "Bug`ro" esa *yag`molarning* totemi bo`lib, og`ir yuk ko`taradigan ikki o`rkachli tuya ma'nosini anglatgan. Qoraxon *"tamg`achxon"* deb ham yuritilar edi.

**X asr oxirida Somoniylar hukmronlik qilgan hudud o`rnida *Qoraxoniylar* va *G`aznaviylar* davlati tashkil topdi.**

**Shaharlar, savdo**

XI-XII asrlarda ayniqsa shaharlar kengayadi, aholisining soni ko`payib, ular yanada gavjumlashadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O`zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savao ucnun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa-tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. Shaharlar markazida shohona saroylar, masjid, madrasa, minora va hammom kabi ko`plab mahobatli imoratlar qad ko`taradi. Shahar ichi va uning atrofida savdo va hunarmandchilik mahallalari, karvonsaroylar va bozorlar barpo etiladi. Bu davrda shaharlarda ayniqsa, kulolchilik, shishasozlik, miskarlik va chilangarlik rivoj topadi. XI-XII asrning sirli koshinkor va qabartma naqshli sopol idish va tovoqlari, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor mis idishlari o`zining xilma-xilligi va yuqori darajada nafisligi bilan ajralib turadi.

Hunarmandchilikning taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshadi. Natijada qoraxoniylar va ularning viloyat hokimlari eloqxonlar tomonidan kumush va misdan ko`plab chaqa va tangalar zarb qilinadi. O`sha vaqtlarda Bolasog`un, Taroz, O`zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda pul ishlab chiqaradigan zarbxonalar bo`lgan.

XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoli-g`arbiy va g`arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi-g`arbda Iroqqa qadar borar edi, janubi-sharqiy hududlari G`azna viloyatidan, shirnoli-sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o`tar edi.

Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti **Urganch** shahri edi. Xorazmshoh *"Iskandari soniy"* deb ulug`lanadi.

**"Bayt ul-hikmat"**

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo`lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi.

Movarounnahr istilo qilingach, zabt etilgan o`zga mamlakatlar qatorida, bu o`lkada ham faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning ham davlat tili, ham fan tili edi. Shu boisdan arab tilining o`rni va ahamiyati oshib, uni o`zlashtirishga boigan intilish kuchli bo`ldi.

Arab tiliga bo`lgan ehtiyoj va intilish tufayli ko`p vaqt o`tmay Movarounnahrda arab tili va yozuvini yaxshi o`zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo`ladi. Davlatni boshqarishda abbosiylar ma'muriyati ayniqsa ko`plab bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat boshqaruvi ishlariga yaroqli bo`lgan bilimdonlar hali oz, bori ham zaif edi.

Bag`dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi.IX asrda bu shaharda "Bayt ul-hikmat" tashkil etilgan edi. "Bayt ul-hikmat"da katta kutubxona, Bag`dod va Damashqda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o`rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug`ullanardilar. *Al- Xorazmiy, Ahmad al-Farg`oniy, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos Javhariy* va *Yahyo bin AM Mansur* kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o`rta asr ilm-u faniga katta hissa qo`shadilar.

**Madaniy va ma'naviy uyg`onish**

**Somoniylar davrida siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko`tarilish keyinchalik Xorazmning yuksalishi, madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi.**

IX asrning ikkinchi yarmida xalifalik hukmronligi tugab, Somoniylar boshqaruvining qaror topishi bilan madaniy hayotning rivoji uchun keng yo`l ochiladi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshlaydi. Movarounnahrning madaniy hayotid-a uyg`onish davri boshlandi.

Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi markaziy shaharlarda kutubxonalar, kitob do`konlari qurilgan. Movarounnahr va Xorazm jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan buyuk siymolarni o`z bag`rida tarbiyalab kamolotga yetkazdi.

1004-yil «Dorul hikmat va maorif» («Hikmat va maorif uyi») - «Ma'mun akademiyasi» shakllangan. Uning asosini Abu Nasr ibn Iroq (10-a. - 1034),Abulhayr ibn Hammor (991 - 1048), Abu Sahl Masihiy (970 - 1011), Abu Rayhon Beruniy (973 - 1048), Abu Ali ibn Sino (980 - 1037) va b. tashkil etgan. Ularning ilmiy faoliyati tufayli qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug`orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan. 1017-yil Mahmud G`aznaviy Xorazmga bostirib kirgan. «Dorul hikmat va maorif» faoliyati tugatilgan, olimlarning ko`pchiligi G`azna shahriga majburan olib ketilgan.

1997-yil 11-noyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to`g`risida»gi farmoni chiqdi. 2005-yil kuzida Respublikamizda «Xorazm Ma'mun akademiyasi»ning 1000 yiligi nishonlanadi.

Arab yozuvida badiiy ijodni ta'qiqlamagan xolda, samoniylar oddiy xalq anglaydigan tilda yozgan mualliflarni to'la qo'llab-quvvatladilar. Somoniylar nafaqat adabiyot axliga, barcha olimlarga xomiylik ko'rsatib, Sheroz kutubxonasi bilan raqobat darajasida bo'lgan ulkan kutubxonani asosladilar. Ulug' alloma ibn Sinoning xotirlashicha, kutubxona ko'pxonali bo'lib, xonalarning birida arab kitoblari, she'rlari boshqasiga fikxga oid kitob taxlangan. Shu tartibda xar bir xonada fanning ma'lum soxasiga doir kitoblar jamlangan.

Kitob yozishning kuchayishi, xattotlik san'atining, uni bezash, naqshlar bilan ko'rkam qilish musavvirlik san'atining rivoj topishiga olib kelgan.

Umuman bu davrda qo'lyozmalarni ko'chirish, tayyorlash, to'plash madaniy xayotning muxim soxasiga aylangan. Ma'lumki, asar faqat qo'lda bir nusxadangina yozilar edi. Bosmaxona esa bir necha asrdan so'nggina paydo bo'lgan. Yozilgan asarni nusxasini ko'paytirish, boshqalarga yetkazish, undan nusxa olish zarur edi. Shuning uchun nusxa ko'chirish, asarni ko'paytirishga katta e'tibor berildi. Asta-sekin maxsus nusxa ko'chirish san'ati va xunari shakllandi, shu tufayli bir joyda yozilgan asarlarni boshqa shaxar, o'lkalarida tarqatish imkoni vujudga keldi.

Maxsus nusxa ko'chirish bilan shug'ullanuvchilar, xusni xat soxiblari paydo bo'lib, ular buyurtma yoki sotish uchun asarlardan nusxa ko'chirish bilan shug'ullanganlar. Kitobdan nusxa ko'chirish, kitob savdosining keng yo'lga qo'yilishi xamda ma'rifat axlini tinimsiz faoliyati tufayli Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur, Bag'dod, Damashq singari shaxarlarda katta kutubxonalar vujudga keldi. Bozorlarda kitob rastalari ko'paydi, kitob savdosi, uni tarqatish bilan shug'ullanuvchilar faoliyati kengaydi. Markaziy Osiyoga Bag'dod, Misr, Eron va Ispaniyaning turli shaxarlaridan qo'lyozmalar keltirilib, yurtdoshlarimizning qo'lyozma asarlari boshqa o'lkalarga olib ketiladigan bo'ldi .

**Turkiy yozma adabiyot**

Bu davrda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og`zaki adabiyoti bilan bir qatorda, yozma adabiyot yuzaga keladi. Qator yirik asarlar bitildi. Ulardan eng nodiri **Yusuf Xos Hojibning** (XI asr) *"Qutadg`u bilig"*, **Mahmud Koshg`ariyning** *"Devonu lug`atit-turk"*, **Ahmad Yugnakiyning** *"Hibat ul-haqoyiq"*, **Ahmad** Yassaviyning *"Hikmat"* kabi asarlaridir.

Bu davr turkiy adabiy tili eski o`zbek va uyg`ur tillarining vujudga kelishida ham muhim bosqich bo`ldi.




## 2 - mashg'ulot: 2 - soat

## – KEYS – STADI

## O'qitishning keys – texnologiyasi

## 4.2.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.** |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat va san'at.<br><br>2. Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e'tibor berilishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** IX – XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati | |

| | |
|---|---|
| va san’ati to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Somoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo’rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e’tibor berilishi to'g'risida tushuncha beradi, tahlil qiladi.<br><br>* Kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik sohalarining tarixi, rivojlanishi va bugungi kundagi o'rni, ahamiyati to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>* IX – XIII asrlarda hattotlik va miniatyura san’ati to'g'risida tushuncha beradi | * Somoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo’rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e’tibor berilishi to'g'risida gapirib beradilar.<br><br>* Kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik sohalari to'g'risida o'z bilganlarini tushuntirib beradilar.<br><br>* IX – XIII asrlarda hattotlik va miniatyura san’ati haqida gapirib beradilar |
| **O'qitish usullari va texnika** | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| **O'qitish vositalari** | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| **O'qitish shakllari** | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 4.2.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1.Mavzu bo’yicha dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Somoniylar davri madaniyati va san'ati rivoji to'g'risida nimalarni bilasiz?<br>2. Me’morchilik san’atida yangi tipdagi qanday binolar qurilgan?<br>3. Qurilishda pishiq g’ishtning keng qo’llanilishi va me’morchilikning murakkab kompozisiyalarining yaratilishi to'g'risida nimalarni bilasiz? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

**3 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. IX - XIII asrlarda kulolchilik san'ati, shisha san'ati va zargarlik.

2. IX – XIII asrlarda hattotlik va miniatyura san’ati

**Xattotlik**

Bu davrda xattotlik xalq san'atining muhim va keng tarqalgan sohalaridan biri edi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo`lyozma kitoblardan nusxalari faqat qo`lda ko`cmriiisni tutayli xattotlik san'ati ancha rivoj topdi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me'moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatiladi. Shunday qilib, IX-XIII asr boshi me'morchiligi va unda ishlatilgan naqsh uslublari, xattotlik namunalari o`z navbatida mehnatkash aholining did-nafosat, binokorlik g`oyalari va sermazmun ijodini yaqqol namoyon etadi.

**Musiqa san'ati**

IX-XIII asr boshlarida musiqa san'ati ham g`oyat taraqqiy qiladi. Bayramlar, to`ylar, xalq sayillari va boshqa marosimlar, shubhasiz, kuy va qo`shiqsiz o`tmas edi. Bu davrda sozandalar *ud, tanbur, qo`biz, rubob, nay, surnay, karnay, qo`shnay* va *qonun* kabi g`oyat xilma-xil torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg`u asboblaridan keng foydalanganlar.

Xalq kuylari asosida keyinchalik tojik va o`zbek xalqlarining mumtoz kuyi "Shashmaqom" uchun poydevor bo`lgan *"Rost", "Xusravoniy", "Boda", "Ushskotf, "ZerafkandcT "Buslilc", "Sipohon", "Navo", "Basta", "Tarona"* kabi yangi-yangi kuylar ijod etilgan. Bu soz va kuylarning ko`pi o`zbek va qardosh xalqlarining madaniy merosi tarzida hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Musiqa san'ati she'riyat hamda musiqashunoslik ilmi bilan uzviy bog`langan holda taraqqiy etadi.

**Din**

**Movarounnahrda birinchi madrasa X asrda Buxoroda ochilgan. U Farjak madrasasi deb atalgan.**

IX-XIII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o`rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko`tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Movarounnahr aholisi islom dinini qabul qilib, shariat ahkomlarini bajarishga, arab tili va yozuvini o`rganishga kirishdi.

Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko`tardi.

XII asrda esa Buxoroning Darvoza mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus *"Faqihlar madrasasi"* qurilgan. Bunday oliy dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni Karim, Hadisi sharif va arab tilini mukammal o`rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkomlarini har tomonlama chuqur o`rgatishda *"Tafsir"* -Qur'oni Karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma'lumot beradi.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ`ibotining kengayishida ayniqsa Buxoro shahri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko`p yetuk fiqhshunos olimlar, qozilar, imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab *"Qubbat ul-islom"* - *"Islom dinining gumbazi"* nomi bilan shuhrat topadi.

Ayni paytda hukmron tabaqalarning mehnatkash aholi ustidan jabr-zulmi kuchayib borgan. Bu islom talablariga zid hodisa edi. Mana shunday g`oyat mushkul sharoitda jabrdiyda xalq o`z dard-u alamiga tasavvufdan malham axtaradi.

**Tasavvuf**

Tasavvuf o`rta asrlar musulmon Sharqida keng tarqaladi. Bu ta'limot dastlab VIII asr o`rtalarida Iroqda yuzaga kelgan.

Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Turkiston va Movarounnahrning turli o`lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo`ladi. Turkistonda XII asrda *Yassaviya,* XII asr oxirida Xorazmda *Kubraviya,* XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi.

Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf Yassaviya tariqati bo`lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur *"Hikmat"* asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo`la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to`ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g`oyasi olg`a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog`atidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo`lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas, Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo`lida bo`lmog`i hamda tarkidunyochilik targ`ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug`lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.

Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri **Najmiddin Kubro** (1145-1221) edi. U Xorazmda "Kubraviya" tariqatiga asos soladi.

Tasavvuf XIV asrda *naqshbandiya* tariqatida yanada rivoj topadi. Unga **Bahouddin Naqshband** asos soladi. U 1318-yilda Buxoi\o yaqinida Qasri Hinduvon qishlog`ida matolarga naqsh bosuvchj hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida o`qish va ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni puxta o`rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan.

Mustaqillik sharofati bilan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro singari bobokalonlarimizning aziz nomlari tiklandi, qadamjolari obod etildi. Asarlari chop etilib, ularning bebaho ma'naviy meroslaridan hozirgi avlodlar bahramand bo`lmoqdalar.

**Mo'g'ullar davrida madaniy hayot**

*Fan, adabiyot, ma'rifat* va *madaniyatning* ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. Xususan, shaharsozlik bilan bog`liq bo`lgan binokorlik va me'morchilik yo`lga qo`yiladi. *Koshinpazlik, ganchkorlik, par chins ozlik, me 'moriy g 'isht o`ymakorligi* va *me'moriy xattotlik* asriy an'ana va tajribalar asosida tiklanib, hatto birmuncha taraqqiy ham qiladi. Binokor-me'morlar qo`li bilan qurilgan ko`rkam imorat-u inshootlar: *masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara, minora* va *saroylar* qad ko`taradi. Ularning ayrimlari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Buxoro shahridagi **Sayfuddin Boxarziy, Bayonqulixon** maqbaralari, Samarqanddagi mashhur *Shohizinda* me'moriy ansamblining asosiy qismi bo`lgan **Qusam ibn Abbos** maqbarasining ziyoratxonasi, *Ko`hna Urganchd&gi* balandligi 62 metrli ulug`vor minora, **Najmiddin Kubro** va **To`rabekxonim** maqbaralari shular jumlasidandir.

XIII asr o`rtalarida Buxoroda *"Mas'udiya"* va *"Xoniya"* nomlari bilan shuhrat topgan ikkita madrasa bino qilinadi, ularning har birida mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko`radi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida fors-tojik she'riyatining yirik namoyandalaridan **Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy** kabi buyuk siymolar yashab ijod etganlar.

**Jaloliddin Rumiy (1207-1273)** buyuk tasavvuf shoiri bo`lib, 36 ming baytdan iborat *"Masnaviyi ma'naviy"* nomli poemasini yaratdi. Bu asarda u tasavvuf falsafasining asoslarini talqin etadi.

Bu davrning mashhur mutafakkir adiblarining yana biri **Sa'diy Sheroziy** (1219-1293) dir. U o`zining "Guliston" "Bo`ston" nomli asarlaridagi sermazmun g`azallari bilan sharq adabiyotining taraqqiyotida o`chmas iz qoldirdi. U o`z asarlarida ona yerga bo`lgan muhabbat va insonparvarlik g`oyalarini mohirona bayon etadi.

O`z davrining buyuk adiblaridan **Amir Xusrav Dehlaviy (1253- 1325) Nizomiy Ganjaviydan** so`ng **"Xamsa"** dostonini yozgan ham shoir, ham musiqashunos mutafakkirlardan edi. U *"Zafarlar kaliti", "Falakning to`qqiz gumbazi"* kabi asarlar muallifidir.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarixnavislik ham taraqqiy qiladi. Bu davrda **Juzjoniyning** *"Tabaqoti Nosiriy"* ("Nosir turkumlari"), Juvayniyning

*"Tarixi jahonkushoy"* ("Jahon fotihi tarixi"), **Rashiduddin Fazlullohning** *"Jome at-tavorix"* ("Tarixlar to`plami") kabi qimmatli tarixiy asarlari yoziladi. Bu asarlar o`sha davr tarixi, ayniqsa mo`g`ullar istibdodini o`rganishda birinchi darajali manba hisoblanadi.

Bu davrda turkiy tildagi adabiyot ham rivoj topa boshlaydi. Keyinchalik u *"Chig`atoy till"* va *"Chig`atoy adabiyoti"* nomini oladi.

**3 - mashg'ulot: 2- soat**

**– KEYS – STADI**

**O'qitishning keys – texnologiyasi**

**4.3.1. O'qitish texnologiyasi modeli**

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.** |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e'tibor berilishi.<br>2. Kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik.<br>3. IX – XIII asrlarda hattotlik va miniatyura san'ati |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** IX – XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |

| | |
|---|---|
| * Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e'tibor berilishi to'g'risida tushuncha beradi, tahlil qiladi.<br><br>* Kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik sohalarining tarixi, rivojlanishi va bugungi kundagi o'rni, ahamiyati to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>* IX – XIII asrlarda hattotlik va miniatyura san'ati to'g'risida tushuncha beradi | * Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e'tibor berilishi to'g'risida gapirib beradilar.<br><br>* Kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik sohalari to'g'risida o'z bilganlarini tushuntirib beradilar.<br><br>* IX – XIII asrlarda hattotlik va miniatyura san'ati haqida gapirib beradilar |
| O'qitish usullari va texnika | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 4.3.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi

| Ish | Faoliyatning mazmuni |
|---|---|

| jarayon lari vaqti | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| I-bosqich. mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. Mavzu umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. O’qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berib, muhokama qiladilar.<br>1. Somoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlarining hukmdorlari davrida madaniyat, saroy va qasrlar, mehmonxona va hammomlarda mavzuli va manzarali rasmlar va bo’rtma tasvirlar bilan bezatilishiga e’tibor berilishi to'g'risida savollar beradi, bahs - munozara tashkil etiladi<br>2. Kulolchilik, shisha san'ati, zargarlik sohalari, ularning ahamiyati to'g'risida guguhlarga bo'linib savol - javob o'tkaziladi .<br>3. IX – XIII asrlarda hattotlik va miniatyura san’ati haqida nimalarni bilasiz? Savol - javob o'tkaziladi | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| minut) | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**4 - mavzu: IX – XIII asrlarda O’zbekiston madaniyati va san’ati bo'yicha glossariy**

- ✓ **Mulki devon - davlat yeri.**
- ✓ **Mulki inju - hukmdor avlodlari va noiblariga qarashli yerlar. Mafkura — ma'lum maqsadni ro`yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g`oyalar yig`indisi.**
- ✓ **Tasavvuf (sufiylik) - musulmonlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o`zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da'vat etuvchi ta'limot.**
- ✓ **Tariqat — tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni, komil inson darajasiga erishishni ko`rsatuvchi to`g`ri yo`l.**
- ✓ **Kalom - islom diniy ta'limotini asoslab beruvchi diniy ilm.**
- ✓ **Metafizika - sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo`lmagan obyektlarni (sifat, mazmun, mohiyat, hodisa) tadqiq etuvchi fan.**
- ✓ **Muallimus-soniy - Ikkinchi muallim. Forobiy shu nom bilan ulug`langan (Birinchi i muallim Aristotel hisoblangan).**
- ✓ **Falsafa - hayotdagi barcha narsa va hodisalaming aloqadorligini o`rganuvchi fan.**
- ✓ **Shayx ur-rais — donishmandlar sardori.**
- ✓ **«Bayt ul-hikmat» - Donishmandlar uyi. Islom Sharqining o`sha davrdagi fanlar akademiyasi.**
- ✓ **Miqyos an-Nil - Nil daryosi oqimi sathini o`lchag`ich gidroinshooti.**
- ✓ **Muhaddis - hadis to`plovchi, sharhlovchi ulamo.**
- ✓ **Hadis - Muhammad (s.a.v.) ning so`zlari, qilgan ishlari, ko`rsatmalari.**

✓

**5 - mavzu: Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san'ati. 8- soat.**

**1 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. Amir Temur davri obodonchilik ishlari

2. Hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati.

### Me'morchilik va san'at

O`rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli ta'sir qildi. Uning tashqi qiyofasi va mazmuni tubdan o`zgardi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi natijasida uning yangi yo`nalishda ravnaq topishi uchun qulay sharoit yuzaga keldi. *Samarqand, Buxoro, Urganch, Terrniz, O`zgan* va *Mary* kabi shaharlarda bu davrda ko`plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvonsaroylar quriladi. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy, Namozgoh, Minorayi Kalon harada Vobkent va Jarqo`rg`ondagi minoralar va ko`pgina boshqa binolar o`sha davr me'morchiligining namunalaridandir. Bu yodgorliklar o`ziga xos me'morchilikning rivoj topganligidan dalolat beradi.

Bu davrda yo`nilgan tosh, pishiq g`isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari - *bandlar, novalar, ko`priklar, sardobalar* va *korizlar* barpo etiladi. Bunday inshootlarning o`lchamlari matematika nuqtayi nazaridan g`oyat puxta ishlangan. Masalan, X asrda Nurota tizmalaridagi past tog` darasi to`silib barpo etilgan **Xonbandi** nomli suv omboriga 1,5 mln metr kub suv to`plangan. To`g`on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan qurilgan. Bu suv omborini qurishda suvning vertikal va gorizontal bosim kuchi va bu hududlarda tez-tez sodir bo`ladigan zilzilalarning silkinish kuchlarini ham hisobga olganlar. Bu, shubhasiz, XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to`g`risida yaratilgan qonun kashfiyotchisidan qariyb 7 asr muqaddam movarounnahrlik muhandislarga ma'lum ekanligidan dalolat beradi.

### Turar joylar

X asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo`shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib ustunlari-yu sarrovlari va to`sinlarigacha yog`ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g`isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlarni qurish hozirgacha saqlanib keladi.

*Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro* va *Poykand* shahar xarobalarida kovlab ochilgan turar joy qoldiqlaridan ma'lum bo`lishicha, X-XI asrlarda ham paxsa va xom g`ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o`rinni egallagan.

**Naqqoshlik va o`ymakorlik**

IX-XII asr boshlarida me'morchilik bilan birga naqqoshlik va o`ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topadi. Imoratni o`ymakor ustun va to`sinlar, devorlarini bo`yoqli yoki ganchkori naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Bu davrga kelib naqqoshlik va tasviriy san'at o`zgacha tus oladi. Endilikda jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab geometrik va islimi gulli naqshlar ishlashga o`tiladi. Imoratning peshtoqi, eshigi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi.

3. Amir Temur davrida Samarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishi.

Temur davri me'morchiligi.

**Me’morlik.** O'rta asr o'zbek me’morlik san’ati o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Yangi, chin ma’nodagi aristokratik me’morlik — hashamatli va go'zal binolar qurish san’at uslubi vujudga keldi, rivojlandi. Devoriy rassomchilik, amaliy dekorativ san’at sohasida qator yangi an’analar shakllandi. Jumladan, me’morlikda birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me’morlik majmualari shaharsozlikda muhim o'rinni egallay boshladi. An’anaviy me’morlik shakl va uslublari qayta qurib chiqildi. Ayniqsa, me’morlik yodgorliklarini rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta rangli bezak O'rta Osiyo an’anaviy me’morligining ham ajralmas qismi bo'lgan. Lekin XIV asrga kelib bino ichki va, ayniqsa, tashqi pardozida bu uslub alohida o'rin egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli naqshlar, XIV asr oxiridan keng tarqala boshlagan o'yma sirli naqshlar keng ko'lamda amalga tatbiq etilishi O'rta Sharq xalqlari ijodiy tafakkurining katta yutug'i bo'ldi. O'rta Osiyo me’morchiligidagi bu o'zgarishlar ilk bor ko'hna Urganchdagi To'rabekxonim maqbarasida namoyon bo'lgan edi. Xorazm ustalari yaratgan bu ajoyib yodgorlik an’analari keyinroq Temur farmoyishi bilan Samarqand saltanatining boshqa yerlarida keng foydalanilgan va bu ishlar uchun Xorazm ustalari jalb etilgan. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqandda, ayniqsa, katta qurilish ishlari olib borilgan. Shahar qalin devor bilan o'rab chiqildi. Unga olti darvoza orqali kirilgan. Shahaming baland ark (sitadel)ida Bo'ston saroy, Ko'k saroylar qurilgan. Bu davrda pishiq g'ishtdan qurilgan, moviy rang koshinlar bilan bezatilgan masjid, madrasa va maqbaralar, osmono'par minoralar so'lim tabiat qo'ynida alohida fayz va latofat kashf etgan. Temur davrida shahar va shahardan tashqarida saroylar qurish, istirohat bog'lari yaratish keng tus oldi. Temur nafaqat o'z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda, balki o'z mamlakatining boshqa shaharlarida ham qator hashamatli binolar qurdirdi. Jumladan, Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda maqbara qurdiiganligi shuning isbotidir.

Temur davrida ko'plab saroylar qurilgan. Shular ichida Oqsaroy majmuasi alohida o'rin egallaydi. O'n ikki yildan ortiq vaqt mobaynida qurilgan bu saroy peshtoqi xitoy koshinlari, arabiy naqshlar, gullar va o'ymakorlik bilan bezatilgan. Devoming tashqi tomoni ko'k va oltin ranglardagi naqshli koshinlar bilan pardozlangan. Oqsaroy ichki tomonida katta hovli bo'lib, uning o'rtasida favvora ishlangan. Shu hovlidan kata xonaga kirish eshigi bezakka boy, uning tepa tomoni o'rtasida she'r va quyosh tasviri bo'lgan. Oltin suvi yuritilgan, lojuvard va boshqa ranglar bilan pardozlangan bu saroy chet ellik mehmonlami kutib olish, majlblar o'tkazish uchun foydalanilgan. Oqsaroyda 1404-yili bo'lgan mashhur sayyoh Klavixo uning ichki va tashqi tomoni nihoyatda bezakka boy ekanligini ta'kidlab saroy ustalarining ishini Parij ustalarining ishidan ham yuqori qo'ygan.

Temur davrida ulug'vor masjidlar barpo etildi. Shulardan biri 1399—1402yillarda bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi bo'lib, bu qurilishga Temur alohida e'tibor bergan. Uning farmoniga binoan, masjid tarhi(plani) ishlangan va 1399-yili bo'lajak masjidning poydevoriga birinchi g'isht qo'yildi. Qurilishda Ozarboyjon, Hindiston va Erondan kelgan 200 dan ortiq usta, 500 dan ortiq tosh kesuvchi mehnat qildi. Qurilishda 95 ta fil band bo'ldi. Qurilish ishlari avjiga chiqqan paytda Amir Temur safaiga jo'nab ketadi. Oradan ancha vaqt o'tib, qaytganida masjid deyarli bitgan edi. Lekin Temur bu qurilishdan ko'ngil to'lmaydi. G'azablangan Temur me'morlar boshlig'i usta ***Jaloliddin Mahmud ibn Dovudni*** qatl ettiradi va masjidni qaytadan qurishni buyuradi. Shundan so'ng masjid peshtoqi qaytadan qurilib, keng ko'rinishga ega bo'ldi. Bibixonim masjidi katta to'rtburchak shaklidagi maydonni egallagan, uning atrofi esa devor bilan o'rab chiqilgan. To'rt burchagida minoralar qurilgan. Masjid sharqqa qaragan juda katta peshtoqli darvoza bilan boshlanadi. Masjid chor hovlisi atrofi ustunli ochiq ayvonlar bilan o'ralgan, ikki yon tomoni va o'rtasida uncha katta bo'lmagan peshtoq-gumbazli binolarqurilgan. Hovlining ichkarisida. esa 40 metrli peshtoq va uning burchaklarida esa qirrali minora ishlangan. Shu peshtoq bilan masjidning asosiy ≪muqaddas≫ yarim sferik gumbazli binosi boshlanadi. Masjid ichki va tashqi tomoni bezagiga alohida e'tibor berilgan. Sirli koshinlar bilan bezatilgan, bino dekorida ko'k va sarg'ish oxra, yashil rang gammasi keng o'rinni egallaydi. Ayniqsa, moviy rang butun bino koloritida hukmronlik qilib, uning yaxlit va ulug'vorligini ta'minlab, go'yo uni cheksiz falak bilan musobaqalashayotgandek qilib ko'rsatadi. Qurilishda Sharq va G'arbning ko'p usta-yu naqqoshlari, me'mor-u toshtaroshlari ishtirok etganligi yozuv manbalaridan ma'lum. O'rta asr me'morligining haqiqiy durdonasi bu Temuriylar maqbarasidir. Temur farmoniga binoan qurila boshlagan bu bino O'rta Sharq me'morligida muhim o'rin egallaydi. Bino tantanavor monumentalligi va dekorativ qurilganligi bilan ajraladi. Bino sodda me'morlik hajmlardan sakkiz qirrali asos, silindirik baraban va qirrali ko'k-moviy gumbazdan tashkil topgan. Binoning ichki qismi ham juda serjilva. Uning ichki devorlari marmarbilan pardozlangan, o'yma rangli va oltin suvi yuritilgan naqshlar bino ichki qismiga alohida fayz kiritgan. Temur davri me'morligini ≪Shohizinda≫ me'morlik kompleksisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Afsonaviy

Afrosiyob yonbag'riga joylashgan bu ansambli XI—XII asrlarda bu yerda qurila boshlagan maqbaralar o'rnida barpo etilgan. Bu yer musulmonlarga qadar ham muqaddas signish joyi bo’lgan. Afsonalarga ko‘ra, shu yerdamusulmonlar avliyosi bo’lgan Qusam ibn Abbos maqbarasi bo’lib, go‘yo u shu yerda tirilib yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha shu yerda yashashga qaror qilgan ≪Shohizinda≫ — tirik podshoh≫, ≪tirik shoh≫ nomi shu yerdan olingan. Hozirgi Shohizinda maqbara majmuasi XIV-XV asrlaming birinchi yarmida qurilgan yodgorliklardan tashkil topgan bo'lib, bu majmua Ulug'bek tomonidan qurdirilgan peshtoq bilan boshlanadi. Ichkarida kirishga yaqin joyda XV asming qo‘sh maqbarasi bo'lib, unda gumbaz baland baraban ustiga joylashgan. Zinadan boshlanib qator maqbaralar bir-biriga yaqin qurilgan. Bular Temur tomonidan XIV asrning 70-80-yillarida qurdirilgan. Majmua so'nggida XIV asr o'rtalarida qurilgan Xo'ja Ahmad maqbarasi o'rin olgan. Tuman oqo majmuasi (1372) peshtoqi o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan.

## – KEYS – STADI

### O’qitishning keys – texnologiyasi

### 5.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Amir Temur davri obodonchilik ishlari .Hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti.<br>2. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati. Amir Temur davrida Smarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishi.<br>3. Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari. Kitobat san`atida yangi kashfiyotlar. Amaliy, amaliy-bezak san`ati.<br>4. Bronza, kumush vaoltindasn quyma idishlar yasashborasidagi muvaffaqiyatlar. Me`morchilik. |

| | |
|---|---|
| | Shaharsozlik. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san'ati to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Amir Temur davri obodonchilik ishlari .Hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>* Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati. Amir Temur davrida Smarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishini izohlaydi, ekran orqali namoyish etib, tushuntirib beradi..<br><br>* Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari. Kitobat san`atida yangi kashfiyotlar. Amaliy, amaliy-bezak san`ati to'g'risida gapirib beradi.<br><br>* Bronza, kumush vaoltindasn quyma idishlar yasashborasidagi muvaffaqiyat-lar. Me`morchilik. Shaharsozlik to'g'risi-da tushuncha beradi. | * Amir Temur davri obodonchilik ishlari . Hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti haqida gapirib beradilar.<br><br>* Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati. Amir Temur davrida Smarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishi haqida o'qiganlarini, eshitganlarini taqqoslab, tushuntirib beradilar.<br><br>* Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari. Kitobat san`atida yangi kashfiyotlar. Amaliy, amaliy-bezak san`ati o'qiganlarini, eshitganlarini muhokama qiladilar.<br><br>* Bronza, kumush vaoltindasn quyma idishlar yasashborasidagi muvaffaqiyatlar. Me`mor-chilik. Shaharsozlik to'g'risida gapirib beradilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida |

| | |
|---|---|
| | baholash. |

## 5.1.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayon lari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. Mavzu yuzasidan dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi . | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. O’quvchilar bilimini baholash uchun savollar beriladi.<br>1. Amir Temur davri obodonchilik ishlari qanday bo’lgan?<br>2. Hunarmandchilik va uning turlari, taraqqioti uchun qanday ishlar amalgam oshirilgan?<br>3. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati to’g’risida nimalarni bilasiz?<br>4. Amir Temur davrida Smarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishi sabab bo’lgan omillarni sanab bering?<br>5. Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari to’g’risida nimalarni bilasiz? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| kuniy bosqich. (10 minut) | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

**2 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. Amir Temur va temuriylar davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari. Kamoliddin Behzod va boshqalar ijodi.

2. Kitobat san`atida yangi kashfiyotlar. Amaliy - bezak san`ati.

3. Bronza, kumush va oltindan quyma idishlar yasash borasidagi muvaffaqiyatlar.

Temur vafotidan keyingi uning ulkan saltanatini, Xuroson va Movarounnahrni uning o'g'li Shohruh va nabirasi Ulug'bek boshqardi. Deyarli 40 yildan ortiq vaqt mobaynida bu yerlarda Temur boshlab bergan an’analar davom etdi. Me’morlikda mahobatli me’moriy majmualar barpo etildi. Samarqand, Buxoro va Vobkentda qurilgan madrasalar shu davr me’morligining an’analari asosida vujudga kelgan.

Ulug'bek boshqargan Movarounnahrda Samarqand O'rta Sharqdagi go'zal va boy shaharlardan boMgan. Shu yerda ko‘zga ko'ringan olim va ulamolar yashab ijod qilgan. Shu yerda dunyoviy fanlar rivojlandi. Ulug‘bek olim sifatida o‘z atrofida shogirdlar to'pladi, ularga dars berdi. Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi tadqiqotlar olib borishdi. Ularning izlanishlari «Yulduzlar jadvali kitobi»da o'z aksini topdi. Ulug'bek farmoni bilan barpo etilgan rasadxona kutubxonasi davrning haqiqiy akademiyasi edi. Bu yerda turli nazariy fanlarga oid risola va tadqiqotlar ko'chirilar, ta’mirlanar va ular zaruriy rasmlar bilan to’ldirilar edi. Bu ishlar bilan kutubxona qoshida faoliyat ko'rsatgan xattot va musawirlar shug'ullanar edi. Shunday astronomiyaga oid qo'lyozmalardan biri As-So‘fiy risolasi (traktati) bo'lib, unda ishlangan miniatyuralar e’tiborga loyiq. Musavvir miniatyuralami shunchaki tushuntirishga mo'ljallangan astronomiyaga oid rasmgina emas, balki badiiy qiymatga ega bo'lgan badiiy asar darajasig ko'tarishga intiladi. Tasvirlangan odam, hayvon va afsonaviy mavjudotlarni hayotiy va jonli bo'lishiga harakat qiladi. Astronomiyaga oid rasmlaming haqqoniy bo'lishiga intilish Ulug'bek davri san ’ati realistik yo'nalishda rivojlanganligidan dalolat beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, Temuriylar davrida shoh saroylari qoshidagi kutubxonalar haqiqiy san’at maktabi rolini o'ynadi. Bu yerga mashhur rassom, xattot, naqqoshlar to'planadilar. Kutubxonada nodir qo'lyozmalar to'planib, ko'chirilib kitob holiga keltirilar, tasvir va bezak



naqqoshlar bilan bezatilar, yaroqsiz holga ta’mirlanar edi. Shuning uchun ham bu kutubxonalardagi ijodxonalar rassom, naqqosh va xattotlar uchun ta’lim va mahorat maktabini o'tab, har bir san’atkorni ijodiy o'sishi o'z hunar-kasbini yanada rivojlanitirishi imkoniyatini yaratgan. Nigoriston nomi bilan tanilgan bu ijodxona mazmun va mohiyat jihatidan bugungi badiiy Akademiya mazmun va yo'nalishiga yaqinlashib ketadi. Shu yerda ustoz o'zining mukammalko'rinishiga erishdi.

Bu xususiyatni shu davrda ishlangan janrli kompozitsiya va portretlard ham ko'rish mumkin. Shu o'rinda Ulug'bekka bag'ishlab ishlangan portret va janrli kompozitsiyalari e’tiborli. Ulug'bekning navbatdagi ovdan keyin o'z oila a’zolari bilan shiyponda dam olib o'tirgan paytini aks ettiruvchi rasm (1441—1442-yillar) yuksak mahorat bilan ishlangan. Qalam chizgisi nozik, rang tizimi boy, tasvirlangan har bir obrazlar esa o'z xatti-harakati bilan ajralib, jonli ishlangan. 1447-yili Shohruh vafotidan keyin, Hirot Ulug'bek qo'liga tdi. U Xuroson va
Movarounnahrni boshqardi. Shu davrda bir qator xattot va musawirlar Samarqandga ko'chib o'tishdi, ayrimlari taklif etildi. Jumladan, davming mashhur musawirlari Mavlono Zahriddin Abdulla, Mavlono Zahriddin Azhar va boshqa yirik san’atkorlar Samarqandga, Ulug'bek davlati poytaxtiga taklif qilindi. Ularga bu yerda Ulug'bek hukmronlik yillari haqidagi bayonnomani rasmlar bilan bezatish topshiriIdi. Afsuski, bu bayonnoma va rasmlar bizgacha saqlanmagan.

**Kamoliddin Behzod.** O'z mavqeyi jihatidan zodagonlar xonadoniga yaqin bo'lgan. Kamoliddin Behzod Hirotda dunyoga keldi. Ota-onasidan juda erta
judo bo'lgan Behzod Alisher Navoiy homiyligida kamol topdi. Shu yerda u dastlab xattot va musawir Mirak Naqqosh qo'lida tarbiyalanib, undan tasviriyot va xattotlik sirlarini o'rgandi. So'ngra buxorolik musawir Usto Jahongiming shogirdi Pir Sayid Tabriziy qo'lida o ‘qishini davom ettirdi va tezda mohir san’atkor naqqosh va musavvir sifatida tanildi. U o‘z davrigacha bo’lgan tasviriy san’at sohasida erishilgan yutuqlarni mukammal egalladi va musawirlikda yuksak insoniy fikrlar va boshqa ilg‘or g‘oyalar bilan sug‘orilgan hayotiy tasvirlari bilan shuhrati orta bordi. Behzod dastlab, Alisher Navoiy biroz keyinroq Husayn Boyqaro kutubxonasida ishladi. Shu davrdan Behzod she’riy munozara va ijodiy
majlislarda, anjuman va yigMlishlarda qatnashdi, ishlagan tasvirlarini namoyish etib fikr-mulohazalarni eshitdi. Behzodning saqlanib kelgan ilk asarlari, 1470-

1490-yillaiga to‘g‘ri keladi. Shu yillarda u doston va solnomalarga ko'plab rasmlar ishladi. Shular ichida Shayx Sa’diyning «Bo‘ston»(1475, 1488), «Guliston»(1495) , Alisher Navoiy «Xamsa»(1485), Amir Xisrav Dehlaviyning «Xamsa»(1485), «Layli va Majnun»(1495), Ali Yazdiyning «Zafarnoma»(1490-yillar) asarlariga chizgan suratlari bor. Ularda turli voqealar - maishiy hayot, jang va ov voqealari, shahzoda va malikalaming rasmlari ishlangan.

Jumladan, Sa’diy «Bo'ston»i(1488)ga Sulton Husayn Mirzo surati bazm paytida ishlangan. «Bo‘ston»ga ishlangan suratlardan boshqa birida Eron shohi Doroning yilqichi sarbonlar qarshisidan chiqib qolishi tasvirlanadi. Unda Eron shohi Doro ov qilib yurib, o'z sheriklaridan adashib qolganligi va qarshisidan yilqichi chiqib qolganligi ko'rsatiladi. Kompozitsiya markazida qo'llarini ochib oldinga cho'zib turgan, qaddi behad bukchaygan keksa cho'pon tasvirlangan. Uning atrofida tog'lar, archazorlar, yashil o'tlov va zilol suvi oqib turgan ariq, nasldor otlar, yilqichilar ko'rsatilgan. Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida Behzod bezagan ko'pgina qo'lyozmalarda turli tarixiy voqealar, jang holatlari, saroydagi qabul marosimi ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, uning «Masjid qurilishida» asari shunday ishlardan. Rassom turli voqealarni — tantanali qabul marosimlarini, turli mamlakat elchilari va saroy mansabdorlarini tasvirlagan. Ular turli kiyim-libosda, holatlari ular egallagan lavozimiga mos. Xiva qal’asining Amir Temur qo'shinlari tomonidan qamal qilinishi rasmi ham jonli. Unda baland, mustahkam qal’a, yonida tok chirmashgan ulkan chinor aks ettirilgan. Musawir jangning eng qizg'in paytini tanlab olgan qal’a himoyachilari kungurali baland tik devor ustidan katta xarsang toshlar irg'itishmoqda. Ammo Amir Temur askarlari qal’a darvozasiga kiraverishda ko'tarib qo'yilgan osma ko'prikni tushirishga muvaffaq bo'lganlar. Ilg'or qismdagi suvoriylar qal’a ichkarisiga kirib bormoqda. Ba’zilariga o'q tegib, otdan ag'darilgan. Qal’a himoyachilari orasida xotin-qizlar ham ko'rinadi. Amir Temur qo'shinlarining Oltin O'rda xoni To'xtamish (1361 — 1395) bilan bo'lgan jangi, uning qurilish borasidagi faoliyati ham «Zafamoma»da o'z ifodasini topgan. Bu qurilishda turli millat kishilari ko'rinadi. Shunday rasmlardan birida katta qurilish payti ko'rsatilgan. Qurilishda ustalar o'z ishlari bilan band, ular turli holatlarda, pastda quruvchilarning bir qismi devor yuzasini qoplash uchun ishlatiladigan og'ir marmar taxtalarni tashimoqdalar, boshqalari bo'lsa g'isht teruvchilar uchun loy tayyorlamoqdalar. Eng yuqorida qo'lida bir shaklni ushlab turgan me’mor ko'rinadi. Amir Xisrav Dehlaviyning ikki nusxada saqlanayotgan «Layli va Majnun» dostoniga ishlangan suratlar ham Behzod qalamiga mansub. Unda Layli va Majnunning madrasada o'qish paytini tasvirlaydi, u 1495-yili bajarilgan. Bu yerda ham binoning me’moriy bezagi, naqshlar juda aniq va go'zal ishlangan. Behzod tabiat manzarasini tasvirlashda o'z davri uchun noyob mahoratini namoyon etgan. K. Behzod portret san’atida ham samarali ijod etgan. Uning Alisher Navoiy, A. Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Sulton Husayn Mirzo shuning dalilidir. Parijdagi shaxsiy kolleksiyada saqlanayotgan Sulton Husayn Mirzo portretida u shohona kiyimda tasvirlanib, uning barcha xislatlarini ifodalashga harakat qilingan. Qiyofasidan

kuchli iroda, jismoniy quwatga ega bo'lganligi sezilib turadi. To'ladan kelgan gavdasi, horg'in yuzi, qisiqroq ko'zi, uzukli nozik qo'llari tasviridan hukmdor umrining ko'p qismini faqat maishat bilan o'tganligiga dalildir. Behzod Sulton Husayin Mirzoning ichki dunyosini va tashqi dunyosini ko'rinishini real tarzda tasvirlay olgan. Behzod hayoti ning so'nggi yillaridagi shoh asarlaridan biri ikki tuyaning olishuvini aks ettirgan suratdir. Kamoliddin Behzod umrining so'nggida yana Hirotda yashab shu yerda vafot etdi. Kamoliddan Behzodning ijodi Sharq xalqlari, ayniqsa, O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Ozarboyjon san’ati rivojiga katta ta’sir o'tkazdi. Bu ta’sirda uning ko'psonli muxlislari muhim o'rinni egalladilar Ular Behzod ijodini davom ettirib, Sharq miniatyura san’atining yangi qirralarini ochib uni yanada boyitdi.

## NAFIS KITOB VA XATTOTLIK SAN'ATI

Kitobat san’atida yangi kashfiyotlar, ya’ni kitob muqovasini relyefli bo'rtma shaklda va tasvirli ishlash yuzaga keldi. Keyinchalik O'rta sharq kitobatida keng o'rin egalladi. Amaliy, amaliy-bezak san’ati nihoyatda keng rivojlandi. Bronza, kumush va oltindan quyma idishlar yasash borasida katta muvaffaqiyatga erishdilar. Ayniqsa, kumush va oltindan nafis buyumlar yasash keng rivojda bo'lib, saroy ahllari talabiga javob berdi. Shu xususda ispan elchisi Klavixo Temur saroyida bo'lganida oltin va kumushdan ishlangan buyumlarning ko'pligi, Temuming oltin taxti va stoli, uning dam oladigan xonasida oltindan qimmatbaho toshlar bilan ishlangan daraxt, undagi mevalar, mevada o'tirgan ajoyib qushchalar bo'lganligini yozib qoldirgan.

Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik san’ati ham rivoj topadi. Uzoq tarixiy o’tmishda bosmahona bo’lmagan. Kitoblar qo’lda ko’chirilgan.



Qo’lda ko’chirilgan kitoblar nafaqat mazmunan, balki tashqi ko’rinishi va bezagi jihatidan ham kitobxonlarning talab-ehtiyojlari va didiga javob berishi, odamlarda ma'naniy va estetik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilishi lozim edi. Shu boisdan ham Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik buyuk san'at darajasiga ko’tariladi. Bu nafis kitob yaratish jarayoning mislsiz darajada murakkab va og’irligi turli xil kasb-hunar egalari mehnatining ma'lum bir dasta singari jamlanishi bilan belgilanadi. Chunki kitob yaratish jarayonida qog’oz kesuvchi xattot (kalligraf), musavvir, lavvoh (lavha chizuvchi), sahhof (muqovachi) ishtirok etadi.



Ota-bobolarimiz tomonidan nafis kitob yaratishda ishlatilgan Samarqand, Buxoro kog’ozlarining dovrug’i doston bo’lgan. Kitoblarni yaratishda unga turli, xil suyuqlik moddalar va ranglar ishlatilgan.

Kitobdan yoqimli va xushbo’y hid kelib turishi uchun juda sifatli gulob yoki anbar siyohga qo’shilib yozilgan. Musavvirlar ishlatadigan buyoqlarda oltin va kumush eritmalari aralashtirilgan, sahhof esa muqovaning go’zal bo’lishi uchun charmlardan ustalik bilan foydalangan.

Og’ir va mashaqqatli mexnatlar evaziga yaratilgan har bir kitobning o’zi shubxasiz katta bir san'at asari edi. Bunday kitoblar asosan shohlar, amirlar, xonu sultonlar buyurtmalar asosida yaratilgan va maxsus kutubxonalarda e'zozlab saqlangan.

XIV — XVI asrlarda nafis kitob va xattotlik sanatining buyuk namoyandalari o'sib etishadi. Bular Mir Ali Tabriziy, Abduraxmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashxadiy, Mir Ali Qilqalam, Sulton Ali Xandon, Halvoiy, Rafiqiy, Mirak Naqqosh, Bexzod, Shoh Muzaffar va boshqalardirlar. Xattotlik san'atining buyuk namoyandalaridan biry Sulton Ali Mashhadiydir. U 1432 yilda Mashhadda to’g’ilgan. Yoshlikdan husnixatga qiziqqan. Sulton Ali husnixat sultoni darajasiga ko’tariladi va «Qiblatul-qutob» («Kitoblar qiblasi») va «Sultonun-xattotin» («Xattotlar sultoni») deb elda nom taratadi. Sulton Ali 1461 yilda Nizomiyning «Mahzanul-asror» dostonini, 1464 yilda Hofiz devonini va 1465- 1466 yillarda Alisher Navoiyning devonini ko’chirgan. Sulton Ali Mashhadiyning ijodiy faoliyatida Xusayn Boyqaro va Alisher Navoiylarning salmoqli o’rni bor. U Husayn Boyqaro kutubxonasida ishlagan va Hirot xattotlariga rahbarlik qilgan. Sulton Ali shaxsan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy topshiriqlarini bajargan va ularning asarlarini ko’chirgan. U har kuni Husayn Boyqaro uchun 50, Navoiy uchun 20 bayt ko’chirar edi. Bundan tashqari Sulton Ali Nizomiy, Farididdin Attor, Xofiz Sheroziy, Dehlaviy, Jomiy asarlarini ham ko’chirish bilan shug’ullangan. Mashxur xattot ko’chirgan 50 dan ortiq asar bizgacha etib kelgan. Bu asarlar Toshkent, Sankt-Peterburg, Parij, Berlin, Qohira va dunyodagi boshqa shaharlarda saqlanmoqda. Sulton Ali Mashhadiy ko’chirgan kitoblar orasida Navoiyning mashxur «Hamsa»si ham munosib o’rin olgan. Sulton Ali Mashhadiy xattotlik san'atidan tashqari o’ymakorlik san'atining ham moxir ustasi bo’lgan. Husayn Boyqaro qabr toshidagi o’yib yozilgan matn parchasi ham u tomonidan yozilgan. Sulton Ali Mashhadiy she'riyat bobida ham qalam tebratgan. Navoiy uning ijodiga katta baho beradi va uning ijodidan quyidagi baytlarni keltiradi: Gul dar bahor e-on ruhi gulgul namunaest, Chun ashki man, ki az dili purxun namunaest. Ma'nosi: Mening ko’z yoshim konga to’la yuragimdan namuna bo’lganidek bahor guli uning gulgun yuzidan bir namunadir., Sulton Ali umrining so’nggi yillarini Mashhadda o’tkazadi va shu erda 1520 yilda vafot etadi.

## Temur va davrida tasviriy va amaliy bezak san’ati

Temur va temuriylar sulolasi davrining ulkan muvaffaqiyatlaridan biri tasviriy san'atning gurkirab o’sganligi bo’ldi. XIV va XVI asrlarda tasviriy san'atda Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Maqsud Muzahhib, Xoja



Muhammad Naqqosh, Shoh Muzaffar va boshqalar barakali ijod qildilar. Xalqimizning ajoyib tasviriy san'at ustalari yaratgan asarlar o'ziga xos uslubga ega bo'lish bilan birga u fantastik mavhumlikdan hayotiylikka, anialikka tomon o'sib borgan. Bizgacha etib kelgan va ma'naviy meros boyliklariga qarab xulosa qiladigan bo'lsak tasviriy san'at yodgorliklarini yo'nalishlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: portretlar, hayotiy lavhalar, peyzaj, binolarga solingan suratlar, badiy asarlarga ishlangan rasmlar va hokazo. Biz fikr yuritayotgan davrda tasviriy san'at ijodkorlari tomonidan hayotiy va aniq buyoqlarda ishlangan Jomiy, Navoiy, Abdulla Xatifiy, Behzod, Husayn Boy-qaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalarning portret — su'ratlarini ko'ramiz. Rassomlar tomonidan yaratilgan asarlarda, rasm-portretlarda haqiqiy hayot voqeligi o'z aksini topgan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tub mohiyati mohirlik bilan ko'rsatilgan. Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy bezak san'ati o'zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi. Miniatyura va devoriy rassomlik san'atida nodir asarlar yaratildi. Haykaltaroshlik esa asosan bo'rtma tasvir tarzida mavjud bo'ldi. Temur davrda monumental rangtasvir nihoyatda rivojlandi. Shu davrda qurilgan saroy, qasr, machit va maqbaralar, zodagonlarning xonadonlari turli mavzudagi rasmlar bilan bezatilganligi haqida tarixchilarning yozma bayonlari saqlanib qolgan. Afsuski, shu davrda qurilgan saroylar, jamoat binolari bizgacha yetib kelmagan yoki ayrim parcha va ko'chirmalarda saqlanib qolgan, xolos. Shularning o'zi ham davr san'ati to'g'risida tasavvur berai. Jumladan, Shirin Bika oqo maqbarasi devorlarida tabiat ko'rinishi tasvirlangan bo'lib, daraxtlarda qushlar aks ettirilgan bo'lgan. Bibixonim machiti devorlariga naqshli bezaklar bilan birga tabiat manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar ishlangan. Bu davrda devoriy rassomlik saroy va qasrlarni bezatishda keng ishlatilgan. Saroy devorlari murakkab sujetli kompozitsiyalardan tashkil topgan. Ularda Temurning olib borgan janglari, o'tkazgan bazmlari, o'zi va yaqinlarining portretlari tasviri, ov manzaralari aks ettirilgan. Tarixchi Ibn Arabshohning so'zlariga qaraganda, Temurning fikriga ko'ra, uning jasoratini ko'rmaganlar rasmlar orqali bilib olishlari kerak bo'lgan. Bog'i Shamol saroyi devorlari ham rassomlik asarlari bilan bezatilgan. Dilkusho saroyi devoriy rasmlarida esa Temurning Hindistonga yurishi tasvirlangan. 1400-yili Hirotda qurilgan binno devorlari ham bezakka boy bo'lib , u yerda Temurning jang-u jadallari aks ettirilgan. O'rta Osiyo, umuman O'rta Sharq

madaniyatida kitobni bezash xattotlik va miniatyura san’ati tarixda o'ziga xos qaytarilmas jozibasi bilan tengi yo'qdir. Bu san’at turlarida nodir yodgorliklar yaratiladi. Ayniqsa, kitoblarga illustratsiya tarzida ishlangan miniatyura san’atida yutuqlar kattadir. Movarounnahr san’atida mahalliy-madaniy an’analar unga kirgan ko'pgina xalqlar an’analari silsilasi kuchaya bordi. Natijada yangi, ilg'or ijodiy jarayon shakllana bordi. San’atkorlar mavjud va o'tmish san’ati yutuqlarini inkor etmaganlari holda an’anaviy shakl va yo'nalishlarga yangi badiiy ruh kirita boshladilar. Eng muhimi, ijodkorlar yangi ijodiy yechimlarga erishib, zamon talabiga mos asarlar yaratishga muyassar bo'ldilar. Ustod Gung O'rta Osiyo rassomlik maktabining asoschisi ma’lumotlariga ko'ra Xitoyda tasviriy san’at asoslarini egallab qaytgan.

Amir Temur saroyining yirik musawiri Xo'ja Abdulhay rassomlar ustaxonasining boshlig'i lavozimida ishlagan. Uning ishlash uslubi Samarqand rassomlik maktabining asosini tashkil etdi. Rassomning bir qator asarlari bizgacha ko'chirmalarda yetib kelgan. «Sher», «Suvdagi o'rdak», «Urushayotgan ikki jangchi» rasmlari shu san’tkor ijodining namunalaridan bo'lib, ular ishlanishining nafisligi, rang va oltin hallaiga boyligi bilan ajralib turadi. Sa’diyning «Guliston» asariga ishlangan rasmda darvish haqida hikoya tasvirlangan. Unda cho'l-sahrodan o'z eshagida qo'shiq va hazil bilan og'ir yo'l qiyinchiliklarni yenggan darvish va uni yo'l davomida mayna qilib kelgan, o'ziga zeb bergan, tuyaga mingan boy yo'lovchi tasvirlanib, u oxir oqibatda ovullardan birida yiqilib o'lganligi hikoya qilinadi. Asarga As-So‘fly risolasiga ishlangan rasmlar xos xususiyat hikoyanavislik bo'lib, ko'pgina hayotiy lavhalar asar mazmunini boyitadi. Rassomning «Suvdagi o'rdak « asari ham e’tiborga loyiq. Bu rasmda Xo‘ja Abdulhay o‘zini kuzatuvchan ekanligini, real borliq ko'rinishlarini o‘ziga o‘xshatib ishlashga intilishi shu rasmlarda ham o‘z ifodasini topgan. Rassomning shu tomonlari, shuningdek, qalamining o‘tkirligi, koloritining aniq va jiddiyligi keyingi Hirot maktabi shakllanishida muhim o'rinni egalladi. Temur saroyida xizmat qilgan musawirlardan yana biri Pir Ahmad Bog‘i Shamoliy bo'lgan. U Abdulhay zamondoshi va shogirdlaridan. Tarixchilar Pir Ahmad Bog'i Shamoliyga yuqori baho berib, davrning eng yuksak, tengi yo'q musawiri deb ta’riflashadi. Bog'i Shamoliy rassomning taxallusi bo'lib, Bog'i Shamol bog'ining saroylari bosh bezakchisi bo'lganligi va ishlagani uchun berilgan deb taxmin qilinadi. Temur davrida saroy aristokratiyasi nozik didiga mo'ljallangan amaliybezak san’ati namunalari yuzaga keldi. Quyma san’atda nodir asarlar yaratildi. Shulardan biri Temur ko'rsatmasiga binoan Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun ishlangan «Nazr-niyoz» katta qozoni hisoblanadi. Temur va temuriylar davrida badiiy mato, mayin duxobalar ishlab chiqarildi. Amir Temurning qabri ochilganda uning oyoq tomonida saqlanib qolgan ko'm-ko'k duxoba parchasi va unga zar ipda ishlangan naqsh bo'lagi topilishi ham shu davr amaliy san’ati darajasini belgilaydi

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1.N. Abdullayev "O'zbekiston sanati tarixi" T.: 2007
2.Hakimov. "Markaziy osiyo xalqlari amaliy san'ati tarixi" T.: 2004
3.Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. " История искусств Узбекистана с древнейших времен до середини XIX века". М.: 1965
4."O'zbekiston san'ati". T.: 2001
5."O'zbekiston XX asr avangardi" T.: 2003
6.SH. Karimov. "Vatan taixi" 1-qism. T.: 2010

### 2 - mashg'ulot: 2 - soat

### – KEYS – STADI

### O'qitishning keys – texnologiyasi

### 5.2.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali - ma'ruza.** |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Amir Temur davri obodonchilik ishlari .Hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti.<br><br>2. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati. Amir Temur davrida Smarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishi.<br><br>3. Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari. Kitobat san`atida yangi kashfiyotlar. Amaliy, amaliy-bezak san`ati.<br><br>4. Bronza, kumush vaoltindasn quyma idishlar yasashborasidagi muvaffaqiyatlar. Me`morchilik. Shaharsozlik. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati | |

| | |
|---|---|
| va san’ati to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Amir Temur davri obodonchilik ishlari .Hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti to’g’risida tushuncha beradi.<br><br>* Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati. Amir Temur davrida Smarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishini izohlaydi, ekran orqali namoyish etib, tushuntirib beradi..<br><br>* Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari. Kitobat san`atida yangi kashfiyotlar. Amaliy, amaliy-bezak san`ati to’g’risida gapirib beradi.<br><br>* Bronza, kumush vaoltindasn quyma idishlar yasashborasidagi muvaffaqiyat-lar. Me`morchilik. Shaharsozlik to’g’risida tushuncha beradi. | * Amir Temur davri obodonchilik ishlari . Hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti haqida gapirib beradilar.<br><br>* Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati. Amir Temur davrida Smarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishi haqida o’qiganlarini, eshitganlarini taqqoslab, tushuntirib beradilar.<br><br>* Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari. Kitobat san`atida yangi kashfiyotlar. Amaliy, amaliy-bezak san`ati o’qiganlarini, eshitganlarini muhokama qiladilar.<br><br>* Bronza, kumush vaoltindasn quyma idishlar yasashborasidagi muvaffaqi-yatlar. Me`morchilik. Shaharsozlik to’g’risida gapirib beradilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 5.2.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayon lari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. Mavzu yuzasidan dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi . | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. O’quvchilar bilimini baholash uchun savollar beriladi.<br>1. Amir Temur davri obodonchilik ishlari qanday bo’lgan?<br>2. Hunarmandchilik va uning turlari, taraqqi-yoti uchun qanday ishlar amalgam oshirilgan?<br>3. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo`llarining ahamiyati to’g’risida nimalarni bilasiz?<br>4. Amir Temur davrida Smarqandning ulkan madaniyat markaziga aylanishi sabab bo’lgan omillarni sanab bering?<br>5. Amir Temur davrida ijod qilgan tasviriy san`at ustalari to’g’risida nimalarni bilasiz? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| (10 minut) | 3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

2 – mashg'ulot bo’yicha glossariy

- ✓ **Mulki devon - davlat yeri.**
- ✓ **Mulki inju - hukmdor avlodlari va noiblariga qarashli yerlar. Mafkura — ma'lum maqsadni ro`yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g`oyalar yig`indisi.**
- ✓ **Tasavvuf (sufiylik) - musulmonlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o`zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da'vat etuvchi ta'limot.**
- ✓ **Tariqat — tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni, komil inson darajasiga erishishni ko`rsatuvchi to`g`ri yo`l.**

## 3 - mashg'ulot: 2 - soat

## Reja:

1. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda ilm - fan rivoji. Ulug'bek rasadxonasi.

2. Temuriylar davri san'ati va madaniyati. Samarqand registoni

3. Temur va Temuriylar davri me`morchiligi. Shaharsozlik. Saroy va bog'lar qurilishi.

### Ilm va fan markazlari

XV asrda Samarqand va Hirotda olimlar-u fuzarolar, shoirlar-u bastakorlarning kattagina guruhi to`plangan edi. Ilm-fan va san'atning taraqqiyotida zamonasining madaniy doiralari muhitida tarbiyalanib, yoshligidayoq mashhur olim sifatida shuhrat qozongan Ulug`bekning roli va hissasi nihoyatda buyukdir. Ulug`bek mamlakatning ravnaqi, ayniqsa uning ma'naviy kamolotida ilm-fanning va san'atning naqadar muhimligini yaxshi tushunardi. Ulug`bek mamlakatni boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy ishlar bilan shug`ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi. Ulug`bek o`tmishdoshlari **Ahmad Farg`oniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad**

**Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy** va **Ibn Sino** asarlarini batafsil o`rganadi. Bu buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali u qadimgi yunon olimlari **Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolemeylarning** mumtoz asarlari bilan ham tanishadi. Ulug`bek farmoni bilan 1417-yilda Buxoroda, 1417-1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G`ijduvonda madrasalar qad ko`taradi. Hatto Buxoro madrasasining darvozasiga *"Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir"* degan kalima o`yib yozib qo`yiladi. Movarounnahrning bu uchta qadimiy shaharlarida barpo etilgan ilmgohlar, xususan Samarqand madrasasi zamonasining dorilfununi edi. Ushbu madrasalarda ilohiyat ilmlari: *Qur'on, hadis, tafsir, fiqh* (din va shariat qonun va qoidalari) bilan bir qatorda *riyoziyot*, (matematika), *handasa* (geometriya), *ilmi hay'at* (astronomiya), *tibbiyot* (meditsina), *tarix, jo`g`rofiya, ilmi aruz* (poetika), *arab tili* va uning *morfologiyasi* (kofiya) kabi dunyoviy ilmlar ham o`qitilardi.

**Ulug`bek madrasasi**

1420-yilda ochilgan Samarqand madrasasi ikki qavatli, ellik hujrali bo`lgan. Har bir hujra uch xonaga: *qaznoq* (omborxona), *yotoqxona* va *darsxonalarga* bo`lingan. Madrasada yuzdan ortiq talaba istiqomat qilgan ya ta'lim olgan. Madrasada o`sha zamonning iqtidorli olimlaridan mavlono *Shamsiddin Muhammad Havofiy* yetakchi mudarris bo`lgan. O`rta asrlarning mashhur olimlari **Qozizoda Rumiy, G`iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug`bek** va uning shogirdi **Alouddin AH Qushchilar** turli fanlardan dars berganlar. Madrasa ochilgan kuni birinchi darsni **Shamsiddin Muhammad Havofiy** o`qigan, darsda tolibi ilmlardan to`qson nafari qatnashgan. Madrasada ilmi hay'at (astronomiya)dan darsni **Qozizoda Rumiy** bergan. Madrasada kamida 15-16 yil tahsil ko`rib, uning dasturi bo`yicha fanlarni to`la o`zlashtirgan va imtihonli saboqlarda o`z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga *sanad* yozib berilgan.

**Ulug`bek rasadxonasi**

Samarqandda o`z atrofida to`plangan taniqli olimlarning bevosita ishtiroki va ularning yordamida Mirzo Ulug`bek 1424- 1428-yillarda shahar yaqinidagi **Obirahmat** anhori bo`yida rasadxona qurdirdi.

Binoning ichki sahni sekstant va koridorlar bilan uch qismga ajratilgan. Rasadxona joylashgan bu mavze mahalliy aholi o`rtasida *"Naqshi jahon"* degan nom bilan shuhrat qozongan.

G`iyosiddin Jamshid boshchiligida rasadxonaning asosiy o`lchov asbob-uskunasi - ulkan **sekstant** o`rnatilgan. Samarqand sekstanti o`sha davrda Sharqda ma'lum bo`lgan sekstantlarning eng kattasi hisoblangan. Ulug`bek rasadxona qoshida zamonasining boy kutubxonasini ham tashkil etadi. Bu kutubxonada fanning deyarli hamma sohalariga tegishli qariyb o`n besh ming jild kitob saqlangan. Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta-

kichik hujralar quriladi. Uning etagida esa ikkita chorbog` barpo etiladi. Ulardan biri Bog`i May don, ikkinchisi esa Chinnixona nomi bilan shuhrat topadi.

Ulug`bekning faol ishtiroki bilan Ulug`bek rasadxonasi o`sha zamon sharoitiga mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Rasadxonada Ulug`bek bilan birga mashhur matematik va astronomlardan *Aflotuni zamon* deb nom olgan **Qozizoda Rumiy, G`iyosiddin Jamshid Koshoniy,** *"o`z davrining Ptolemeyi"* nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi va ko`pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, Ulug`bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi me'moriy san'atning noyob yodgorligidir. Rasadxona diametri 48 metrli aylana shaklda bo'lib, uch qavatlidir.

Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 qo`zg`almas yulduzlarning o`rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tiiziladi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi.

O`z ustida muntazam ishlash va bilimlarini tinmay chuqurlashtirish natijasida Ulug`bek o`zining ko`pgina zamondoshlaridan ham o`zib ketdi.

Ulug`bekning shoh asari "Ziji jadidi Ko`ragoniy" (Ko`ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli kitobidir. *"Ziji jadidi Ko`ragoniy"* asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 qo`zg`almas yulduzlarning o`rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Ulug`bekning astronomik jadvali o`sha zamondagi shunga o`xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Ulug`bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo`lsak, u bor-yo`g`i bir minut-u ikki sekundga farq qiladi. Bu XV asr uchun g`oyat yuksak aniqlik bo`lib, hozirgi zamon o`lchovlariga juda yaqindir. Ulug`bek *"Tarixi arba' ulus"* (To`rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag`ishlangan beshta risola ham yozgan. Ulug`bekning astronomiya maktabi o`z davrining o`ziga xos akademiyasi edi. "Samarqand akademiya"si bundan 225 yil muqaddam mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim **Volter (1694-1778)** tomonidan e'tirof etilgan. *"Ulug`bek Samarqandda bo`lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o`Ichashga buyurdi va astronomiya jadvallarni tuzishda ishtirok etdi"* deb yozgan edi Volter.

**"Samarqand akademiyasi" 1004-yilda Xorazmning qadimiy poytaxti Gurganjda tashkil etilgan *"Donishmandlar* uy/"dan (Ma'mun akademiyasi) keyingi ikkinchi *"Dor ul-ilm"* edi.**

### Kitob san'ati

XV asrda kitobat san'ati, ya'ni qo`lyozma asarlarni ko`chirib yozish va u bilan bog`liq bo`lgan xattotlik, musavvirlik, lavvohlik va sahhoflik san'ati ham

nihoyatda yaxshi taraqqiy etadi. Bu davr nafis kitob va xattotlik san'ati taraqqiyotida yangi bir bosqich bo`lib, mohir san'atkorlarni yaratdi. Bosmaxona va kitob nashr etish hali vujudga kelmagan zamonda kitob yaratish va uning nusxalarini ko`paytirish og`ir mehnat va ko`p vaqt sarf etiladigan nihoyatda mushkul ish bo`lgan. Har bir kitob qog`ozidan tortib muqovasigacha, siyohidan tortib to bo`yoqlari-yu zarhaligacha ma'lum qoida asosida tayyorlanar edi. Xattot bo`lish uchun uzoq vaqt sabr-matonat va ishtiyoq bilan mashq qilish, mukammal savodli, badiiy didi baland, ijodkor kishi bo`lishi lozim edi. Mohir xattotlar o`z usuli va uslubini shogirdlariga o`rgatardi. Shu tariqa xattotlik an'analari davom ettirilar va rivojlantirilar edi.

Bir necha kasb-hunar sohibining uzoq va mashaqqatli mehnati bilan bunyod etilgan nafis kitob oz nusxada bo`lib, bahosi qimmat bo`lar edi. Mashhur xattot **Mirali Tabriziy (1330-1404)** *nasta'liq* deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kashf qiladi. Xushnavis xattotlardan biri **Sultonali Mashhadiy (1432-1520)** edi. **U Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa'diy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro** va boshqa shoirlaming asarlarini ko`chiradi. Sultonali tomonidan ko`chirilgan 50 dan ziyod kitob va ko`pgina qit'alar hozirgi vaqtgacha yetib kelgan. Sultonali o`ymakorlik san'atida ham mohir bo`lgan. Husayn Boyqaroning *"Bog`i Jahonoro"* bog`idagi saroy devorlaridagi bitiklar, Husayn Boyqaro qabr toshidagi lavha Sultonali tomonidan o`yib bitilgan. U xattotlik san'ati turlari haqida maxsus asar ham yozgan. Sultonali Mashhadiy *"Qiblat ul-quttob"* (Kotiblar qiblasi) va *"Sulton ul-xattotin"* (Xattotlar sultoni) nomlari bilan shuhrat topadi.

Samarqand va Hirotda maxsus saroy kitobxonalari, tashkil etilgandi. Kitobxona ishlariga *kitobxona dorug`asi* yoki *kitobdor* boshchilik qilgan, Uning qo`l ostida xattotlar, naqqoshlar-u musavvirlar, mohir lavvohlar-u sahhoflar buyurtmalarni bajarganlar. Masalan, Hirotda Ulug`bekning ukasi Boysung`ur kitobxonasida qirqta xattot va bir qancha naqqoshlar qo`lyozma asarlardan nusxalar ko`chirish va ularni bezash bilan band bo`lgan. 1429-yilda bu kitobxonada Abulqosim Firdavsiyning mashhur *"Shohnoma "* dostoni ko`chirtirilib, u 20 ta turli mazmun va manzarali rangdor miniatyralar bilan bezatilgan.

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g`amxo`rlik qiladilar.

### Tasviriy san'at

**Kamoliddin Behzod zamondoshlari tomonidan Moniyi Soniy (Ikkinchi Moniy) deb ulug`langan.**

XV asrda Behzod asos solgan Hirot musavvirlik maktabi ulkan yutuqlarga erishdi. Bu davr tasviriy san'ati obidalari portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat

manzara- lari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo`lgan. Siymolar qiyofasi tasvirlari orasida **Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur** va boshqalarning tasvirlari bizgacha saqlanib qolgan. Musavvirlar bu tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasini aniqroq va mukammalroq tasvirlashga, ayrim hollarda hatto ularning ma'naviy dunyosini ochishga intilganlar. Masalan, mashhur rassom **Mahmud Muzahhib** tomonidan chizilgan Navoiy tasvirida shoir hassaga tayangan, uning qomati birmuncha bukchaygan, qarashlarida ham horg`inlik alomatlari, ham ulug`vorlik va olijanoblik ko`zga yaqqol tashlanib turadi.

**Kamoliddin Behzod** XV asr tasviriy san'atining ulug` namoyandasidir.

U musavvirlikda "Hirot maktabi" deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo`ldi. Behzod ustoz san'atkor sifatida O`rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o`lkalar tasviriy san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. Behzodning ijodi xilma-xil mazmunga ega bo`lib, u tarixiy siymolar (Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy) portretlaridan tortib to serjilo hukmdor saroylaridagi qabul marosimlari va jang maydoni manzaralarigacha haqqoniy va ta'sirli qilib bera olgan. Ayniqsa, Dehlaviyning *"Layli va Majnun"* dostoniga bag`ishlangan uning lirik manzaralari yoki Sharafiddin Ali Yazdiyning *"Zafarnoma"* asari uchun chizilgan jang maydonidagi shiddatli jang tasvir etilgan miniatyuralari nihoyatda jozibador va ta'sirchandir. Xullas, tasviriy san'at asarlari bilan badiiy adabiyotning o`zaro uzviy aloqada ravnaq topganligi, biri ikkinchisiga samarali ta'sir etganini ko`rsatadi.

Ulug'bek davrida Bog'i maydonda turli o'simliklar ekilib, Bog'cha nomli bog' barpo etilgan. Ulug'bek Samarqand, Buxoro va ¢ijduvonda madrasalar bunyod etirdi. XV asrda madrasa me'morchiligi o'zining uzil-kesil qiyofasiga ega bo'ldi. Madrasa qurilishi yagona tizim bo'yicha rejalashtirilsa xam, asosiy shakllari, ularning o'zaro nisbatlari va bezaklariga ko'ra xar biri o'z qiyofasiga ega edi. Temuriylarning ikki san'at durdonasi-Samarqanddagi Ulug'bek va Xirotdagi Gavxarshodbegim madrasalari yagona tizim rejasi bo'yicha qurilganiga qaramay, bir-biridan farq qiladi.

Ulug'bek davrida ijodiy izlanishlar samarasi daxmalarning me'moriy ko'rinishiga xam ta'sir o'tkazadi. Shoxizinda majmuasida sakkiz qirrali maqbara va xozirgacha Qozizoda Rumiy maqbarasi deb kelinayotgan («Sultonning onasi» uchun qurilgan, asli noma'lum) maqbara quriladi. Ulug'bek Buxoro, ¢ijduvon, Shaxrisabz, Termiz, Toshkentda xam noyob obidalar qurdirgan. Ammo qurilish miqyosi va bezaklar bo'yicha Samarqanddagi obidalar ustunlik qiladi. Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shayxontoxur majmuasi, bo'lib, Qaldirg'ochbiy maqbarasi XV asrning birinchi yarmiga mansub.

**Musiqa**

XTV-XV asrlarda yangi kuy va qo`shiqlar, cholg`u asboblari va musiqa nazariyasiga doir nodir asarlar yaratildi. Juda ko`p mahoratli sozandalar, mashshoqlar bastakorlar va holizlar yetishdi. **Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G`ijjakiy, Qosim Rabboniy** va boshqalar shular jumlasidandir. Omilkor musiqachilar bilan bir qatorda *Ulug`bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy* kabi mutafakkir va shoirlar ham musiqa san'ati bilan shug`ullanib, uning rivojiga ma'lum hissa qo`shadilar. Masalan, Ulug`bek *"Bulujiy"*, *"Shodiyona"*, *"Axloqiy"*, *"Tabriziy"*, *"Usuli ravon"* va *"Usuli otlig`"*, Navoiy *"Isfahoniy"* kuylarini ijod qiladi. Jomiy va Binoiylar musiqa nazariyasiga doir asar yaratadilar.

Musiqa san'ati san'atning boshqa turlari va poeziya bilan uzviy aloqada yangi taraqqiyot pog`onasiga ko`tariladi.

## ULUG`BEK davrida ilm fan

Dunyo astronomiya fani taraqqiyotida o‘rta asr Sharq astronomiyasi, jumladan, Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bu davrda, ayniqsa, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakat nazariyasi, amaliy astronomiyaning vaqt va joyning geografik koordinatalarini aniqlashga doir masalalari bo‘yicha O‘rta Osiyo, xususan, o‘zbek allomalari juda boy meros qoldirdilar. Bu davrda musulmon mamlakatlarining yuzlab buyuk mutafakkirlari astronomiya, matematika va falsafa fanlari bo‘yicha tadqiqot ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Ular ichida Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Abu Mahmud Hamid al-Xo‘jandiy, Nasiruddin at-Tusiy, Mahmud al-Chag‘miniy, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug‘bek kabi mashhur siymolar o‘z ijodlari, ilmiy meroslari bilan Markaziy Osiyo xalqlarininggina emas, balki dunyo xalqlarining boyligiga aylanib, bugun jahonning barcha ellari orasida hurmat bilan tilga olinadilar.

Dastlab xalifa Ma'mun zamonasida (IX asr) ishga tushirilgan va Al-Xorazmiy ishlagan Bag‘dod rasadxonasi, so‘ngra Umar Xayyomning Isfahondagi, Nasiruddin at-Tusiyning Marog‘adagi va Abu Mahmud Hamid al-Xo‘jandiyning rasadxonalari va, nihoyat, bular ichida kattaligi, bosh astronomik asbobining aniqlik darajasi yuzasidan hammasidan ustun turadigan Ulug‘bek rasadxonasi va uning maktabining ilmiy merosi o‘rta asrlarda astronomiyaning fan sifatida shakllanishida muhim bir bosqichni boshlaganligini dunyo olimlari tan oladilar. Salkam yetti asr davom etgan Sharq astronomiyasining jo‘shqin faoliyati Ulug‘bek va uning akademiyasining boy ilmiy merosi bilan yakunlandi. Mazkur rasadxona ishga tushirilganda uning bosh "teleskop"ining aniqlik darajasi atigi bir necha yoy sekundigacha borib, to optik teleskoplar ixtiro qilingan XVII asrga qadar uning samaralari o‘rta asr astronomlari uchun astronomik kuzatishlarda erishilgan rekord natija bo‘lib xizmat qildi. Bu asbob Quyosh, Oy va sayyoralar harakat nazariyalarini yangi bosqichga ko‘tarish,

tutilishlar nazariyasi va amaliy astronomiyaning asosiy predmetlaridan bo‘lgan vaqtni o‘lchash ishlarida yuksak aniqlikka erishish imkonini berdi.

Ulug‘bek astronomiya maktabi vakillarining tadqiqotlari natijasi bo‘lgan buyuk meros - "Ziji jadidi Ko‘ragoniy"dan keyingi yuz yillar mobaynida faqat Sharq emas, balki G‘arb mamlakatlari ko‘pgina yirik rasadxonalarining olimlari dasturul-amal sifatida keng foydalandilar.

Odatda, o‘rta asrlarda, har bir podshoh saroyida munajjimlar bo‘lgan. Munajjimlar astrologik maqsadlarda osmon jismlarini kuzatib, Oy, yulduz va sayyoralarning holatlarini aniq o‘rganish, shularga ko‘ra, saroy a'yonlari, mamlakat hamda podshohlik taqdiri haqida "bashorat" qilish bilan shug‘ullanganlar. Jumladan, Amir Temur saroyida ham Mavlono Ahmad va Mavlono Abdulloh kabi munajjimlar ishlagani tarixiy manbalardan ma'lum. Shulardan saroyda hakimlik ham qilgan Mavlono Ahmad sayyoralarning 200 yillik holatlarini oldindan belgilab, ulardan turli maqsadlarda foydalanish uchun jadvallar tayyorlagan. Binobarin, o‘rta asrlarda munajjimlar uchun sayyoralarning oldindan hisoblangan holatlari bilan kuzatishdan olingan natijalarning mos kelishi juda muhim ahamiyat kasb etgan.

Shuni e'tiborga olib, IX-XII asrlarda Sharqda ishga tushirilgan rasadxonalarda olib borilgan kuzatishlarning natijalari asosida tuzilgan jadvallarni yangilashga ehtiyoj tug‘ildi. Bu esa, o‘z navbatida, yangi, aniq samaralar beradigan quvvatli astronomik asboblar bilan jihozlangan rasadxonalar qurilishini taqozo etardi. Natijada Chingizxonning nevarasi Huloguxon saroyining munajjimi taniqli olim Nasiriddin at-Tusiy XIII asrda Ozarboyjonning hozirgi Tabriz(Eron) yaqinidagi Marog‘a shahrida rasadxona qurdirdi. Ko‘pyillik kuzatishlar asosida Tusiy yangi astronomik jadvallar tayyorladi va uni Huloguxonga bag‘ishlab, "Ziji Elxoniy" deb atadi. Biroq, ko‘p o‘tmay, ya'ni XIV asrning oxirlariga kelib Nasiriddin tuzgan jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar ham kuzatish natijalaridan sezilarli farq qila boshlagani ma'lum bo‘ldi. Shu munosabat bilan yanada aniq ma'lumotlar olish imkonini beradigan, oldingilaridan afzalroq va aniqroq astronomik qurilmalarga ega bo‘lgan rasadxona bunyod etish ehtiyoji tug‘ildi.

Shularni e'tiborga olib, Ulug‘bekning otasi Shohrux hukmron bo‘lgan mamlakatning Koshon shahrida istiqomat qilayotgan matematik va astronom G‘iyosiddin Jamshid "Ziji Xoqoniy" dar takmil "Ziji Elxoniy" ("Xoqon ziji" - "Ziji Elxoniy"ning takomillashtirilgani) degan mashhur risolasini bitdi. 1413 yili yozib tugallangan bu asar Ulug‘bekning otasi Shohruxga bag‘ishlangan edi. "Xoqon Ziji"ning nazariy qismi va astronomik jadvallari "Ziji Elxoniy"ning bunday qismlaridan biroz farq qilib, yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan edi.

Biroq mazkur tuzatishlar Quyosh, Oy va sayyoralarning topilgan holatlari aniqligini faqat bir necha yil mobaynidagina ta'minlay olardi, xolos. Quyosh, Oy

va sayyoralarning bir necha o‘n yillarga doir holatlarini oldindan aniq topish uchun esa, ularning orbita elementlarini(Quyoshning yillik ko‘rinma yo‘li-ekliptikaga og‘maligini, ularning davrlarini, Oy va planetalarning ekliptikani kesib o‘tish onlarini, ekliptikaning osmon ekvatoriga og‘maligini, kuzatishlar uchun muhim bo‘lgan bahorgi tengkunlik nuqtasining o‘rnini aniq belgilashni va boshqa bir qancha astronomik kattaliklarni) yangidan aniqlash talab etilardi. Bu, o‘z navbatida, Quyosh, Oy va planetalarning koordinatalarini, shu asosda yerda joyning geografik uzunlama va kenglamalarini, Quyosh va Oy tutilishlarining vaqtlarini, astrologik tole'nomalar tuzish uchun Oy va sayyoralarning o‘zaro yaqinlashish va "qo‘shilish" paytlarini, yulduz yili va tropik yil uzunliklarini, yil fasllarini aniq belgilash uchun juda muhim hisoblanardi. Aynan shu masalalarni hal qilish uchun kuzatishlar va o‘lchashlarga imkon beradigan aniqlik darajasi yuqori astronomik asbobni ishga tushirish, ya'ni yangi rasadxona qurish astronomlar uchun dolzarb muammo edi.

Shohrux mamlakati hududida yangi rasadxona qurish niyati o‘sha paytlari matematika va astronomiya sohasida bir necha e'tiborli asar yozib tanilgan koshonlik G‘iyosiddin Jamshid Koshiyni anchadan buyon o‘rtab kelardi. Shu boisdan Koshiy Shohruxga bo‘lgan hurmatini unga bag‘ishlab bitgan "Zij"i orqali izhor etish bilan chegaralanmay, unga yangi rasadxona qurish rejasi borligini ham bildirgan deb taxmin qilinadi. Biroq Amir Temur vafoti munosabati bilan uning avlodlari orasida taxt uchun ixtiloflarning boshlanib ketishi, jumladan, 1415 yili Koshon va uning atrof viloyatlarining voliysi Said Vaqqos Shohruxga qarshi ko‘targan qo‘zg‘olon unga bunday xayrli ishlarni boshlashga xalal berdi.

Temur farmoni bilan 1399 yili Umarshayx o‘rniga Farg‘onaga hokim etib tayinlangan uning o‘g‘li Iskandar(Shohruxning eng katta jiyani), Said Vaqqosning Ozarboyjon tomon yurishidan foydalanib, Jamshid Koshiyning vatani Koshonga bostirib kirib, uni zabt etadi. Endi Iskandar hukmronlik qilayotgan yurtda qolgan Jamshid Koshiy 1415 yilning qishida rasadxona qurish rejasi bilan Iskandarga murojaat qiladi. Iskandarning roziligini olgach, akademik Bartoldning aniqlashicha, 1416 yilning yanvarida Koshiy rasadxonani jihozlash uchun zarur bo‘lgan astronomik asboblarning bayoni aks etgan "Astronomik asboblarga sharh" ("Risolai dar sharhi olati rasad") risolasini yozib Iskandarga taqdim etadi va bu bilan uning oldiga yangi rasadxona qurish haqidagi taklifni qo‘yadi. Biroq Iskandarning bevaqt vafoti sabab bo‘lib, Koshiyning rejasi bu daf'a ham amalga oshmay qoladi.

Fors tilida bitilgan mazkur asar 1918 yili Petrogradda bosilgan akademik V.Bartoldning "Ulug‘bek va uning davri" asariga ilova qilingan edi. 1940-yillar boshida Koshiyning eslatilgan risolasi sharqshunos, astronom olim G‘. Jalolov tomonidan birinchi marta tarjima qilinganda rasadxona uchun taklif etilayotgan asboblarning beshinchisi X asrda hamyurtimiz - astronom Abu Mahmud Hamid

ibn Xidr al-Xoʻjandiy tomonidan ixtiro qilinib, Eronning Ray shahri yaqinidagi Taborak togʻi etagida qurilgan va "sudsi Faxriy" deb nom olgan katta kuzatish asbobi boʻlganligi aniqlandi ("Suds"- arabcha oltidan bir, ya'ni aylana yoyining 1/6 qismi - sekstant degani). Oʻsha davrda Xoʻjandiyning rasadxonasi Faxr ud-davla saltanati hududida boʻlib, uning rahnamoligida qurilganidan asbobga "Sudsi Faxriy" deb nom berilgan.

**Ulugʻbek maktabining shakllanishi**

Astronom Gʻ.Jalolovning fikricha, Koshiy Iskandar oʻlimidan keyin, ya'ni 1416 yilning yozidayoq Ulugʻbek tomonidan Samarqandga taklif etilgan. Sharqshunos olimlar B.Rozenfeld bilan G.Matvievskaya esa, Koshiy Samarqandga 1417 yili kelgan deb uqtirishadi. Nima boʻlganda ham, Koshiy Samarqandga kelgach, bu yerda rasadxona qurdirish niyati borligini Ulugʻbekka bildirib, unga rasadxona qurilishi uchun moʻljallangan va yuqorida eslatilgan "Astronomik asboblarga sharh" risolasini topshiradi. Bunday iltimosning sababini tarixchi Solih Zakiy shunday bayon qiladi: "Ulugʻbek "Ziji Elxoniy"da keltirilgan ma'lumotlar eng soʻnggi kuzatishlar natijalari bilan mos kelmasligini Gʻiyosiddin Jamshiddan koʻp marta eshitganini ta'kidlaydi...".

Oqibatda matematika va astronomiyadan katta bilimga ega boʻlgan Ulugʻbek rasadxona qurilishiga rozilik beradi. Shu munosabat bilan Ulugʻbek koʻp olimlarni toʻplab, 1417 yili rasadxonani qurishga bagʻishlangan majlis ham chaqirgan. Rasadxona qurilishi boʻyicha Ulugʻbekning zamondoshi tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy bu majlis haqida shunday yozadi: "Majlis boʻlajak rasadxonani shunday qurish kerakki, oqibatda u vaqt oʻtishi bilan tebranmasin, siljimasin, uzoq yillar abadiy tursin. Buning(rasadxona qurish) uchun (yigʻilish) Samarqandning Shimoli-Sharqidan ma'qul joy koʻrsatdi. Uni qurish yakunlangunga qadar quyidagilar bajarilsin: rasadxona boʻlajak xodimlarining bilimlari takomillashtirilsin, qoʻshimcha jadvallar tuzilsin va zarur (kuzatish) asboblarning uzvlari tayyorlansin...".

Baxtga qarshi, Ulugʻbek rasadxonasining qurilgan vaqti haqida tarixiy manbalardan aniq, hozirgacha uchraydigan bahslarga nuqta qoʻyadigan ma'lumot hali-hanuz topilgani yoʻq. V.Bartold "Ulugʻbek va uning davri" asarida 1420 yil voqealari haqida tarixchi Abdurazzoq aytganlaridan xulosa qilib, madrasa va observatoriyaning qurilish ishlari 1420 yili yakunlangan degan fikrga keladi. Arxeolog V.Shishkin rasadxona qoldiqlarini qazish paytida uning janub tomonidan topilgan uchta tanga haqida gapirib, ulardan ikkitasining chetida 823 hijriy yil(melod boʻyicha 1420 yil) degan yozuv boʻlganini ma'lum qiladi. Mirxondning "Ravzat us-safo"da yozishicha, rasadxona binosi jadal sur'atlar bilan qurilganini inobatga olinsa, u 1420 yoxud 1421 yili qurilganligi ayon boʻladi. Solih Zakiyning "Osor al-Boqiya" asarida "Ulugʻbek 824 hijriy yili(ya'ni 1420 yili) qurilgan rasadxonaga Gʻiyosiddin Jamshid va Qozizoda Rumiyni yetakchi shaxslar etib tayinladi", - deb yozadi. "Ziji Guragoniy"ning

so‘zboshisida: "Biz yoritg‘ichlarni kuzatish masalasini hal qildik. Ularni Qozizoda Rumiy va G‘iyosiddin Jamshid hamkorligida bajardik... Bunda muhim ish("Zij")ni yozish va rasmiylashtirishning (G‘.Jalolov forscha "soxta va pardoxta" so‘zlarini shunday tarjima qilib, unga bir necha misollar keltiradi) boshida G‘iyosiddin, keyinroq Qozizoda Rumiy vafot etdi. Shundan so‘ng ishni oxirigacha rasmiylashtirish (Ulug‘bekning) qimmatli o‘g‘ilxoni Ali ibn Muhammad Qushchi bilan birgalikda amalga oshirildi".

**"Ziji Ko‘ragoniy" - Ulug‘bek akademiyasidan yodgorlik**

Astronom G‘.Jalolov sobiq ittifoq FA Astronomik kengashi qoshidagi astronomiya tarixi bo‘yicha komissiyaning a'zosi sifatida 1950-yillari Sharq astronomiyasi tarixi, jumladan, Ulug‘bek astronomiya maktabi tarixini o‘rganishda qizg‘in qatnashib, davriy ravishda chop etiladigan "Astronomiya tarixidan tadqiqotlar" kitobining birinchi sonidayoq "Ziji Ko‘ragoniy"ning shu kabi boshqa bir qancha "Zij"lardan farqi va afzalliklarini yetarlicha to‘la yoritgan maqolasini e'lon qilgan edi.

Samarqand rasadxonasi tadqiqot ishlarining asosiy mahsuli "Ziji Ko‘ragoniy" so‘zboshi, nazariy qism va zijdan(jadvallardan) iborat bo‘lib, ja'mi 430 sahifani egallaydi. "Zij"ning jadvallarsiz matnli qismi 60 sahifani, qolgan 370 sahifasi esa, astronomik, trigonometrik, geografik va astrologik jadvallarni tashkil qiladi.

So‘zboshi atigi ikki sahifadan iborat. Unda rasadxona va "Zij"ni tayyorlashda ishtirok etgan olimlar haqida gap boradi. Nazariy qism esa *to‘rt bo‘limdan*(maqoladan) iborat bo‘lib, *birinchi bo‘lim* o‘sha paytda asosiy taqvimlardan hisoblanmish - hijriy, Yezdigird, Jaloliy(Umar Xayyom loyihasi bo‘yicha XI asrda Malikshoh tomonidan isloh qilingan taqvim), xitoy, uyg‘ur va boshqa bir qancha taqvimlar hamda ularning biridan ikkinchisiga o‘tish haqidagi hisob-kitoblarni o‘z ichiga oladi.

*Ikkinchi bo‘lim* sferik va amaliy astronomiya masalalaridan tarkib topib, yoritgichlarning azimutlarini, Makkaga tomon yo‘nalishni aniqlash hamda yerda aholi punktlarining geografik uzunlama va kenglamalarini hisoblash usullarini bayon qiladi. Bu yerda mazkur jadvallarning tarkibi, ularning ishlatilishiga doir metodik ko‘rsatma va maslahatlar beriladi.

*Uchinchi bo‘lim* Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarning harakat nazariyasiga bag‘ishlangan. Ularning astronomik uzunlama va kenglamalar bo‘yicha o‘rinlarini aniqlash va u bilan bog‘liq hodisalar, xususan, Quyosh va Oy tutilishlari haqida gap boradi.

Nihoyat, *to‘rtinchi bo‘lim* uncha katta bo‘lmay, "boshqa astronomik ishlar haqida"gi ma'lumotlarga, jumladan, bir necha sahifasi astrologiyaga oid jadvallarga bag‘ishlangan.

Bular ichida Quyoshning yulduzlar fonidagi yillik ko‘rinma harakati nazariyasi bilan bog‘liq muhim astronomik doimiylik-Quyoshning yillik ko‘rinma yo‘li tekisligining(ekliptikaning) osmon ekvatori tekisligiga (Yer ekvatori tekisligiga parallel tekislik) og‘ish burchagining kattaligi bo‘lib, uni aniqlash bilan o‘rta asr astronomlarining juda katta ko‘pchiligi shug‘ullangan. Quyida ularning ayrimlarini tanishtirib, Ulug‘bek rasadxonasi erishgan natija bilan solishtiramiz:

Navoiyning zamondoshi astronom Birjandiy "Ziji Ko‘ragoniy»ga sharh"ida: "Faxriy sekstanti yordamida(astronomik kuzatishlarni) yoy sekundlarigacha aniqlikda o‘lchash mumkin. Samarqandlik astronomlar eslatilgan og‘ishni(ekliptikaning osmon ekvatoriga og‘ishini - **M.M.**) Faxriy sekstanti yordamida o‘lchadilar. Unda Quyoshning zenitdan uzoqligi uning kulminatsiyasi paytida(ya'ni aniq tush paytida) aniqlanadi. Bu yoy masofani o‘lchash asosida vaqt o‘tishi bilan mazkur og‘malikning kattaligi o‘zgarib borishini topdilar", - deb yozadi.

Birjandiy yana ekliptika og‘maligi haqida "Asturlobga sharh" risolasida shularni bayon qiladi: "Ekliptikaning og‘maligi turli davrda turlicha kattalikka ega bo‘ladi... Biroq handasa ilmi olimlarining ichida eng bilimdoni G‘iyosiddin Jamshid Samarqand rasadxonasida 23o 30" 17"ga teng qiymatni olishga muvaffaq bo‘ldi. Shuni eslatish joizki, ekliptikaning ekvatorga og‘ish burchagi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchi (o‘rta asrlarda kamayuvchi) xarakter kasb etib, Ulug‘bek zamonasi uchun aniqlangan uning qiymati 23o 30' 49"ga to‘g‘ri keladi. Binobarin, Samarqand olimlarining bu masalada xatosi atigi 32 yoy sekundini tashkil etib, juda yuqori aniqlik hisoblanadi.

Ulug‘bek rasadxonasining bosh "teleskopi" - sekstantning tekisligi aniq meridian tekisligi bo‘yicha o‘rnatilishi, ya'ni azimuti nolga teng bo‘lishi zarur edi. Bu masala o‘rta asrda qay darajada aniq hal etilganini aniqlash uchun 1941 va 1946 yillari zamonaviy asboblar yordamida o‘lchash ishlari olib borildi. Natijada sekstant o‘qining azimuti(ya'ni Olam o‘qi, zenit orqali o‘tuvchi osmon meridiani tekisligiga og‘maligi - **M.M.**) 7,5'ga teng chiqdi. Garchi bu xatolik yoritg‘ichlarning meridiandagi balandliklarining qiymatiga deyarli ta'sir etmasa-da, biroq tush paytining 30 sekundgacha xatolik bilan aniqlanishiga olib kelardi.

Toshkent Astronomik observatoriyasining direktori, akademik V.P.Shcheglov bu xatolik haqida yozib: "Ulug‘bek davrida asbob meridian bo‘ylab aniq o‘rnatilgan bo‘lib, ehtimol, besh asr davomida asbob tekisligi azimutining o‘zgarishi, yuz bergan turli hodisalar(er silkinishlari, asbobning cho‘kishi va hokazo - **M.M.**) oqibatida qurilmaning deformatsiyasi tufayli sodir bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Shuni alohida qayd etish lozimki, Ulug‘bek rasadxonasi sekstanti uchun meridian yo‘nalishi o‘sha davr uchun eng yuqori darajada aniqlik bilan topilgan Yerdagi yagona va qadimiy qurilmadir".

Ulug‘bek maktabi olimlari rasadxonaning geografik kenglamasini 39o 37' 28"ga teng deb topishdi. Biroq V.P.Shcheglov tomonidan bu kattalikning qiymatini qayta aniqlash maqsadida 1940-yillari aniq optik qurilmalar yordamida kuzatish o‘tkazilganda, u 39o 40' 40"ga teng chiqdi. Boshqacha aytganda, o‘rta asrlarda Samarqand rasadxonasining kenglamasini o‘lchashda atigi *3,2' xatolikka* yo‘l qo‘yilgan ekan, xolos.

Arab va fors Sharqi mamlakatlari chegarasida joylashgan ko‘plab aholi punktlarining geografik koordinatalari astronomik kuzatishlar asosida topilib, "Zij"da keltirilgan xalifalikdan tashqaridagi joylarning koordinatalari esa, aftidan, oldingi "Zij"larda keltirilgan ma'lumotlar asosida berilgan.

"Ziji Ko‘ragoniy"ning Quyosh, Oy va sayyoralarning holatlariga tegishli jadvallari, mingdan ortiq bevosita ko‘rinadigan yulduzlarning jadvali, aksariyat hollarda, Samarqand rasadxonasi olimlarining bevosita kuzatishlari natijalari bo‘lib, o‘rta asr astronomiyasining eng aniq jadvallaridan hisoblanardi. Shu boisdan "Ziji Ko‘ragoniy" qo‘lyozmasi o‘rta asrda turli joylarda katta tezlik bilan ko‘chirilib ko‘paytirila boshlandi.

Bobur "Ulug‘bek ziji" haqida gapirib, asar XVI asrda dunyoda eng keng tarqalgan astronomik jadvallardan bo‘lganligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, keyingi asrlarda "Ulug‘bek ziji"ga tegishli yulduzlar katalogi aniqligi bilan ko‘p G‘arb astronomlarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Eramizdan oldingi II asrda 1000dan ortiq yulduzning koordinatalari va ravshanliklarini aks ettirgan yulduzlar jadvali yunon astronomi Gipparx tomonidan tuzilgan edi. Bu katalog keyinchalik mashhur misrlik astronom Ptolemey(eramizning II asri) tomonidan muayyan darajada aniqlashtirilib, yulduzlar soni 1028taga yetkazildi.

Rayda yashab, ijod etgan Abu Husayn ibn Umar as-So‘fiy(903-998) birinchilardan bo‘lib Ptolemeyning "Al-Majistiy" kitobida keltirilgan 1017 yulduzning koordinatalarini aniqlashtirib, ravshanliklarini belgilab, yulduz turkumlarining o‘zaro joylashishlarining allegorik tasviri orqali yulduzlar atlasini tuzdi.

"Ziji Ko‘ragoniy"ning yulduzlar katalogida 1018 yulduz o‘rin olgan bo‘lib, yulduz turkumlari bo‘yicha Beruniyning yulduzlar katalogidagi kabi joylashtirilgan edi. Mazkur jadval o‘zbek astronomi G‘.Jalolov tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Olimning ma'lum qilishicha, mazkur "Zij"da yulduzlarning ravshanliklarini xarakterlovchi kattaliklarini aniqlashda As-So‘fiy katalogidan keng foydalanilgan.

Astronom G‘.Jalolov "Zij"dan yana shu so‘zlarni keltiradi: "Biz o‘z katalogimizda keltirgan yulduzlarning o‘rinlarini hijriy 841 yilning boshiga(ya'ni 1-muharramiga, u melodiy hisobda 1437 yilning 4 iyuliga to‘g‘ri keladi - **G‘.J.**)

nisbatan aniqladik. Biroq ularning to‘g‘ri chiqishlari (ularning bahorgi tengkunlikning o‘rni bilan bog‘liq koordinatasi) 70 Quyosh yilida 1 daraja (to‘g‘ri chiqish deyiluvchi koordinata bo‘yicha - **M.M.**) oldinga ketganligini e'tiborga olib, istalgan vaqt uchun ularning har birining o‘rnini aniq topish mumkin".

Shunga ko‘ra, yulduzlar to‘g‘ri chiqishining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan va astronomiyada *pretsessiya* nomi bilan tanilgan bu hodisani (pretsessiya, bu - Yer o‘qining ekliptika o‘qi atrofida 26 mingyillik davr bilan bir to‘la aylanishi tufayli ro‘y beradigan va kichikligi tufayli 5-10 yilda ham ilg‘ash juda qiyin bo‘lgan nozik hodisa) Samarqand astronomlari yaxshi bilibgina qolmay, juda katta aniqlik bilan topganliklarini ham alohida ta'kidlash lozim. Ular aniqlagan pretsessiya kattaligini topish uchun 70 yilda topilgan 1o ga teng siljishni 70 Quyosh yiliga bo‘lish zarur bo‘ladi, ya'ni 1o : 70 = 3600" : 70 = 51",4 bo‘ladi. Aslida, pretsessiya kattaligi 50",2 tengligini e'tiborga olsak, Ulug‘bek maktabi olimlarining bu masalada yo‘l qo‘ygan *xatosi atigi* 1,2" ekanligi oydin bo‘ladi. Bu - o‘rta asr astronomiyasi uchun juda katta aniqlik edi.

"Ulug‘bek ziji" yulduzlarining jadvalini amerikalik sharqshunos olim E.Nobl har tomonlama o‘rganilib, Samarqand rasadxonasida *astronomik uzunlamasi bo‘yicha* 900, *kenglamasi bo‘yicha* esa 878 yulduz o‘rganilganligini, qolgan yulduzlarning koordinatalari esa, As-So‘fiy yulduzlar katalogidan uzunlamasi bo‘yicha tuzatish kiritib, aniqlanganini ma'lum qiladi.

430 sahifali "Ziji Ko‘ragoniy"ning atigi *5 foizi yulduzlar jadvalini* tashkil etadi. Shuni aytish joizki, Samarqand rasadxonasi astronomlarining o‘z oldilariga qo‘ygan *asosiy vazifalari*, ko‘pchilik o‘ylaganidek, yulduzlar katalogini tuzish bo‘lmay, balki Quyosh, Oy hamda sayyoralarni(jumladan, Utorud, Zuhro, Mirrix, Mushtariy va Zuhalni) sistemali kuzatish asosida, astronomiya-dagi asosiy doimiy kattaliklarni - ekliptikaning ekvatorga og‘maligini, yillik protsessiyani, yulduz yilining uzunligi va shu kabi bir qancha boshqa astronomik kattaliklarning aniq qiymatlarini topish bo‘lgan.

"Ziji Ko‘ragoniy" jadvallarining qariyb *80 foizi Quyosh, Oy va beshta sayyoraga bag‘ishlangan*. Bu jadval ma'lumotlari asosida "Ulug‘bek ziji"ning so‘ngida astrologiya ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan bir necha jadvallar keltirilgan. Shu munosabat bilan Navoiyning zamondoshi astronom Abd al-Ali Birjandiy o‘zining "Ziji Ko‘ragoniy»ga sharh"ida: "Astronomlar oldida eslatilgan yetti yoritg‘ichning harakatini o‘rganish, ularga tegishli asosiy doimiy kattaliklarni aniqlash vazifasi turadi. Natijaviy maqsad esa, bu kattaliklarga tayangan holda, ularning kelajakdagi o‘rinlarini aniqlash va Yerda ularning osmondagi o‘rinlariga bog‘liq ravishda ro‘y beradigan hodisalarni oldindan aytishdir", - deb yozadi.

Turli astronomik hodisalar, ayniqsa, Quyosh va Oy tutilishlari vaqtini oldindan aniqlash maqsadida mazkur tutilishlar kuzatiladigan shaharlar, aholi punktlarining uzunlama va kenglamalarini aniqlash zaruriyati tug‘iladi. "Ziji Ko‘ragoniy"-
da *247 shahar va aholi punktlarining koordinatalari* keltirilgan. Rasadxona olimlari tomonidan qancha shaharning geografik koordinatalari bevosita aniqlanganini aytish qiyin. Chunki "Zij"da keltirilgan shaharlarning muayyan qismi Nasiriddin at-Tusiyning "Ziji Elxoniy"sida ham keltirilgan.

Samarqand akademiyasi olimlari "Ziji Ko‘ragoniy" jadvallarini tuzishda *aniq kalendar sifatida oy-hijriy kalendarini* tanlaganlar. Oy, Quyosh va sayyoralarning istalgan paytdagi o‘rinlarini topish uchun hisob boshi qilib(bu xildagi jadvallar uchun tanlangan bunday kunni astronomlar tengkunlik deb yuritishadi) *hijriy 841 yil muharram oyining boshini*, boshqacha aytganda, o‘sha yilning boshlanish - yangi yil kirish kunini olishgan edi. *Bu kun milodiy hisobda 1437 yilning 4 iyul(payshanba) kuniga to‘g‘ri keladi.* Bu davrni yulduzlar katalogining tengkunligi sifatida olinishi, birinchidan, bu kun Samarqand rasadxonasida astronomik kuzatishlar o‘tkazilgan davrning(1420-1450 yillar), taxminan, o‘rtalariga to‘g‘ri kelishidan bo‘lsa; ikkinchidan, mazkur tengkunlik, hijriy yil hisobining kabisa yillarini belgilash uchun qabul qilingan *navbatdagi 30 yillik tsiklning(tartibga ko‘ra, 29-tsiklning) boshlanishiga to‘g‘ri kelardi.* "Zij" jadvallarida Quyosh, Oy holatlarining o‘zgarishi va boshqa ayrim ma'lumotlar 841-871 yillar(ya'ni to‘la 30 yillik tsikl yillari) uchun berilgan bo‘lib, bunday hol mazkur jadvallardan foydalanishda sezilarli qulayligi bilan muhim edi.



**Yan Geveliyning “Astronomiya darakchisi” kitobida berilgan gravyura (XVII asr).**
**Astronomiya ilohasi Uraniya o‘rtada. Uning o‘ng tomonida Mirzo Ulug‘bek, Vilgelm IV (nemis olimi), Yan Geveliy. Chap tomonida Ptolomey, Tixo Brage (daniyalik astronom), Richchi**

Bundan salkam olti asr muqaddam azim shahar -

Ole (italiyalik olim).

Samarqand etagida Ulug'bek va uning safdoshlari tomonidan ishga tushirilgan rasadxonadan Koinot qa'riga tashlangan nazar faqat Sharqdagina emas, balki jahon fani, madaniyatining "ochilmagan qo'rig'i"ni ochish - Koinotni o'rganishga qo'yilgan buyuk bir qadam bo'ldi. Shu ilk qadam sabab bo'lib Yevropada birin-ketin yirik, yaxshi jihozlangan rasadxonalar ishga tusha boshladi. Polshada Olam tuzilishining geliotsentrik nazariyasi(N. Kopernik tomonidan), Milanda (Italiya) Koinotning cheksizligi va unda Quyosh sistemasi - oddiy bir yulduzning yo'ldoshlari bilan tashkil etgan sistemasi ekanligini g'oyasi (Jordano Bruno tomonidan), Germaniyada osmon jismlarining harakat qonunlarini ifodalovchi osmon mexanikasi (I. Kepler tomonidan), Angliyada osmon jismlarining massalarini hisoblash usuli(I. Niyuton tomonidan) kabi muhim kashfiyotlar daryosining vujudga kelishida Samarqand astronomlari "ko'zini ochgan buloq" dastlabki irmoq bo'lib Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlarini o'rganish bo'yicha Ulug'bek maktabi qo'ygan poydevor - nazariy astronomiya deyiluvchi maxsus fanning shakllanishida o'zining ulkan hissasini qo'shdi.

Olamni o'rganish, uning sir-asrorlaridan voqif bo'lish - insonning Yer yuziga kelishdan maqsadini aniqlab berishdek dunyoqarash vazifasini bajarishi bilan muhim hisoblanadi. U insonni cheksiz Koinotning bir zarrasi va milliardlab yillar davom etgan uning evolyutsiyasining mahsuli ekanligini, u yashagan umr Koinotning yoshi oldida atigi bir daqiqa ekanligini, har bir insonning "bir zumlik" hayotga kelishi mo''jizaviy bir holligini va bu "bir zumlik" umrni pala-partish emas, balki buyuk maqsadlarga qaratib yashash zarurligini, bu ulug' nomga dog' tushirmay yashash lozimligini sezdirishi bilan beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bu esa, o'z navbatida, insonni o'z hayotini, boshqalar taqdiri va shaxsini qadrlashga, tabiatning nodir in'omi - hayotga yengil-elpi qaramaslikka, buyuk ezgu maqsadlarni ko'zlab ish tutishga, o'z ijobiy faoliyati bilan uning mazmunini boyitishga, sermazmun qilishga undaydi.

**3 - mashg'ulot: 2- soat.**

**– KEYS – STADI**

**O'qitishning keys – texnologiyasi**

**5.3.1. O'qitish texnologiyasi modeli**

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |

| | |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda ilm - fan rivoji. Ulug'bek rasadxonasi.<br>2. Temuriylar davri san'ati va madaniyati. Samarqand registoni<br>3. Temur va Temuriylar davri me`morchiligi. Shaharsozlik. Saroy va bog'lar qurilishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Ulug’bek hukmligi davrida san’at. Mamlakatdagi obodonlashtirish ishlari to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Ulug`bek rasadxonasi.Saroy va bog`lar qurilishi. Samarqand registoni to’g’risida tushuncha beradi.<br>* Temuriylar davri san’ati va madaniyati haqida tushuncha beradi.<br>* Mamlakatdagi obodonlashtirish ishlarini yorotib berib, ekranda namoyish etadi . | * Ulug`bek rasadxonasi.Saroy va bog`lar qurilishi. Samarqand registoni to’g’risida gaporib beradilar.<br>* Temuriylar davri san’ati va madaniyati haqida gaporub beradilar.<br>* Mamlakatdagi obodonlashtirish ishlari haqida gapirib beradilar, shaharsozli ishlarini muhokama qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |

| | |
|---|---|
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**5.3.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi**

| Ish jarayon lari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. Mavzu va undagi rejalar bo'yicha dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi . | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Ulug`bek rasadxonasi to'g'risida gapirib bering?<br>2. Saroy va bog`lar qurilishi qanday bo'lgan?<br>3. Samarqand registoni haqida nimalarni bilasiz?<br>4. Temuriylar davri san'ati va madaniyati to'g'risida tushuncha bering?<br>5. Mamlakatdagi obodonlashtirish ishlari qanday bo'lgan? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish | Mustaqil |

| | | |
|---|---|---|
| minut) | uchun topshiriqlar beradi . | o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

3 - mashg'ulot bo’yicha glossariy

- ✓ **Akademiya - oliy ilmiy tashkilot.**
- ✓ **Rasadxona (observatoriya) - osmon jismlari tadqiqoti uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa va shu muassasa joylashgan bino.**
- ✓ **Sanad - shahodatnoma**
- ✓ **Sekstant - osmon yoritqichlarining balandligini belgilash uchun mo`ljallangan ko`zgu-qaytargichli asbob.**

## 4 - mashg'ulot: 2 - soat

**Reja:**

1. Naqqoshlik, hattotlik san'ati. Samarqand miniatyura maktabi va uning xususiyatlari.

2. Badiiy hunarmandchilik va uning turli shakllari. Kulolchilik sohasidagi yangiliklar.

### Nafis kitob va xattotlik san`ati

### Nafis kitob va xattotlik san'ati (Temuriylar davri)

Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik san’ati ham rivoj topadi.



Uzoq tarixiy o’tmishda bosmahona bo’lmagan. Kitoblar qo’lda ko’chirilgan. Qo’lda ko’chirilgan kitoblar nafaqat mazmunan, balki tashqi ko’rinishi va bezagi jihatidan ham kitobxonlarning talab-ehtiyojlari va didiga javob berishi, odamlarda ma'naniy va estetik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilishi lozim edi. Shu boisdan ham Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik buyuk san'at darajasiga ko’tariladi. Bu nafis kitob yaratish jarayoning mislsiz darajada murakkab va og’irligi turli xil kasb-xunar egalari



mehnatining ma'lum bir dasta singari jamlanishi bilan belgilanadi. Chunki kitob yaratish jarayonida qog’oz kesuvchi xattot (kalligraf), musavvir, lavvoh (lavha chizuvchi), sahhof (muqovachi) ishtirok etadi.

Ota-bobolarimiz tomonidan nafis kitob yaratishda ishlatilgan Samarqand, Buxoro kog’ozlarining dovrug’i doston bo’lgan. Kitoblarni yaratishda unga turli, xil suyuqlik moddalar va ranglar ishlatilgan. Kitobdan yoqimli va xushbo’y hid kelib turishi uchun juda sifatli gulob yoki anbar siyohga qo’shilib yozilgan. Musavvirlar ishlatadigan buyoqlarda oltin va kumush eritmalari aralashtirilgan, sahhof esa muqovaning go’zal bo’lishi uchun charmlardan ustalik bilan foydalangan.

Og’ir va mashaqqatli mexnatlar evaziga yaratilgan har bir kitobning o’zi shubxasiz katta bir san'at asari edi. Bunday kitoblar asosan shohlar, amirlar, xonu sultonlar buyurtmalar asosida yaratilgan va maxsus kutubxonalarda e'zozlab saqlangan.

XIV — XVI asrlarda nafis kitob va xattotlik sanatining buyuk namoyandalari o'sib etishadi. Bular Mir Ali Tabriziy, Abduraxmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashxadiy, Mir Ali Qilqalam, Sulton Ali Xandon, Halvoiy, Rafiqiy, Mirak Naqqosh, Bexzod, Shox Muzaffar va boshqalardirlar.

# HATTOTLIK SAN’ATI

Naqqoshlik va xattotlik san’atining islom aqidalariga muvofiq keng yoyilganligi insonning ilohiy va dunyoviy go‘zalliklardan bahramandlikka intilish maylidan dalolat beradi. Bu davrda kitoblar qo‘lda ko‘chirilar, bu mehnat turi san’at darajasiga ko‘tarilgan edi. Go‘zallik qonunlariga rioya qilib ishlangan qo‘lyozma kitoblar «Nafis kitob» va xattotlik san’ati deb yuritilgan. Nafis kitob san’at turi sifatida kitobxonga estetik zavq bag‘ishlashi lozim bo‘lib, bu sohada mashhur xattotlar, naqqoshlar yetishib chiqqan edi. Mohir xattotlar va naqqoshlarning o‘z usul va an’analari qaror topgan edi.

XIV—XV asrlarda nafis kitob va xattotlik san’ati yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Mashhur xattot Ali Òabriziy (1330—1404-y.) nasta’liq xatini kashf qildi. Bu uslub xatti kufiy, xatti shikasta, nasx va boshqa uslubdagi xatlar o‘rnini keng egalladi. Nasta’liq uslubi Sulton Ali Mashhadiy tomonidan yanada takomillashtirildi. «Xatti hirotiy» nomi bilan mashhur bo‘lgan

Xattotlik san’ati. Bu uslub XX asr boshlarigacha davom etdi. Sulton Ali ashhadiy «Qubtat ul- kuttob» («Kotiblar sardori») va «Sulton ul-xattotin» unvoni bilan sharaf langan. Mashhur xattot, naqqosh, shoir bo‘lgan Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan Nizomiy, Attor, Sa’diy, Jomiy, Navoiyning nafis kitoblari jahon kutubxonalarida hozir ham nodir san’at asarlari sifatida e’zozlanib saqlanadi.

Sulton Ali Mashhadiyning 1514- yilda yozilgan «Xattotlar va musavvirlar haqida risola»sida aytilishicha, husnixat (xattotlik) san’atining o‘ziga xos maxsus maktabi bo‘lgan. O‘sha davrda zabardast ijodkorlar asarlari musavvirlar tomonidan rango - rang bezatilib, uning matnlari husnixat orqali maxsus xattotlar tomonidan bitilgan.

Bu esa o‘sha asarlarning xalq orasida keng tarqalishiga va sevib o‘qilishiga sabab bo‘lgan. Qo‘lyozma devonlarni bezatishda qo‘llaniladigan bezak va naqshlar turli-tuman bo‘lib, har bir devon tuzuvchining sahifalarga oro berishda o‘ziga xos uslubi bo‘lgan. Shu bois qo‘lyozmalarni ko‘chirish va ziynatlashda qo‘llaniladigan naqsh va jilo turli-tuman ko‘rinishda bo‘lganligi sababli, har bir bezak xili alohida nomga ega bo‘lgan. Sharq kitobati va me’morchiligida, asosan, «islimiy», «xitoyi» bezaklari ko‘p ishlatilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Samarqandda Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan masjidi Muqatta’ning «qit’a-qit’a yig‘ochlari tarosh qilib islimiy va xitoiy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo‘sunluq» ekanligini aytib o‘tadi.

Kitobat san’ati bir qancha qo‘li gul hunarmandlar tomonidan bajariladigan murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, bular — qog‘ozrez, xattot (kitob va risolalarni ko‘chiruvchi kotib), lavvoh (lavh yasovchi

usta), muzahhib (zarhal beruvchi mo‘yqalam sohibi), musavvir (rassom), sahhof (muqovasoz)lardan iborat jamoadir.

Qo‘lyozma kitoblarni tayyorlashda kitob uchun yaxshi, sifatli qog‘oz tanlash muhim bo‘lgan. Bu o‘rinda Samarqand qog‘ozi, ayniqsa, o‘zining bejirimligi va sifati bilan dong taratgan. Samarqand qog‘ozlari miloddan avvalgi davrda Buyuk Ipak yo‘li orqali Eron, Hindiston, Shom va Rumgacha yetib borgan.

“Maroqand qog‘ozlari, — deb yozgan edi qadimgi yunon olimi Gerodot “Tarix” asarida, — o‘zining sifati, yozuvning tiniq ko‘rinishi, ixchamligi bilan Xitoy qog‘ozlaridan yuqori turadi”. Tarixchi Narshaxiyning VI—VII asrlardan hikoya qiluvchi mashhur “Buxoro tarixi” hamda Firdavsiyning “Shohnoma” asari ham Samarqand qog‘oziga bitilgani tufayli bugungi kungacha yetib kela olgan. Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida Samarqand qog‘ozi haqida quyidagi ma’lumotlarni yozib qoldirgan: “Dunyoda eng yaxshi qog‘oz Samarqanddin keltiriladur”. Aytish kerakki, Samarqand XIX asrning birinchi yarmigacha ko‘pgina mamlakatlarning qog‘ozga bo‘lgan ehtiyojini qondirib kelgan. Hatto Shosh, Tabriz shaharlarida Samarqand qog‘ozlari sotiladigan do‘konlar bo‘lgan. Xattotlar matnni qog‘ozga yozishda mistar (maxsus qog‘oz-karton) ustiga ip tortib uning izini matn yoziladigan qog‘ozga tushirib olganlaridan so‘ng matn yozishga kirishganlar. Matnni qanday joylashtirish xattotning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. Yozilgan matnni lavvoh hoshiyali qog‘ozga yelimlagan, uning ustidan jadvalkash turli-tuman ranglarda chiziqlar tortib, matnni jadvalga olgan. Keyin esa muzahhib oltin suvi va turli ranglar bilan qo‘lyozmani ziynatlagan. Bunda muzahhiblar “shams”, “lavha”, “sarlavha”, “zarvaraq”, “xotima” kabi naqshlardan foydalanganlar. Bo‘sh qoldirilgan joylarga musavvirlar miniatyura ishlaganlar. Ular rasmlarni turli ranglarda, oltin, kumush ishlatgan holda bo‘yaganlar. Nihoyat, muqovachilar qo‘lyozmaga naqsh va turli xil bo‘yoqlar bilan jilo berganlar, oltin suvlari yurgizilgan charm muqovaga biriktirganlar. Muqovaning qopqog‘i ko‘pincha bosma, o‘yma, qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan kumush yoki yog‘ochdan bo‘lgan.

Temuriylar hukmronligi davrida kitobat san’ati yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. O‘sha davrlarda mashaqqatli mehnat bilan bunyodga kelgan nafis kitoblar oz nusxada, nihoyatda qimmat bo‘lar edi. Bunday kitoblar ko‘pincha podshohlar, amirlar va davlatmand kishilar buyurtmasi bilan ishlanar va maxsus kutubxonalarda saqlanardi. Kitobat va xattotlik san’ati XIV—XV asrlarda yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Mashhur xattot Mirali Tabriziy nasta’liq xatini kashf etadi. Mohir xattotlardan biri Sultonali Mashhadiy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Sa’diy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarning asarlarini mahorat bilan ko‘chirgan. Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan 50 dan ziyod kitob hozirgi kunga qadar yetib kelgan. U o‘ymakorlik san’atida ham mohir bo‘lib, Husayn

Boyqaroning “Bog‘i Jahonoro” bog‘idagi saroy va boshqa binolarning devorlariga o‘yib bitiklar yozgan.

Temuriy hukmdorlar devonxonalari qoshida, xususan, Samarqand va Hirotda saroy kutubxonalari tashkil etilib, ularning boshliqlari “kitobxona dorug‘asi” yoki “kitobdor” deb atalgan. Ularning qo‘l ostida ko‘plab xushnavis xattotlar, qo‘li gul naqqoshlar, musavvirlar, mohir lavvohlaru sahhoflar buyurtmalar bajarganlar. Masalan, XIV asrning birinchi yarmida Hirotda Ulug‘bekning ukasi Boysung‘ur Mirzo kutubxonasida qirq nafar xattot va bir qancha naqqoshlar ko‘lyozma asarlardan nusxalar ko‘chirish va ularni bezash bilan band bo‘lgan. 1429 yilda A.Firdavsiyning “Shohnoma” asari ko‘chirtirilib, asar 20 ta manzarali rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan. XV asrning ikkinchi yarmida Hirotda kitobat san’ati yanada rivoj topadi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g‘amxo‘rlik qilganlar.

Keyinchalik Buxoro xonligida ham xattotlik, miniatyura, rassomlik san’ati, kitob ko‘chirish, ularni naqsh va tasvirlar bilan bezatish san’ati davom ettirildi. 1624 yilda Samarqandda ko‘chirilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kitobi o‘sha davr kitobat san’atining yorqin namunasidir. XVII—XVIII asrning birinchi yarmida Buxoroda xattotlik va miniatyura san’ati yaxshi rivojlangan edi. Rassomlar asosan qo‘lyozmalarni naqshli bezash bilan shug‘ullangan. Masalan, Buxoro xoni Amir Haydar davrida ijod qilgan Mir Ma’sum Olamiyon “Axloqi Muhsiniy” va Sa’diy asarlarini rasmlar bilan bezaydi. Mirzo Sodiq Jondoriy amir Nasrulloxon davrida qo‘lyozma kitoblarga lavhalar, qo‘lyozma asarlardan nusxalar ko‘chirish va bezash bilan band bo‘lgan.

**4 - mashg'ulot: 2 - soat**

**– KEYS – STADI**

**O’qitishning keys – texnologiyasi**

## 5.4.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Naqqoshlik, hattotlik san'ati. Samarqand miniatyura maktabi va uning xususiyatlari.<br>2. Badiiy hunarmandchilik va uning |

| | |
|---|---|
| | turli shakllari. Kulolchilik sohasidagi yangiliklar. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati va san’ati to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Naqqoshlik, hattotlik san'ati va Samarqand mihiatyura maktabi to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Amir Temur davri obodonchilik ishlari. Badiiy hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti to’g’risida tushuncha beradi. | * Naqqoshlik, hattotlik san'ati va Samarqand mihiatyura maktabi faoliyatini o'rganib, aytib beradilar, o'rganganlarini tahlil qiladilar.<br>* Amir Temur davri obodonchilik ishlari . Badiiy hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti haqida gapirib beradilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 5.4.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayonlari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga | 1.1. Mavzu yuzasidan dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| va mavzuga kirish. (20 minut) | mezonlari bilan tanishtiradi . | |
| | 1.2. Mazkur mavzu bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | * Naqqoshlik, hattotlik san'ati va Samarqand mihiatyura maktabi to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Amir Temur davri obodonchilik ishlari. Badiiy hunarmandchilik va uning turlari,taraqqiyoti to’g’risida tushuncha beradi. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi | Yozadi. |

**5 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. Temur va Temuriylar davrida adabiyotning rivojlanishi. O'zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi.

2. XIV asrning II yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyati.

3. XIV - XV asrlardagi ma'naviy - madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning xizmatlari.

**Adabiyot**

O`rta Osiyo xalqlari adabiyoti badiiy uslub jihatidan takomillashdi, yangi pog`onaga ko`tarildi. Nasrda ham, nazmda ham ko`plab nodir badiiy va link asarlar yaratildi. O`rta Osiyo xalqlari, xususan o`zbek hamda tojik adabiyoti o`rtasida o`zaro aloqa va hamkorlik kengaydi va mustahkamlandi. O`zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi. Badiiy adabiyotning o`sishi bilan uzviy bog`langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, qimmatli ilmiy asarlar yaratildi.

Bu davrda zamonasining iste'dodli shoirlari va adiblari **Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih** va boshqalar yashab ijod qiladilar. **Durbek** tomonidan qayta ishlangan *"Yusufva Zulayho"* dostoni, toshkentlik shoir Atoiyning devoni shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridir. Bu davr o`zbek shoirlari ichida **Lutfiy (1366-1465)** alohida o`rin tutadi. Navoiyga qadar o`zbek she'riyatida Lutfiy darajasiga yetadigan shoir bo`lmagan. U birgina o`zbek tilida asarlar yaratib qolmadi, balki tojik tilida ham qasidalar yozdi. Lutfiy ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo`lishni targ`ib qilish, ilm va san'atni sevish kabi fikrlar katta joy olgan.

XV asr badiiy adabiyoti ravnaqida buyuk davlat arbobi, ulug` shoir, olim, mutafakkir

Alisher Navoiy va buyuk tojik shoiri Abdurahmon Jomiyning hissalari g`oyat buyukdir. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt- saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o`zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag`ishladi. U o`zbek adabiy tili, o`zbek mumtoz adabiyotini yangi pog`onaga ko`tardi. Navoiy o`ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi. *"Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr"* shular jumlasidandir.

Navoiy tarixni bilishning ahamiyati katta ekanini ta'riflab, odamlarni tarixni o`rganishga da'vat etadi. Uning fikricha, tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimai holini emas, balki mamlakat tarixini o`rganishi kerak. Navoiy mamlakatni nimalar tanazzulga va nimalar farovonlikka olib kelishini, qanday ishlar tufayli mamlakat obod bo`lishini, xalqqa farog`at va baxt keltirishini tarix ko`rsatib berishi lozim deb hisoblaydi.

Navoiy adolat yordamida mamlakatni obod qilish mumkinligini, har bir kishi o`zining xulqi va odobi bilan odamlarni xursand qilishi lozimligini uqtirib o`tadi.

Xullas, o`zbek xalqining ulug` shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o`zining faoliyati va ijodiyoti hamda bebaho asarlarida ko`targan o`ta insonparvar g`oyalari bilan jahon adabiyotining buyuk san'atkorlari qatoridan munosib o`rnini egalladi. Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiyning zamondoshi, ustozi va do`sti edi. Ularning do`stligi va hamkorligi o`zbek va tojik xalqlari do`stligi va hamkorligining yorqin timsolidir.

Temur va temuriylar davrida xalq og'zaki ijodi namunalari yaratildi. Adabiyot badiiy uslub jixatidan takomillashdi, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ilmiy asarlar yaratildi. O'zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi.

Bu davrda yetuk ijodkorlar Qutb, Sayfi Saroyi, Xaydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muxammad Solix va boshqalar yashab ijod qildi. Ayniqsa o'zbek yozma adabiyotining dunyoviy ko'lamini Alisher Navoiyning ijodi kamolot bosqichiga ko'tardi. Movarounnaxr va Xurosonda o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatining mavqei orta bordi. Xurosondagi turkiyzabon xalqlar va ularning ziyolilari Samarqand, Buxoro, Turkiston va

boshqa shaxarlardagi olimlar shoiralar va san'atkorlar bilan o'zaro juda yaqin munosabatda bo'la boshladilar. Qaysi ijodkor o'ziga qaysi mamlakat yoki shaxarni qulay deb bilsa, yosha yerda yashab ijod qildi. Masalan, xorazmlik shoirlar Xaydar va xofiz Xorazmiylar Sherozga, Ismoil Ota avlodlaridan bo'lgan shoir Shayx Atoiy Turbatdan (Toshkent yaqinidan) Balxga, Mavlono Lutfiy xam asli Toshkentdan bo'lib Xirot yaqiniga borib yashab qolganlar.Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Temuriylardan 22 ta ijodkor-shoir bo'lib, ular o'zlari she'r yozish bilan birga ijodkorlarga xomiylik xam qilgan. Xalil Sulton, Xusayn Boyqaro kabilar o'z she'rlaridan devon tuzganlar. Xuroson va Movarounnaxrda forsiy va turkiyda xam ikkala tilda ijod qiluvchi shoirlar ko'p bo'lib, adabiy xayot yuksaladi. Sharq klassik adabiyoti tarjimalariga xam e'tibor kuchayadi. «Chaxor manoli» kabi adabiyot nazariyasiga oid asarlar yaratilgan. Badiiy ijodning g'azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topgan. Adabiy jarayonda shoxlar xam, oddiy kosib va xunarmandlar xam, olim va fozillar xam qatnashgan.

Xurosondagi adabiy xayotning rivojida Boysung'ur Mirzo (Shoxruxning o'g'li) ning o'rni beqiyos bo'lib, u o'z tashabbusi bilan fanlarning barcha soxalariga va san'at rivojiga katta xissa qo'shgan. Uning raxbarligida Firdavsiy «shoxnomasi»ning ko'p qo'lyozmalarni qiyoslash asosida ishonchli ilmiy matni yaratildi. Boysung'urning o'zi xam forsiy va turkiyda she'rlar yozgan. Xullas, XV asr o'rtalarida Xurosonda o'zbek adabiyotining yangi maktabi yuzaga keldi. Movarounnaxrda Ulug'bek davrida ko'plab forsiy va turkiy ijodkorlar to'plandi. Adabiy muxitni bevosita Ulug'bekning o'zi boshqarar, Samarqandda o'sha davrning eng yaxshi shoirlari yig'ilgan edilar. Shoirlarning sardori («Malik ul-kalom») qilib Mavlono Kamol Baraxshiy tayinlangan edi. Sakkokiy o'z qasidalaridan birida Ulug'bekning she'r yozishini va uning she'r xaqidagi tushunchasi yuqori bo'lganligi ta'kidlab o'tgan. Ulug'bek Xurosondagi ijodkorlar bilan xam do'stona munosabatda bo'lgan. U Lutfiy she'rlarini XV asrning mashxur shoiri Salmon Sovajiy she'rlari bilan teng ko'rgan. Mumtoz shoir bilan tenglashtirish Lutfiy uchun katta sharaf edi. Ulug'bek saroyidagi eng obro'li o'zbek shoiri Sakkokiyning lirik she'rlari bilan birga o'zbek tilidagi qasidalari xam bu she'riy janrning sezilarli yutug'i bo'ldi.

Navoiy «Majolisun-nafois» tazkirasida ko'proq xurosonlik shoirlar xaqida ma'lumotlar bersa, Davlotshox Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» asarida o'tmishda o'tgan ijodkorlarga to'xtaladi. Yaqinda ma'lum bo'lgan Shayx Axmad ibn Xudoydod Taroziyning «Fukukul-balog'a» (1437 y.) asari temuriylar davri Movarounnaxrdagi adabiy xayotni o'rganish imkonitlarini ochdi. Shayx Axmad Taroziy asarida she'r nazariyasiga doir ilmiy masalalarni yoritish bilan birga, shu paytgacha noma'lum bo'lgan o'zbek va forsiyzabon shoirlarning she'rlaridan misollar keltiradi. Shayx Taroziy o'z asarida bizga ma'lum bo'lgan mashxur shoirlardan tashqari, bizga noma'lum bo'lgan Muxammad Temur Buzoning tuyuqlarini, Shams Qisoriyning «al-maqlubul-ba'z» she'riy san'ati namunalarini, Jaloliy degan shoirning ishqiy mazmundagi baytlarini,

«mutasalsal» she'riy man'atiga o'zining g'azalidan namunalar keltiradi. «Mutasalsal» san'ati qofiya bo'lib kelgan so'zlarning yoki uning bir bo'lagining keyingi bayt boshlanishida takrorlanishi bilan baytlarni bir-biriga bog'lashni anglatadi. Taroziyning «Fukukul-balog'a» asari o'sha davr o'zbek adabiyoti tarixini yanada chuqurroq o'rganishda qimmatlidir.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo'lib, bu yuksalik Temuriy Boyqaro va o'zbek adabiyotining porloq quyoshi Navoiy nomlari bilan bog'liq. Boyqaro xukmronligi davrida adabiyot, san'at va fanning ko'p soxalari rivojiga katta axamiyat bergan. «Xusayniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan, bu ulug' zot o'z xukmronligi davomida Navoiyga «muqarrabi xazrati sultoniy» mansablarini berib birgalikda madaniyatning rivojlanishiga xomiylik qilishgan. Navoiy ustozi Jomiy bilan xamkorlikda ma'naviyat taraqqiyotiga raxnamolik qildi. Ular timsolida badiiy adabiyot eng buyuk yutuqlarga erishdi. Navoiyning «Xamsa» va «Xazoyinul-maoniy» devoni, Jomiyning «xasht avrang» va she'riy devonlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalari bo'ldi. Xusayn Boyqaro o'z «Risolasida» uning xukmronligi davrida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlangani bejiz emas. Bu boy adabiy meros o'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga xam o'zining chuqur ta'sirini ko'rsatdi. Boburning «Boburnoma» asari shu davr o'zbek adabiyoti va ilmining xayotbaxsh an'analari asosida yuzaga kelgan edi.

XV asrda o'zbek adabiyoti, ayniqsa Navoiy ijodi misolida adabiy janrlar rang-barangligi nuqtai nazaridan xam eng yuksak cho'qqiga ko'tarildi. O'zbek adabiy tili shakllandi. o'zbek nazmi va nasridagi adabiy uslubning xususiyatlaridan biri adabiy va ilmiy asarlarda fikr ifodasida forsiy va arabiy so'z va iboralardan, atamalardan, forsiy tilga xos jumla tuzilish qoidalaridan keng foydalandilar.Temuriylarning adabiyot va madaniyat soxasidagi an'analari keyinchalik boburiylar tomonidan Afg'oniston va Xindistonda, XVIII-XIX asrlarda Xorazm va Qo'qon xonligida rivojlantirildi. Temuriylar davri adabiyoti o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos aloxida bir bosqichni tashkil etadi. Undagi ulug'vor insonparvarlik va xalqchillik, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari xamon o'z tarovatini yo'qotgani yo'q. Bu adabiy meros O'zbekistonda xali asrlar davomida o'zining boy mazmuni bilan, g'oyaviy-mafkuraviy teranligi va iloxiyligi bilan komil insonni tarbiyalashda katta axamiyat kasb etadi. Temuriylar davrida yaratilgan adabiyot tasavvufning adabiyoti darajasini belgiladi. Adabiyot tasavvufning g'oyaviy mazmunida iloxiy masalalarni qamrab olib umuinsoniy tafakkurni ifodaladi. Movarounnaxr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon Sharqigina esas, ovropa mamlakatlarini xayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy-ma'naviy rivojinigina belgilab bermay, qo'shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga xam katta turtki berdi.

Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko'rsatadiki, ular o'azro uzviy bog'langan va yaxlit bir butun

xoldagina qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma'naviy yuksakligini yuzaga keltira olgan. Bulardan:

Birinchi - navbatda siyosiy-ijtimoiy omilni ko'rsatish mumkin. Movarounnaxr va Xurosonda tarqoq, o'zaro nizo va urushlar natijasida turli viloyat, amirliklarga bo'linib ketgan va kelgindi xukmronlar- mo'g'ullar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachilikdan qutulishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshqarish qoidalarining joriy etilishi, zo'ravonliklar, o'zboshimchaliklar kabi illatlarning tugatilishi ijtimoiy yuksalishi ta'minlandi.

Ikkinchi - iqtisodiy omil - Movarounnaxr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalik ishlab chiqarishning so'nggi rivojlanishiga olib keldi. Davlat tomonidan dexqonchilik, xunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu soxada qator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nixoyatda muxim axamiyat kasb etdi.

Uchinchi - ma'naviy omil - avval madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan IX-XIII asrlarda yaratilgnan ma'naviy-madaniy boyliklardan, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chag'miniylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumiy, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan: Musulmon Sharqi ma'naviy merosida keng axamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy, boyliklaridan keng foydalanildi.

Bu davrda Amir Temur davlatining ta'sirida bo'lgan va bo'lmagan boshqa mamlakatlar o'rtasida madaniy aloqalar tez rivojlandiki, bunday aloqalar ma'naviy boyliklarni o'zaro almashishga keng yo'l ochib berdi. Eron, arab mamlakatlari, Xindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalarda madaniy boyliklar almashinuvi xa muxim axamiyat kasb etdi.

To'rtinchi - g'oyaviy omil - bu omil ma'naviy omilning uzviy davomi bo'lsa-da, uning muxim axamiyatga ega bo'lganligi va o'z davri ma'naviy xayotida katta rol o'ynaganligi uchun aloxida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu XV asrga kelib Movarounnaxr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf - xususan Naqshbandiya ta'limotidir. Markaziy Osiyoda Yusuf Xamadoniy, Abu Xoliq ¢ijduvoniy ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan Naqshbandiya ta'limoti va uning yirik vakillari XIV-XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy xamda madaniy xayotda nixoyatda muxim rol o'ynadi, ma'naviy o'zgarishlar ma'lum erkinlik uchun g'oyaviy asos, omil bo'lib xizmat qildi. Temur va temuriy shaxzodalar, ko'p olim-fozillar, xunarmandlar naqshbandiya ta'limotidan ozuqa oldilar, o'z faoliyatlari, ijodlari bilan uni xar tomonlama boyitdilar.

XV asrda yashab ijod etgan Naqshbandiya ta'limotining yirik vakili Xo'ja Axror Vali faqat madaniy xayotdagina emas, siyosiy-iqtisodiy tinchlik va rivojlanish ishida muxim ijobiy rol o'ynadi. Bu kabi omillar Temur va Temuriylar davri madaniyati va ma'naviyatining tez va yuksak darajada ko'tarilishiga olib keldiki, uning yutuqlari so'nggi uzoq asrlar davomida madaniy rivojlanish uchun ozuqa bo'ldi.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalayotgan tasavvuf ta'limotining Sufi, Porso, Charxiy, Maxdumi A'zam, Xoja Axror kabi yirik vakllari naqshbandiya tariqatiga oid qator risolalar yaratish bilan birga, jamiyatning ma'naviy poklanishi va rivojlanishi yo'lida faol xizmat qildilar, taniqli arboblar bilan muloqotda bo'lib, ularga ta'sir o'tkazdilar. Bu jixatdan, ayniqsa, Xoja Axror faoliyati muxim axamiyat kasb etadi. Navoiy, Jomiy, Qosimiy, Lutfiy, Bobur kabi shoirlar tasavvufni targ'ib qildilar. Bu davrda tibbiyot ilmi xam o'zining yirik namoyondalariga ega edi. Samarqandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillaridan Burxoniddin Nafis ibn Evaz xakim al—Xirmoniy, Sulton Ali tabib Xursoniy, tabib Xusayn Jarrox shular jumlasidandir.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug'ullangan yirik olimlar paydo bo'ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir Saadiddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayid Jurjoniy nomlari bilan bog'liqdir. Jurjoniy va Taftazoniylardan tashqari, Samarqandda o'sha davrda Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Axmad, Mavlono Nug'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol xoqiy va boshqa olimlar yashab ijod etganlar. O'z davrining ilg'or ijtimoiy va axloqiy fikrlari badiiy adabiyotda, tasavvuf she'riyatida, nazm va nazrda, g'azal va ruboiylarda mufassal bayon qilina boshlandi. Navoiy, Jomiy, Lutfiy, Binoiy, Qosimi Anvar va boshqalarning badiiy asarlari boy falsafiy va axloqiy mazmunga egadir. Bu davrda axloq va ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlangan maxsus risolalar paydo bo'ldiki, ularning orasida Xusayn Voiz Kashifiy va Jaloliddin Davoniylarning merosi aloxida o'rin egallaydi.

Temur va Temuriy shaxzodalar o'z davri tarixini yozib qoldirish, Movarounnaxr va Xurosonning mo'g'ullar zulmidan ozod etilishi tarixini o'rganish va yoritishga katta e'tibor berdilar. Nizomiddin Shomiy, Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, xofizi Abru, Natanze, Fosix Xavofiy, Mo'yniddin Isfizoriy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar temuriylar davri tarixini yozib qoldirdilarki, ular yozib qoldirgan asarlar xozirda biz uchun o'sha davr xodisalarini, madaniy yuksalishini o'rganishda, muxim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. .

Ilm fan va adabiyotning rivoji kitobat san'ati, yangi qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish, xattotlik, musavvirlik, lavxa chizish, muravozlik kabi san'atlar taraqqiyotiga xam ijobiy ta'sir qildi. Nafis kitob va xattotlik XIV-XV asrlarda

yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. xattot Mir Ali Tabriziy (1330-1402) nasta'liq xatini kashf qildi. Bu usul xirotda Sulton Ali Mashxadiy boshchiligida yuksak bosqichiga ko'tarildi va Abduraxmon Xorazmiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Qilqalam, Xalvoiy, Rafiqiy kabi xattotlar, musavvirlar yetishib chiqdi. Samarqand va Xirotda temuriylarning saroy kutubxonalari tashkil etildi. Bu kutubxonalar xunarmandchilik korxonasi xisoblangan, ularda qo'l yozma asarlarni to'plash va saqlash ishlari bajarilgan.

XIV-XV asrlar O'rta Osiyo xalqlarining musiqa san'ati taraqqiyotida xam yangi bosqich bo'ldi. Yangi kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga doir asarlar yaratildi. Maxoratli sozandalar, bastakorlar va xofizlar yetishdi. Abduqodir Nayiy, Qulmuxammad Shayxiy, Xusayn Udiy, Shoxquli ¢ijjakiy, Axmad Qonuniy, Yusuf Andijoniy kabilar shular jumlasidandir. Ulug'bek, Jomiy, Navoiy va Binoiylar musiqa ilmiga oid asarlar yozib yangi kuylar ijod qildilar. IX-XII asrlarda shakllangan 12 maqom bu davrda takomillashdi. Shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan teatrlashgan tomoshalar- xalq sayllarida masxarabozlar, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar o'z san'atini namoyish qilgan.

**5 - mashg'ulot. 2- soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 5.5.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Temur va Temuriylar davrida adabiyotning rivojlanishi. O'zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro ijodi.<br>2. XIV asrning II yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyati.<br>3. XIV - XV asrlardagi ma'naviy - madaniy rivojlanishda |

| | |
|---|---|
| | Naqshbandiylikning xizmatlari. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** IX – XIII asrlarda O'zbekiston madaniyati va san'ati to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| 1. O'zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayin Boyqaro ijodi haqida tushuncha beradi.<br>2. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyatini izohlaydi.<br>3. XIV – XV asrlardagi ma'niviy – madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning xizmatlari to'g'risida tushuncha beradi. | 1. O'zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayin Boyqaro ijodi to'g'risida tushunganlarini aytib beradilar.<br>2. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyati o'rganib gapirib beradilar.<br>3. XIV – XV asrlardagi ma'niviy – madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning xizmatlari to'g'risida bilganlarini muhokama qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 5.5.2 – Ma'ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (2-ilova). | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. O'zbek adabiyotining vujudga kelishi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayin Boyqaro ijodi to'g'risida nimalarni bilasiz?<br>2. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrdagi madaniy yuksalishning ahamiyati qanday bo'lgan?<br>3. XIV – XV asrlardagi ma'niviy – madaniy rivojlanishda Naqshbandiylikning xizmatlari nimalardan iborat bo'lgan? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish | Mustaqil |

| | | |
|---|---|---|
| | uchun topshiriqlar beradi | o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |

5 - mashg'ulot bo’yicha glossariy

- ✓ **Mutafakkir - chuqur tafakkur iste'dodi egasi.**
- ✓ **Lavvoh - lavha yasovchi usta.**
- ✓ **Nasta'liq xati - arab mumtoz xati uslublaridan biri bo`lib, unda yozilgan yozuvlarning 5/6 qismi egri, 1/6 qismi esa to`g`ri chiziqlar asosida yoziladi.**
- ✓ **Sahhoflik - muqovasozlik.**

## MA`RUZA MASHG’ULOTLARI

### II - yarim yillik uchun

### 1 – mavzu: XVI – XIX asrlarda O’zbek xonliklari davri madaniyati.

**6 – soat.**

**1 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. XV asr boshlariga kelib Dashti qipchoqdagi qabilalar. Mustaqil davlat tuzish harakatlarining boshlanishi.

2. Shayboniylar davri madaniyati va me’morchilik**.**

3. Hattotlik san’atining rivojlanishi. Kitob bezash hamda miniatyura ishlash borasidagi yutuqlar.

Muhammad Shayboniyxon Abulxayrxonning o’g’li Budoq sultonning o’g’li edi. Otasidan yetim qolgach, Muhammad SHayboniyxon ukasi Maxmud Sulton bilan birga Abulxayrxon tarbiyasida bo’ladi. Keyinchalik temuriy amirlardan biri, Turkiston hokimi Muhammad Mazid tarxon homiyligida bir qancha vaqt Turkistonda yashadi. Turkiston urushlar girdobida qolgan bir vaqtda SHayboniyxon ukasi bilan Sulton Axmad Mirzo panoxida Buxoroda yashadi va ilm oldi. XV asr 90-yillarida Muhammad SHayboniyxon Dashti Qipchoqqa bordi va siyosiy kurashlarga qo’shilib ketdi. U bir necha yil davomida kurash olib bordi va Toshkentdagi hukmdorlar yordamida Dashti Qipchoqda mustahkam o’rnashib oldi. Keyinchalik, Sayram va YAssini qo’lga kiritilgach,

butun Turkistonda hokimiyatni qo'lga kiritdi. 1498 yilda Sulton Axmad Mirzo vafotidan so'ng Samarqandga yurish qildi, uni qo'lga kirita olmagach, Qarshiga yurish qildi va SHahrisabz bilan birga talon-taroj etdi

Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro qirg'inlarning yana takrorlanishini aslo istamas edilar. Shu tufayli ular Muhammad Shayboniyxon timsolida bunday qirg'inga yo'l qo'ymaslikka qodir shaxsni ko'rdilar.

Bundan tashqari, Dashti Qipchoq qabilalari ko'pdan buyon o'troq hayot tarzida yashashni orzu qilib kelardilar. Bu orzuning ushalishi o'zgalarning unumdor yerlarini bosib olish tufayligina ro'yobga chiqishi mumkin edi.

Qabilalar rahnamolari Muhammad Shayboniyxonni o'z orzularini ro'yobga chiqarishga birdan bir qodir qudrat deb hisoblardilar. Shu bois ham ular va ruhoniylar kuchli yollanma qo'shinga ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaydilar.

Ular yerlari unumdor, hunarmandchiligi rivojlangan o'lkalarning bosib olinishi o'troq hayotga o'tish imkonini berishini ham yaxshi bilganlar. Bu omillar Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishiga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrdagi ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi ham uning nufuzini yanada oshirdi. Ayni paytda, Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj-taxt uchun o'zaro kurashlaridan charchagan ham edi. Shu tufayli Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va hatto aholining ma'lum qismi ham Muhammad Shayboniyxon timsolida Movarourmahrda tinchlik o'rnatishga qodir yagona shaxsni ko'rganlar. Shu tufayli Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganlar.

Shu tariqa, Muhammad Shayboniyxonning Temuriylar davlati hududlarida ham o'z hokimiyatini o'rnatishi uchun barcha zarur shart-sharoit yetilgan edi.

## Shayboniylar ta'lim sohasida islohotlar tizimi

Shayboniylar ta'lim sohasida ham islohot o'tkazdilar. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar gurahini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmli, diplomatik qobiliyatga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra, ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolaga 6 yoshdan ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi.

XVI asrda Samarqandda Shayboniyxon madrasasi, Buxoroda Abdullaxon, Toshkentda Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari va boshqa ta'lim muassasalari quriladi va faoliyat yuritadi. Madrasada uch bosqichli ta'lim joriy etilgan bo'lib, uning har bir bosqichida 7 yildan o'qilardi. Shunday qilib, o'qish 21 yil davom etardi. O'quvchilar ilohiyot ilmidan, hisob-kitobdan, handasa, fiqh, mantiq,

musiqa, she'r san'atidan ilm olardilar. Albatta, ta'lim olishga hammaning ham imkoni bo'lmas edi.

Savodxonlikning Movarounnahrda XVI asrdagi ana shunday rivojlanishi o'zbek till rivojlanib, keng tarqalishiga, adabiy aloqalar rivoj topishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsata oldi.



**Abdullaxon madrasasi**

**Ilm-fan.** Shayboniylar davrida fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bunga — ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib chiqqanligi ham ta'sir ko'rsatgan. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon va Ubaydullaxonlar o'z davrining nihoyatda o'qimishli kishilari bo'lganlar.

Shuningdek, Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon va Abdullaxonlar kutubxonalarida o'z zamonasining ajoyib kitob xazinalari bo'lgan. Bundan tashqari, Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek akademiyasi an'analarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqdi. Masalan, Samarqand va Buxoro madrasalarida mudarrislik qilgan mavlono **Kamoliddin Ibrahim,** Abdullaxonning muallimi **Xoja Muhammad,** yulduzshunos **Qiyomiddin Shaydo,**iftixor ul-atibbo (tabiblar iftixori) unvonini olishga sazovor bo'lgan **Muhammad Mazid, Hakim Shahrisabziy,** jarroh mavlono **Baqo,** mavlono **Rafe,**1541- yilda ilmi tibb va dori-darmonlar haqida asar yozgan **Muhammad Husayn ibn Shiroq Samarqandiy,** ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan **Shohali ibn Sulaymon, Xoja Hakim** (vafoti 1585), natijat-ul-atibbo unvonini olgan **Abdulhakim ibn Sulton Mahmud** kabilar shular jumlasidandir. **Xoja Hasan Nisoriy** "Muzakkiri ahbob" asarida matematika va astronomiya ilmida shuhrat topgan mavlono **Kavkabiyni** alohida qayd etadi.

Matematika va astronomiya sohasida yozilgan kitoblardan **Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'minobodiyning** "Hisobi amali shabaka", (Shabaka jadvali amali hisobi; 1550),

**Bobokalon muftiy Samarqandiy**ning „Risola dar ilmi hisob", „Vaziyat bar sahor qism", **Tursun Zominiy**ning „Tuxfayi amir", **Muhammad Husayn munajjim Buxoriy**ning „Ma'rifat samti qibla" (Qibla tomonni topish ma'rifati), **Mahmud ibn Ahmad Foriziy**ning „Risola dar muaddili qamar" (Oy fazolarining tengligi haqida risola; 1517), **Tojis-Saidiy**ning „Hoshiy li shahri ashkoli ta'sis" (Asoslash shakllari sharhiga izohlar; 1568),

**Said Muhammad Tohir ibn Abul-qosim**ning „Ajoyib ut-tabaqot" (1545—1550) asarlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Tibbiyot sohasida **Sultonali Samarqandiy** 1526- yili „Dastur al-iloj", „Muqaddimoti dastur al-iloj" (Davolash bo'yicha dastur) asarlarini yozgan.

**Ubaydulloh Qahhol ibn Muhammad Yusuf** ham o'z davrining yetuk tabibi, tib olimi, Baroqxonning o'rtancha o'g'li Toshkand hokimi**Darvishxonning** buyrug'iga binoan 1598- yilda „Shifo ul-ilal" (Kasalliklar shifosi) asarini yozadi. Asar 500 varaqdan ko'p bo'lib, uzoq vaqtgacha tib ilmidan asosiy qo'llanma tarzida undan foydalanilgan. Bir necha bitik nusxasi bizgacha yetib kelgan. Uning yana „Umdat ul-kuhliya fil-amrodul-basariya" (Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob) asari ham bo'lgan.

Shayboniylar davrida tarix fani ham rivojlandi, ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodiy, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro'zbexon Isfaxoniylar Shayboniyxon topshirig'i bilan har qaysisi Shayboniyxonga atab alohida tarixiy asarlar yozganlar. Bundan tashqari, Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohiyning „Zubdat ul-ozor", Hofiz Tanish Buxoriyning „Abdullanoma" („Sharafnomayi shoxiy"), noma'lum muallifning „Tavorixi guzidayi nusratnoma" asarlari shayboniylar davri ijtimoiy, siyosiy tarixiga doirdir. Zayniddin Vosifiyning „Badoye ul-vaqoye", Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma" asarlari ham shu davr ijtimoiy va madaniy hayotidan bahs yuritadi.

Ko'chkinchixon topshirig'i bilan Sharofiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma"si o'zbek tiliga o'girildi. Yetuk tarixchi olim **Mirza Muhammad Haydar**(1500-1556) 1541-1546- yillarda Yunisxonning nabirasi, tog'avachchasi Abdurashidxonga bag'ishlab „Tarixi Rashidiy" asarini yozadi. Mirza Haydar Toshkentda dunyoga kelgan; uning onasi Toshkent hokimi Yunusxonning qizi Xo'bnigorxonim bo'lib, Zahiriddin Muhammad Boburning xolavachchasi bo'lgan.

**Hofiz Ko'hakiy** (Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy) Ulug'bek Mirzoning shogirdi Ali Qushchining nabirasi bo'lib, shayboniylar davrining yetuk tarixchisi, mantiq, fiqh, kalom ilmlari olimi bo'lgan. Davr taqozosi bilan o'z vatani Toshkentda turg'un yashay olmaydi. 1528- yili Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga, Hindistonga boradi. Hajga borib, Usmonhlar Turkiyasi sultoni bilan uchrashadi. Vazirlikka qilingan taklifni rad etib, 1563-yili Toshkentga qaytadi va shu yerda 1584- yili vafot etadi. U „Tarixi Toshkand", „Tarixi oliy Chingiz" (Chingiz sulolasi tarixi), „Risola fi fannit-tavsir val-usul

val-firu val-mantiq val-kalom” (Tafsir, fiqh asoslari va tarmoqlari, mantiq va kalom ilmi haqida risola) kabi asarlar muallifidir.



**Shayboniylar davrida adabiyot**

**Adabiyot**. Shayboniyxonning o’zi ham umri jang-u jadallarda o’tishiga qaramay, she’riyat va tarix fani bilan shug’ullanishga vaqt topgan. Uning she’riy devon tuzgani ma’lum. U hatto xattotlik bilan ham shug’ullangan. O’zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beraniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida (tartib raqami 844) Kamoliddin Binoniy qalamiga mansub „Shayboniynoma” asarining Shayboniyxon ko’chirgan nusxasi saqlanadi. Ubaydullaxon ham ilmli va ma’rifatli hukmdor edi. U fors va turk she’riyatini yaxshi bilardi. Ayni paytda, o’zi „Ubaydiy” taxallusi bilan o’zbek, fors, arab tillarida ijod qilgan, she’rlar bitgan. Uning uch tilda bitgan she’rlaridan iborat uch devoni bir kitobga jamlangan. Ubaydiyning o’zbek tilidagi devoni 306 g’azal, 435 ruboiy, 25 qit’a, 13 tuyuqdan iborat.

**Me’morchilik**. Shayboniy hukmdorlar poytaxt Buxoro va uning atroflarini obod qilishga harakat qildilar. 1535-1536- yillarda qurilgan Mir Arab madrasasi, 1540-1541- yillarda bino qilingan Masjidi Kalon, 1549- yili Abdulazizxon qurdirgan koshinli xonaqoh, Mag’oki Attori masjidi (qayta ta’mirlangan), 1559- yili qurilgan Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Kitobfurushon, Karmanadagi hazrati Qosimshayx xonaqohi, 1582- yili qurilgan uch darvozali Timi Kalon, 1581- yili bino qilingan Modarixon madrasasi, Oyposhsha oyim madrasasi, 1580- yili bino qilingan Govkushon madrasasi, 1586- yili qurilgan Fathulla qo’shbegi madrasasi,

1585- yili qurilgan Fayzobod xonaqohi, Do’stum madrasasi, 1577-1578- yillari qurilgan Abdullaxon madrasasi, Tim, Chorsu fikrimizning dalilidir. Samarqandda ham shayboniylar nomi bilan bog’liq binolar anchagina.

Chunonchi, Shayboniyxon tomonidan qurila boshlab, 1515-1516- yillarda bitkazilgan Shayboniyxon madrasasi va Abdurahim Sadr madrasasi, Toshkentda bino qilingan Baroqxon madrasasi, Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga qurilgan ko'prik (1582) mashhurdir.

Buxoroga kelgan ingliz elchisi Antoniy Jenkinson: „Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo'qdir", — deb yozadi.

Ayniqsa, Abdullaxonning yurt obodonchiligi yo'lidagi sa'y-harakatlari tarixchilar tomonidan yuksak baholangan. Uning davrida markaziy hokimiyat kuchayishi tufayli katta qurilish ishlari amalga oshirilgan. Chunonchi, Abdullaxon 1000 dan ortiq rabot va sardoba, ko'plab madrasa, masjid, ko'prik, suv omborlari qurdirgan. Buxoroda juda katta savdo markazi bunyod etilgan.

Muhammad SHayboniyxon Abulxayrxonning o'g'li Budoq sultonning o'g'li edi. Otasidan yetim qolgach, Muhammad SHayboniyxon ukasi Maxmud Sulton bilan birga Abulxayrxon tarbiyasida bo'ladi. Keyinchalik temuriy amirlardan biri, Turkiston hokimi Muhammad Mazid tarxon homiyligida bir qancha vaqt Turkistonda yashadi. Turkiston urushlar girdobida qolgan bir vaqtda SHayboniyxon ukasi bilan Sulton Axmad Mirzo panoxida Buxoroda yashadi va ilm oldi. XV asr 90-yillarida Muhammad SHayboniyxon Dashti Qipchoqqa bordi va siyosiy kurashlarga qo'shilib ketdi. U bir necha yil davomida kurash olib bordi va Toshkentdagi hukmdorlar yordamida Dashti Qipchoqda mustahkam o'rnashib oldi. Keyinchalik, Sayram va YAssini qo'lga kiritilgach, butun Turkistonda hokimiyatni qo'lga kiritdi. 1498 yilda Sulton Axmad Mirzo vafotidan so'ng Samarqandga yurish qildi, uni qo'lga kirita olmagach, Qarshiga yurish qildi va SHahrisabz bilan birga talon-taroj etdi. 1499 yilda Samarqandda qilgan yurishi yana muvaffaqiyatsizlikka uchragach, Buxoroga yurish qildi va uch kunlik qamaldan so'ng uni qo'lga kiritdi. 1500 yilda Muhammad SHayboniyxon yana Samarqandga yurish qildi va uni bosib olib, to'rt oy davomida talon qildi. Bu Samarqandliklarning SHayboniyxonga qarshi qo'zg'oloni sabab bo'ldi va ular 19 yoshli temuriy shahzoda-Zaxriddin Muhammad Boburni xon qilib ko'tardilar. Bobur Qarshi va Guzorni ham qo'lga kiritdi. Biroq uzoq vaqt talangan halqning ahvoli juda ham nochor edi. Og'ir ahvolda qolgan Bobur qo'shinlari Zarafshon bo'yida SHayboniyxondan mag'lubiyatga uchradi va qamalda qolgandan so'ng yashirincha Toshkentga chekinishga majbur bo'ldi. Samarqandda, Buxoro va Toshkentda o'z hukmronligini qo'lga kiritgach, SHayboniyxon Xuroson yurishiga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Temuriylar garchi shahzoda Xusravshoh boshchiligida SHayboniyxonga qarshi birlashgan bo'lsalarda, bu hech qanday natijaga olib kelmadi. 1505 yil Urganch ham bosib olindi va Xorazm SHayboniyxonga tobe bo'ldi. 1506 yil Xusayn Boyqaro vafotidan so'ng boshlangan taxt uchun kurashlardan foydalangan SHayboniyxon temuriylardan Xirotni tortib oldi. Xirot bosib olingan 1507 yil birin ketin Astrobod va Jurjon ham bosib olindi va Kaspiydan Xitoygacha, Sirdaryo etagidan Afg'onistonning markaziy

hududlarigacha bo'lgan yerlar Muhammad SHohbaxt SHayboniyxon hukmronligi ostiga o'tdi. SHayboniyxon hukmronligi o'rnatilishi bilan Movarounnahrda uzoq vaqt davom etgan temuriylar o'rtasidagi o'zaro taxt talashishlarga chek qo'yildi va tinchlik o'rnatildi. SHayboniyxon siyosiy jihatdan markazlashgan davlat tuza olishga erishi bilan o'zining ilm-fan va adabiyotga moyilligi, bu soha vakillarini hurmat qilishi va homiylik qilishi bilan katta hurmatga sazovor bo'ldi.

**Shayboniylar sulolasi hukmronligining barham topishi**

Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish yo'lida shayboniy sultonlarning markaziy hokimiyatni kuchsizlantirishga urinishlariga qarshi tinimsiz va shafqatsiz kurash olib bordi.

Bu maqsad yo'lida qarindoshlariga ham shafqat qilmadi. Abdullaxon II garchand davlatni markazlashtira olgan bo'lsa-da, davlatdagi ichki nizolarga to'la barham bera olmadi.

Shunday qilib, Abdullaxon II vafotidan atigi 3 yil o'tgach, bir asr davom etgan shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi.

Shayboniy Abdullaxon II 1598- yil fevral oyida vafot etgach, taxtga uning o'g'li Abdulmo'min o'tqazildi. Biroq o'sha yili - 1598-yil iyul oyida Abdulmo'min fitnachilar tomonidan O'ratepa va Zomin oralig'ida o'ldirildi. Undan qolgan ikki yashar o'g'ilning xonlik huquqini hech kim tan olmadi. Taxt uchun kurash boshlandi.

Buxoroning bir guruh amirlari Ibodulla Sultonning o'g'li Abdulaminni xon qilib ko'tardilar. Boshqa guruh amirlar esa Balx hokimi Abdullaxon II ning jiyani, Sulaymon Sultonning o'g'li Pirmuhammadni shayboniylarning oliy xoqoni deb e'lon qiladilar va Balxdan chaqarib olib, taxtga o'tqazadilar.

Ichki nizolar tufayli Buxoro xonligida sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori shoh Abbos bostirib kirib, Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotni egallaydi. Xorazm esa xonlik tasarrufidan chiqib, davlat mustaqilligini tiklab oldi. Ayni paytda qozoq xoni Tavakkal Movarounnahrga qo'shin tortib, Axsi, Andijon, Toshkent, Samarqandni egallab, Buxoro tomon yurdi. Xurosondan Buxoroga yetib kelgan Pirmuhammadxon Buxoro himoyasiga kirishdi. Xonlikning ko'pgina amirlari o'z qo'shinlari bilan Pirmuhammadxonga qo'shildi. Tavakkal Buxoroni 2 oy davomida qamal qilsa-da, uni ololmay Samarqand tomon chekindi. Pirmuhammadxon qo'shinlari uni ta'qib etib, 1599-yil avgust oyi oxirlarida Miyonqolning Uchqora mavzeyiga yetib oldilar va shu yerda bo'lgan jangda Tavakkal qo'shinlari tor-mor keltirildi. Movarounnahr hududi ozod etildi, qozoq lashkarlari Dashti Qipchoqqa chekindi. Pirmuhammadxon Samarqand hokimi etib Boqi Muhammadni, Toshkent hokimi etib Jahongir Sultonni tayinlaydi.

Pirmuhammad Buxoro xonligini yana ikki yilcha idora qildi. Tez orada Jaloir, Do'rmon qabila boshliqlarining ig'vosi bilan Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammad o'rtasidagi munosabatlar buzildi. Oxir oqibatda

Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammad o'rtasida 1601- yilda Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol mavzeyida jang bo'ladi. Jangda Pirmuhammadxon yengiladi va 80 yoshida qatl etiladi.

## Shayboniylar o'tkazgan islohotlar

Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islohotlar o'tkazdi. Birinchidan, u davlat boshqaruvida **suyurg'ol tizimini** joriy etdi. Ya'ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o'z farzandlariga, qarindosh-urug'lariga, birodarlariga, qabila boshliqlari bo'lgan sultonlarga topshirdi.

Samarqand poytaxt sifatida xon taxtiga o'tqaziladigan joy hisoblangan. U yerda xon sharafiga xutba o'qitilgan va pul zarb etilgan. Lekin suyurg'ol mulklar markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilar edilar.

Ikkinchidan, mamlakatda yer-suv qaytadan taqsim qilindi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar.



**Abdullaxon timi (savdo rastasi).**



**Abdullaxon bandi**

Uchinchidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazildi. Keyingi 10 yil ichida soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqildi.

To'rtinchidan, 1507- yilda pul islohoti o'tkazildi. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil – 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda, bu islohot dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o'z mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarar edi.

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro toj-u taxt kurashlari hamda Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hoi, o'z navbatida, pulning qadrsizlanishiga olib kelgan. Natijada, oliy hukmdor Ko'chkinchixon 1515- yilda navbatdagi pul islohotini o'tkazishga majbur bo'lgan. 1527- yilga kelgandagina ahvolning bir maromga tushishiga erishilgan. Shayboniy Abdullaxon II o'tkazgan pul islohoti Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega voqea bo'lgan. U oltin pul zarb etishni yo'lga qo'ygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol, o'z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**


- Fitrat. XVI asrdan so`ngra o`zbek adabiyotiga umumiy bir qarash. Kitobda: Tanlangan asarlar. 2-jild. — T.: Ma`naviyat, 2000.
- Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. — T.: O`qituvchi, 1994;
- A.Ibrohimov. Bizkim, o`zbeklar… -T.: Sharq, 1999. B.29-46.
- "O'zbekiston hukmdorlari" kitobi
- http://www.ziyouz.uz
- http://www.uzvip.uz
- http://www.ziyouz.com


**1 - mashg'ulot: 2 - soat**

**– KEYS – STADI**

## O'qitishning keys – texnologiyasi

### 1.1.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.** |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. XV asr boshlariga kelib Dashti qipchoqdagi qabilalar. Mustaqil davlat tuzish harakatlarining boshlanishi.<br>2. Shayboniylar davri madaniyati va me'morchilik**.**<br>3. Hattotlik san'atining rivojlanishi. Kitob bezash hamda miniatyura ishlash borasidagi yutuqlar. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XVI – XIX asrlarda O'zbek xonliklari davri madaniyati. Shayboniylar davri madaniyati va me'morchilik**.** to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| 1. Shayboniylar davrida madaniyat va me'morchilik san'atining | 1. Shayboniylar davri madaniyati va me'morchilik haqida gapirib beradilar**.** |

| | |
|---|---|
| rivojlanish tarixi to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>2. Hattotlik san'atining rivojlanishi to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>3. Kitob bezash hamda miniatyura ishlash borasidagi yutuqlar qanday bo'lganligini tushuntiradi. | 2. Hattotlik san'atining rivojlanishini tushuntirib, izohlaydilar.<br><br>3. Kitob bezash hamda miniatyura ishlash borasidagi yutuqlarni gapiradilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**1.1.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi**

| **Ish jarayonlari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish.<br><br>(20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (2-ilova). | Yozadi, tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Shayboniylar davri madaniyati to'g'risida nimalarni bilasiz?<br>2. Me'morchilik qanday bo'lgan?<br>3. Hattotlik san'ati qanmday rivoj topgan?<br>4. Kitob bezash hamda miniatyura ishlash borasidagi yutuqlarni tushuntirib bering? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (4-ilova). | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**2 – mashg'ulot: 2 – soat.**

**Reja:**

1. Ashtarxoniylar davrida me'morchilik san'ati.

2. Tasviriy san'at, me'moriy bezaklar.

3. Me'moriy bezaklarda amaliy san'at buyumlarining keng o'rin egallashi va ularning ajralmas qismiga aylanishi.

Bu davrda kitobot san'ati miiatyuraning o'ziga xos maktabi sifatida shakllangan hamda rivoj topgan edi.kitoblar barcha bezaklari o'zaro uyg'unlikda bog'langan, chiziqli ritm, manzara, ranglarning nozik uyg'unligi ularning bezak tuzilishini belgilaydi.

Hujralar o'ymakori usulda bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o'rnatilgan.peshtoqlari o'ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o'simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy humo qushi va bug'uning o'tlab yurgan tasviri , koshinkori bezaklari yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan.

Ashtarxoniylar davrida ilm-fan,san'at,me'morchilikda qilingan ishlar haqida ma'lumotlar qolgan.Hukmdorlar tomonidan qurdirilgan Buxoroda Abdulazizxon,Ubaydullaxon madrasalari,Boqimuhammadxon,Ubaydullaxon masjidlari,Subxonqulixon registonda qurdirgan huvuz va Buxorodagi kasalxona(Do rush-shifo),Balxda Nodirmuhammadxon,Subxonqulixon madrasalari,Balx arkidagi imoratlar,jome masjidi,hazrati Ali mozoridagi gumbaz hamda Imomqulixon Madinada qurdirgan chorbog',Nur tog'idagi hovuz,Makkaga Ka'baga kiraverishdagi darvozalardan biri ostanasi uchun ishlatilgan oltin va kumush yog'och zinalar haqida ma'lumotlar tarix sahifalaridan o'rin olgan.

**Nodir Devonbegi madrasasi**

Buxoro shahrining Labi hovuz ansambli sharqiy qismida joylashgan Nodir Devonbegi madrasasi Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir Devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sulton) tomonidan bunyod etilgan. U yuz urug‘i boshliqlaridan bo‘lib, XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida yashab faoliyat ko‘rsatgan

Madrasa 1622-1623-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. Bu so‘nggi o‘rta asrlar davriga to‘g‘ri keladi.

Me'moriy obida bunyod etilgan davrdagi tarixiy shart-sharoit haqida gapiradigan bo‘lsak, Imomqulixon taxtga chiqishidan biroz oldin taxtda Boqi Muhammad (1601-1605) hukmronlik qilar edi. U 1602-yilda Eron Safaviylariga zarba berib, Balxni kuch bilan bo‘ysundirdi va ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. 1605-yil Boqi Muhammad vafot etgach, ukasi Vali Muhammad taxtga o‘tqazildi. Ichki kurashlar yana avj oldi. Qabila beklari xon hokimiyatiga bo‘ysunmay, muholifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirilganligidan xabar topgan Vali Muhammad farzandlarini olib Eronga qochadi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadning o‘g‘li Imomqulixonni (1611-1642) o‘tkazadilar. U Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo‘shinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoladi. Vali Muhammad asir olinib, qatl qilinadi. 1613-yilda Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum

qilib, Toshkentni o‘z tasarrufiga kiritdi. O‘g‘li Iskandar sultonni Toshkent hokimi etib tayinladi. Iskandar sulton boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko‘paytirib, aholiga qattiq zulm o‘tkazdi. Bunga qarshi Toshkentda qo‘zg‘olon ko‘tarildi va Iskandar sulton o‘ldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qo‘shin tortdi. Qo‘zg‘olonchilar ayovsiz jazolandilar. Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Imomqulixondan keyin Nodir Muhammad (1642-1645) davrida ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik yana kuchaydi.

Nodir Devonbegi madrasasi bunyod etilgan davrda Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi hukmronlik qilar edi.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida har xil o‘lchamdagi xom va pishgan g‘ishtlar, loy, yog‘och, maxsus “qir” qotishmasi, tunuka, marmar, sement, tosh, ganch va shunga o‘xshash ashyolardan keng foydalanilgan.

Me’moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan bo‘lsak, hovli atrofida 4 tomondan 2 qavatli kichik hujralar bilan o‘ralgan. Hujralarga o‘ymakori uslubida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o‘rnatilgan. Hovliga pishiq g‘isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtog‘i o‘ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o‘simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy xumo qushi va bug‘uning o‘tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo‘yoqlarda aks ettirilgan hoshiyalari madrasa peshtoqiga, kitobasiga arabiy yozuvlar bitilgan. Ustun go‘shasi burmasimon. Peshtoqining 2 yon qanotidagi 2 qavatli 3 tadan chuqur ravoqli peshayvon alohida zeb berib pardozlangan burchaklaridagi 2 guldasta ravoqdagi naqshlar bilan o‘zaro uyg‘unlashgan. Madrasa tarhi 52×49 m., hovli 34×30 m. ni tashkil etadi.

Me’moriy obida Sharq me’morchiligi an’analariga tayangan, naqshinkor, “Chor” uslubida bunyod etilgan. Madrasa o‘z davrida ilm-ma’rifat o‘chog‘i bo‘lgan, u yerda talabalarga diniy va dunyoviy fanlardan saboq berilgan.

Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlari haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasa holiga keltirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo‘q. Madrasa fasadining bezatilishi, fantastik qush tasvirining tushirilishi kabi jilolar bilan e’tiborlidir. Shu tomonlari bilan Buxorodagi boshqa me’moriy obidalardan ajralib turgan.

Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati: Madrasa bir necha marta ta’mirlanib, gumbaz, ravoq va devorlaridagi namlik yo‘qotilib, buzilib ketgan hujralari qayta tiklanganligini, Samarqand va Buxoro ustalarining sa’y-harakatlari bilan bosh tarzi qayta jilolanganligini aytib o‘tishimiz lozim.

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Nodir Devonbegi madrasasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjarlari me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

**Abdulaziz-xon madrasasi**

Buxorodagi me’moriy yodgorliklardan biri bo‘lgan Abdulazizxon madrasasi ashtarxoniylarning beshinchi vakili Abdulazizxonning buyrug‘i bilan me’mor Mimxoqon ibn Xo‘ja Muhammadamin tomonidan 1652-yilda qurilgan.

U o‘rta asrlarning songgi bosqichiga mansub bo‘lib, Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi qarshisida qurilgan.

Uning qurilishiga homiylik qilgan Buxoro xoni Abdulazizxon (1614-yil Balx – 1681-yil Makka) Nodir Muhammadxonning katta o‘g‘li bo‘lgan. 1626-yildan Xuttalon hokimi, 1630-yildan esa Balxning g‘arbiy tumanlari hokimi fazifasida faoliyat yuritgan. 1645-yildagi fitna natijasida Buxoro xonligi taxtini egallagan. Abdulazizxon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilgan, mamlakat obodonchiligiga birmuncha hissa qo‘shgan. Buxoroda ko‘pgina muhtasham binolar qurdirgan (Abdulazizxon madrasasi va b.).

Madrasa tuzilishi oddiy va hujralari ikki oshyonli. Katta peshtoq nafis va nodir koshinkori naqshlar bilan ziynatlangan. Islomiy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar tasviri ham berilgan. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqi turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz shipining ganchli muqarnaslari orasida islimiy naqshlar va zarhal bezagi bor. Naqshlar, asosan, moviy rang bo‘yoqlar bilan chizilgan. Asosiy o‘lchami: atrof aylanasi 50×67 m., hovli — 28×35 metr bo‘gan. Madrasa XVII asrda Buxoro mahobatli me’morchiligining yetuk namunasidir.

Bugungi kunda madrasa hovlisida sayyohlar uchun milliy musiqa va folklor tomoshalari ko‘rsatiladi. Shimoliy-sharqiy burchagidagi miyonsaroyda Buxoro yog‘och o‘ymakorligi namunalaridan iborat ko‘rgazma tashkil etilgan. O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me’moriy inshootlar qatorida Abdulazizxon madrasasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YuNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

## Labi Xovuz majmuasi

Labi Xovuz majmuasi, o’z nomini shu erda 1620 yilda joylashgan katta hovuzdan olgan. Labi Xovuz Buxoro markazida joylashgan bo’lib, Ko’kaldash madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va Xonakalardan iborat.

Shahar me’morchiligi uchun sun’iy suv havzalari bo’lgan hovuzlardan nafaqat amaliy maqsadlarda, balki shaharni yanada har tomonlama bezatish uchun ham foydalanish odatdagi holdir.

Buxoroda saksontadan ortiq bunday obodonlashtirilgan hovuzlar bo’lib, shaharni ta’minlab turar edi. Ulardan eng mashhur bo’lgan hovuz Labi-Hovuzdir.

Buxoroning markazi (16-17 asrlar). Labi Hovuz – Buxoro ahli va mehmonlarining sevimli joyi. Siz bu joyda eski qadrdonlarni uchratishingiz va yangi do’stlar orttirishingiz, o’tmishni esga olishingiz va kelajak haqida fikr yuritishingiz mumkin. Maydon o’rtasida katta xovuz bo’lib, uning atrofida turli binolar barpo etilgan: Ko’kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqosi.



Bu erda eng eski bino - Ko’kaldosh madrasasi. XVI asrda Ko’kaldosh ismli vazir Buxoroda O’rta Osiyodagi eng katta madrasani qurish haqida buyruq bergan.

Nodir Devonbegi madrasasi joylashgan hududda karvon saroy qurish ishlari boshlangan. Keyinchalik Nodir Devonbegining rejalari o’zgargan va karvon saroy madrasaga aylantirilgan. Bu salbiy okibatlarga olib kelgan: bu erda talabalar uchun masjid xam, ma’ruza zali ham bo’lmagan – ular ko’zda tutilmagan. Lekin bu bino sirlangan sopol va chinni koshinlar bilan chiroyli bezatilgan. Buxoroda siz faqatgina shu madrasaning peshtoqida afsonaviy Semurғ qushi va inson yuzi aks etgan quyosh tasvirlarini ko’rishingiz mumkin. Yilning issiq faslida madrasa ichki hovlisida siz folklor tomoshasidan zavqlanishingiz mumkin. Tim qora tungi osmon, xazin va quvnoq maftunkor kuy... Siz “Ming bir kecha”ni boshqacha tasavvur eta olarmidingiz?

Hovuzning boshka tomonida darvishlar uchun kichik mehmonxona - Nodir Devonbegi Xonaqosi joylashgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida Buxoro islom markazi bo’lgan. Bu erga ko’plab ziyoratchilar kelishgan, ular tunda qoladigan qo’noqqa muxtoj bo’lganlar. Shu boisdan shaharda ko’plab kichik mehmonxonalar va karvon saroylar mavjud bo’lgan. Ehtimol, bu xonako dindorlar o’rtasida mashhur bo’lgan, chunki unda nafaqat uxlash uchun xonalar, balki namoz o’qish uchun katta masjid ham bo’lgan. Yuksak did bilan bezalgan eshik hovuz suvida aks etadi.



Buxoroning markazi (16-17 asrlar). Labi Xovuz – Buxoro axli va mexmonlarining sevimli joyi. Siz bu joyda eski kadrdonlarni uchratishingiz va yangi do'stlar orttirishingiz, o'tmishni esga olishingiz va kelajak xakida fikr yuritishingiz mumkin. Maydon o'rtasida katta xovuz bo'lib, uning atrofida turli binolar barpo etilgan: Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonakosi.

Bu erda eng eski bino - Ko'kaldosh madrasasi. XU1 asrda Ko'kaldosh ismli vazir Buxoroda O'rta Osiyodagi eng katta madrasani kurish xakida buyruk bergan.

Nodir Devonbegi madrasasi joylashgan xududda karvon saroy kurish ishlari boshlangan. Keyinchalik Nodir Devonbegining rejalari o'zgargan va karvon saroy madrasaga aylantirilgan. Bu salbiy okibatlarga olib kelgan: bu erda talabalar uchun masjid xam, ma'ruza zali xam bo'lmagan – ular ko'zda tutilmagan. Lekin bu bino sirlangan sopol va chinni koshinlar bilan chiroyli bezatilgan. Buxoroda siz fakatgina shu madrasaning peshtokida afsonaviy Semurg kushi va inson yuzi aks etgan kuyosh tasvirlarini ko'rishingiz mumkin. Yilning issik faslida madrasa ichki xovlisida siz folklor tomoshasidan zavklanishingiz mumkin. Tim kora tungi osmon, xazin va kuvnok maftunkor kuy... Siz "Ming bir kecha"ni boshkacha tasavvur eta olarmidingiz?

Xovuzning boshka tomonida darvishlar uchun kichik mexmonxona - Nodir Devonbegi Xonakosi joylashgan.

Buxoroda 17 asrda ham zarboflik bo'lganligi haqida Rossiya elchilarning 1669-1671 yillarda Abdulazizxon saroyiga tashrif ma'lumotlarida aytilgan.Unda keltirilishicha,elchi ular Buxoroda o'z yurtida ketayotganida ularga oltinga

tikilgan chakmon,salla va belbog' sovg'a qilingan.Buxoro zardo'zlaridan biri,mashhur shoir Fitrat zardo'zning(1664-1721)nomi bizgacha yetib kelgan.18 asrda Buxoroda zargarlik ko'p bo'lgn.Oltin,kumush,zumrad,la'l'lojuvard,feruza va boshqa toshlar turli usullsrda ishlov berilganda keyin jozibali,ko'rkam buyumlar yaratish uchun keng imkoniyatlar tug'ilgan.Ayol va erkaklar bezaklari,bundan tashqari,zodagonlar uchun badiiy bezakli qurol va ot bezaklari tanlangan.Ayollar uchun zargarlik bezaklari nihoyatda xilma-xil bo'lgan zirak,bilakuzuk,ro'mol to'g'nog'ichi,tugma,tumor,marjon va boshqalar.18asrda marjonning markazida toshli o'lgan ichki bezak oltin munchoqli foydalanishning o'ziga xos samarali usuli bo'lganligidan dalolat beradi.18asr o'rtalarida qo'shni janubiy mamlakatlardan ko'plab oltin va qimmatbaho toshlarning olib kelinishi bu davrda san'atnin rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «SHarq», 1998.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. 2001.
4. Samarqand tarixi. Ikki jildlik. T., "Fan", 1969-1971 1.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. 1-2.-T., O'zMU nashriyoti. 2000-2001.


**Internet saytlari**


1. www.ziyonet.net
2. www.history.ru
3. www.arshive.ru


**2 - mashg'ulot: 2 - soat**

**– KEYS – STADI**

## O'qitishning keys – texnologiyasi

### 1.2.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.** |

| | |
|---|---|
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Ashtarxoniylar davrida me’morchilik san'ati.<br>2. Tasviriy san'at, me'moriy bezaklar.<br>3. Me'moriy bezaklarda amaliy san'at buyumlarining keng o'rin egallashi va ularning ajralmas qismiga aylanishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XVI – XIX asrlarda O’zbek xonliklari davri madaniyati. Shayboniylar davri madaniyati va me’morchilik**.** to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Ashtarxoniylar davrida me’morchilik san'atining rivojlanishi to'g'risida tushuncha beradi.<br>2. Tasviriy san'at, me'moriy bezaklarni slaydlar orqali ko'rsatib tushuncha beradi.<br>3. Me'moriy bezaklarda amaliy san'at buyumlarining keng o'rin egallashi va ularning ajralmas qismiga aylanishini tushuntirib, izohlardi. | * Ashtarxoniylar davrida me’mor-chilik san'ati to'g'risida bilganlarini gapirib beradilar.<br>2. Tasviriy san'at, me'moriy bezaklar to'g'risida ko'rganlarini muhokama qiladilar.<br>3. Me'moriy bezaklarda amaliy san'at buyumlarining keng o'rin egallashi va ularning ajralmas qismiga aylanishi to'g'risida bilimga ega bo'ladilar,fikr bildiradilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 1.2.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (2-ilova). | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Ashtarxoniylar davri me’morchilik san'ati to'g'risida nimalarni bilasiz?<br>2. Tasviriy san'at, me'moriy bezaklar to'g'risida tushuncha bering?.<br>3. Me'moriy bezaklarda amaliy san'at buyumlarining keng o'rin egallashini izohlang? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (4-ilova). | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**3 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. XVI – XIX asrlarda ishlangan gilam va so’zanalar, sopol buyumlar.

2. Buxorodagi Nodir – devon Begi, Samarqanddagi Sherdor, Tilla Kori madrasalarining bezaklarida tasviriy san’atning o’z ifodasini topishi.

3. Miniatyura va kitobot san’ati

18-asr ikkinchi yarmi, 19-asr O‘rta Osiyo, xususan Buxoro amirligi me’morchiligida o‘ziga xos davr bo‘ldi. Garchi bu davrda Amir Temur va temuriylar hamda shayboniylar davridagidek oliy sifatli me’moriy inshootlar ko‘p qurilmagan bo‘lsada, binolar qurilishi to‘xtab qolmadi va qurilayotgan binolarda uslubiy o‘ziga xoslik ko‘zga tashlandi. Buxoro qarshi, Samarqand, shahrisabz, G‘uzor, Kattaqo‘rg‘on va amirlikning boshqa bir qancha shaharlarida ko‘plab masjid va madrasalar barpo etildi. Me’morchilikning rivojlangan yo‘nalishlari savdo-sotiq bilan bog‘liq inshootlar qurilishida ham ko‘zga tashlanadi. Amirlik poytaxti Buxoroda va boshqa shaharlarda ko‘plab ixtisoslashgan yopiq bozorlar mavjudligi, shaharlarda karvonsaroylar sonining muttasil oshib borishi, savdo yo‘llari bo‘yida rabotlar, sardobalar qurilishi fikrimiz dalilidir.

18-asr oxiri – 19-asr birinchi yarmida shaharlarning mudofaa devorlarini, qishloq mudofaa qo‘rg‘onlarini ta’mirlash ishlari ham olib borildi. Qurilgan binolar odatdagidek davlat xazinasi va ayrim kishilarning xususiy mablag‘lari xisobiga amalga oshirildi.

Buxoro amirligi tarixiga xulosa sifatida aytib o‘tish kerakki, mang‘itlar sulolasi davrida garchi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ba’zi yutuqlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsada. Mamlakat hududi muntazam ravishda qisqarib borishi kuzatildi. Shimoliy viloyatlar (Toshkent, Turkiston, O‘ratepa, Xo‘jand) Qo‘qon xonligiga qo‘shib olingan bo‘lsa, janubda Balx viloyati butunlay qo‘ldan chiqarildi.

## ABDULAZIZ-XON MADRASASI

Buxorodagi me’moriy yodgorliklardan biri bo‘lgan Abdulazizxon madrasasi ashtarxoniylarning beshinchi vakili Abdulazizxonning buyrug‘i bilan me’mor Mimxoqon ibn Xo‘ja Muhammadamin tomonidan 1652-yilda qurilgan.



U o‘rta asrlarning songgi bosqichiga mansub bo‘lib, Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi qarshisida qurilgan.

Uning qurilishiga homiylik qilgan Buxoro xoni Abdulazizxon (1614-yil Balx – 1681-yil Makka) Nodir Muhammadxonning katta o‘g‘li bo‘lgan. 1626-yildan Xuttalon hokimi, 1630-yildan esa Balxning g‘arbiy tumanlari hokimi fazifasida faoliyat yuritgan. 1645-yildagi fitna natijasida Buxoro xonligi taxtini egallagan. Abdulazizxon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilgan, mamlakat obodonchiligiga birmuncha hissa qo‘shgan. Buxoroda ko‘pgina muhtasham binolar qurdirgan (Abdulazizxon madrasasi va b.).

Madrasa tuzilishi oddiy va hujralari ikki oshyonli. Katta peshtoq nafis va nodir koshinkori naqshlar bilan ziynatlangan. Islomiy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar tasviri ham berilgan. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqi turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz shipining ganchli muqarnaslari orasida islimiy naqshlar va zarhal bezagi bor. Naqshlar, asosan, moviy rang bo‘yoqlar bilan chizilgan. Asosiy o‘lchami: atrof aylanasi 50×67 m., hovli — 28×35 metr bo‘gan. Madrasa XVII asrda Buxoro mahobatli me’morchiligining yetuk namunasidir.



Bugungi kunda madrasa hovlisida sayyohlar uchun milliy musiqa va folklor tomoshalari ko‘rsatiladi. Shimoliy-sharqiy burchagidagi miyonsaroyda Buxoro yog‘och o‘ymakorligi namunalaridan iborat ko‘rgazma tashkil etilgan. O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me’moriy inshootlar qatorida Abdulazizxon madrasasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YuNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

## NODIR DEVONBEGI MADRASASI



Buxoro shahrining Labi hovuz ansambli sharqiy qismida joylashgan Nodir Devonbegi madrasasi Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir Devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sulton) tomonidan bunyod etilgan. U yuz urug‘i boshliqlaridan bo‘lib, XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida yashab faoliyat ko‘rsatgan.

Madrasa 1622-1623-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. Bu so‘nggi o‘rta asrlar davriga to‘g‘ri keladi.

Me’moriy obida bunyod etilgan davrdagi tarixiy shart-sharoit haqida gapiradigan bo‘lsak, Imomqulixon taxtga chiqishidan biroz oldin taxtda Boqi Muhammad (1601-1605) hukmronlik qilar edi. U 1602-yilda Eron Safaviylariga zarba berib, Balxni kuch bilan bo‘ysundirdi va ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. 1605-yil Boqi Muhammad vafot etgach, ukasi Vali Muhammad taxtga o‘tqazildi. Ichki kurashlar yana avj oldi. Qabila beklari xon hokimiyatiga bo‘ysunmay, muholifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirilganligidan xabar topgan Vali Muhammad farzandlarini olib Eronga qochadi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadning o‘g‘li Imomqulixonni (1611-1642) o‘tkazadilar. U Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo‘shinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoladi. Vali Muhammad asir olinib, qatl qilinadi. 1613-yilda Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o‘z tasarrufiga kiritdi. O‘g‘li Iskandar sultonni Toshkent hokimi etib tayinladi. Iskandar sulton boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko‘paytirib, aholiga qattiq zulm o‘tkazdi. Bunga qarshi Toshkentda qo‘zg‘olon ko‘tarildi va

Iskandar sulton oʻldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qoʻshin tortdi. Qoʻzgʻolonchilar ayovsiz jazolandilar. Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Imomqulixondan keyin Nodir Muhammad (1642-1645) davrida ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik yana kuchaydi.

Nodir Devonbegi madrasasi bunyod etilgan davrda Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi hukmronlik qilar edi.

Me’moriy obidaning bunyod etilishida har xil oʻlchamdagi xom va pishgan gʻishtlar, loy, yogʻoch, maxsus “qir” qotishmasi, tunuka, marmar, sement, tosh, ganch va shunga oʻxshash ashyolardan keng foydalanilgan.

Me’moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan boʻlsak, hovli atrofida 4 tomondan 2 qavatli kichik hujralar bilan oʻralgan. Hujralarga oʻymakori uslubida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar oʻrnatilgan. Hovliga pishiq gʻisht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtogʻi oʻziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi oʻsimliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy xumo qushi va bugʻuning oʻtlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin boʻyoqlarda aks ettirilgan hoshiyalari madrasa peshtoqiga, kitobasiga arabiy yozuvlar bitilgan. Ustun goʻshasi burmasimon. Peshtoqining 2 yon qanotidagi 2 qavatli 3 tadan chuqur ravoqli peshayvon alohida zeb berib pardozlangan burchaklaridagi 2 guldasta ravoqdagi naqshlar bilan oʻzaro uygʻunlashgan. Madrasa tarhi 52×49 m., hovli 34×30 m. ni tashkil etadi.

Me’moriy obida Sharq me’morchiligi an’analariga tayangan, naqshinkor, “Chor” uslubida bunyod etilgan. Madrasa oʻz davrida ilm-ma’rifat oʻchogʻi boʻlgan, u yerda talabalarga diniy va dunyoviy fanlardan saboq berilgan.

Me’moriy obidaning oʻziga xos tomonlari haqida gapiradigan boʻlsak, inshoot dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasa holiga keltirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yoʻq. Madrasa fasadining bezatilishi, fantastik qush tasvirining tushirilishi kabi jilolar bilan e’tiborlidir. Shu tomonlari bilan Buxorodagi boshqa me’moriy obidalardan ajralib turgan.

Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati: Madrasa bir necha marta ta’mirlanib, gumbaz, ravoq va devorlaridagi namlik yoʻqotilib, buzilib ketgan hujralari qayta tiklanganligini, Samarqand va Buxoro ustalarining sa’y-harakatlari bilan bosh tarzi qayta jilolanganligini aytib oʻtishimiz lozim.

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Nodir Devonbegi madrasasi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari roʻyxatiga kiritildi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjarlari me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

**Tillakori madrasasi** - Samarqanddagi me’moriy yodgorlik. Registon ansamblitsa Ulug‘bek davrida bunyod etilgan Mirzoyi karvonsaroyi (15-a.) o‘rnida Samarqand hokimi Yalangto‘shbiy Bahodir Madrasa va jome masjid qurdirgan (1641—46). Karvonsaroy asosi ustiga Madrasa (shim. sharqiy qismida), hujralar o‘rnida peshtoq gumbazli masjid (g‘arbida) joylashgan. Dastlab "Yalangto‘shbiy kichik madrasasi" deb nomlangan. Keyinchalik masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorda oltin sarflangani uchun "tillakori" (tilladan ishlov berilgan) deb yuritila boshlagan. T.m.dan shahar jome masjvdi va Madrasa sifatida foydalanilgan. Shuning uchun masjidi (63x22 m) katta va serhashamligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi. Madrasa (70x70 m) ga g‘arbiy peshtoq orqali kiriladi. Peshtoq chuqur ravoqli, 2 qanotining oldi ravoqli, 2 qavatli hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta mezanalar egallagan. Masjid xonaqohi (10,8x10,8 m)ning poygumbazi baland, uzoqdan ko‘zga tashlanib turadi. Uning gumbazi nihoyasiga yetkazilmagan. Xonaqoh to‘riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. O‘z davrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning 2 yonini oldi ravoqli, gumbaz tomli ayvon (yo‘lak)lar egallagan. Peshtoq ravog‘idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659—60 y.larda bajarilganligi yozilgan.



T.m. bir necha bor ta'mir qilingan. 1817 y.da amir Haydar buyrug'i bilan zilziladan zarar ko'rgan peshtog'i qayta tiklanishi jarayonida shakli buzilgan. 1885 y.dagi ta'mir vaqtida zarhal naqshlar oddiy bo'yoqlar bilan almashtirilgan. T.m.da Samarqand ta'mirlash ustaxonasi tashkil etilib (1930), koshinlarning qad. rangini topish yo'lida tadqiqot ishlari olib borilgan. T.m.dagi yo'qolib ketayozgan noyob zarhal naqshlarni ustalar ilmiy o'rganib, qayta tikladi (1970). Binokorlar madrasaning Registonga qaragan peshtog'ini Sherdor Madrasa va Ulug'bek madrasasi bilan moslashtirib qayta qurdi. Peshtoq ravog'i va ravoq ichidagi qalqonsimon bag'ali, guldastasi hamda xonaqoh gumbazi, ichidagi tilla halli bo'rtma naqshlari qayta jilolandi (1974). Baland gumbazi ustiga feruza rang koshin bilan qoplangan gumbaz o'rnatildi.



Bosh tarzidagi bezak mavzularining boyligi, ichki va tashqi naqshlarning serhashamligi, peshtoq qanoti va tokchasidagi iroqi kashtani eslatuvchi bezaklar, bo‘rtma yozuvlar o‘ziga xosdir. Ravoq burchaklari, bezakli toqilarni to‘ldirishda koshinpaz ustalar turli usullarni qo‘llashgan (g‘ishtlarning mayda naqshlari koshinlarning handasiy va islimiy naqshlari bilan moslashtirilgan). Koshinkori

ravoqlarda yashil tangachalar, sarg‘ish yaproqlar va feruza poyalar aks ettirilgan. Xonaqoh izorasi koshin namoyon, devori, gumbazi va bag‘ali kundal uslubidagi serhasham naqshlarga boy. Mehrob ravog‘i va bag‘ali muqarnas kosachalar bilan to‘ldirilib, zarhal berilgan hamda Qur’on oyatlaridan olingan bo‘rtma yozuvlar bilan hoshiyalangan

Eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yog‘och o‘ymakorligida pardozlangan. Hovli sahni (50x50 m)ga marmar yotqizilgan. Atrofidagi hujralarga eshik, tobadoniga panjaralar ishlangan. Hujralar yoz kunlari ham salqin bo‘ladi. T.m.da muzey tashkil etilgan bo‘lib, unda madrasani ta’mirlashga oid narsalar saqlangan.

Sherdor madrasasi



XVII аср. Шердор мадрасаси Регистон мажмуасига кирадиган обида бўлиб, у Самарқанд ҳокими Ялангтўш Баҳодир томонидан 1619-1636 йиллари Мирзо Улуғбек хонақоҳи ўрнига қурдирилган. Шердор мадрасаси Улуғбек мадрасасининг рўпарасида бир ўқ чизиғи бўйлаб жойлашган. Ўрта Осиё меъморлигида кўп учрайдиган қўш услубдан фойдаланилган. Пештоқ равоғи тепаси диққатга сазовор: қизғш зарҳал шер оқ оҳуни қувмоқда. Қуёш бодомқовоқ, қийиқ кўзли юз шаклида тасвирланиб, зарҳал тусли ёғду билан ҳошияланган. Мадраса пештоқига Ялангтўш Баҳодирни улуғловчи шеър битилган. Шердор сўзи “Шер акси бор “, деган маънони англатади.

**Sherdor madrasa** - Samarqanddagi me’moriy yodgorlik (1619—36). Registon ansambli tarkibida. Mirzo Ulug‘bek xonaqohi o‘rniga Yalangto‘sh Bahodir qurdirgan. Ulug‘bek madrasasining ro‘parasida joylashgan. Madrasa tarhi to‘rtburchak, 2 qavatli. Bosh tarzining 2 qanotida qovurg‘ali gumbaz va minoralar joylashgan. Peshtoq ravog‘i ichkarisidagi koshinkori bezak orasida

qora zaminli koshinga oq harflar bilan me’mor Abdujabbor nomi yozilgan. Qanoslaridagi qizg‘ish zarhal tusli sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko‘zli qilib tasvirlanib, yuzi zarhal tusli yog‘du bilan hoshiyalangan. Madrasa nomi shu tasvirdan kelib chiqqan. Binoning serhashamligi shu peshtog‘ida. Peshtoqning 2 tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofidagi 2 qavatli hujralar (54 ta)ning oldi ravoqli ayvon. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o‘tagan. 1960—64 yillarda peshtoqqanoslaridagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan.

## SITORAI MOXI XOSA

Buxorodan to’rt kilometr shimolda, Samarkand yo’li yoqasida so’nggi amirlarning shahar chegidagi eng kurkam saroylaridan biri qad ko’targan. Uni o’tgan asrda Ahadxon qurdira boshlagan

Yevropaning qurilish tajribalarini o’rganish va o’zlashtirish uchun amir o’z ustalarini Rossiya poytaxti Peterburgga, so’ng Yaltaga yo’llagan edi. Amir keyincha Yaltada ham o’zi uchun saroy kurdirdi. Bu saroy hozir sanatoriyga aylantirilgan bo’lib, unda O’zbekiston mehnatkashlari dam oladilar.

Buxoro chetidagi saroy (eski saroy) mahalliy me’mor Qoji Tafiz rahbarpigida kurila boshlagach. Bu erdagi binolarning ko’rinishi Evropa va Osiyo me’morchilik uslublarining aralashmasidan iborat. Ahadxonning ko’shki va hashamatli boshka xonalari anchagina shikastlangan. chunki bu binolarda asosan yog`och sinchlar ko’llanilgan bo’lib, ular yillar o’tishi bilan chirib ketgan.




Bu eski saroyning sharq tomoniga so’nggi Buxoro amiri — Olimxonning buyrug`i bilan yangi saroy, ko’shklar va bog` barpo kilingan. Bog`ning kattaligi 6,7 gektar kelib, gulzorlar, chiroyli ishkomlar, mevazor va hayvonot bog`idan

iborat. Saroy bog` atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan. Saroyning shimol tomonida asosiy kirish darvozasi, janub tomonida esa yo'lagining usti ayvonga o'xshatib ish-langan yana boshqa darvoza bor. Bu darvoza keng edi, ochiq maydonga qarab turadi. Maydonda an'anaviy uloq o'yinlari o'tkazilgan. Chavandoz yigitlar abjir-likda musobaqalashib, maydonda ot surib, boshqa chavandoz ko'lidagi uloqni tortib olishga harakat qilar edilar. O'yin boshlanishida xonning o'zi uloqni bolaxonadan o'rtaga tashlardi.

Hozir Yangi saroy bog`ning bir qismi bilan bir-ga Buxoro o'lkashunoslik muzeyiga berilgan. kolgai qismida esa, mehnagkashlar uchun shifoxona tashkil etilgan.

Sitorai Mohi Xossaning ichkarisiga darvozaxonadan kiriladi. Bu yerda XIX asrning oxiri va XX esr boshlaridagi Buxoro me'morchiligining inqirozga yuz gutganligi ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Buni amir saroyining boshqa hamma binolarida ham ko'rish mumkin. Avvalo darvoza ustidagi rav«q O'rtv Osiyo binolariga xos bo'lmagan shaklda, nishab, yarim doira qilib ishlangan, yon qismlari sirlangan ko'k qizil, ko'k-binafsha va qora rang sopollar bilan qoplangan. An'anaviy ana shu sirkor (biroq rangi aynigan) parchinlar bilan birga Rossiyadan keltirilgan va pechkalar usgiga koplash uchun ishlagiladigan kafel qoplamalaridan ham foydalanilgan. Darvozaning tepa qismiga alebastrdan ishlangan yassi guldon shaklidagi bezaklar o'rnatilgan. Bu yerdagi eng qimmatli narsa yog`ochdan ishlangan ikki qavatli darvoza, xolos. Darvozaga go'zal o'zbek milliy naqshlari solinib, u o'ymakorlik yo'li bilan ishlangan. Darvoza mis mixlar bilan mustahkamlanib, nafis guldor zulfin bilan bvzatilgan.

Darvozaxonadan hovli birun deb ataladigan tashqi hovliga kiriladi. Uning uch tomoni engil qilib qurilgan ayvonchalar yoki dahona bilan o'ralgan. Tomoshabinlar ko'ngil ochish laytlarida shu ayvonlarda o'tirishar ekanlar Amirning mehmonpari uchun gurli sovg`a-tuhfalar va yodgorliklar tayyorlagan ustalar ham o'z mahsulotlarini shu erda namvyish qilishar ekan.

Darvozaxonadan kirishda o'ng ko'lda kichkina yana bir bino bor. U xazina deb atalgan. Yangi saroy bilan tutashgan bu xazinada amirning sarmoyasi, shaxsiy anjom-asboblari, turli taom va ichimlik-lar saqlangan. Qarama-qarshi tomonda, burchakda ik-kinchi eshik bo'lib, uning qayrilma yo'lagidan eshik og`asining xonasiga kiriladi.

Hovli birunning janub tomoniga 1912—1914 yillarda qurilgan Yangi saroy tutashib ketgan. Saroy binolari «P» simon tushgan, natijada ro'y hovli darun deb ataladigan bu hovlini binolar uch tomon-dan o'rab turadi. Hovli sahniga yassi parchinlar yog-qizilib, o'rtasida kichkina fontan bor. Bejirim ustunli katta ayvon hovlining shimol tomonidadir. G`arb tomonda xonai safid («oq xona») bo'lib, uning yonida qabulni kutib o'tirish uchun boshqa xonalar ham mavjud. Janub tomonda oynavonli choyxona, kutish xonasi va amirning qabulxonasi joylashgan.



Saroy binolariga kiraverishda Nurota marma-ridan mahalliy ustalar yo’nib ishlagan sherlarning haykallari bor. Lekin, qur’onning ko’p asrlar da-vomida tirik jonivorlar nusxasini yasash yoki su-ratining solishni man etganligi ta’siri bu haykal-lardan ham ko’rinib turipti. Ilgari hech qachon hay-kal tarashlash bilan shug`ullanmagan Buxoro ustala-riga murakkab naqshlar solish osonroq edi. Bunga amir qabulxonasi dahlizining alebastrdan qilingan devoriga ishlangan kishini hayratda qoldiradigan naqsh-gullar, bezaklar misol bo’la oladi. Devor ay-rim-ayrim taxtalarga bo’lingan va ularga ochiq rang-li chiroyli guldonlar va gullar solingan. Qadimiy an’anaviy uslubda bezatilgan bu xonani usta Hasanjon ishlagan.

Buxoroning XIX—XX asrdagi eng ajoyib badiiy me’morchilik namunalaridan biri Yangi saroydagi xonai safid (oq xona) ning ichkarisidir. Sharqning jimjimador, nozik naqshlari, jozibador qilib ishlangan gullari, ajoyib girixlar bilan monand bo’lib ketgan. Ko’zgularning ko’pligi ichkarining an-anaviy bezagini buzmagan, chunki haligi naqsh va gullar o’sha ko’zgular ustiga solingan. Devorning ko’zgulardan iborat bo’lishi va gulganchdan ishpachgen bezaklarning ko’zni qamashgiradigan darajada op-poqligi xonani juda engil va ko’rkam qilib ko’rsa-tadi. Xonai safidni ikki yil mobaynida 25—30 kishidan iborat xalq ustalari qurishgan va pardoz-lashgan. Unga taniqli o’zbek me’mori Usta Shirin Murodov rahbarlik qilgan. Ma’lumki, keyincha Sovet hokimiyati daorida Usta Shirin Murodov O’zbe-kiston SSR Fanlar akademiyasining faxriy akade-migi degan unvonga sazovor bo’ldi. U ancha boy me’-moriy meros qoldirdi. Bular orasida A. Navoiy nomidagi akademik Katta opera va balet teatrining Buxoro zali alohida o’rin tutadi. Usta Shirin Murodov ana shu xizmati uchun Davlat mukofotining laureati bo’ldi.



Amir Olimxonning Yangi saroyi rus injenerlari Sakovich va Margulis kuzatuvida va rahbarligida qurildi. Saroy Rossiyadan keltirilgan ko'zgular, ka-felli golland pechlari, billur shamdonlar, karnizlar, uy jihozlari bilan pardozlandi va jihoz-landi. Lekin bularning ko'pchiligi saroyning milliy husni-bezagiga yarashmadi. Saroydagi yangilik — qa-bulxonalarining Evropa uslubida biridan-biriga o'tiladigan qator bo'lib joylashishi va binolarning tashqi tomoniga yopishtirilgan bezaklardan iborat, xolos. Yangi saroyning kiraverishi bog`-chamanzorlarga tutashib ketgan deyish mumkin.

Bog`ning uzunasiga ketib, ayvonchalar bilan o'ralgan shimoliy qismida O'rdaxona deb atalmish qaram joylashgan. Uning g`arbida haram xizmatkorlari uchun qurilgan kichik xonalardan iborat bir bino bo'lib, uni hovlicha deb atashgan.

O'rdaxona ham Evropa uslubida qurilgan. Ikki qavatli va yarim doira shaklida qurilgan bu bino ichkari qovliga qarab turadi. Ana shu jihatdan sa-royning bu uy va hovlisini mahalliy me'morchilik ananalarini o'zida saqlab qolgan birdan-bir qismi deyish mumkin. Hozir bu bino sanatoriyning oshxonasi.

Bog`ning qoq o'rtasida sakkiz xonali ko'shk bor, uni xonai xasht deydilar. Uning xonalari sakkiz qirrali qilib ishlangan oshxona, ya'ni xonai ovqatxo'ri atrofida joylashgan. Xonai ovqatxo'rining de-vorlari xuddi Buxoroning zarbof kashtalarini es-lagadigan qilib, ganch chiroyli o'yib ishlangan, tilla suvi yugurtirib bezagilgan. Xonai hashtning janubida to'g`ri burchakli va devorlari tokchali katta xona bo'lib, uni xonai kalon deyishadi. Bu xonaning qurilishi va bezagi Buxoroning boy xonadonlariga xos mehmonxonani eslatadi. Qolgan boshqa xonalar uxlash, yotish uchun (xonai xob) va xizmatkorlar uchun mo'ljallangan.



Bog`ning janubida 1917—1918 yillarda bir qancha binolar qurilgan: chunonchi, oynavonli gulxonasi bo’lgan katta ikki qavatli dang`illama bino, masjist, kagta hovuz. Ikki qaoatli bino oldiga qurilgan hovuz kul rang G`ozg`on marmari bilan qoplangan. Dang`illama bino XIX asr oxiridagi soxta rus me-morchiligi va Mazrigoniya uslubida ravoqlari bir-biriga uyg`un qilib, poydevori esa tosh yotqizilgan shaklda ishlangan. Binoning ichi uzun yo’lak (koridor) usulida, xonalari faqat bir tomondan shamol-latiladigan qilib qurilgan, bu O’rta Osiyo sharoiti-da faqat qish fasli uchun qulay, xolos.

Shuni ta’kidlab o’tish lozimki, Buxoro xapq dde’morlari ishlagan badiiy bezaklar yog`och va gul-ganchga o’yib ishlangan naqshlar go’zal bo’lishiga karamay va ayrim joylarida milliy rang, hislat saqlanib qolganligiga qaramay, yangi va eski saroylarning qiyofasi me’morchilikning inqirozga yuz tutganini ko’rsatib turibdi. Bu yerda turli uslublar uzviy bog`lanmagan holda eralashib ketgan.

Rus saroylariga taqlid qilish hamda eklektizm Buxoroning bu saroylari me’morchiligida yaqqol ko’zga tashlanib turadi.



**3 - mashg'ulot: 2- soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 1.3.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. XVI – XIX asrlarda ishlangan gilam va so’zanalar, sopol buyumlar.<br>2. Buxorodagi Nodir – devon Begi, Samarqanddagi Sherdor, Tilla Kori madrasalarining bezaklarida tasviriy san’atning o’z ifodasini topishi. |

| | |
|---|---|
| | 3. Miniatyura va kitobot san'ati |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XVI – XIX asrlarda O'zbek xonliklari davri madaniyati. Shayboniylar davri madaniyati va me'morchilik**.** to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * XVI – XIX asrlarda ishlangan gilam va so'zanalar, sopol buyumlar to'g'risida tushuncha beradi.<br>2. Buxorodagi Nodir – devon Begi, Samarqanddagi Sherdor, Tilla Kori madrasalarining bezaklarida tasviriy san'atning o'z ifodasini topishini video film va proyektotlar orqali namoyish etadi, tushuntirib beradi.<br>3. Miniatyura va kitobot san'ati uning rivojlanishi to'g'risida ma'lumot beradi. | 1. XVI – XIX asrlarda ishlangan gilam va so'zanalar, sopol buyumlar to'g'risida ko'rganlari va o'qigan, eshitganlarini muhokama qiladilar.<br>2. Buxorodagi Nodir – devon Begi, Samarqanddagi Sherdor, Tilla Kori madrasalarining bezaklarida tasviriy san'at qanday o'z ifodasini topganligini muhokama qiladilar.<br>3. Miniatyura va kitobot san'ati to'g'risida o'rganganlarini muhokama qiladilar, o'zaro fikr almashadilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**1.3.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi**

| **Ish jarayon lari** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |

| vaqti | | |
|---|---|---|
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (2-ilova). | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. XVI – XIX asrlarda ishlangan gilam va so’zanalar, sopol buyumlar to'g'risida tushuncha bering?<br>2. Buxorodagi Nodir – devon Begi, Samarqanddagi Sherdor, Tilla Kori madrasalarining bezaklarida tasviriy san’at qanday ifodasini topgan?<br>3. Miniatyura va kitobot san’ati borasidagi yutuqlarni tushuntirib bering? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (4-ilova). | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini | Yozadi. |

| | | |
|---|---|---|
| | beradi. | |

3 - mashg'ulot bo’yicha glossariy

- ✓ **Sunniylik—(arab tilida odat, an'ana, xatti-harakat tarzi degan ma'nolarni anglatadi) bu islomdagi Qur'oni Karim bilan birga Muhammad (s.a.v) payg`ambarning sunnatlarini (so`zlari, xattiharakatlari va ko`rsatmalarini) Qur'oni Karimdan keyingi, uni to`ldiruvchi manba ekanligini, shuningdek, dastlabki 4 xalifalarning (Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali) hokimiyati qonuniy ekanligini tan oluvchi oqimdir. Dunyodagi barcha musulmonlarning 90% dan ortig`i shu oqimga mansubdirlar.**
- ✓ **To`lg`ama — jangning dushman qo`shinining qanot qismini aylanib o`tib, orqadan hujum qilish usuli.**
- ✓ **Shialik — (arabcha guruh, tarafdor degan ma'nolarni anglatadi) islomda xalifa Ali va uning avlodlaridan iborat 12 imom hokimiyatinigina tan oluvchi, ulargagina bo`ysunuvchi oqim.**
- ✓ **Mubayyin — bayon etilgan.**
- ✓ **Rojalar — Hindistondagi mahalliy hukmdorlar.**
- ✓ **Shayxulislom — davlatdagi eng oliy diniy lavozim. Bu lavozimni egallagan ruhoniy barcha diniy ishlarga rahbarlik qilgan.**
- ✓ **Parokandalik — mamlakat viloyatlarining markaziy hokimiyatga bo`ysunmasligi, siyosiy tarqoqlik.**
- ✓ **Miyonqol — Samarqand atrofidagi Oqdaryo va Qoradaryo oralig`idagi hudud. Keyinchalik Samarqand bilan Xatirchi oralig`idagi yerlar Miyonqol deb atalgan.**
- ✓ **Aruz ilmi (arabcha) — she'r ilmi, she'r tizimi.**
- ✓ **„Dorush-shifo" — shifoxona.**
- ✓ **Masnaviy (arabcha) — ikkilik. Kichik she'riy asarlar ham, dostonlar ham masnaviy deb yuritiladi.**
- ✓ **Registon (forscha) — shaharning may da tosh to`shalgan markaziy maydoni.**
- ✓ **Muxammas (arabcha) — beshlik. Sharq she'riyatidagi she'riy shakl.**

**Ashtarxoniy Ubaydullaxon II davri (1702—1711) da mamlakatdagi ichki ziddiyatlar yanada keskinlashdi.**

**• Abulfayzxon (1711—1747) davrida mamlakatdagi eng asosiy viloyatlar va shaharlar mustaqil hokimliklarga bo`linib ketdi.**

**• Buxoro xonligi siyosiy hayotida mang`it qabilasi va uning yo`lboshchisi Muhammad Hakimbiy ta'siri nihoyatda kuchaydi.**

**• 1740- yilda Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylandi.**

## 2 – mavzu: XVIII – XIX asrlarda O’zbek xonliklari davri madaniyati va san’ati. 6 – soat.

### 1 - mashg'ulot: 2 - soat

### Reja:

1. Buxoro amirligida madaniyat va san’at.
2. Buxoroning Markaziy Osiyodagi diniy markaz sifatidagi o’rni.
3. Me’morchilikda an’anaviy qurilishlarning davom etishi

Shaharlar hamisha mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida g`oyatda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Chunki shaharlar davlat hokimiyati tayanchi, savdo va hunarmandchilik markazi, madaniyat hamda ilm-fan o`chog`i vazifasini o`tagan.

**Samarqand**

Amirlikning eng yirik shaharlaridan biri Samarqand edi. Samarqand shahrida kulolchilik, cho`yan quyish (degrezlik), teri oshlash, qog`oz, kiyim-kechak, qurol-yarog` ishlab chiqaruvchilar, baxmalboflar, kimxobgarlar, chitgarlar, bo`yoqchilar, po`stindo`zlar, mo`ynado`zlar mahallalari va rastalari bo`lgan.

Samarqandda yetti madrasa faoliyat ko`rsatgan. Bular Ulug`bek, Sherdor, Tillakori, Safed (Xoja Ahror), Shayboniyxon, Xoja Abdulg`ofur, Qozi Soqiy madrasalari edi.

Ashtarxoniylar davrida kuchayib ketgan siyosiy kurashlar, chet elliklar hujumi natijasida shahar talangan, vayronaga aylangan. Buxoro amiri Shohmurod (1785—1800) davrida Samarqand deyarli qayta tiklangan.

XIX asr boshlarida Samarqand shahri baland devor bilan o`rab olingan. Devorning uzunligi 13,9 chaqirim, maydoni 10,4 kv kilometrni tashkil etgan. Shaharda 80 ming aholi istiqomat qilgan.

**Buxoro**

XIX asrning 40- yillarida Buxoroda 38 ta karvonsaroy bo`lib, ularda musofir va mahalliy savdogarlar istiqomat qilganlar. Karvonsaroyda ombor, do`kon, ustaxona, mehmonxonalar bo`lgan. Karvonsaroylarning amirga, ayrim shaxslarga va vaqfga tegishlilari bo`lgan. Buxoro karvonsaroylariga haryili 12—15 ming tuyada mol kelgan. Savdo ishini karvonboshi — amirlikdagi barcha savdo ishlarining boshqaruvchisi boshqargan.

Buxoroda ichki va shaharlararo savdo to`qqizta tim va chorsuda amalga oshirilgan.

Buxoro shahrida 103 ta madrasa, 360 masjid va 83 ta hovuz mavjud bo`lgan.

**Hunarmandchilik**

Hunarmandchilik amirlik shaharlarining iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega edi. Hunarmandchilikning asosiy turlaridan biri to`qimachilik bo`lgan. Buxoro olachasi, bo`zi, bo`zga gul bosish yo`li bilan tayyorlanadigan chiti, shoyisi, Samarqandning to`q qizil rangli baxmali mashhur edi. Yigirilgan ipdan ro`mol, choyshab, salla to`qish ham keng tarqalgan.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan yana biri — temirchilik va miskarlik bo`lib, o`roq, pichoq, shuningdek, qurol-yarog` yasashgan. Temirchilar qilich, xanjar, oybolta, nayza, qalqon, kamon va uning o`qini yasar edilar. To`plar yasash ham yo`lga qo`yilgan.

Zargarlik, kulolchilik, yog`ochsozlik ham muhim soha hisoblangan.

Yog`ochdan eshik, beshik, deraza, arava, sandiq, qayiq va boshqalar yasalardi. Yog`och o`ymakorligi alohida ahamiyatga ega edi. Novdalardan savatlar to`qilardi.

Uy sharoitida namat, gilam to`qish, oshlangan charmdan egarjabduqlar, ayillar, pichoq qinlari, hamyonlar tikish ham keng rivojlangan.

**Ichki savdo**

Davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo`lmadi. Bu esa o`z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmadi. Natijada, oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi manufaktura ushlab chiqarishi darajasiga ko`tarilmadi. Shuning uchun ham ichki bozorda odatdagi hunarmandchilik va qishloq xo`jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o`rin egallagan.

Buxoroda bozordagi narx-navo, tosh-tarozining to`g`riligi qattiq nazorat qilinar edi. Kimki xaridor haqqiga xiyonat qilsa, qattiq jazoga duchor etilardi, xususan, bundaylar yarim yalang`och holda aravada, bozor ahliga namoyish qilish uchun sazoyi qilinardi va ovozi boricha: ,,Men shayton yo`liga kirib, xaridorni aldadim", deb jar solishga majbur etilardi.

O`rta Osiyo, xususan, Buxoro bozorlari faqatgina xo`jalik vazifasini o`tab qolmagan. Ular ayni paytda o`ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham o`tagan. Xususan, bozorlarda hukmdorning farmonlari o`qib eshittirilar, aybdorlar jazolanar, bayram kunlari esa turli tomoshalar ko`rsatilar edi.

### Tashqi savdo

Mamlakatning tashqi savdo aloqaiari to`xtab qolgani yo`q. Buxoro Hindiston, Afg`oniston, Eron, Xitoy bilan savdo aloqalarini olib borgan. Bu davlatlarga xonlikda ishlab chiqarilgan ip gazlamalar, baxmal, qog`oz, egar-jabduqlar, qurollarning ayrim turlari, meva va boshqa mahsulotlar ortilgan savdo karvonlari qatnab turardi. Ba'zi savdo karvonlarining tuyalari bir necha yuz boshga yetardi.

Mamlakatning Samarqand va Buxoro kabi shaharlariga ko`plab chet ellik savdogarlar kelib turishardi. Buxoroda hatto hind savdogarlari va sudxo`rlari yashaydigan alohida mahallalar ham bor edi. Ular hind gazlamari, bo`yoqlari, shifobaxsh va ziravor o`tlar, dori-darmonlar, qand-shakar bilan savdo qilardilar.

Buxoro aholisini chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari, tuyalar hamda hunarmandchilik buyumlari bilan ta'minlovchi qozoq cho`llarining aholisi bilan keng savdo olib borilardi. Ular xom teri, shuningdek, qo`y terisini turli ranglarga bo`yab tikkan kamzullari bilan ham mashhur edilar. Bu mahsulotlar Buxoro bozorlarining eng xaridorgir mahsulotlari edi. Qozoqlar bilan savdo aloqalarida qoraqalpoqlar vositachilik qilar edilar. Turkmanlar Buxoro bozorlariga zotdor otlar olib keiib sotardilar.

Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo aloqalari o`sib bordi. Orenburgda 1804- yili Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda 20 xonadon istiqomat qilgan. Ular Rossiya bilan Buxoro amirligi o`rtasidagi savdoda muhim o`rin tutganlar. Qarorgoh ahli 1812- yilda Napoleon armiyasiga qarshi janglarda faol ishtirok etgan. 1825- yilga kelib savdogarlar qarorgohi kengayib, xonadonlar soni 30 taga yetdi. VVarning ko`pchiligi hunarmandlar (novvoylar, savdogarlar) bo`lib, o`z mahsulotlarini shu yerda sotuvga tayyorlaganlar. Buxorodan yo`lga chiqqan karvon 2 oyda Orskka yetib borardi. Ba'zida savdo karvoni 5 mingtagacha tuyadan iborat bo`lardi.

Shu tariqa, Buxoro davlati iqtisodiyoti Rossiya bilan savdo qilishga mo`ljallangan o`ziga xos yo`nalishga ega bo`la borgan. Buni quyidagi fakt ham isbotlaydi. Masalan, 1844- yilda Buxoro xonligining O`rta Osiyo — Rossiya tashqi savdosidagi ulushi 25 foizni tashkil etgan bo`lsa, 1864- yilga kelib bu ko`rsatkich 42 foizga ko`tarilgan.

## Buxoro amirligida madaniy hayot

### Tarix ilmi

Buxoroning XIX asr birinchi yarmida ijod etgan tarixchi olimi Muhammad **Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy** (1771—1831) edi.

U ,,Gulshanul-muluk" (Podshohlar gulshani) degan asar yozib qoldirgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo`lib, birinchi qismida Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayon etilgan. Asarning ikkinchi qismida esa O`rta Osiyoning XVIII va XIX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan.

XIX asrda yozilgan Mirzo Shams Buxoriyning ,,Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo`qand va Qoshg`ar" (,,Buxoro, Qo`qon va Qashq'arning ayrim voqea-hodisalari bayoni") kitobi ham tariximiz uchun muhim manba hisoblanadi.

**Adabiyot**

Xiva va Qo`qon xonlaridan farqli o`laroq, mang`it hukmdorlar madaniyat, xususan, adabiyot taraqqiyotiga qiziqish bilan qaraganligi, adabiy ijod bilan bog`liq biron-bir masalani hal etib berish yoki ijod ahliga sharoit yaratib berganliklari sezilmaydi.

Bu davrning o`ziga xos iste'dod egasi **Muhammadniyoz Nishotiy** (XVIII asrda yashab ijod etgan) o`rtacha, vaqti, kelganda kambag`allik va sargardonlikda yashagan edi. Shoir 1778- yilda o`zining ajoyib ,,Xusnu Dil" dostonini yaratgan. O`zbek adabiyotining katta yutug`i sanalgan bu asarni shoir majoziy shaklda yozgan. Doston qahramonlari — Aql, Husn, Yurak, Xayol, Vafo, Nazar, Ishq va boshqalarning har biri g`oyat go`zal insoniy fazilatlarga ega. Raqib, Fasod, Nafs obrazlari esa yomon sifatlar hamda turli yovuzliklarning timsoli edi.

Asardagi obrazlardan biri ishq o`zining dadil va oqilona qarorlari, harakatlari bilan har xil mamlakatlarning turli qarashlarga ega hukmdorlarini bir bitimga olib keladi va hammaning muhabbatiga sazovor bo`ladi. Oxir-oqibat ularning hammasi bir-birlari bilan yarashadilar. Ishq oldida ta'zim bajo keltiradilar va uning farmonlariga bo`ysunishga mayl izhor etadilar.

Shu tariqa, Nishotiy dostonida odamlar va davlatlar orasidagi nizolar, baxillik va boshqa axloqiy qusurlar qoralanadi. Yaxshilik va yomonlik o`rtasidagi qarashlarda xayrli intilishlar, aql va oliyjanob niyatlar ustun keladi.

Bundan tashqari, Nishotiyning adabiy ijodidagi yana bir o`ziga xoslik — bu, adabiyotda munozara janri taraqqiyotiga katta hissa qo`shganligidir. Bu o`rinda uning ,,Qushlar munozarasi" majmuasi katta ahamiyatga ega. Asarda o`sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug`langan. Asarda laylak, zog`, bulbul, tovus, to`ti, xumo kabi jami 14 ta qush o`rtasida bo`lib o`tgan bahs tasvirlangan. Muallif qushlar bahsi orqali insonga xos takabburlik, xudbinlik, maqtanchoqlik kabi illatlarni qoralagan. U 38 g`azal, 14 muxammas va bitta qasida yozgan.

Bu davrning yana bir mashhur shoiri Mujrim-Obid edi (1748—1818). U ,,Mujrim" hamda ,,Obid" taxalluslari bilan ijod qilgan. Uning turkiy devonida 459, forsiy devonida 206 g`azal bor.

Shoirning asarlarida jamiyatdagi nomukammallik, ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik odamlar fe'lidagi illatlar tanqid ostiga olinadi. Ularda shoirning axloqiy qarashlari, pand-nasihatlari aks etgan.

Buxoroda Shavqiy, Joniy, Hiromiy, Vola va Junaydulloh Hoziq kabi o`nlab iste'dodli shoirlar ham ijod qilganlar.

Volaning (1770—1842) ko`zi tug`ma ojiz bo`lsa-da, tabiat unga kuchli iroda, aql, xotira va qobiliyat hamda yoqimli ovoz in'om etgan edi. Shoir o`z she'rlaridan 2 ta devon tartib bergan. Bizgacha 3 ming misra she'rlari yetib kelgan. O`z she'rlarida xalq boshiga tushgan kulfat va mashaqqatlarni kuylagan.

**San'at**

Buxoroda xattotlik va miniatura san'ati yaxshi rivojlangan edi. Rassomlar asosan qo`lyozmalarni naqshli bezash bilan shug`ullanib, ko`proq diniy mazmundagi kitoblarni bezata boshladilar. Bu sohaning qator yetuk bilimdonlari zamonasiga yarasha yodgorlik qoldirdilar. Chunonchi, Amir Haydar davrida ijod qilgan Mir Mas'um Olamiyon ,,Axloqi Muhsiniy" kitobini hamda Sa'diyning she'riy asarlarini rasm bilan bezaydi.

Mirzo Sodiq Jondoriy Nasrulloxon amirligi davrida qo`lyozma kitoblarga lavhalar, Sa'diy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan. Qo`lyozmalarni badiiy muqovalagan.

Yirik olim, faylasuf, shoir Ahmad Donish (1827—1897) 20 yil mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida xattot va rassom bo`lib ishlagan. Ahmad Donish astronomiya, tibbiyot, riyozat, me'morchilik va musiqadan tashqari xattotlikni, rassomlik hamda rang berish san'atini ham o`rgangan edi. Ahmad Donish ko`chirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo`lyozmalar ichida ,,Shohi darvish" (1849 yil), ,,Ajoyib attabaqot" (1847) va boshqa asarlar buning dalilidir.

**Musiqa**

Buxoro yuksak ustozona musiqa san'atining markazlaridan bin bo`lgan.

Chunonchi, XVIII asr oxirlarida Buxoroda vujudga kelgan ,,Shashmaqom" buning yorqin dalilidir.

Buxoro Shashmaqomi, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan iborat bo`lib, 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan tashMl topgan.

Maqom ashulalarining she'riy matni uchun Rudakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur, Nodira va Mashrab singari turkiy va forsiy tilli mumtoz shoirlarning lirikasidan tuzilgan. Shashmaqom og`zaki tarzda ustoz-shogird an'anasi shaklida avloddan-avlodga o`tib kelmoqda.

***Buxoro amirligi. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. (1747- 1920 yillar)***

Muhammad SHayboniyxon vafotidan so`ng Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar markaziy hokimiyatga bo`ysunmay qo`ydilar. Ubaydulla Sulton 1512 yilda Buxoro hukmdori bo`lgan bo`lsa, 1534 yildan butun markazlashgan o`zbek davlatining Oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon mamlakat poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko`chirdi. XVI asrning 40-yillariga kelib, zodagonlar va mahalliy sulolalar o`rtasida shaharlar va hududlar uchun kurash avj olib ketdi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (1541-1552 yy.) bilan Buxoro xoni Abdulazizxon (1540-1550 yy.) o`rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo`yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Navro`z Ahmadxon) yanada kuchaytirdi. U hatto 1551 yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonqol hukmdori Abdulla Sulton Baroqxonga qarshi kurash olib bordi va 1557 yilda Buxoroni bosib oldi.

1561 yilda taxtga o`tirgan Iskandarxon ham siyosiy tarqoqlikka barham bera olmadi. Ammo uning o`Qli Abdullaxon II markazlashgan shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg`ona (1573), SHahrisabz, Qarshi, O`isor viloyatlari (1574), Samarqand (1578), Toshkent, SHohruhiya, Sayram, Ohangaron (1582), Balx (1583), Badaxshon (1584), O`irot (1588), Xorazm (1595) Abdullaxon qo`l ostiga birlashtirildi. Ammo 1598 yilda Abdullaxon II vafotidan so`ng uning o`Qli Abdulmo`min uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. So`nggi SHayboniy hukmdori Pirmuhammad II ham bebosh amirlarni tiyib qo`ya olmadi.

**1 - mashg'ulot: 2- soat.**

## – KEYS – STADI

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 2.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Buxoro amirligida madaniyat va san’at.<br>2. Buxoroning Markaziy Osiyodagi |

| | |
|---|---|
| | diniy markaz sifatidagi o’rni.<br>3. Me’morchilikda an’anaviy qurilishlarning davom etishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XVIII – XIX asrlarda O’zbek xonliklari davri madaniyati va san’ati. Buxoro amirligida madaniyat va san’at to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| 1. Buxoro amirligida madaniyat va san’atning qanday bo’lganligi to’g’risida tushuncha beradi.<br>2. Buxoroning Markaziy Osiyodagi diniy markaz sifatidagi o’rni qanday bo'lganligini izohlaydi<br>3. Me’morchilikda an’anaviy qurilishlarning davom etishi to'g'risida tushuncha beradi,slaydlar orqali namoyish etib, izohlaydi. | 1. Buxoro amirligida madaniyat va san’atning rivojlanish tarixi to’g’risida gapirib beradilar .<br>2. Buxoroning Markaziy Osiyodagi diniy markaz sifatidagi o’rnini gapirib beradilar va muhokama qiladilar.<br>3. Me’morchilikda an’anaviy qurilishlarning davom etishislaydlar orqali ko'rganlarini muhokama qiladilar |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 2.1.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (2-ilova). | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: Buxoro amirligi madaniyati va san’ati to’g’risida bilasiz nimalarni? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi. | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |

**1-mashg'ulot bo’yicha glossariy**

- ✓ **Maqom — musiqada bir qismli yoki turkumli cholg`u va ashula yo`llari; musiqiy uslub.**
- ✓ **Tanob (chilvir, arqon): ekin maydonini o`lchash uchun qo`llaniladigan yuza birligi. Tanob yer maydoni 8,33 sotixga teng bo`lgan 1 ga yer esa 12 tanobni tashkil etgan;**

**Devonbegi** — xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirilishi ustidan nazorat olib borgan. U Ark etagida yashagan.

**Ko`kaldosh** — butun amirlik hududida do`stona yoki dushmanlik munosabatida bo`luvchilar haqida ma'lumotni to`plagan.

**Mushrif** — amaldorlar xonga in'om etgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarai ro`yxatga olgan. Soliq tushumlarini yozib borgan.

**Mirshab** — tungi shahar soqchilari boshlig`i vazifasini bajargan.

**Dodxoh** — fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi va hal etuvchi amaldor bo`lgan.

**Inoq** — vazifasi amir farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazishdan iborat bo`lgan.

**Miroxur** — amir otxonasining boshlig`i bo`lgan.

**2 – mashg'ulot: 2 – soat.**

**Reja:**

1. Xiva xonligida madaniyat va san’at.

2. Xivaning mashhur yodgorliklari va uning tugallangan ko’rinishga ega bo’lishi.Darvozalar, karvonsaroylar va madrasalar.

3. Ichan qal’adagi xon qarorgohi va boshqa muhim ma’muriy binolar. Ulardagi san’at asarlari.

**Xorazm hududida jami 20 ga yaqin o`zbek qabilasi istiqomat qilar edi. Ular orasida *qo`ng`irot, mang`it, nayman, qipchoq* va *qiyot* qabilalari ko`p sonli va eng kuchli qabilalar bo`lgan. Shahar va shaharlar hayoti**

Xiva xonligida Xiva, Ko`hna Urganch, Yangi Urganch, Vazir kabi o`nlab shaharlar mavjud bo`lgan. Ulardan eng qadimiysi Xiva shahri bo`lib, 1997- yilda uning 2500 yilligi nishonlandi. Bu haqda YUNESKO 1995- yilda qaror qabul

qilgan edi. Bu qaror — Xiva shahrining jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan alohida o`rnining e'tirofi bo`ldi. Bugungi avlod o`z ota-bobolarining madaniy meroslari bilan haqli ravishda faxrlana oladi.

Xiva shahri milloddan avvalgi V asrda yuzaga kelganidan buyon uning tarixi butun Xorazm tarixi bilan chambarchas bog`liq bo`lib keldi. Xivaning mashhurligi u bunyod etilgan davrlaridanoq Sharq bilan G`arbni bog`lovchi savdo yo`li o`tganligi bilan izohlanadi.

Xiva shahri XVI asr boshlaridan 1920-yil fevralgacha Xiva xonligining poytaxti bo`lgan.

Xiva xonligida XVII asrda ro‘y bergan madaniy hayotdagi tushkunlik Buxoro xonligidagiga qaraganda kuchliroq bo‘lgan. Bu shunda yaqqol ko‘rinadiki, Xorazmda  Abulg‘ozi Bahodirxon xon bo‘lgan davr (1644–1663)da Xorazm tarixini yozib qoldirish masalasi ko‘tarilganda, bu ishni eplay oladigan bir kimsa topilmagan. Bu haqda Abulg‘ozi Bahodirxonning o‘zi quyidagicha hikoya qiladi: «Ammo bizning ota va aqolarimizning beparvoyiligi va Xorazm xalqining beuquvligi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdullaxonning otalari birlan bizning otalarimizning  ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarni bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk. Hech munosib kishi topmaduk. Zarur bo‘ldi. Ul sababdin o‘zimiz aytduk. Turkning masali turur: «O‘qsuz o‘z kindigini o‘zikesar», degan»1.XVII  asrda yashab ijod qilgan  Abulg‘ozi Bahodirxon oliy nasab, toj-taxt sohibi, o‘z sulolasining shon-u shuhrati uchun kurash olib borgan, ayni choqda parchalanib ketayotgan Xiva xonligini kuchli markazlashgan davlatga aylantirish uchun ham qurol bilan, ham qalam bilan kurash olib borib, nisbiy osoyishta lik o‘rnatishga erisha olgan hukmdor ham edi. U qoloqlashib qolgan Xorazmni ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan yuqori ko‘tarishga intildi. Hukmdor sifatida bekliklar o‘rtasidagi ziddiyatlar, o‘zaro qirg‘in urushlarga barham berishga qaratilgan tadbirlar ko‘rgan bo‘lsa, ijodkor sifatida «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» va «Manofe’-ul-inson» («Inson uchun foydali tadbirlar») kabi tarixiy badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozadi. Abulg‘ozi Bahodirxonning birinchi yodgorliklar  asari «Shajarayi tarokima» yarim afsonaviy xususiyatga ega bo‘lsada, u mahalliy xalqlarning kelib chiqishi va ularning qadimiy tarixiga oid ma’lumotlarberadi.

Abulg‘ozi Bahodirxonning ikkinchi qimmatli asari «Shajarai turk» bo‘lib, uni oxiriga qadar yozib tugata olmadi. Bu asarni Abulg‘ozi vafotidan  so‘ng  o‘g‘li Anushaxonning  topshirig‘iga ko‘ra urganchlik mulla va Abulg‘ozining qarindoshi Mahmud Ibn Muhammad Urganjiy yozib poyoniga yetkazadi. Bu taxminan 21 sahifani tashkil etgan qo‘shimcha edi, xolos.«Shajarai turk» asari qisqa muqaddima va to‘qqiz bobdan iborat bo‘lib, Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlaridan Mo‘g‘ulxongacha kechgan hodisalar va, shunindek Shaybon avlodidan Xorazm mamlakatida podsholik qilganlar zikrini o‘z ichiga oladi.

Abulg‘ozining «Shajarai turk» asari o‘sha davrning eng noyob asarlar jumlasidandir. Shu bois mojar (Venger) sharq-shunosi G.Vamberi: «Jahon uning «Shajarai turk» nomli ta-rixiy asari uchun undan minnatdordir2 degan bo‘lsa, taniqli adabiyotshunos Olim Sharofiddinov:«Abulg‘oziBahodirxon binni Arabmuhammad o‘zbek xonlari ishida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari ulug‘ deb yuksak baho bergan. Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» va boshqa asarlari nafaqat Sharq tarixchilari, balki butun dunyo ilmiy jamoatchiligining ham diqqat e’tiborini o‘ziga tortgan, juda ko‘plab jahon xalqlarining tillariga tarjima qilingan. Jumladan «Shajarai turk» asari rus tilida 1825, 1854 va 1871-yilda Qozon shahrida, «Shajarai tarokima» asari esa 1898 va 1906-yilda bir necha marotaba nashr etilgan. 1871–1874-yillar orasida P.N. De-mezon «Shajarai turk»ni fransuz tiliga ag‘daradi. Bu asar Angliya va Amerika xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining «Shajarai turk» asari bilan Xorazm tarixchilik maktabiga asos soladi. Xorazm xalqining buyuk farzandi Abulg‘ozi boshlagan g‘oyatda ulug‘ va mo‘tabar ishni undan keyingi avlodlar, Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiylar davom ettiradi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrning birinchi yarmida me’morchilik sohasida xorazmlik ustalar yetakchilik qiladilar. O‘sha davr yodgorliklari orasida ajoyib saroy majmualari Xazoraspdagi Rahmonqul inoq saroyi, Ko‘rinishxona, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu binolar sirti naqshli sopol plita (koshin)lar bilan bezatilgan. Bu sopollardan to‘q ko‘k rang ustiga yashil va oq gullarning bir-biriga chirmashtirilgan rasmlari chiroyli qilib berilgan. Xonlikning poytaxti Xiva ayniqsa XVIII–XIX asrlarda gullab-yashnaydi. Shahar ikki qismdan – Ichan (ichkari) qal’a va Dishan (tashqari) qal’adan iborat. Shahar markazida joylash gan Juma masjidi (XVIII asr) – O‘rta Osiyoning eng go‘zal inshootlaridan hisoblanadi.Sherg‘ozixon (1718–1720), Qutlug‘ Murod Inoq madrasalari, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Olloqulixon, Muhammad Aminxonning katta madrasalari (XIX asr) va Tosh hovli saroyi (1830–1838-yillar) o‘ziga xos nafis va go‘zaldir. Bu qurilish obidalari O‘rta Osiyo me’morchiligining ajoyib yodgorliklaridir.

1765-yilda Sherg'ozixon va Muhammad Amin madrasalan bunyod etildi. X!X asr boshlarida Xiva xoniigi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi Xon farmoyishi biian karvonsaroy, usti yopiq bozor va ular oraiig'ida 1834-yilda Olloqulixon madrasasi qurilishi tugaiiandi. 1842-yilda Muhammad Yoqub mehtar rahbarligida Xiva atrofida 6 km uzuniikdagi mustahkam shahar-qal'a devori va uriing darvozasi qurib tugaiiandi. Natijada, xonning shahar tashqarisidagi 2 saroyi ham shahar ichiga kirdi. O'sha paytdan boshiab shahar hududining bu qisrni Dishan qa/'a - Tashqi shahar (qal'a) dfeb nomlana boshlangan. Xivaning kichik halqali qal'a-devori bilan o'ralgan qisrni Ichan qala - Ichki shahar (qal'a) deb atalgan. Xivada XIX asr birinchi yarmiga kelganda jami 2 xon saroyi, 17 masjid 2 madrasa mavjud bo'lgan. Ichan qal'a bobolarimizdan qolgan O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlikdir. U

ming gumbaz shahri nomi bilan mashhur. Ichan qal'a Xiva shanrining" ichki qal'a (Shahriston) qismidir.

Ichan qal'a, Ichan qal'a Dishan qal'adan devor bilan ajralib turadi. Unga Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan to'rtta darvoza orqali kirilgan. Xorazm o'lkasi me'morchiligining ajoyib obidalari - 1) madrasa, 2) masjid, 3) saroy va 4) minoralar Ichan qal'ada joylashgan. Mazkur asrlar davomida Ota darvozadan Polvon darvozagacha katta yo'i o'tkazildi. XVIII asr oxirida Juma masjidi qayta quriladi va uning yonida baland minora ham qad ko'tardi. 1840-1842-yillarda ikki qavatli Qutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqilar quriidi. Muhammad Rahimxon,' Olloqulixon va Muhammad Aminxon hukmronliklari davrida Ichan qal'ada keng ko'lamli yaratuvchilik. ishiari amalga oshirildi. 1) Muhtasham saroy, 2) madrasa, 3) maqbaralar barpo etildi.
Ko'hna arkdagi saroy quriishi tugallandi. Yangi va katta Toshhovli saroyi qurildi. Polvon darvozaga yaqin qo'rg'on devorning bir qismi buzilib, o'rniga Olloqulixon 1) karvonsaroyi, 2} madrasasi va 3) timi qurildi. Shuningdek, ajoyib me'rnorchilik namunasi Pahlavon Mahmud maqbarasi bunyod etildi. Bundan tashqari, Arab Muhammadxon va Musa To'ra madrasalari ham; shu davrda qad ko'tardi. Muhammad Aminxon esa Ichan qal'aning g'arbiy qismidagi Ko'hna ark yoniga Katta Minor nomi bilan mashhur bo'lgan minorani qurdirdi. Ichan qal'ani bunyod etishda Xiva me’morlari Markaziy Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an'ana - inshootlarni ro'parama-ro'para qurish usulidan foydalanishgan. Bu usul qo’sh usuli' deb ataladi. ichan qal'ani bunyod etishda, bundan tashqari, binolarni alohida ansambl holida qurish an'anasaiiga ham amal qilingan. Masalan, Polvon darvozasi oldidagi bir necha 1) masjid, 2} madrasa, 3) hammom, 4) toqi, 5) karvonsaroy va 6) xon saroyi ana shunday o'ziga xos ansarnblni tashkii etadi. 1990-yili Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan va muzeyga aylantiriigan.
Dishan qai'a. Dishan - Tashqi qal'a Xiva shahrining rabod qismi hisoblanadi. 1842-yilda Xiva xoni Olluqilixon Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi 6250 metr, balandligi 7-3 metr, devorining qalinligi esa 5-6 metr bo'igan devor bilan o’:ratgan. Ichan qal'ada 4 darvoza bo’lsa, Dishan qal'a 10 darvozali bolgan. Dishan qal'aning ko'chalari Ichan qalaning ko'chalari davori tarzida qurilgan. Shaharning tim va savdo rastaiari Dishan qal'ada joylashtiriigan. O‘sha davrda har uchala xonlikda ham yuqoridagidek in-shoot qurilishi va hunarmandchilik san’atining turli yo‘nalishlari rivoj topadi. Bulardan tashqari yog‘och va misga o‘yib nozik naqshlar solish, sopol va chinni, yarog‘-aslahalar yasash va har xil uy-ro‘zg‘or buyumlari, matolar to‘qish keng tarqaladi.

Xonliklar hududida raqs san’atining Farg‘ona, Buxoro, Xorazm va Tog‘li usullari mavjud bo‘lib, o‘z navbatida ularning har biri o‘ziga xos janr xususiyati va turlariga ega edi. Masalan: Farg‘ona o‘yin san’ati: «Katta o‘yin», «Kema o‘yin», «Xonaki o‘yin», «Yalla», Xorazm o‘yin san’ati: «Maqom o‘yin», «Xonaki o‘yin», «Lazgi», «Yalla», «Zangbozi»larni o‘z ichiga olgan va hokazo.

«Tog‘ o‘yin» ko‘proq O‘zbekiston hududidagi janub xalqlari madaniyatiga xos bo‘lib, «Besh qarsak», «Uch qarsak»,«Dastbozi» kabi usullardan iborat edi.

**Ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyati**. Xiva xonlig'ining ijlimoiy hayotida Buxoro xonligidagidek sokinlik hukm surardi. Bu sokinlikning sababi - xonlikning jahon taraqqiyotidan deyarli uzilib qolganligida edi. Mamlakatda 1) uzoq vaqt siyosiy tarqoqiik hukm surgan, 2) natural xo'jalik ustun bo'lgan, 3) to'xtovsis davom etgan o'zaro ichki urushlar hamda 4) tashqi hujumlar oqibatida mamlakat tqtisodiyoti izdan chiqqan sharoitda ijtimoiy hayotning bundan boshqacha bo'lishi mumkin etmas edi. Hukmron tabaqalarning aksariyat qismi davlat, Millat taqdiridan ko'ra o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yganlar. Xonlik aholisi. XIX asrning 20-villari boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra Xiva aholisining soni 800 ming kishini tashKil etgan. Bu raqam qat'iy bo'lmasdan xonlik hududining kengaya borshni bilan xonlik fuqaroligini qabul qilganlarning soni ko'payib borgan. Xonlik poytaxti Xiva shahri aholisining katta qismi o'zbeklardan, asosan, 1) qo'ng'irot, 2) nayman, 3) qiyot, 4) uyg'ur, 5) nukuz, S) qang'li, 7) xitoy, 8) qipchoq kabi iborat bo'lgan. Undan keying! o'rinlarni turkmanlar  qaraqalpoqlar va qozoqlar egallashgan. Ularning har biri, asosan, o'zlariga ajratilgan yerlarda joylashgan. Har biri alohida-alohida kanalga ega bo'lishgan. Har bir qabila o'zlariga qarashli sug'orish inshootlarni tiklash va ta'mirlash ishlarida qatnashgan. Har bir qabilaning kanali ham shu qabila nomi bilan atalgan. Davlat tuzumi va boshqaruv tizimi. Xonlik mutlaqmanarxiya bo'lib, oliy hukmdor -xon davlat boshlig'i edi. Ma'muriy jihatdan xonlik hududi 15ta - viloyatga (1) Pitnak, 2) Hazorasp, 3) Xonqa, 4) Urganch, 5) Qo'shko'pir, S) G'azcvat, 7) Qiyot, 8) Shohabbos, 9) Toshhovuz, 10) Ambar-Msnoq, 11) Gurlan, 12) Ko'hna Urganch, 13) Xo'jayli, 14) Chumanoy va 15) Qo'ng'irot) va 2 ta noibiikka (Bgsbaaq va Qi^o^Qo'rig'irot), shuningdek, xonning bevosita o'ziga bo'ysundirilgan tumanlsrga bo'lingan'~.' Davlat boshlig'i - xon hokimiyati vakolati nasldan naslga o'tgan. Xondan teyingi o'rinda dastlabki asrlarda Inoq turgan. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab esa Inoqning mavqeyi pasaya borgan. Muhammad Rahimxon I davrida nufuzli amaldorlardan iborat Devon tuziladii. Devon davlat hayotiga oid masalalarni hal etgan. Devonda xondan keyingi o'rinda qo’shbegi turadigan bo'ldi. U xonning birinchi yordamchisiga aylandi. Xonning barcha yorliq va farmonlari uning qo'lidan o'tgan. Qo’shbegidan keyingi o'rinda mehtar turgan. U xonlikning moliya vaziri edi. Bundan tashqari, devonbegi, shayxulislom, qozikalon, eshan, rais, mirzaboshi, mirshab, mahram, katta beklar (viloyat va katta shahatlar hokimlari), kichik beklar va xon maslahatchilari kabi turli lavozimlar bo'lgan. Xonning ishonchli vakillari hisoblangan inoqlarning mavqeyi kuchli bo'lgan davrlarda ulardan 5 kishi a'zo bo'lgan ..Xon kengashi" (maslahat kengashi) faoliyat ko'rsatgan. Xonga sadoqat bilan xizmat qilganlarning lavozimlari ba'zan o'g'illariga meros qilib berilgan. Viloyatlarni beklar, noibliklarni xon tayinlagan noiblar boshqargan. Ular, asosan, moliya va mirshablik vazifalarini bajarganlar. Xonlik tarkibidagi qozoq va qoraqalpoqlar esa o’zlarining biylari turkmanlar esa

ulaming vakili tomonidanboshqarilgan . Ularning lavozimlari nasldan naslga meros bo'lib o'tsada, nomzodini xon tasdiqlashi shart bo’lgan

**Ko`hna Urganch**

Xonlikning yana bir shahri — Ko`hna Urganch (Gurganch) shahridir. Qadimda bu shahar joylashgan hudud hozirgi Turkmaniston (Toshhovuz viloyati) tarkibidadir.

Ko`hna Urganchga asos solinganligiga 2000 yildan oshdi. Shahar muhim savdo karvoni yo`llari kesishgan yerda joylashganligi uchun ham tez rivojlangan. Ko`hna Urganch X — XI asrlarda Xorazm davlatining poytaxti edi. Bu shahar arab geograflari asarida Jurjoniya nomi bilan qayd etilgan. X asrning ikkinchi yarmida poytaxt Gurganchda mustaqil amirlik tuzilgan. 995- yilda Gurganch amiri Ma'mun ibn Muhammad poytaxti Kot shahri bo`lgan xorazmshohlarni tormor etib, o`zini Xorazmshoh deb e'lon qilgan. Shu tariqa Gurganch Xorazm davlatining yagona poytaxtiga aylangan.

XI—XII asrlarda bu shaharda madaniyat, ilm-fan rivojlandi. Shahar mustahkam qal'a-devor bilan o`rab olindi.

**1221-yilda Chingizxon hujuminatijasida Ko`hna Urganch shahri taqdiri nima bo`lganligini eslang.**

1646- yilda Abulg`ozixon hozirgi Urganch shahriga asos soldi. Bunga yuqorida qayd etilgan Amudaryoning o`z yo`nalishini o`zgartirib Orol dengizi tomon oqa boshlagani, buning oqibatida Gurganchning (Ko`hna Urganch) suvsiz qolganligi sabab bo`lgan edi. Shundan keyin qadimgi Gurganchning nomi Ko`hna Urganch bo`lib qoldi.

**Vazir shahri**

Vazir Xorazmning shahar-qal'alaridan biri bo`lgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, shayboniylardan bo`lgan Mustafoxon tomonidan XV asr o`rtalarida asos solingan.

XVI asrda shayboniylarning o`zaro urushlari shaharni vayron bo`lishiga olib keigan. 1558- yilda Xivaga kelgan Antoniy Jenkinson bu haqda bunday deb yozgan edi: ,,Vazir shahri keyingi 7 yil mobaynida o`zaro urushlar oqibatida to`rt marta vayron bo`ldi. Shuning uchun ham bu yerda savdogarlar juda kam, borlari ham nochor".

1593—1598- yillarda esa Abdullaxon II harbiy yurishlari chog`ida ham shahar yana vayron etildi.

Abulg`ozixon Yangi Urganchga asos solgach, Vazirning qolgan aholisini ham shu yerga ko`chirgan. Shu tariqa shahar o`z ahamiyatini butunlay yo`qotgan.

**Hunarmandchilik**

Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning 27 sohasi qayd etilgan. Amalda esa, ular bundan-da ko`p bo`lgan.

Hunarmand malakali usta bo`lishi uchun ko`p yil mashaqqatli mehnat qilgan. Odatda, usta o`z kasbini to`ng`ich o`g`liga o`rgatgan. Ayrim hollarda, ishda qo`shimcha kishining mehnati talab qilinsa, chetdan ham shogirdlar qabul qilingan. Shogirdga kasb o`rgatish shartlari va muddatlari yozma shartnomada rasmiylashtirilgan. Shogird hunarmand ustadan oq fotiha olib, o`zining alohida ustaxonasini ochishdan avval hunarmand ustalar oldida o`z mahoratini namoyish etishi kerak bo`lgan. Sinovdan o`tgan shogird shu tariqa ustaxona ochishga ruxsat olardi.

Hunarmandlar o`z uyushmalariga ega edilar. Bu uyushmalar hunarmandlarning faoliyatini tartibga solib turardi. Shu yo`l bilan ularning manfaatini himoya ham qilardi.

Uyushma boshlig`i xonning xazina siyosatini o`tkazuvchi shaxs ham hisoblanardi.

Xiva ustalarining juda oz qismi xususiy ustaxona — do`koniga ega edi. Hunarmand o`z uyida ham do`kon ochishi mumkin edi. Ko`pchilik hunarmandlar xonga va boshqa boylarga tegishli do`konlarni ijaraga olib mehnat qilisharci. Ayrim hunarmandlar buyurtma asosida ham ishlardi.

**Qishloq xo`jaligi**

Xonlik aholisi asosan qishloq xo`jaligi bilan shug`ullangan. Dehqonchilik va u bilan bog`liq bo`lgan chorvachilik qishloq xo`jaligining ikki asosiy sohasi edi.

Dehqonchilikda g`alla, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirish yetakchi o`rin egallagan. Ekinzorlarning yarmidan ortig`ida g`alla yetishtirilgan. G`allachilikda kuzgi bug`doy ekish yetakchi o`rin egallagan. Dehqonlarning don ekinlaridan mo`l hosil olishlariga hatto chet elliklarning ham tan berganligiga tarix guvoh.

Chunonchi, Xivaga kelgan yevropalik sayyohlardan biri aytgan quyidagi so`zlar manbalarda saqlanib qolgan: **„Men Germaniyaning o`zida dalada ishlovchilarning Xivadagidek mirishkorligini ko`rmaganman".** Don ekinlari ichidajo`xori ekish bug`doydan keyin ikkinchi o`rinda turgan. Sholi esa asosan suv ko`p hududlarda yetishtirilgan. Ekinzorlarning 1/5 qismida paxta yetishtirilgan.

Xonlik iqtisodiyotida pillachilik ham muayyan ahamiyatga ega bo`lgan. Poliz mahsulotlari ichida Xorazm qovunining dovrug`i keng yoyilgan edi. Bundan tashqari, xonlikda bog`dorchilik ham dehqonchilikning rivojlangan sohalaridan biri bo`lgan.

## Ichki va tashqi savdo

Xonlikning ichki va tashqi savdosidan davlat xazinasiga durustgina daromad tushgan. Ichki savdo-sotiqda, Xivaning usti yopiq bozori alohida ahamiyatga ega bo`lgan. Bozor yo`lining ikki tarafiga ustaxona-do`konlar qurilgan.

Bozordagi savdo o`rinlaridan foydalanganlik uchun **tagjoy** deb ataluvchi alohida soliq olingan.

Xonlikdan, asosan, qorako`l teri, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari Eron, Hindiston, Xitoy va Turkiya kabi davlatlarga eksport qilingan.

XVI asr oxirlaridan boshlab, Rossiya bilan ham savdo-sotiq birmuncha yo`lga qo`yila boshlandi. Xiva elchilari asosan gazlama va to`qilgan buyumlar olib borishgan. Chunonchi, Xiva elchisi 1620yilda Qozon shahrida 670 kiyimlik mato sotganligi manbalarda qayd etilgan. Rossiyaga gilam, qoqi meva, qorako`l teri, o`simliklardan tayyorlangan bo`yoqlar ham olib borilgan.

Rossiyaning Xiva xonligiga yuborgan elchilariga Xiva mahsulotlarini xarid qilish topshirig`i ham berilgan. Xiva savdogarlari Rossiyaning Nijniy Novgorod yarmarkasida faol qatnasha boshlaganlar.

## Ilm-fan

XVI—XVIII asrning birinchi yarmi Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyoti butunlay to`xtab qolgan emasdi. Bu davrda tarix ilmi o`ziga xos o`rinda turadi. Chunonchi, Xiva xoni Abulg`ozixon Xiva tarixshunosligi maktabiga asos soldi.

Abulg`ozixon fan va madaniyat tarixiga ikki muhim asari („Shajarayi turk" va „Shajarayi tarokima") bilan o`chmas nom qoldirdi.

„Shajarayi turk" asarining 9-bobi bevosita Xorazmning 1512— 1663-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag`ishlangan. Unda aniq tarixiy voqealardan tashqari, turkiy xalqlar an'analari, Xiva va Buxoro munosabatlari jarayoni yoritilgan. Pul muomalasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Abulg`ozixonning yana bir katta xizmati shundan iboratki, u o`z asarlarini oddiy kitobxon uchun turkiy tilda yozgan. Shuning uchun ham ayrim olimlar uning asarlarini yangi o`zbek **till** yozma yodgorligi deb hisoblashadi.

Vengriyaning mashhur sharqshunosi A. Vamberi *„Abulg`oziyning "Shajarayi turk "i uchun butun dunyo undan minnatdor"*, deb yozgan edi.Bu asar bir necha asrlardan beri ko`plab tillarga tarjima qilib kelinmoqda.

Abulg`ozixonning topshirig`i bilan „Dasturul amal" asari ham yozilgan. Afsuski, bu asar muaUifi hamon aniqlangan emas. Ushbu asarda Sohibqiron Amir Temurdan tortib Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan. Har bir hukmdorga qo`lyozmaning bir bo`limi bag`ishlangan.

## Qo`lyozma kitob san'ati

XVI asrda Xiva xonlari saroy kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandi.

Mashhur xattot Hamadoniy 1556-yilda Eshmuhammadxonga **„Shohnoma"ni** miniaturalar uchun ochiq joy qoldirib ko`chirib berdi.

XVII—XVIII asrlarda Xivada Muhammad Yusuf Rojiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund kabi qator usta xattotlar yashab, mehnat qilganlar. Ular she'riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni ko`chirganlar, Har bir kitobni bezashda bir necha soha ustalari ishtirok etganlar. Bular — **qog`oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib, lavvoh, lavha chizuvchilar, miniaturachi rassom** va sahhoflar edilar.

Xiva qo`lyozmalarida Buxoro qo`lyozmasidan farqli o`laroq, mundarija manzarali qilib bezatilmagan.

XVIII asr oxiriga kelib shaharlar hayotida uzoq davom etgan tushkunlik holati barham topdi. XVIII asrning ikkinchi yarmi — XIX asr boshlarida katta ko`lamdagi sug`orish inshootlarining tiklanishi hamda yangilarining bunyod etilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o`sishiga asos bo`ldi. Bu hodisa, o`z navbatida, shaharlarda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning o`sishiga sabab bo`ldi.

Biroq bu o`sishni Yevropa davlatlari iqtisodiyoti taraqqiyoti bilan aslo tenglashtirib bo`lmas edi. Bu davr — G`arbiy Yevropa davlatlari hayotida tub sifat o`zgarishlar davom etayotgan davr edi. Chunonchi, Buyuk Britaniyada boshlangan sanoat to`ntarishi Yevropaning boshqa ilg`or davlatlariga ham yoyilgan, XIX asr o`rtalariga kelganda esa u nihoyasiga yetayotgan edi. Binobarin, Yevropa davlatlarida kapitalistik munosabatlar gurkirab rivojlanayotgan edi.

O`rta Osiyo xonliklarida, jumladan, Xiva xonligi jamiyati hayotida hamon o`rta asr yer egaligi munosabatlari hukmron edi.

## Me'morchilik

XVIII asr oxirida Muhammad Amin hukmronligi davridan boshlab birmuncha siyosiy barqarorlik o`rnatildi. Bu omil Xiva shahrining holatiga ijobiy ta'sir ko`rsatdi. Chunonchi, 1782- yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallandi.

Qayta tiklash ishlaridan tashqari yangi me'moriy obidalar ham qurildi. Masalan, 1765- yilda Sherg`ozixon va Muhammad Amin madrasalari bunyod etildi.

XIX asr boshlarida Xiva xonligi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi. Xon farmoyishi bilan karvonsaroy, usti yopiq bozor va ular oralig`ida 1834-yilda Olloqulixon madrasasi qurilishi tugallandi.

1842- yilda Muhammad Yoqub mehtar rahbarligida Xiva atrofida 6 km uzunlikdagi mustahkam shahar-qal'a devori va uning darvozasi qurib tugallandi. Natijada, xonning shahar tashqarisidagi 2 saroyi ham shahar ichiga kirdi. O`sha paytdan boshlab shahar hududining bu qismi **Dishan qal'a** — Tashqi shahar (qal'a) deb nomlana boshlangan.

Xivaning kichik halqali qal'a-devori bilan o`ralgan qismi **Ichan qal'a** — Ichki shahar (qal'a) deb atalgan.

Xivada XIX asr birinchi yarmiga kelganda jami 2 xon saroyi, 17 masjid, 22 madrasa mavjud bo`lgan.

Ichan qal'a bobolarimizdan qolgan O`rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlikdir. U ming gumbaz shahri nomi bilan mashhur. Ichan qal'a Xiva shahrining ichki qal'a (Shahriston) qismidir.

***.Xiva xonligining tashkil topishi. Ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy hayot.***

Temuriylar davlati tarkibiga kirgan Xorazm vohasi 1505 yilda Shayboniyxon tomonidan bosib olingan bo'lsa, keyinchalik 1510-1512 yillarda esa Eron shohi davlati tarkibiga kirgan. Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lgan Shayx ota avlodlari Dashti qipchoqlik o'zbeklar yo'lboshchisi Elbarsxonga Xorazm taxtini tak-lif qiladilar. Elbarsxon Xorazm poytaxti bo'lgan Urganch shahrini egallab, mustaqil xonlikka asos solgan. 1593 yilda Xivadagi o'zaro urushlardan foydalangan Abdullaxon II Xiva xonligini bosib olgan. 1598 yil Xiva xonligi yana mustaqillika erishadi. Buxoro xoni, Eron shohi tomonidan bosib olingan Xiva xonligida 1763 yildan hokimiyat o'zbek urug'laridan bo'lgan qo'ng'irot sulolasi qo'liga o'tgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Urganchda etti yil ichida to'rt marotaba xon almashganligini ko'ramiz. Bu erda o'zbek urug' boshliqlarining ijtimoiy siyosiy hokimiyatda ta'siri kuchli bo'lib, o'larni asosan qiyot-qo'ng'irot, uyg'ur-nayman, qang'li-qipchoq kabi qabila va urug'larga birlashgan. 4 guruhga asosiy qabilalarga inoqlar rahbarlik qilib ular hatto xonlarga ham bo'ysunishmagan.

XIX asrning boshlariga kelib inoqlar faqat amalda emas balki, rasman ham Xiva taxtini egallashgan. Eltuzarxon Inoq Xiva taxtiga o'tirgan qo'ng'irotlar sulolasining birinchi xoni hisoblanadi. Uning vorisi Muhammad Rahim I Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga etkazgan. Xiva xonligida ham o'sha davrga xos bo'lgan er egaliklari mavjud bo'lib, ular davlat erlari, vaqf er egaligi va xususiy er mulklaridan iborat bo'lgan. Erning katta qismi davlat erlaridan iborat bo'lib, amlok, "mamlakat" yoki "podsholik erlari" deb atalgan. Bunday erlar dehqonlarga bo'lak qilib bo'lib berilgan, dehqonlar u erda ishlab davlatga soliq

to'lab turishgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XVII-XVIII asrlarda feodallar erlarini tortiq sifatida emas, xususiy mulk sifatida sotib olish haqida bitimlar tuzilgan. Bunday erlar “mulki xurri xolis” deb atalib, barcha soliqlardan ozod hisoblangan. Bitim davlat nomidan tuzilganligi uchun qozi huzurida shaxsan xonning o'zi ishtirok etgan va erni sotib olinganligi haqida vasiqalar berilgan.

“Tanho” yerlari xonga yoki davlatga ko'rsatilgan xizmatlari evaziga berilgan. Buni merosga qoldirish mumkin bo'lmagan. Vaqf erlari ham keng tarqalgan bo'lib, sug'oriladigan va aholi yashaydigan erlarning 40%ga yaqinini tashkil etgan. Vaqf erlari ishlab foydalanish uchun ijaraga berilgan. Vaqfing nomlanishiga, turlariga kelsak, soliqlardan ozod etilgan vaqf-oq vaqf, soliq olinadigan er- qora vaqflarga bo'lingan. Xiva xonligida shartli er egaligining o'ziga xos bir turi mavjud bo'lib u “otlik” deb atalgan, bu esa boshqa xonliklarda uchra-maydi. Xiva xonligida foydalanish uchun otliqlarga 30-50 tanop er joriy etilgan. Otliq erini olgan er egasi xon talabi bilan bir otliq askarni qurollantirib xon huzuriga yuborgan. Yerlarni ishlovchi asosan dehqonlar bo'lib, ular davlat dehqon-lari, xususiy erlardagi dehqonlar, vaqf erlaridagi dehqonlar, ersiz dehqonlarga bo'lingan. Xiva xonligida qulchilik mavjud bo'lgan, ulardan uy-ro'zg'or ishlaridagina emas, balki dehqonchilikda ham foydalanganlar. Xonlik iqtisodini asosan dehqonchilik va chorvachilik, hunar-mandchilik va savdo-sotiq tashkil etib, ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin tutgan. Ulardan 11 tasi davlat ahamiyatiga ega edi.

Xonlikning ijtimoiy hayotida yakka xonlikka asoslangan o'rta asr musulmon davlatlarida bo'lganidek, xon va uning a'yonlari katta ijtimoiy huquqlarga ega edi. Saroy amaldorlari, markaziy va mahalliy boshqaruvning yuqori pog'onalarini egallab turgan ijtimoiy tabaqalar, harbiy ma'muriy amaldorlar va mansab egalari katta huquq va imtiyozlarga ega ijtimoiy tabaqa edi.

Daxlsiz huquqlarga, aholining barcha ijtimoiy tabaqalariga katta ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lgan oqsuyak tabaqa mahalliy shayxlar avlodlari xonlikdagi eng nufuzli ijtimoiy tabaqa hisoblanardi. Katta miqdordagi xususiy er mulklarga egalik qilishdan tashqari ular odatda vaqf erlaridan keladigan daromadlarning nazorat qilishda ham ko'pgina imtiyozlarga ega edilar. Ularning huquqlari va imtiyozlari har qanday vaqt va sharoitda ham saqlanib qolinardi.



## Ichan qal'a

Ichan qal'a Dishan qal'adan devor bilan ajralib turadi. Unga Bog`cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan to`rtta darvoza orqali kirilgan.

Xorazm o`lkasi me'morchiligining ajoyib obidalari — madrasa, masjid, saroy va minoralar Ichan qal'ada joylashgan:

Mazkur asrlar davomida Ota darvozadan Polvon darvozagacha katta yo`l o`tkazildi.

**Xiva. Ichan qal'a.**

XVIII asr oxirida Juma masjid qayta qurildi va uning yonida baland minora ham qad ko`tardi.

1840—1842- yillarda ikki qavatli Qutlug` Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqilar qurildi.

Muhammad Rahimxon, Olloqulixon va Muhammad Aminxon hukmronliklari davrida Ichan qal'ada keng ko`lamli yaratuvchilik ishlari amalga oshirildi. Muhtasham saroy, madrasa, maqbaralar barpo etildi. Ko`hna arkdagi saroy qurilishi tugallandi. Yangi va katta Toshhovli saroyi qurildi. Polvon darvozaga yaqin qo`rg`on devorining bir qismi buzilib, o`rniga Olloqulixon karvonsaroyi, madrasasi va timi qurildi. Shuningdek, ajoyib me'morchilik namunasi Pahlavon

Mahmud maqbarasi bunyod etildi. Bundan tashqari, Arab Muhammadxon va Musa To`ra madrasalari ham shu davrda qad ko`tardi.

Muhammad Aminxon esa Ichan qal'aning g`arbiy qismidagi Ko`hna ark yoniga Katta minor nomi bilan mashhur bo`lgan minorani qurdirdi.

Ichan qal'ani bunyod etishda Xiva me'morlari O`rta Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an'ana — inshootlarni ro`paramaro`para qurish usulidan foydalanishgan. Bu usul ,,qo`sh" deb ataladi.

Ichan qal'ani bunyod etishda, bundan tashqari, binolarni alohida ansambl holida qurish an'analariga ham amal qilingan. Masalan, Polvon darvozasi oldidagi bir necha masjid, madrasa, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyi ana shunday o`ziga xos ansamblni tashkil etadi. 1990- yilda Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro`yxatiga kiritilgan va muzeyga aylantirilgan.

**Dishan qal'a**

Dishan — Tashqi qal'a Xiva shahrining rabod qismi hisoblanadi. 1842- yilda Xiva xoni Olloqulixon Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi 6250 metr, balandligi 7—8 metr, devorining qalinligi esa 5—6 metr bo`lgan devor bilan o`ratgan.

Ichan qal'ada 4 darvoza bo`lsa, Dishan qal'a 10 darvozali bo`lgan. Dishan qal aning ko`chalari Ichan qal'aning ko`chalari davomi tarzida qurilgan. Shaharning tim va savdo rastalari Dishan qal'ada joylashtirilgan.

**Hunarmandchilik**

XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asr birinchi yarmida ham avvalgi asrlarda mavjud bo`lgan hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi.

Me'morchilikning yuksalishi kulolchilikda ham o`z ifodasini topdi. Kulollar faqat alohida-alohida buyumlar tayyorlabgina qolmasdan, bir necha yuzlab lagan, tovoq va kosalardan iborat butun bir to`y marosimini o`tkazishga yetadigan to`y majmualarini ham tayyorlaganlar.

Alohida tantanalar uchun maxsus to`y va podshoyi tovoqlar ham tayyorlangan.

XIX asrning 30—40- yillariga oid manbalarda Xivada zargarlik hunari mahorati yetakchi hunarlar qatorida tilga olib o`tilgan. Xivaning bosh taqinchog`i — jig`a O`rta Osiyoning boshqa mintaqalariga ham keng tarqalgan. Isirg`alar feruza va marjonlar, bilaguzuklar esa toshlar bilan bezatilgan. Bilaguzuklar har birining og`irligi 300 grammgacha bo`lgan.

Xiva shahrida hunarmandchilikning yog`och o`ymakorligi, badiiy to`qimachilik, gilamchilik, kashtachilik, naqqoshlik kabi o`nlab turlari ham mavjud bo`lgan.

XIX asrda Xiva yog`och o`ymakorligi maktabi xonlikda oldingi o`rinda turadi. U o`z badiiy yuksakligi bilan ajralib turardi. Bu o`rinda Olloqulixon saroyidagi Toshhovli ayvon ustunlari majmuyi o`zining ko`rkamligi bilan ajralib turadi.

XIX asr o`rtalarida o`ymakori eshik va ustunlar ustasi Polvon Abdusattor o`g`lining nomi ayniqsa shuhrat qozondi.

Xiva shahri ayni paytda XX asr boshlarigacha xonlikda yagona shoyi to`qish markazi bo`lib qoldi.

Hozirgi davrda ham gilam ustida ishlayotgan rassomlar XIX asrning birinchi yarmida yuksak darajada bo`lgan Xorazm amaliy bezagi va san'ati an'analariga tayanadilar.

XIX asrda Xivada matoga gul bosish san'ati o`zining kulrang uyg`unligi va mayda gullari bilan O`rta Osiyoning boshqa gul bosish markazlaridan farq qilib turadi.

**1770- yilda Xiva xonligida qo`ng`irotlar sulolasi hukmronligi o`rnatildi. Ichan qal'a ansambli me'moriy yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olingan muzeyga aylantirilgan.**

**• 1990- yilda esa Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro`yxatiga kiritilgan. 1997- yilda Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan katta ta'mirlash ishlari olib borildi.**


XIX ASR O'RTALARIDA XIVA XONLIGI
KICHIK O'RDA
Emba
QORAQUM
OROL DENGIZI
Raim
Sirdaryo
USTYURT PLATOSI
KASPIY DENGIZI
Oqmachit
QORAQALPOQLAR
Qo'ng'irot
XIVA XONLIGI
Ko'hna Urganch
Urganch
G'azovot
XIVA
Hazorasp
BUXORO XONLIGI
TURKMANLAR
Zarafshon
BUXORO
Chorjo'y
Amudaryo
Ashxobod
Atrek
XUROSON
Astrobod
ERON
Marv
Tajan
Murg'ob
Andxud
AFG'ONISTON
Moymona
Herirud
Hirot
Xiva xonligi
Buxoro xonligi bilan Xiva xonligi o'rtasidagi talash yerlar
Turkman qabilalarining Xiva xonligiga vaqtincha qaram bo'lib qolgan yerlari
Qo'qon xonligi
Xiva xonligiga qaram bo'lgan qozoq yerlari
Buxoro xonligi
Xonliklarning taxminiy chegaralari

**2 - mashg'ulot: 2- soat.**

**– KEYS – STADI**

**O’qitishning keys – texnologiyasi**

**2.2.1. O’qitish texnologiyasi modeli**

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Xiva xonligida madaniyat va san’at.<br>2. Xivaning mashhur yodgorliklari va uning tugallangan ko’rinishga ega bo’lishi.Darvozalar, karvonsaroylar va madrasalar.<br>3. Ichan qal’adagi xon qarorgohi va boshqa muhim ma’muriy binolar. Ulardagi san’at asarlari. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XVIII – XIX asrlarda Xiva xonligida madaniyat va san’at to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| 1. Xiva xonligidagi madaniyat va san’at. To’g’risida tushuncha beradi<br>2. Xivaning mashhur yodgorliklari va uning tugallangan ko’rinishga ega bo’lishi.Darvozalar, karvonsaroylar va madrasalar qurilishlarini izohlaydi.<br>3. Ichan qal’adagi xon qarorgohi va boshqa muhim ma’muriy binolar, ulardagi san’at asarlarini tushuntiradi. | 1. Xiva xonligida madaniyat va san’at haqida gapirib beradilar.<br>2. Xivaning mashhur yodgorliklari va uning tugallangan ko’rinishga ega bo’lishi.Darvozalar, karvonsaroylar va madrasalar qurilishlarini muhokama qiladilar.<br>3. Ichan qal’adagi xon qarorgohi va boshqa muhim ma’muriy binolar. Ulardagi san’at asarlarini aytib beradilar. |

| | |
|---|---|
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 2.2.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayonlari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Xiva xonligida madaniyat va san’at qanday bo’lgan?<br>2. Xivaning mashhur yodgorliklari va uning tugallangan qanday ko’rinishda bo’lgan?<br>3. Ichan qal’adagi xon qarorgohi va | Savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| | boshqa muhim ma’muriy binolar, ulardagi san’at asarlari to’g’risida nimalarni bilasiz? | |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi . | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

## 2-mashg'ulot bo’yicha glossariy

- ✓ **Noib (arabcha — o`rinbosar, yordamchi) — tobe o`lka yoki viloyat hokimi.**
- ✓ **G`ozi — musulmon haq dini uchun kurashuvchi.**
- ✓ **Inoq (turkiycha — ishonch) — O`rta Osiyoda XI — XVIII asrlarda hukm surgan sulolalar saltanatida „maslahatchi", „vazir" ma'nosini anglatgan.**
- ✓ **Lavvoh — sarlavha yozuvchi.**
- ✓ **Muzahhib — oltin suvni yurituvchi.**
- ✓ **Sahhof — muqovalovchi.**
- ✓ **Navkar (forscha) — harbiy xizmatchi.**

✓ **Qo`ng`irot — yirik o`zbek qabilalaridan birining nomi.**

✓

**3 – mashg'ulot: 2 – soat.**

**Reja:**

4. Qo’qon xonligida madaniyat va san’at.
5. Shahar markazida bozor va guzarlar, juma masjidi hamda chorrahalarda katta bo’lmagan karvonsaroylar.
6. Qo’qon xonligi me’morchiligida loy va paxsaning ishlatilishi.

**Hunarmandchilik**

Xonlik hujjatlariga ko`ra, Qo`qonda hunarmandchilikning miskar, zargar, o`ymakor, kulol, qog`ozgar, to`qimachi, do`ppi tikuvchi, kashtachi, ko`priksoz, temirchi, novvoy, aravasoz, baxmalbof, bo`yoqchi, dorukash, devorzan, degrez, ko`nchi, miltiqsoz, nayzagar, panjarasoz, pillakash, po`stindo`z, taqachi, paranjido`z, chevar, chitgar, gilamchi kabi turlari bo`lgan.

Xonlikda oltin ma'dani Kosonsoy (Namangan)dan, Qoratog` shimolidagi Ko`krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo`ylaridan, Chotqol daryosi yuqori oqimlaridan olingan.

Samarqandda bo`lganidek, Qo`qon xonligida ham qog`oz ishlab chiqarilgan. Qog`oz juvozxonasi Qo`qon shahrining Mo`yi muborak darvozasi orqasida maqbara yonida joylashgan.

**Savdo**

Qo`qonga qo`shni shaharlar va xorijiy mamlakatlardan savdogarlar kelib turgan. Shaharda yakshanba va chorshanba kunlari bozor bo`lgan.

Qo`qon xonligining iqtisodiy hayotida Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qashg`ar, Hindiston, Afg`oniston, Eron va ayniqsa Rossiya bilan bo`lgan savdo katta o`rinni egallagan. Masalan, Qashg`ar bilan olib borilgan savdo-sotiq faqat Qo`qon orqali bo`lar edi. Qo`qondan Qashg`argacha yuklangan ot karvoni 14 — 20 kun yo`l yurgan. Qo`qondan Qashg`arga temir, qizil charm, mato, ipak va ipdan to`qilgan matolar, oltin olib borilgan. Qashg`ardan Qo`qonga esa har yili 30000 otda choy, 200 otda mato, 200 otda qimmatbaho toshlar, 50 otda attorlik buyumlari keltirilgan.

Qo`qon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Qashg`ar, Buxoro amirligi, Afg`oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar ayirboshlanardi. Qo`qonga savdogarlar karvon yo`llari orqali kelganlar.

Xonlikning bosh shahri Qo`qon edi. Tarixiy manbalarda Qo`qonga oid ma'lumotlar X asrdan boshlab uchraydi. Qo`qonning yoshi 2000 yildan ortiqdir. Ma'lumotlarda ,,Havoqand", ,,Ho`qand" degan nomlar bilan qayd etilgan. ,,Havoqand" so`zi — ,,go`zal", ,,yoqimli", ,,xushmanzara", ,,shamol shahri" degan ma'noni anglatadi, degan fikrlar ham mavjud. Mahalliy aholi o`z shahrini Ho`qandilatif yoki Qo`qon deb aytganlar. Qo`qon shahri XVIII — XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda O`rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi.

Qo`qon mustahkam devor bilan o`ralgan. Shaharga 12 darvozadan kirilgan. Shaharning 12 darvozali bo`lishiga sabab — uning ma'muriy jihatdan 12 dahaga bo`linganligi edi. Bu davrda shaharda 30000 aholi yashagan. XIX asr o`rtalarida Qo`qondagi madrasalar ichida Madalixon, Norbo`tabek, Jome, Hojimoyim, Xoja dodxoh, Mingoyim madrasalari alohida ajralib turadi. Ularning har birida 38 dan 100 tagacha hujrasi bo`lgan.

Qo`qon shahri xonlikning siyosiy, madaniy, iqtisodiy va diniy markazi edi.

**Marg`ilon**

Marg`ilon (Marg`inon) shahriga bundan 2000 yil avval asos solingan. Marg`ilondagi Sulton Murodbek saroyi Toshkent yoki Samarqandning badavlat xonadonidan uncha farq qilmasdi. Shahar devor bilan o`ralgan edi. Marg`ilon Qo`qon xonligidagi pilla sotiladigan asosiy bozor markazi edi. Shaharda ko`plab pillakashlik va shoyi to`qish ustaxonalari bor edi.

Umuman, Qo`qon xonligidagi shaharlar bir xilda bo`lib, ular bir-biridan aholisi, madrasa va masjidlarining soni, mahsulotining sifati bilangina farq qilardi. U yoki bu shaharning ahamiyati uning strategik mavqeyi bilan belgilanardi. Katta shaharlarga xonning o`g`illari yoki yaqin qarindoshlari hokim etib tayinlanardi. Qolgan shaharlarni o`zbek, tojik, qirg`iz, qipchoq va qozoq zodagonlarining vakillari boshqargan.

**Andijon**

Andijon ,,Buyuk ipak yo`li"da tashkil topgan. Ayrim manbalarda shahar nomi ,,andi", - ,,adoq" kabi urug` atamalari bilan bog`liqligi ko`rsatilgan. Arablar istilo qilgan davrda shahar ,,Andukon" deb atalgan, degan rivoyat ham bor. Andijon XV asrdan boshlab Faig`ona vodiysining markazi bo`lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur davrida Andijonda xo`jalik, fan va madaniyat ravnaq topgan. U ,,Boburnoma"da Andijon haqida bunday deb yozgan edi: ,,Oshlig`i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo`lur...

Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo`rg`onidin so`ngra mundin ulug`roq qo`rg`on yo`qtur. Uch darvozasi bor. To`qqiz tarnov suv kirar".

Qo`qon xonligi tashkil topgach endi u Andijon bekligining markazi bo`lib qolgan. Andijon 4 dahaga bo`lingan edi. Har dahaning qozisi, mingboshisi bo`lgan. Dahalar oqsoqol boshliq mahallalaiga bo`lingan.

**Namangan**

Namangan shahri ham xonlikning yirik shaharlaridan biri edi. 1620- yilda Farg`onaning qadimgi poytaxti Axsikant qattiq zilzila oqibatida vayron bo`lganligi uchun aholi Namangan atrofiga ko`chgan. Namangan tuz koni („namak kon") yaqinida qurilgan edi. Uning nomi manbalarda XVII asrdan boshlab uchraydi. XVIII asrda Qo`qon xonligi hududiga kirgan. Beklik markazi bo`lgan. Namangan aholisi hunarmandchilik bilan shug`ullangan.

1819 — 1822- yillarda Namangan aholisi kuchi bilan katta Yangi ariq kanali qazilib, shaharning suv ta'minoti yaxshilangan. 1842 — 1845- yillarda shahar baland devor bilan o`ralgan.

Qo`qon xonligida madaniyat ham rivojlanib bordi. Shahar va qishloqlarda ko`plab maktab, madrasa va masjidlar qurilib, yoshlar o`qitilgan, ularga hunar o`rgatilgan. Qo`qonda 120 ta maktab, 40 ta madrasa va masjid, Marg`ilonda 80 ta maktab, 10 ta madrasa va masjidning faoliyat yuritganligi buning guvohidir.

Qo`qon xoni Umarxon ilm, madaniyat, san'at, adabiyot rivojiga, madrasalarda o`qish-o`qitish ishlarini yaxshilashga, turli kasb-hunar maktablarining ochilishiga e'tibor bergan, qo`llab-quvvatlagan.

Umarxon sa'y-harakatlari natijasida Qo`qonda XIX asr boshlarida o`ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga keladi. Uning asoschisi ma'rifatparvar hukindor va hassos shoir Umarxon (1787 — 1822) edi. Qo`qon ilmiy-madaniy muhitining rivojida Umarxonning umr yo`ldoshi, mashhur shoira Nodirabegimning hissasi katta bo`ldi.

Umarxon Amiriy taxallusi bilan ko`plab she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig`ilgan. 1821- yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rlarini o`z ichiga olgan ,,Majmuayi shoiron" to`plamini tuzgan. 10 ming misradan ortiq o`zbek, fors-tojik tilidagi g`azal, muxammas, tuyuqjanrlaridagi she'rlar to`plangan devon yaratilgan.

Arab va fors tillaridagi kitoblar o`zbek tiliga tarjima qilindi. Noyob kitoblar iste'dodli xattotlar tomonidan ko`chirildi, nozik tasvirlar bilan bezatildi. Amiriy o`zbek va fors tillarida she'rlar yozdi. Uning g`azallar devoni 1882-yilda Istanbulda, 1905-yilda Toshkentda chop etildi.

**Maxmur va Gulxaniy**

Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri Maxmur (asl ismi Mahmud) XVIII asr oxirida tug`ilib, 1844-yili vafot etgan. Qo`qondagi Madrasayi Mirda o`qigan, keyin Amir Umarxon qo`shinida sipohiylik qilgan. Maxmurning hajviy she'rlar devoni saqlangan bo`lib, unda 69 asr (3717 misra) jamlangan. She'rlarida xalqqajabr yetkazgan amaldorlarni keskin tanqid ostiga oladi. U milliy adabiyotda ijtimoiy hajviyani yuksak pog`onaga ko`taradi. ,,Hapalak" she'rida Hapalak qishlog`idagi manzarani aks ettirsa-da, aslida bu she'r butun xonlik hududidagi manzarani ifodalar edi. Mazkur she'rda quyidagi satrlar bitilgan edi:

*Xalqini ko`rsang agar, o`lasi-yu qoq-u xarob,*

*Ochligidan egilib, qomati misli kamalak.*

*Bori yo`q uylarini banda bayon gar qilsam,*

*Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to`rt katalak.*

O`zbek mumtoz adabiyotining tanqidiy yo`nalishini rivojlantirgan Maxmur merosi keyingi davrdagi qalam ahlining hajviygo`ylik ijodiga samarali ta'sir ko`rsatdi.

Bu davr adabiyotining yana bir yirik namoyandasi Gulxaniy (Muhammad Sharif) bo`lgan. U 1770-yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug`ilgan. Boshlang`ich ta'limni qishlog`ida olgan. Muhtojlik oqibatida Namanganga kelib mardikorlik qilgan. Keyinchalik Qo`qonda istiqomat qiladi. Bu yerda hammomda go`lax (o`t yoquvchi) bo`lib ishlaydi. Shu boisdan ,,Gulxaniy" taxallusi bilan ijod qilgan.

Gulxaniy o`zbek adabiyotida poeziyaga masalni mustaqil janr sifatida birinchi bo`lib kiritgan ijodkor edi. Gulxaniyning butun sharq adabiyotida mashhur hisoblangan asari ,,Zarbulmasal"dir. Asardagi ,,Maymun va Najjor", ,,Tuya bilan Bo`taloq", ,,Toshbaqa bilan Chayon" kabi masallari chuqur axloqiy-ta'limiy ahamiyatga ega.

Asardagi Yapaloqqush va Boyo`g`li, Ko`rqush va Hudhud, Kulonkir sulton va Malik shohinlarning o`zaro murakkab munosabatlari asosida o`z davri ijtimoiy hayotining haqiqiy manzarasini tanqidiy ifodalab beradi.

**Uvaysiy**

Qo`qon adabiy muhitini Jahon otin — taxallusi Uvaysiy (1780—1841) va Mohlaroyim — Nodiralar ijodisiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

Uvaysiy oilasi o`z davrining ilg`or va ma'rifatli oilalaridan edi. Otasi ham o`zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oiladagi muhit Uvaysiyda ijod qobiliyatini yuzaga chiqardi. Uvaysiy Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz va Jomiy ijodlarini qunt bilan o`rgandi.

Amir Umarxon Marg`ilon hokimi bo`lib turgan yillarda (1806 — 1807) Uvaysiy el orasida tanilgan shoira edi. Undagi shoiralik iste'dodi Umarxonning xotini Nodirani o`ziga rom etgan. Umarxon Qo`qon taxtiga o`tirgach, Uvaysiy Qo`qonga taklif etilgan. Bu yerda u juda ko`p yoshlarga murabbiylik qilgan. Nodira bilan ijodiy hamkorligi qaror topgan.

Uning ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. Uvaysiyning adabiy merosida 269 g`azal, 29 muxammas, 3 doston va boshqalar bor. Asarlarida insonni e'zozlash, do`stlik, vafo, sadoqat g`oyalari, el-yurt dardi, xalq hasrati kuylanadi. Uvaysiy ijodining yuksak badiiyligini uning anor haqidagi quyidagi she'ri misolida yaqqol ko`rish mumkin:

*Bu na gumbazdir, eshigi, tuynigidan yo`q nishon,*

*Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur makon.*

*Tuynigin ochib, alarning holidan olsam xabar,*

*Yuzlarida par da tortug`liq tururlar, bag`ri qon.*

**Mohlaroyim — Nodira**

O`zbek shoirasi, ma'rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim — Nodira (1792 — 1842) Andijonda tug`ilgan. Otasi Rahmonqulbiy Andijon hokimi bo`lib, Qo`qon xoni Olimxonning tog`asi edi.

Umarxon Marg`ilonga hokim etib tayinlanganidan keyin Nodiraga uylangan. Nodira Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh bolalar va kanizaklarni o`qitish uchun muallimlikka taklif etadi. Nodira 14 yoshli o`g`li Muhammad Alixon taxtga o`tirgach, davlatni idora etishda faol ishtirok etadi, madrasalar qurdiradi.

Nodira olimlar, xattot va naqqoshlarni Qo`qonga to`plagan, ko`p kitoblarni qayta ko`chirtirgan. Kitob muqovasining did bilan ishlanishiga e'tibor beradi. Yaxshi xattotlarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdon sovg`a qilgan.

Nodiraning o`zi ham o`zbek, ham tojik tillarida ijod qilgan. Mohlaroyim Nodira taxallusida 180 she'rjamlangan devon, Komila taxallusida 19 g`azal, Maknuna taxallusida 333 g`azaldan iborat devon yozgan. Nodiradan 10 ming misraga yaqin lirik adabiy meros qolgan. Uning she'riyati asosini lirika tashkil etadi. She'rlarida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda, Sharq xotinqizlarining dard-alamlari, oh-fig`onlari kuylanadi.



Bundan tashqari, Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g`azallariga muxammaslar ham yozgan.

**Mashrab. (O`zbekiston xalq rassomi D. Imomov asari)**
**Boborahim Mashrab**

Qo`qon xonligida ijod qilgan ulug` insonlardan biri iste'dodli va isyonkor shoir Boborahim Mashrab edi (1640 — 1711). U Namanganda tug`ilgan. 7 yoshligida xat-savodi chiqqan. 15 yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshlagan. 18 yil davomida dunyoning juda ko`p mamlakatlarini kezib chiqqan.

Mashrab o`z she'rlarida hukmron tabaqalarining mehnatkash xalqqa o`tkazgan jabr-zulmlarni, ochko`zligini ba'zi ruhoniylarning, eshonlarning avom xalq ruhini do`zax va oxirat azoblari bilan dahshatga solayotganligini ayovsiz fosh etadi. Xalqning og`ir, ayanchli ahvoliga achinadi. Mashrab bitgan quyidagi satrlar buning dalilidir.

*Dili tig`i sitamdin pom bo`lg`on xalqni ko`rdim,*

*Tani dard-u alamdan yora bo`Ig`on xalqni ko`rdim.*

Mashrab asarlari to`plangan devon haqida manba topilmagan. Uning ,,Devoni Mashrab", ,,Devonayi Mashrab", ,,Eshoni Mashrab" nomlari ostida xalq orasida tarqalgan qo`lyozma va toshbosma shaklidagi qissalarl qolgan.

Mashrab dinga shak keltirganlikda ayblanadi va 1711-yili g`animlarning ig`vosi bilan Balx hokimi Mahmudbiy Qatag`on tomonidan o`limga hukm etiladi.

## Tarixnavislik, san'at va me'morchilik

### Tarixnavislik

XVIII - XIX asrlarda Qo`qon xonligida ko`plab tarixiy asarlar yaratilgan. Mazkur davr tarixchilaridan Abdulkarim Fazliy Namangoniy Amir Umarxonning topshirig`iga binoan ,,Shohnoma" masnaviysini yozib tugatgan (1822). U 5000 baytdan iborat tarixiy asardir. Yana ,,Majmuayi shoiron" tazkirasida ham uning ijtimoiy qarashlari o`z ifodasini topgan.

Xon saroyida qoziaskar lavozimida ishlagan Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy Amir Umarxonning maslahati bilan ,,Shohnomayi Umarxon" tarixiy asarini yozgan.

Umarxon davrining ko`zga ko`ringan tarixchisi Muhammad Hakimxon To`ra ibn Sayid Ma'sumxon (1802 — 1870) dir. U ona tomondan Qo`qon xoni Norbo`tabekning nabirasidir. Muhammad Alixon davrida quvg`inga uchrab Rossiyaga, Sharq mamlakatlariga sayohat qilishga majbur bo`lgan. Umrining oxirida Shahrisabzda yashab, shu yerda o`zining ,,Muntaxab ut-tavorix"

(Saralangan tarixlar) asarini yozadi. Bu asar Buxoro amirligi va Qo`qon xonligi tarixiga doir muhim manbalardandir. Unda O`rta Osiyo xalqlarining ijtimoiysiyosiy va madaniy hayotiga doir qimmatli ma'lumotlar mayjud.

Umarxon davrining yana bir yetuk tarixshunosi Mulla Niyoz Muhammad Ho`qandiy (1802 — 1872)dir. Harbiy lavozimlarda ishlagan va XIX asrning 70-yillarida „ Tarixi Shohruhiy" asarini yozadi. Asarda olim davrning siyosiy ahvoli va xalqning ijtimoiy turmushiga to`g`ri baho bera olgan. Unda 1872-yilgacha bo`lgan, ko`pincha o`z ko`zi bilan ko`rgan va bo`lgan voqealarni bayon etadi.

Umarxon davridan 1872-yilgacha bo`lgan tarixiy voqealarning bayonidan iborat bo`lgan yana bir tarixiy asar ,,Tarixi jahonnomayi" deb nomlanadi. Uning muallifi Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro`zimuhammad o`g`li (XVIII asr oxiri — XIX asr o`rtalari)dir.

Toshkentlik tarixchi olim Muhammad Solihning ,,Tarixi jadidayi Toshkand" (Toshkentning yangi tarixi) asari Vatanimiz tarixini o`rganishda muhim manbadir. U XV—XIX asrlar Turkiston tarixi, jumladan, Toshkent tarixi, Qo`qon xonligi tarixi ilmiy nuqtayi nazardan yozilgan qimmatli asardir.

Yana bir tarixchi Mulla Ali qori Qunduziy (1786— 1858) ,,Tavorixi manzuma" asarini yozgan. Asarda 1822 — 1848-yillar tarixi bayon etilgan.

Ma'rifatparvar shoira va tarixchi olima Dilshodi Barno ,,Tarixi muhojiran" (Muhojirlar tarixi), „Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron" (Inson matonati va muhojirlar tarixi) kabi asarlar yozib qoldirgan.

**San'at**

Qo`qonda xattotlik san'ati va me'morchilik ham rivojlangan. Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abulg`ozixoja kabi xattotlarning kitob ko`chirish borasida o`zlari amalga oshirgan xayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi. Kitoblar shunday did bilan ko`chirilganki, xorijiy mamlakatlar shohlari uchun elchilariga ana shunday nafis ko`chirilgan kitoblarni tortiq qilish xonlikda odatga aylangan edi.

**Me'morchilik**

Qo`qonda me'morchilik rivojlanib bordi. Buxorodan bir guruh binokorlar taklif etilib, ko`plab madrasa, masjid, maqbara,

karvonsaroy, ko`prik va muhtasham binolar bunyod etiladi. Xalq orasida Madrasayi Mir nomi bilan mashhur bo`lgan Norbo`tabiy madrasasi, Daxmayi Jahon ansambli, Norbo`tabiy va Modarixon daxmalari hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Umarxon Turkiston va uning atroflarini Oroldan Yettisuvgacha egallab, Oqmasjid (Qizil O`rda), Avliyoota (Jambul), Pishpak (Bishkak) qal'alaririi

bunyod etdi. Qo`qonda va boshqa shaharlarda ko`plab binolar qurilgan. Norbo`tabiy madrasasi (1798), Madalixon madrasasi, Madrasayi Kamol qozi (1820), Madrasayi Tunqotar, Madrasayi Haqquli mingboshi (1825), Madrasayi Miyon hazrat, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Hakim To`ra (1795), Madrasayi Xonxoja eshon (1789), Madrasayi Buzrukxoja (1801), Madrasayi Pirmuhammad yasovul (1802), Madrasayi Xojabek (1805), Madrasayi Oxund devonbegi (1805), Madrasayi Mingoyim (1802), Madrasayi Jome (1817) shularjumlasidandir.

XIX asrning birinchi yarmida Toshkentda ham muhtasham me'moriy-diniy inshootlar qurilishi, eskilarini ta'mirlash ishlari keng ko`lamda olib borildi. Baroqxon va Ko`kaldosh madrasalari qayta ta'mirlandi. Shayx Xovondu Tohur me'moriy majmuasi hozirgi ko`rinishda shakllantirildi. Zayniddin bobo uchun yangi maqbara qad ko`tardi. Yunusxo`ja qarorgohi Eski O`rda buzilgani sababli yangi markaz — Qo`qon O`rdasi bunyod etildi.

***.Qo'qon xonligining tashkil topishi uning ijtimoiy-siyosiy hayoti.***

Qo'qon xonligi. Buxoro taxtiga o'tirgan, Ubaydullaxon hukmronligi davrida (1702-1712) xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashib, markaziy hokimiyat yanada zaiflashgan. Bundan foydalangan Chodak xo'jalari 1709 yilda Farg'onada qo'zg'olon ko'tarib, mustaqil davlat tuzilganligini e'lon qiladi va 1710 yilda o'zbeklarning ming qabilasi boshlig'i Shohruxbiy hokimiyat tepasiga kela-di. Dastlab qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ular atrofidagi qishloqlarni o'z ichiga olgan davlat hududi Shohruhbiyning vorisi Muhammad Abdurahimbiy taxtga o'tirgandan so'ng ancha kengayadi. Andijon, Xo'jand, Buxoroga tegishli Samarqand va Kattaqo'rg'on shahari xonlik tarkibiga kiritiladi. Qo'qon qishlog'i yaqinida yangi shahar qurila boshlangan. Bu shahar dastlab «Kal'ai Rahimbiy» deb atalgan. Shahar bitgandan so'ng davlat poytaxti To'raqo'rg'ondan qo'qonga ko'chiriladi va davlat poytaxt nomi bilan Qo'qon xonligi deb atala boshlanadi.

Olimbek davrida (1801-1810) Qo'qonning siyosiy mavqei ancha oshgan. Dastlab u harbiy islohotlar o'tkazib, qo'shinini ancha kuchaytirgan. Harbiy yurishlar natijasida Angren vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundirgan. Dastlab davlat hukmdori o'zlarini “biy” va “bek” unvonlari bilan davlatni boshqarishgan.

1805 yildan bu davlat rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilindi va Olimxon “xon” unvoni bilan hokimiyatni boshqargan. Xonlik tarixida «amir-ul-musulimin» unvoni bilan hukmronlik qilgan Umarxon, uning o'g'li Madalixon “g'ozi” (ya'ni din homiysi, din yo'lida kurashuvchi) kabi ko'plab hukmronlari davlatni boshqargani ma'lum.

Qo'qon xonligi er egaligi ishlab chiqarishga asoslangan davlat bo'lib, ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyat hayotidagi mavqei qo'shni Buxoro xonligidan farq qilmagan. Davlatda xon va uning yaqinlari markaziy va mahalliy

boshqaruvni amalga oshirgan. Vaziri ul-vuzaro, amir ul-umaro deb nomlangan ijtimoiy tabaqaning, harbiy-ma'muriy amaldorlarning mavqei juda yuqori bo'lgan. Bu amaldorlar o'z xizmatlari evaziga muayyan maosh olishdan tashqari er mulklariga ham ega bo'lganlar.

Ruhoniylar, ma'lum darajada erlari bo'lgan dehqonlar, savdo-garlar, hunarmandlar to'la huquqlarga ega edi. Past huquqiy holatga ega bo'lgan ersiz dehqonlar va qisman qullar ham mavjud edi. qaram holatiga tushib qolgan dehqonlar ham ko'pchilikni tashkil etardi. Ayniqsa Toshkentda er egalarining er, bog'larni ishlab berganlar “qora qozonlar” deb atalgan, xonlikda yollanib ishlash ham tarqala boshlagan. Qo'qon xonligida xonlarning er mulklarining o'ziga xos shakllari ham mavjud bo'lgan.

Xon va uning oila a'zolariga tegishli yerlar quyidagi shakl-larda bo'lgan.
1. Xos mulki – undan keladigan daromadlar xon saroyi va soqchilarga sarf qilingan.

2. Taqiq yerlar yoki quruq yerlar. Bunday yerlar ilgari barchaga, jamoaga tegishli haydalmaydigan dalalar, o'tloqlar, qamishzor va chakalakzorlarni xonlar o'zlariniki qilib olishlari natijasida vujudga kelgan.

3. Chek yerlar. Xon va uning oila a'zolari tasarufidagi yerlar.

Bulardan tashqari amlok erlar ya'ni davlat erlari hamda “mulki hur xolis” yerlar (bunday yer egaligi davlatga tegishli yerlar-ni xususiy kishilarga sotish) vujudga kelgan. Yirik yer egalari, boylar yerlarni sotib olib, undan davlat xazinasiga soliq to'lamas-dan, shu yerda ishlovchi dehqonlarni boshqarish huquqini qo'lga kiritgan Davlat boshlig'i bunday erlarni sotishda yer egasi sifatida qatnashgan, ular vasiqalar orqali rasmiylashtirilgan.

Xonlikda yer egaligining “tanho” shakli ham keng tarqalgan bo'lib, bunday yerlar xonga xizmat qiladigan askarlarga shartli xizmat muddatiga yer berilgan. Bunday erlarni boshqalarga sotish, berish, meros qoldirish mumkin bo'lmagan. Shuningdek bu xonlikda ham xususiy va jamoa egaligidagi yerlar, vaqf yerlari mavjud bo'lgan. Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi tizimi Movoraunnahrdagi o'rta asrlardagi davlatlar boshqaruv tizimiga juda o'xshash bo'lgan. Xonlikda mutlaq huquqlarga ega bo'lgan va qadimgi odatlarga ko'ra, saylanib qo'yiladigan xon cheklanmagan huquqlarga ega bo'lib, u harbiy-ma'muriy, diniy amaldorlar yordamida davlatni boshqargan. Dastlabki hukmdorlar «biy» unvoni bilan hokimiyatni boshqargan, Olimxon davridan (1805) esa «xon» unvoni bilan yuritila boshlagan.

Xon saroyida muhim ishlarni ko'rib chiqadigan Kengash tuzilgan bo'lib, unga “mingboshi” boshchilik qilgan. A'zolari dasturxonchi, risolachi va yana ba'zi muhim amaldorlar bo'lgan. Davlatni boshqarishda bu Kengashning ham o'rni katta edi. Saroy amaldorlari ichida ming boshi (bosh vazir) va amiri lashkar (harbiy vazir), qush-begi – xon maslahatchi yoki viloyat hokimi, parvonachi

(xon maslahatchisi), shig'ovul, xudoychi xonning yordamchisi, tunqator, xon yotog'i posboni, tundan topshiriqlarni bajaruvchi, noib (sarbozlar boshli-g'i) otaliq, dodxoh, mextar boshi, dasturxonchi, to'qsoba, devonbegi, mirzaboshi, sarkor va boshqa muhim amaldorlar hisoblanganlar. Ular o'z xizmatlari evaziga maosh va tegishli er mulklari olishgan. Mansablardan amirlashkar va mingboshilikka bir kishi tayin-langan. Bulardan tashqari shariat, sud ishlariga oid mansabdor muddaris, Shayx ul islom (rais), Oliy sud- qoziul kuzot, qozi-kalon bosh qozi, katta qozi, qozi askar, maxsus qozi, a'lam (huquqiy-maslahatchilar boshlig'i), mufti va boshqa mansabdorlar bo'lgan. Bu mansablarni ishga tayinlash va faoliyati ustidan nazorat qiluvchi mansabdor shaxs “shig'ovul” deb atalgan. qo'qon xonligidagi barcha mansablar uch toifaga oliy, o'rta va past darajalarga ajratilgan.

Qo'qon xonligining asosiy hududini Farg'ona vodiysi, Tosh-kent viloyati, Xo'jand, O'ratepa, Janubiy Qozog'iston va hozirgi Qirg'iziston Respublikalari tashkil qilgan. Xonlik ma'muriy jihatdan bekliklarga bo'linib boshqarilgan. Ularning ko'pchiligi turli davrlarda xonlik tarkibiga kirib chiqib turgan. Asosiy bekliklar sifatida Namangan, Marg'ilon, Andijon, To'raqo'rg'on, O'sh, O'ratepa, Xo'jand, Toshkent, Turkiston, Chimkent va boshqalar bo'lgan. Bekliklar xon tomonidan tayinlanadigan hokim – qushbegi tomonidan boshqariladigan, kichik ma'muriy birliklar amin va oqsoqoliklarga bo'lingan. Xonlik qo'shinlari o'sha davr qonun-qoidalari asosida 10 minglik, minglik, yuzliklarga bo'lingan. harbiy ma'muriy amal-dorlar ichida yirik shaharlar va bekliklar hokimlari- qushbegilar Oliy harbiy amaldorlar hisoblanib, ularning har biri o'z qo'shiniga ega bo'lgan.

## XVIII-XIX asrlarda Qo`qon xonligining madaniy hayoti.

## Qo`qon xonligida adabiyot va san`atning rivojlanishi.

XVI –XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyo xonliklarining xalq talimi, fan va ma`daniyati haqida gap borganda shuni alohida takidlash kerakki, ijtimoiy siyosiy hayotning hamma sohalarida birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g`oyasi markaziy o`rinni egallar edi. O`z boshlang`ich nuqtasini X-XII asrlardan e`tiboran olgan sofiylik tariqati naqshbandlik g`oyasi bilan uyg`unlik negizida XV asrga kelib eng yuksak cho`qqiga ko`tariladi, to XX asrdagi siyosiy to`lqin va lahzalar davriga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy ro`l o`ynaydi. [1] XVI –XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo`lgan umumiy o`xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o`xshashliklarning sabablari h am bir-biriga juda o`xshashdirlar.

[1] R.Shamsuddinov Sh Karimov O` Ubaydullayev Vatan tarixi T. Sharq 2010 119-bet

Birinchidan, O`rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o`rinlarda turgan bo`lsa, XVI-XVIIasrlardan boshlab bu hududda tushkunlik boshlanadi. Ikkinchidan, har uchala davlat birliklari o`zlari alohida mustaqil faoliyat ko`rsatsalarda davlat idora ishlari o`zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo`qonda fors-o`zbek, Xivada o`zbek tili rasman davlat tili hisoblanardi.

Uchinchidan, an`anaga ko`ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro`si saqlanib qolgandi.

Buxoro amirligi Qo`qon va Xiva xonliklarida xalq ta`limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo`lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qo`riqxonalar mavjud edi.

Madrasalar musulmonlar uchun oliy o`quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o`rtasida esa Xonzoda va zodagonlarniong bolalarini o`qitish uchun maxsus maktab bor edi.

Odatda maktablarda asosan o`qish va yozish arifmetika va adabiyot o`qitilar edi. Qo`riqxonalarda esa asosan ko`zi ojizlar o`qib, hunar, doston va she`rlaru g`azallar yodlash edilar.

Maktablar qizlar uchun alohida, o`g`il bolalar uchun alohida bo`lgan. Masalan, mashhur shoira Dilshoda Qo`qonda maktab ochgan. U o`zining maktabdorlik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi: "Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste`dodli shoiralar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yilda o`rtacha 20tadan 30tagacha o`quvchilarim bo`lib, sakkiz yuz to`qsonta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi, she`riyatga qobiliyatli bo`lib, shoira va o`z davrining aqilli va dono odamlari edi.[2]

Qo`qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan ko`proq maktablar bo`lgan. Shuning uchun savodlilar ko`p bo`lib, o`qish va yozishga usta bo`lganlar. 1841-yilgi ma`lumotlarga qaraganda, Qo`qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000ta mulla o`qigan. Bu madrasani ikkita bosh muzarrix boshqargan: Eshon Mavloniy va Maxzumi Buxoriy.bu hurmatli insonlar bo`lib katta ilmga ega edilar.

Har bir maktabdor domlaning ham o`zicha o`qitish usullar bo`lgan. Ularning bazilari bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e`tibor bergan holda kichik yoshdagi o`quvchilarga husnixat va og`zaki hisobni o`rgatsa, katta yoshdagi o`quvchilarga esa Quronning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o`nlab hayotiy kitoblarni ham o`qishni o`rgatar edi.

---

[2] Muxtorov.А.Дилшод и его место в истории оьшественной мисли тадомского народа в XIX кагом XX в.в. 301 стр

O`zbekiston hududidagi xonliklar va amirliklar davrida fan, adabiyot, san`at birmuncha rivojlangan. Ko`proq xon saroylari doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilgan.[3] Tarixshunoslik ham ancha rivojlangan. Garchi bu davrdagi tarixchi olimlar yozgan tarix kitoblar ko`pincha o`sha xonlik va amirliklardagi siyosiy voqealar salnomasiga aylanib qolgan bo`lsa ham biz uchun bugungu kunda o`sha davrni yoritishda muhim ahamiyatga molikdir.

Adabiyot sohasida juda ko`plab shoir va shoiralar ijod etadilar. Qo`qon xoni Umarxonning o`zi "Amiriy" taxallusi bilan o`zbek tilida go`zal g`azallar yozgan.

Ko`rilayotgan davrda fan va madaniyat har xolda bit yerda to`xtab qolmagan. Yuqorida bizlar takidlagan qurilishlar ayniqsa, madrasalar bunyodi shunga ishoradir. Sovet davri tarixshunosligi iloji boricha XVIII-XIX asrlarda o`zbek xalqining bu sohalaridagi tarixini bo`yab ko`rsatishga intilib, o`lkani madaniy qoloqlikda ayblab, bu bilan Rossiya bosqinining "O`zbekiston uchun progressiv ahamiyatini " isbotlashga atayin harakat qilgan. [4]

O`tgan sulolalar kabi mang`itlar, qo`ng`irotlar minglardan chiqqan namoyondalar ham o`z davri va doiralarining o`qimishli shaxslari bo`lganlar. Masalann Qo`qon xoni Umarning "Amiriy", Malika Mohlaroyning "Nodira" , "Komila", "Maknuna", Xiva xoni Muxammad Raximxon II "Feruz" , Uning akasi Otajon To`ra Murod "Murodiy" taxallusida she`r bitganlarini, Abdulg`oziy Bahodirxonning "Shajarai Turk ", "Shajarai Tarokima " kabi o`zbek tilida yozgan asarlarini shu o`rinda eslash joiz.

Fazliy, Mushrif, G`oziy, Afsus, Sodiq, Hijolat, Hoziq, Xotif, Maxmur, Gulxaniy kabi yetuk qalam sohiblari Farg`ona vodiysida yashab ijod qilganlar.

Shuningdek, "Afzal at- Tavorix ", " Tarixi Umarxon", "Risolai Askariya", " Muntaxab at-tavorix", "Tarixi Shohruhiy", " Tarixi Jahonamoy", "Xulosat al axbor", " Tasnifi g`arib", " Tarixi jadidai Tashkand" kabi boshqa ko`plab tarixiy asarlar ham huddi shu davrda Qo`qon xonligi doirasida yozilgan.

Nodira o`zbek shoirasining taxallusidir, u tengi yo`q. Yakkayu yagona ma`nosini anglatadi. Nodira faqat o`zbek tilidagina emas balki fors, tojik tilida ham "Maknuna" , "Komila" taxallusida she`rlar g`azallar bitgan.

Nodiraning eng oliyjanob va e`tiborga loyiq tadbirlaridan shu bo`ldiki, u o`z atrofiga zamonasining qobilyatli va ijod egalari bo`lmish shoirlarni to`pladi va ularga homiylik qildi. Uvaysiy, Mahzuna, Mushtariy va boshqalar uning eng yaqin maslakdosh va maslahatgo`ylari edilar.[5]

---

[3] Sh. Karimov O`zbekiston tarixi va madaniyati T. "O`qituvchi" 1992, 119-bet.
[4] Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T., "Sharq", 2000, 800-b
[5] Sh. Karimov O`zbekiston tarixi va madaniyati T. "O`qituvchi" 1992, 119-b

Nodira o`zi yashagan feodal tuzumni lanatlab ijod etar ekan, bu jamiyatdagi o`zbek xotin qizlarining og`ir qismatli hayotiga dardkash bir siymo sifatida faryod qiladi. U hatto saroyda yashasa ham o`zini baxtiyor hisoblamadi. Nodirabegim o`zining bir g`azalida "Tushdi ohimdin bu oqshom charx maydoniga dud… " deb kuylar ekan, bu oh shoiraninggina dardu alami bo`lmay feodal zulimdan ezilgan xalq ommasining barcha xotin qizlarining ohi edi[6]

Nodira insoniylikni ezgulikni ulug`ladi, hayotbaxsh orzu-umidlarini tarannum etadi.

1842 yilda Nodira hayotida katta fojia yuz beradi. Buxoro amiri Nasrulloxon Qo`qonni bosib oladi va Nodirabegimni shariatni buzganlikda ayblab uni qatl qildiradi. Nodira feodal jaholatning qurboni bo`ladi.

Ha, shoira haq bo`lib chiqdi. Bizning zamonda bir qancha maktab va ko`chalar uning nomi bilan atalgan. Nodira haqida Turob To`la " Quvvai qahqaha " pyesasini, K. Yormatov "Odamlar orasida" (Nodirabegim) filmini yaratdi.

Bu davrda ijod etgan Fazliy Namanganiy Mushrif, Mushfiqiy kabi shoirlar o`z zamonasining zabardast siymolari edilar. Masalan: Mushfiqiy Buxoro amiri Abdulloxon saroyida " Malik ush-shuaro" unvoniga ega bo`lgan bo`lsa Fazliy Namanganiy Qo`qon shoirlariga boshchilik qilgan. Umarxonning topshirig`i bilan Fazli va Mushrif tomonidan " Majmuat-ush shuaro" to`plami tuzildi.

XIX asrdagi o`zbek va tojik adabiyoti tarixida salmoqli o`ringa ega bo`lgan, ammo ijodi yetarli darajada o`rganilmagan shoir va tabib Hoziqdir. O`zbekiston sharqshunoslik institutida Muhammad Husayn bilg`oriy tomonidan tuzilgan "Marsad ut-tasonif" nomli ( to`plamlarni o`rganish joyi) antalogiyada O`rta Osiyo va Eron shoirlaridan katta bir guruhining shu jumladan Hoziqning ham o`zbek va tojik tillarida yozilgan 354 misra she`ri bor.[7] Bundan tashqari Hoziqning bir necha g`azal va qasidalari 1820- 21 yillarda Namanganlik shoir Fazliy tomonidan Qo`qonda tuzilgan " Majmuat ush – shuaro" ( shoirlar anjumani ) qo`lyozma asarida ham uchraydi. Uning o`zbek va tojik tillarida yozilgan shiorlaridan tuzilgan to`plam Rossiya FA ning Sankt Peturburgdagi sharqshunoslik institutining bo`limida № 470-C sonli hujjatda saqlanadi. [8]

O`zbek milliy madaniyati markazlaridan biri shubhasiz bu Qo`qon shahri edi. Bu yerda XVIII-XIX asrning birinchi yarmida ilm marifat olamida nomi dunyoga mashhur bo`lgan ulug` va mutafakir shoirlar yetishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qo`qon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yo`ldoshi shoira Nodiraning say harakati tufayli Qo`qon shahri ilm marifat adabiy muhiti paydo bo`ladi.

---

[6] Ўша жойда.

[7] Sh. Karimov. O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T. Sharq 2010 132-b

[8] R.Shamsiddinov, Sh Karimov O` Ubaydullayev Vatan tarixi T. Sharq 2010. 132-b

XVIIasrning ikkinchi yarmi va XVIIIasr boshlarida yashab ijod etgan iste`dodli va isyonkor shoir Boborahim Mashrab ( 1640-1711) dir. U Namanganda tug`ilgan 7yoshidan mashhur Shayh Mullo Bozor Oxund qo`lida ta`lim olib xat savodini chiqargan. 15 yoshidan Qashqarda mashhur Shayx Ofuq Xo`ja qo`lida 7yil tasavvuf ilmini egallaydi, so`ng kanizaklardan birini sevib qolgani uchun Ofoqxo`ja dargohidan quviladi. Erkentga u yerdan Xo`tanga, so`ng guljaga borgan. Mashrab g`uljadan Qashqarga qaytadi. So`ng Ofoqxo`ja topshirig`idan Toshkentga va yana Ofoqxo`ja huzuriga, undan keyin o`z ona yurti Namanganga keladi. Xullas 18 yil davomida yuqorida nomlari tilga olingan yurtlarni kezgan Boborahim Mashrab Yaman, Hindiston, Dakan, Isfaxon, Hirot, Mashhad, Makka, Madina, Halab, Sherzod, Shom, Rum, so`ng Buxoro Toshkent, Shohimardon, Avg`onistondagi Shibirg`on, Andixo`y kabi joylarda ham bo`ladi.

Buni O`zbekiston FA sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 9968 raqamli qo`lyozma asoslab beradi. Unda Mashrabning "Kimyo" asaridan `16 kimyo (bob) va " mabdai nur" kitobidan ikkinchi daftari, so`ng shoirning 71 g`azali, 7muhammasi va bitta musaddasi berilgan. [9]

Mashrab she`rlarida o`zi yashagan davr hukmronlarining mehnatkash xalqqa qarshi qaratilgan siyosatini, boylar, amaldor to`ralar va chalasavod mullalarning riyo korliklari munofiqliklari, o`zboshimchaliklari, xullas o`rta asr zulmining barcha illatlari fosh etiladi. Xalqning og`ir qismatiga achinadi.

Dili Tig`i sitamdin, pora bo`lgan xalqni ko`rdim,

Tani dardu alamdan yora bulg`on xalqni ko`rdim.

**<u>San`at.</u>**

O`rta Osiyodagi xonliklarda XVIII-XIX asrlarda xo`jalik tushkunlikka yuz tutib borayotgan va aholi turmushi tobora tubanlashayotgan bo`lsada san`at va me`morchilik taraqqiyotida bir qator ibratli ishlarning amalga oshirilganligiga guvoh bo`lamiz.

Yuqorida biz alohida ta`kidlagan mashhur shoira Nodira haqida uning zamondoshi, saroy shoiri Hojar shunday deydi: "Umarxon vafotidan so`ng bu iffat sadafining injusi Farg`ona, Toshkent, Xo`jand, Andijon va boshqa shaharlarda fozillar, olimlar, hattotlar, naqqoshlarni o`z hizmatiga chaqirtirib keldi".

Bu davrda qurilgan ulkan va go`zal me`morchilik yodgorliklari hozirgi kunda ham har qanday kishining diqqat e`tiborini o`ziga tortadi.

---

[9] R/Shamsutdinov, Sh/ Karimov, O`.Ubaydullayev. vatan tarixi. T.,"Sharq" 2010, 134-bet.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Qo`qon xonligida ham xalq me`morchiligi rivojlanadi. Xonlikning markazi Qo`qon shahrida, Marg`ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutubxonalar quriladi. Binolarni bezatish uchun ham gul namunalari keng qo`llanilib naqshlar chizish, naqshlarni ganchga o`yib solish odat bo`ladi. O`sha davrda ham uchala xonlikda ham yuqoridagidek inshoat qurilishi va hunarmandchilik san`atining turli yo`nalishlari rivoj topadi. Bulardan tashqari yog`och va misga o`yib nozik naqshlar solish, sopol va chinni yarog`-aslahalar yasash va har xil uy-ro`zg`or buyumlari matolar to`qish keng tarqaladi. [10]

Qo`qon shahri o`ziga xos yodgorliklari bilan ham mashhurdir. Bu borada Qo`qon shu kunga qadar saqlanib qolgan tarixiy me`morchilik yodgorliklari bilan Samarqand, Xiva, Buxorodan keyin to`rtinchi o`rinda turadi.

Bu borada xususan Xudoyorxon o`rdasi Norbo`tabiy madrasasi, Kamol madrasasi qozi kabi boshqa o`nlab tarixiy obidalar diqqatga loyiqdir.

Ko`plab tarixiy me`moriy yodgorliklar urush ob-havo va yer qimirlashlari-zilzilalar tufayli buzilib vayronaga aylanadi, yoki yo`q bo`lib ketadi. Jumladan, 1815-yilda Qo`qon shaxrida yuz bergan zilzila oqibatida juda ko`plab odamlar uylar tagida qolib, halok bo`ldilar. Ayrim joylarda yerlar yorilib ketadi.

Bir necha kishilar unga tushib halok bo`ladi. Yerdan tutun chiqib suv favvora bo`lib otilgan. Yer olti oy davomida silkinib turgan.

Teatr san`atida masqarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo`g`irchoqbozlik kabi tomosha ko`rinishlari  keng tarqaldi. Masalan, Buxoro amirligining turli shaharlarida XVIII-XIX asrlarida Sayfulla Masxara, Zokir Masxara, Ergash Masxara kabi artistlar “Rais”, “Sudxo`rning o`limi”, “Ko`histonlik domla”, “Murobboshi” singari asarlarini sahnalarda mohirlik bilan ijro etganlar.

XIX asrda qo`g`irchoq teatrining Shosalix, G`ofur, Halfarang (Qo`qon), Orifjon qo`g`irchoqboz, Azimburin, Doniyor (Toshkent), Shomuxuddin Shoazimov, Tursinboy Abduljabborov, (Marg`ilon), Siddiqkalon, Jo`raqaynoq qo`g`irchaqboz (Samarqand) Zarikmisgar, Sharif sayyoh, Qori Xoji, (Buxoro), Qilich (Shahrisabz) va boshqa shular singari ustalar bo`lgan. Xonliklar hududida raqs san`atining Farg`ona, Buxoro, Xorazm va tog`li usullari mavjud bo`lib, o`z navbatida ularning har biri o`ziga xos jang xususiyati va turlariga ega edi. Masalan: Farg`ona o`yin san`ati “Katta o`yin”, “Kema o`yin”, “Xonaki o`yin”, “Yalla”, Xorazm o`yin san`ati “Maqom oyin”, “Xonaki o`yin”, “Lazgi”, “Yalla”, “Zangbozi” larni o`z ichiga olgan va hokazo. “107-o`yin” ko`proq O`zbekiston hududidagi janub xalqlari madaniyatiga xos bo`lib “Beshqarsak”, “Uchqarsak”, “Dastbozi” kabi usullardan iborat edi.

[10] R.Shamsiddinov,  Sh Karimov, O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi.  T. Sharq. 2003, 143-144-b.

## 2.2. Me`morchilik va hunarmanchilikning ravnaqi. Xalq amaliy san`ati.

Qo`qon xonligi me`morchiligining o`ziga xos tomonlarini ko`rib chiqqan ekanmiz, bu mintaqaning qadim zamonlardan boshlab taraqqiy etgan madaniy maskanlardan biri bo`lganligini va teran me`morchilik hamda shahasrsozlik tarixiga ega ekanligini ta`kidlab o`tmoq lozimdir. Qo`qon xonligining shahaharsozlik madaniyati mil.avv. II-I ming yilliklarga borib taqaladi. Jumladan, Elaton, Buzilmas, Olis Iskandariya (Aleksandriya, Esxata) Oqtepa Qultepa Munchoqtepa Mug` qal`a, Ershi singari 2-3 ming yillik tarixni o`zida mujassamlashtirgan shahar xarobalarining qazib o`rganilganligi bundan dalolat berib turibdi.[11] Shuningdek, Hoson, Quva, O`zgan, Axsi shaharlari o`rta asr tarixiy manbalarida ko`p o`rinlarda tilga olinadi.

Ilk o`rta asrlar Farg`onaning yuksak madaniyati haqida Xitoy tarixiy manbalarida ma`lumotlar saqlangan. Temuriylar davriga kelib esa Umar Shayx hamda Bobur Mirzo tomonidan barpo etilgan shaharlar tafsiloti shoh asar ‘Boburnoma” da keng yaratilgan.

Demak, Qo`qon xonligi me`morchiligi butun O`rta Osiyo me`morchilik an`analarini o`ziga sindirish bilan birga qadimiy Farg`ona vodiysiga xos mahaliy madaniyat asosida yuzaga kelgan, shu sababli XVIII asr Qo`qon xonligi shaharlari asosan o`rta asrlarga oid feodal shaharlarga xos ko`rinishni ifoda etgan. Shaharlar ark va Shahristondan iborat bo`lgan. Shahriston markazlarida, ko`chalar kesishgan joy chorsuda odatdagicha bozor joylashgan. Bu ikki asosiy ko`chaning kesishishi natijasida shahar to`rt dahaga bo`lningan. Dahalar esa o`z navbatida bir necha mahalla va go`zarlardan shakillangan.

Qo`qon va Toshkent arklari “O`rda”deb atalgan. Toshkentdagi O`rda buzib tashlanganligi bois u haqida juda oz ma`lumot saqlanib qolgan. Ammo Qo`qondagi Xudoyorxon nomi bilan ma`lum bo`lgan o`rda bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

Qo`oqn o`rdasi XIX asrda bunyod etilgan bo`lib, yaxlid imorat shaklida birlashgan bir necha katta va kichik hovlilarni o`ziga birlashtirgan. Uning umumiy sathi 4gektarni tashkil etadi.

### Xalq amaliy san`ati.

Hunarmanchilik- o`zbek xonliklaridahunarmandchiliksanoati o`z davriga yarasha ancha taraqqiy etgan edi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida to`qimachilik (ipak) muhim ahamiyatga ega edi. Bu hunar egalari paxta, ipak, jundan turli narsalar to`qishgan. Ipak yegirishdan oldin paxtani chig`iriqdan o`tkazilgan. Ya`ni chigiti ajratib olingan. Chigiti ajratib olingan paxta tolasi

[11] M.G. Ahmedov. O`rta Osiyo me`morchiligi tarixi. T. “O`zbekiston” 1995, 84-b

charxdan yegirilib kalava qilingan va tayyor ipni to`qish do`konlariga jo`natilar edi. Bo`z to`qish keng avj olgan. Shahrisabz, Buxoro bo`zlari muhim o`rinni ishg`ol qilardi. Namangan, Andijon to`qimachilari to`qigan olacha, qalami, bo`z, chit, dokalari yaxshi sifati va bo`yoqlari bilan ajralib turar edi. Buxoroda sifati baland ikki xil chit, ya`ni chiti sari gaz va chiti chatti to`qilgan. Bu chitlar nafaqat ichki bozorlarda hatto qo`shni mamlakatlarda, Rossiyaga ham chiqarilar edi. Ipak mollar tayorlashga ham katta e`tibor berilgan. Xo`jand Andijon, Namangan va boshqa joylarda ipak kiyimlar to`qish ishlari avj olgan. XIX asr o`rtalarida o`lkada atlas, shoyi doroyi, oq shoyi, adras, beqasam, banoras gul bosilgan choyshablar va shunga o`xshash ko`p narsalar to`qilar edi.

**Gilamchilik.**

Gilamdo`z ustalar asrla mobaynida ko`p tarjibalarni to`plashga muyassar bo`lganlar. Xiva Buxoro, Samarqand, Xo`jand, Andijon shahar va ularning atroflarida olma gullari ko`plab to`qilgan. Hunarmand oilalarning gilam to`quvchilari chuval nomli uy-ro`zg`orda ishlatiladigan “to`y gilami” degan gilam to`qilgan va unga turli ranglarda gullar bosilgan va boshqa turdagi rangdagi hamda Gudiz gilamlar ko`plab to`qilar edi. To`quvchilar faqat shaharlardagina emas shu bilan birga qishloqlarda ham rivojlanadi. Ammo to`quv dastgoxlari to`quvchilik ishlari iptidoiy usulda bo`lib ular oddiy dag`al matodan to`qish bilan shug`ullanadilar.

Biroq eng moxir to`quvchilar ham kuniga 14-16 soatlab ishlasalar ham topganlari o`z oilasiga yetmas edi. Qog`oz ishlab chiqarish o`lkadagi hunarlarning eng qadimgilardan hisoblangan. Qo`qon, Samarqand, Buxoroda ishlab chiqarilgan qog`ozlar ayniqsa ipakdan ishlab chiqarilgan qog`oz butun sharqqa nom chiqarilgan edi.[12]

1863-yilda Turkistonning ko`plab shaharlarida bo`lgan Vengr sharqshunosi X.Vamberi. Samarqand va Buxoro qog`ozlari o`zining silliqligi bilan chet mamalakatlarida shuxrat topganligini qayd etadi. Qo`qon xonligiga qarashli Charq qishlog`idagi qurilgan qo`g`oz ishxonasi asosan suv kuchidan foydalanishga moslashtirilgan edi. Shuning uchun ham buni “qog`oz objuvozi” deb atashadi. Bu ishxonada asosan eski latta puttalar objuvoz orqali tozalanib, turli qog`ozlar tayorlanar edi. Muqavosozlik hunari ham uzoq tarixga egadir. Buxoro, Samarqand, Xiva, Urganch, Andijon, Namangan, Toshkent, Xo`jand kabi shaharlarda charm va qalin qo`g`ozlardan muqovalar qilish kengaygan. Bo`yoq hosil qilish va rangli bo`yoqlar ko`paygan. Bizgund degan qorabo`yoq va serparak yoki isparak degan to`q sariq bo`yoq ikki xil o`simlik aralashmasidan tayorlanradi. Turkiston yerlarida bo`yoqli o`simlik ro`yan ko`p bo`lib yovoyi holda o`sardi. Toshkent atroflarida va boshqa joylarda sarg`imtil

[12] X.Vamberi. Путешествие по средней Азии 1967 стр 221.

isparak o`simligi o`sib unda sariq bo`yoq olingan. Boshqa turdagi bo`yoqlar – Hindiston, Avg`oniston, Eron va Rosiyadan keltirilardi.

Misgarlik katta shaharlarda (Buxoro, Qarshi, Toshkend, Samarqand, Xo`jand, Qo`qon, Andijon, Namangan) alohida misgarlik rastalari bo`lar edi. Misgarlik qo`mg`on, tovoq, cho`mich, qozon, ko`za barkash, choyidish, obdasta, samovar, choynak, paqir, lagan, siyohdon, karnay va shu kabi narsalar yasashardi. Idishlarda gul kelish san`ati takomillashgan edi. Turkistonda hunarlar orasida eng qadimiylaridan biri zargarlikdir. Zargarlik asosan oltin, kumush va qimmatbaho rangli tolalardan xilma-xil shishalardan turli narsalar yasashardi.

Turkistonda kulolchilik keng yoyilgan edi kulollar ro`zg`orga kerakli har xil tovoq, piyola, kosa, ko`za, xum, tog`ora, tandir va boshqa narsalar yasardilar, g`isht quyardilar[13]

Juvozkashlik o`lkada hunarlar orasida muhim o`rinni egallardi, juvozlarda asosan zig`ir moy va kunjut yog`i chiqarilardi. Urug`larda yog` olinardi. XIXasr o`rtalarida Toshkend shaharlarining o`zidagina 500 juvoz bor edi. Butun o`lkada esa bir necha o`n ming juvozxona bo`lgan. Duradgorchilik – ancha yetakchi bo`lgan. Duradgorlar qoshiq, cho`mich, qozon, qopqoq, xamir taxtasi, o`xlog`i, karson, sandal, beshik, panshaxa kurak, charx, chig`iriq, to`quvchilik do`koni dastgohi, omoch bo`yinturuq va boshqa asboblarni tayyorlar edi. Duradgorlarning ikkinchi guruhi esa uy, madrasa va machitlar uchun eshik darvoza tuynuk, darcha, kursi va boshqa narsalarga juda ustalik bilan o`yma gullar ishlar edilar.

O`lkaning katta shahsrlarida o`nlab va yuzlab aravasozlik ustaxonalari bor edi.Toshkend shahridagi aravasozlik ustaxonalarida 200 kishi ishlar edi. Hunarmandchilik sanoatida poyabzal ishlab chiqarish katta o`rinni tutardi. Bu hunar etikdo`zlik, kovushdo`zlik, maxsido`zlik dev nomlanar edi va h.k. lar.

Erkaklar kiyim kechagi. Kiyim kechak, moddiy-madaniyat ko`rinishlaridan biridir. Unda etnik tarix, ijtimoiy- munosabatlar mafkuraning ayrim unsurlari – e`tiqodlar, estetik me`yorlar aks etadi. Kiyim kechakda jamiyat a`zolarining ijtimoiy tengsizligi aniq namoyon bo`ladi.

O`zbeklarning XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmidagi libosi asosan o`tgan vaqt shakillarini saqlab qolgan bo`lsada ayrim qismlari anchagina o`zgargan edi. Ayni vaqtda unga kiyim- kechakning yangi shakillari qo`shildi O`zbek erkaklarining libosi ko`ylak va ishton, ustki chopon, belbog`, bosh kiyimi va poyafzaldan iborat edi. O`zbekistonning butun hududida to`g`ri keng yengli va yoqasi ko`ndalang o`yiq, to`ni kasimon bichikli erkaklar ko`ylagi keng tarqalgan edi. Agar yoqa yirmochi haddan ortiq keng bichilgan bo`lsa,

---

[13] G.Xolliyev. X.G`ulomov. O`zbekiston tarixi. T. “Universitet, 1997,46-b

unda yelkalarga bir tomondan bog`lash uchun bog`ichlari tugilardi. Ko`ylakning doira yoqali keyinchalik “ kiftaki” yoki “mullacha ko`ylak” deb atalgan turi ham chiqqan edi. Uni katta yoshdagi va nomdor kishilar kiyardi, u kuyovlar kiyim-kechagiga ham kirardi.

O`zbeklar ustki kiyimining eng ko`p tarqalgan turi keng va uzun yengli ustki chopondir. Uni hozirgi O`zbekiston hududidagi jamiyat barcha qatlamlarining vakillari kiyganlar. Qishloq aholisi choponlari alohida bezaksiz, ancha odiy bo`lgan. Shahar axlining, ayniqsa davlatmand kishilarning choponlari ancha nafis, tekis bo`ylama qaviqli qilib tikilar edi. Qimmatbaho choponlarning etagi va yenglari ipak iplar bilan bezatilar edi. Xorazm choponlari mayda qaviqlari va jiltligi bilan ajralib turardi. Badavlat kishilar qishda va tantanovor damlarda issiq bo`lishidan ko`ra ko`proq manmanlik o`z boyligini ta`kidlash uchun ikki uch choponni ustma-ust kiyar edilar.[14]

Buxoxo amirligining dasht tumanlarida qishda ham, yozda ham paxtali chopon kiyardilar, u sovuqdan ham, issiqdan ham saqlar edi. Boshqa joylarda yozda astarli va astarsiz yengil yozlik yaxtak kiyardilar. XIX asr o`rtalarida shahar (masalan: Toshkent) aholisi modasiga ustki kiyimning yangi turi – tatarlardan olingan kamzol kirib keldi. U chopondan ancha yengil edi. U astarli qilib tikilar edi va uni yozda asosan katta yoshli kishilar kiyardi. Chopon mahaliy sidirg`a yoki yo`l-yo`l matta (alak, olacha va hokazo) dan, shuningdek qalin ipak, atlas, baxmaldan tikilar edi. Boy bezakli qimmatbaho choponlarni asosan xonlar beklar yuqori darajadagi amaldorlar kiyardi. Chopon eng xurmatli kiyim bo`lib, mehmon uchun eng yaxshi sovg`a hisoblanar edi. Yozlik va qishlik ustidan belbog` yoki junli naqshlar bilan bezatilgan to`qima, charm yoki baxmal kamar bog`lanar edi.

Xorazm aholisi belbog` birga uch metrcha keladigan keng qo`shoq ham bog`lar edi. Qo`shoqning rangi shuningdek sifati egasining ijtimoiy mavqeyi va yoshiga bog`liq bo`lardi. Masalan, yo`l-yo`l ip matodan tikilgan qo`shoqni shaharlarining eng kambag`al aholisi bog`lardi. Bo`yalmagan jun matodan tikilgan qo`shoq katta yoshli erkaklar libosining tarkibiga kirar edi. Boy bayramona libos, ayniqsa kuyov libosi tarkibiga ipak kamarlar modali belbog` yoki terma belbo`g kirardi.

**<u>Ayollarning kiyim-kechagi.</u>**

Ayollarning asosiy kiyim-kechaklari ko`ylak, ishton, (lozim), xalat, (to`n, mursak, kaltacha) edi. Oyoqqa maxsikovush kiyiladi. Boshda ro`mol, boshqa bosh kiyimlari va ularning xillari (salla, kasava, kulta, lachan va hokozolar) o`ralardi. Shuningdek paranji, kurta va boshqalar yopinilardi.

---

[14] N.Norqulov, U.Jo`rayev. O`zbekiston tarixi. T.,”Sharq” 2010, 219-b

Ayollar ko`ylagi uzun yengli qilib, tunikasimon tarzda erkin bichilardi. Yoqasi belgacha tikka o`yilar va keng jun yoki ipak tasma – jiyak solinar, yosh ayollarda esa zanjirsimon choklanardi.[15]

Ayollar ko`ylagi erkaklar ko`ylagi kabi avvolo xomsurpdan, ko`pincha olachadan tikilardi. Ko`chalik va to`y kiyim-kechagi ipak yoki yarimipak matodan shoyi, atlas, roxo esa baxmaldan tayyorlanardi. Qimmat ko`ylaklarni badavlat xonadon ayollari qolgan ayyolar esa xonaki matodan tikilgan oddiy ko`ylaklarni kiyardilar. [16]

Mursak, peshvon, paranji va to`n ayollarning ochiq barli ustki kiyim-boshining asosiy turlari sanalardi. O`zbekistonning qariyb butun hududida tarqalgan mursak uzun ochiq barli, tunikasimon, yoqasiz chopon edi. Mursak XIX asr o`rtalariga kelib, ayrim tumanlarda (masalan Toshkentda) modadan chiqadi, boshqa joylarda (Qashqadaryo va Sirdaryo, Buxoro voxasining ayrim tumanlarida) ustki yoki motam kiyimi shuningdek bosh yopgich (kurta, chelak) sifatida foydalanaverildi. Buxoroda ayollar Mursakning xaltacha deb ataladigan juda kalta turidan foydalanardilar. Paranji ayollar kiyim-kechagining alohida turidir.

Ayollar uni uydan chiqishda yopinardilar. Yuzga ot qilidan to`qilgan chachvon tutilardi. Paranji yelkaga yopiladigan kiyim chopon ancha bugungi shaklining bir turi edi. U orqaga tashlangan uzun yolg`on qo`lli cho`ziq to`rtburchak ko`rinishda bo`lardi. U ko`k rangli matodan astarli bo`lib tikilardi. Paranjini asosan shaharlarda yopilardilar, ularni sotish uchun ham buyurtma bo`yicha o`sha joylarda tayyorlardilar. XIX asr o`rtalariga kelib Toshkent ayollari o`rtasida ochiq barli kiyim-kamzul kiyish rasm bo`ldi. Ikkita yon cho`ntakli, tikka yoki yotiq yoqali etib paxta yonini astar bilan qo`yib tikiladigan bu kiyim ustki kiyimga yopishib turardi. Charm kovush ayollar poyafzalining asosiy turi edi. U sirti yassi do`ngsasi baland va tumshug`i keng o`rtacha poshnali dag`al yashil yoki sariq charimdan tikilardi. Kovushning o`rtacha yoki past poshnali, sirti tor turi qora charmdan tayyorlanardi. Kovush bilan kiyiladigan maxsi ko`chalik poyafzal hisoblanardi.

## Bezaklar.

O`zbek ayollari kunda va bayramlarda taqiladigan turli xil bezaklar taqardilar. Bayram bezaklari majmuyi peshona, bo`yin, chakka, burun, ko`krak va boshqa bir qancha ashyolardan iborat bo`lardi. Peshona bezaklari qoshlar yoyiga o`xshardi (tilla qosh). Chakka bezaklari (gajaklar) kumush va tilladan suvi berilgan naychalar bo`lib, sochning uzun zulflari ulardan o`tkazilardi. Oltin va kumush bo`yin marjonlari, rang-barang xafanbonular bo`yinga yopishib

[15] O`zbekiston tarixi. R.G.Muqminova, N.N.Habibullayev G.A.A`zamova, E.E.Karimov, A.A.Tojiboyev taxr. Ostida T.,"O`qituvchi" 1994, 187-b

[16] O`zbekiston tarixi. R.G.Muqminova, N.N.Habibullayev G.A.A`zamova, E.E.Karimov, A.A.Tojiboyev taxr. Ostida T.,"O`qituvchi" 1994, 187-b

turardi. Quloqlarga ilmoqli ziraklar taqilardi. Qizlar uchun qimmatbaho bezaklar erga chiqishdan avval sotib olinardi. Davlatmand oilalardan bo`lgan ayollar (asosan shaharlarda) peshovuz va peshxalta deb atalgan ko`krak bezaklari taqardilar. Peshovuz qosh terish mo`ychinagiga va ayollar pardoz andozining boshqa ayollarga o`xshash ilmoqli tilla (tilla suvi yuritilgan) qubbacha shaklida bo`lib, ayollar ko`ylagining yon etagiga taqib qo`yilardi. Ilmoqlari ichida kalitchalari bo`lgan peshxalta ham shunday taqilardi.[17] Aftidan, kalitchalar savlatlilik vazifasini bajarardi. Qimmatbaho bezaklar asosan kumush, oltin va nodir toshlardan yasalardi ularni badavlat xonadonlargina olardi, bunga mehnatkash xalqning qurbi yetmasdi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Qo`qon, Marg`ilon va boshqa shaharlarning hunarmandlari bezaklarning barcha turlari bilan savdo qilardilar. Hunarmandlar ularning mahalliy aholining an`analari va didini hisobga olgan holda tayyorlardilar.

## 3 - mashg'ulot: 2- soat.

## – KEYS – STADI

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 2.3.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1.Qo’qon xonligida madaniyat va san’at.<br>2.Shahar markazida bozor va guzarlar, juma masjidi hamda chorrahalarda katta bo’lmagan karvonsaroylar.<br>3.Qo’qon xonligi me’morchiligida loy va paxsaning ishlatilishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XVIII – XIX asrlarda Qo’qon xonligida madaniyat va san’at to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |

[17] O`zbekiston tarixi. R.G.Muqminova, N.N. Habibullayev, G.A.Azamova, E.E.Karimov, A.A.Tojiboyev. tahr. T.,”O`qituvchi” 1994. 189-b

| Pedagogik vazifalar | O'quv faoliyati natijalari: |
| --- | --- |
| 1.Qo'qon xonligida madaniyat va san'atning vujudga kelishi to'g'risida tushuncha beradi.<br>2. Shahar markazida bozor va guzarlar, juma masjidi hamda chorrahalarda katta bo'lmagan karvonsaroylar qurilishi to'g'risida tushuncha beradi.<br>3.Qo'qon xonligi me'morchili-gida loy va paxsaning ishla-tilishi to'g'risida tushuncha beradi, izohlaydi. | 1. Qo'qon xonligida madaniyat va san'at haqida bilganlarini aytib beradilar.<br>2. Shahar markazida bozor va guzarlar, juma masjidi hamda chorrahalarda katta bo'lmagan karvonsaroylar qurilishini izohla beradilar.<br>3. Qo'qon xonligi me'morchiligida loy va paxsaning ishlatilishi ni o'rganib, muhokama qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 2.3.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayonlari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
| --- | --- | --- |
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| va mavzuga kirish. (20 minut) | tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (2-ilova). | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1.Qo’qon xonligida madaniyat va san’at qanday rivojlangan?<br>2.Shahar markazida bozor va guzarlar, juma masjidi hamda chorrahalarda katta bo’lmagan karvonsaroylar qurilishi to’g’risida nimalarni bilasiz?<br>3.Qo’qon xonligi me’morchiligida loy va paxsa qanday ishlatilgan? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi . | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**3 – mashg'ulot bo’yicha glossariy**

- ✓ **Daftardor—xonning shaxsiy daromadi hisob-kitobini olib boruvchi**

**amaldor.**

- ✓ **Sarkor — davlat xazinasiga tushadigan mahsulotlarni saqlovchi amaldor.**
- ✓ **Shig`ovul — mansabdorlar ishi ustidan nazorat qilib boruvchi amaldor.**
- ✓ **Muhtasib — shariat qonunlarining fuqarolar tomonidan bajarilishini nazorat qiluvchi amaldor.**
- ✓ **Dasturxonchi — amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.**
- ✓ **Kltobdor — amir kutubxonasi boshlig`i.**
- ✓ **To`qsabo — harbiy qism sarkardasi.**
- ✓ **Parvonachi — biror-bir shaxs biror lavozimga tayinlanganida yorliqni o`sha shaxsga yetkazuvchi amaldor.**
- ✓ **Sadr — vaqf mulklarini boshqaruvchi.**
- ✓ **Shayxulislom — musulmon jamoasi boshlig`i; qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi, hukmdorning eng yaqin kishisi. Bu lavozim avloddan avlodga meros bo`lib ham o`tgan.**
- ✓ **Poytaxt qozisi (qozikalon) — davlatning oliy qozisi (sudyasi) amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozikalon „shariatpanoh" deb ham atalardi. Qozikalon huzurida a'lam va 12 muftidan iborat devon tuzilgan edi. Uning vazifasi jinoiy ishlarni sinchiklab ko`rishdan iborat bo`lgan.**
- ✓ **Muftiy — qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniyhuquqiy masalalar bo`yicha shariatga asoslanib, fatvo chiqaruvchi shaxs.**
- ✓ **Muhtasib (rais ham deyilgan) — musulmonlar tarafidan shariat qonunlarining bajarilishini kuzatuvchi, bozorlardagi toshtarozining to`g`riligini tekshiruvchi amaldor.**

## 3 – mavzu: Rossiya mustamlakasi davrida Turkistonda madaniyat va san’at. 8 – soat.

### 1 - mashg'ulot: 2 - soat

**Reja:**

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O’zbekiston madaniyati va san’ati. Shahar va qishloqlar turmush tarzining o'zgarishi.

2. Ahmad Donish miniatyuralari. Zamonaviy san'at turlarining kirib kelishi.

3. Arxitektura va tasviriy san’at. Kino san’atining kirib kelishi.

## XIX VA XX ASRLARDA ARXITEKTURA VA TASVIRIY SAN`AT

XIX va XX asr boshlarida turar joy binolari, mahalla machitlari, saroy va o’quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Aynistsa devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli butoqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N. K. Romanovlar saroyi, A. A. Polovtsevning uyi, Marg’ilondagi Saidahmadxo’ja madrasasi va boshqalar.

**O’zbek milliy arxitekturasining o’ziga xos bezatilishi.**

O’zbek binosining ichki qismidagi har bir me’moriy qismi o’ziga xos ornamental bezak tipidan tashkil topgan. Interer, ya’ni xona devori o’zunasiga 3 qismga bo’lingan, devorning pastki qismi izora (panel), o’rta qismi va tepa qismi friz.



*a*
*liy san’atati*
*peshtoqisiga ishlangan naqshlar.*

Devorning o’rta qismi namoyonlar, manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqalar bilan bezatilgan. Friz qismiga har xil geometrik va o’simliksimon naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shift o’rtasiga ganchdan ishlangan ajoyib karnizlar ishlatilgan, buni sharafa deb yuritiladi. Shiftning o’rtasi o’yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan, bunga hovo’zak deyilgan. Bu hovo’zaklarga islimiy yoki geometrik naqshlar yoki turunjlar ishlatilgan. Xonaning hovo’zaklariga silliq qilib vassajuftlar yarim silindrsimon tayoqchalarni yonmayon terib chiqish natijasida tulqinsimon yo’za hosil qilingan. U ko’pincha, umumiy rang yoki oddiy islimiy naqsh bilan bezatilgan. Bu bezaklar o’zbek xonadonining ziynati hisoblangan. Devorlardagi tokchalar, taxmonlar cheti,kitobalar ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish-tovoqlar bilan bezatilgan. Uy-ro’zg’or buyumlariga naqsh berish yanada rivoj topdi. O’rta asr miniatyuralari ham rivojlandi. O’zbek xonadonlari sergul gilamlar, rang-barang adyol va choyshablar, idish-tovostlar, naqshinkor xontaxtalar, devorlari manzarali namoyon, hashamdor shiftlar... «-bular hammasi birgalikda xalq bezak san’atining butun bir serjilo asarini tashkil etadi»' Uy-ro’zgor buyumlari- xontaxtalar, qalamdonlar, qutichalar, devoriy naqshlar, ularning rangin bezaklari bir-biri bilan kandaydir bog’liqlikka egadir. Ana shu devorlarda yaratilgan naqshlar o’zining mutanosibligi, puxtaligi, ranglarining uyg’unligi, bichimi, nafisligi, badiiyligi bilan diqqatga sazovordir.

## O’zbekiston naqqoshlik san’atining rivojlanishi.

O’zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to’plashni davlatimiz o’z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati to’zildi. V. I. Lenin g’amxo’rligi osti- da 1918 yili 5 dekabrda qadimiy arxitektura yodgorliklarini va san’at asarlarini hisobga olish va saqlash haqida dekret chiqarildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, Madrasa, turar joylarni, saroylarni ta’mirlashni boshlab yubordilar. 30-yillardan so’ng ko’pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylari va boshqa joylarni yog’och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1938 yili Moskvadagi SSJI Butunittifok xalq xo’jaligi yutuqlari ko’rgazmasidagi O’zbekiston restorani va O’zSSJ pavilonlarini bezashga naqqoshlarni safarbar kilindi. U erda ajoyib namoyonlar, qandillar, o’yma eshiklar, o’yma ganchlar va naqshlar bilan bezatildi. 1939 yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi bi- nosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. Shu yillari «Bahor» konsert zalini ham naqsh, ganch o’ymakorligi, yog’och o’ymakorligi bilan bezatildi.

40-yillarda qurilgan Muqimiy, Navoiy teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan bezatildi. Naqqoshlik san'atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg'onalik Saidmahmud Norqo'ziev, toshkentlik Tohir To'xtaxo'jaev, Olimjon Kosimjonov, Yokubjon Raufov, Jalil Hakimov, xivalik Abdulla Boltaev, S. Xudoyberganov, X. Rahimov, samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Xusanov va boshqalar hamda ularning

*T. Oybek nomli O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyidagi naqshlar.*



shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyapti. Ular avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan naqqoshlik san'atiga katta hissa koshdilar. Ular o'zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (o'roq va bolg'a, kabutar, paxta, yuldo'z va boshqalar) yangicha g'oyalar kiritdilar. Lekin o'zimizning an'anaviy o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o'zbek milliy naqsh elementlari bo'lmish nozik majnuntol nihollari, anor butog'i, gulli butalar va boshqa o'simliklarni tasvirladilar.

XX asrning o'rtalarida naqqoshlik san'ati yanada rivoj topdi. Devorlarga manzarali monumental tasvirning mashhur ustasi Chingiz Ahmarov Sharq miniatyurasining eng yaxshi namunalaridan hamda O'rta Osiyo xalqlarining badiiy merosidan ilhomlanib ajoyib devoriy rasmlar yaratdi. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san'atining shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o'zlarining yuksak badiiy mahorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqdalar.

XVIII

XIX va XX asrlarda yog'och o'ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va san'atning boshqa turlari rivojlanib har bir shaharning o'ziga xos yog'och o'ymakorligi paydo bo'ldi. Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi, Toshkentdagi knyaz N. K. Romanovlarning saroyi va A. A. Polovstev uyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marrilondagi Saidahmadxuja madrasasi, Buxorodagi

Sitorai Mohi- Xosa va boshqalarda ajoyib yog'och o'ymakorligi namunalari yaratildi. Bu esa o'zbek yog'och o'ymakorligi san'atining bebaho asaridir.
Sovet hokimiyati barpo etilishi bilan xalq amaliy san'atining boshqa turlari singari yog'och o'ymakorligi ham rivojlana boshladi. Yog'och o'ymakor ustalar xar xil buyumlar, xontaxta, eshik va boshqa narsalarni bezashga jalb qilindi. O'ymakorlik ishlari mexanizastiyalashtirildi. Toshkent va Frunze shaharlarida xunarmandchilik o'quv ishlab chiqarish kombinatlari tashkil etildi.

Uquv ishlab chiqarish kombinatida juda ko'pchilik tahsil olib, usta bo'lib yetishib chiqdilar. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati ustalari qatori yog'och o'ymakor ustalar Butunittifok; Xalq Xo'jaligi Yutuqlari ko'rgazmasida bir necha pavilonni, Toshkentdagi Muqimiy, Navoiy, Xamza teatrlarini, Navoiy muzeyini, V. I. Lenin Markaziy muzeyini, ko'pgina jamoat tashkilotlarining binolarini, restoran, magazin, klub va boshqa joylarni yog'och o'ymakorligining ajoyib namunalari bilan bezadilar.

O'zbek xalqining eng ko'zga tashlangan ustalaridan Olimjon Kosimjonov (1878-1952), Sulaymon Xujaev (1866-1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib namunalarni yaratdilar. Ular o'ziga xos yog'och o'ymakorligi maktablari yaratib ajoyib shogirdlar yetishtirdilar.

Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san'atini o'sha davrning yuqori cho'qqisi desa bo'ladi. XII asrda muqarnaslar (stalaktitlar) hosil bo'ladi va ko'pgina binolarda qo'llanila boshlanadi. Muqarnaslar oddiy ganch o'ymakorligidan farst qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo'llanila boshlandi. Binolarning ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar aynistsa ajralib turadi.

XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi. XIV-XVIII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan.



*O'zbekiston amaliy san'at мuzeyi asosiy zalining bezagi.*

Bu davrlarda yangi-yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o'ymakorligi, uzviy bog'langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Koshin va toshdan o'yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta-sekin minoralarning ichki qismiga qullaniladigan bo'ldi. Uning tashqari qismida esa juda kam

qo'llanildi. Ganch o'ymakorligida mashhur bo'lgan XVIII asr ustasi Usta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o'sha vaqtda xalqqa tanilganlardan. Muhammad Muso o'g'illari Madusmon, Isoxon va Yusufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlashgan, g'isht terishda ham obro' qozonishgan.

Ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri-XIX asrning boshlari bo'ldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o'ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali buyoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi va Xivada o'ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o'ymakorligi texnikasi kishini qoyil qoldiradigan darajada o'sdi. Buxoro bezaklari mayin, gullari judaham nafis , Marg'ilonning guldor bezaklari yaxlit ko'rinishga ega, Toshkentniki esa qat'iy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o'yma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi.

XIX asrning boshlarida buyuk ganch o'ymakorlaridan Abdurahim Xayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Xayot Nosirov, Usta Xoji Xofiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta G'ofir,Usta Ibrohim, Usta Savri, Usta Abdufattox, va boshqalar faoliyat ko'rsatdilar. Asr boshlaridagi ishlarda esa o'yma relefli juda mayin uslub texnikasi paydo bo'ldi. Rangli ganchlar, bo'yoqlar, naqsh va tasvirlar qo'llaniladigan bo'ldi. Boylar, qasrlar qurdirib, ularni o'yma ganch bilan bezattirdilar. XX asrning boshlarida diplomat amaldor A. Polovtsev Toshkentda yashardi. U Turkiston arxeologiyasi havaskorlari to'garagiga a'zo bo'lib, sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. Shuning uchun u o'ziga evropacha uy qurdirdi. Bino baland ayvon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A. Polovtsev o'zbek xalqi san'atini yaxshi biladigan etnograf M. S. Andreevni bezak ishlariga boshliq qilib tayinlaydi. U o'zbek xalqi san'ati namunalarini yig'ib, ularni urganishga hayotini baxshida etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari Qo'qon, Buxoro, Farg'ona va boshqa shaharlardan ganch o'ymakorlar, yog'och o'ymakorlari va naqqoshlar taklif qilindi. Shular jumlasidan Usta Shirin Murodov, Usta Arslonqul Nazarov, Usta Usmon Ikromov, Toshpo'lat Arslonqulov va boshqa ganch o'ymakorlar ham bor edi. M. S. Andreev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi Toshkent ustalariga ayvon, mehmonxonaning sharqiy va shimoliy devorlari, tokcha, g'arbiy va janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi. 1902- 1903 yillarda evropacha qurilgan uy o'zbek milliy bezagida pardoz qilindi. Binoning ayvon, katta zali va yotoqxonasi juda jimjimador qilib bezatilgan. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarigi, ishlari o'ziga xos xarakterda bo'lib, o'yma Naqsh kompozistiyasida katta shohbarg va to'pbarglar yirik jimjimador qilib bezatilgan. Bu erda pardozning hamma turlari qo'llanilgan. Devorlarga o'yilgan ganch o'ymakor namoyonlar vertikal hamda gorizontal joylashtirilgan. atrofi geometrik, mayda ensiz zanjira, islimi hoshiya Naqshlar bilan bezatilgan.

Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab o'sayotgan tabiat o'simliklarini eslatadi. Pardoz turlari xonaga tushayotgan yorug'lik hisobiga juda o'rinli tanlangan. Derazadan tushgan yorug'lik o'ymani yanada badiiylashtirgan. Namoyonga nazar gashlab turgan kishi xoh uzoqdan, xoh yaqindan qaramasin, u o'ziga xos jozibaga ega ekanligini ko'radi. Albatta, ustalar bularni avvaldan hisobga olganlar. Namoyonlar xuddi go'zal tabiat manzarasining nafis tasvirini eslatadi. O'yma ganch zaminlari ajoyib ranglarda berilgan. Bu bino XX asrning boshlaridagi eng ko'zga ko'ringan arxitektura yodgorligi bo'lib qoldi.

1913-1914 yillarda Buxoroda amir Ahadxon tomonidan Sitorai Mohi-Xosa qurildi. U ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mehmonxona) o'sha davrdagi ganch o'ymakorligining ajoyib namunasi desa bo'ladi. Bunda oyna zami- nida ganch o'ymakorligi bajarilgan. U o'zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan. U o'sha davrda eng ko'zga ko'ringan ganchkor ustalardan edi.

## O'rta osiyoda ganch o'ymakorligi san'atining rivojlanishi.

1918 yil 5 dekabrda V. I. Lenin dekreti bilan barcha boyliklar - madaniyat, arxitektura va san'at yodgorliklari xalq mulki deb e'lon qilindi. Ana shu yodgorliklarni muhofaza qilish amalga oshiriladigan keyingi tadbirlarga asos bo'ldi.

O'zbekistonda osori-otiqalarni saqlash muassasalari Samkomstaris, Turkkomstaris, Sredazkomstaris, O'zkomstaris yodgorliklarni hisobga olish, o'rganish ta'mirlash bo'yicha katta ishlarni boshlab yubordi. Ko'pgina arxitektura yodgorliklarini, me'mor, san'atshunos olimlar va ustalar qayta tiklash, ta'mirlash ishlarini boshlab yubordilar. Arxitektura yodgorliklarini tiklashda ganch o'ymakor ustalar o'z kuch-quvvatlarini ayamadilar.

1918 yili Turkiston jumhuriyatida «Xunarmandlar bo'limi» tashkil etildi. Bu bo'limning maqsadi hunarmadchilik bo'yicha izlanishlar olib borish, iqtisodiy statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish, ishlab chiqarishga tarqatish, maktab- lar tashkil qilish, o'quv ustaxonalarini tashkil etish, muzeylar, hunarmandlar birlashmasi (arteli) tashkil etish, qo'lda ishlangan ishlarga mablag' ajratish va boshalar.

1918-1920 yillarda hunarmandlar komiteti Toshkentda o'lkashunoslik hunarmandlar tashkiloti, o'quv namunaviy ustaxonalar va hunarmandlik ishlari bo'yicha muzey tashkil etdi. O'quv namunaviy ustaxonasida xalq amaliy san'ati turlari duradgorlik, gilam to'qish, gazlama to'qish, kulolchilik, charm ishlash, naqqoshlik, ganchkorlik va xokazolar bo'yicha instruktor tayyorlash kerak edi. Muzeyni tashkil qilishdan maqsad eng yaxshi hunarmandchilik ishlarini sotib olib yig'ish va saqlash edi. 1918 yilda Samarqandda 25 aprel 1919 yil Butunittifoq badiiy maktabi tashkil etildi. 25 aprel 1919 yil Butunittifoq

Markaziy Ijroiya qumitasi «Xunarmandchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishga doyr tegishli choralar ko'rish» haqida dekret qabul qildi. Dekretga V. I. Lenin va M. I. Kalinin qo'ul qo'ydilar. Bu dekretda hunarmandchilik buyumlarini bemalol yasab sotishga ruxsat etiladi. Moskvada 1923 yilda Butunittifoq qishloq xo'jalik ko'rgaz- masining Turkiston pavilonida ganch o'ymakorlar, naqqoshlar, yog'och o'ymakor ustalar ajoyib ishlari bilan qatnashib ko'pchilikka manzur bo'ldilar.

1925 yili «O'zpromsoyuz» tashkil etildi. Uning maqsadi tashkil etilgan hunarmandchilik artellariga rahbarlik qilish va yangi artellar ochish edi. 1930 yilda Samarqandda xunarmandchilik ishlab chiqarish texnikumi ochilib u erda xalq amaliy san'ati turlari bo'yicha ko'pgina ganch o'ymakor ustalar, naqqoshlar, kulollar va boshqa ustalar yetishib chiqdi. O'zbekiston hunarmandlari o'z ishlari bilan 1925 yilda Parijda keyin Leyptsigda, 1927 yilda jahon bo'yicha, 1937 yilda Parijda «San'at va texnika xozirgi kunda» degan ko'rgazmalarda ikkita «Gran pri», ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar. Bu Sovet hukumatining o'sha vaqtda xalq amaliy san'atiga bo'lgan katta g'amxurligi edi. 1939 yilda Nyu-Yorkda «Mir budushego» ko'rgazmalariga ham O'zbekiston xalq amaliy san'ati ustalari qatnashib diplom oldilar. Ganchkor ustalar arxitektura yodgorliklarini murakkab muqarnaslarni, nozik ganch o'yma ishlarini qayta tikladilar. Ular Minorai Kalon (XII asr), Magoki Attor machitini, (XII asr), XVII asrdasturilgan Sherdor, XVII asrda qurilgan Abdulazizxon madrasasini va shunga o'xshash arxitektura yodgorliklariga qayta hayot baxshida etdilar. Bu murakkab ishlarda jumhuriyatimizdagi ganchkor ustalar o'z kuchi, quvvati va bilimini ayamadi. Ular buxorolik ganch o'ymakorlar— Usta Shirin Murodov, Shoir Ibodov, Abdurahim Xayotov, samarstandlik Rashid Jalilov, Shamsiddin Fofurov, Abdurashid Jalilov, Akrom Umarov, Mirhomid Yunusov, Abdurayim Shermuhamedov, toshkentlik Arslonqul Nazarov, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Usmon Ikromov, xivalik Odamboy Yoqubov, Odamboy Bobojonov, Abdulla Boltaev, Ro'zimat Masharipov, namanganlik Usta Madalixon Xusanov, Usta Akbarov; qo'qonliklardan - Usta Saidahmad Maxmudov, Muhammadjon Kosimov va boshqa ko'pgina kamtarin ganch o'ymakorlar o'z kuch va g'ayratlarini ayamadilar.

1938-yili Moskvada Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'gazmasidagi O'zbekiston SSJ pavilonlarini Buxorodan, Toshkentdan, Fargonadan, Xivadan ganch o'ymakorlar, yog'och o'ymakorlar va naqqoshlar qurdilar va bezadilar. U erda birinchi bo'lib ganch qandil namoyish qilindi. Xaqiqatdan ganch o'ymakorlik san'ati O'zbekistonda o'ziga xos milliy an'anaga ega. Kishilarni ganch o'ymakorlik san'atiga bo'lgan hurmati yanada oshdi.

1939-yili samarqandlik va buxorolik ustalar Toshkent shahar Navoiy ko'chasidagi «Mo'zkomediya» teatri binosini ganch o'ymakorligi bilan bezadilar. Bu binoni bezashda Usta Shirin Murodov, usta Shamsiddin G'ofurov, usta Abdurayim Xayo- tov va boshqalar qatnashdilar. Ustalar binoning ichki va

tashqi qismlarini namoyon, panjaralar, ustunlar va boshqa joylarini ajoyib ganch o'ymakorligi bilan bezadilar.

O'zbekiston SSJ Oliy Soveti Prezidiumi binosining ganch o'ymakorlik ishlarini Toshkentlik Toshpo'lat Arslonqulov bezadi. Evropacha usulda ustunlarning yuqori qismini, namoyonlar, ruta, zanjira, sharafalar bilan bezadi. Ulug Vatan urushi vaqtida ham O'zbekistonda hunarmandchilik ishlab chiqarish korxonalari ishlarini davom ettiraverdi. Xukumat shunday og'ir kunlarda ham xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berib ko'pgina qarorlar chiqardi. O'quv kombinatida ustalar tayyorlash davom ettirildi, Usha davrdagi eng og'ir kunlarda Beshyog'och maydonida Mukimiy nomli teatr qurildi. Bu binoni qurilishiga marg'ilonlik usta me'mor O'zbekiston SSJ Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi Yusuf Ali Musaev boshchilik qildi  Teatr binosini bezashda buxorolik Usta Shirin Murodov, samarqandlik Quli Jalilov, toshkentlik Maxmud Usmonov, Usmon Ikromov, Shamsiddin G'ofurov, arxitektor Obid Zaynutdinov va A. A. Sidirovlar, rassom R. A. Akbalyan va boshqalar qatnashdilar.

Toshkentda 1947 yilda g'alabaga bag'ishlab me'mor A. Muxamedshin boshchiligida Kurant binosi qurildi. Bu qurilishni bezashda Usta Shirin Murodov qatnashdi. U naiqsh kompozistiyalarini yuqori badiiylik bilan o'yib bajardi. Ganch o'ymakorlik ishlari butun bino arxitekturasiga juda mos tanlangan. Kurant binosining sharafa, ustunlari, panjaralari o'yma ganch bilan bezaldi. Sharafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. Xar bir panjaraga alohida kompozistiya chizilib atroflariga moslab zanjira hoshiya berildi. O'zbekiston me'morchiligiga katta xazina bo'lib qo'shilgan. O'zbekiston SSJ Davlat opera va balet katta teatri 1947 yili akademik arxitektor Aleksey Shusevning loyihasi va rahbarligi ostida qurib bitkazildi. Jahonga tanilgan arxitektor — Korbbze'nni yetishtirgan Franstiya Aleksey Shusevning nomini ham yaxshi biladi. Chunki u 1897 yilda Parij akademiyasining musavvirlik sohasi bo'yicha talabasi bo'lgan. 1933 yilda Toshkentda quriladigan teatr binosining eng yaxshi loyihasi uchun Butunittifoq konkursi e'lon qilingan, bu konkursda Aleksey Viktorovich Shusev tavsiya etgan loyiha eng yaxshi deb topildi. 1940 yilda teatr binosining qurilish ishlari boshlanib 7 yilda bitkazildi. A. V. Shusev 1894 yillardayost qadimiy Sharq me'morchiligi bilan tanish edi. U O'rta Osiyo bo'ylab o'tkazilgan arxeologik ekspeditsiyalarda qatnashdi, Temur davrida qurilgan yodgorliklarni sinchiklab o'rgandi. O'sha paytda u Sharq quyoshining tig'i ostida tovlanib ko'zga tashlanadigan arxitekturani quradi. Teatr binosi arxitekturaga, ana shu yodgorliklarga bo'lgan muxabbati, bilimi juda ham ko'l keldi. Bino Ulug Oktyabr inqilobining 30-yilligi nishon- lanayotgan kunda qurib bitkazildi. Ulug' o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi yubileyining tantanalari shu tadbirga qo'shilib ketdi. Xuddi o'sha kuni teatrga mutaffakkirning nomi berildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablarga asoslanib o'zbek milliy an'analarini saqlagan holda xalq hunarmand-ustalari bunyod etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaharlardan ustalar, Naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshtaroshlar va boshqalar kelishdi. Bezak

ishlarida Akademik Shusev eskizi buyicha teatrning fasadi, (tashsti ko'rinishi) eshikdan kiraverish joyi (foesi) va tomosha qilish zali (mehmonxonasi)ni T. Arslonqulov bajardi. Teatr binosining 3-qavatida 6 ta yon zal (mehmonxona) lari bor edi. Shusev O'zbekiston viloyatlaridagi ganchkor ustalarni bir joyga yig'ib, ular oldiga ikki muhim masalani qo'ydi. Birinchisi har bir viloyatning o'ziga xos milliy uslubi asosida bezash, ikkinchisi - bezalgan xona teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushishi kerakligi hastidagi masalani qo'ydi. Bu Xiva, Termiz, Samarqand, Farg'ona, Buxoro va Toshkent zallaridir. Bulardan Xiva va Termiz zallari qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an'anasiga mos bo'lgan ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan.

Xiva zali -(arxitektor S. N. Polupanov) Xiva zalidagi ornament naqsh andazalarini davlat mukofoti laureati Abdulla Boltaev chizgan.Ganch o'ymakorlik ishlarini xivalik ustalar - S. Xudoyberganov, K. Polvonov, B. Bobojonov, Ro'zimat Masharipov va uning shogirdlari S. Qalandarov, Sh. Ibrohimov, S. Qodirov, Avazov kabi ustalar milliy badiiy bezashda qatnashdilar. Ular bezagan o'yma ishlar kishi qalbiga orom va quvonch bag'ishlaydi.

Xiva zali qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Xiva zalidagi bezaklar medal'on shaklida qilyb o'yilib, xuddi Xivadagi moyolik (koshin)ga o'xshab ketadi. Bu o'yma uncha chuqur bo'lmay juda mayda o'yilgan, xuddi yog'ochdan o'yilganga o'xshaydi. Naqsh kompozistiyasining tuzilishi spiralsimon, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumiy naqsh kompozistiyalari shakldor medal'onlarni takrorlanishidan hosil bo'lgan uzoqdan ajoyib namoyon ko'rinishiga ega.

Termiz zali - (me'mor A. Zaynutdinov.) bu zalning naqsh kompozistiyalarini Usta Shirin Murodov Termiz stiliga mo'ljallab chizgan. O'yma ishlarini Usta Shirin Murodov, F. Ne'matov va boshqalar bajarganlar. Termiz zali qadimiy ganchkorlik uslubida bezatilgan bo'lib, XII asr Termiz saroyidagi ganch o'ymakorligini eslatadi. Teatrga kirgan odam O'rta asr bezash stilini shu teatrda uchrashini xayoliga ham keltirmaydi.

Termiz zalida zamonaviy uslubdagi hech narsani ko'rmaymiz. O'yilgan naqsh zamini umumiy yo'zaning 10-30% ni tashkil etadi chuqurligi 10-20 mm. O'yilgan yuza qoramtir tusda soya berib o'yilmagan yuzani aniq kontrast qilib ko'rsatib turibdi. Xoshiya va izoraga ishlangan naqshlar foni 10-20% ni tashkil etib, naqsh kompozitsiyalari bir-biridan farq qiladi. Namoyonlar cheti ozgina bo'sh qoldirilib atrofiga ruta ishlangan. Ruta foni namoyondagi fonga nisbatan kam o'yilgan. Bu namoyonga qaraganda ruta oqishroq bo'lib namoyon kompozitsiyasining ko'rkini yanada ochgan.

Farg'ona zali - (me'mor B. N. Zasipkin) ganch o'ymakorligi va naqsh kompozistiyalarini qo'qonlik Saidmahmud Norqo'ziev bajargan. O'yma ishlariga Jalil Marasulov va ko'pgina Farg'ona ustalari qatnashishgan. Farg'ona

zalining shifti qoburg'ali qilib ganch o'ymakorligi kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Bu Farg'ona vodiysidagi an'anaviy badiiy uslubni eslatadi. Sharafa biroz qo'polroq qilib stillashtirib yuborilgan. Sharafani yuqori qismiga geometrik naqshlar panjaraga o'xshatib ishlangan. Naqsh kompozistiyalari choka pardozda bajarilgan.

Samarqand zali - (me'mor S. N. Polupanov) ganch o'ymakorligi ishlari kompozistiyalarini davlat mukofoti laureati Quli Jalilov va boshqalar bajargan. Bu zal sharafa kompozitsiyalarini, geometrik ornamentlarni, namoyon, ruta zanjira kompozistiyalarining ajoyib namunalari ishlangan. Shiftga geometrik naqsh girix o'yilib oralariga o'yma islimi naqsh kompozitsiyalari bajarilgan. Shift atroflariga yulduzsimon hovuzlar va o'rtasiga murakkab geometrik naqshlar o'yilgan. Devorning yuqori qismiga iroqi sharafa bajarilgan. Keng to'rtburchak shaklidagi gilamga, ya'ni Samarqanddagi so'zanaga o'xshab ketadi. Namoyon atrofida bo'sh joylar qoldirilib ba'zilarga ruta o'yilgan. Bu bo'shliqlar kompozitsiya yanada badiiylashtirib xonaning ko'rkamligiga yana ko'rk bag'ishlaydi. Qandillar sakkiz qirrali qilib o'yilgan.

Buxoro zali - bu zalning naqsh kompozistiyalarini va o'ymalarini Usta Shirin Murodov bajargan. U buxorocha milliy va zamonaviy uslubni qo'llagan. Uning oyna zaminli ganch o'ymakorligi xonani yanada keng qilib ko'rsatadi. Unda ajoyib va murakkab sharafalar, qandillar, namoyonlar kishi diqqatini o'ziga tortadi. Keksa Usta Shirin Murodov buxoroliklarga xos «tabaqa pardoz» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha etkazib kelib Buxoro zalida oynai jahon qurdi. U ajoyib qandil ishlab uyning shiftiga qubbali qilib muqarnas ishladi. Shift o'rtasiga o'sha davrgacha hech kim stalaktit ishlatmagan edi. Murakkab muqarnaslar xona hajmiga mos tushgan. Hajmli oppoq geometrik shakllar kishiga kandaydir erkinlik his tuyg'usini beradi. Deraza ko'zgu zaminli namoyonga tushayotgan yorug'lik xonaga yanada keng, yorug' va o'ziga xos joziba baxsh etadi.

Toshkent zali (mehmonxonasi) - Toshkent zaligta Toshpo'lat Arslonqulov kompozitsiya chizdi. Guldasta, sharafa, namoyon, rutalar yuqori relefli qilib bajarildi. Toshpo'lat Arslonqulov o'yma naqsh solish texnikasi, «muqarnas», «majnuntol», «choka pardoz», «zanjira», «shohbarg» kabi uslublarni amalda qo'llab, taraqqiy ettirish bilan birga «chor burchak», «kuvacha islimi», «palak islimi», «paxta chanog'i islimi» kabi kompozitsiyalarni bezadi. Toshpo'lat Arslonqulov zalda zamonaviy ganch o'ymakorligini bajarib, uning har bir kompozitsiyasi tantanaviy dinamik qilib ishlangan. Pardozning rang-barangligi boshqa viloyat naqshlaridan farq qiladi. O'ymalar aniq, ko'rkam yaxshi qo'rinishga ega. Usta islimi naqshdan ko'p foydalangan.

San'at turlari asrlar, yillar davomida bir tekisda taraqqiy etmaganligini ko'rish mumkin. 50-yillarda «ortiqcha hashamga» qarshi kurash boshlangan. Binokorlikda xalq amaliy san'ati sig'ishmaydi, degan kishilar topildi. Ular binoga nima ko'rk, hasham, estetik zavq uyg'otsa shular ortiqcha deb topildi.

Natijada binolar hech qanday bezaksiz to'rtburchak qilib qurila boshlandi. Ganch o'ymakor ustalar o'z kasblarini tashlab boshqa sohalarga o'tib ketishdi.O'sha kezlarda Usta ganchkor Maxmud Usmonov o'z kasbini tashlamasdan Lenin va N. Ostrovskiy nomli pionerlar saroyida ganch o'ymakorligi tugaragini davom ettirdi. 1953 yili Mahmud Usmonov iltimosi bilan Toshkent shahridagi P. Benkov nomli jumhuriyat badiiy uquv yurti qoshida xalq amaliy san'atining bir necha bo'limlari, shu jumladan ganch o'ymakorligi bo'limi ham ochildi. Bu o'quv yurtiga Davlat mukofoti laureatlari Usta Shirin Murodov, Usta Toshpo'lat Arslonqulov va Maxmud Usmonovlar o'ymakorlik sirlarini yoshlarga o'rgatdilar. 1957 yili Usta Maxmud Usmonov qirqqa yaqin shogirdlari bilan BuxorodagiSitorai Mohi-Xosa saroyidagi ganch o'ymakorlik ishlarini qayta tikladi. 1961 yili A. Navoiy nomidagi katta Akademik opera va balet teatrining ganch o'ymakorligi bezaklari qayta tiklandi.

1966 yili Toshkent zilzilasi oqibatida ko'pgina uylar vayron bo'ldi, arxitektura yodgorliklari shikast edi. Ularni qayta tiklashda ganch o'ymakor usta Mahmud Usmonov o'z shogirdlari bilan qatnashdi. 1967 yili O'zbekiston Ministrlar Soveti binosining ganch o'ymakorligini M. Usmonov bajardi. Zal bezagi uchun usta ikki xil nusxa tayyorladi, ulardan biri raxli, ikkinchisi qo'sh qavatli girihlardan foydalandi. U ustunlarga pargori islimi Naqshni qo'llab ajoyib asar yaratdi. Bu binoni bezatishda pax pardozdan foydalangan.

1967—1968 yillarda Xamza nomidagi Davlat Akademik drama teatri binosining ichki kismi ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. M. Usmonov bu binoda ganch o'ymakorlik turlari qirmadan, choka va tabaka pardozlarni qo'llagan.

1968 yili O'zbekiston Markaziy LKSM komiteti ma'muriy binosining ichki qismiga ganch o'ymakorlik bezaklarini M. Usmonov bajardi. Bu binoda u ganch o'ymakorligining ajoyib namunalarini ko'rsatdi, ayniqsa «Xalqlar do'stligi» kompozitsiyasi namunali chiqqan. Bu namoyonda qardosh sovet xalqlarining do'stligi badiiy ifodalar xuddi chamanzordagi bog'larni shu qatori ramziy Naqshni o'ta mohirona bajargan. Unda fakat nisbiylik hisobga olinmagan, lekin o'ymaning dinamikligiga katta e'tibor berilgan. Bu binoda choka va qisman pax pardoz kullanilgan. 1968 yili O'zbekiston qishloq xo'jalik ministrligi binosi ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Buni ham M. Usmonov bajardi. Bu erda o'yma Naqsh 1,5 sm chuqurlikda o'yilib choka pardoz berilgan. Ayniqsa, islimi Naqshlarning nafisligi va dinamikligi kishini o'ziga maftun etadi.

1968 yili Alisher Navoiy nomli Adabiyot muzeyining geometrik va o'simliksimon ganch o'ymakorligi kompozitsiyalarini bajardi. M. Usmonov bu binoni choka pardoz, ayrim joylarini pax va tabaka pardoz kilib bezagan. Ganch o'ymakorlik bilan O'zLKSM Markaziy Komiteti ma'muriy binosi, Markaziy univermag, Buxoro konsert zali, Toshkent markazidagi yangi qurilgan Lenin haykali tribunasi tagidagi zallar va binolar ganch o'ymakorligi bilan bezatildi.

1969-70 yillarda Samarqanddagi aeroport, Registon maydonidagi restoran binolari, Toshkentda esa V. I. Lenin Markaziy muzeyining Toshkent filiali ganch o’ymakorligi bilan bezatildi. 1980 yili Maxmud Usmonov Xamza Xakimzoda Niyoziy nomidagi Toshkent San’atshunoslik instituti binosida o’yma ganch ishlarini bajardi. Naqsh kompozistiyalari chizmalarini Z. Bositxonov bajargan. U yerda Xiva, Buxoro, Termiz va Toshkent uslublari mavjud. Keyingi yillarda ganch o’ymakorligining noyob asarlari va ularni yaratgan ustazodalar haqida san’atshunos olimlar Rempel L. I., Notkin I. I., Prista I., Morozova A. S., Zoxidov P. Sh., Z. Bositxonov va boshqalar risolalari bilan ganch o’ymakorlik sirlarini ochib, tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.O’zbekistonda xalq amaliy san’ati turlari rivojlanib bormoqda. Hozirgi zamonaviy binolar, uylar ganch bilan bezatilmoqda. Shu paytgacha ganchkorlik san’ati namunalarini xalq amaliy san’ati muzeyida badiiy ko’rgazma zallarida, madaniy va maishiy xizmat ko’rsatish binolarida uchratamiz. Chunonchi temir yo’l vokzali, aeroport binolarida, mehmonxonalarda, muzeylarda, choyxona, kafe, restoranlar, teatrlar, fabrika va zavod, kolxoz va sovxoz klublari va idoralarida, saroylarida, maktablarda, sirk binolarida, hattoki xonadonlarda ham mohir ustalarning ganch o’ymakorlik namunalarini ko’ramiz. Ganch o’ymakorlik san’ati tez sur’atlar bilan taraqqiy etib bormoqda.

**1 - mashg'ulot: 2- soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 3.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |

| | |
|---|---|
| **Ma’ruza rejasi** | 1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O’zbekiston madaniyati va san’ati. Shahar va qishloqlar turmush tarzining o'zgarishi.<br>2. Ahmad Donish miniatyuralari. Zamonaviy san'at turlarining kirib kelishi.<br>3. Arxitektura va tasviriy san’at. Kino san’atining kirib kelishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Rossiya mustamlakasi davrida Turkistonda madaniyat va san’at. Zamonaviy san’at turlarining kirib kelishi to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O’zbekiston madaniyati va san’ati to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Zamonaviy san’at turlarining kirib kelishi haqida tushuncha berib, izohlaydi.<br>* Arxitektura va tasviriy san’at haqida tushuncha beradilar.<br>* Kino san’atining kirib kelishi to’g’risida tushuncha beradi. | * XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O’zbekiston madaniyati va san’atini gapirib beradilar .<br>* Zamonaviy san’at turlarining kirib kelishi to’g’risida eshitganlarini muhokama qiladilar.<br>* Arxitektura va tasviriy san’at haqida ma’ruzada eshitganlarini muhokama qiladilar.<br>* Kino san’atining kirib kelishini muhokama qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor |

| | |
|---|---|
| | va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**3.1.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi**

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish.<br>(20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (2-ilova). | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy<br>(50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O’zbekiston madaniyati va san’ati qanday bo’lgan va qaysi turlari rivojlangan?<br>2. Zamonaviy san’at qanday turlari bizgacha kirib kelgan?<br>3. Arxitektura va tasviriy san’at to’g’risida nimalarni bilasiz?<br>4. Kino san’atining kirib kelishi to’g’risida nimalarni bilasiz?. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich.<br>Ya kuniy | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| bosqich. (10 minut) | tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi . | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**2 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. Rus va Yevropa kitob san'atining keng yoyilishi.

2. Kino san'atining kirib kelishi. Xudoybergan Devonovning faoliyati (1877 - 1940).

3.Turkistonda amaliy bezak va xalq san'ati. Xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan buyumlarning tashqi bozorlarga chiqishi.

**Kino san'atining vujudga kelishi.**

Kino san'ati — kinematografiya ning texnik vositalar asosida shakllangan badiiy ijod turi; ekran san'atining muhim tarkibiy qismi; real borliqni aynan yoki badiiy-hujjatli obrazlar, multiplikatsiya vositalari yordamida suratga olish; kinofilmlarning omma orasida keng tarqalishi uchun xizmat qiladigan televideniye, videokasseta va videodisklarni ham oʻz ichiga oladi. Kino san'ati kinematograf bilan bir vaqtda paydo boʻldi. Kinematograf esa fan va texnika taraqqiyoti bilan bogʻliq holda yuzaga keldi va asta-sekin zamonaviy iqtisod, san'at va madaniyatning eng zarur sohasiga aylandi.

Kino 1895 yil 28 dek.da Parijda (ixtirochilar aka-uka O. va L. Lyumyerlar) yuzaga kelgan. Uning yuzaga kelishi, oʻz navbatida, insoniyatning badiiy madaniyati tarixida ob'yektiv qonuniyat bosqichi boʻldi. K. yeda adabiyot, teatr, tasviriy san'at va musiqa tajribalari, uning estetik jihatlari uygʻunlashtirilib, oʻziga singdirilgan holda voqelik oʻziga xos ifoda vositalarida fotogʻrafik tasvir orqali koʻrsatiladi. Kino san'atining ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va histuygʻulari, umuman, ma'naviy dunyosining shakllanishida gʻoyaviy-badiiy ta'siri kuchlidir. Kino san'atining qaror topishida amerika kinorejissyori D. Griffitnit xizmatlari katta. Birinchi boʻlib, u yirik plan, parallel montaj,

kengaytirilgan panorama kabi ifodali vositalarni qoʻllagan. Shuningdek, S. Eyzenshteyn, Ch. Chaplin, E. Shtrogeym, K.Dreyer, K. Vidor, R. Kler qabilar ham jahon kinosi rivojiga munosib hissa qoʻshdilar.

20-asrning 1-yarmida Kino san’atining janr tizimidan koʻproq komediya harakteridagi sarguzasht hamda qoʻrqinchli filmlar oʻrin oldi. 20-yillardan kinoda turli uslubiy izlanishlar boʻldi. Mas, "ekspressionizm", "poetik kino", "maxfiy kino" harakati, "ochiq kino" va boshqa

Keyinroq turli mavzular qatori kinohikoyalarga alohida e’tibor berildi. Koʻproq ma’lum bir tarixni hikoya qiluvchi filmlar koʻpaydi. Urushdan keyingi yillar rivojlangan mamlakatlarning ilgʻor kinematografchilari ishlagan filmlar, ayniqsa, italiya neorealizmi ekran san’atining asosini tashkil etdi. 50-yillarning oxirlari Kino san’atida kino va televideniyening oʻzaro bir-biriga ta’siri, bir necha soat davom etadigan filmlar ishlash kabi muhim oʻzgarishlar yuz berdi. Ayni bir vaqtda Kino san’ati bilan bogʻliq teleekran ijodi paydo boʻldi va rivoj topdi. Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi kabi koʻpgina mamlakatlarda yangi kinematografiyaning paydo boʻlishi, bir qator gʻarb davlatlarida oʻziga xos kinematografik maktablarning rivojlanishi kino mahsulotlarining xilma-xilligini ta’minladi. Kino san’ati janr va uslub jihatdan boyidi. Ekran ijodida polifoniyaning turli shakllari qoʻllanila boshladi. Rivojlangan mamlakatlarda eski janrlarning oʻziga xos qayta uygʻonish davri boshlandi. Birinchi navbatda, melodrama hamda kinematografik bayonda an’anaviy shakllarning jonlanishi koʻzga tashlandi. Ayni vaqtda yangi televizion tizim (kabelli televideniye), yer yoʻldoshi orqali oʻzatiladigan koʻrsatuvlar, videomagnitofon, videokasseta, videodisklarning keng tarqalishi natijasida Kino san’atining rivojlanishi murakkablashdi.

Kino san’ati asarlari yozuvchi-dramaturg , rej., aktyor, operator, rassom, kompozitor kabi ijodiy xodimlardan iborat jamoa mahsulidir. Kinoda rej. yetakchi rol oʻynaydi. Film yaratish 2 tomonni — ijod va ishlab chiqarishni oʻz ichiga oladi. Kino ishlab chiqarishning markazi — kinostudiya. Tayyor filmlar kinoprokat orqali tarqatiladi va ular kinoteatr, televideniyeda koʻrsatiladi. Ekran san’atining oʻziga xos ifoda vositalari bor: umumiy, oʻrta va yirik planda suratga olish, turli rakurslarda kameralar harakati, epizod va kadrlar montajining turli shakllari va boshqa Kino san’atining 4 asosiy turi mavjud: badiiy film, ilmiy-ommaviy kino, hujjatli kino va multiplikatsion kino. Shulardan badiiy film Kino san’atining asosiy turlaridan boʻlib, maxsus yozilgan ssenariy yoki qayta ishlangan badiiy adabiyot (hujjatli yoki badiiy proza, teatr dramaturgiyasi va boshqalar) asosida ijodning ijroviy vositalari yordamida real yoki toʻqima voqealarning bayon etilishi; ilmiy-ommaviy kino tomoshabinlarni tabiat va jamiyat hayoti, ilmiy kashfiyot va ixtirolar bilan tanishtiradi. Kino san’atining yana bir muqim turi — multiplikatsion kino. Eng keng tarqalgan shakllari rasmli va qoʻgʻirchokli filmlardir. Rassom chizgan rasmlar yoki maketlar, shuningdek, qoʻgʻirchoqlar harakatlantirilib kinotasmaga tushiriladi. Hujjatli kino — boʻlgan

voqea va harakatlarni tasmaga tushiradi. Kino san’atining komediya, tarixiy, dramatik va sarguzasht filmlar kabi janrlari mavjud.

## Ilk o’zbek kino san’ati.

O‘zbekistonda birinchi film 1897 yil "Eski jo‘va" maydonida ko‘rsatilgan. 1908 yildan Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va boshqa shaharlarda chet el filmlari namoyish etilgan. O‘rta Osiyoda ko‘rsatilgan kinolentalar, asosan, Amerika, Fransiyaning Sharq ekzotikasi tasvirlangan filmlaridan iborat bo‘lgan. O‘zbek milliy Kino san’ati 20-asrning 20-yillarida vujudga keldi. Birinchi o‘zbek kinooperatori Xudoybergan Devonov o‘zining ilk hujjatli-xronikal filmlarida o‘zbek xalqining hayotini, urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan.

1924 yil rus-buxoro shirkati "Buxkino", 1925 yil Toshkentda "Sharq yuldo‘zi" (1936 yildan "O‘zbekfilm") kinofabrikasining tashkil bo‘lishi o‘zbek Kino san’ati rivojini boshlab berdi. Lekin milliy kadrlarning yetishmasligi natijasida studiyani tashkil etishga urinish va "Buxkino" shirkati qoshida muntazam suratga olishni tashkillashtirish muvaffaqiyatsiz bo‘ldi. Toshkent studiyasiga hali kino sohasida yaxshi tanilmagan rus kino arboblarining kelishi, ularning kasbiy saviyasining pastligi haqiqiy milliy mazmundagi kinolar yaratishga yo‘l qo‘ymasdi. Ular yaratgan filmlar faqat ekzotik va tashviqiy harakterda bo‘lib, o‘zbeklar hayoti bo‘zib ko‘rsatilardi, o‘zbek ayollari rolini rus aktrisalari o‘ynashi natijasida qahramonning ichki dunyosi, uning psixologik kechinmalari ochib berilmasdi [mas, "O‘lim minorasi" (rej. V. Viskovskiy), "Musulmon qiz" (D. Bassaligo), "Ikkinchi xotin" (M. Doronin) va boshqa]. Kino ishlashda milliy proza va dramaturgiyadan foydalanishdan bosh tortish, o‘zbek hayotini bilmaydigan rus mutaxassislarning o‘zlari yozgan ssenariylari asosida film yaratishi milliy kino uchun juda katta yo‘qotish bo‘ldi, o‘zoq yillargacha o‘z shakl-shamoyiliga ega bo‘lolmadi, uning "o‘zbek milliy kinosi" sifatida shakllanishiga o‘tib bo‘lmas to‘siq bo‘ldi.

Ovozsiz filmlarda berilgan mazmun tomoshabinga ko‘proq Yevropa mutaxassislari nuqtai nazarini ifodaladi, chunki milliy an’analarni bilishdan yiroq mualliflarning asarlari shu ruxda yaratilgan edi. 20-yillar yaratilgan "Soyabon arava" (O. Frelix), "Ravot qashqirlari" (K. Gertel), "Makrli changal" (V. Kozlov), "Chodira" (M. Averbax) kabi filmlar shular jumlasidan.

Ovozli kinoning yuzaga kelishi o‘zbek Kino san’atining ham badiiy qiymatini oshirdi. Birinchi o‘zbek ovozli filmi "Qasam" (1937, rej. A. Usolsev-Graf)da milliy aktyorlik madaniyati, o‘zbek hayoti va psixologiyasi mufassal aks etdi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan dramaturgiya namoyon bo‘ldi. Chunki barcha bosh rollarni o‘zbek aktyorlari o‘ynagan edi. Lekin baribir asar ovozsiz kino davridagi eski kino madaniyati qoldig‘utridan xoli bo‘lolmagani sababli o‘tmish va bugungi kun o‘rtasida arosatda bo‘lib qoldi. Shu sababli,

o‘sha davrda yaratilgan Gro‘ziya, Ozarbayjon filmlari kabi eng yaxshi filmlar darajasiga ko‘tarila olmadi.

O‘zbek kinosining muboshiri bo‘lgan "Nasriddin Buxoroda" (1943, rej. Ya. Protazanov) filmi xalq mavzusining haqiqiy imkoniyatlarini ochib berdi, tasviriy vositalar qatorini qanday chiroyli va ifodali qurish mumkinligini ko‘rsatdi, yuqori darajadagi ijro uslubini o‘rgatdi. "Tohir va Zuhra" (1945, rej. N. G‘aniyev) filmi xalq ertaklari asosida yaratiladigan filmlar chegarasini "bo‘zib" o‘tgan holda tarixiy filmlar yaratishga asos soldi, milliy ruhdagi ifodali o‘yin imkoniyatlarining naqadar kengligini his etishga imkon berdi. Keyinroq yaratilgan "Alisher Navoiy" (1947, rej. K. Yormatov) filmining yaratilishiga "Tohir va Zuxra" kinosi muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, "Boy ila xizmatchi", "Qutlug‘ qon" (1953, 1957, rej. L. Fayziyev), "Shohi so‘zana" (1954, A. Beknazarov) kabi badiiy asarlar ekranlashtirildi.

O‘zbek kinosida yoshlarda zamon talablariga yangicha qarash shakllandi, eski qolip va taxminlardan o‘zoqlashdilar, dunyoga shoirona nazar tashlash imkoniyatlari namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga hayot faqat sevish, xursandchilik qilish, qahvaxonalarda raqsga tushish, chiroyli kiyinishdan iborat deb bilgan shaharlik yigit va qizlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan filmlar ham o‘zbek ekran san’atiga yangi bir sahifa bo‘lib kirib keldi. Bu, ayniqsa, rej. E. Eshmuhamedov ijodida ["Nafosat" (1966), "Sevishganlar" (1969) va boshqa] yaqqol ko‘zga tashlandi. "Maftuningman" (1958, Y. A’zamov), "Mahallada duv-duv ran", "Sen yetim emassan", "Qalbingda quyosh", "Toshkent — non shahri" (1960, 1962, 1966, 1967, rej. Sh. Abbo-sov), "Sinchalak", "Ulug‘bek yuldo‘zi", "Natashaxonim" (1961, 1965, 1966, rej. L. Fayziyev), "O‘tgan kunlar" (1969, rej. Y. A’zamov)va boshqa filmlar shular jumlasidan.

Milliy kino ijodkorlarining tashkiliy va ijodiy ishlar, to‘plangan tajribalarni yangicha ko‘z bilan ko‘rib chiqishi, ekran san’atiga talabchanlikni oshirishi natijasi o‘laroq tarixiy-inqilobiy filmlar ("Qora konsulning halokati", rej. K. Yormatov; "Yettinchi o‘q", A. Hamroyev va boshqalar) bilan bir qatorda zamonaviy mavzuda ham bir qancha filmlar ishlandi: "Shiddat" (rej. U. Nazarov), "Yoz yomg‘iri" (A. Qobulov), "Falokat oyoq ostida" (3. So-bitov), "Sevgi fojiasi" (Sh. Abbosov), "Alangali so‘qmoqlar" (Y. A’zamov), "Seni kutamiz, yigit" (R. Botirov),"Achchiq danak", "O‘zganing baxti" (Q. Kamolova), "Inson qushlar ortidan boradi" (A. Hamroyev, Dehli xalqaro kinofestivalida "Kumush tovus" mukofotini olgan, 1976), "Chinor ostidagi duel" (M. Abzalov) va boshqa Shuningdek, buyuk allomalar hayoti haqida so‘zlovchi "Nodirabegim" (rej. K. Yormatov), "Abu Rayhon Beruniy", "Olovli yo‘llar" (Sh. Abbosov) hamda "Zulmatni tark etib..." (Y. A’zamov), "Shum bola" (D. Salimov) va boshqa

O‘zbek kinosi izlanishlarni kengaytirishga, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqur va yorqin ifodalovchi kinolentalar yaratishga intildi. Ekran son va sifat jihatdan yana bir pog‘ona ko‘tarildi, janrlar esa shakl va

mazmun jihatdan kuchaydi, ularning xilma-xilligi oshdi, qolipga tushib qolgan odatiy mazmunlardan qochish sezildi.

"Alibobo va qirq qaroqchi" (rej. L. Fayziyev, U. Mehra), "Mana o‘sha yigit qaytib keldi" (R. Botirov), "Oltin junli qo‘y terisi", "Uygonish" (L. Fayziyev), "Bo‘ysunmas" (A. Qobulov), "Qiyomat qarz" (U. Nazarov), "Dahoning yoshligi", "Karaxtlik" (E. Eshmuhamedov), "Parol "Regina" mehmonxonasi" (Y. A’zamov), "Armon", "Suyunchi", "Kelinlar qo‘zg‘oloni", "Maysaraning ishi" (M. Abzalov), "Orzular og‘ushida" (F. Zaynutdinov) va boshqa filmlar estetik sifatini ustunligi va yangi-yangi shakllari bilan ajralib turadi.

Keyingi 10 yillikda milliy Kino san’ati rivojida keskin burilish davri bo‘ldi. Qiziqarli filmlar yaratgan M. Abzalov, 3. Musoqov, Yu. Sobitov kabi rej. larning filmlari zamon muammolari, yoshlar hayotining eng og‘riq jabhalariga qaratildi, uslublar xilma-xilligi ta’minlandi.

"Tongga qadar" (Yu. Azimov), "Ajdodlar ovozi" (F. Shermuhamedov), "Ketma" (J. Ishoqov, R. Sa’dullayev), "Sevgi qurbonlari" (A. Ismoilov) kabi filmlar e’tiborga molikdir. 1996 yil milliy kino uchun yangi muhim sana nuqtasi bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 12 iyul 247-qaroriga asosan, "O‘zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasi tashkil bo‘ldi. Farmon o‘zbek kinosini yangi izlanishlar, zamon bilan hamnafas bo‘lish vazifalariga undadi, tomoshabinni jalb qila bilish yo‘llarini topishga, o‘z-o‘zini pul bilan ta’minlash, yangi texnik jihozlar bilan qurollanishga majbur etdi. Farmon natijasi o‘laroq, "Kenja qiz" (R. Kubayeva), "Atrof oppoq qor bilan qoplangan" (Q. Kamolova), "Yuldo‘zimni ber osmon" (F. Davletshin), "Buyuk sohibqiron" (I. Ergashev, B. Sodiqov), "Otamdan qolgan dalalar" (Sh. Abbosov), "Marg‘iyona" (H. Fayziyev), "O‘tgan kunlar" (M. Abzalov, H. Fayziyev), "Piyoda" (R. Malikov), "Yaratganga shukur" (3. Musoqov), "Sevgi" (I. Ergashev), "Yolg‘iz yodgorim" (S. Nazarmuhamedov), "Tilsimoy — g‘aroyib qizaloq" (M. Boymuhamedov) kabi yangicha talqindagi filmlar yuzaga keldi.

Hozirgi kunda kinoning ijtimoiy nufo‘zi oshdi, mavzu doirasi kengaydi, mahalliy yozuvchilar asarlarining ko‘payishi ko‘zga tashlanadi. Folklor, tarixiy, zamonaviy va falsafiy mavzular qayta ishlab chiqildi. "Ayollar saltanati" (Yu. Roziqov), "Chayongul" (S. Nazarmuhamedov), "Parimomo" (M. Rajabov), "Ona" (3. Musokrv) va boshqa keyingi yillarning eng yaxshi filmlaridir.

Badiiy kinoni jaxrnga tanitgan, o‘zbek kinosining asoschisi Nabi Faniyev, xalq artisti Komil Yormatovlar ijodi o‘zbek kinosi tarixining yorqin sahifalari bo‘lib qoladi. Shuningdek, Y. A’zamov, Sh. Abbosov, L. Fayziyev, 3. Sobitov, R. Botirov, A. Hamroyev, A. Qobulov, Q. Kamolova, 3. Musoqov, I. Ergashev, H. Fayziyev kabi rej. va H. Fayziyev, A. Pann, M. Krasnyanskiy, A. Mukarramov, M. Penson, D. Fatxullin, A. Ismoilov, L. Travitskiy, D. Abdullayev singari operatorlarning milliy kinoning kamol topishida va jahon kino san’ati katoridan o‘rin olishida xizmatlari beqiyosdir.

O‘. Alixo‘jayev, Sh. Ergashev, R. Sa’dullayev, M. Rajabov, T. Shokirova, R. Adashev, D. Qambarova, B. Zokirov, D. Egamberdiyeva va boshqa eng yaxshi kino aktyorlardir.

O‘zbekistonda "O‘zbekfilm"dan tashqari "Vatan", "Imon", "Inson", "Yog‘du", "Dostonfilm", "Samarqandfilm", "Shod", "Yuldo‘z" singari kinostudiyalar ishlab turibdi (2002).

**Hujjatli filmlarning yaratilishi.**

O‘zbek hujjatli kinosi, asosan, 30-yillardan boshlangan. F. Nazarov, N. Gasilov, V. Timkovskiy, K. Alikayev, M. Kovnat, N. G‘aniyev, Y. A’zamov kabilar hujjatli kinoning dastlabki yillarida ko‘tarinki ruh bilan ishladilar va ma’lum muvaffaqiyatlarga erishdilar. "Ishlab chiqarishda jismoniy tarbiya" (rej. Y. A’zamov), "Ajoyib ish" (N. G‘aniyev), M. Qayumov suratga olgan "O‘zbek paxtakorlarining g‘alabasi", "O‘zbek xalqining bayrami" (Sh.Zohidov, O.Tursunov bilan hamkorlikda), "Katta Farg‘ona kanali", "Kuchli oqim" filmlari yuqori baholandi. Ayniqsa, "Toshkent to‘qimachilar kombinata" (1938) filmi Nyu-Yorkda o‘tkazilgan jahon ko‘rgazmasida Oltin medalga sazovor bo‘ldi.

Urush yillari "Frontdagi do‘stlarga" (rej. K. Yormatov), "Frontga sovg‘a" (S. Muhamedov, Y. A’zamov), "5 respublika konserti" (A. Speshnev, 3. Sobitov) kabi badiiy-hujjatli filmlar ishlandi. Urushdan keyin hujjatli kino ijodkorlari g‘ayrat va shijoat bilan oldinga yangi qadam tashlash bilan ijodini boshladi. "To‘rt darvozali shahar", "O‘zbekistonimizga keling", "Insoniyatning besh qo‘li", "Farhod chiroqlari" (hammasining rej. i M. Qayumov), "Sovet O‘zbekistoni" (K. Yormatov) singari kinoyilnomalarning yorqin va hayotiy kinotasmalari yaratildi. Keyinchalik yaratilgan hujjatli filmlarda O‘zbekistonda qurilayotgan zavod va f-kalar, GESlar, qo‘riq yerlarning o‘zlashtirilishi, fan va san’at fidoyilari hayoti va ijodi, sanoat yutuqlari, yirik xalqaro musobaqalar o‘z aksini topdi: "Bahordan bahorgacha", "13 qaldirg‘och", "Zilzila" (M. Qayumov), "O‘qituvchi" (N. Ataullayeva), "O‘zbekiston gazi va kimyosi" (N. Rahimboyev), "Moviy olov kishilari" (R. Grigoryev), "Yo‘lda va ona yurtda", "Ashurov voqeasi", "Ochiq aytganda", "Izlanish davom etmokda" (hammasining rej.i T. Nodirov) va boshqa shular jumlasidan.

M. Qayumovning ko‘p yillik ijodi o‘zbek hujjatli kinosi tarixida alohida bir sahifa bo‘lib qoladi. U bilan yonma-yon ijod qilgan Sh.Zohirov, T. Nodirov, A.Saidov, O.Tursunov, N.Ataullayeva, P.Rasulov, M.Arabov, A.Yoqubov, N.Rahimboyevlarning ham hujjatli kino ravnaqida xizmatlari katta.

So‘nggi yillarda o‘zbek hujjatli kinosi o‘zini ancha o‘nglab oldi, mavzular doirasi kengaydi, hayot bilan hamnafas filmlar yaratildi. Katta avlod o‘rnini yangi yosh rej., operator, ssenariychi va boshqa mutaxassislar egalladi. "Sharof Rashidov", "Abdulla Qodiriy", "Og‘riq" (Davron Salimov), "Islom Karimov. 21-asr bo‘sag‘asida" (Sh. Qurbonboyev), "O‘zbekiston bahori" (Sh. Qurbonboyev, E. Xachaturov), "O‘zbekiston oltini" (N. Mahmudov), "Non" (G‘.

Shermuhamedov), "Jahonga yo‘l" (Sh. Maxmudov), "O‘zbekiston qurolli kuchlari", "Fitrat" (G‘. Shodmonov) va boshqa keyingi yillardagi eng yaxshi filmlardir. Zamonaviy hujjatli kino rivojida Davron Salimov, B. Mo‘zaffarov, Sh. Mahmudov, Sh. Qurbonboyev qabilarning o‘rni alohida (yana q. [[Hujjatli kino).

[[Multiplikatsion kino O‘zbekistonda 60-yillardan boshlandi. Respublikada birinchi qo‘g‘irchoq film ijodkori Yu. Petrov bo‘ldi. "6x6 kvadratida" nomli birinchi filmni (Damir Salimov bilan hamkorlikda) yaratdi. Keyinchalik yaratilgan "Sehrli sandiq" (Damir Salimov), "Rahim va qo‘ng‘iz" (Q. Kamolova), "Qishki ertak" (3. Royzman), "Shahar qurbaqalari" (A. Akbarxo‘jayev), "Sehrli samovar" (M. Maxmudov), "Olma haqida ertak" (N. To‘laxo‘jayev) kabi multfilmlarda turli mavzular yoritildi.

Keyingi o‘n yillikda turli janrlarda yaratilgan multiplikatsion filmlar keyingi davr rivojini ta’minladi. "Bahrom va Dilerom", "Qoziq" (rej. M. Mahmudov), "Yangi ko‘hna ertak" (S. Murodxo‘jayeva), "Daladagi chechaklar" (N. To‘laxo‘jayev), "Yanchar quyon" (D. Vlasov), "Yangi shoxcha va ba-hor yomg‘iri haqida" (S. Silka) va boshqa shular jumlasidan. Yana q. [[Multiplikatsion kino.

"O‘zbekfilm"da ko‘p yillardan buyon jahonning eng yaxshi filmlarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, o‘zbek tomoshabiniga yetkazuvchi dublyaj guruhi xizmat qilib kelmokda. Bu sohaning asoschilari va faol ishtirokchilaridan Q. Mirmuhamedov, M. G‘aniyev, S. Saidov, B. Haydarov, S. Iskandarov, J. Obidov, V. Kutyukov, A. Sharapovlarni ko‘rsatish mumkin.

Kino san’ati masalalari bilan San’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti shug‘ullanadi. Kino ijodkorlari N. G‘aniyev nomidagi kinotexnikum va Toshkent San’at intida tayyorlanadi. O‘zbekiston kino arboblari birlashmasi (1962—96-yillarda O‘zbekiston kinematografchilar uyushmasi), 1966 yildan Kinochilar uyi, 1972 yildan Kino san’ati muzeyi ishlab turibdi.

**Aktiyorlik san’ati.**

Aktyorlik san’ati - aktyor ijrochiligi, teatr, kino, televideniye va radiola badiiy obraz yaratish san’-ati. Aktyor ma’lum rolda o‘ynar ekan, o‘z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe’l-atvorini, ichki dunyosi va instituti-lishlarini ifodalaydi. Bunda u pesa, libretto yoki ssenariydagi mazmunni o‘z ijodi, hayotiy tajribasi bilan boyi-tadi, jonlantiradi. Obraz yaratishda aktyorning nutqi, gavdasi, yuz va ko‘z imo-ishoralari, tuyg‘ulari, idroki asosiy vositalardir. Aktyor grim, libos, ba’-zan niqobdan foydalanadi, gavdalanti-radigan kishisi yoki boshqa mavjudotga yarasha xatti-harakat, ohang , imo-ishora topadi, ichki va tashqi tomonni bir-biriga uyg‘unlashtiradi. Aktyorlik san’ati ijrochi-larning dunyoqarashi, shaxsiyati, ijodiy o‘ziga xosligiga tayangan holda hayotiy voqelikni aks ettiradi. San’at turlari (drama, opera, balet, kino, telefilm, telespektakl, radioteatr) va turli-tu-man janrlarga qarab Aktyorlik san’ati bir

qator uslu-blar va yo‘nalishlarga bo‘linadi. Sahnada ijod qiluvchi aktyorni yuzlab tomoshabin bevosita kuzatib turadi. Shuning uchun u har bir so‘zni baland tovush bilan aytishga, har bir harakatni bo‘rttirib ko‘rsatishga majbur.Kinoda boshqacha: ovozeiz kinoda faqat qarakat, imo-ishora bilan inson fe’l-atvori ochib berilgan, kino ovozli bo‘lgach, aktyor kino kamerasi ro‘pa-rasida kuproq qahramonning ruhiy holatini ochishga o‘tdi. Televideniye ham aktyordan tabiiylikni talab qiladi. Radioteatrda esa aktyorlarning uzlari ko‘rinmaydi, ovozlari eshitiladi, xolos. Shu boisdan ovoz imkoniyatlari keng ishlatiladi. Ba-let spektakllarida obrazlar raqqos va raqqosalarning muayyan musiqa mazmu-nini ifodalovchi tana, qul harakatlari, aylanishlari, yuz va ko‘z imo-ishora-lari vositasida yaratiladi. Operada ijrochining musiqiy ohanglari, obraz sur’ati kompozitor tomonidan belgi-langan, dirijyor rahbarligida orkestr tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘ladi. Aktyor kompozitor belgilagan, orkestr uzlash-tirgan ohang va usullarni o‘z joziba-si, ovozi, his-tuyg‘ulari bilan boyitadi. Musiqali teatr turi (opera, balet, ope-retta, musiqali drama)ga qarab artist-ning aytish va sahnaviy harakatlari har xil bo‘ladi. Ammo umumiy jihat shuki, musiqali teatr artisti xonandalik, aktyorlik, raqqoslik sohalarini puxta o‘zlashtirgan, sintetik qobiliyatga ega bo‘lishi kerak.O‘zbek Aktyorlik san’ati qadim tarixga ega. Uning sarchashmalari ibtidoiy jamiyatdan boshlangan: tabiat hodisalariga topi-nish, ibtidoiy odamlarning e’tikrdla-riga doir marosimlardan, ovchilik bilan bog‘liq ko‘pchilik bo‘lib ijro etiladi-gan o‘yinlar, pantomimalardan kelib chiqqan. Aktyorlik san’ati badiiy ijodning aloxida turi sifatida mil. av. 5-a.da Hindiston, Yunonistonda shakllanadi. Keyinchalik Qad. Rimda rivojlandi. Ilk davlatlar va shaharlarning paydo bo‘lishi natija-sida Turkistonda ham Aktyorlik san’ati ning o‘ziga xos ilk kuri-nishlari shakllandi. Ellinizm davrida (mil. av. 3—1-a.lar) vujudga kelgan Aktyorlik san’ati an’analari 20-a. boshlariga-cha yetib kelgan. U ijtimoiy timsol — ob-razlar yaratishda o‘ziga xos uslub va ifoda vositalariga ega bo‘lgan. Obraz yaratish-da psixologik tahlildan ko‘ra nutqning serbo‘yoqligi, mubolag‘a, badiha, kulgi vo-sitalaridan keng foydalanish, harakat, imo-ishora, ohanglarni bo‘rttirishga institutilishgan. Antik davrda hozirgi O‘zbekiston hududida ham tragik aktyorlar ish ko‘rgan. O‘rta asrlarda Movarounnahr, Farg‘ona vodiysi, Xorazm vohasida hajv va hazil vositalaridan foydalangan masharalar, muqallidlar, jiddiy yo‘sinda hikoya qiluvchi maddohlar, qissaxonlar, voiz-lar, go‘yandalar faoliyat ko‘rsatganlar. 20-a.da maydonga kelgan Yevropa tipidagi yangi o‘zbek teatrida Aktyorlik san’ati yanada taraqqiy 274etdi. U jahon teatri va Aktyorlik san’ati tajribala-rini ijodiy o‘zlashtirish, qad. milliy teatr ijrochilik an’analarini rivoj-lantirish yo‘lida kamol topdi. Aktyorlar dramaturg tasvirlagan voqelikni, pesa qaxramonlarining ichki dunyosini ochish-ga, obrazning g‘oyaviy ma’nosini chuqur talqin qilishga o‘rgandilar. 20—30-yillar o‘tkir satirik yo‘nalish, maishiy taf-silot, yorqinlik, bo‘rttirma o‘zbek Aktyorlik san’ati ga xos bo‘lgan. A. Hidoyatov, g‘. Islomov, M. Miroqilov, R. Pirmuhamedov va boshqa ak-tyorlarning ijodlari bunga misoldir. 40-yillarning oxiri — 50-yillarda o‘zbek

aktyorlari ijodida yirik falsafiy umumlashma, zamonaviy jo‘shqinlikka intilish kuchaydi. O.Xo‘jayev, Sh. Burhonov, S. Eshonto‘rayeva, 3. Sadriyeva-lar yaratgan tarixiy va mumtoz obrazlar g‘oyaviy teranligi, badiiy yetukligi bilan o‘zbek A.sni yuqori pog‘onaga ko‘tardi. Shu yillarda qahramonona-romantik, falsafiy-badiiy, ijtimoiy-maishiy ijrochilik yo‘nalishlari va milliy ijrochilik maktabi shakllandi. Teatr aktyorlari kino, teleradio sohalariga dadil kirib borib, mazkur san’atlar ijrochiligining shakllanishiga hissa qo‘shdilar. Ushbu san’atlarni mukam-mal egallagan R. Pirmuhamedov, R. Hamroyev, N. Rahimov, Sh. Burhonov, Ya.Sarimsoqova, O. Jalilov, H. Uma-rov, Yo. Axmedov, P. Saidqosimov, O‘. Alixo‘jayev, D. Qambarova, I. Ergashev, Yo. Sa’diyev, T. Shokirova kabi aktyorlar avlodi yetishdi. 60—90-yillarda O‘zbek A.sda ijodiy yo‘nalishlar ko‘paydi, te-atrda, teleradioda, sirkda ijod qiluvchi ijrochilarning bir-birlariga ta’sir-lari kuchaydi. O. Norboyeva, E. Komilov, G.Jamilova, H. Nurmatov, R. Ahmedova, M. Abduqunduzov, T. Mo‘minov, M. Raja-bov kabi aktyorlar mavjud an’analarni o‘zlashtirish yo‘lidan bordilar.O‘zbek operasi, musiqali drama te-atrlarida T. Jalilov, M. Ashrafiy, T. Sodiqov, S. Yudakov, M. Leviyev, I. Ak-barov kabi kompozitorlarning musiqa asarlari asosida ijrochilik maktabi shakllandi. M. Qoriyoqubov, H. Nosi-rova, L. Sarimsoqova, K. Zokirov, S. Qobulova, S. Yarashev, Sh. Rahimova, G. Izmaylova, B. Horiyeva va boshqa shu maktab vakillaridir.O‘zbekiston mustaqilligi davrida sahnaviy janrlarning o‘zaro ta’siri, yangi birikmali uyg‘un janrlarning pay-do bo‘lishi A.sda ham ijro va ifoda vo-sitalarining yanada boyishiga olib kel-di. Drama teatrida ashula va raqs vosi-talarini keng qullash, musiqa teatrida dramatizm, ichki kechinmalarning kuchay-ishi, bolalar teatrida barcha ijrochilik yo‘nalishlaridan bahramand bo‘lish shun-dan dalolatdir. Bu davrda qo‘lga kiri-tilgan chinakam ijodiy erkinlik A.sda ham uz aksini topdi: milliy an’analar-ga e’tibor, ijodiy izlanish, yangi shakl va vositalar izlab topish, badihago‘ylik kuchaydi. Aktyorlar o‘z iste’dodlari, im-koniyatlarini turli janrlarda sinab ko‘rish va to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoni-ga ega bo‘ldilar.

## Xudoybergan Devonov faoliyati.



Xon bilan birga Peterburg va Moskvaga borib qaytayotgan saroy a’yonlaridan biri onasiga o’ris ro’mol, yana kimdir to’rtinchi kenjatoy xotiniga farang uzugi, boshqa biri esa evropacha kostyum olib qaytardi.Feruzxon Xudoyberganning olgan buyumlarini ko’rib, unga tasanno aytdi! Negaki, uning Xivaga olib kelayotgan uchta buyumi o’z davrining mo’’jizasi edi: Xudoybergan

Devonov 1907 yili Xorazmga grammafon, fotoapparat va "Pate" rusumli kinoapparatni olib kelgan edi…

Xudoybergan Devonov — 1879 yili Xivada, Qadam Yasovulboshining mirzasi bo'lib xizmat qiluvchi Nurmuhammad devon va Ro'zika aya xonadonida tavallud topgandi.Otasining Xiva yaqinidagi Badirxon qishlog'ida 6 gektar eri, 4 ta ho'kizi va 2 ta oti bor edi. Otasi, keyinchalik Xudoyberganning o'zi ham saroydagi ishlar bilan band bo'lganligi sababli, erini yarimchilarga berib, keladigan foyda evaziga yashashgan.Shu tufayli ham unda Xiva yaqinidagi Oqmachit qishlog'idagi mennonit nemislardan ( Mennonit nemislari xristian dinining annabatizm mazhabidan ajralib chiqqan oqim bo'lib, ular diniy e'tiqodiga ko'ra, qo'liga qurol ushlab urushlarda qatnashish, umuman odam o'ldirish, hayotiga tajovuz qilishni gunoh hisoblaganlar. Shu boisdan ham ularning taqdiriga vatanlari—Gurmaniya ( Prussiya) ning Marionburg o'lkasini tashlab, Rossiyaga kelishlari yozilgan ekan. Chunki, Prussiya hukumati 19 asr boshlarida urushga tayyorlanar ekan, mennonitlarni ham frontga jalb etishga qaror qilgandi. Bu esa mennonitlar e'tiqodiga zid bo'lgani uchun, Marionburglik muhojirlar Rossiyaga kelib yashay boshlashadi.

Azaldan chor imperiyasi amaldorlari siyosat yurgizishda nemislarga tayangani uchun, mennonit millatdoshlariga bu erda yaxshi sharoit yaratib beriladi.Ammo Rossiyadagi barcha erkaklarni harbiy xizmatga jalb etish to'g'risidagi imperator farmonidan keyin, mennonitlar u erni ham e'tiqodlariga ko'ra tashlab ketmoqchi bo'ladilar. Shunda asli kelib chiqishi nemis zodagonlariga mansub imperiyaning Kaufman, Dresh singari generali nemis-rus oqsuyaklari mennonitlarga O'rta Osiyoga borishni taklif qilishadi.Shu tariqa 1883 yilda ular Xiva xonligiga kelib o'rnashishadi.Xon Feruz mennonitlarga birgina shart-vohada cho'chqa boqmasliknigina o'tinib so'raydi va ularni Xiva yaqinidagi Oqmaschit qishlog'iga joylashtiradi.Ana shundan keyin Oqmaschit nemislari degan atama va xonlikdagi etnik jamoa paydo bo'ladi), xususan fotosuratchi Vilgelm Pennerdan suratga tushirishni o'rganishga imkoniyat bo'lgan.(Suratda: Otasi Nurmuhammad devon tiklagan va Xudoybergan Devonov tug'ilgan xonadon)

Agarda bo'lajak fotokinochi oddiy dehqon yoki etikdo'zning farzandi bo'lganida, 19 asr oxiridagi tirikchilik tashvishidan umri erga ishlov berish, oyoq kiyim yamash bilan o'tib ketardi. Saroy mirzosining oilasida tug'ilgan, o'ziga to'q Xudoybergan aksariyat vohaliklar kabi dehqonchilikka emas, ilmu fanga, texnikaga qiziqdi. Maktabda tahsil oldi. Shu bilan birga Xivada kiyim-kechak bilan shug'ullanuvchi do'kon ochib, savdo bilan mashg'ul bo'ldi. Texnikaga qiziqish ustunlik qilgach esa, savdogarchilikni yig'ishtirib, soatsozlik bilan shug'ullandiki, bu o'sha 19 asrda ham katta yangilik bo'lib, faqat xon, uning ba'zi amaldorlari hamda Xiva xonligidagi Chor Rusiyasi akskarlaridagina soat bor ediki, Devonov ularga soat sotish, buzilganlarni ta'mirlash bilan shug'ullandi.

Vilgelm Pennerdan 1890 yildan boshlab foto, 1907 yildan esa kino sirlarini o’rgangan Xudoybergan, oddiy avom kishilar va mutassib ruhoniylarning “Shayto suratchi”, “Afsungar kinochi” deya qarashlariga qaramay, taraqqiyot mahsuli bo’lgan mo’’jizaviy olamga qadam qo’ydi.Bu borada uni ma’rifatparvar Xiva xoni Feruz qo’llab-quvvatlaganini ta’kidlamoq lozim. (Suratda: Vilgelm Penner) Shu o’rinda yana bir narsani alohida ta’kidlamoq lozimki, Xudoyberganning baxtiga o’sha vaqtda Xorazm hukmdori sozanda, bastakor va shoir Feruzxon edi.Agarki, uning o’rnida tarix va taqdir hukmi bilan xuddi o’tmishda ko’p bo’lganidek, maishatparast yoxud jaholatgo’y kimsa xon bo’lganida Xudoyberganning ishlari umuman oldga siljimagan, ko’pgina taraqqiyparvarlar singari hatto o’limga mahkum ham etilgan, shu tariqa 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida o’zbek fotokinochiligiga Xivada asos solinmagan bo’lardi. Shukrki, uning va xalqimiz baxtiga va taqdir taqozosiga ko’ra Xiva xoni Feruzxon edi.Shu boisdan ham Xudoyberganni Feruz saroyga ishga oldi, o’zi bilan birga Rossiyaga ham olib ketgandi.

Mutaassiblik avj olgan bir paytda xonning taraqqiyparvar maslakdoshini qo’llaganini ham minnatdorchilik bilan aytmoq lozimki, u ba’zi shayxulislom va jaholatgo’y bandalar Xudoyberganga foto bilan, kinochilik bilan shug’ullanish gunoh deya zug’um o’tkazishgan paytlarda, o’zi ibrat bo’lib suratga tushdi.Biroq Feruzxonning 1910 yildagi o’limidan so’ng vorisi va o’g’li Asfandiyorning atrofini jaholatgo’ylar qamrab olgani, Islomxo’jadek taraqqiyparvar bosh vazirning 1913 yildagi o’limidan so’ng, Devonovning fotokino borasidagi ishlarini qo’llab quvvatlaydigan insonlar qamrovi kamaydi. (Suratda: Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz)

Ammo Devonov ham taraqqiyparvar ziyoli bo’lgani uchun 20 asr boshlaridagi jadidchilikdek milliy uyg’onish harakatiga qo’shiladi.Xorazmlik jadidlar-“Yosh xivaliklar” harakatidagi Polyozhoji Yusupov, Mulla Bekchon Rahmonov va Bobooxun Salimov kabi ziyolilar bilan maslakdoshlikda ish olib bordi.

Shu bilan birga xonlik saroyida ishini davom etdirib,Xorazm pullarini bosadigan zarbxonaga mudirlik qildi, Asfandiyorxon, Said Abdullaxon hamda ularning oila a’zolarining, ba’zi saroy amaldorlarining ham suratlarini ishladi, ularga suratkashlikni o’rgatdi.Chunonchi, Asfandiyorxon hali shahzodalik paytida Farrux taxallusi bilan ijod qilgan shoir geografiyaga ham qiziqib Rossiya goegrafiya jamiyatining a’zoligiga saylangan iqtidorli inson bo’lgani sabab, Xudoybergan Devonovdan fotografiya sirlarini ham o’rgangandi.

1915 yillarga kelib, Xorazmda uning yaratgan yangiligi-foto va kinochilikka garchi mutassiblar qarshilik ko’rsatsada, odamlar ko’nikib boshlashgan edilar.Shu boisdan u foto va kinolavhalar yaratib, Abulg’ozi,Ogohiy va Bayoniyning tarixnavisligini davom etdirgan holda, o’z davroida ro’y bergan

voqea-hodisalarni fotokinotasmalarga muhrlab, tarixchilik vazifasini ham bajargan. E’tiborlisi shundaki, Devonov suratga tushirgan lavhalar chiroyli kompozistiyalar, ozoda kiyingan, kinoga tushishga shaylanib turgan kishilar emas, hayotning tasmadagi aksidir.Eng hayratlanarlisi, birorta yaratilgan lavhada kishilarning ob’ektivni sezgani, nigohini, yurish-turishini o’zgartirgani, ya’ni sun’iy harakat etgani sezilmaydi.

Ayniqsa, mutaassiblar ta’sirida avom odamlar suratga tushmoqlikka harakat qilgan, qo’rqqan onlarda, ularni bunga ko’ndirish qiyin edi.Ularning muhitiga kirib, bu apparatlar taraqqiyot natijasi ekanligini tushuntirgani, odamlarni fotokinoapparatlar oldida erkin harakat qilishga odatlantira olgani Devonovning nafaqat operator yoki suratkash, balki bilimdon rejissyor bo’lganiniyam ko’rsatadi.Shu bilan birga u odamlarni to’plab, o’zi olgan kinolavhalarni namoyish etib, kinoseans ham o’tkazib turganki, bu kinoni 20 asr boshlarida keng ommmaga targ’ib etgan taraqqiyparvarlik ham bo’lgan.

1917 yil aprelida Xivada jadidlar — “Yosh xivaliklar” Asfandiyorxonga davlatni Idorai Marshrutiya — ya’ni parlament orqali boshqarishni talab qilib chiqishadi.Xalq ham jadidlarni qo’llab quvvatlgach,Asfandiyor oldiniga Kengash-parlament tuzishga rozi bo’ladi.Biroq so’ngra mutassiblar ta’sirida va chor armiyasi generali Mirbadalov yordamida “Yosh xivaliklar”ni ta’qib qilib, hatto ularni o’ldirishga harakat qiladi. Shundan so’ng “Yosh xivaliklar” dan Polyozhoji Yusupov , Xudoybergan Devonov va boshqalar Toshkentga ketib muhojirlikda yashashga majbur bo’lishadi.Devonov Toshkentdalik paytida fotografiya bilan shug’ullanib ko’plab suratlar ishlaydi.

1920 yilda xonlik tugatilib XXR tashkil etilgach, Xudoybergan Devonov jadid do’stlari bilan yosh respublikaning hukumat tarkibiga kiradi.Moliya noziri, taftish komissiyasi raisi kabi lavozimlarda ishladi, O’rta Osiyoda birinchi bo’lib Xorazm qog’oz fabrikasini qurishga intildi. Moliya noziri sifatida XXRning mato va qog’oz pullari bilan birga, chaqa-tanga pullar zarb etishni ham yo’lga qo’ydi.Shu bilan birga u foto va kinochilar harakatini keng qamrovda davom etdirishga intilib, respublikaning turli joylarida fototo’garaklar ochdi, maktab, internat va bilim yurtlarida o’quv kurslari tashkil etdi.Fotokino tarixi, bosib o’tilgan jarayon, tajribalari haqida maqolalar yozdi.

Ayni paytda esa o’zi shogirdlari bilan Xorazmning turli joylaridan lavhalar ishladi, tashkil etilgan gazetalarga suratlar berib bordim.Kinoteatr ochishga ham harakat qildi. XXR hukumat a’zosi sifatida X.Devonov siyosiy faoliyat ham olib borib, 1923 yilning avgust-dekabr oylarida Moskvada xalq xo’jpaligi ko’rgazmasini tashkil etishda qatnashdi.Ko’rgazmaga nafaqat siyosiy arbob, balki etuk kino ustasi sifatida tashrif buyurib, “Xiva va xivaliklar”, “O’rta Osiyoning me’moriy yodgorliklari” nomli kinolavhalar ishlab, ularni rossiyaliklarga namoyish etdi.

1924 yilda XXR tugatilgach, u siyosiy faoliyatdan chetlashib, umrini san'atga bag'ishladi.Shogirdlari bilan fotokinolavhalarni suratga oldi. Keyin esa "Uzbekistanskaya pravda" gazetasining Xorazmdagi, Moskvadagi "Sovkino" ning O'zbekistondagi maxsus muxbiri bo'lib, suratlar oldi, kino ishlash bilan mashg'ul bo'ldi. Ammo 1928 yildan sho'rolarning majburiy ravishda avj oldirib yuborgan kollektivlashtirish siyosati Xudoybergan Devonov hayotiga ham ta'sir qildi.Ya'ni u bor eri, molu mulkini tashkil qilingan Xivadagi kolxozga topshirishga majbur bo'ladi.Bu hol sababini u keyinchalik shunday deya tushuntirib o'tgan ekan: "Agar 1926-27 yillarda 15 yarim tanob keladigan er suvimni davlatga topshirmaganimda, meni o'sha vaqtdayoq, albatta quloq qilgan va butun xo'jaligimni tortib olgan bo'lardilar.Men shu holni e'tiborga olgan holda shunday qilishga majbur bo'ldim". Devonovni molu mulkini kolxozga topshiriga majbur qilgan holat, 1926 yilda O'ZSSR MIK Jinoyat kodeksining 80 moddasiga qo'shimcha kiritgan, unda " er maydonini yashirgan yoki qishloq xo'jalik asboblari soni haqida noto'g'ri ma'lumot berganlik uchun 3 yilgacha muddat bilan ozodlikdan mahrum etilib, molu mulki musodara qilinishi nazarda tutilgan edi" ("Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1926 yil 25 dekabr).

Bundan tashqari O'ZSSR xalq komissarlari sovetining "Mehnat to'g'risidagi qonunlar kodeksi tadbiq etilishi lozim bo'lgan quloq xo'jaliklarining belgilari va shunday xo'jaliklarni hisobga olish tartibi to'g'risida" 1930 yil 6 aprelda 52-sonli qarori chiqqandi.

Mazkur qarorning turli bandlarida, "Qishloq xo'jalik ishlarida, kasb hunarmandchilikda, korxonalarda muntazam ravishda yollanma mehnatdan foydalanuvchi dehqon xo'jaliklari, oilasida mehnatga yaroqli erkaklar va o'z eriga ishlov berish uchun xo'jalik imkoniyatlari bo'la turib, o'zining erini ijaraga beruvchi yoki unga chorikorlar orqali ishlov beruvchi xo'jaliklar" quloq sifatida jazoga tortilishi, o'z yurtlaridan badarg'a etilishi belgilab qo'yilgandi.

Devonovlar oilasi esa Xivadagi Badirxon qishlog'idagi eri va 4 ho'kizi, 2 ta otini mudom ijarachilarga berib kelgandi.Yuqorida chiqqan qarorlardan so'ng, Devonovlar oilasi bor molu mulkini kolxozga topshirishga majbur bo'ldi.

Ana shu voqealardan so'ng Devonovning hayoti og'irlashib, moddiy tomondan ahvoli qiyin bo'lib qoladi.Chunki nafaqat u, balki otasi ham er, molu mulkini ijaraga berib, shundan kelgan foyda hisobiga yaxshi yashashgan, Devonvning ham ijod qilib, fotokinochilik bilan mashg'ul bo'lishiga imkon bo'lgandi.Kollektivlashtirishdan keyin esa…

Xullas, u ahvoli og'irlashganidan boshqa tanishlaridan yordam so'rashga majbur bo'ladi.Chunonchi, u 1928 yilda Toshkentga borib, er ishlari xalq komissarligida ishlayotgan Karim Boltaev yoniga boradi.Devonovning Toshkentga kelishiga sabab, u yangi fotoapparat olish uchun u erga borgandi.Biroq, puli etmagani bois, Karim Boltaevdek hamyurtidan yordam so'raydi.Devonov hamyurtidan

shu bilan birga, o’zining Farg’ona vodiysiga borib, borayotgan jarayonni suratga olmoqchi ekanligini aytadi. Xullas, Boltaevning bergan yordamidan so’ng u vodiyga borib suratlar ishlaydi.Natijada, 1928 yilda “Uzbekistanskaya pravda” gazetasi sahifalarida Devonovning vodiydan suratga olgan fotolavhalari chop etiladi. O’sha tahlikali , ayni paytda Devonovga o’xshash ziyolilar xo’rlanib qolgan paytda birinchi fotokinooperatorga Akmal Ikromov, Fayzulla Xo’jaev kabi respublikaning rahbarlari ahvolni tushunib yordam berishgan.

Xususan, 1935 yilning sentyabrida Akmal Ikromov Urganchga kelganida,Devonov oliy martabali mehmon va yaqin tanishi bo’lgan davlat arbobini suratga tushirish uchun oldiga boradi.Ana shunda ,A.Ikromov Xorazmlik rahbarlarga qarata, “Buni qaranglar-a”,Devon ota ham kesayib qolipti.Unga nafaqa tayinlashni so’rab, okrug ijroiya komiteti nomidan xat tayyorlang va tezroq Toshkentga yuboring” deydi. Shu sabab, Devonov tegishli hujjatlarni tayyorlab,Toshkentga boradi.Biroq,Akmal Ikromov yo’qligi tufayli u hamyurti,O’zkompartiyada ishlayotgan ijodkor Qurbon Beregin bilan uchrashadi. Xullas, shu sa’yi harakatlar sabab,Fayzulla Xo’jaev imzosi bilan Devonovga nafaqa tayinlash to’g’risidagi xalq nozirlari kengashining qarori chiqadi va u oyiga 300 so’m nafaqa oladigan bo’ladi. U nafaqat Xorazmdan, balki Toshkent va Farg’ona vodiysidan ham lavhalar yaratib, 1937 yil avgustigacha davr solnomachisi sifatida faoliyat ko’rsatgan.O’sha yilning 17 avgustida uning oliyjanob faoliyatiga chek qo’yildi—xonlik davrida zarbxona mudiri, saroy amaldori bo’lgani, xonlarni suratga tushirgani, jadidlarga qo’shilgani,XXR paytida nozir bo’lib ishlagani, qisqasi milliy kayfiyatdagi ziyoli bo’lgani uchun nohaqdan “ xalq dushmani” tamg’asi bilan hibsga olinadi.

Mudhish 17 avgustda Devonovlar oilasi Urganchda istiqomat qilar, qarindoshi Gavhar Yusupova kinooperatorni eng so’nggi ko’rgan insonlardan bo’lib, bu haqda u shunday hikoya qilgandi: “Kechqurun soat 11 lar chamasi edi.Eshik zulfi qattiq sharaqlab undan qaynotam Hasanboy ota, uning izidan, oldinda bir melisa, keyninda yana bir melisa Devon buva( ya’ni Xudoybergan Devonov) kirib keldilar.Devon buva “Buvi, suratlar turgan jomadonni olib chiq” deb singlisi Bibijonga ters ayvonda turganicha noxushgina buyurdi.Bu paytda bir melisa hujjatlarni titkilash, suratlarni izlash bilan ovora edi. Devon buvaning ko’zlaridan yosh oqar, yig’lamsirab Bibi suv ber deya singlisi olib kelgan suvdan ichardi. Devon buvani oxirgi ko’rganimiz shu bo’ldi”.

Devonovning Urganch va Xiva shaharlaridagi uyini tintuv qilish paytida Xudoyberganga tegishli qo’shotar miltiq, 300 ga yaqin fotosurat, 120 varaqdan iborat yozishma, 17 ta turli tuman hujjatlar olib ketiladi. Devonovning mahbuslik anketasida, uning tergov davomida aytgan gap-so’zlari keltirilganki, bular orqali o’sha davrdagi vaziyatni bilib olish mumkin. Ma’lumki, Devonov Xorazm Xalq Respublikasining moliya noziri bo’lib ham ishlagan.Jadid do’stlari mustamlakachilik boshqacha ko’rinishda davom etmasligi va fojialarning oldini olish uchun Xudoyberganni Moskvaga yosh respublikaning muxtor vakili qilib

tayinlashadi.Biroq, Moskvaning XXRdagi vakili Bik Devonovning Moskvaga borishiga ruxsat bermaydi va Xudoybergan moliyachi sifatida Xivada ishini davom etdiraveradi. XXRning birinchi rahbari bo'lgan Polyozhoji Yusupov o'z xotiralarida ,Bik Devonovni Moskvaga yuborishga norozi bo'lganini aytib, "Xudoybergan Devonovdin boshqa kimni olib ketsangiz sizga ixtiyor" degan. Ha, mustamlakachilar Devonovdan shunchalik cho'chirdilar.

Ammo Devonovning mohir diplomatik qobiliyati borligini yaxshi bilgan "Yosh xivaliklar" dek jadid maslakdoshlari uni 1923 yili Moskvada ochilajak ko'rgazmani tashkil etish komissiyasi tarkibiga kiritib, Rossiyaga yuborishadi.U komissiya bilan 12 avgustda Moskvaga borib, dekabrning so'nggi kunlarida ishlarni yaxshi yo'lga qo'yib vohaga qaytib keladi. Ularning yurtga qaytishi mudhish kunlarga to'g'ri keladi.Devonov va XXRning ziorat noziri Muhammad Aminatdinov birgalikda Xonqaga etib kelishganida Xiva Junaidxon tomonidan qurshab olingan, shu bois Moskvadan kelayotgan komissiya bir qancha muddat u erga bormay To'rtko'lga borishga majbur bo'ladi.

Oradan bir necha kun o'tib, Junaidxon sho'rolar tomonidan qattiq zarbaga uchragach Xiva qamaldan ozod etiladi.Shundan so'ng u Xivaga kirib keladi, ammo tezda hibsga olinadi.Unga Junaidxon bilan til biriktirib Xivani qamal qilganlarida yordam berganlik, uning fotografi bo'lganlik, Junaidxon talabi bilan ayrim sahnalarni suratga olganlik,Moskvaga borganda mustamlakachilar ruxsatisiz Madrahim Devonov Germaniyaga paxta sotganida uni to'xtatib qolmaganlikda ayblashadi.Vaholanki, Junaidxon Xivani qamal qilgan paytda Devonov endigina Moskvadan Xorazmga kelayotgan,hatto Xivaga ham kiraolmagandi.Shunday to'qima ayblar qo'yilgan vaziyatda yana uni jadid do'stlari aybi yo'qligini isbotlab ozod etishadi.

1937yilda unga qo'yilgan ayblardan yana biri Xivaga kelgan turkiy xalqlar ozodlik harakati yo'lboshchilaridan biri Zakiy Validiy vohaga kelganda, u bilan maslakdoshlik qilganligi edi.XXR davrida Xivani qo'riqlash guruhi, ya'ni milistiya rahbari bo'lib ishlagan Nazar Sholikorov o'z xizmat burchiga ko'ra, Xivaga kelgan har qanday kishini kuzatib yurishga , shu tufayli bo'lib o'tgan voqealarni 1937 yilda hibsga olingach aytib berishga majbur bo'lgandi.

Shunga ko'ra, Devonov va Validiy haqida bunday deydi: "Men uch kungacha (Xorazmga) kimning kelganini bilolmay yurdim. Yusupov ( XXR hukumati boshlig'i bo'lgan Polyozhoji Yusupov) boshliq barcha xalq komissarlari uylariga ham kelmay qaerdadir yig'ilish o'tkazayotgan edilar.Bu hol menda shubha uyg'otdi. Xorazm bilan Buxoroning birlashgan holda kurash olib borishi uchun Xorazmga buxorolik vakillar kelishgan edi.Men muzokara olib borish uchun vakil etib tayinlandim.Romanov men bilan birga edi. Menim yonimda o'tirgan Mulla Bekchon oradan bir necha soat o'tmay kengashni ertaga qoldirishimni so'radi va o'zining bu iltimosini uyida mehmoni borligi, ketishi zarurligi bilan izohladi.Men rozi bo'ldim va biz ikkimiz bir otga minib u bilan birga ketdik.

Devonovning uyiga yaqin qolganimizda u otdan tushib qoldi.Men uyga kelganimdan so’ng tog’am Ollanazarni xalq komisarlarining uydami yo’qligi ekaniklarini tekshirish uchun yubordim.U milistiya bilan yurib kechasi soat uchda Yusupovni tutib keltirdi, ammo men uni qo’yib yubordim.

Ertalab Yusupovning oldiga borib, o’tgan kecha qaerda bo’lganini surishtirdim.U Rahmonov Bekchonning, Jumaniyoz hoji Polvonniyozovning so’nggi kechada Xudoybergan Devonovning uyida bo’lganini aytdi.U erda Zakiy Validiy bilan birga Aydarov ham bo’lgan.Yusupovning so’zlariga qaraganda ularga kiyim bosh va pul berib Buxoroga kuzatib qo’yishgan ekan”

Demak, Sholikorov ma’lumotiga ko’ra, Zakiy Validiy Xivadan Buxoroga ketish kuni Xudoybergan Devonov uyida bo’lgan.
Xullas, 1920-24 yillardagi XXR davrida bunday ziddiyatli voqealar ko’p bo’lib turardi.Devonovning mohir diplomat ekanligini shu narsadan ham bilsa bo’ladiki, xonlik davrida turkman urug’lari bilan davom qilib kelayotgan mojarolarni u XXR davrida oqilona tinch yo’lga qo’yaoldi.

Devonov ana shunday murakkab vaziyatda ham foto va kino bilan mashg’ul bo’lishni unutmadi. Shogirdlar tarbiyalab bor bilimini yoshlarga o’rgatdi.Umuman olganda, o’sha davrdagi qiyin vaziyatga qaramay, Devonovning kino va fotosan’atga qo’shgan hissasini bilish uchun, bir manbaga murojaat qilaylik.”Inqilob quyoshi” gazetasining 1928 yil 27 iyuldagi sonida yozilishicha, “Xivada 16 iyun kuni Devonov ish faoliyatining 25 yillik yubileyi o’tkaziladi.Yubileyda qatnashgan Devonov tadbir ishtirokchilarining savollariga javob qaytarib yig’ilganlarga ish boshlagan ilk davrlari haqida so’zlab berdi”.

Ana shu faktlardan ma’lum bo’layaptiki, u faoliyatini kino sohasida 1903 yildan boshlagan.

Shu o’rinda Devonov hali hayotlik paytida 1926 yili “Er yuzi” jurnalining 11 soni, 13 sahifasida nashr qilingan A.Yoqubovning “ O’zbek fotogofchisi” maqolasini keltirib mavzuni davom qildirsak.

“Xudoybergan Devon o’g’li Xorazm o’zbeklaridan. 13 yoshida suratga (fotografga) havaskor bo’lib, shu ish bilan shug’ullandi.Hozir Devonovning qo’lida Xorazmning turmush, kun ko’rish va tarixiga oid 500xildan ortiqroq rasm bor. Agarda inqilob vaqtida olingan rasmlarni hisoblaganda 1500 ga etardi.Hatto shunday rasmlar borki, bu rasmlar xon davrida , bundan 40-50 yil ilgari olingan bo’lib, Devonovning qo’lida saqlangan. Devonovning suratkashlikka ishqibozligi natijasida kino ishlariga ham qiziqish tug’diradi.Shunga ko’ra, Devonov 1903 yildan boshlab kino ishlariga havaslanadur va shunga kirishadur.Hozir Devonovning surat va kinolar uchun xususiy laboratoriyasi bo’lib, 4 ta foto, 1 ta kino apparati bor. Devonovning qo’lida Xorazm ko’rinishlari va tarixiy voqealarga oid 300 metrdan iborat har xil kinoxabarlari borkim, buni Devonovning o’zi va o’g’li ishlagandir. Devonov

surat olish, kino olish bilan shug'ullanmay balki xalqqa kartina ko'rsatish vazifalarini ham bajaradur. O'zining kartina ko'rsatadurg'on apparatlari bo'lib, ichki Rossiyadan va boshqa erlardan lenta olib xalqqa ko'rsatadur.Devonov yosh havaskorlar etishtirishda ham katta xizmatlar qildi.Bir xivalik yigitni shogird qilib olib, uni yaxshi fotografchi qilib tayyorladi.Shu qatorda yana bir yigitni 3 yildan beri o'rgatib keladir.Bu yigit ham hozir g'ayratli fotograf bo'ldi. Devonov xususiy kishilarni etishtirish bilan qanoatlanmay, mendan Xiva uchun esdalik qolsin deb 1924 yilda Xivadagi ta'lim tarbiya foto sho''basi ochdi.Bunda o'z apparati, o'z g'ayrati bilan 13 bolani tekinga fotograf ishiga tayyorladi.

Devonovning mana shu xizmatlarini Xorazm viloyat ijroiya qo'mitasi va Xorazm ishchi dehqoni taqdir etdi.Viloyat ijroqo'mi Devonovning hurmatini taqdir etib, ishchi dehqonlar nomidan bir oltin soat taqdim etdi.

O'zbek fotografchisi Devonovdan O'zbekiston tarixiy boyligi bilan tanilgan Xorazm o'lkasida foydalanishni o'zbek davlat kinosining esiga tushirish orzusida edi. So'nggi olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'zbek davlat kinosi Devonovni Toshkentga chaqirtirib bir muncha vazifalar topshiribdur".

Shu o'rinda bir mulohazaki, Devonov hali hayotlik paytida yozilgan yuqoridagi maqolalarda Xudoybergan dastlab 1903 yili kino sohasiga qo'l urganligi yozilayapdi. Ma'lumki, u 1907 yili Peterburgga borganidan so'ng "Pate" apparatini Xivaga olib kelgan.Demak, u 1903 yilda balki chor mustamlakachilarining xonlikka kelgan qaysidir vakilining kinoapparatlaridan, yoxud mennonit nemislaridayam kinoapparat bo'lgan bo'lib, Devonov undan foydalangandir, degan savol tug'iladi.Har holda Devonov zamondoshlari xato qilmagandirlarki, kinoga tushirishni 1903 yildan boshladi deb! Qolaversa, o'sha maqolalar yozilgan paytda Devonov hayot edi.

Ha, Devonov kino va fotosan'atga ko'proq hissa qo'shish niyatida edi va shunga intilardi. Ammo… ammo 1937 yildagi qatag'on " mashinasi" uni o'z domiga tortdi.

Shu o'rinda Devonov hali hayotlik paytida 1926 yili "Er yuzi" jurnalining 11 soni, 13 sahifasida nashr qilingan A.Yoqubovning " O'zbek fotogofchisi" maqolasini keltirib mavzuni davom qildirsak.

1938 yil 5 oktyabr kuni ertalab soat 10 dan 35 daqiqa o'tganda boshlangan mash'um sud 20 daqiqa davom etib, unda Devonov taqdiri hal etiladi-birinchi o'zbek foto va kino operatori, rejissyori, ana shu san'atlarning targ'ibotchisi Xudoybergan Devonov otishga hukm etiladi.Hukm o'sha davrdagi odatiy tarzga ko'ra shoshilinch ijro ham etilgan….

Xullas, 58 yoshida sho'ro mustamlakachilik tuzumi taraqqiyparvar inson, ajoyib kinooperator, fotograf hayotiga fojiali tarzda chek qo'ydi.Ammo uning serqirra

hayoti va ijodiy faoliyati o'zi tasmalarga muhrlagan tarixning yorqin sahifasi bo'lib qoldi.

Hozirgi badiiy madaniyat tizimida kino muhim o'rin tutadi. Bir vaqtlar ko'cha maydonlarida mohirlik bilan namoyish qilingan o'yin - kulgi va ko'z boylag'ich ko'rinishlaridan boshlab, hozirda murakkab hayotiy ziddiyatlar va munosabatlarni aks ettirayotgan kino san'ati HH asr fan - texnika taraqqiyoti mo'jizasiga aylandi. Kino faqat ilmiy - texnik taraqqiyot mevasi bo'libgina qolmay, balki fan - texnika namoyon bo'lishining shakllaridan biridir. Kino san'ati kinematografik texnika namoyon bo'lish shakllaridan biridir.Kino san'atining texnik asosini suratga tushirish (fotografiya) va kinokamera tashkil etadi. Ular hayotning hilma - hil ko'rinishlarini badiiy o'zlashtirish orqali kino asarining vazifasini ado etadi.Kinoning texnik vositalari (oddiy kinokamera, harakatlanuvchi kinokamera, ovoz, rang, fazoli ovoz, keng ekran, o'ta sezgir kinoplyonka, hajimli tasvir) maishiy hayot sohalarining chuqur qatlamlarini aks ettirish imkoniyatiga egadir.Kino boshqa san'at turlari, hillari, ko'rinishlari ifoda vositalaridan qorishma xosil qiladi. Kinoda adabiyot asari - kinoscenariyga, teatr - kinoaktyor san'atiga, musiqa - filmning vazn - ohangiga aylanadi, musavvirlik - film tasviriy echimiga asos bo'ladi va h. Shu tariqa kino qiyofasi o'zida boshqa san'at xossalarini jamlab, ularning muhim xususiyatlarini yangi sifat darajasiga ko'taradi.Kino san'atiga adabiyot ta'siri juda kuchli. Etuk adabiy manba etuk kinofilm yaratish garovidir. Kinofilm dramatik asarga nisbatan qilinganda romanga yaqin turadi. Kinoscenariy asosini dramtik to'qnashuvlar va ziddiyatlar tashkil etsada, kino romanga qiyos qilinganda voqelikni keng qamrovli aks ettirishi jihatidan epik adabiyotga yaqinlashadi. Kino san'atida fazo va harakat erkin ifodalanadi, qiyofalar uzoq muddatda rivojlanadi, voqea va inson ichki dunyosi tabiiy qo'shilib ketadi. Ana shu xususiyatlari bilan adabiyotning roman janrini eslatadi. Scenariy yangi adabiy ijod mahsuli hisoblanadi.

Kino san'ati tasviriy san'atning musavvirlik, haykaltaroshlik, me'morchilik turlaridan ham keng foydalanadi. Film harakatni tekislikda ifodalaydi, u harakatdagi tasvir san'ati sifatida hamfazo, ham iezoniga egadir.Hozirgi kino san'ati bir qator ifoda vositalari orqali vujudga keladi. Masalan, kinoda yorug'lik muallifning voqelikka munosabatini namoyon qiladi, kayfiyat vujudga keltiradi, hodisa ichki holati haqida tasavvur xosil qiladi, qahramon ruhiy holati va tuyg'ularini ifodalaydi.Kino san'atida rang tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Rangli film mavzui, mazmuni, badiiy rejasi ta'sirchan quvvatga ega bo'lib, bir necha rang va oq - qora tasvirning o'ziga xos tomonlari bor. hozir rangli kino asosiy o'rin egallab olganligini eslatib o'tish zarur.Kino ovoz bilan tirik. Ovozli kino inson bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kino va teatr san'atda ovoz - so'z bir hil maqomga ega emas. Teatrda so'z eng muhim ifoda vositasi bo'lsa, kinoda so'z yordamchi xususiyatga ega. Kino uchun tomoshali harakat eng muhim xususiyatidir.Kinoda qahramonning nigohi, yirik tasvirda ko'rsatilgan ayolning

sezilar - sezilmas elka qisishi, yoki barmoqlaring titrab turishi, ichki kechinmalarini har qanday so'z - iboralar orqali ifodalashdan ko'ra, tasvir orqali ko'rsatish afzaldir. Kinoda so'z harakatni takrorlab tursa, ko'rsatish mumkin bo'lgan holatlarni hikoya qilsa, filmning zerikarli va o'ta cho'zilgan bo'lishi tabiiydir.Kino va teatr bir - biriga juda yaqin bo'lib, ikkalasi ham adabiyot zaminida vujudga keladi. Shu ma'noda ularni «ikkilamchi» (adabiyot birlamchi) san'at turi, deyish mumkin. qorishmalik kinoga ham, teatrga ham xos. Ikkalasi ham fazo va vaqt mezoniga bo'ysunadi va aktyor o'yini bilan bog'liq.Kino o'z mavzuiga, ifoda vositalariga ega bo'lib, uning asosiy o'zagini kinematografik harakat tashkil qiladi. Bu harakat kinoqadr ichidagi va qadrlar birikmasi (montaj) orqali xosil qilingan harakat majmui hisoblanadi.Kinoqadr birikmasi kinematografik ifoda vositalari orasida muhim o'rin tutadi. Film yaratuvchisi uning yordamida tomoshabin fikr, tuyg'u va o'y - xayollarini bir nuqtada uyushtiradi hamda kinematografik vaqtni zichlashtirish yoki cho'zish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kinoqadr birikmasi (montaj) kino san'ati rivojining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etgan. Bir vaqtlar ovozsiz kinoda uning roli mutloqlashtirilgan edi. Bu holat ovozli kinoda ham davom etib, u ba'zan aktyor o'rin va ayrim qadrlar mazmuni ahamiyatli tushirib yuborishga olib kelgan edi.Kino san'atining ifoda vositalaridan yana biri - harakatdagi kinokameradir. U film yaratuvchisi qo'lida harakatni mehanik tarzda plyonkaga tushiradigan texnik uskunagina bo'lib qolmay, balki eng muhim ijod quroli hamdir. harakatdagi kinokamera kino san'ati imkoniyatlarini oshiradi, inson hayoti siru - asrorlarini, xulq - atvorining yashirin tomonlarini ochib berishga omilkor vosita sifatida xizmat qiladi.Harakatdagi kinokamera tomoshabin va san'atkor o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartirdi; eng avvalo ular o'rtasidagi masofa qisqardi, tomoshabin his - tuyg'usi o'sdi, u voqea - hodisalarning ishtirokchisiga aylandi, bir joyda turgani holda kinokamera bilan birga harakatga kiradigan bo'ldi. Ayni mahalda operator qo'lidagi kinokamera film ijodkorlari fikr - tuyg'ularini aks ettiruvchi, ularni tomoshabinga etkazuvchi nozik ijod jihoziga ham aylandi.Kino san'ati kinoaktyor oldiga ham o'ziga xos talablar qo'yadi. Teatr aktyori tomoshabin va sahna oralig'idagi masofani hisobga olib ovozga «zo'r» beradi, imo - ishoralar, hatti - harakatni ishga soladi. Kinofilmda esa bularning hammasi ahamiyatsiz bo'lib, kinokamera oldida kinoaktyor ko'proq o'zini tabiiy, samimiy, erkin, oddiy, vazmin, bemalol tutadi. Bu bilan kinoaktyor o'zining jozibador va ehtirosligini yo'qotmaydi.Kino jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, unda scenariy muallifi, rejissyor, operator, musavvir, bastakor, «qadr birikmasini» yaratuvchi (montajchi) va boshqalar mehnati ishlab chiqarish jamoasi mehnati bilan qo'shilgandan so'ng kinematografiya maxsuloti yaratiladi. hozirgi zamon kinematografiyasi nafaqat san'at, balki ko'p sohali, zamonaviy texnika bilan jihozlangan ishlab chiqarish sohasi hamdir. Kinoda rejissyor kinematografik

jarayon barcha qatnashchilarini birlashtirib turadi. Kino san'ati rivoji tarixini ko'p jihatdan rejissyor faoliyati tarixi deyish mumkin.

Kino san'at tizimida ustun va zaif tomonlarga ega. Masalan, harakatchanlik uning ham ustun, ham zaif tomonidir, chunki kinoni bir daqiqa ham to'xtatib qo'yib bo'lmaydi. Kino voqelikni keng qamrab olishda teatrdan ustun. Ayni paytda kino tomoshabin ko'z o'ngida sodir bo'ladigan aktyor ijodi kabi teatr sahnasi nodirligidan mahrum. Kinoda tomoshabin sodir bo'lib o'tgan badiiy jarayon texnika vositasida takrorlanayotganining guvohi bo'ladi, holos.XX asrning ikkinchi yarmida oynai jahon (televidenie) turi ravnaq topdi. Televidenie ham ilmiy - texnik inqilob mahsulidir. «Oynai jahon» o'zining ijtimoiy ahamiyati jihatidan kengroq miqyosdagi san'at bo'lib, u siyosiy, ilmiy - texnik, estetik va boshqa axborotning tezkor etkazib berishning eng muhim vositasi hisoblanadi. «Oynai jahon» millionlab odamlar bo'sh vaqtini uyushtirishga, turmush tarziga ta'sir o'tkazishga qodir bo'lib, u insonning hayotidan mustahkam o'rin oldi.«Oynai jahon»ning ilk badiiy vazifasi san'at turlari, hillari, ko'rinishlari samaralarini namoyish qilishdan iborat bo'lgan. «Oynai jahon» estetik faoliyatining alohida sohasi sifatida qaror topdi. «Oynai jahon» san'at turidir, deb qat'iy hukm chiqarish qiyin, chunki u shu qadar murakkab qorishma ijod sohasiki, uni voqelikni badiiy idrok etishning maxsus sohasi yoki estetik faoliyatining maxsus turi deb atagan ma'qul keladi.«Oynai jahon» ifodaliligi deganda shu zahoti yaratiladigan (ayniqsa, sharhlovchilarda) «faoliyat»ni yanada rivojlantirish, «Zangori ekran»dagi ijrochi va tomoshabin - eshituvchi hujjatlik va badiiy harakatning hamohangligiga erishish va boshqalar tushuniladi.Oynai jahon (televidenie) moddiy va ma'naviy madaniyat tarkibida o'ziga munosib o'rin egallashga qodir bo'lgan estetik faoliyat turi sifatida namoyon bo'layotir. San'at turlari va ko'rinishlarining, deyarli hammasi «Oynai jahon» bag'riga singib, estetik ta'sir etishning samarali vositasiga aylanmoqda.Badiiy qiyofaning asosiy tavsifi uni harakatga keltiradigan san'atkor g'oya - rejasining tug'ilishi, uning asar tizimidan o'rin olish va nihoyat tomoshabin, o'quvchi, eshituvchi, tinglovchi idroki bilan bog'liq jarayonlar tavsifi bilan to'ldirilishi lozim. Mazkur bosqichlarning har biri muayyan vaqtda amalga oshadi. Bu bosqichlar orasida san'atkor g'oya - rejasi va uning sifati ko'p jihatdan asarning istiqbol taqdirini belgilab beradi. Badiiy reja o'zida voqelikning ichki va tashqi, yakka va umumiy tomonlarini singdirgan bo'ladi. Badiiy reja - g'oya san'atkor miyasida avval boshdanoq mavhum tushuncha tarzida emas, balki jonli taassurotlar, voqea - hodisalar bilan bog'liq holda vujudga keladi. Fikr - muddaoni amalga oshirish g'oya - rejaning o'zidanoq boshlanadi.Tadqiqotchilar fikricha katta iste'dod sohiblari, jumladan, Abdulla Qodiriy, Abdulla qahhor, Oybek odatda o'z asarlari ilk rejalarini tuzib chiqar ekanlar, ularda bo'lajak asar to'qimasini asosi, voqealar rivoji, ayrim qismlarning ifoda rejasini oldindan belgilab qo'yganlar. San'atkorning ilk rejasi uni hayratlantirgan voqea - hodisalar bilan tasodifan to'qnashishi natijasida vujudga keltirishi mumkin. Ammo bu hodisalar bir

san’atkorni chuqur ta’sirlantirib, boshqasini beparvo qoldirishi zaruriyat (qonuniyat) tarzida namoyon bo’ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI


1.I.A.Karimov.”Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.2008-yil.

2.I.A.Karimov.”Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”.1998-yil

3.I.A.Karimov.”O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida.Xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari”.1999-yil.

4.Ahmedova.N.R.”Jivopis sentralnoy azii XX veka”.2004-yil.

5.Pugachenkova.G.A,Rempel L.I.”Istoriya iskustva Uzbekistana s drevneyshix vremen do sredeniy XIX veka”.1965-yil.

6.Hakimov A.A.”Markaziy Osiyo xalqlari amaliy san’ati tarixi”.2004-yil.

7.Abdullayev N.”O’zbekiston san’ati tarixi”.2007-yil.


**2 - mashg'ulot: 2- soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 3.2.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |

| | |
|---|---|
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Rus va Yevropa kitob san'atining keng yoyilishi.<br>2. Kino san'atining kirib kelishi. Xudoybergan Devonovning faoliyati (1877 - 1940).<br>3.Turkistonda amaliy bezak va xalq san'ati. Xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan buyumlarning tashqi bozorlarga chiqishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro, Xuva va Qo’qonda madaniyat va san’atning yangi turlarining vujudga kelishi, keng yoyilishi to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Rus va Yevropa kitob san'atining keng yoyilishi haqida tushuncha beradi.<br>* Kino san'atining kirib kelishi. Xudoybergan Devonovning faoliyati (1877 - 1940) haqida gapirib, slaydlar orqali namoyish etadi.<br>* Turkistonda amaliy bezak va xalq san'atining keng yoyilishi to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan buyumlarning tashqi bozorlarga chiqishini yillar bilan taqqoslab, tushuntirib beradi. | * Rus va Yevropa kitob san'atining keng yoyilishi haqida o'rganganlarini muhokama qiladilar.<br>* Kino san'atining kirib kelishi. Xudoybergan Devonovning faoliyati (1877 - 1940) o'rganib, kinofilm tomosha qiladilar.<br>* Turkistonda amaliy bezak va xalq san'ati gapirib beradilar.<br>* Xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan buyumlarning tashqi bozorlarga chiqishi, uning yutuqlari to'g'risida ftkr bildiradilar, tahlil qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda |

| | |
|---|---|
| | ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 3.2.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayonlari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi . | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Rus va Yevropa kitob san'atining keng yoyilishi to'g'risida nimalarni bilasiz?.<br>2. Kino san'atining kirib kelishi. Xudoybergan Devonovning faoliyati (1877 - 1940) haqida gapirib bering?.<br>3.Turkistonda amaliy bezak va xalq san'ati. Xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan buyumlarning tashqi bozorlarga chiqishini tushuntirib bering?. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini | Savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| Ya kuniy bosqich. (10 minut) | ma’lum qiladi. | |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi . | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**3 – mashg'ulot: 2 – soat**

**Reja:**

1. Gilamdo’zlik, charmdo’zlik va Buxoro zardo’zligi. Zardo’zlikda yaratilgan turli xildagi taqinchoq va tillaqoshlar.

2. Buxorolik usta Shirin Murodov, Qo’qonlik yog’och o’ymakori usta Najmiddin Haydarov, Xivalik usta Ota Polvonov va boshqalar faoliyati.

3. Kulolchilik. Turli idish tovoqlar, o'yinchoqlar va mayda haykalchalarning ishlanishi.

**Zardo’zlik san’ati tarixi.**

Qadimda ham, hozir ham zardo’zlik bilan shug’ullanadigan hunarmandlarni «zardo’z» deb atashadi. O’zbekiston kashtachiligini noyob turi zardo’zlik san’atisiz to’la tasavvur qilib bo’lmaydi. Bu san’at o’tgan asrning o’rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. U yerda mohir ustalar amir saroyining ustaxonalarida amir va uning saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardoz berishgan. Zardo’zlik odatda erkaklarga mansub bo’lgan va ular o’z hunarini bolalariga meros qilib qoldirishgan. Zardo’zlik san’ati o’zining uzoq tarixiga ega bo’lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Zardo’zlik san’atining an’analari o’z davrida ham mavjud va mashhur bo’lgandir. Hozirgi Eronda esa XV-XVII asrlardagi zardo’zlik namunalari anchagina saqlanib qolgandir.

Buxoro zardo’zi ashyolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilgan, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi. U paytda zardan tikilgan erkaklar kiyimlarini faqatgina xonga va uning qon-qarindoshlariga tegishli insonlar kiyar edilar. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ushbu qimmatbaho kiymlarni o’ziga buyurtirishga haqqi yo’q edi. Ular bu kiyimlarni amir sovg’a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo’z kiyimlarini esa faqatgina badavlat xonadon a’zolari kiyishga haqli edilar. Zar va kumush ip bilan erkaklar to’ni, salla, do’ppi, shalvar, poyabzallar, ayollarning ko’ylak, kamzul kaltacha, peshanaband, ro’mol, etik va tuflilari tikilgan.

Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab davlatimizning butun siyosati o’zligimizni qayta tiklash va mustahkamlashga qaratildi. Ayniqsa, mamlakatimiz ertasi bo’lgan yoshlarimizda bunday muqaddas his-tuyg’uni shakllantirishda ona tilimiz, ana’analarimiz va urf-odatlarimiz bilan birga milliy xunarmandchiligimiz ham muhim o’rin tutadi.

1997-yil 31 martda O’zbekiston Respulikasi Prezidentining «Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo’li bilan qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmoni e’lon qilindi. Farmonga asosan Respublika «Hunarmand» uyushmasi tashkil etildi va uning viloyatlarda hududiy bo’linmalari ochildi. Bu uyushma va uning hududiy bo’linmalarini tashkil etishdan maqsad, uzoq yillar mobaynida unutilib ketgan xalq amaliy san’ti va xunarmandchiligini tiklash, o’zbek milliy amaliy san’ati va xunarmandchiligini butun dunyoga tanitish edi.

Zardo’zlik - qiziqarli va ijodiy ish bo’lib, u insonga ko’p quvonch keltirishi, bo’sh vaqtida ermak bo’lishi, insonni nafosat olamiga olib kirishi mumkin. Zar tikish usullarini o’zlashtirayotganda hamma narsa birdaniga yaxshi chiqmasligi mumkin, chunki zardo’zlik sabr-toqatli, e’tiborli, tartibli bo’lishni talab etadi. Chidamli bo’lish lozim. Kerakli malakalar egallagan sayin ish asta-sekin osonlasha boradi.

Mohir zardo’z bo’lishni xohlagan har bir hunarmand quyidagi uch hunarni bilishi zarur bo’lgan:

1.Rasm solish va naqsh chizish;




2.Naqshlarni tushirish va qirqish;

3.Qirqilgan naqshlarni zar ip bilan tikish va bezatish.



Uy-ro’zg’orda ishlatiladigan zardo’zi buyumlar inson atrofidagi narsalar uchun mo’ljallangan bo’lib, insonga estetik zavq bag’ishlash va uning ijtimoiy mavqeini ko’rsatishga xizmat qilgan. Uy-ro’zg’orda ishlatiladigan zardo’zi buyumlarning quyidagi turlari mavjud: choy xaltai zardo’zi, muxr xaltai zardo’zi, pul xaltai zardo’zi, jildi soat, g’ilofi zardo’zi, tumorchai zardo’zi, so’zanai zardo’zi, chimildiki zardo’zi, joynomozi zardo’zi, choynakpo’shaki zardo’zi va hokazo. Uy-ro’zg’orda ishlatiladigan zardo’zi buyumlarni bichish usullari hamda bichimining tuzilishiga qarab uch turga ajratish mumkin:

1. Bichimi to’g’ri chiziqdan iborat bo’lgan kichik xajmli zardo’zi uy-ro’zg’or buyumlari;
2. Bichimi ma’lum shaklga ega bo’lgan kichik xajmli uy-ro’zg’or buyumlari;
3. Bichimi to’g’ri chiziqdan iborat bo’lgan katta xajmli uy-ro’zg’or buyumlari.

Zardo’zlik ham kashtachilik kabi amaliy bezak san’atidir . Xalq amaliy bezak san’ati tarixi jisimga badiiy ishlov berish faoliyatidan boshlangan.Insonning badiiy-ijodiy tafakuri maxsuli bo’lgan bu faoliyat tosh asrida paydo bo’lgan.Bu faoliyat inson qalbida komillikka va ezgulikka intilishni kuchaytirgan. Inson ongi va tafakkuri rivojlanib, ma’naviy ehtiyoji ortib borishi bilan mazkur san’atning mazmuni,turlari hamda badiiy ifoda vositalari boyib,rivoj topib brogan. Xalq amaliy bezak san’ati naqshlar asosida buyumlarg badiiy ishlov berishdan iboratdir.

Zardo’zlik xalq amaliy san’ati va xalq hunarmandchiligining juda qadimiy turi hisoblanadi.’’Zardo’zlik,, so’zi forscha ’’ zar,,-tilla, ’’do’zi- tikmoq, yani zar iplar bilan,gul,kashta tikmoq degan ma’noni anglatadi.Zardo’zlik tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi.Zardo’zlik ayniqsa o’rta asrda keng yoyilgan.Temur saroyida erkak va ayol kiyimlarini bezashda zardo’zlik keng qo’llanilgan.Bu serjilo kiyimlardan Temuriyzodalar bahramand bo’lishgan.Ammo XIX-asr va

XX-asr boshlarigacha u asosan Buxoroda ko'proq rivojlanib, uzoq vaqt saqlangan.Buxoro amirligi davrida zardo'zlik bilan 300 erkak shuq'ullangan. Qiziq'i shundaki, zardo'zlikday nozik ta'b talab etuvchi san'at ustalari asosan erkakalar bo'lgan. Zardo'lik ustaxonalarining faqat podsho saroylarida joylashganligi o'sha davirlarda uning posholikpoytaxti bo'lgan shaharlardagina taraqqiy etishga olib kelgan.Masalan; Somoniylar va G'aznaviylar davrida Buxoroda, Temuriylar davrida Samarqand va Xirotda gullab yashnagan.Mang'it amirlari davrida yana Buxoroga ko'chgan.Darhaqiqat,xalq bor ekan ,bu san'at yashayveradi. Zardo'zlik ham hunar ham san'atdir. Ko'pchilik bu kasb egalarining qalb qo'ri , ko'z nuri nozik hislarining mayin tori bo'lib jilolangan zardo'zlik ishlari na'munalaridan bahramanddirlar. U goh do'ppi bo'lib boshqa qo'ngan, so'mkachaga ingan, poyafzal bo'lib oyoqqa ilingan. Aziz o'quvchilar ishonavering, uni mohir va chevar qo'llar tikadi! Sizga xalq hunarmandchiligi durdonalarini o'rganishingizda omad tilab qolaman.

1. Zardo'zlik qanday san'at hisoblanadi?
2.Zardo'zlik qachon paydo bo'lgan



3."Zardo'zlik" so'zining ma'nosi nima?
4.Zardo'zlik asosan qayerda gullab yashnagan?




**Zardo'zlikda ishlatila[...] turlari, zar iplar).** Zardo'zlik buyumlarining [...]a buyum uchun material tanlash va uni bichishdan bo[...]do'zlik mahsulotlarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning sirtida zardo'zi naqshlarning bo'rtib turishidir. Shuning uchun, naqshlar tagiga tukli material ishlatiladi. Zardo'zlikda asosiy gazlamalardan duxoba , velyur gazlamalari ishlatiladi.

**Duxoba** - tukli o'rishlarda to'qilgan gazlama bo'lib, uning asosi paxta ipidan, faqat tuklarigina tabiiy ipakdan bo'ladi. Duxoba, asosan, uy -ro'zg'or buyumlarida ishlatilgan.

**Velyur** - sidirg'a, zich to'kilgan, tukli gazlama. Tuklari tik, jun ipdan to'qilgan. Hozirgi kunda zardo'zlikda sintetik tola aralashtirib to'qilgan, zardo'zlar «taqir velyur» deb atashadigan turi ko'p ishlatiladi. Undan barcha turdagi zardo'zlik buyumlari tikiladi. Bu velyur turi chidamliligi, pishiqligi, qattiqligi, ko'rkamligi va boshqa xossalari bilan zardo'zlikka juda mos tushadi.

Zardo'zlikda ishlatiladigan yordamchi gazlamlarga quyidagilar kiradi:

**Bo 'z** (xom surp) - pardozlanmagan ip - gazlama, ancha qalin va og'ir material. Bo'z karda ipdan polotno o'rishlarda to'qilgan, shuning uchun pishik va cho'zilmaydi.

**Surp** - oqartirilgan va pardozlangan bo'z. XX asrgacha bo'lgan zardo'zlikda surp chakmon, poyabzallarda naqshlar ostiga tagzamin sifatida ishlatilgan. Hozir ham kumush rangli ip bilan tikiladigan naqshlar ostiga qo'yiladi.

Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib hisoblangan. Oq va tillarang tusdagi yassilangan kumush tolasi sim deb atalib, u Buxoro zardo'zlari tomonidan keng qo'llanilgan.

**Dumaloq metall ip** (likkak) - pishiq yigirilgan ingichka dumaloq metall ipdan iborat bo'lib, u prujinaga o'xshab likillb turadi.

Zar iplardan tashqari zardo'zlikda jaydari rangdor ipak iplardan ham foydalanib, ular asosan gullarga qo'shimcha oro berishda hamda matoga zar yo'l tushirishda ishlatiladi.

**Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar.**



**Zar ipni o'rash.** Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar unchalik ko'p bo'lmasa-da, ular o'ziga xos tuzilishga ega. Zardo'zlikda ishlatiladigan asosiy asbob korcho'b bo'lib, u ikki qismdan iborat: chambarak va xorak. «Korcho'b» forscha so'z bo'lib, «kor» - ish, «cho'b»- taxta, yog'och ma'nolarni anglatadi.

Chambarak uzunligi 320 sm gacha bo'lgan ikkita teng yonli yog'och dasta va ularning maxsus qismida harakatlanuvchi silliq taxta, ya'ni shamshirakdan iborat. Shamshirakdagi ovalsimon o'yiqchalar yog'och dastalarga mato tortilganda ularni



tarang ushlab turishga xizmat qiladi.

Korcho'bning ikkinchi qismi xoraklardir. Xoraklar yog'och poylar bo'lib,ishlagan vaqtda chambarak ular ustiga qo'yilgan, chunki qadimda zardo'zlar ko'rpacha ustida o'tirib, ish tikishgan.

Hozirgi zamonaviy sexlarda metalldan (temir va uning qotishmalaridan) tayyorlangan zardo'zlik dastgohlari ishlatiladi. Bu sexdagi zardo'zlki dastgohlarni ikki turga bo'lish mumkin:

1.Kichik o'lchamli uy - ro'zg'or buyumlari va zardo'zlik kiyim - kechaklarni tikish uchun mo'ljallangan dastgohlar;

2.Katta o'lchamdagi buyumlarni, masalan, zardo'zi gilam, so'zana va hokazolarni tikishga mo'ljallangan dastgohlar. Ular tuzilishi bilan emas, balki chambarak qismining o'lchamlari bilangina farq qiladi, xolos.

Zardo'zlikda korcho'pdan so'ng turadigan asbobdan biri - patila hisoblanadi. Patila - to'rt qirrali va nafis qilib tarashlangan, ichi kavlanib, qo'rg'oshin quyib vazminlashtirilgan, uzunligi 18 - 20 sm li oddiy yog'och tayoqcha. Patila zar iplarni zich va bir tekis qilib o'rashda ishlatilgan, bu tikilayotgan zardo'zning bir tekis chiqishiga yordam bergan, zar ipning chalishib isrof bo'lishiga yo'l qo'ymagan.

Zardo'zlikda angishvona ham zarur. Chunki zardo'zlik naqshlari faqat qo'lda

tikiladi. Angishvona igna qo'lga kirib ketmasligi uchun ishlatiladigan metall g'ilofdir. Uning ustki va yon tomonlarida igna toyib ketmasligi uchun chuqurchalar o'yilgan.

Zardo'zlikda barcha jarayonlar qo'lda bajariladigan choklar orqali amalga oshiriladi, shuning uchun ignalar va ularni tanlay bilish muhim ahamiyatga ega.

Zardo'zlikda asosan ikki xil turdagi ignalar ishlatiladi:

1.Tikish ishlari uchun 2 sonli ignalar ishlatiladi.

2.Bezatish ishlari uchun esa 1 sonli ignalar ishlatiladi.

Zardo'zlikda uch turdagi qaychilardan foydalaniladi:

1.Naqshlar, gullarni qirqishda ishlatiladigan qaychi o'rdakburun va tuyabo'yin qaychi. Bu qaychilar faqat gullarni qirqishda kerak bo'ladi.

2.Pardozlashda kerak bo'ladigan qaychilar. Bu qaychilar kichikroq bo'lib, dastgoh ustida ishlashda qulay.

3.Andoza bichishda kerak bo'ladigan qaychilar. Bunday qaychilar kattaroq va o'tkirroq bo'lishi zarur.

Zardo'zlikda ishlatilidigan asbob -uskunalar o'tkir uchli asboblar bo'lib, ular bilan ishlaganda ehtiyot bo'lish va texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish zarur. Avvalo, ularni saqlash uchun alohida moslama bo'lishi darkor. Ignalar bilan ishlayotganda, albatta ularni igna qadagichlarga qadab qo'yiladi. Ulardan foydalanganda angishvona kiyib olinadi. Ignaga ip o'tkazganda hech qachon ularni lab orasida ushlab turmaslik lozim. Nafas olayotganda yoki gapirmoqchi bo'lganda ular bexosdan ichga ketib qolishi mumkin. Qaychilar ham uchi o'tkir asboblardan biri bo'lib, ulardan noto'g'i foydalanish o'zigagina emas, bilki atrofdagilarga xam zarar keltirishi, ish sifatining buzilishiga, ishning to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

Zar iplardan foydalanishdan ilgari ular belgilangan chegarada uzun qilib olinadi va patilaga 4 qavat qilib, ya'ni zar o'raydigan cho'pga o'raladi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga o'ralmasdan, avval oddiy ip patilaga mahkam qilib bog'lanadi, so'ng shu ipga zar iplar ulanadi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga ulansa, tezda uzilib ketishi mumkin. Zar iplarni o'rayotganda ularning tekis o'ralashiga e'tibor berish zarur. Keyin zar ip bilan maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi.















**Zardo'zlikda ishlatiladigan naqsh turlari.**

Xalq amaliy bezak san’atida, jumladan, zardo’zlikda ham naqshlar muhim o’rin tutadi. Chunki, zardo’zlik xalq amaliy san’atining qo’l choklari orqali hosil qilingan naqshlar asosida badiiy ishlov berish turidir.

«Naqsh» arabcha so’z bo’lib, «gul», «tasvir» degan ma’nolarni anglatadi. Naqsh - qush, hayvon, o’simlik, novda va boshqa elementlarning ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Naqsh elementlari tabiatdan to’g’ridan-to’g’ri olinmasdan, qayta ishlash asosida hosil qilinadi. Qayta ishlash - o’simlik va xayvonot dunyosidagi tabiiy shakllarni ramziy shakllarga aylantirishdir.

O’zbek xalq amaliy bezak san’atida ishlatiladigan naqshlar tuzilishiga ko’ra quyidagi to’rt guruxga ajratiladi:

1.Islimi (o’simliksimon) naqshlar - egri chiziqli o’simlik elementlaridan iborat.

2.Geometrik (girix) naqshlar - to’g’ri chiziqli elementlaridan tashkil topgan.

3.Murakkab (gulli girix) naqshlar - islimi va girix elementlarining chatishmasidan iborat.

4.Ramziy naqshlar (hayvonot va odamzot olamidagi shakllarni qayta ishlab hosil qilingan naqshlar)

Kartonga naqsh (gul) tushirish va qirqish. Zardo'zlik texnologiyasiga ko'ra islimi naqshlar guldo'zi usulida, geometrik naqshlar esa zamindo'zi usulida hosil qilinadi. Murakkab naqsh turlarida esa ikkala tikish usulidan ham foydalaniladi. Guldo'zi tikish usullarida zar ip kartondan qirqilgan gul naqshlari ustidan tikiladi.

Qog'ozga chizilgan naqshlar kartonga axta usulida ko'chirilgan. Axta yordamida naqshlarni ko'chirishda yupqa shaffof xitoy qog'ozi naqshlaridan yuzaga qo'yilib, o'lchab olinadi va shu yuzaga mos axta tayyorlanadi, ya'ni naqshning yarim yoki chorak qismi (agar naqsh simmetrik bo'lmasa, u holda naqsh butun holatda) qog'ozga yumshoq qora qalam bilan chiziladi. Shaffof qog'oz simmetrik o'qlar bo'yicha ikki, to'rt va undan ortiq bo'laklarga buklanadi. Buklangan qog'oz yostiqcha ustiga qo'yiladi va naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa aniq va ravshan ko'rinishi uchun teshikchalar oralig'i naqsh nusxasining yirik yoki maydaligiga qarab belgilanadi. Nusxa qanchalik mayda bo'lsa, teshikchalar oralig'i shuncha yaqin bo'lishi kerak. Shundan so'ng shaffof qog'oz yoyib yuboriladi va butun naqsh nusxasi hosil bo'lgani ko'zga tashlanadi. Nusxa naqsh tushiriladigan karton yuzasiga yoyilib, uning ustidan xoka bilan yengil bosib yurgiziladi, natijada naqsh nusxasi kerakli yuzaga o'tadi. Xoka izlari o'chib ketmasligi uchun darhol uning ustidan qalam yoki mo'yqalam bilan yurgiziladi. Xoka tayyorlashda maydalangan pista ko'mir, bo'r kukuni yoki belil poroshogi yupqa mato yoki ikki qavat dokaga solinib xalta xolida tugiladi.

Endilikda zardo'zlikda bu usulni bir oz o'zgartirgan holda qo'llaydilar. Ular gazeta bo'yog'i bilan solyarka moyini aralashtirib, yumshoq lattaga shimdirishadi. Axta tushirilgan yupqa shaffof xitoy qog'ozi («kalka» ham deyiladi) naqsh tushirilgan karton yuzasi qo'yiladi va ustidan buyum bostirib qo'yiladi. Sababi, axta surilib, naqsh nusxasi sifati buzilmasligi kerak. So'ng moy shimdirilgan latta naqsh nusxasi ustidan sekin-asta yurgiziladi. Shundan so'ng naqsh nusxasi karton ustida mayda-mayda yog' dog'lari shaklida hosil bo'ladi. Xokadan ko'ra moyli lattaning afzalligi shundaki, uning izlari tezda o'chib ketmaydi. Naqshlarni qirqishda oddiy qaychilardan foydalanish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan tuyabo'yin qaychidan foydalaniladi. Bu qaychining tuzilishi xaqiqatdan tuyaning bo'yniga o'xshab ketadi. Bunday qaychi bilan naqsh qirqayotganda qaychi kartonning tagida turadi. Qirqayotganda asoan qaychini emas, balki naqsh kompozisiyasi tushirilgan kartonni yurgazish kerak, shundagina qaychi bilan qirqayotgan chiziqlar tekis chiqadi. Naqshlarni qirqish avvalo ularning ichini «kovlab olishdan» boshlanadi. Chunki gullarning ichi eng kichik qirqiladigan yuzalar hisoblanadi. Bu yuzalar qirqib olingach, so'ng ular atrofidagi nokerak yuzalar

qirqib olinadi. Gullarni qirqayotganda qirqish chiziqlariga e'tibor berish kerak, aks holda, ularning ko'rinishi buzilishi mumkin, bu esa zardo'zi buyumining sifatiga katta ta'sir etadi.

Ish o'rnini tashkil qilish. Zar tikish qulay bo'lishi, tikuvchini charchatmasligi uchun, ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, mehnat qilishning muayyan qoidalariga rioya etish kerak. Asbob va moslamalar qo'yiladigan stol ustidagi ishga yorug'lik chap tomondan tushadigan holatda turish kerak. Agar stolda yashikcha bo'lsa, unda ip maxsus xaltada, asboblar yashikchada turadi. Gavda holatiga ahamiyat berib, bukchaymay, boshni juda pastga egmasdan o'tirish kerak. Ish vaqtida gavda biroz oldinga engashgan bo'lishi, ko'z bilan ish o'rtasidagi oraliq 25-30 sm dan oshmasligi lozim.

Naqsh» arabcha so'z bo'lib, «gul», «tasvir» degan ma'nolarni anglatadi. Naqsh - qush, hayvon, o'simlik, novda va boshqa elementlarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Naqsh elementlari tabiatdan to'g'ridan-to'g'ri olinmasdan, qayta ishlash asosida hosil qilinadi. Qayta ishlash - o'simlik va xayvonot dunyosidagi tabiiy shakllarni ramziy shakllarga aylantirishdir.

Bizga ma`lumki zardo`zlik san`ati milliy xalq hunarmandchiligiga kiradi. Bu hunar bilan azal azaldan ota bobolarimiz shug`illanib kelishgan. Zardo`zlik san`ati bilan ko`proq erkak kishilar shug`llanishgan keyinchalik ayollarimiz ham o`rganisha boshlashgan. Zardo`zlik san`ati bilan XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan mutafakkur shoir Fitratning ham asosiy kasbi zardo`zlik bo`lgan.Zardo`zlik san`ati yurtimizning Buxoro viloyatida keng rivojlangan. Zardo`zi ustalardan buxorolik usta Numon Aminov va Usta Xalim, Majidov, Sultonov, aka- uka Xamidovlar, G`aybullayev, Sayfullayev, Ayollardan, Komolova, Samadova, Xamidova, Raxmatova, Yaxyoevalar yaratgan san`at asrlarini hunarmandchiligimizning beqiyos san`at asrlari deb hisoblashimiz mumkin.Ular yaratgan asrlari dunyo bo`lab ko`rgazmalarda namoyish etilgan.Zardo`zi usta No`mon Aminovning "Guri Amir" asari Toshkent xalq amaliy san`at muziyeda saqlanib kelinmoqda. Biz yaratayotgan har bir buyumga bor mehrimizni berib bajarsak biz ham san`at asrlari yaratishimiz mumkin

Bo'zni korcho'pda taranglab tortish. Tikishga tayyorgarlik chambarakni tayyor holga keltirishdan boshlanadi. Tikishdan ilgari chambarakka bo'zdan qilingan kerish (ta'var) tortiladi. U shunchalik tarang tortilishi kerakki, uning ustiga tashlangan angishvona 4-5 marta sakrashi kerak. Buning uchun chambarakka material (bo'z) tortish qonun - qoidalarini bilish zarur. Bunda,

avvalo chambarakning yog'och dastasi uzunligiga mos keladigan qalin mato(bo'z)dan qolip tikiladi. Bo'z, ya'ni kerish o'lchamlari tikilayotgan buyumning o'lchamlaridan kelib chiqib olinadi. Qolip to'rt tomondan kerishga ulanadi. Qolip o'zgarmaydi, lekin kerish o'zgarib turadi. Chunki kerish

tikilayotgan zardo’zi buyumning tagida bo’lib, u bilan birga qo’shib tikiladi va o’sha buyum bilan birga qo’shib qirqib olinadi. Qolipning buklangan tomonlari yog’och dastaga kiygiziladi. Chambarak tortilib, tekis holga keltiriladi. Qolipning dasta va yon tomonlaridan teshib, undan iplar o’tkazilib shamshirakka tortiladi. Kerish tortilgunicha ip tortiladi. Keyin angishvona bilan sinab ko’riladi, agar kerish ustida angishvona 4-5 marta sakrasa, demak, dastgoh tayyor. Zamonaviy sexlarda esa metalldan tayyorlangan dastgohlarni tayyor holga keltirish birmuncha osonroq.

Korcho’bni tayyor holga keltirish hamda u bilan ishlashda ma’lum texnologik qoidalarga rioya etish ishning sifatiga katta ta’sir ko’rsatadi, ya’ni:

1.Ish tikayotgan paytda korcho’b ustiga yotib olib, og’irlikni tashamaslik kerak, aks holda kerish bo’shab ketib, ishning sifati buzilishi mumkin.

2.Hamma asbob - uskunalarni korcho’b ustiga qadab tashlamaslik kerak, bunda ham korcho’b bo’shab qoladi.

3.Korcho’b tikishga qulay bo’lishi lozim, uning ko’krakdan past yoki yuqori bo’lishi ishning sifatiga ham, sog’liqqa ham zarardir.

Zamindo'zi va guldo'zi usulida tikishni o'rgatish. Zardo’zlikda 30 xil klassik tikish usullari mavjud. Bu usullar o’ziga xos tomonlarining nomlari bilan bir-biridan farq qiladi. Zardo’zlik umuman ikkiga bo’linadi: birinchisi -zamindo’zi, ikkinchisi - guldo’zi.Zamindo’zi tikish turi. «Zamindo’zi» forscha «zamin» - er osti, tagi, «do’zi» - «tikmoq» degan ma’nolarni anglatadi. So’zning ma’nosidan ko’rinib turibdiki, zardo’zi tikish usullari naqshlar tagini yoppasiga zar iplar bilan to’ldirib tikish, ya’ni bunda zar tikilayotgan buyum gulnaqshining zamini yoppasiga zar bilan tikiladi va turli naqshlar hosil qilish vazifasini bajaradi. Bu usulda tikkanda buyumning hamma joyi zar ip bilan naqshlar hosil qilib tikib chiqiladi.

Zamindo’zi qadimda qimmatbaho to’nlarda ishlatilgan bo’lib, hozir zardo’zi do’ppilarning jiyagidagina qo’llanib kelinadi.

Guldo ’zi -bunda tikilayotgan naqshning tagi ochiq qolib faqat gul naqshlarning o’zi zar bilan tikiladi. Guldo’zi tikish usuli o’ziga xos bo’lib bu quyidagi bosqichda bajariladi. Naqqosh tomonidan naqsh chiziladi. Naqsh nusxasi qalin qog’oz karton yoki teridan qirqib andazasi tayyorlanadi. Sidirg’a baxmal matoga qadab chiqiladi, ya’ni omonat tikib chiqiladi yoki yelimlanadi. Karton nusxani zar ip bilan qoplab tikib chiqiladi. Biroz bo’rtma naqsh gul hosil bo’ladi. Bu usulda tikkanda naqshlarning tagi tikilmasdan qoladi.

Zardo’zlik ikkiga bo’linadi:

birinchisi -zamindo’zi, ikkinchisi - guldo’zi.Zamindo’zi tikish turi. «Zamindo’zi» forscha «zamin» - er osti, tagi, «do’zi» - «tikmoq» degan ma’nolarni anglatadi.

Ikkinchisi:Guldo ’zi -bunda tikilayotgan naqshning tagi ochiq qolib faqat gul naqshlarning o’zi zar bilan tikiladi.

**Zardo’zlik faoliyatidan namunalar:**












Usta shirin Murodov (1879, Buxoro — 1957.12.2, Toshkent) — me’mor, ganch o‘ymakori; O‘zbekiston FAning faxriy a’zosi (1943), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1943). Hunarni otasi usta Murod va bobosi usta Nosirdan o‘rgangan, yoshligidan amakisi usta Hayot qo‘lida qolgan va undan ta’lim olgan. Mustaqil usta sifatida Buxoro amirining Karmanadagi saroyi

(Sitorai Mohi Xosa yozlik saroyining Oq zali)ni bezashda katnashib, tanilgan. U.Sh. ijodida ganch o‘ymakorligi an’analarini mahorat bilan qo‘llagan, ularni yangi mazmun va shakllar bilan boyitgan, ilk bor ish faoliyati (ganch o‘ymakorligi)da naqsh zaminida ko‘zgudan foydalandi, ya’ni ko‘zgu ustiga ganchkori naqshlar ishlab, jozibadorlikka, ajoyib naqsh jilvasiga erishdi.

U.Sh. ko‘plab klublar, ma’muriy binolarni nafis ganchkorlik naqshlari bilan bezadi: Butunittifoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasidagi O‘zbekiston, Turkmaniston pavilonlari (1938), Toshkent kuranti, Navoiy teatri (Buxoro zali), Muqimiy teatri, xoz. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi va boshqa; me’moriy obidalarni ta’mirlashda katnashgan: Ismoil Somoniy maqbarasining buzilgan qismi, Mir Arab madrasasi, Abdulazizxon madrasasi gumbazlarini, Mag‘oki attori mayejidi peshtog‘ining koshinkori naqshlarini tikladi va boshqa

U.Sh. ko‘plab shogirdlar yetishtirgan: Samarkand ta’mirchilar maktabi, Toshkent qurilish san’ati maktabi (1940— 42), Moskva badiiy san’at bilim yurti (1942—43), P. Benkov nomidagi respublika rassomlik bilim yurti (1952—57)da dare bergan. Respublika (jumladan, Toshkent, Buxoro va boshqalar)dagi maktab, ko‘chalarga U.Sh. nomi qo‘yilgan; Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa hovlisida uning byusti o‘rnatilgan. Vafotidan so‘ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan (2001).



**Уста Ширин Муродов. 1952 йил.**
**Уста Ширин Мурадов, 1952 год.**
**Usto – master Shirin Murodov, 1952.**



**Уста Ширин Муродов Мағоки Аттори масжиди таъмири жараёнида, 1932 йил.**
**Уста Ширин Мурадов во время реставрации мечети Магоки Аттори, 1932 год.**
**Usto – master Shirin Murodov during the restoration of Magoki Attori mosque, 1932.**



Polvonov Ota (1867 — Xiva -1972)— yog‘och o‘ymakori; Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabining yirik namoyandasi. Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabi rivojiga salmokli hissa ko‘shgan. Bobosi usta Abdusattor va otasi usta Polvonlar bilan birga ishlab qunar o‘rgangan. Xivadagi ko‘pgina binolarning darvo-zasi, eshik, ustunlarini bezashda qat-nashgan. Xivadagi "Umid" artelida o‘yma-korlik brigadasiga boshchilik qilgan (1930—40-yillar). A.Boltayevnit naqsh mujassamotlari asosida shogirdi Safo Bog‘bekov bilan birgalikda naqshlagan us-tun va ikki tabaqali eshik Parij xalq-aro amaliy san’at ko‘rgazmasida namo-yish kilingan (1937). Navoiy teatri binosi uchun eshiklar tayyorlagan (1947), Urganch vokzali binosi uchun 4 ta 2 tabaqali eshikni bezagan (1952). Badiiy ko‘rgazmalar va panoramalar direksiyasi (hozirgi Zamonaviy san’at muzeyi) uchun ustun va eshiklar tayyorlagan. P. ishlaridan namunalar O‘zR va xo-rijiy mamlakatlar muzeylari va to‘plamlaridasaqlanadi. P. yaratgan naksh mujassamotlari (asosan, islimiy) mu-rakkab va jozibador bo‘lib, o‘ymalarining chuq. 2 mm.dan 30 mm.gachadir.[1]



Xalq ustalarining kelajagi, ularning merosini saqlash va takomillashtirish haqidagi o‘ylar meni qadimiy Xivaning ko‘chalarida, asriy shamollar sayqal bergan, quyosh nuri toblagan, har bir tosh go‘zallik yaratgan kishilar taqdiri haqida so‘zlashga tayyor bo‘lgan joylarda ham tark etmadi. Ularning ko‘pchiligi nomi noma’lumligicha qoldi. Mo‘ysafidlar o‘tgan asrda yashagan ayrim ustalarnigina biladilar.

Shulardan biri — mashhur yog‘och o‘ymakor Ota Polvonovdir. Men Xiva ustalarining otaxoni bilan muxbirlik qilib yurganimda tanishganman. O‘shanda u 100 yoshda edi. Oddiy Xiva xonadonida men munkillab qolgan qariyani uchratdim. Bu shaharda uning birorta ham tengdoshi yo‘q ekan. U to‘rt xonni va ikki jahon urushini ko‘rgan.

Ota Polvonov daraxt ostida, uning tanasiga suyanib o‘tirardi. Tashqi qiyofasidan aynan xivalik oqsoqollarning o‘zginasi, kiyimi ham odatdagidek, boshida qorako‘l terisidan tikilgan an’anaviy cho‘girma.

Usta keksayib qolganiga qaramay o‘z hunari haqida bajonidil so‘zlab berdi, uzoq o‘tmishni esladi. To‘g‘ri, olimlar va jurnalistlar unga ko‘p e’tibor berayotganliklaridan ajablandi. U ham axir oddiy usta-ku!

U o‘n yoshligidayoq qo‘liga iskana olib otasi Polvon Sattorovga yordamlasha boshlagan. Otasi xalq orasida mohir usta sifatida shuhrat qozongan. (U Toshhovli saroyidagi ustunlarning bir qismidagi, Islomxo‘ja madrasasining eshiklaridagi o‘ymakorlik ishlarini bajargan).

Ota Polvonov 16 yoshidayoq mustaqil ishlay boshlagan. Yigirma yoshida esa tajribali usta bo‘lgan. Uni xon saroyiga — eshik, ustun, darvozalarni ishlashga taklif qilishgan.

Keksa usta boshidan o‘tgan bir voqeani eslaydi. Bir kuni u shaharlik mijoziga eshik yasayotganda, xon amaldori bu ishni to‘xtatib, o‘zining buyurtmasini bajarishga amr qiladi. Usta bunday qilolmayman, va’da berganman, deb bosh tortadi. Shunda ustaning hovlisiga navkarlar bostirib kelishadi...

Ota Polvonov keksayib qolgunga qadar mehnat qildi. U Toshkentdagi Navoiy nomli opera va balet teatrini pardozlashda (teatrning kichik foyesidagi eshiklarni yasadi) ishtirok etdi. 85 yoshida Urganch vokzali binosining eshigini ajoyib tasvirlar bilan bezadi, 95 yoshida ko‘rgazmalar va panoramalar ma’muriyatining buyurtmasini bajardi — o‘ymakor eshik va ustun ishlab berdi.

Biroq xivalik ustaning eng mashhur ishi 1937 yilda Parijdagi Xalqaro ko‘rgazmada namoyish qilingan o‘ymakor ustundir, Ko‘rgazma jyurisi bu nodir ish uchun uni Birinchi darajali diplom va «Oltin Yulduz» medali bilan taqdirlagan. Chunonchi, ustaning Navoiy teatridagi yog‘och o‘ymakorligi ishlariga ham SSSR Davlat mukofoti berilgan.

Ota Polvonov nevarasi Xurramboyga ish buyuradi. Ko‘p o‘tmay bola ichkaridan bir dasta bezak trafaretlarini ko‘tarib chiqadi. Bu bobo saqlagan «ish arxivi»ning bir qismigina bo‘lsa kerak. Usta bir vaqtlari mana shu qalin albomdan zarur naqshni tanlab, uni yog‘ochga tushirgan. Sathdagi bezaklar chizig‘i dokaga o‘ralgan kukun orqali trafaretdan o‘tkaziladi.

Ota Polvonovning yog‘ochga o‘ygan naqshlarini lo‘nda qilib aytganda, go‘zal bog‘larning latofatiga qiyoslash mumkin. Uning naqshlarida jonli yaproqlar tasviri, rang-barang gullar namoyon bo‘ladi.

Xivada tabiatdagi rang-barang o‘simliklar tasviri nihoyatda keng tarqalgan. Butun O‘rta Osiyoda ham shunday. O‘lkamizda o‘rta asrlar — XIII—XIV asrlar yog‘och o‘ymakorligi eng gullagan davr hisoblanadi. Keyinchalik ham san’atning bu turi o‘zining yuksak cho‘qqisida turgan. Biroq keyingi ikki asr davomida yog‘och o‘ymakorligi san’atida xivalik ustalar peshqadam bo‘lishdi. Shahar yog‘och o‘ymakorligining chinakam qo‘riqxonasiga aylandi. Endilikda

O‘rta Osiyoda bu san’at shahar me’morchiligi qiyofasiga shu darajada uyg‘unlashib ketgan joyni uchrataolmaymiz. Uning har bir ko‘hna ko‘chasidagi, har bir me’morchilik yodgorligidagi eshik va ustunlar haqiqiy san’at namunalari hisoblanadi. Ular o‘ymakor ustalarning bir nechta avlodini kamolga yetkazdi.

Ota Polvonovning bobosi ham mashhur usta edi. Nevarasi uning mahoratini to‘la-to‘kis meros qilib oldi. Oilada yaratilgan barcha gul namunalari ham Ota Polvonovning mulki bo‘lib qoldi.

Keksa usta serajin qo‘li bilan menga bir bezak nusxasini uzatib: «Buni «Aylanma islimiy» bezagi deymiz, Xivada keng tarqalgan», deb tushuntiradi.

Bu naqsh — ma’lum bir tartibga tushirilgan o‘simlik shoxlarining tasviri bo‘lib, u haqiqatdan ham nihoyatda serjoziba, go‘zal va bir-biriga chirmashib ketgan edi.

Suhbatdoshim yog‘ochga o‘yiladigan bezakning dovrug‘ini ko‘rsatuvchi bir hikoyatni eslaydi. Qadimda jasorat ko‘rsatgan askarlarga o‘z xonadoni eshigiga qalqon osishga ruxsat berilgan. Xivaliklar esa, ma’lumki, doimo botir jangchi hisoblangan. Mana shuning uchun ham endilikda har bir eshikda ko‘hna qalqonni eslatuvchi naqsh o‘yilgan.

Xivada yaratilgan o‘simliklar va gullar naqshi namunalari o‘zining jozibasi va rang-barangligi bilan hatto eng yuksak didli tomoshabinlarni ham lol qoldiradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bu naqshlar O‘rta Osiyo bezaklarining oliy namunasi bo‘lib, Xiva me’morchiligidagi tasviriy manzaralarning asl mohiyatini ifodalaydi.

Ota Polvonov Xiva yog‘och o‘ymakorlarining eng yaxshi an’analariga hamisha sodiq qoldi. San’atshunoslarning ta’riflashicha, uning o‘ymakor naqshlari chiziqlarning go‘zalligi, tuzilishidagi latofat, nur va soyalar o‘yini, bezaklarning favqulodda uyg‘unligi va mutanosibligi, botiq fondagi takrorlanmas bezagi bilan ajralib turadi. Ular haqiqatdan ham asl san’at asaridir!

O‘lkamizdagi Ota Polvonov kabi ustalar haqida Boris Lavrenev shunday deb yozadi: «...ustalar sirli bezaklar, tasvirlar va shakllarning shu qadar murakkab, shu qadar nafis chamanini yaratishga muyassar bo‘ldilar-ki, hali bundan ortiq yorqin bo‘yoqlar to‘lqinini hech bir irq, hech bir zamon san’ati yarata olgani yo‘q».

— O‘ymakorlikdagi eng qiyin ish nima? — deb so‘rayman Ota Polvonovdan.

— Kerakli daraxtni topish, — deydi oqsoqol.

Ustaning aytishicha, qayrag‘ochning yorilmaydigan «korman» navi o‘ymakorlik uchun eng yaxshi daraxt ekan. U ayniqsa ustun uchun juda bop xom ashyo hisoblanarkan. Eng chiroyli eshikni o‘rikdan tayyorlash mumkin ekan. O‘rik yuz

yil umr ko‘rsa tanasi qizg‘ish rangga kirarkan. O‘ymakorlar archa, yong‘oq, chinor daraxtlarini ham ishlatishadi...

Odatda ustalar daraxtni bozorda emas, o‘sib turgan joyida tanlaydilar. O‘tmishda bir tup qayrag‘och uchun ikki-uch sigirning pulini berishgan.

Ota Polvonov, o‘z padari va bobosi kabi, yangi kesilgan daraxtga naqsh o‘ymaydi. Daraxt avval selgishi, ba’zan o‘n yilcha yotishi kerak. Bu ishda har bir narsa, hatto daraxtni qanday quritish ham muhim hisoblanadi. Masalan, daraxt tik qo‘yilsa bir tekisda quriydi. Taxta uchun esa bahor oyyda tilinadi va kamida kuzgacha quritiladi.

Ustalarning asboblari turli shakl va hajmdagi o‘ttizga yaqin iskanadan (keskichlardan) iborat. Eng qalini o‘n millimetrlik.

Xivadagi yog‘och o‘ymakorligi, umuman o‘lkamizdagi o‘ymakorlik singari tekis sathga tushiriladi. O‘yma tushiriladigan yog‘ochning qalinligi ikki millimetrdan o‘ttiz millimetrgacha bo‘ladi. O‘ymakorlik naqshlari sayoz va chuqur sathda bajarilishi mumkin. Nuqur o‘ymakorlik odatda bir planda, ba’zan — ikki, kamdan-kam holda uch planda bajariladi. Ota Polvonov aynan mana shunday o‘ymakorlikda shuhrat qozondi.

Ustunni o‘ymakorlikka tayyorlash uchun o‘rta hisobda bir oy, eshikka esa bir yarim oy vaqt ketadi. Tayyorlangan buyumga qizdirilgan paxta yog‘i singdiriladi. Shunday qilinsa u vaqt o‘tishi bilan chiroyli qoramtir tusga kiradi, haroratning o‘zgarishi va yog‘in-sochinga chidamli bo‘ladi. Xivada yog‘och bo‘yalmaydi, nainki daraxt tanasining tabiiy ko‘rinishi yuksak qadrlanadi.

Yog‘och o‘ymakorligining sehrli ustasi men bilan suhbatlashib toliqqan bo‘lishiga qaramay bag‘ri kenglik bilan kulimsiraydi. Nihoyat, biz xayrlashdik. Keyin Ota Polvonov bilan boshqa uchrasholmadim. U 105 yoshida olamdan o‘tibdi. Iste’dodli usta xalqiga o‘zining noyobligi va bekamu-ko‘stligi bilan eng talabchan san’atshunoslarni ham lol qoldiradigan nafis ishlarini meros qoldirdi.

O‘ymakorlarning otasi hayotdan ketdi, Endilikda ustalardagi kasb-korni avloddan avlodga meros qilib qoldiruvchi rishta uzilib qolmasmikan, degan xavf paydo bo‘ldi. Baxtimizga bunday ko‘ngilsizlik ro‘y bermadi. Mashhur usta o‘zidan keyin munosib shogirdlar qoldirdi. Ulardan biri Safo Bog‘bekovdir. U o‘ymakorlik san’atining sir-asrorlarini bir guruh yoshlarga o‘rgata boshladi. Xiva me’morchilik qo‘riqxonasiga aylanganligi munosabati bilan shaharda kandakorlik, ganch, tosh o‘ymakorligi va boshqa hunarlar bo‘yicha ham shunday o‘ziga xos maktablar tashkil etildi.

Tarixiy obidalarni ta’mirlashda keksa ustalarning tajribalari bebaho ahamiyatga ega bo‘ldi. Masalan, «musulmon» g‘ishtlari pishiriladigan xumdonlar tayyorlashda o‘tmishdagi ustalar tajribasidan foydalanildi. Chunki o‘rta

asrlardagi inshootlar aynan shunday g‘ishtlardan qurilgan. Ayniqsa sirli koshinlar tayyorlashning allaqachon unutilgan usulini qayta tiklash nihoyatda mushkul bo‘ldi. Bu ishda Davlat Bekjonov jonga oro kirdi. Keksa usta bunday ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun munosib tuproq konini izlab topdi. Shu maqsadda Amudaryoning butun quyi oqimini kezib chiqdi. Nihoyat, o‘rta asrlarda xom ashyo qazib olingan joyni izlab topdi. Keksa usta koshin pishirish rejimini aniqlash uchun ko‘p kuch va vaqt sarflardi. Unga bu ishda o‘g‘li Kamol bilan Omon yordam berdi. Barcha qiyinchiliklar shunda ediki, endilikda ota-bobolarimizning koshin tayyorlash usulini to‘la-to‘kis tiklashning iloji yo‘q edi, bunga ortiq zarurat ham sezilmasdi. Masalan, hozir xumdonlarda pista ko‘mir o‘rniga suyuq yoqilg‘i ishlatiladi. Zamonaviy pechlarda koshinlarni pishirish uchun qanday joylashtirish kerak? Harorat qanday bo‘lishi lozim? Mana shunga o‘xshash savollarga tajriba o‘tkazish yo‘li bilan javob topishga to‘g‘ri keldi.

Shak-shubhasiz ta’mirchilarga faqat oqsoqol ustalargina emas, kimyogarlar, injenerlar, sharqshunoslar, arxeologlar, tarixchilar ham faol yordam berishdi. Umumiy sa’y-harakat tufayli ko‘hna qurilish materiallarini tayyorlash jarayoni aniqlandi.

Xivadagi me’morchilik yodgorliklarini qayta tiklash ishi bilan O‘zbekiston SSR Madaniyat ministrligi huzuridagi ta’mirlash bo‘yicha maxsus ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti shug‘ullanadi. Mamlakatimizda bunday institutlar kam. Unda katta yea jiddiy ishlar olib borilyapti. Har bir sohada bo‘lganidek, mazkur institut ishlarida ham muayyan kamchiliklar bor.

Hozirgi vaqtda tarixiy inshootlardan zamonaviy ehtiyojlar uchun foydalanish odat tusiga kirgan. Xiva shahri ham bundan xoli zmas. Masalan, yuz hujrali Muhammad Aminxon madrasasi antiqa mehmonxonaga aylantirildi. Bu madrasa nihoyatda qulay yerda — Ichanqal’aga kiraverishdagi Otadarvoza yonida joylashgan. Ikki qavatli bu binoning tashqi qiyofasi yangilash natijasida deyarli o‘zgarmadi. (Eski uslubda pardozlangan choyxona hovli ichiga joylashtirilgani ma’qul bo‘ldi). Biroq bino ichidagi xonalarni obodonlashtirish, zamonaviy injenerlik tarmoqlari o‘rnatishda tarixiy yodgorlikka ancha zarar yetkazildi. Yerning cho‘kishi natijasida binoning ayrim qismlarida avariya holati yuzaga keldi.

Restoranga moslashtirilgan qo‘shni madrasaning burchagi yiqildi. Albatta, uni qaytadan tiklashdi. Lekin bu ishni amalga oshirish natijasida madrasa hovlisining usti yopib qo‘yildi. Bu tom so‘zanaga tushgan bo‘z yamoqdek unga yopishmay, ko‘hna yodgorlik turkumidagi soxta inshootdek ko‘zga xunuk ko‘rinib turibdi.

Hovli ustidagi tom (quyosh tig‘idan saqlanish uchun) tufayli timga aylantirilgan Olloqulixon karvonsaroyining oldi to‘silib qoldi.

Qo‘riqxona tasarrufidagi ko‘hna inshootlarni turizm ehtiyojlariga xizmat qildirish butun territoriyadan foydalanish tartibining o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ldi. Chunki sayyohlarga xizmat ko‘rsatish zarur maishiy va madaniy ob’ektlarni barpo ztishni taqozo qiladi. Shu munosabat bilan ko‘hna qal’a ichida, masalan, yozgi kinoteatr tashkil etildi. To‘g‘ri, bu ish ancha ehtiyotkorona amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq qo‘riqxona ichidagi kinoteatr, har holda begona inshootdir.

Xiva, shuningdek boshqa qadimiy shaharlar tajribasidan shunday xulosa chiqadiki, quruvchilar me’morchilik qo‘riqxonasida biron-bir ish qiladigan bo‘lishsa o‘ta ehtiyotkorlik ko‘rsatishlari kerak. Bu o‘rinda xalqning «Yetti o‘lchab, bir kes», degan dono maqoliga amal qilish lozim. Agar biz faqat pul ishlab qolish, foyda haqida o‘ylaydigan bo‘lsak, bu yaxshilikka olib bormaydi. Faqat ma’naviy jihatdangina emas, balki oxir-oqibatda iqtisodiy jihatdan ham katta zarar ko‘rishimiz mumkin. Nainki yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish doimo qimmatga tushadi.

Turistlar uchun quriladigan madaniy-maishiy inshootlar masalasiga kelsak, yetakchi me’morlarning fikriga ko‘ra, ularni tarixiy yodgorliklardan tashqarida qurish mumkin. Menimcha, bu fikrga qo‘shilsa bo‘ladi.

Sayohatchilar Xivadan xotira sifatida turli yodgorlik buyumlari va fotosuratlar olib ketishadi. Suratni ular o‘zlari olishadi yoki shu yerdagilar xizmatidan foydalanishadi. Mahalliy suratkashlar esa ishning ko‘zini biladigan odamlardir. Xivalik foto ustalari surat «bozori» chaqqon bo‘lishi uchun tuya ham asraydigan bo‘lishdi (tulum zmas, haqiqiy tuya). Ekzotika ishqibozlarining esa quvonchlari olamga sig‘maydi — endilikda ular qarindosh-urug‘lari va yoru-birodarlariga o‘zlarini qadimiy Sharqda safarda bo‘lganliklarini ko‘z-ko‘z qilish uchun sahro «kema»sida mag‘rur o‘tirgan suratlarini ko‘rsatishlari mumkin.

Ekzotika ishqibozlari va ko‘hna yodgorliklarning shaydolari orasida ancha xatarli ishlar bilan shug‘ullanadiganlari ham uchrab turadi. Bu o‘rinda men me’morchilik obidalaridan ayrim tosh, yog‘och, marmar parchalarini esdalik uchun olib ketishni odat qilganlarki nazarda tutayapman.

Shu munosabat bilan bir afsona yodimga tushdi. Yunoniston mustaqilligi uchun olib borilgan kurash yillarida Akropolda qamalib qolgan turklar, o‘q-doriga ishlatish uchun qadimgi toshlarni sindirib, ularni jipslashtirib turuvchi qo‘rg‘oshinlarni ola boshlaydilar. Greklar buni sezib qolib, elchi yuboradilar. U turklarga shunday taklifni aytadi: «Biz sizlarga o‘q-dori yuboramiz, faqat Akropolni vayron qilmanglar?» Ehtimol, bu afsonadir. Biroq uning ma’nosi bizga ham taalluqli. Tarixning jonli guvohi bo‘lgan har bir tosh biz uchun ham qadrlidir.

**3 - mashg'ulot: 2- soat.**

**– KEYS – STADI**

## O'qitishning keys – texnologiyasi

### 3.3.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.** |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Gilamdo'zlik, charmdo'zlik va Buxoro zardo'zligi. Zardo'zlikda yaratilgan turli xildagi taqinchoq va tillaqoshlar.<br>2. Buxorolik usta Shirin Murodov, Qo'qonlik yog'och o'ymakori usta Najmiddin Haydarov, Xivalik usta Ota Polvonov va boshqalar faoliyati.<br>3. Kulolchilik. Turli idish tovoqlar, o'yinchoqlar va mayda haykalchalarning ishlanishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro, Xuva va Qo'qonda madaniyat va san'atning yangi turlarining vujudga kelishi, keng yoyilishi to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Gilamdo'zlik, charmdo'zlik va Buxoro zardo'zligi to'grisida tushuncha berib,zardo'zlikda yaratilgan turli xildagi taqinchoq va tillaqoshlarni slaydlar orqali namoyish etadi.<br>* Buxorolik usta Shirin Murodov, Qo'qonlik yog'och o'ymakori usta Najmiddin Haydarov, Xivalik usta Ota Polvonov va boshqalar hayoti | * Gilamdo'zlik, charmdo'zlik va Buxoro zardo'zligi to'g'risida gapirib beradi va slaydlar orqali namoyish etilgan zardo'zlikka oid taqinchoq va tillaqoshlar rasmlarini tahlil qiladilar.<br>* Buxorolik usta Shirin Murodov, Qo'qonlik yog'och o'ymakori usta Najmiddin Haydarov, Xivalik usta Ota Polvonov va boshqalar faoliyatini o'rganadilar, muhakama qilib,mustaqil |

| | |
|---|---|
| va faoliyati to'g'risida tushuncha beradi,slaydlar orqali namoyish etadi. | ish tayyorlaydilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 3.3.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayonlari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi . | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Gilamdo’zlik, charmdo’zlik va Buxoro zardo’zligi haqida nimalarni bilasiz?<br>2. Zardo’zlikda nimalar yaratilgan?.<br>3. Buxorolik usta Shirin Murodov, Qo’qonlik yog’och o’ymakori usta Najmiddin Haydarov, Xivalik usta Ota Polvonov va boshqalar faoliyati haqida nimalarni bilasiz? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi . | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**4 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. XX asr boshlarida O’rta Osiyoda amaliy - dekorativ san’at asarlaridagi kompozitsiyalar, syujet va motivlar va real hayotning tasvirlanishi.

2. O’rta Osiyoda rus badiiy maktabining talabalari: A. Karazin, I. Kazakov, S.P. Yudin, R. Zommer.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar tasviriy san’atning tur va janrlari holatida, ularning ishlash texnologiyalarida ko'zga tashlanadi. XIX

asr oxirlaridan boshlab arab istilosidan keyin butunlay to'xtatib qo'yilgan haykaltaroshlik san’ati qaytadan jonlana boshladi. Uning mahobatli ko'rinishdagi namunalari maydonlarga, me’moriy qurilmalar oldiga o'matildi. S. To'xtaxo'jayev,
Usta Shirin Murodov, Abdurahim toshtarosh, Toshpo'lat Arslonqulov va boshqalar ijodida uning ilk namunalari yaratildi. Dam olish va hordiq chiqarish maskanlari va xiyobonlarga turli haykallar o'rnatish odati kengayib bordi. Shu davrda ishlangan qurbaqa, kiyik, it, sher haykallari bugun ham Toshkent, Buxorodagi saroy bog' va yo'laklarini bezab turibdi. Knyaz Romanov hovlisiga o'rnatilgan kiyik va it haykallari, Buxorodagi Mohi Xosa darvozasi oldidagi sherlar haykali shular jumlasidan. Bu davrda rangtasvir san’ati ko'proq xalq havaskorlik darajasidagi sodda miniatyura san’ati va devoriy rassomlik ko'rinishida mavjud bo'ldi. Bu xususiyatlami buxorolik xattot va musavvir Ahmad Donish, qo'qonlik rassom Shokirboyning sodda rasmlarida ko'rish mumkin. Bu yillarda uylarning devoriga naqshlar bilan birga mavzuli kompozitsiyalar, rasmlardan ko'chirilgan turli ko'rinishlar ishlangan, ayniqsa, an’anaviy tuvakdagi gul yoki daraxt shoxi, gullayotgan daraxt tupi, anor tupi kabi kompozitsiyalar xonadonlar bezagida ko'p ishlangan.
Zamonaviy o'zbek tasviriy san’atining dastlabki rivoji grafika san’ati bilan bogliq. Birinchi mahalliy rassomlar grafika san’atida o‘z ijodlarini boshladilar. Ular shu davrda rus matbuoti uchun ishlayotgan rus rassomlaribilan bir qatorda mehnat qilib, grafika san’ati rivojini belgiladilar. Bu dastlabki rasmlar kitobot san’ati bilan bogliq bolib, o'ziga xos sodda va ko‘p hollarda harf va geometrik shakllar kombinatsiyasi, milliy naqshlarning yangi davrga moslab ishlangan variantlari tarzida ko'rinadi. Asta kitoblarga illustratsiyalar kiritish rivojlana bordi. Birinchi bor 1908-yili Toshkentda nashr qilingan “Shohnoma”, “Farhod va Shirin” kabi qator kitoblar yangicha uslubda chop etila boshlandi. Faqir al-haqir Rahmatulla va Rahmatulla ben Mulla Abdushukur Sa’diyning „Guliston“ hamda “Go’ro’g’li” dostoniga Sirojiddin Maxsum Siddiqiy illustratsiyalar ishladi. Bu illustratsiyalarda
rassomlar mahalliy miniatyura san’ati an’analaridan ham foydalanishga intilganligi sezilib turadi. Jumladan, “Go’ro’g’li” dostoniga ishlangan miniatyuralarda Siddiqiy o'z qahramonlari kayfiyatini realistik talqin etishga harakat qilganligi ko'rinadi. Rassomlar ba’zi kitoblar uchun esa xorijiy mamlakatlarda chiqqan kitob illustratsiyalaridan nusxa olib illustratsiya ishlashlari, shu davrda nashr qilingan “Ming bir kecha”,“Ajoyib-g’aroyiblar”, “Farhod va Shirin” uchun qilingan illustratsiyalarda ko'rinadi. O'rganilayotgan davrda monumental rangtasvir, haykaltaroshlik va grafikada mahalliy rassomlar ozmi-ko'pmi ijod qilgan bo'lsa, dastgoh rangtasvir san’atida asosan chekkadan kelgan rassomlar yetakchi o'rinni egalladi. Bu san’atning mualliflari chetdan kelgan rassom va haykaltaroshlar edi. Bular ichida rus, ukrain, gruzin rassom va haykaltaroshlari bor. Ular qalamda, tushda, akvarel va guashda, moybo'yoq va temperada mavzuli suratlar, manzara, portretlar yaratdilar. Ayniqsa, Markaziy

Osiyoning Samarqand, Buxoro, Xo'qand, Toshkent kabi qadimiy shaharlarga, ulaming obidalariga atab ko'plab asarlar ishladilar. Bu rasmlar Yevropa ko'rgazma zallarida namoyish etildi, gazeta va jurnallarda, ilmiy kitob va risolalarda chop etildi. Ishlangan rasmlaming katta qismi etnografik xarakterda bo'lib, rassomlar yangi o'lka, odamlarining etnik ko'rinishlari,kiyinishi, yashash sharoiti va tarzi, ulami o'rab turgan muhit tasvirini
aniq o'ziga o'xshatib ishlashga harakat qilganliklari seziladi. Ularni me’morchilik obidalari, xalq san’ati va hunarmandchilik namunalari qiziqtiradi. Naturadan (borliqdan) o'ziga qarab rasm ishlash uslubi bu rassomlaming ko'pchiligining asosiy uslubi bo‘ldi. Shu jahatidan ularning chizgan rasmlari davrning aniq hujjati sifatida bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. 0‘zbekiston tabiati, me’morlik obidalari, kundalik turmushini tasvirlashga kirishgan dastlabki rassomlardan biri D.V. Velejev (1841 —1897) bo'lib, uning grafika asarlarida Toshkentdagi masjid va madrasalar,qo'rg'onlar, shahar chekkasi ko'rinishlari o‘z aksini topgan. Rassomning asarlari o'zining kompozitsion yechimi, nur-soyaning nozik tuslanishi hamda hayotiy lavhalari o'rinli kompozitsiyaga kiritilishi bilan esda qoladi. “Eski Toshkent ko‘chasi”, “Eski Toshkentdagi hovli” ko‘rinishlari
o ‘tmish hayotini shoirona aks ettiradi. Ekspeditsiya bilan kelgan bu rassom asarlari kitob illustratsiyalar uchun xizmat qilgan. O'rta Osiyoda, xususan O'zbekistonda bo'lgan yozuvchi, rassom, sayyoh **Nikolay Karazin** ijodi ham sermahsul. U Markaziy Osiyo hayoti haqida kitoblar yozdi, bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, odamlarning maishiy turmushiga bag'ishlab guash, moybo'yoqlarda kompozitsiyalar,tabiati, me’morligi haqida gravyuralar ishladi. Uning “Bibixonim ko'rinishi’’, ‘’Sahroni o'zlashtirish’’, ‘’Poyezd bilan musobaqa’’, ‘’Ovda’’ kabi asarlari akademik yo'nalishda ishlangan.

**Rihard Zommer** (1866—1932) 1895-yili birinchi marta O'rta Osiyoga (O'zbekistonga) keldi va shundan keyin ham bir necha bor shu yerda bo'lib, me’moriy obidalaiga bag'ishlangan rasmlar, sujetli kartinalar ishladi. Uning ishlarida O'rta Osiyoning boy me’moriy obidalari, kundalik turmush tarzi ifodalangan. Rassomning ‘’Bibixonim oldidagi bozor’’ asarida Svetoslavskiy asaridan farqli o'laroq ko'proq xalq san’ati, odamlar kiyimi, obidalari qiziqtiradi. Bu davr san’ati nafaqat uslub, balki mavzu va janr jihatidan ham boyib bordi. Yangi mavzu va janrlar paydo bo'ldi. O'zbek san’atiga shunday yangi mavzu olib kirgan rassomlardan biri **S. Yudin** edi. U birinchi bor o‘zbek san’atiga tog* manzarasini olib kirdi. Uning nur va soyaga boy manzaralari ko'tarinki ruhda ishlangan (‘’Tog* manzarasi’’, ‘’Tog'dagi choyxona’’ (1907), ‘’Oq baytal’’ va b.). Yudin teatr dekoratsiyasini birinchilardan ishlagan rassom sifatida ham tanilgan.

**Yudin Sergey Petrovich(1858-1933)** *S.* Peterburgda tug'ilgan. 1883—89-y. Peterburg Imperator san ’at akademiyasida Klodt ustaxonasida erkin tinglovchi. 1900—1924-yillari Toshkentda yashab ijod etgan. 1924-yili Moskvaga кo'chib ketgan.U manzara janrida katta polotnolar yaratib toshkentlik san’at muxlislari orasida shuhrat qozongan edi. “Tog’dagi choyxona” asari rassomning voqelikni

nihoyatda tabiiy ishlashdagi yuksak mahoratini namoyish etadi. S.Yudin 1889-yidan 1923-yilgacha turkiston o'lkasi badiiy maktabida ustozlik qildi. O'zbekistonning taniqli rassomi N,Qoraxon, taniqli rus rassomlari S.Chuykiv, Malenina, N.Kupriyanovalar haykaltaroshlar Shvats, Slonim, shu dargohda o'qigan kezlarda S.yudinning ta'limini oldilar.

XX asr boshlaridagi tasviriy san'at xususiyatlari haqida gap ketganida Pavel Kuznetsov, K. S. Petrov-Vodkinlarning rasmlar to'plami, K.Korovinning impressionistik manzaralari, F. Rubo, S. Dudin va boshqalaming etnografik etyudlarini eslash mumkin. Ular bugungi kunda davming daliliy hujjati sifatida e'tiborga loyiq. Yuqorida ko'rib o'tilgan rassomlar O'zbekiston hududida vaqtinchalik ishlab ijod qilgan bo'lsalar, boshqa bir qator rassomlar shu yerda o'z vatanlarini topdilar. Shu yerda butun umrga qolib shu yer madaniyatiga hissa qo'shishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri **Kazakov Ivan Semyonovich** (1873—1935) edi. Bu rassom Moskva rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik bilim yurtida V. Ye. Makovskiy qo'lida o'qigan (1888—94), S. Peterburg Badiiy akademiyasida o'qigan. 1894-98-yillar, 1899—1900-yillar Italiya, Germaniya va Fransiyada ijodiy safarda bo'lgan. I. Kazakov ilk ijodini grafik ishlar bilan boshlagan. 1906-yildan 1910-yilgacha Toshkentda yashab maxsus bilim yurti (real bilim yurti)da dars bergan. Moybo'yoq, akvarel, pastelda turli mavzularda rasmlar ishladi. Impressionistik uslubda katta bo'lmagan etyudnamo rasmlar chizgan. ''Xudo irodasi",''Namoz'', (1908), ''Qovun Bozori'' kabi asarlarida sharq urf-odatlari, serfayz bozor-u me'moriy yodgorliklarini aks
ettirgan. Toshkent hayoti va tabiatiga bag'ishlangan rasmlaming muallifi. XX O'zbekiston badiiy hayoti shu yerda tavallud topgan muhojirlarning farzandlari hisobiga ham kengayib bordi. Ular voqelikka shu yerning farzandidek yondashib o'z ijodlari bilan o'lka m a 'r if iy -m a d a n iy hayotiga hissa qo'shishgan.

### 4 - mashg'ulot: 2- soat.

### – KEYS – STADI

## O'qitishning keys – texnologiyasi

### 3.4.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.** |

| | |
|---|---|
| **Ma’ruza rejasi** | 1. XX asr boshlarida O’rta Osiyoda amaliy - dekorativ san’at asarlaridagi kompozitsiyalar, syujet va motivlar va real hayotning tasvirlanishi.<br>2. O’rta Osiyoda rus badiiy maktabining talabalari: A. Karazin, I. Kazakov, S.P. Yudin, R. Zommer. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro, Xuva va Qo’qonda madaniyat va san’atning yangi turlarining vujudga kelishi, keng yoyilishi to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * XX asr boshlarida O’rta Osiyoda amaliy - dekorativ san’at asarlaridagi kompozitsiyalar, syujet va motivlar va real hayotning tasvirlanishi haqida tushuncha beradi.<br>2. O’rta Osiyoda rus badiiy maktabining talabalari: A. Karazin, I. Kazakov, S.P. Yudin, R. Zom-merlar hayoti, faoliyati haqida tushuncha beradi. | * XX asr boshlarida O’rta Osiyoda amaliy - dekorativ san’at asarlaridagi kompozitsiyalar, syujet va motivlar va real hayotning tasvirlanishini muhokama qiladilar.<br>2. O’rta Osiyoda rus badiiy maktabining talabalari: A. Karazin, I. Kazakov, S.P. Yudin, R. Zommer hayoti va faoliyatini o'rganib, savol - javob qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**3.4.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi**

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi . | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. XX asr boshlarida O’rta Osiyoda amaliy - dekorativ san’at asarlaridagi kompozitsiyalar, syujet va motivlar va real hayotning tasvirlanishi haqida gapirib bering?<br>2. O’rta Osiyoda rus badiiy maktabining talabalari: A. Karazin, I. Kazakov, S.P. Yudin, R. Zommerlar haqida nimalarni bilasiz?. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi . | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**3 - mavzu bo’yicha glossariy**

**alloma** — qonunshunos, shariat bilimdoni

**amir** — hukmdor, davlat boshlig`i

**amlok** — davlat yerlari

**amlokdor** — yirik zamindor

**ark** — qal'a, qarorgoh, qo`rg`on; saroyga kiraverishdagi ulug`vor ostona

**askiya** — badiha yoiida aytilgan zakiyona so`z o`yini

**avliyo** — qudsiy shaxs, sohibkaromat, "dunyoga etak silkigan zot"

**bakovul** — Buxoro amirligida saroy oshxonasini boshqargan amaldor

**bek** — O`rta Osiyo xonliklarida muayyan tuman yoki shahar hukrndorining unvoni

**boloxona** — uyning birinchi qavati ustiga qurilgan yengil inshoot

**bomdod** - musulmonlarning quyosh chiqishi arafasidagi birinchi namozi

**bosh qozi** — shariat qonunlari bo`yicha qaror chiqaruvchi

**darbon** — amir qarorgohi eshigida turuvchi soqchi

**devonbegi** — devon boshqaruvchisi

**dorbozlar** — ingichka dor (arqon usti)da o`yin ko`rtsatuvchi xalq san'atkorlari

**fatvo** — shariat qoidalari asosida din peshvosi tomonidan chiqariladigan qaror yoki shariat nuqtayi nazaridan u yoki bu harakatga aixsat beruvchi qaror

**fiqh** — Hohiyotshunoslik, shariat qonun-qoidalari haqidagi fan

**gap** — davra ishtirokchilarining navbat bilan muayyan kunlarda uyushtiradigan suhbati; jo`rachilik oqshomi;

**hudaychi** — Buxoro amirligida har xil tadbirlarni uyushtiruvchi amaldor

**hujra** — madrasa talabasining xonasi

**imom** — ruhoniy shaxs, musulmonlar jamoasi peshvosi, madrasa muallimi

**janoza** — dafn oldidan o`qiladigan namoz, dafn namozi

**jul** — Buxoro amirligida urush uchun olinadigan soliq

**kanaxona** — zindon, yer osti turmasi

**4 – mavzu: Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston madaniyati va san'ati. 8 – soat.**

**1 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. O'zbek madaniyati va san'atida badiiy hayot. Madaniy hayotga mafkuraviy tazyiq.

2. Me'morchilik. 1920 – 1930 yillarda o'zbek zamonaviy me'morchilik san'atining shakllanishi.

3. Eski shaharlarni rekonstruksiya qilish ishlari.

1917-yil Rossiya fevral-buijua inqilobi va nihoyat, 1917-yiIi sodir bolgan oktabr to'ntarishi mamlakatning ma'naviy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, 1917-yil Rossiyada boMib o'tgan fevral-buijua inqilobi shu jarayonda muhim ahamiyatga ega boMdi. Bu inqilob rus imperiyasining dastlabki parchalanishi, mazlum xalqlarning ozodlik va erkinlikka boMgan intilishining dastlabki bosqichi edi. Inqilob natijasida vujudga kelgan yangi muvaqqat hukumat xalqlar tomonidan qoMlab-quwatlandi. Chunki bu hukumat mazlum xalqlarga qator imtiyozlar, jumladan, so'z erkinligi, matbuot, vijdon erkinligi berdi. Mardikorlikka olinganlar o'z yurtlariga qaytishga ruxsat oldilar. Rossiyaning chekka oMkalarida ham demokratik harakatlar kuchayib ketdi. Ko'plab jumal va gazetalar nashr etila boshladi, turli siyosiy uyushma va jamoalar tashkil topa boshladi. Saylash va saylanish masalalarida demokratik qarashlar rivojlandi. Natijada xalqning siyosiy-ijtimoiy faoliyati yanada ortdi. Avom xalq davlat ishlariga tortila boshladi. Tenglik, birodarlik, ozodlik shiori keng xalq ommasi tomonidan qoMlab-quwatlandi. Bu g'oya va o'zgarishlar sobiq rus imperiyasi tarkibidagi xalqlarning o'zaro aloqalarini kuchaytirdi. Turli elat va millatlaming birlashuviga, ulaming intilish va harakatlariga katta turtki berdi. Fevral-buijua inqilobi Turkiston xalqlari uchun ham muhim bo'lib, ulaming birligi, intilishini oshirdi, demokratik harakat va intilishlaming avj olishini kuchaytirdi, demokratik harakatda xalq vakillarining safi ortib bordi. Milliy madaniyat, xalq taMimi va san'at sohasida jiddiy siljishlar sodir bo'la boshladi. Inqilob arafasida milliy ziyolilar sa'y-harakati bilan turli usulda o'qitish ishlari olib boriladigan maktablar tashkil etilgan edi. Shu harakat fevral-buijua inqilobidan keyin yanada jonlandi. Diniy maktablar bilan bir qatorda dunyoviy ta'limga moMjallangan maskanlar tashkil topdi. Afsuski, shu ijobiy jarayonlar uzoqqa bormadi. 1917-yil oktabr oyida sodir boMgan davlat to'ntarishi natijasida V.I. Lenin boshliq bir to'da kommunistlar hokimiyatni

qoMlariga olib, o'z tartiblarini o'matdilar. Ular tenglik, birodarlik, tinchlik, taraqqiyot yo'liga ishongan, ozodlikning dastlabki shabadasidan bahramand bo'la boshlagan xalqning ishonchidan ustomonlik b'lan foydalanib «Yer dehqonlarga!», «Davlat sh□rolarga!», «Zavod-fabrikalar ishchilarga!» shiori ostida fevral inqilobi shabadasi bilan shakllana boshlagan xalq e'tiqodini o'ziga qaratishga, yo'qsillaming katta qismini o'ziga ergashtirishga erishdi va shularga tayanib, sobiq rus imperiyasi o'rniga kommunistik mafkuraga asoslangan mustabid totalitar davlat tuzishga muyassar bo'ldilar. 1917-yil 25—26-oktabrda(yangi hisob bilan 7—8 noyabrda) Petrogradda bo'lib o'tgan davlat to'ntarishi natijasida mavjud bo'lgan muvaqqat hukumat ag'darilib, uning rahbarlari hibsga olindi, hukumat Vladtfmir Ulyanov (Lenin) boshchiligidagi yo'qsillar qo'liga o'tdi. Bu hukumat o'zini sovet hukumati, davlatni esa sovet davlati deb e'lon qilai. Oktabr to 'ntarishidan keyin Rossiya imperiyasi o'miga kelgan yangi hukumat sobiq imperiya hududidagi xalqlar va elatlarga misli ko'rilmagan ofat va qirg'inliklar keltirdi. Xalqlarning fojiali damlari boshlandi. Bu fojia, ayniqsa, 0 'rta Osiyo mintaqasidagi xalqlar boshiga misli ko'rilmagan kulfatlar keltirdi. Sovet davlati dastlab hamma xalqlar teng huquqli va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega degan quruq va'dalami e'lon qildi, so'ngra shu va'daga ishongan xalqning faollarini saralab oldi va qirib tashladi. Sovet hukumati bu «mustaqil respublikalar»ning «rivojlanishiga» katta e'tibor berib qaysi respublika nimalar bilan shug'ullanishi, kim qaysi kitoblami o'qishi va qaysilarini o'qimasligini belgilab berdi, bu ko'rsatmalar davlat markazi Moskvadan belgilanib, turli qaror va ko'rsatmalarda respublikalarga yetib kelar edi. Bu ko'rsatma va qarorlar dasturilamal bo'lib, u so'zsiz bajarilishi lozim edi. Bu ko'rsatma va qarorlar respublikalar iqlim sharoiti, turmush tarziga mos kelishi va kelmasligi hisobga olinmas edi. Bu hoi shu davr nafaqat siyosiy hayotida, balki madaniy hayotida ham o'z ifodasini topdi. Chunki hamma respublikalar markazdan berilgan ko'rsatmaga amal qilishlari lozim edi.

**Tasviriy san'at**. Bu davr tasviriy san 'atining ikki yo'nalishi — birinchidan, ijodkorlarning san'atga fidoyilik bilan unda izlanishlar olib borishlari, jahon madaniyati va san'atidagi yangiliklarni tashnalik bilan kuzatib, shu tajribalarini o'z ijodlariga tatbiq etishga harakat qilishlari bo'lsa, ikkinchi tomondan, hayotga kirib kelayotgan va kun sayin mustahkamlanib borayotgan sovet mafkurasi va uning shart-sharoitlari edi. Ana shu har ikki yo'nalish keyingi yillar san'ati rivoji xususiyatlarinibelgiladi. XX asr boshlarida O'zbekiston san'atida jahon san'atida sodir bo'layotgan deyarli hamma jarayon va izlanishlar tajribadan o'tdi. Yevropa mumtoz san'ati, Italiya, Germaniya, Finlandiya, Fransiya va albatta, birinchi galda rus san'atidagi mavjud yangi uslub va yo'nalishlar, Amerika qit'asi, jumladan, Lotin Amerikasi badiiy hayotida bo'layotgan jarayonlar shu davr o'zbek san'atida o'z ifodasini topdi. Shular ta'sirida yangi, milliy san'atning o'ziga xos tomoni shakllana bordi. Bu jarayonda demokratik badiiy maktab vakillarining roli

ham, XIX asr oxiri — XXasr boshlaridagi rus san’ati jarayonlari va uning yirik vakillari ijodiy uslublari ham muhim o'rinni egalladi. Shu bilan birga bu rassomlar mahalliy sharoit, milliy tarix va madaniy hayot hamda mavjud milliy san’at an’analari va jarayonlaridan xoli bo'lmadilar. Xalq milliy ozodlik harakatlarining shohidi bo'lgan, o'sib borayotgan milliy ong va o'z-o'zini anglash tuyg'ularini kurtak otayotganini ko'rgan rassomlar masalaning bu tomonini ham o'z ijodiy faoliyatlarida hisobga olmasliklari mumkin emas edi. Natijada, agar yangi asrning boshlarida sharq va g'arb san’ati uchrashuvi jarayonining yangi bosqichi kurtak otib, o'ziga yo'l ocha boshlagan bo'lsa, 20-yillarda bu jarayon ijtimoiy muhit bilan jahon ma’naviy olamining o'zgarishi va rivojlanib borishi bilan uzviy holda rivojda bo'ldi. Jahon san’ati ravnaqiga hissa qo'shgan, o'tmishi buyuk O'zbekiston (Movarounnahr) jahon madaniyati ravnaqidan qaytadan bahramand bo'lib, uning yutuqlariga tayanib, undan najot izlab, o'z ravnaqining yangi bosqichiga kirib bordi.

Fevral-burjua inqilobi arafasida O'zbekistonda kattagina rassomlar guruhi ishlar edi. Shularning ijodi oktabr to'ntarishidan keyin ham davom etib, davr siyosiy hayoti bilan bog'liq holda bordi. Yangi hukumat o'z mavqeyini mustahkamlab borgani sari san’at borasidagi boshqaruvni ham o'z qo'liga olib bordi. Sovet hukumatining va’dalariga ishongan san’atkorlar xolisona unga xizmat qilishga harakat qilib, uning har bir ko'rsatma va qarorlarini bajarishga intildilar.

**Grafika.** Inqilobdan keyingi yillar badiiy hayotida grafika san’ati muhim o'rinni egallab, yangi tuzilgan hukumatning haqiqiy «jangovar quroliga aylandi». Yangi mafkurani xalq ongiga singdirishda katta imkoniyatga ega bo'lgan ommaviy grafika san’ati yangi mafkura targ'ibotchilari uchun qo'l keldi. Ular shu san’atning o'ziga xos uslub-etalonini yaratishga muyassar bo'ldilar. Grafikaning turli ko'rinishlari plakat, hajviy rasmlarda, gazeta- jumal sahifalaridagi maishiy janrdagi tasvirlar yangi davr ruhini o'zida aks ettirdi. Goh plakat, goh hajviy rasm, goh gazeta va jurnallarga ishlangan tasvirlar, shior, chaqiriq va transporant ko'rinishida kishilarning kundalik muhitini tashkil etdi. Bu yillar ko'rgazmali targ'ibot ishlari qizg'in bordi. Rassomlar yangi qarash va tartiblarni tezkorlik bilan ommaga yetkazishga harakat qildilar. Siyosiy arboblaming portretlarini chizdilar,transporant, chaqiriq va shiorlar ishlashda faol ishtirok etdilar. Bu ishlarda turli san’at turida ijod qiluvchi san’atkorlar qatnashdilar. Grafikada mahalliy rassomlar usta Nabi Hafizov, keyinroq ular safiga qo'shilgan I. Ikromov, Majidov va boshqa rassomlar shu san’atning dastlabki namunalarini yaratdilar.

1920-yillarning oxirida Turkiston badiiy maktabi qoshida grafika ustaxonasining tashkil etilishi shu san’atning keng yoyilishiga o‘z hissasini qo'shdi. Bu yillarda grafikaning hamma turlarida asarlar yaratildi, lekin plakat san’ati yetakchi o'rinni egalladi. Mamlakatning og'ir ahvoli, iqtisodiy tanglik davrida ham plakatlar chop etildi. Ular omma orasiga tarqatildi. Bu san’at

o‘z rivojida ikki ko'rinishda qahramonlik va hajviy plakatlar tarzida mavjud bo'ldi. Qahramonlik plakatlari realistik uslubda, ko'tarinki inqilobiy muhitda tasvirlanishi bilan xarakterlanadi. Rang tanlashda esa ko'proq ramziy mavzu e’tiborga olinadi (masalan, qizil rang inqilob, sho'ro davlati ramzi, qora sovuq ranglar dushman ramzi va h. k.). Plakat o'z rivoji davomida siyosiy, ma’rifiy yo'nalishda mavjud bo'lib, xalq orasida hukumat siyosatini tushuntirish vazifalarini o'zida aks ettirib turish edi. Shu yillarda hajviy plakat san’atining yangi turlari yuzaga keldi. 20-yillar O'zbekiston grafika san’atida maishiy va hajviy plakat va rasmlar, turli shior va chaqiriq, transporantlar ishlash keng yoyildi.

Dastlabki yillarda ishlangan va ko'paytirilgan plakat va hajviy rasmlar asosan qo'lda ishlangan. Bosma plakatlari esa 1923 - 24-yillarda chop etilda boshlandi. Buxorolik usta Nabi Hafizov (1893 — 1959) birinchilardan bo'lib, shunday plakatlar chop ettirgan rassom edi. Uning «Soliqlami o'z vaqtida to’lang!» plakatida o'z vaqtida to'langan soliqlar davlatning mustahkam bo'lishi, yangi zavod va fabrikalar, maktab va bog'chalamib qurilishiga yordam berishini, aks holda, awalgidek qashshoq bo'lib, yashashga sabab bo'lishini ommaga tushuntirmoqchi bo'ldi. Buni eski va yangi zamon hayotini taqqoslash orqali ko'rsatadi. Rassom sodda xalq san’ati uslubi, miniatyura san’ati plastikasida davr g'oyasini talqin etishga harakat qilib o'ziga xos uslub yaratdi.

Bu yillarda kitob, gazeta-jumal grafikasi ham jonlandi. Bunga sabab kitob, gazeta va jumallaming ko'plab chop etilishi edi. Gazeta va jurnal nashrlari atrofida rassomlar guruhi to'plandi. Grafika san’ati mavzusi kengaya bordi. Jumladan, 1923-yildan nashr etila boshlagan «Mushtum», «Mashrab», «Mullo Mushfiqiy», «Bigiz» kabi satirik va ilmiy-ommabop jumallar o'z sahifalarida ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan yutuq va illatlami aks ettirib, omma orasida katta qiziqish uyg'otdi. Bu rasmlar davr mafkurasidan xoli bo'lmasa ham, shu bilan birga bu ishlangan ko'pgina hajviy rasmlar omma umumiy saviyasi, faolligini oshirishda o'zining ijobiy o'rnini egallaganligini e’tirof etish zarur. Yoshlami yangi zamonaviy fikrlashga da’vat etish, ma’rifatga chorlash, arxaik tuzum qoldiqlaridan xoli bo'lish, xotin-qizlami ijtimoiy hayotga jalb etishga qaratilgan plakatlar ijobiy ahamiyat kashf etdi. Bu g'oyalar ilg'or milliy ziyolilarning intilishiga monand edi. Bu harakat keyingi madaniy rivojda o'zini ko'rsata bordi. Mahalliy san’atkorlaming ilk qadami ham shu gazeta, jumal sahifalaridan boshlandi. Birinchi o'zbek grafik rassomlari I. Ikromov, M. Hakimjonovlarning ilk ijodini shu gazeta-jumal sahifalaridan boshlagan edi.

Grafika san’atida rassomlaming katta guruhi mehnat qildi. Ular gazeta jumal sahifalari, yangi nashr etila boshlagan kitoblar uchun rasmlar chizdilar, sahifalarini bezadilar. Shunday grafik rassomlardan biri I. Tullya ijodi ham samarali bo'ldi. Gazeta va jumallarda uning hajviy xarakterdagi rasmlari keng o'rin egallagan. Rassom ko'proq diniy aqidaparastlik, bid’at, ijtimoiy hayotdagi

yangiliklar mavzusida plakat va rasmlar ishladi, A. Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanini bezadi va rasmlar chizdi. Bu yillarda grafika borasida boy tajribaga ega bo'lgan samarqandlik rassom L. Bure ham faol ishtirok etdi, plakatlar ishladi. Rassom grafikaning qaysi sohasida qalam tebratmasin, eng awalo xalqni faollikka da’vat qilish, mavjud bid’at va illatlaiga qarshi kurashish g'oyalarini ilgari surdi. Shular bilan bir qatorda o'zining sevimli mavzusi ona yurti Samarqandga bag'ishlangan rangtasvir asarlar yozishni davom ettirdi.

**Dastgoh grafika.** Bu san’at ham yangi davr ruhi bilan rivojlanib bordi. Uning texnikasi ortdi. Ksilografiya va ofortda dastlabki dastgoh san’at namunalari yuzaga keldi. Shuni ta’kidlash kerakki, dastgoh grafika uzoq vaqt siyosatdan xoli va ko'p hollarda san’atkoming shaxsiy ishi sifatida mavjud bo'ldi. Bu san’atda rassomlar, eng awalo, o'zlariga ma’qul bo'lgan mavzularda rasmlar ishladilar, qalam va peroda ishlangan turli portret va manzaralar, maishiy mavzudagi kompozitsiyalarda ularning hayotga, borliqqa bo'lgan munosabatlari, estetik kechinmalari o'z ifodasini topdi, ijodkor laboratoriyasi izlanishlari namunasi sifatida mavjud bo'ldi. Faqat ayrim bosma texnikasida bajarilgan dastgoh grafika asarlari ko'igazma yuzini ko'rdi.

**Rangtasvir.** Agar grafika san’ati davr mafkurasi bilan bog'liq holda rivoj topib uning g'oyalarini targ'ib etishga qaratilgan bo'lsa, rangtasvir san’atida bu masala birmuncha sust borib, siyosatdan dastlabki yillarda deyarli uzoq bo'ldi. Rassomlar san’atning bu turida o 'z shaxsiy kechinmalarini tasvirladilar, o'zlarini qiziqtirgan mavzularda rasmlami ko'proq ishladilar. Me’moriy obidalar, sharq ko'chalari va bozorlari, u yerdagi qizg'in hayot shu san’atda ijod qilgan rassomlar asarlarining mazmunini tashkil etdi. Bu yillarda rangtasvirda dastgoh san’ati yetakchi o'rinni egallab, ijodiy izlanishlar aynan san’at shu turida o'z ifodasini topdi. Shu yillarda birinchi mahalliy rassomlar o'zlarini ko'rsata boshladilar.

O'zbekistonda tavallud topib, badiiy hayotga kirib kelgan rassomlar safi yanada ortdi. Turkiston o'lka badiiy bilim yurti talabalari shu yillarda o'z ijodlarini boshladilar. Shu yillarda tashkil topgan turli rassomlik to'garak va studiyalarga kelgan yoshlar moybo'yoq, akvarel, guash va rangli qalamda rangtasvir alifbosini o'rganib, o'zlarining dastlabki mashqlarini bajardilar. Chekkadan kelgan rassomlar yangi davr talablaridan kelib chiqib, o‘z qarash va yo'nalishlarini o'zgartirib bordilar. 0 ‘rganilayotgan davr rangtasvir san’ati o'zining uslubiy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu yillarda rangtasvirda nafaqat plastik masalalar, balki g'oyaviy-uslubiy masalalar ham munozarada bo'ldi. Voqelikni o'ziga o'xshatish, klassik shakllardan tortib yangi davr mazmuni uchun mutlaq yangi shakl va vositalar topish masalalari muhim masalalardan biriga aylandi. Bu yillarda jahon xalqlari san’ati g'oyaviy-plastik san’ati rivoji, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida rus san’atidagi g'oyaviy-plastik masalalar borasida izlanishlar ham ko'pgina san’atkorlaming qiziqishiga sabab bo'lgan. Abstrakt san’at, uning ko'rinishlari ham O'zbekistonda o'zining davomchilarini topdi.

Suprematizm, kubofuturizm, primitivizm kabi yangi san’at uslublarida asarlar paydo bo'ldi. Bu yillarda XIX asr so'nggida yuzaga kelgan yangi san’at uslublari o'zining mantiqiy rivojini oldi, jumladan, impressionizm, postimpressionizm yutuqlari o'zbekistonlik rassomlar ijodida o'zining yangi qirralarini namoyon etdi. Bu yillarda avangardga nisbatan realism birmuncha mustahkam o'rinni egallab boy yo'nalish va tiplari kengligi bilan xarakterlanadi. Bu yo'nalish tarafdorlari borliqni o'z shakllarida ishlashga qarshi chiqmaganlari holda, real shakllaming o'zida ramziy ma’no topishga, obrazlami timsol darajasiga ko'tarishga harakat qildilar.
Buning uchun ular milliy san’at, sharq san’ati plastikasiga murojaat qildilar. Miniatyura san’atining susayib borayotgan ko'rinishi esa 20-yillarda buxorolik usta Sadriddin Pochayev ijodida mavjud edi. Lekin bu san’at keyinchalik rivojlanmadi va faqat 40-yillaming so'nggidan yana e’tiborga tusha boshladi.
XX asming birinchi choragida o'zbek san’atiga impressionizmning ta ’siri sezilarli o'rinni egalladi. Shu yillarda ko'pgina rassomlar impressionizm ta’sirida asarlar yaratdilar. Bu xususiyat ularning kompozitsiya tanlash, rang surtmalarini ishlatish va taassurotni ifodalashda ko'rinadi. Shunday rassomlardan biri Ogones Karapetovich Tatevosyan edi. Mashhur rus rassomi K. Korovinning o'quvchisi Tatevosyan o'z ijodini aynan shu impressionistik uslubda rasmlar ishlash bilan boshladi. U 1915-yilda Samarqanga bag'ishlangan rasmlari - turkum asarlari bilan Moskva rassomlik, haykaltaroshlik va me’morlik badiiy bilim yurtini ta’minladi. O'qishni tugatgach, yana Samarqandga qaytib o'z ijodini davom ettirdi. O'rta Osiyo kishilari hayoti, serquyosh tabiati, nur va soyaga boy obidalari uning asarlarida o'z ifodasini topdi. «Choyxona. Peshin». (1915), «Samarqand. Bozor ko'rinishi» (1917) kabi dastlabki asarlarida shu xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, uning Samarqandga kelgan dastlabki kezlarda ishlagan, hajm jihatidan katta bo'lmagan «Choyxona. Peshin» etyudida yorqin rang surtmalar majmuasi yaxlit kompozitsiya hosil qiladi. Ular bir-biri bilan birlashib odam, hayvon, uy shakllarini yasab bozor hayotiga oid sharqona ko'rinishni hosil qiladi. Bo'lib o‘tgan fevral-burjua inqilobi va ayniqsa, oktabr to'ntarishi Tatevosyan ijodida keskin burilish yasadi. U ham g'oyaviy, ham plastik masalalarda yangi qarashga o‘tdi. U ijtimoiy hayotda faollik ko'rsatib, sho'ro hukumati g'oyalarini targ'ib etishda jonbozlik ko'rsatdi. Ko'cha va maydonlarda taig'ibot ishlari olib borib portret, shior, chaqiriqlar ishladi.
Impressionistik uslubdan deyarli voz kechib, ko'proq dekorativ yassi shakllarda, primitiv rassomlik va sharq miniatyura uslubida aylana, yarim aylana va yoysimon shakllar ichida kompozitsiyalar ishladi. Rang tanlash, faktura xarakteri ham o'zgardi. Ochiq, ko'p hollarda suyultirilgan toza ranglar silliq fakturada ishlatila boshlandi. Uzluksiz chiziq plastikasi ishlangan shakllarga tugallik beruvchi vosita bo'ldi. «Tut terish» (1918), Kommuna o'quvchilari»

(1918) va boshqa ishlarida rassom ijodining mana shu tomonlari namoyon bo'ladi. «Komunna o'quvchilari» asarida turli millat vakillaridan tashkil topgan o'quvchilar guruhini dalada mehnat qilayotganliklari tasvirlanadi. Bu asari bilan rassom o'zbek san’atida yangi davr hayotini birinchilardan bo'lib, aks ettirgan rassom bo'lib tanildi. U keyingi yillarda ham shtinday davr o'zgarishlarini tasvirlagan. O.K. Tatevosyan 1889-yilda Yerevan shahrida tavallud topgan. Boshlang'ich maxsus ta’limni Tiflisdagi san’atga qiziquvchilar jamiyatining maktabida oldi. 1911 —1917-yillarda Moskvadagi rassomchilik, haykaltaroshlik va me’morlik bilim yurtida mashhur rus rassomi Konstantin Korovin qo'lida o'qidi. 1915-yildan O'zbekistonda yashab, 1963-yilda Moskvaga ko'chib ketgan. 1974-yil Moskvada vafot etgan. Shu yillarda O'zbekistonda yashab ijod etgan rassom Aleksey Isupov hajm jihatidan katta bo'lm agan, lekin kolorit jihatidan go'zal impressionistik uslubda asarlar yaratib, asta renessans va sharq plastikasi uyg'unligida mahalliy mavzularda o'ziga xos asarlar muallifi sifatida tanildi.

Isupov 1915—18-yillarda Samarqandda harbiy xizmatda bo'lib yurgan kezlarida O'rta Osiy san’ati va madaniyatiga qiziqib qoldi, uni ichidan turib o'rgandi, feodal shahar hayoti, odamlarning turmush tarzi, me’moriy yodgorliklariga e’tibor bilan qaradi. 1918-yili harbiy xizmatdan bo'shaganidan keyin shu yerda qolib Turkiston o'lkasiga bag'ishlangan turkum asarlar yaratishga kirishdi. Uning kichik hajmdagi maishiy mavzudagi asarlari ko'p hollarda borliqning o'zidan ishlangan. Ularda rassomning hayotdan olgan taassurotlari rangtasviming plastik imkoniyatlari orqali ochiladi. Rassom ishlanayotgan obyektning eng muhim belgilariga urg'u beradi, issiq-sovuq ranglar kontrastidan unumli foydalanadi. Natijada pishiq va o'tkir qalamsurat kompozitsiyasi uning har bir ishiga qaytarilmas joziba baxsh etadi. Isupovning «Temirchi qoshida» (1923), «Qimmatbaho sovg'alar rastasi» (1923) kabi asarlarida xalqning o'ziga xos hayoti, shahar turmush tarzi ranglaming erkin surtmalarida jonli talqin etiladi. Rassom sharq san’ati an’analari, Yevropa renessansi an’analarini ham o'zlashtirdi, ular uyg'unligida mustaqil kompozitsiyalar yaratishga harakat qildi. «Sharq Tatevosyan. Komunna o ‘quvchilari, Qovun bozori, Dutorchi,Hamma erkaklar paxta terimiga madonnasi», «Onalik» kabi asarlarida shu izlanishlar ko ‘zga tashlanadi. 20-yillarda o'zbek san’atida faol ishlagan rassom Aleksandr Nikolayev (Usto Mo‘min, 1897-1957) 1920-yili 0 ‘zbekistonga kelgan. Nikolayev 0 ‘zbekistonga kelganida renessans uslublari, qadimgi rus san’ati an’analari bilan chuqur tanish bo'lib, ijod dunyosiga kira boshlagan edi. Bu yerda u sharq san ’ati an ’analari, san’atning dekorativligi, chiziqlaming egiluvchanligi, shakl hamda rang masalalari ritmi uni o‘ziga rom qildi. Sharq falsafasi ham uning dunyoqarashi shakllanishida o'ziga xos maktab bo'ldi. Shunday qilib boshqa «Usto Mo'min» taxallusini olgan san’atkor (mo'min-qobilligi uchun uni xalq shunday atagan) dunyoga keldi. Uning bu izlanishlari asosan 20-yillarga to'g'ri keladi. Shu yillarda o'zining shoirona nozik talqin

etgan asarlarini namoyish etdi. Rassom o'z ijodida Tabriz miniatyura maktabi vakillari Rizo Abbosiy va Sulton Muhammad ijodidan ta’sirlandi. Usto Mo'min ijodini portret janrida boshladi. Uning «Kuyov», «Sallali yigitlar», «Bedanavoz yigit» kabi asarlari, «Dutorchi» kompozitsiyasi 1920-yillaming boshlarida ishlangan. Bular o'zining emotsional-plastik go'zalligi bilan an’anaviy O'rta Osiyo san’ati, uning ajralmas qismi o'zbek san’atining yangi qirralarini namoyish etadi. 1925-yili Nikolayev Toshkentga ko'chib o'tdi va umrining oxirigacha shu yerda yashab, rangtasvirda asarlar yaratadi, gazeta va jumallarda o'zining asarlari bilan qatnashib keldi, kitoblar uchun illustratsiyalar va ko'plab plakatlar ishladi. Uning 30-yillarda yaratgan yirik asarlaridan biri «Oq oltin» kartinasi ijodidagi yangi qirralami namoyish etadi.
**Me’morchilik.** Zamonaviy o‘zbek m e’morchiligining dastlabki namunalari 20-yillar oxiri 30-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu yillarda kichik sanoat korxonalari, maktab, gidroelektrostansiyalar qurildi. Toshkentda Bo‘zsuvgidroelektrostansiyasi, jamoat oshxonasi va klublari, hammom, dizel stansiyalari, keyinroq esa sanoat korxonalarining dastlabkisi — Toshkent qishloq xo'jaligi mashinalari zavodi qurildi (bu binolar ko'pchiligi keyinchalik buzib tashlangan). O'zbekistonda yashab ijod qilgan rus me’morlari A. Petelin, N. Bleze, K. Babiyevskiylar loyihasi asosida barpo etilgan Xalq xo'jaligi kengashi binosi (bugungi Ota Turk ko'chasidagi supermarket — bu bino mustaqillikdan keyin butunlay ta’mirlanib unga zamonaviy ruh kiritilgan) va boshqalarda konstruktivizm g'oyalari o'z aksini topdi. Sodda, aniq geometrik shakllarining jiddiyligi, derazalarining tik va yotiq holati binolarga o'ziga xoslik kiritgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi binosi (1928, me’mor G. Svarichevskiy), Hukumat uyi (1929—1930, me’mor S. Polupanov) qurilishida mahalliy me’morlik an’analari unsurlaridan foydalanib zamonaviy loyiha yaratishga intilish seziladi. Bu davr o'zbek me’morligida temrr-betondan ishlangan binolar keng yoyildi.
30-yillarga kelib qurilish ishlari birmuncha kengaydi. Ma’muriy-m a’rifiy bino majmualari, saroy va sport koshonalari, sayilgoh va xiyobonlar qad ko'tardi, fuqarolar, jumladan, mutaxassislar uchun mo'ljallangan ko'p qavatli turaijoy binolari, maktab va bolalar bog'chalari, sog'lomlashtirish majmualari barpo etildi. Yangi-yangi sanoat korxonalari ishga tushdi. Shunday ishlar, ayniqsa, respublikaning poytaxti Toshkent shahrida sezilarli darajada amalga oshirildi (Toshkent 1930-yili O'zbekistonning poytaxtiga aylantirilgan. Ungacha Samarqand poytaxt bo’lgan). Bu yillarda eski shaharlami rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirila b o sh lan d i. K o 'p xonadonli b in o lar b arp o etilib , bino atrofi obodonchiligiga, nur mo'lligiga e’tibor berdilar. Agar 20-yillar o'zbek me’morlik san’atida konstruktivizm uslubi belgilarini ko'rsak, aksincha 30-yillarda klassitsizm uslubida me’moriy loyihalar amalga oshirila boshlandi. Yangi davr me’morligining o'ziga xos tomonlari katta shaharlarda qurilgan qo'p qavatli turaijoylar, madaniy-ma’muriy binolar qiyofasida ko'zga tashlanadi. Ular tashqi bezakka boy.

Turli dekorativ shakllar, eshik atrofi, peshtoq ko'rinishlari, deraza atrofi bezakdorligi, shuningdek, devor yuzalarida bo'rtma tasvirli bezaklar oq-sariq-qizg‘ish oxra ranglari fonida oq bilan ajratilgan. Toshkentdagi Pedagogika institute (hozirgi pedagogika universiteti, 1938, m e’morlar A. Jmuyda, Ye. Jmuyda), To‘qimachilar saroyi (1938, A. Kornouxov, A. Galkin), Temiryo'lchilar saroyi (1939, A. Pavlov va b.), Milliy bog1 (sobiq Komsomol ko‘li.) va Beshyog‘och maydoni (me’mor M. Bulatov), Toshkent meditsina instituti eski majmuasi va boshqa binolar, me’moriy majmualarda har bir ijodkorning o‘z uslub va yo‘lini topishga harakat qilganligi binolarning tashqi va ichki pardozida, bezak elementlari qo‘llanilishida ko'rinadi. Turarjoylar ham bezakdorligi bilan davrning umumiy uslubidan qolishmaydi. Toshkentning Navoiy, Usmon Nosir, Turob To'la ko'chalaridagi uylarda shu xususiyat yaqqol bilinadi. 30-yillarda amaliy bezak san’ati ham yangi davr ruhi bilan boyidi. Ustalar xalqaro ko'rgazmalarda o'z asarlarini namoyish etib o'zbek san’atini jahonga tanita boshladilar. 1934-yili To'qimachilik kombinati ishga tushdi, shu yili Samarqand shoyi to'qish fabrikasi ish boshladi. Kulolchilikda birinchi bor tadqiqot ishlari olib borildi. Ayni shu yillarda mashhur kulol va olim Muhiddin Rahimov o'z faoliyatini boshladi. Kulolchilik texnologiyasi bilan yaqindan shug'ullanib, Toshkent kulolchilik maktabini tiklashga harakat qilib uning dastlabki namunalarini ishladi. Bu yillarda eski shaharlami rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirila boshlandi. K o 'p xonadonli b in o lar b arp o etilib , bino atrofi obodonchiligiga, nur mo'lligiga e’tibor berdilar. Agar 20-yillar o'zbek me’morlik san’atida konstruktivizm uslubi belgilarini ko'rsak, aksincha 30-yillarda klassitsizm uslubida me’moriy loyihalar amalga oshirila boshlandi. Yangi davr me’morligining o'ziga xos tomonlari katta shaharlarda qurilgan qo'p qavatli turaijoylar, madaniy-ma’muriy binolar qiyofasida ko'zga tashlanadi. Ular tashqi bezakka boy. Turli dekorativ shakllar, eshik atrofi, peshtoq ko'rinishlari, deraza atrofi bezakdorligi, shuningdek, devor yuzalarida bo'rtma tasvirli bezaklar oq-sariq-qizg‘ishoxra ranglari fonida oq bilan ajratilgan.

**1 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 4.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| Talabalar soni: | Vaqti: 2 soat |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |

| | |
|---|---|
| **Ma'ruza rejasi** | 1. O'zbek madaniyati va san'atida badiiy hayot. Madaniy hayotga mafkuraviy tazyiq.<br>2. Me'morchilik. 1920 – 1930 yillarda o'zbek zamonaviy me'morchilik san'atining shakllanishi.<br>3. Eski shaharlarni rekonstruksiya qilish ishlari. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston madaniyati va san'ati. O'zbek madaniyati va san'atida badiiy hayot to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * O'zbek madaniyati va san'atida badiiy hayot to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Me'morchilik. 1920 – 1930 yillarda o'zbek zamonaviy me'morchilik san'atining shakllanishi to'g'risida gapirib beradi.<br>3. Eski shaharlarni rekonstruksiya qilish ishlari to'g'risida tushuncha beradi. | * O'zbek madaniyati va san'atida badiiy hayot. Madaniy hayotga mafkuraviy tazyiq haqida fikr bildirib, bahs - munozara qiladilar.<br>* Me'morchilik. 1920 – 1930 yillarda o'zbek zamonaviy me'morchilik san'atining shakllanishi to'g'risida bir - birlari bilan fikr almashadilar.<br>3. Eski shaharlarni rekonstruksiya qilish ishlarini muhokama qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |

| | |
|---|---|
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 4.1.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayonlari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish.<br>(20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy<br>(50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. O'zbek madaniyati va san'atida badiiy hayot. Madaniy hayotga mafkuraviy tazyiq.<br>2. Me'morchilik. 1920 – 1930 yillarda o'zbek zamonaviy me'morchilik san'atining shakllanishi.<br>3. Eski shaharlarni rekonstruksiya qilish ishlari qanday amalga oshirilmoqda? | Savollarga javob beradi. |
| III- | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan | Savollarga |

| | | |
|---|---|---|
| bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 minut) | bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**2 – mashg'ulot: 2 – soat.**

**Reja:**

1. Mahalliy rassomlar ijodida birinchi marta zamonaviy san'atning turli ko'rinish va yo'nalishlarining paydo bo'lishi. Moybo’yoq texnikasi.

2. Amaliy bezak san’ati va tasviriy san’at. Mahalliy ustalarning xalqaro ko'rgazmalarda o'z asarlarini namoyish etishi.

3. Toshkent kulolchilik san'ati.

XIX va XX asr boshlarida turar joy binolari, mahalla machitlari, saroy va o’quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Aynistsa devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli butoqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N. K. Romanovlar saroyi, A. A. Polovtsevning uyi, Marg’ilondagi Saidahmadxo’ja madrasasi va boshqalar.

**O’zbek milliy arxitekturasining o’ziga xos bezatilishi.**

O’zbek binosining ichki qismidagi har bir me’moriy qismi o’ziga xos ornamental bezak tipidan tashkil topgan. Interer, ya’ni xona devori o’zunasiga 3 qismga bo’lingan, devorning pastki qismi izora (panel), o’rta qismi va tepa qismi friz.

*Toshкentdagi xalq amaliy san’atati peshtoqisiga ishlangan naqshlar.*

Devorning o’rta qismi namoyonlar, manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqalar bilan bezatilgan. Friz qismiga har xil geometrik va o’simliksimon naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shift o’rtasiga ganchdan ishlangan ajoyib karnizlar ishlatilgan, buni sharafa deb yuritiladi. Shiftning o’rtasi o’yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan, bunga hovo’zak deyilgan. Bu hovo’zaklarga islimiy yoki geometrik naqshlar yoki turunjlar ishlatilgan. Xonaning hovo’zaklariga silliq qilib vassajuftlar yarim silindrsimon tayoqchalarni yonmayon terib chiqish natijasida tulqinsimon yo’za hosil qilingan. U ko’pincha, umumiy rang yoki oddiy islimiy naqsh bilan bezatilgan. Bu bezaklar o’zbek xonadonining ziynati hisoblangan. Devorlardagi tokchalar, taxmonlar cheti,kitobalar ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish-tovoqlar bilan bezatilgan. Uy-ro’zg’or buyumlariga naqsh berish yanada rivoj topdi. O’rta asr miniatyuralari ham rivojlandi. O’zbek xonadonlari sergul gilamlar, rang-barang adyol va choyshablar, idish-tovostlar,



naqshinkor xontaxtalar, devorlari manzarali namoyon, hashamdor shiftlar... «- bular hammasi birgalikda xalq bezak san’atining butun bir serjilo asarini tashkil etadi»' Uy-ro’zgor buyumlari- xontaxtalar, qalamdonlar, qutichalar, devoriy naqshlar, ularning rangin bezaklari bir-biri bilan kandaydir bog’liqlikka egadir. Ana shu devorlarda yaratilgan naqshlar o’zining mutanosibligi, puxtaligi, ranglarining uyg’unligi, bichimi, nafisligi, badiiyligi bilan diqqatga sazovordir.

**O’zbekiston naqqoshlik san’atining rivojlanishi.**

O’zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to’plashni davlatimiz o’z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati to’zildi. V. I. Lenin g’amxo’rligi osti- da 1918 yili 5 dekabrda qadimiy arxitektura yodgorliklarini va san’at asarlarini hisobga olish va saqlash haqida dekret chiqarildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, Madrasa, turar joylarni, saroylarni ta’mirlashni boshlab yubordilar. 30-yillardan so’ng ko’pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylari va boshqa joylarni yog’och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1938 yili Moskvadagi SSJI Butunittifok xalq xo’jaligi yutuqlari ko’rgazmasidagi O’zbekiston restorani va O’zSSJ pavilonlarini bezashga naqqoshlarni safarbar kilindi. U erda ajoyib namoyonlar, qandillar, o’yma eshiklar, o’yma ganchlar va naqshlar bilan bezatildi. 1939 yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi bi- nosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. Shu yillari «Bahor» konsert zalini ham naqsh, ganch o’ymakorligi, yog’och o’ymakorligi bilan bezatildi.



40-yillarda qurilgan Muqimiy, Navoiy teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog’och o’ymakorliklari bilan bezatildi. Naqqoshlik san’atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg’onalik Saidmahmud Norqo’ziev, toshkentlik Tohir To’xtaxo’jaev, Olimjon Kosimjonov, Yokubjon Raufov, Jalil Hakimov, xivalik Abdulla Boltaev, S. Xudoyberganov, X. Rahimov, samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Xusanov va boshqalar hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyapti. Ular avloddan avlodga meros bo’lib kelayotgan naqqoshlik san’atiga katta hissa koshdilar. Ular o’zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (o’roq va bolg’a, kabutar, paxta, yuldo’z va boshqalar) yangicha g’oyalar kiritdilar. Lekin o’zimizning an’anaviy o’zbek xalqining o’ziga xos milliy san’atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o’zbek milliy naqsh elementlari

bo’lmish nozik majnuntol nihollari, anor butog’i, gulli butalar va boshqa o’simliklarni tasvirladilar.

XX asrning o’rtalarida naqqoshlik san’ati yanada rivoj topdi. Devorlarga manzarali monumental tasvirning mashhur ustasi Chingiz Ahmarov Sharq miniatyurasining eng yaxshi namunalaridan hamda O’rta Osiyo xalqlarining badiiy merosidan ilhomlanib ajoyib devoriy rasmlar yaratdi. O’zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san’atining shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o’zlarining yuksak badiiy mahorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqdalar. XX asrlarda yog’och o’ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va san’atning boshqa turlari rivojlanib har bir shaharning o’ziga xos yog’och o’ymakorligi paydo bo’ldi. Qo’qondagi Xudoyorxon saroyi, Toshkentdagi knyaz N. K. Romanovlarning saroyi va A. A. Polovstev uyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marrilondagi Saidahmadxuja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Mohi- Xosa va boshqalarda ajoyib yog’och o’ymakorligi namunalari yaratildi. Bu esa o’zbek yog’och o’ymakorligi san’atining bebaho asaridir.

Sovet hokimiyati barpo etilishi bilan xalq amaliy san’atining boshqa turlari singari yog’och o’ymakorligi ham rivojlana boshladi. Yog’och o’ymakor ustalar xar xil buyumlar, xontaxta, eshik va boshqa narsalarni bezashga jalb qilindi. O’ymakorlik ishlari mexanizastiyalashtirildi. Toshkent va Frunze shaharlarida xunarmandchilik o’quv ishlab chiqarish kombinatlari tashkil etildi.

Uquv ishlab chiqarish kombinatida juda ko’pchilik tahsil olib, usta bo’lib yetishib chiqdilar.O’zbek xalq amaliy bezak san’ati ustalari qatori yog’och o’ymakor ustalar Butunittifok; Xalq Xo’jaligi Yutuqlari ko’rgazmasida bir necha pavilonni, Toshkentdagi Muqimiy, Navoiy, Xamza teatrlarini, Navoiy muzeyini, V. I. Lenin Markaziy muzeyini, ko’pgina jamoat tashkilotlarining binolarini, restoran, magazin, klub va boshqa joylarni yog’och o’ymakorligining ajoyib namunalari bilan bezadilar.O’zbek xalqining eng ko’zga tashlangan ustalaridan Olimjon Kosimjonov (1878-1952), Sulaymon Xujaev (1866-1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib namunalarni yaratdilar. Ular o’ziga xos yog’och o’ymakorligi maktablari yaratib ajoyib shogirdlar yetishtirdilar.

Termiz maqbaralaridagi ganch o’ymakorlik san’atini o’sha davrning yuqori cho’qqisi desa bo’ladi. XII asrda muqarnaslar (stalaktitlar) hosil bo’ladi va ko’pgina binolarda qo’llanila boshlanadi. Muqarnaslar oddiy ganch o’ymakorligidan farst qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo’llanila boshlandi. Binolarning ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar aynistsa ajralib turadi.

XIII asrda ganchkorlik san’ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o’ymakorligi ishlari misol bo’la oladi. XIV-XVIII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san’atidan foydalanilgan.

**O’zbekiston amaliy san’at мuzeyi asosiy zalining bezagi.**

Bu davrlarda yangi-yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o’ymakorligi, uzviy bog’langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ish- latila boshlandi. Koshin va toshdan o’yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta-sekin minoralarning ichki qismiga qullaniladigan bo’ldi. Uning tashqari qismida esa juda kam qo’llanildi. Ganch o’ymakorligida mashhur bo’lgan XVIII asr ustasi Usta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o’sha vaqtda xalqqa tanilganlardan. Muhammad Muso o’g’illari Madusmon, Isoxon va Yusufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlashgan, g’isht terishda ham obro’ qozonishgan.

Ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri-XIX asrning boshlari bo’ldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o’ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali buyoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg’ona vodiysi va Xivada o’ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o’ymakorligi texnikasi kishini qoyil qoldiradigan darajada o’sdi. Buxoro bezaklari mayin, gullari judaham nafis , Marg’ilonning guldor bezaklari yaxlit ko’rinishga ega, Toshkentniki esa qat’iy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o’yma naqshlari o’ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi.

XIX asrning boshlarida buyuk ganch o’ymakorlaridan Abdurahim Xayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Xayot Nosirov, Usta Xoji Xofiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta G’ofir,Usta Ibrohim, Usta Savri, Usta Abdufattox, va boshqalar faoliyat ko’rsatdilar. Asr boshlaridagi ishlarda esa o’yma relefli juda mayin uslub texnikasi paydo bo’ldi. Rangli ganchlar, bo’yoqlar, naqsh va tasvirlar qo’llaniladigan bo’ldi. Boylar, qasrlar qurdirib, ularni o’yma ganch bilan bezattirdilar. XX asrning boshlarida diplomat amaldor A. Polovtsev Toshkentda yashardi. U Turkiston arxeologiyasi havaskorlari to’garagiga a’zo bo’lib, sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. Shuning uchun u o’ziga evropacha uy qurdirdi.



Bino baland ayvon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A. Polovtsev o'zbek xalqi san'atini yaxshi biladigan etnograf M. S. Andreevni bezak ishlariga boshliq qilib tayinlaydi. U o'zbek xalqi san'ati namunalarini yig'ib, ularni urganishga hayotini baxshida etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari Qo'qon, Buxoro, Farg'ona va boshqa shaharlardan ganch o'ymakorlar, yog'och o'ymakorlari va naqqoshlar taklif qilindi. Shular jumlasidan Usta Shirin Murodov, Usta Arslonqul Nazarov, Usta Usmon Ikromov, Toshpo'lat Arslonqulov va boshqa ganch o'ymakorlar ham bor edi. M. S. Andreev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi Toshkent ustalariga ayvon, mehmonxonaning sharqiy va shimoliy devorlari, tokcha, g'arbiy va janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi. 1902- 1903 yillarda evropacha qurilgan uy o'zbek milliy bezagida pardoz qilindi. Binoning ayvon, katta zali va yotoqxonasi juda jimjimador qilib bezatilgan. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarigi, ishlari o'ziga xos xarakterda bo'lib, o'yma Naqsh kompozistiyasida katta shohbarg va to'pbarglar yirik jimjimador qilib bezatilgan. Bu erda pardozning hamma turlari qo'llanilgan. Devorlarga o'yilgan ganch o'ymakor namoyonlar vertikal hamda gorizontal joylashtirilgan. atrofi geometrik, mayda ensiz zanjira, islimi hoshiya Naqshlar bilan bezatilgan. Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab o'sayotgan tabiat o'simliklarini eslatadi. Pardoz turlari xonaga tushayotgan yorug'lik hisobiga juda o'rinli tanlangan. Derazadan tushgan yorug'lik o'ymani yanada badiiylashtirgan. Namoyonga nazar gashlab turgan kishi xoh uzoqdan, xoh yaqindan qaramasin, u o'ziga xos jozibaga ega ekanligini ko'radi. Albatta, ustalar bularni avvaldan hisobga olganlar. Namoyonlar xuddi go'zal tabiat manzarasining nafis tasvirini eslatadi. O'yma ganch zaminlari ajoyib ranglarda berilgan. Bu bino XX asrning boshlaridagi eng ko'zga ko'ringan arxitektura yodgorligi bo'lib qoldi.

1913-1914 yillarda Buxoroda amir Ahadxon tomonidan Sitorai Mohi-Xosa qurildi. U ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mehmonxona) o'sha davrdagi ganch o'ymakorligining ajoyib namunasi desa bo'ladi. Bunda oyna zami- nida ganch o'ymakorligi bajarilgan. U o'zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan. U o'sha davrda eng ko'zga ko'ringan ganchkor ustalardan edi.

## O'rta osiyoda ganch o'ymakorligi san'atining rivojlanishi.

1918 yil 5 dekabrda V. I. Lenin dekreti bilan barcha boyliklar - madaniyat, arxitektura va san'at yodgorliklari xalq mulki deb e'lon qilindi. Ana shu yodgorliklarni muhofaza qilish amalga oshiriladigan keyingi tadbirlarga asos bo'ldi. O'zbekistonda osori-otiqalarni saqlash muassasalari Samkomstaris, Turkkomstaris, Sredazkomstaris, O'zkomstaris yodgorliklarni hisobga olish, o'rganish ta'mirlash bo'yicha katta ishlarni boshlab yubordi. Ko'pgina arxitektura yodgorliklarini, me'mor, san'atshunos olimlar va ustalar qayta

tiklash, ta’mirlash ishlarini boshlab yubordilar. Arxitektura yodgorliklarini tiklashda ganch o’ymakor ustalar o’z kuch-quvvatlarini ayamadilar.

1918 yili Turkiston jumhuriyatida «Xunarmandlar bo’limi» tashkil etildi. Bu bo’limning maqsadi hunarmadchilik bo’yicha izlanishlar olib borish, iqtisodiy statistik ma’lumotlarni qayta ishlab chiqish, ishlab chiqarishga tarqatish, maktab-lar tashkil qilish, o’quv ustaxonalarini tashkil etish, muzeylar, hunarmandlar birlashmasi (arteli) tashkil etish, qo’lda ishlangan ishlarga mablag’ ajratish va boshalar.

1918-1920 yillarda hunarmandlar komiteti Toshkentda o’lkashunoslik hunarmandlar tashkiloti, o’quv namunaviy ustaxonalar va hunarmandlik ishlari bo’yicha muzey tashkil etdi. O’quv namunaviy ustaxonasida xalq amaliy san’ati turlari duradgorlik, gilam to’qish, gazlama to’qish, kulolchilik, charm ishlash, naqqoshlik, ganchkorlik va xokazolar bo’yicha instruktor tayyorlash kerak edi. Muzeyni tashkil qilishdan maqsad eng yaxshi hunarmandchilik ishlarini sotib olib yig’ish va saqlash edi. 1918 yilda Samarqandda 25 aprel 1919 yil Butunittifoq badiiy maktabi tashkil etildi. 25 aprel 1919 yil Butunittifoq Markaziy Ijroiya qumitasi «Xunarmandchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishga doyr tegishli choralar ko’rish» haqida dekret qabul qildi. Dekretga V. I. Lenin va M. I. Kalinin qo’ul qo’ydilar. Bu dekretda hunarmandchilik buyumlarini bemalol yasab sotishga ruxsat etiladi. Moskvada 1923 yilda Butunittifoq qishloq xo’jalik ko’rgaz- masining Turkiston pavilonida ganch o’ymakorlar, naqqoshlar, yog’och o’ymakor ustalar ajoyib ishlari bilan qatnashib ko’pchilikka manzur bo’ldilar.

1925 yili «O’zpromsoyuz» tashkil etildi. Uning maqsadi tashkil etilgan hunarmandchilik artellariga rahbarlik qilish va yangi artellar ochish edi. 1930 yilda Samarqandda xunarmandchilik ishlab chiqarish texnikumi ochilib u erda xalq amaliy san’ati turlari bo’yicha ko’pgina ganch o’ymakor ustalar, naqqoshlar, kulollar va boshqa ustalar yetishib chiqdi. O’zbekiston hunarmandlari o’z ishlari bilan 1925 yilda Parijda keyin Leyptsigda, 1927 yilda jahon bo’yicha, 1937 yilda Parijda «San’at va texnika xozirgi kunda» degan ko’rgazmalarda ikkita «Gran pri», ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar. Bu Sovet hukumatining o’sha vaqtda xalq amaliy san’atiga bo’lgan katta g’amxurligi edi. 1939 yilda Nyu-Yorkda «Mir budushego» ko’rgazmalariga ham O’zbekiston xalq amaliy san’ati ustalari qatnashib diplom oldilar. Ganchkor ustalar arxitektura yodgorliklarini murakkab muqarnaslarni, nozik ganch o’yma ishlarini qayta tikladilar. Ular Minorai Kalon (XII asr), Magoki Attor machitini, (XII asr), XVII asrdasturilgan Sherdor, XVII asrda qurilgan Abdulazizxon madrasasini va shunga o’xshash arxitektura yodgorliklariga qayta hayot baxshida etdilar. Bu murakkab ishlarda jumhuriyatimizdagi ganchkor ustalar o’z kuchi, quvvati va bilimini ayamadi. Ular buxorolik ganch o’ymakorlar— Usta Shirin Murodov, Shoir Ibodov, Abdurahim Xayotov, samarstandlik Rashid Jalilov, Shamsiddin Fofurov, Abdurashid Jalilov, Akrom Umarov, Mirhomid Yunusov, Abdurayim

Shermuhamedov, toshkentlik Arslonqul Nazarov, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Usmon Ikromov, xivalik Odamboy Yoqubov, Odamboy Bobojonov, Abdulla Boltaev, Ro'zimat Masharipov, namanganlik Usta Madalixon Xusanov, Usta Akbarov; qo'qonliklardan - Usta Saidahmad Maxmudov, Muhammadjon Kosimov va boshqa ko'pgina kamtarin ganch o'ymakorlar o'z kuch va g'ayratlarini ayamadilar.

1938-yili Moskvada Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'gazmasidagi O'zbekiston SSJ pavilonlarini Buxorodan, Toshkentdan, Fargonadan, Xivadan ganch o'ymakorlar, yog'och o'ymakorlar va naqqoshlar qurdilar va bezadilar. U erda birinchi bo'lib ganch qandil namoyish qilindi. Xaqiqatdan ganch o'ymakorlik san'ati O'zbekistonda o'ziga xos milliy an'anaga ega. Kishilarni ganch o'ymakorlik san'atiga bo'lgan hurmati yanada oshdi.

1939-yili samarqandlik va buxorolik ustalar Toshkent shahar Navoiy ko'chasidagi «Mo'zkomediya» teatri binosini ganch o'ymakorligi bilan bezadilar. Bu binoni bezashda Usta Shirin Murodov, usta Shamsiddin G'ofurov, usta Abdurayim Xayo- tov va boshqalar qatnashdilar. Ustalar binoning ichki va tashqi qismlarini namoyon, panjaralar, ustunlar va boshqa joylarini ajoyib ganch o'ymakorligi bilan bezadilar.

O'zbekiston SSJ Oliy Soveti Prezidiumi binosining ganch o'ymakorlik ishlarini Toshkentlik Toshpo'lat Arslonqulov bezadi. Evropacha usulda ustunlarning yuqori qismini, namoyonlar, ruta, zanjira, sharafalar bilan bezadi. Ulug Vatan urushi vaqtida ham O'zbekistonda hunarmandchilik ishlab chiqarish korxonalari ishlarini davom ettiraverdi. Xukumat shunday og'ir kunlarda ham xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berib ko'pgina qarorlar chiqardi. O'quv kombinatida ustalar tayyorlash davom ettirildi, Usha davrdagi eng og'ir kunlarda Beshyog'och maydonida Mukimiy nomli teatr qurildi. Bu binoni qurilishiga marg'ilonlik usta me'mor O'zbekiston SSJ Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi Yusuf Ali Musaev boshchilik qildi  Teatr binosini bezashda buxorolik Usta Shirin Murodov, samarqandlik Quli Jalilov, toshkentlik Maxmud Usmonov, Usmon Ikromov, Shamsiddin G'ofurov, arxitektor Obid Zaynutdinov va A. A. Sidirovlar, rassom R. A. Akbalyan va boshqalar qatnashdilar.

Toshkentda 1947 yilda g'alabaga bag'ishlab me'mor A. Muxamedshin boshchiligida Kurant binosi qurildi. Bu qurilishni bezashda Usta Shirin Murodov qatnashdi. U naiqsh kompozistiyalarini yuqori badiiylik bilan o'yib bajardi. Ganch o'ymakorlik ishlari butun bino arxitekturasiga juda mos tanlangan. Kurant binosining sharafa, ustunlari, panjaralari o'yma ganch bilan bezaldi. Sharafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. Xar bir panjaraga alohida kompozistiya chizilib atroflariga moslab zanjira hoshiya berildi. O'zbekiston me'morchiligiga katta xazina bo'lib qo'shilgan. O'zbekiston SSJ Davlat opera va balet katta teatri 1947 yili akademik arxitektor Aleksey Shusevning loyihasi va rahbarligi ostida qurib bitkazildi. Jahonga tanilgan arxitektor — Korbbze'nni yetishtirgan Franstiya Aleksey Shusevning nomini ham yaxshi biladi. Chunki u

1897 yilda Parij akademiyasining musavvirlik sohasi bo'yicha talabasi bo'lgan. 1933 yilda Toshkentda quriladigan teatr binosining eng yaxshi loyihasi uchun Butunittifoq konkursi e'lon qilingan, bu konkursda Aleksey Viktorovich Shusev tavsiya etgan loyiha eng yaxshi deb topildi. 1940 yilda teatr binosining qurilish ishlari boshlanib 7 yilda bitkazildi. A. V. Shusev 1894 yillardayost qadimiy Sharq me'morchiligi bilan tanish edi. U O'rta Osiyo bo'ylab o'tkazilgan arxeologik ekspeditsiyalarda qatnashdi, Temur davrida qurilgan yodgorliklarni sinchiklab o'rgandi. O'sha paytda u Sharq quyoshining tig'i ostida tovlanib ko'zga tashlanadigan arxitekturani quradi. Teatr binosi arxitekturaga, ana shu yodgorliklarga bo'lgan muxabbati, bilimi juda ham ko'l keldi. Bino Ulug Oktyabr inqilobining 30-yilligi nishon- lanayotgan kunda qurib bitkazildi. Ulug' o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi yubileyining tantanalari shu tadbirga qo'shilib ketdi. Xuddi o'sha kuni teatrga mutaffakkirning nomi berildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablarga asoslanib o'zbek milliy an'analarini saqlagan holda xalq hunarmand-ustalari bunyod etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaharlardan ustalar, Naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshtaroshlar va boshqalar kelishdi. Bezak ishlarida Akademik Shusev eskizi buyicha teatrning fasadi, (tashsti ko'rinishi) eshikdan kiraverish joyi (foesi) va tomosha qilish zali (mehmonxonasi)ni T. Arslonqulov bajardi. Teatr binosining 3-qavatida 6 ta yon zal (mehmonxona) lari bor edi. Shusev O'zbekiston viloyatlaridagi ganchkor ustalarni bir joyga yig'ib, ular oldiga ikki muhim masalani qo'ydi. Birinchisi har bir viloyatning o'ziga xos milliy uslubi asosida bezash, ikkinchisi - bezalgan xona teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushishi kerakligi hastidagi masalani qo'ydi. Bu Xiva, Termiz, Samarqand, Farg'ona, Buxoro va Toshkent zallaridir. Bulardan Xiva va Termiz zallari qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an'anasiga mos bo'lgan ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan.

Xiva zali -(arxitektor S. N. Polupanov) Xiva zalidagi ornament naqsh andazalarini davlat mukofoti laureati Abdulla Boltaev chizgan.Ganch o'ymakorlik ishlarini xivalik ustalar - S. Xudoyberganov, K. Polvonov, B. Bobojonov, Ro'zimat Masharipov va uning shogirdlari S. Qalandarov, Sh. Ibrohimov, S. Qodirov, Avazov kabi ustalar milliy badiiy bezashda qatnashdilar. Ular bezagan o'yma ishlar kishi qalbiga orom va quvonch bag'ishlaydi.

Xiva zali qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Xiva zalidagi bezaklar medal'on shaklida qilyb o'yilib, xuddi Xivadagi moyolik (koshin)ga o'xshab ketadi. Bu o'yma uncha chuqur bo'lmay juda mayda o'yilgan, xuddi yog'ochdan o'yilganga o'xshaydi. Naqsh kompozistiyasining tuzilishi spiralsimon, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumiy naqsh kompozistiyalari shakldor medal'onlarni takrorlanishidan hosil bo'lgan uzoqdan ajoyib namoyon ko'rinishiga ega.

Termiz zali - (me'mor A. Zaynutdinov.) bu zalning naqsh kompozistiyalarini Usta Shirin Murodov Termiz stiliga mo'ljallab chizgan. O'yma ishlarini Usta Shirin Murodov, F. Ne'matov va boshqalar bajarganlar. Termiz zali qadimiy ganchkorlik uslubida bezatilgan bo'lib, XII asr Termiz saroyidagi ganch o'ymakorligini eslatadi. Teatrga kirgan odam O'rta asr bezash stilini shu teatrda uchrashini xayoliga ham keltirmaydi.

Termiz zalida zamonaviy uslubdagi hech narsani ko'rmaymiz. O'yilgan naqsh zamini umumiy yo'zaning 10-30% ni tashkil etadi chuqurligi 10-20 mm. O'yilgan yuza qoramtir tusda soya berib o'yilmagan yuzani aniq kontrast qilib ko'rsatib turibdi. Xoshiya va izoraga ishlangan naqshlar foni 10-20% ni tashkil etib, naqsh kompozitsiyalari bir-biridan farq qiladi. Namoyonlar cheti ozgina bo'sh qoldirilib atrofiga ruta ishlangan. Ruta foni namoyondagi fonga nisbatan kam o'yilgan. Bu namoyonga qaraganda ruta oqishroq bo'lib namoyon kompozitsiyasining ko'rkini yanada ochgan.

Farg'ona zali - (me'mor B. N. Zasipkin) ganch o'ymakorligi va naqsh kompozistiyalarini qo'qonlik Saidmahmud Norqo'ziev bajargan. O'yma ishlariga Jalil Marasulov va ko'pgina Farg'ona ustalari qatnashishgan. Farg'ona zalining shifti qoburg'ali qilib ganch o'ymakorligi kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Bu Farg'ona vodiysidagi an'anaviy badiiy uslubni eslatadi. Sharafa biroz qo'polroq qilib stillashtirib yuborilgan. Sharafani yuqori qismiga geometrik naqshlar panjaraga o'xshatib ishlangan. Naqsh kompozistiyalari choka pardozda bajarilgan.

Samarqand zali - (me'mor S. N. Polupanov) ganch o'ymakorligi ishlari kompozistiyalarini davlat mukofoti laureati Quli Jalilov va boshqalar bajargan. Bu zal sharafa kompozitsiyalarini, geometrik ornamentlarni, namoyon, ruta zanjira kompozistiyalarining ajoyib namunalari ishlangan. Shiftga geometrik naqsh girix o'yilib oralariga o'yma islimi naqsh kompozitsiyalari bajarilgan. Shift atroflariga yulduzsimon hovuzlar va o'rtasiga murakkab geometrik naqshlar o'yilgan. Devorning yuqori qismiga iroqi sharafa bajarilgan. Keng to'rtburchak shaklidagi gilamga, ya'ni Samarqanddagi so'zanaga o'xshab ketadi. Namoyon atrofida bo'sh joylar qoldirilib ba'zilarga ruta o'yilgan. Bu bo'shliqlar kompozitsiya yanada badiiylashtirib xonaning ko'rkamligiga yana ko'rk bag'ishlaydi. Qandillar sakkiz qirrali qilib o'yilgan.

Buxoro zali - bu zalning naqsh kompozistiyalarini va o'ymalarini Usta Shirin Murodov bajargan. U buxorocha milliy va zamonaviy uslubni qo'llagan. Uning oyna zaminli ganch o'ymakorligi xonani yanada keng qilib ko'rsatadi. Unda ajoyib va murakkab sharafalar, qandillar, namoyonlar kishi diqqatini o'ziga tortadi. Keksa Usta Shirin Murodov buxoroliklarga xos «tabaqa pardoz» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha etkazib kelib Buxoro zalida oynai jahon qurdi. U ajoyib qandil ishlab uyning shiftiga qubbali qilib muqarnas ishladi. Shift o'rtasiga o'sha davrgacha hech kim stalaktit ishlatmagan edi. Murakkab muqarnaslar xona hajmiga mos tushgan. Hajmli oppoq geometrik shakllar

kishiga kandaydir erkinlik his tuyg'usini beradi. Deraza ko'zgu zaminli namoyonga tushayotgan yorug'lik xonaga yanada keng, yorug' va o'ziga xos joziba baxsh etadi.

Toshkent zali (mehmonxonasi) - Toshkent zaligta Toshpo'lat Arslonqulov kompozitsiya chizdi. Guldasta, sharafa, namoyon, rutalar yuqori relefli qilib bajarildi. Toshpo'lat Arslonqulov o'yma naqsh solish texnikasi, «muqarnas», «majnuntol», «choka pardoz», «zanjira», «shohbarg» kabi uslublarni amalda qo'llab, taraqqiy ettirish bilan birga «chor burchak», «kuvacha islimi», «palak islimi», «paxta chanog'i islimi» kabi kompozitsiyalarni bezadi. Toshpo'lat Arslonqulov zalda zamonaviy ganch o'ymakorligini bajarib, uning har bir kompozitsiyasi tantanaviy dinamik qilib ishlangan. Pardozning rang-barangligi boshqa viloyat naqshlaridan farq qiladi. O'ymalar aniq, ko'rkam yaxshi qo'rinishga ega. Usta islimi naqshdan ko'p foydalangan. San'at turlari asrlar, yillar davomida bir tekisda taraqqiy etmaganligini ko'rish mumkin. 50-yillarda «ortiqcha hashamga» qarshi kurash boshlangan. Binokorlikda xalq amaliy san'ati sig'ishmaydi, degan kishilar topildi. Ular binoga nima ko'rk, hasham, estetik zavq uyg'otsa shular ortiqcha deb topildi. Natijada binolar hech qanday bezaksiz to'rtburchak qilib qurila boshlandi. Ganch o'ymakor ustalar o'z kasblarini tashlab boshqa sohalarga o'tib ketishdi.O'sha kezlarda Usta ganchkor Maxmud Usmonov o'z kasbini tashlamasdan Lenin va N. Ostrovskiy nomli pionerlar saroyida ganch o'ymakorligi tugaragini davom ettirdi. 1953 yili Mahmud Usmonov iltimosi bilan Toshkent shahridagi P. Benkov nomli jumhuriyat badiiy uquv yurti qoshida xalq amaliy san'atining bir necha bo'limlari, shu jumladan ganch o'ymakorligi bo'limi ham ochildi. Bu o'quv yurtiga Davlat mukofoti laureatlari Usta Shirin Murodov, Usta Toshpo'lat Arslonqulov va Maxmud Usmonovlar o'ymakorlik sirlarini yoshlarga o'rgatdilar. 1957 yili Usta Maxmud Usmonov qirqqa yaqin shogirdlari bilan BuxorodagiSitorai Mohi-Xosa saroyidagi ganch o'ymakorlik ishlarini qayta tikladi. 1961 yili A. Navoiy nomidagi katta Akademik opera va balet teatrining ganch o'ymakorligi bezaklari qayta tiklandi.

1966 yili Toshkent zilzilasi oqibatida ko'pgina uylar vayron bo'ldi, arxitektura yodgorliklari shikast edi. Ularni qayta tiklashda ganch o'ymakor usta Mahmud Usmonov o'z shogirdlari bilan qatnashdi. 1967 yili O'zbekiston Ministrlar Soveti binosining ganch o'ymakorligini M. Usmonov bajardi. Zal bezagi uchun usta ikki xil nusxa tayyorladi, ulardan biri raxli, ikkinchisi qo'sh qavatli girihlardan foydalandi. U ustunlarga pargori islimi Naqshni qo'llab ajoyib asar yaratdi. Bu binoni bezatishda pax pardozdan foydalangan.

1967—1968 yillarda Xamza nomidagi Davlat Akademik drama teatri binosining ichki kismi ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. M. Usmonov bu binoda ganch o'ymakorlik turlari qirmadan, choka va tabaka pardozlarni qo'llagan.

1968 yili O'zbekiston Markaziy LKSM komiteti ma'muriy binosining ichki qismiga ganch o'ymakorlik bezaklarini M. Usmonov bajardi. Bu binoda u ganch

o’ymakorligining ajoyib namunalarini ko’rsatdi, ayniqsa «Xalqlar do’stligi» kompozitsiyasi namunali chiqqan. Bu namoyonda qardosh sovet xalqlarining do’stligi badiiy ifodalar xuddi chamanzordagi bog’larni shu qatori ramziy Naqshni o’ta mohirona bajargan. Unda fakat nisbiylik hisobga olinmagan, lekin o’ymaning dinamikligiga katta e’tibor berilgan. Bu binoda choka va qisman pax pardoz kullanilgan. 1968 yili O’zbekiston qishloq xo’jalik ministrligi binosi ganch o’ymakorligi bilan bezatildi. Buni ham M. Usmonov bajardi. Bu erda o’yma Naqsh 1,5 sm chuqurlikda o’yilib choka pardoz berilgan. Ayniqsa, islimi Naqshlarning nafisligi va dinamikligi kishini o’ziga maftun etadi.

1968 yili Alisher Navoiy nomli Adabiyot muzeyining geometrik va o’simliksimon ganch o’ymakorligi kompozitsiyalarini bajardi. M. Usmonov bu binoni choka pardoz, ayrim joylarini pax va tabaka pardoz kilib bezagan. Ganch o’ymakorlik bilan O’zLKSM Markaziy Komiteti ma’muriy binosi, Markaziy univermag, Buxoro konsert zali, Toshkent markazidagi yangi qurilgan Lenin haykali tribunasi tagidagi zallar va binolar ganch o’ymakorligi bilan bezatildi.

1969-70 yillarda Samarqanddagi aeroport, Registon maydonidagi restoran binolari, Toshkentda esa V. I. Lenin Markaziy muzeyining Toshkent filiali ganch o’ymakorligi bilan bezatildi. 1980 yili Maxmud Usmonov Xamza Xakimzoda Niyoziy nomidagi Toshkent San’atshunoslik instituti binosida o’yma ganch ishlarini bajardi. Naqsh kompozistiyalari chizmalarini Z. Bositxonov bajargan. U yerda Xiva, Buxoro, Termiz va Toshkent uslublari mavjud. Keyingi yillarda ganch o’ymakorligining noyob asarlari va ularni yaratgan ustazodalar haqida san’atshunos olimlar Rempel L. I., Notkin I. I., Prista I., Morozova A. S., Zoxidov P. Sh., Z. Bositxonov va boshqalar risolalari bilan ganch o’ymakorlik sirlarini ochib, tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.O’zbekistonda xalq amaliy san’ati turlari rivojlanib bormoqda. Hozirgi zamonaviy binolar, uylar ganch bilan bezatilmoqda. Shu paytgacha ganchkorlik san’ati namunalarini xalq amaliy san’ati muzeyida badiiy ko’rgazma zallarida, madaniy va maishiy xizmat ko’rsatish binolarida uchratamiz. Chunonchi temir yo’l vokzali, aeroport binolarida, mehmonxonalarda, muzeylarda, choyxona, kafe, restoranlar, teatrlar, fabrika va zavod, kolxoz va sovxoz klublari va idoralarida, saroylarida, maktablarda, sirk binolarida, hattoki xonadonlarda ham mohir ustalarning ganch o’ymakorlik namunalarini ko’ramiz. Ganch o’ymakorlik san’ati tez sur’atlar bilan taraqqiy etib bormoqda.

**2 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 4.2.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Mahalliy rassomlar ijodida birinchi marta zamonaviy san'atning turli ko'rinish va yo'nalishlarining paydo bo'lishi. Moybo’yoq texnikasi.<br>2. Amaliy bezak san’ati va tasviriy san’at. Mahalliy ustalarning xalqaro ko'rgazmalarda o'z asarlarini namoyish etishi.<br>3. Toshkent kulolchilik san'ati. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Sovet mustabid tuzumi davrida O’zbekiston madaniyati va san’ati. O’zbek madaniyati va san’atida badiiy hayot to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Mahalliy rassomlar ijodida birinchi marta zamonaviy san'atning turli ko'rinish va yo'nalishlarining paydo bo'lishi. Moybo’yoq texnikasi to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Amaliy bezak san’ati va tasviriy san’at. Mahalliy ustalarning xalqaro ko'rgazmalarda o'z asarlarini namoyish etishlarini video filmlar orqali ko'rsatib, tushuncha beradi.<br>* Toshkent kulolchilik san'ati to'g'risida. | * Mahalliy rassomlar ijodida birinchi marta zamonaviy san'atning turli ko'rinish va yo'nalishlarining paydo bo'lishi. Moybo’yoq texnikasi to'g'risida eshitganlarini tahlil qilib, fikr almashadilar.<br>* Amaliy bezak san’ati va tasviriy san’at. Mahalliy ustalarning xalqaro ko'rgazmalarda o'z asarlarini namoyish etishini tahlil qiladilar, o'rganadilar.<br>* Toshkent kulolchilik san'ati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar, fikr almashadilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, |

| | |
|---|---|
| | klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 4.2.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| **Ish jarayonlari vaqti** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1.. Moybo’yoq texnikasi to'g'risida tushuncha bering?<br>2. Me’morchilikning rivojlanishi haqida gapirib bering?.<br>3. amaliy bezak san'ati va tasviriy san'at haqida nimalarni bilasiz?<br>4. Toshkent kulolchilik san'ati haqida gapirib bering? | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**3 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

4. 1920 – 1930 yillarda o’zbek grafika san’atida tur va janrlarning kengayishi.Bezak va illyustrasiya ishlari.

5. O’zbek portret san’atining shakllanishi va rivojlanishi. A. Siddiqiy, O'ral Tansiqboyev, keyinroq Bahrom Hamdamiy, Latif Nasriddinov va Sh.Hasanova kabi mahalliy rassomlarning faoliyati.
6. Avtoportpetlarning keng ko'lamda ishlanishi.

# Grafika san’ati tarixi haqida.

Grafika (yun. graphike, grapho — yozaman, chizaman) — tasviriy san’at turi. Rasm va rasm san’atiga asoslangan, lekin o‘z tasvir va ifoda vositalariga ega bo‘lgan bosma badiiy asarlar. "GRAFIKA" termini dastlab xat va xattotlik san’ati ma’nosida qo‘llangan. Grafika (yun. yogargnke, yogarpo — yoza-man, chizaman) (tilshunoslikda ) — 1) u yoki bu yozuvning grafemalarni, tinish belgilari, urg‘u belgisi va boshqalarni o‘z ichiga olgan chizma vositalari yigindisi; fonematik yozuvda grafemalar va fonemalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi; 2) tilshunoslikning harflar va govushlar (grafe-malar va fonemalar) o‘rtasidagi o‘zaro munosabagni o‘rganuvchi bo‘limi.19-asr oxiri — 20-asr boshlaridan yangi ma’no kasb etdi, poligrafiya sanoatining rivoji, fotomexanikaning vujudga kelishi bilan GRAFIKA tasviriy san’at turiga aylanadi. Asosiy turlari: **dastgohli Grafika(**amaliy ahamiyatga ega bo‘lmagan, mustaqil rasm, estamp, lubok) Dastgoh Grafika. 30-yillarda mustaqil janr darajasiga ko'tarila boshlagan dastgoh Grafika urush yillari o'zining yangi qirralarini namoyon etdi. Uning mavzusi jang voqealari bilan yanada boyidi. Urush yillaridagi dastgoh Grafikasini ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish bu mamlakat ichkarisidagi kishilarning mehnati, uning qahramonlari portretlari bo'lsa, ikkinchisi bevosita jang bo'layotgan yerlarda naturadan ishlangan surat va shular asosida yaratilgan kompozitsiyalardir. Lekin har ikki yo'nalishga xos xususiyat bu bevosita naturani kuzatish, o'iganish asosida kompozitsiya yaratish tamoyillari yetakchiligida bilinadi. Rassomlar realistik san’at tamoyillariga sodiq holda davr mazmuni, odamlar intilishi va ruhini to'laqonli aks ettirishga harakat qildilar. Urush yillari front orqasida qolgan rassomlar xalq qurilishlarida bo'ldilar, qishloq va shaharlarda bo'layotgan voqealarni kuzatib suratlar chizdilar, ilg'orlar portretini ishladilar. Bulaming ko'pchilik qismi ko'rgazmalarda namoyish etildi, keyinchalik bu suratlarning ko'pgina qismi O'zbekiston rassomlarining «Ulug' Vatan urushi» (1945) albomida o'z o'rnini egalladi. Kam nusxada nashr etilgan bu albomda O'zbekistonda yashab ijod etgan rassomlaming avtolitografiyalari kiritilgan. Albom suratlarining mavzusi keng. Unda tematik kompozitsiyalar bilan birga urush yillarida bevosita naturadan ishlangan ilg'or ziyoli va ishchilaming portretlari mavjud. O'zbekiston qirg'inlik urushidan uzoqda edi. Lekin o'zbekistonlik ko'pgina rassom va haykaltaroshlar shu shiddatli janglarda qatnashdilar, Urushda boMgan rassomlar esa o‘z ijodlarini to‘xtatmadilar. U yerdan ko'plab naturadan ishlangan chizgi va surat lavhalarini ishlab ona yurtlariga yuborib turdilar, urushdan qaytganlarida o'zlari bilan olib keldilar.

Shunday qilib, o'zbek san’atida urush mavzusida asarlar paydo bo'ldi. Ularda urushda vayron bo'lgan shahar va qishloqlar ko'rinishi, do'stlari va quroldoshlaming portretlari, harbiy texnika suratlari o'z ifodasini topgan. Rassomlar urushdan keyingi yillarda shu to'plagan materiallariga asoslanib «Jonajon yerlarga qaytish» grafik asarlar turkumini yaratdilar, suratlar chizdilar, eskizlar ishladilar. kitob, gazeta-jurnal Grafikasisi (illyustratsiya, bosma mahsulotlarni bezash, ularni shakllantirish), amaliy Grafika (sanoat GRAFIKAsi, pochta markalari, ekslibris), plakat. Ifoda vositalari: kontur chiziq, shtrix, dog (qora, rangdor), varaq zamini (ko‘pincha oq qog‘oz). GRAFIKAning uslubiy vositalari turli-tuman: naturaga qarab tez chiziladigan xomaki chizgilar, etyud, eskizlardan tortib, to puxta o‘ylab, mulohaza yuritib ishlanadigan kompozitsiyalar (biror xrlat, manzara tasvirlangan; bezak maqsadiga xizmat qiladigan; shrift kompozitsiyalari)gacha. GRAFIKA asarlari, mahsulotlari tez tayyorlash imkoni, sikl va turkumlar yaratish mumkinligi, tashviqot va targ‘ibotga mosligi va boshqa Uni tasviriy san’atning eng ommaviy muhim sohasiga aylantirdi. Texnikasi jihatidan GRAFIKA 2 turga ajratiladi: qo‘lda chiziladigan rasm va matbaada chop qilinadigan, ko‘p nusxada nashr etiladigan bosma mahsulotlar (gravyura, litografiya, monotipiya va shahri k.). Rangtasvir bilan GRAFIKA chegarasidagi akvarel, guash, pastel rang-tasvirga ham, GRAFIKAga ham mansub bo‘lishi mumkin. Birinchisining tarixi juda qad. bo‘lib ibtidoiy odamlar g‘or devorlariga, qoyatoshlarga chizib qoldirgan ibtidoiy san’at namunalaridan boshlanadi. Ikkinchisi, asosan, poligrafiya rivoji bilan bog‘liq, lekin poligrafiya sanoati vujudga kelishidan ancha oldin ham Xitoyda 6—7-asrlar (Yevropada 14—15-asrlar)da gravyura ishlangan. Litografiya esa 19-asrdagina vujudga keldi.

**GRAFIKA** ishlatiladigan asosiy sohalardan biri kitob bo‘lib, o‘rta asrlarda vujudga kelgan xattotlik va kitob yaratish ishining san’atga aylanishi, qo‘lyozma kitoblarni yozish va bezash san’at turi sifatida rivojlanishi oqibatida miniatyura san’ati rivojlangan, uning turli-tuman maktablari vujudga kelgan. Jahonning eng yirik muzeylarida jozibador bezatilgan qo‘lyozma kitob namunalari saklanadi. Rassomning kitob yaratish jarayonidagi mehnati, ayniqsa, poligrafiya sanoati vujudga kelganidan keyin katta ahamiyat kasb etdi, kitob mazmunini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirishda xizmat qiladigan rasmlarni endi fotografiya imkoniyatlaridan foydalanib ko‘plab nusxalarda nashr qilish imkoni tug‘ildi. Shunday kilib, kitob GRAFIKAsi va plakat kishilarga ma’naviy ta’sir ko‘rsatishning kuchli quroliga aylandi. Rassom rasmdan tashkari kitobning muqovasi, sarvarag‘ini be-zaydi, turli bezak unsurlarini yaratadi, kitobning shriftini belgilab beradi. Sanoatning barcha tarmoqlarining rivoji mahsulotlar reklamasidan tortib yorliq, mahsulot joylanadigan bezakli qutichalar, o‘rov materiallari va shahri k.ni yaratishni taqozo etdi, grafik rassomlarning GRAFIKA turlari bo‘yicha ixtisoslashuvlarini talab qildi.

Kitob GRAFIKAsi va u bilan bog‘liq dastgohli GRAFIKA jadal rivojlandi. Bu sohada yirik rassomlar ijod qilgan: Germaniyada A. Dyurer, L. Kranax,

GRAFIKA Golbeyn Kichkina, K. Kolvits; Italiyada J. Piranezi; Niderlandiyada L. Leydenskiy; Gollandiyada Rembrandt; Flandriyada P. P. Rubens; FransiyadaJ. Kallo, O. Domye; Ispaniyada F. Goyya; Rossiyada A. Zubov, A. Venesianov, O. Kiprenskiy, I. Shishkin, V. Serov va boshqa

20-asr jahon GRAFIKAsining yetuk namoyandalari: P. Pikasso, J. Effel (Fransiya); R. Guttuzo, GRAFIKAMukchi (Italiya); F. Mazerel (Belgiya); X. Bidstrup (Daniya); R. Kent (AQSH); GRAFIKA va L. Grunding , O. Nagel. V. Klemke (Germaniya); T. Kulisevich, Yu. Mroshchik (Polsha); D. Moor, V. Deni, V. Favorskiy, A. OstroumovaLebedeva, Kukrinikslar (Rossiya) va boshqa

O‘zbekistonda GRAFIKA 20-asrda shakllandi va rivojlandi. Rassomlar I. Ikromov, V. Kaydalov, L. Abdullayev, T. Muhamedov, K. Nazarovlar kitob bezaklari, Q. Basharov ilk kitob suratlari va ajoyib linogravyura asarlari bilan o‘zbek tasviriy san’ati taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar va o‘zbek GRAFIKAsi maktabining vujudga kelishiga zamin yaratdilar.

20-asrning oxirgi choragida ijodkorlar safiga M. Kagarov, L. Ibrohimov, M. Sodikrv, A. Mamajonov, A. Bobrov, V. Apuxtin, F. Basharova, A. Li, GRAFIKA Li kabi rassomlarning kelib qo‘shilishi GRAFIKAni ham badiiy mahorat, x.am mavzu jihatdan boyishini ta’minladi. O‘zbek Grafikachilari GRAFIKAning barcha sohalari (akvarel, litografiya, ksilografiya va boshqalar)da samarali ijod qilib, mavzu jihatdan rang-barang (tarix, zamonaviylik, ekologiya va boshqalar) asarlar yaratmoqdalar, jahon va o‘zbek mumtoz adabiyotiga, Sharqning buyuk arboblari, yozuvchi va olimlari siimolariga murojaat qilmoqdalar.

## Grafika" turlari.

Tasviriy san’atning keng tarqalgan turlaridan biri Grafikadir. Grafikaning asosiy materiali oq-qora rang bo‘lib, ko‘proq qog‘ozga ishlanadi. Boshqa ranglar juda kam ishlatiladi. Ishlatilganida ham maxsus - plakat Grafikasida ishlatiladi. CHunki, grafik rassomlar o‘z asarlarini faqat oq-qora ranglarda ifodalaydi, qaysiki, asarning mohiyati, mazmuni va odam portretlarini ichki tuyg‘ularini va xarakterini ifodalanishi lozim bo‘lgan asarlarda ishlatiladi. CHunki, ayrim plakat asarlarda voqea va odamning ichki mohiyatini ham ochib beriladi.



Grafik rassom tasvirlayotgan narsa va voqeaga bo‘lgan munosabatini ifoda vositasi bo‘lmish yo‘g‘on-ingichka, qo‘pol-nozik, uzun-qisqa, davomli-davomsiz, ranglm-rangsiz, silliq-dag‘al chiziqlarda ifodalaydi. SHuningdek, grafik rassom o‘z asarlarini yaratishda bo‘yoqlarning tonidan, qog‘ozning oq rangidan, qora rangining ham turli xildagi tonlaridan foydalanadi.

Grafika san’atining asosini bezatish ishlari egallaydi. Bunda plakatlar, kitob illyustratsiyalari, bezaglari, turli iste’mol buyumlarining qutilari uchun etiketkalari, pochta va pul markalari ko‘proq ishlanadi.

Grafika san’ati asosan to‘rt turga bo‘linadi.

**Stanokli Grafika san’ati** - mustaqil xarakterga ega bo‘lib, u ilg‘or-progressiv g‘oyalarni, fikr-tuyg‘ularni ilgari suradigan, mustaqil holdagi yaratilgan san’at asariga aytiladi.




Stanokli Grafikada ham tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni ma’lum bir syujet asosida berilib, uning g‘oyaviy-mazmuni eng aktual masalalarni va mavzularni ifodalaydi.

Stanokli grafik asarlarni maxsus asboblarda, stanok yoki molbertlarda o‘rnatilgan holda qalam, ko‘mir, tush, akvarel, tempera, guashlarda ishlanadi. Bu san’at asarlari ham portret, natyurmort, manzara. janrlarida yaratiladi.



**Kitob Grafikasi -** kitob, jurnal, gazeta - stanokli Grafikadan farq qilib, u kitob, jurnal, gazetalarda berilayotgai mavzular mazmuni va syujetini kuchaytirish, tushunib olishni osonlashtirish, aniqliklar kiritish va ularni qiziqarli, chiroyli qilib ishlab chiqarish maqsadida Grafikadan to‘la foydalanadilar. Bular muqovalarda va kitob-jurnal ichidagi tematik illyustratsiyalar, tekstning boshidagi "zastavka", tekstni tugallashidagi "konsovka", abzats boshidagi "insial" kabilardan iborat bo‘ladi. Kitob va jurnallardagi rasmlarning barchasi mazkur jurnal yoki kitobda berilayotgan asarlar va maqolalarning eng ahamiyatli, eng qiyin, eng yuqori - kulminatsion nuqtalar yoki "tugun", "echim" kabi o‘rinlar uchun ishlangan bo‘lib, bu rasmlarni etuk rassomlar, asarning avtorlarini tavsiyasi yoki zaruriy maslahatlar bo‘yicha yaratiladi. SHu boisdan rasmlar asar mazmuniga, syujeti va asarning maqsadi va vazifasiga to‘la javob beradi. Rassom asarni to‘la o‘qib chiqadi, avtor va etuk mutaxassislar bilan asar mazmunini tahlil qiladi va unga rasm ishlayda. Rasmda bosh obrazlar, personajlarning portretlari, voqealar, sodir bulgan manzaralar ko‘proq voqea bilan birga beriladi.



Kitob Grafikasi san’atiga karikatura janridagi rasmlar ham kiradi. Bu rasmlar tanqidiy mazmunda bo‘lib, u satirik va yumoristik xarakterida ifodalanadi. Unda voqeaning zaruriy tomoni bo‘rttirilib, qiziqarli, kulgili qilib ishlanadi.

**Plakat san’ati** – g‘oyat aktual, hozirjavob masalalarni ifoda etib, g‘oyat jonli, zamonaviy, zaruriy chaqiriqlarga javob beruvchi san’at asarlari hisoblanadi. SHu boisdan plakatlar tushuntiruvchi, chaqiruvchi, reklama, agitatsiya-propoganda qiluvchi va madaniy-oqartuv ishlarida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Plakatlarni eng kuchli, muhim vazifalarni bajaruvchisi – siyosiy plakatdir. Siyosiy plakat xalq uchun zaruriy, pishib - etilgan, dolzarb, jamiyatning iqdisodiy va siyoeiy talablarga va vazifalariga oid asarlarni tashkil etadi.

Plakatlar - davlat, hokimiyat, xalq chaqiriqlari, murojaatlar, siyosiy va ommaviy voqealar, ichki va tashqi /xalqaro/ masalalarga oid tashviqot va targ‘ibotlar juda tez va hozirjavoblik bilan xalqqa etkazishda bosh vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Plakat rassomlari badiiy ifoda jihatidan g‘oyat kuchli bo‘lishi bilan birga, hayotni, siyosat, ijtimoiy turmushni yaxshi biladigan ko‘pni ko‘rgan, ob’ektiv mushohada qila oladigan siyoeiy jihatdan etuk bo‘lishi kerak.

CHunki, plakat san’ati - odamlar diqqatini o‘ziga tortadigan, ko‘pchilik fikr-zikrini o‘ziga qaratadigan, ifodalanayotgan voqea bo‘yicha biron-bir xulosaga kela oladigan, kishilarni ta’sirlantira oladigan, hayajonga sola oladigan darajada ifodalanishi kerak.

**Amaliy Grafika** - tabriknoma, telegrammalar, konvert yuzasidagi tasvirlar, etiketkalar, markalar, tasvirdagi emblemalar uchun ishlangan rasmlardan iborat bo‘ladi. Bu ko‘proq narsalarni bezatish uchun tayyorlanadigan grafik tasvirlarda o‘z ifodasini topadi. Bu tasvirlar ijtimoiy hayotni muhim masalalarini va vazifalarini targ‘ibot qilish, eng yaxshi, ko‘pchilik uchun foydali maslahatlar,

ko‘rsatmalar, voqea-hodisalar bilan, davlat va hukumatning chaqiriqlarini xalqqa etkazish bo‘yicha katta xizmat ahamiyatiga egadir.

O‘zbekistonda Grafika san’ati mustaqillik yillarida juda yaxshi rivojlana boshlandi. M.Kagarov, V.Apuxtin, P.Annenkov, G‘.Boymatov, L. Ibragimov, A.Mamajonov, M.Karpuzas, M.Sodiqov, B.Ismoilov, S.Redkin, S.Isoqov, I.Vasilev, L.Tiora, L.Zufari, T.Ayupov, T.Axmadaliev, YU. Aliger, R.Azizov, A.Ligay, M.Fozilov kabilar katta ijod yo‘lida faoliyat ko‘rsatmoqdalar.




# Rassomchilik. Savitskiy muzeyi faoliyati.

**Rassomlik san’ati** — asarlari biror yuza (qog‘oz, mato, taxta, devor va boshqalar)ga bo‘yoq (akvarel, moybo‘yoq, tempera, guash, yelimbo‘yoq), qalam, rangli tosh, shisha va h.k.da ishlanadigan tasviriy san’at turi. Respublikaning madaniy hayotida tasviriy va amaliy san'at tobora ko‘proq sezilarli rol o‘ynay boshladi. 1932 yili O‘zbekiston rassomlari uyushmasi tuzildi. Iste'dodli o‘zbek rassomlari U. Tansiqooev («Ozod etilgan ayol»), T. Hamdamiy («To‘qimachilik fabrikasi qurilishida»), D. Abdullaev («Paxta terimi») ajoyib polotno-suratlarini yaratdilar. Xalq amaliy va bezatish san'ati yangi mazmun bilan boyidi. Naqqoshlik, metall zarblash, yog‘och va ganch o‘ymakorligining ajoyib namunalari, badiiy zardo‘zlik va ipakdo‘zlik buyumlari yaratildi .

Biroq 30-yillarda tobora kuchliroq qaror topib borayotgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig‘inish mafkurasi respublikaning ijodiy xodimlarini, uning butun ma'naviy hayotini qattiq iskanjaga oldi. Ijodiyotni partiyaviylik tamoyillariga, mafkuraviy qonun-qoidalarga bo‘ysundirish dunyoni badiiy tasvirlashni qo‘pol ravishda siyosatlashtirish uchun keng yo‘l ochib berdi, dunyoni bilish imkoniyatlarini toraytirib qo‘ydi. Partiyaning yangi turmushni

madh etishga qilgan da'vati xalq oʻtmishiga salbiy munosabat paydo boʻlishiga, badiiy jarayondagi tarixiy izchillikning unutilishiga olib keldi. Madaniyatda murakkab ijtimoiy muammolarni bezab koʻrsatish, xato va kamchiliklar haqida sukut sakdash holatlari kuchaya boshladi. Hayotiy haqiqatlar buzib koʻrsatildi, san'atning haqiqiy tarbiyaviy kuchi zaiflashdigan mazkur xalq farzandlarining asarlari faqat shaxsga sigʻinish oqibatlari tutatila boshlangan davr 50-yillar oxirlaridan keyingina xalqqa asta-sekin qaytarildi. Qanday xomashyodan va kanday ishlanishiga qarab rangtasvir va Grafik ajratiladi. Rangtasvirda rang muhim oʻrin egallaydi va uning harakterli tomonlarini belgilaydi; Grafikada asosan chiziq, oqqora boʻyoq dogʻlari asosiy boʻlib, rang ikkinchi darajali oʻrin tutadi, koʻp hollarda shartli, ramziy ma’noda asarning gʻoyaviy emotsional tomonini kuchaytirish maqsadida uni qoʻllash mumkin. Mac, plakatpz. rangi kizil buyum koʻk, sariq va boshqa rangda berilishi mumkin va h.k. "Rassomlik san’ati" iborasi 20-asr 50-yillaridan qullanilib, dastlab rangtasvirni ta’riflash uchun ishlatilgan. Bugungi kunda, shuningdek, badiiylik ma’nosida xdm qoʻllaniladi.

**Rassomlik san’ati** qad. boʻlib, rangtasvir va Grafika bir-biri bilan uzviy bogʻliq holda rivojlangan. Davr utishi bilan professional san’atning kuchayishi ularni mustakdl san’at turlariga ajrata boshlagan. Uygʻonish davri va undan keyingi davrlarda Rassomlik san’ati ifoda vositalari boyib borgan, mutaxassislar yetishib chiqqan, texnika va texnologiya oʻzgarib yangilanib borgan. Rangtasvir va Grafikani bir-biridan aloxdda ajratish qiyin, chunki har bir ijodkor ularning har ikkisida ham ijod qiladi, ijodkor faoliyatiga baxr berish faqat ulardan qay birining yetakchiligiga bogʻliq. Mac, L.Abdullayev rangtasvir va Grafikada ham mehnat qilgan, lekin rangtasvir ustasi sifatida e’tirof etiladi. Ch.Axmarov, N.Kashina va boshqa ijodida ham shu xrlni koʻrish mumkin, ular ijodida fafikaning ayrim tur va koʻrinishlari oʻz ifodasini topgan, xolos. V.Kaydalov, Q. Basharov va boshqa ijodida rangtasvir asarlari mavjud boʻlsa ham, ular fafik rassomlar qatoridan oʻrin olgan. Oʻzbek kitob Grafikasining asoschisiboʻlgan I.Ikromovni, rassomN.

Xoliqov, A.Bobrov, F.Kagarov va boshqalarni grafik rassomlar sifatida e’tirof etish mumkin.

**Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san'at muzeyi** - respublikadagi yirik muzeylardan. Nukus shahrida 1966 yilda tashkil topgan, 1984 yildan N.V.Savitskiy nomi bilan ataladi. Muzeyga I.Savitskiyning sa'y-harakati va u to‘plagan qoraqalpoq xalq amaliy san'ati asarlari negizida asos solingan. Muzeyning umumiy maydoni 6,9 ming kv.m. Muzey xalq amaliy san'ati, qadimiy va o‘rta asrlar Xorazm san'ati, 1920-30-yillar o‘zbek va rus tasviriy san'ati, qoraqalpoq zamonaviy rang-tasviri va haykaltaroshligi, ilmiy-ma'rifiy bo‘limlar, kutubxona (10 ming dona asar), fond hamda ta'mirlash usta-xonasiga ega. Fondida 85 mingdan ortiq eksponat mavjud (2004).

Muzey fondida 1920- 30-yillarda avangard rassomlar yaratgan asarlar to‘plangan. Qoraqalpoq xalq ustalari tomonidan yaratilgan zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtado‘zlik, to‘qimachilik (ayniqsa, o‘tov jihozlari) va boshqa asarlar amaliy san'at bo‘limida jamlangan.



Qadimiy Xorazm san'ati bo‘limi muzeyning arxeologik guruhlari tomonidan qo‘lga kiritilgan topilmalar hisobiga yanada boyimoqda. Tasviriy san'at bo‘limi to‘plami, ayniqsa, serqirra: to‘plamni qoraqalpoq rassomlari (I.Savitskiy, K.Soipov, J. Quttimurodov, D.To‘raniyozov va b.), O‘rta Osiyo rassomligining keksa avlodi A.Volkov, M.Qurzin, A.Nikolayev (Us to Mo‘min), N.Karaxan, O‘.Tansiqboyev va boshqaning katta ahamiyatga ega asarlari tashkil etadi. Shuningdek, 1920-30-yillarda faol ijod etgan rus rassomlari A.Shevchenko, R.Falk, V.Muxina, I.Grabar asarlari bilan bir qatorda ijodi deyarli o‘rganilmagan.R.Mazel, K.Redko, A.Safronov va boshqaning asarlari ham qo‘yilgan.

Muzey eksponatlari monografiya (etyud, chizgidan tortib to yetuk asarlar) tartibida to‘plangani bilan ham qimmatlidir. Yana muzeyning o‘ziga xosligi eksponatlarning zich joylanishi, ekspozitsiyalarda to‘plamni to‘laqonli namoyishiga erishganidadir. Muzey san'at asarlarini to‘plash, targ‘ib etish, kataloglar chop etish, ko‘rgazmalar tashkil qilish bilan shug‘ullanadi. Muzey qoshida gilamchilik ustaxonasi ishlab turibdi; «Nukus muzeyining do‘stlari» klubi faoliyat olib boradi, ko‘rgazmalar uyushtiradi. Muzey Xalqaro muzeylar qo‘mitasi(IKOM) a'zosi.

Muzey 1968-69 yillarda Moskvadagi Sharq muzeyida Qoraqalpoq to‘plamini ilk bor namoyish

etdi. 1970 yildan respublika va xorijiy mamlakatlar (AQSH, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Rossiya va b.)dagi koʻrgazmalarda ishtirok etadi.

**Portret** (fr. *portrait*, eski fransuzchadan *portraire* — «chiziq yoki chegarani aks ettirmoq», eskirgan. parsuna — lot. persona — «shaxs; kishi») — inson obrazini tasviriy san'atda eng murakkab janr hisoblanadi.

**Portret** (frans. portrait — tasvir) — 1) tasviriy san'at janri; real hayotda mavjud boʻlgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo boʻlgan xayoliy qiyofalarning tasviri. Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek, foto san'atining muhim janrlaridan biri. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini aba-diylashtirish yotadi. Portret ning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli)ga aynan oʻxshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi oʻrnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi. Rassomning kasbiy maho-rati, portret ishlash uchun tanlagan materiallari esa uning yaratgan asarlariga takrorlanmas oʻziga xoslik baxsh etadi. Tarixan portretning xilma-xil tur va koʻrinishlari shakllangan: ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli, mazmuniga koʻra, dastgoh (kartina, byust, grafika varagʻi) va monumental (monu-mental xdykal, freska, mozaika), tan-tanavor parad va intim, xajviy, satirik portret tarzida tasvirlanuvchining faqat bosh qismi, beligacha, butun boʻybasti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Shuningdek, turli tarixiy davrlarda nishon, tanga, medallar yuzasiga (medal yasash sanati) ishlangan, gemma (gliptika), medalonlarda miniatyura portret keng tarkalgan. Portret janridagi bir asarda koʻpincha bir necha janrlar qoʻshilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, ya'ni atrof muhitni aks ettirmasdan), tinch xrlatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muxitda ishlanishi mumkin. Shu tu-fayli shartli ravishda P.ni P. va P. -kartina (janrli P.)ga ajratiladi. P.ning keng tarkalgan turlaridan biri — avtoportret. Tasvirlanayotgan kishilar soniga koʻra, yakka, qoʻshaloq va guruh P.larga boʻlinadi. P. san'ati qadimda paydo boʻlgan. Qad. Misrda P.ning noyob namunalari (hay-kaltaroshlikda — Exnaton, Nefertiti va boshqa haykallar) yaratiladi. Yunonistonda shoir, faylasuf va davlat ar-boblarining umumlashma, ideallashtirilgan haykal P.lari ishlandi (haykaltarosh Alopekli Demetriy, Lisipp va boshqalar), ellinizm davrida dramatik obrazlar yaratishga intilish kuchaydi. Antik davr xaykaltaroshlik P.i Qad. Rim san'atida yuksak choʻqqisiga koʻtarildi, aniq shaxsga e'tibor oshdi. P.da shaxsning individual fazilatlarini aniq koʻrsatish, ruhiy kechinmalarini ochish jarayoni sezilarli oʻrin egalladi, qaykal va byustlar bilan bir katorda tanga va medallar, gemmalarga P., shuningdek, rangtasvir P. ishlash keng tarqaldi. Dastgoh P.ining rangtasvir namunalari boʻlgan fayyum P.lari (Misr, 1—4-asrlar) ham antik san'at an'analari ta'sirida rivojlandi. Oʻrta asrlarda qat'iy liniy krnunlar bilan cheklangan P. cherkov-me'moriy ansamblining ajralmas qismiga aylandi. Ijodkorlar P.da podsho, din

axllarining obrazlarini yaratdilar, diniy mazmundagi P.larda aniq shaxslarning fazilatlari, xususiyatlarini ifodaladilar. Oʻrta asrlar xitoy ustalari asarlarida aniq shaxslar koʻpincha oʻziga xos fazilatlari bilan, yapon rassom va haykaltaroshlarining ayrim P.larida oʻtkir psixologik holat aks ettirildi. Uygʻonish davrida P.ning rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika turlari yuksak taraqqiy etdi. Faol, oʻz qadr-qimmatini biladigan qoʻrqmas, jasur inson qiyofasi bu davrning bosh qahramoniga aylandi. Borliqni ilmiy asosda oʻrganish va shu bilimlarni amaliyotda qoʻllashga intilishlar P.ning yangi tizimini yuzaga keltirdi. Endilikda tasvirlanuvchi noreal makon va muhitda emas, balki insonga yaqin boʻlgan tabiat qoʻynida aks ettirildi. Monumental rangtasvir asarlaridagi personajlar orasida rassom oʻzining qiyofasini ham ishlay boshladi. Bu jarayon keyingi davr san’atida yanada rivojlantirildi (rassom Jotto, Mazachcho, A. del Kastano, D. Girlandayo, S. Bottichelli, Pyero dela Francheska, J. Bellini; haykaltarosh N. Pizano, Donatello, A. Verrokko; dastgoh haykaltaroshligida Deziderio da Settinyano, Antonio Rossellino; medallarda A. Pizanello).

Yuksak Uygʻonish davri buyuk ijodkorlari Leonardo da Vinchi, Rafael, Jorjone, Titsian, Ya. van Eyk, Rogir van der Veyden, A. Dyurer, Katta Lukas Kranax, Kichik Xolbeyn va boshqa P.dagi obrazlar mazmunini chuqurlashtirdilar, 17-asrga kelib demokratik karashlarning ortib borishi insonga chuqur muhabbat bilan sugʻorilgan, nozik his-tuygʻularni anglash va tasvirlashga qaratilgan toʻlaqonli va harakatga boy P.larni maydonga keltirdi, guruh P. rivojlana boshladi (Rembrandt, Xale va boshqalar). Avtoportret shu izlanishlar mahsulidir, rassom inson ruhida boʻladigan oʻzgarishlarni oʻz qiyofasida, qarash, yuzdagi mimik oʻzgarishlarda ifodalashga harakat qildi. 18-asr P.ida shaxsning ijtimoiy mavqei, jamiyatdagi oʻrni haqqoniy aks eta boshladi (Fransiyada — J. B. S. Sharden, J. A.

19-asr P. san’ati uslublarga boy va rang-barang . Klassitsizm, romantizm, tanqidiy realizm shu davrda ishlangan P.largata’sir etdi. Inqilobiy ruh bilan sugʻorilgan (J. L. David), koʻtarinki romantik ruhda ishlangan (T. Je-riko, E. Delakrua. O. A. Kiprenskiy, K. P. Bryullov), kinoyaga boy (F. Goyya) asarlar P. san’atini va uning rang-barangligini namoyon qiddi. 19-asr oxirgi choragida P.da tasvirlanuvchining ruhiy holatlarini tabiat bilan bogʻlay boshladilar. P.da ham impressionistlar (E. Mane, O. Renuar, O. Roden va boshqalar), postimpressionistlar (P. Sezann, Van Gog) tasvirlanuvchining oʻzgarmas shakli orqali uning toʻlaqonli obra-zini yaratishga, shakllar harakatida dramatik holatlarini koʻrsatishga intildilar. 20-asr P. san’ati murakkab va ziddiyatlidir. Bir tomonda realistik P. oʻz imkoniyatlarini yanada chukurlashtirib, inson fe’lidagi butun nozik oʻzgarishlarni toʻliq ochishga, uning falsafiy-dunyoviy oʻy-xayollari, tasavvur va taxminlarini aks ettirishga, uning plastik tomonlarini kuchaytirishga intilsa (Germaniyada — K. Kol-vits, E. Barlax; Fransiyada — Sh. Des-po, GG. Pikasso, A. Matiss; Italiyada Modilyani, R. Guttuzo; Meksikada — D. Rivera, D. Sikeyros; AQShda — E. Uayet; Yaponiyada —

Seyson Maeda; Rossiyada I. D. Shadr, M. V. Nesterov. P.D. Korin va boshqalar), ikkinchi tomonda shu davrda keng yoyila boshlagan modernizm uslubi P.ga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu yo‘nalish tarafdorlari shu bo-rada tajriba ishlarini olib borib shakl, chiziq, rang , faktura imkoniyatlaridan foydalangan holda obraz yaratishga harakat qildidar.

Sharq (O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Eron, Hindiston va boshqalar) miniatyura san’atida P.ning nodir namunalari yaratilgan (Rizo Abbosiy va boshqalar). Jumladan, o‘zbek P. san’ati ham boy tarixga ega. Bu san’at namunalari qad. va o‘rta asrlar san’atida uchraydi (Yunon-Baq-triya, Xorazm, Kushan podsholarining haykal va tanga yuzalariga ishlangan bo‘rtma tasvirlari), Amir Temur va te-muriylar, Shayboniylar hamda Boburiylar davri san’ati (Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqalar)dagi mini-atyuralarda ma’lum darajada taraqqiy etgan. Nafis (mo‘’jaz rasm) miniatyura taraqqiyoti davomida bir asar ustida bir necha san’atkorlar ijodiy hamkorlik qilgan, kishilar qiyofasi, yuzini tas-virlovchi musavvir nomiga chehrakushoy (yuzni ochuvchi) yoki chexra so‘zi qo‘shilgan. Ayniqsa, boburiylardan Akbar va Jahongir davrida ayrim shaxslar tas-viri bilan birga guruh (ko‘plab a’yonlar ishtirokidagi) P. yaratish taraqqiy etgan. Ushbu P.lardan keyinchalik yevropalik rassomlar (Rembrandt, J. Reynolds va boshqalar) ma’lum darajada o‘rgangan, ilhomlangan. 20-asrning 30—50-yillaridan zamonaviy rangtasvirdagi P. rivojlandi. Shu davrda P.ning hamma ko‘rinishlari (P., avtoportret, guruh P., P. -kartina, tarixiy P. va h.k.)da asarlar yaratildi. Bahrom h&isamhhy, L. Nasridsinov, Sh. Hasanova, A. Ab-dullayev, O‘. Tansiqboyev, M. Nabiyev va boshqa P.ning dastlabki namunalarini yaratdilar, 50—60-yillardan P. ning diqqatga sazovor namunalari yaratildi: "Uzbek portreta" (O‘. Tansiqboyev, 1927), "Alisher Navoiy" (V. Kaydalov, 1940, 1947), "Abu Rayhon Beruniy" (M. Nabiyev, 1950, 1972), "M. Turg‘unboyeva" (Ch. Ahmarov, 1951), "Yunus Raja-biy" (N. Qo‘ziboyev, 1954), "Keksa kol-xozchi portreti" (R. Ahmedov, 1956), "Hamza" (M. Saidov, 1968) va boshqa Bugungi kunda uzbek P. chiligi jahon san’ati rivoji fonida o‘z mavqei va o‘rniga ega. B. Jalolov, A. Ikromjonov, S. Raxmetov va boshqalarning asarlarida zamon ruhi Sharq va G‘arb san’ati an’analari sil-silasida o‘z aksini topgan.

**Badiiy adabiyot** — personaj tashqi qiyofasining tavsifi, tas-viri; badiiy obraz yaratish vositalaridan biri. P. harakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga boglik bo‘ladi. Odatda, P. personaj xa-rakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi. P. adabiyotda qadimdan mavjud. Tasvir vositasi sifatidao‘zgarib takomillashgan. Xalq og‘zaki ijodida inson individu-achlashgan shaxs sifatida tasvirlanmaganligi uchun uning P. i ham ko‘pincha mavhum, umumiy harakterga ega. Folklorda P. mifologik, fantastik yoki an’anaviy tarzda yaratiladi. Shuning uchun aniq ijtimoiy, tarixiy, milliy va individual belgilardan mahrum bo‘ladi. Mac, "Alpomish" dostonida devlar P.i mubolag‘a bilan berilgan:To‘qson qarich edi

uning hassasi, Sarhovuzdan katta edi kosasi. Qad. g‘arb va sharq adabiyotlarida ham P. ko‘pincha mavhum, an’anaviy harakterda bo‘lgan. Mac, g‘azallarda yorning tashqi qiyofasi oy, quyosh, yulduz, tun va kun kabi narsalarga nisbatda kursatilgan. Realist yozuvchilar tashqi qiyofani batafsil tavsiflaydilar, unda davr va hayot tarzi bilan bog‘liq holda ro‘y bergan o‘zgarishlarni aynan aks etti-radilar (mas, Abdulla Qodiriy, Oy-bek). 19-asr da P.ning ichki yoki psixologik (ruhiy) P. deb atalgan turi tarqalib, unda personajning harakteri — belgilari va ruhiy kechinmalari majmui ochib beriladi (Abdulla Qah-xrr, Odil Yoqubov). Adabiy P. — atoqli shaxs, ya’ni yozuvchi, rassom, jamo-at arbobining hayoti va ijodi haqidagi ocherk alohida janr hisoblanadiNe’mat Abdullayev, Abdumajid Madraimov.[1] Ma’lumki har bir davrning usta rassomlari bo’lgan. Ular portret asarlarida zamondoshlarning go’zal qiyofasini obrazlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan. Uyg’onish davrining buyuk nomoyondasi Lenardo da Vinchining «Avtoportret», «Jakonda» asari, Velaskesning «Papa Inokentiy X» portreti, shular jumlasidandir. Gollandiyalik rassom Rembrandt kabi ko’pgina Yevropa rassomlari ham ajoyib portretlarni yaratib nom qoldirdi. XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan buyuk rus rassomlari O. Kiprenskiy, V. Tropinin, A. Venetsianovlar rus portret san’atining asoschilari bo’ladilar. Ular XVIII asr portretchilik an’anasini davom ettirib, insonni tasvirlashga yana ham zo’r e’tibor bilan qaradilar, portretlar psixologiyasiga katta ahamiyat berdilar, rassomchilik mahoratini oshirdilar.

O.A. Kiprenskiy portret san’atining muvaffaqiyati shundaki, rassom o’z zamondoshlarini portretlarida dastavval insonning go’zal ma’naviy dunyosini, qadr-qiymatini, uning orzu-o’ylarini, kechinmalarini tasvirladi. U qator asarlarni, shu jumladan ijodning cho’qqisi bo’lgan [[A.S. Pushkin (1827) portretini yaratdi. Taniqli shoir siymosi bu portretda har jihatdan juda mukammal ochib berilgan. Asarda shoirning tashqi qiyofasi bilan birga, undagi ruxiy ko’tarinkilik, bitmas-tuganmas ijodiy ilhom sohibi ekanligi juda moxirona tasvirlangan. Uning zamondoshlaridan biri V. Tropinin bizlarga asosan «Pushkin», «Gitarachi», «Bagration» portretlari muallifi sifatida tanilgan. Uning 1823 yilda yaratgan «To’r to’quvchi qiz» portreti istarasi issiq, yoqimli shahlo ko’z qiz qiyofasini aks ettirdi. Ularning izdoshlaridan biri A. Venetsianovdir. U birinchi bo’lib san’atga dexqon obrazlarini olib kirdi va birinchi bo’lib tabiatning poetik obrazini yaratdi.

20 yillarda yaratgan «Yoz», «Ekinzorda» asarida — tabiat va inson obrazini, dexqonlarni mehnat jarayonini ifodalab uyg’unlashtirib bergan. U «Zaxarka» portretida mehnatkash bolani ichki dunyosini ochib bergan. XIX asrda realistik portret soxasida Kramskoy, Repin, N.Vasnetsov, V.Serov kabi ulug’ rus rassomlar ijod qildilar. N.Kramskoyning N.Nekrasov, P.Tretyakov, L.Tolstoy, I.Repinning V.Stasov, M.Musogorskiy portretlari bunga yorqin misol bo’la oladi.

XX asrning ikkinchi yarmida o’zbek portret san’ati yuksalib rivojlandi. Portret soxasini Lutfulla Abdullayev, Abdulxak Abdullayev, Raxim Axmedov, Malik Nabiyevlar samarali ijod qilib kelmoqdalar. Lutfulla Abdullayevning «Mulla to’ychi Toshmuxamedov», «Y.Axunboboyev» portretlari realistik an’analarda mohirona tasvirlangan. Abdulxak Abdullayev birinchi o’zbek portretchi rassomlardan biri bo’lib, portret sohasida salmoqli ijod qiladi. U o’z zamondoshlari, ziyolilarni, olimlarni adabiyot va san’at namoyondalarini portret galleriyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishdi. «Abror Xidoyatov Otello rolida», yozuvchi «Oybek» portreti muallifining shox asarlaridan bo’lib, Otelloni o’ychan boqishi, gavda harakati portretga romantik ko’tarinkilik ruxini baxsh etgan. Unda yuz ifodasi psixologik xolati moxirona tasvirlangan. Oybek portretida shoir siymosi kompozitsiya jihatidan juda chuqur va mukammal ochib berilgan. Rassom bu asarda inson qiyofasini abadiylashtiribgina qolmay, balki hamma yuksak insoniy fazilatlar egasi, otash qalb hayajon va tashvishga to’la buyuk yozuvchining jonli portretini yaratdi. Rahim Axmedov portret janrida hayotga chuqurroq yondoshdi. Inson ichki kechinmalarini, xis-tuyg’ularini, orzularini, insonning go’zallik qalbini o’z asarida ochib beradi. Uning «Ona o’ylari», «Surxandaryolik ayol», «Dehqon portreti» yorqin misol bo’la oladi. Malik Nabiyev asosan portret janrida zamondoshlari bilan bir qatorda tarixiy allomalar obrazini xam yaratish ustida ko’p mehnat qiladi. U 1952-yili «Beruniy» obrazini yaratdi. 1993-yili buyuk sarkarda «Amir Temur portreti»ni yaratdi. Portret kompozitsiyasini yaratishda rassomlarning o’ziga xos uslubi mavjud, u adabiy qo’lyozma, etnografik xujjatlardan unumli foydalanadi. Portret mazmuniga ko’ra quyidagi turlarga bo’linadi: kalla portreti, ko’krak qiyofali portret (byust), yarim gavda portret, butun gavda qiyofasi portreti, portret kartina, guruxli portret, miniatyura portreti va hokazo. Portret kompozitsiyasining tuzilishida insonning tashqi va ichki qiyofasi, uning ruxiyati, shuningdek ko’li, o’tirish holati, liboslari, interьyerdagi predmetlar asosiy vosita sifatida muxim rolь o’ynaydi. Har bir rassom portret yaratishda o’z tajribasi, usuliga tayanadi. Bunga har xil kutilmagan holatda, rang va texnikada bajarilgan portretlar dalil bo’la oladi. Baxodir Jalolovni kinorejissyor «Komil Yormatov» portreti shu fikrimizni tasdiqlaydi. Shuning uchun portret yaratishda yoshlar ulug’ portret ustalari tajribasini o’rganib. Ularda unumli foydalanishlari lozim. Portretchi rassom avval tasvirlanuvchi bilan chuqurroq tanishib, bir muncha davrda uni kuzatib, suxbatlashib, uni asosiy harakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini yaxshi o’rganishi kerak, M. Nesterovning shogirdi P. Korin doim bu amallarga sodiq qolib A.Tolstoy, N.Kachalov, M.Nesterov, N.Sarьyan portretlarni shu tarzda yaratdi.

**Siddiqiy Ajziy** (1864—1927) Siddiqiy Ajziy 1864 yilda Samarqandda tug‘ilgan. Madrasa ta’limini olgan. **Ajziy** (taxallusi; asl ismi Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy) (1864 — Samarqand — 1927) — ma’rifatparvar shoir, tarjimon. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi (1926). Samarqand, Buxoro

madrasalarida oʻqigan. Arab, fors, ozarbayjon tillarini mukammal bilgan. Keyinroq rus tilini ham oʻrgangan. 1901—03 yillarda Kavkaz, bir qator Arab mamlakatlari va Rossiyaga sayohat qilgan. Jiddada maʼlum muddat rus elchixonasida tarjimon boʻlgan. Samarqandga qaytgach, shahar yaqinidagi Halvoyi qishlogʻida yangi usuldagi maktab ochib, oʻqituvchilik qilgan. L. Tolstoy hikoyalarini, Krilov masallarini, Gogolning „Shinel" povestini oʻzbek va tojik tillariga tarjima qilgan (1908— 10). Darslik yozib, tarjimalaridan namunalar kiritgan. Ajziy 80-yillardan sheʼr yoza boshlagan. „Ayn ul-adab" („Odob chashmasi", 1916), „Ganjinai hikmat" („Hikmat xazinasi", 1914) kabi sheʼriy toʻplamlari, „Mirʼoti ibrat" („Ibrat oynasi", 1914), „Anjumani arvoh" („Arvohlar yigʻini", 1912) dostonlari nashr qilindi. „Mirʼoti ibrat"da Turkistonning oʻsha davrdagi fojiali ahvoli va undan qutulish choralari haqida bahs yuritgan. Ilm-fan, davlat, til, qonun — bularsiz hech bir millatning istiqboli yoʻq, bu toʻrt narsani qoʻlga kiritmagan millat halokatga mahkumdir, deydi. „Anjumani arvoh"da esa xonlikdagi turgʻunlik tanqid qilingan. Sheʼrlari chuqur falsafiy mazmuni, ijtimoiy-siyosiy mushohadalari, Fuzuliy va Bedilona uslubi bilan ajralib turadi. U milliy uygʻonish davrining barcha shoirlari singari keng ommani maʼrifatga boshlash, haq-huquqini anglatishni adabiyotning bosh mavzui deb bildi. Ajziy 1917 y. fevral inqilobidan keyin ijtimoiy harakatda bevosita ishtirok etdi. 1918—21 yilda Viloyat Adliya komissari lavozimida ishladi. 1922y.dan yana oʻqituvchilikka qaytgan. Samarqandda oʻzbek va tojik tillaridagi „Mashrab", „Mulla Mushfiqiy" kabi hajviy jur.larni, „Zarafshon" gaz.ni chiqarishda faol ishtirok etgan. „Mayna", „Ginagina", „Shashpar", „Tir", „Gumnom", „Olmos" imzolari bilan hajviy asarlar yozgan. Ularda shoʻro tuzumida yuz berayotgan oʻzgarishlarni xushlamaslik, kelajakdan xavotirlanish kayfiyatlari seziladi. 1903 yilda Halvoyi qishlogʻida shoirning oʻzi qurdirgan maktab hali ham bor, hozir uning nomida[1]. U 1890-yillarning oxirida Makkaga boradi. 1900 yilda Rusiyaning Jiddadagi elchixonasida tarjimonlik qilgan. Shoir 1901 yilda ona yurtiga qaytadi va yangi tipdagi maktab ochadi. U keng ommani maʼrifatga boshlash, haq-huquqini anglatishni adabiyotning bosh mavzui deb bildi. Millatni oʻz ahvolini anglashga, dunyo bilan barobar yashamoqqa chaqirdi. Siddiqiy 1919 yilda Samarqand viloyati adliya boʻlimi mudirining oʻrinbosari, keyinroq esa boʻlim mudiri boʻlib ishladi. S. Ajziyning 1903 yilda Halvoyida ochgan maktab binosi 1922 yilda yana asl kasbi muallimlikka qaytdi. 1927 yilda esa vafot etdi. Shoir adabiy merosi professor B. Qosimov tomonidan toʻplab, nashr qilingan. «Ayn ul-adab» («Odob koʻzi», Samarqand, 1916, oʻzbekcha), «Ganjinai hikmat» («Hikmat xazinasi», Samarqand-Toshkent, 1914, tojikcha) sheʼriy toʻplamlari, «Mirʼoti ibrat», «Anjumani arvoh» kabi poemalari, publitsistik maqolalari, Gogol «Shinel»i tarjimasi, hikoyalari ijodining serqirraligidan dalolat beradi. Sheʼrlari Kavkazda «Mulla Nasriddin», «Dirilik» jurnallarida bosilgan.

Mana ko‘p yillardir-ki shaharning ko‘pqavatli binolari shovqin-suronli hovlisida taniqli xalq rassomi O‘rol Tansiqboyevning uy-muzeyi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Mazkur xotira uy-muzeyi 1981 yilda ochilgan bo‘lib, ustaxona, mehmonxona, yotoqxona, ishxona, ayvon hamda turfaxil gullar va o‘simliklar ko‘rinib turgan peshayvonni o‘z ichiga olgan. Bugungi kunda muzey ekspozitsiyasida rassom qalamiga mansub 400 dan ortiq asarlar mavjud. Mazkur uyda buyuk rassom yashab o‘tgani xotirasiga 1976 yilda xotira-ustaxonasi ochilgan. Unda rassom ijod namunalari ekspozitsiyasi, rassom hayoti va ijodiga oid xujjatli materiallar, molbert, bo‘yoqlar uchun stolchalar, fotoxujjatlar va musavvirning chet el muzeylarida saqlanayotgan asarlaridan nusxalar bor. Muzeyning xilma-xil kolleksiyalari asosini O‘zbekiston amaliy san’ati tashkil etadi. O‘zbekiston — Movarounnahrda joylashgan jahon sivilizatsiyasining qadimiy madaniy markazidir. Ekspozitsiyada O‘zbekistonning antik va avvalgi o‘rta asr san’ati asarlari ichidan eng qimmatbaho eksponatlari o‘rin olgan. Eramizgacha bo‘lgan I asrda Surxondaryo viloyatidagi Xalchayon shahrining qal’a-saroyini bezagan avvalgi Kushon plastikasining ko‘rkam namunalari loydan qilingan haykallardan tashkil topgan. Bu asarlar ellinistik san’ati an’analari bilan tanish bo‘lgan mahalliy haykaltaroshlarning yuksak mahoratli usta bo‘lganliklarining yaqqol dalilidir. O‘rta asr davrida shahar sivilizatsiyasining yirik markazlari qatorida Samarqand, Buxoro, Farg’ona vodiysi, Choch va Toharistonning shaharlari kirgan. Shu davr san’atida diniy mavzu bilan bir qatorda aristokratik mavzu ham keng tarqalgan. VII-VIII asrlarda Varaxshada joylashgan buxorolik hukmdorlar saroylarining o‘simliklar, hayvonlar va ov sahnalari aks ettirilgan ganchli dekor parchalari o‘rta asr san’atidagi zodagonlik oqimini ifoda etadi. VIII asrdan o‘zbekiston hududida sirlangan kulolchilik keng tarqaldi. Muzey ekspozitsiyasida XIII-XVIII asrlarning me’moriy yodkorliklarni bezashda ishlatiladigan sirlangan o‘yma terrakotlar, mayolik va mozaik qoplama bezaklarining parchalari keng miqyosda ko‘rsatilgan. Bular orasida Samarqanddagi Ulug`bek madrasasining mozaik pannosi (XV asr), Buxorodagi Gazayon masjidining mozaik panjarasi (XVI asr), Bazari Gusfand masjidini bezagan mayolik panno va timpanlar (XVII asr boshi) ajralib turadi. Me’morchilik dekori, kashtachilik, misdan zarb qilingan buyumlar, xattotlik san’ati anjomlari va uning nusxalari (qo‘lyozma kitoblar, qit’a ustidagi xattotlik yozuvlar va h.k.)dan iborat bo‘lgan g`oyatda noyob kolleksiyalar muzeyda jamlangan. Muzey eksponatining yarmidan ko‘pi an’anaviy dekorativ-amaliy san’ati kolleksiyasini tashkil etadi. Unga yog`ochga rasm solish va o‘yib naqshlash, ganch, badiiy kulolchilik, misni zarb qilish, zargarlik san’ati, gilamlar, gazlamalar, kashtachilik va xattotlik san’ati namunalari kiritilgan. Yaqinda Amerikada ijodiy safarda bo’lib qaytgan rassom bu davlat hayotiga doir 40 dan oshiq asarlar yaratganini aytadi. Isfandiyor Haydarov Luvrdan joy olishga muyassar bo’lgan sanoqli rassomlardan biri deyish mumkin. “Oltin kuz” asari muzeydan joy olishi tarixida siyosat ham, san’at ham uyg’unlashib ketgan. Bu asar Islom Karimov tomonidan

Farnsiyaning o'sha paytdagi prezidenti marhum Fransua Mitteranga sovg'a qilingan. Surat O'zbekiston prezidetining Fransiyaga qilgan dastlabki rasmiy tashrifi doirasida sovg'a qilinganmi, yoki boshqa bir vaziyatda, bu noaniq. Isfandiyor Karimov bilan uchrashuvlari 1994-yilda o'tganini aytadi. Bu inobatga olinsa, Fransiya tomonidan O'zbekistonga 1994-yilda qilingan dastlabki oliy darajadagi tashrif nazarda tutilayotgani ayon. Isfandiyorning xotirlashicha, Karimov bilan uchrashuv tashabbuskori prezidentning o'zi bo'lgan. O'zbek rassomlari albomini ko'zdan kechirgan Karimovga Isfandiyorning asarlari yoqib qoladi va rassomni suhbatga taklif qiladi. Karimov saroyida o'tgan uchrashuvda Isfandiyor prezidentga ikkita asar sovg'a qiladi. Bu asarlardan biri prezidentning o'zida qoladi, ikkinchisini rasmiy tashrifga hozirlanayotgan Karimov Fransiya prezidentiga sovg'a qilishini aytadi. Parijda san'atshunoslarning olqishlarga sazavor bo'lgan "Oltin kuz"ga esa oqibatda Luvr muzeyi xaridor chiqadi. "Bunda davlat arbobi, Fransiyaning o'sha paytdagi prezidenti Mitteran janoblarining xizmatlari katta, albatta. Mitteran tasviriy san'atning shaydosi edi, asar unga juda yoqqan. Bu voqea 1994-yillarda bo'lgan, Luvr muzeyidan O'zbekistonga katta sarmoya ham kelgan edi. Lekin, afsus, hozirgacha men muallif sifatida bu pulni ololmadim. Xullas, bu ishim zamona zayli bilan Fransiyaga bordi, Luvr muzeyiga munosib ko'rildi. Tajribada esa bu muzey hali hayot bo'lgan rassomlardan ish sotib olmagan", - deb eslaydi rassom Isfandiyor. Isfandiyor Karimov bilan o'tgan uchrashuvini iliq xotirlaydi. Bu uchrashuvdan so'ng rassom hayotida ham burilishlar bo'ladi, u ancha yillar Turkiyada yashab ijod qildi. O'zbek rassomchiligiga doxil ko'plab ko'rgazmalar o'tkazdi. Bir necha yillar avval O'zbekistonga qaytgan rassom ijodiy faoliyatini yana Toshkentda davom ettirmoqda. Yaqinda u AQShda bo'lib qaytdi. To'rt oylik safar davomida amerikalik rassomlar ijodi bilan bevosita tanishgan, yangi asarlar yaratgan. Rassomni Amerikaga doir asarlari orasida AQSh prezidenti Jorj Bushning portreti ham bor. "Amerikada ko'rgazma o'tkazish rejasi ancha yillardan buyon bor edi. Anqaradagi ko'rgazmalarimda ishtirok etgan amerikalik san'atshunoslar menga shunday taklif bilan chiqishgan edi. Amerika hayotiga oid ishlagan 40 qa yaqin suratlarimni olib borgan edim. Ular ichida AQSh prezidenti Jorj Bushning ham portreti bor. Amerikaga borgach, ishni nimadan boshlash kerak, qanday qilib ko'rgazma tashkil qilish kerak, hech narsa bilmasdim. Maslahatlashib Jorj Bushning portretini Bush nomidagi muzeyga ham jo'natdik, ish juda yoqqani haqida javob ham oldik. Noyabrda viza muddati tugadi, shuning uchun ko'rgazma o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlarni oxirigacha yetkaza olmadim. Men amerikalik rassomlarning ishlari bilan tanishdim, ko'proq modern usulida ijod qiluvchi, o'ziga xos rassomlar. Bizdagi maktab esa asosan rus Yevropa tasviriy san'ati asosida shakllangan", - deydi rassom.

O'zbek rassomchilik maktabining iste'dodli vakili Isfandiyor ayniqsa yurt tabiati mahorat bilan aks ettirilgan peyzajlari bilan tanilgan. Isfandiyorning Luvr muzeyidan joy olgan ishida ham O'zbekistondagi kuz tasvirlangan. Rassom

Turkiyadagi uzoq yillik faoliyatidan so'ng o'z ijodini yana O'zbekistonda davom ettirish qarorida.




**3 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**– KEYS – STADI**

## O'qitishning keys – texnologiyasi

### 4.3.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.** |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. 1920 – 1930 yillarda o'zbek grafika san'atida tur va janrlarning kengayishi.Bezak va illyustrasiya ishlari.<br>2. O'zbek portret san'atining shakllanishi va rivojlanishi. A. Siddiqiy, O'ral Tansiqboyev, keyinroq Bahrom Hamdamiy, Latif Nasriddinov |

| | |
|---|---|
| | va Sh.Hasanova kabi mahalliy rassomlarning faoliyati.<br><br>3. Avtoportpetlarning keng ko'lamda ishlanishi. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Sovet mustabid tuzumi davrida O’zbekiston madaniyati va san’ati. O’zbek madaniyati va san’atida badiiy hayot to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * 1920 – 1930 yillarda o’zbek grafika san’atida tur va janrlarning kengayishi, hamda bezak va illyustrasiya ishlari haqida tushuncha beradi.<br><br>* O’zbek portret san’atining shakllanishi va rivojlanishi. A. Siddiqiy, O'ral Tansiqboyev, keyinroq Bahrom Hamdamiy, Latif Nasriddinov va Sh.Hasanova kabi mahalliy rassomlarning faoliyati to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>* Avtoportpetlarning keng ko'lamda ishlanishini izohlaydi. | * 1920 – 1930 yillarda o’zbek grafika san’atida tur va janrlarning kengayish, bezak va illyustrasiya ishlari haqida bilganlarini gapirib beradilar.<br><br>* O’zbek portret san’atining shakllanishi va rivojlanishi. A. Siddiqiy, O'ral Tansiqboyev, keyinroq Bahrom Hamdamiy, Latif Nasriddinov va Sh.Hasanova kabi mahalliy rassomlarning faoliyatini o'rganib, savollarga javob beradilar .<br><br>* Avtoportpetlarning keng ko'lamda ishlanishini tahlil qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |

| | |
|---|---|
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 4.3.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. 1920 – 1930 yillarda o'zbek grafika san'atida tur va janrlar qay tarzda kengaygan?.<br>2. Bezak va illyustrasiya ishlari to'g'risida nimalarni bilasiz?.<br>3. O'zbek portret san'atining shakllanishi va rivojlanishi. A. Siddiqiy, O'ral Tansiqboyev, keyinroq Bahrom Hamdamiy, Latif Nasriddinov va Sh.Hasanova kabi mahalliy rassomlarning faoliyati to'g'risida gapirib bering?. | Savollarga javob beradi. |
| III- | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi | Savollarga |

| | | |
|---|---|---|
| bosqich.<br>Ya kuniy bosqich.<br>(10 minut) | xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

## 4 – mashg'ulot: 2 – soat

### Reja:

1. Ikkinchi jahon urushi yillarida san’at.Ilmiy tadqiqot ishlari, arxeologik ekspeditsiya faoliyatlari.

2. Baraxsha va Afrosiyobda arxeologik ishlar olib borilishi. Kino san’ati.

3. Me’morchilikda yangi texnologiyalarning yaratilishi. Kurant binolarining qurilishi.

**VARAXSHA** — Qadimgi shahar xarobasi. Buxorodan 40 km shimoli-g‘arbda, Dashti Urganji ko‘lining qadimgi Ranjfandun vohasida joylashgan. Varaxsha maydoni 9 ga va balandligi 10-20 metrli ulkan tepa shaklida saqlangan. Arxeologik qazishmalardan ma’lum bo‘lishicha, Varaxsha mil. avv. II asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istehkomli qishloqlar tarzida qad ko‘targan. Varaxsha xarobalarining shimoli-g‘arbida qadimgi qo‘rg‘onlardan birining tashqi devori hamda yarim doira shaklidagi burji (ichki sahni 4,5x5 m) kavlab o‘rganilgan. Devor (qalinligi 1,8-1,9 m) xom g‘ishtdan (hajmi 37x41x10 sm) qurilgan. Devor va burjlarida paykonsimon nishon tuynuklari (ichki tomoni 38-40 sm, tashqarisi 75-80 sm, kengligi 20-22 sm) ochilgan. Mil. avv. II-I asrlarda va milodiy I-II asrlarda Varaxsha va uning atrofida madaniy hayot gullagan. III-IV asrlarda Varaxsha tanazzulga yuz tutgan. V asrda Varaxsha yana

tiklanib Buxoroning qadimgi hukmdorlari — buxorxudotlarning qarorgohiga aylangan. Shu davrda Varaxsha mustahkam devor bilan oʻralgan, uning janubiy qismida ark qurilgan. VIII-X asrlarda ayniqsa obod boʻlgan. Varaxsha va uning atroflari oʻnikki kanal bilan sugʻorilib, Rajfandun vohasidagi eng yirik va markaziy qal’alardan biriga aylangan. Buxoro va Xorazm oraligʻidagi karvon yoʻli Varaxsha orqali oʻtgan (Istaxriy va Ibn Havqal ma’lumotlari). Har oʻn besh Buxorxudotlar qarorgohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. Har oʻn besh kunda Varaxshada bir kunlik, yil oxirida 20 kunlik bozor sayli (navroʻzi kashovarzon, ya’ni dehqonlar yangi yili) oʻtkazilgan (Narshaxiy). Buxorxudotlar qarorgohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. XI-XII asrlarda uning hududi eniga 6 km dan ziyod boʻlgan. XII asrda Varaxsha vohasidagi hayot toʻsatdan noma’lum sabablarga koʻra toʻxtab qolgan. 1949-1954-yillarda Varaxsha tarixi va me’morligi oʻrganildi. Kvadrat shakldagi yirik xom gʻishtlardan koʻshminora tarzida oʻrab chiqilgan tagkursi (balandligi 15 m) larning biriga podsho saroyi va ikkinchisiga soqchixonali darvozaxona bino qilingan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yoʻlaksimon (navkarxona va darvozaxona) xonalar mavjud boʻlgan. Arkning markazida janubiy tomoni mudofaa devoriga yondoshgan Varaxsha hukmdorining saroyi joylashgan. U Sharqiy (11,5 x 17 m) va Gʻarbiy (6,6x7,25 m) mehmonxona hamda Qizil xona (zal) (8,5x12 m) lardan iborat boʻlgan. Saroy gʻarb tomonidan 3 ravoqli ganchkori ustunlar oʻrnatilgan hashamatli peshayvon bilan oʻralgan. Ayvon ravoqlarining ustunlari va toqilari ganchkori qabartma tasvirlar hamda turli xil girihlar bilan bezatilgan. Saroyning Qizil xona va Sharqiy mehmonxonalari toʻla kavlab ochilgan. Xona devorlari mayda somonli loy suvoq ustidan yupqa ganch suvoq qilinib, devoriy rasmlar qizil, sariq, kulrang, qora, zangori, pushti va jigarrang boʻyoqlar bilan bezatilgan. Ularda turli xil manzaralar, fil mingan shahzoda va chokarlarning old va ortdan chovut solgan qoplonlar bilan olishuvi; qayrilib nishonga kamondan oʻq uzayotgan ot ustidagi chavandoz, qanotli tuya shaklidagi oltin taxtda oʻtirgan hukmdor tasvirlangan. Sharqiy mehmoxona devorida tiz choʻkib, qoʻlida qadah tutgan malika, belida shamshir, bir qoʻlida qisqich ushlagan podshoh, oʻrtada vazasimon otashgohda yonib turgan muqaddas olov-azarxurro, otashgohdan oʻngda beliga xanjar taqilgan shahzodaning tiz choʻkib ibodat qilayotgan tasviri yoki sovut va dubulgʻa kiygan, qoʻllarida nayza, qalqon ushlagan suvoriylarning jang qilayotgan, shuningdek butazor, toʻqay ichidagi ov manzarasi kabi tasvirlar ayniqsa diqqatga sazovordir. Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori naqshlar bilan bezatilgan ekan. Koʻplab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida hovuzda suzib yurgan baliqlar, yerlkasidan oʻq yegan arxar, yelib borayotgan jayran, bedanalar, ayol boshli baxt qushi — Humo, hamlaga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bogʻlagan suvoriy hamda koʻpdan koʻp ayollarning bosh qismlari bilan bir qatorda turli xil islimiy va girih parchalari uchraydi

Varaxsha saroyi xonalarining birida taxtda o‘tirgan shohning qabul marosimi aks ettirilgan rangli devor saqlanib qolgan. Boshqa xonada fil mingan jangchi tasvirlangan. Ular o‘z qurollari yordamida yo‘lbars, qoplon va boshqa noma’lum afsonaviy hayvonlarni halok qilishmoqda.



VARAXSHA. SAROY DEVORIDAGI RANGLI SURATLAR. VII ASR



VARAXSHA SAROYI.. ICHKI XOVLI

Barcha shaharlar harbiy burjlarga va mustahkam mudofaa devorlariga ega edi. Devorlar poydevor ustiga qurilib, ularning balandligi bir necha metrdan oshardi. Shaharlarda hukmdor qarorgohi - saroy, uy-joy mavzelari, savdo maydonlari va hunarmandlar ustaxonalari joylashgan edi.

Shahar darvozasidan bozor, ibodatxona va saroyga eltuvchi markaziy ko‘cha boshlanadi. Ko‘chalar turarjoy mavzelarini o‘zaro ajratib, ularning eni 3-5 metrni tashkil qilgan. Ko‘cha yoqalarida hunarmandlar ustaxonalari va savdo rastalari joylashgan. Shaharliklar bir va ikki qavatli uylarda yashaganlar. Uylar uncha katta bo‘lmagan ichki hovli va uzumzorlarga ega bo‘lgan. Uylarga suv sopol quvurlar orqali olib kirilgan. Shahar qurilishlari tizimida ibodatxona binolari hamda saroylar alohida ajralib turgan. Ular baland va mustahkam asos - poydevor ustida paxsa va xom g‘ishtdan qad ko‘targan. Ibodatxona va saroylar shaharning boshqa inshootlariga nisbatan ancha salobatli bo‘lgan.

Buxoro hukmdorlarning Varaxshadagi saroyi shunday inshootlar jumlasidandir. U V asrda barpo qilingan va undan VIII asrga qadar foydalanilgan. Saroy hashamatli zallardan iborat bo‘lgan. Butun saroy hududining sahniga pishiq g‘isht yotqizib chiqilgan. Saroy tevarak atrofdan 30 metr balandlikda savlat to‘kib turgan. U olis masofalardan yo‘lovchilar ko‘ziga tashlanib turgan.

## ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

Tarix shunday ko'zguki, u millat va xalq o'tmishi, madaniyati, tamadduni darajasini ko'rsatadi. Asrlar davomida rivoj topgan madaniy markazlar, shaharlarning arxeologik topilmalari vaqti kelib, avlodlarga uzoq o'tmishdan so'zlaydi.

Buxoroning Varaxsha vohasida antik davrga taalluqli bir necha madaniy markazlar mavjud bo'lgan. O'z davrida qal’a-qo'rg'on sifatida faoliyat ko'rsatgan "Uch kulox" manzili ana shunday arxeologik inshootlardan bo'lib, bu yerda antik davrdan boshlab XII asrga taalluqli mehnat qurollari va sopol buyumlarni uchratish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining bir guruh olimlari Italiyaning Rim universiteti tadqiqotchilari bilan hamkorlikda 11 yil davomida olib borayotgan izlanishlari natijasida "Uch kulox" manzilining 3,5 ming yillik tarixidan so'zlovchi zarur ma’lumotlar olindi. Qal’a hududida milodiy IV-V asrlarda davlat shakllangan, V-VIII asrlarda esa "Uch kulox"da savdo-sotiq, madaniyat va san’at gullab-yashnagan. Inshootning asosini mahobatli ilk o'rta asr qal’asi va sharq tomondan unga tutash qishloq tashkil qiladi. Manzilning dastlabki tuproq qavatlarini o'rganishda topilgan manbalar XII asrga taalluqli bo'lsa, qal’a qatlamlarini yanada chuqurroq o'rganish natijasida bronza davriga tegishli toshdan yasalgan mehnat qurollari topildi.

- Biz o'rganayotgan manzil ilm ahli uchun juda qadrli. Bu yerda ham qal’a, ham uning atrofida mavjud qishloq hududida kechgan hayotni bir vaqtning o'zida kuzatish mumkin, - deydi tadqiqotchi Silviya Antonini. - Undagi mahobatli qal’a IV asrda barpo etilgan. "Uch kulox" me’morchiligini

uchburchak ostida joylashgan qudratli burjlar, shaxmatsimon tartibda joylashgan ustunlar bilan izohlash mumkin. O'sha davrdayoq, me’morchilik tushunchalari va qarashlari, o'zining me’yorlari bo'lganligi, asosiysi qurilish ishlari puxtalik bilan olib borilgani sababli, biz qiynalmasdan devorlarning aniq chiziqlari va hatto ularda ishlangan suratlarni topishga muvaffaq bo'ldik.

MA’LUMOTLARGA KO'RA...

Arxeologlarning fikricha, bu yerda yashagan aholi ko'chmanchilik yoki chorvachilik bilan emas, o'troq turmush tarzini kechirib, aynan dehqonchilik, ziroatchilik bilan shug'ullangan.

Qal’a mustahkam istehkom sifatida qurilgan. Unda chokarlar, ya’ni qal’ani qo'riqlovchi askarlar uchun alohida joylar mavjud. Shuningdek, qal’a-qo'rg'onda alohida oshxona, ustaxona, hammom, taomxona kabi xonalarni arxeologlar alohida qiziqish bilan o'rganmoqdalar.

Hunarmandchilikning dastlabki ko'rinishlaridan bo'lgan kulolchilik, temirchilikka oid topilmalar - ayol ma’budalari va xumlar, ko'zalar shundan darak beradiki, ustalar yuqori haroratda temirni eritish va loyni pishirish mahoratiga ega bo'lishgan.

- Hozirgina yer qatlamidan olingan bo'lak katta xumga tegishli bo'lib, odatda, hajmi 200-300 litrli bunday xumlarda yog' yoki bug'doy saqlangan. Bo'lakning o'ziga xos xususiyati - unda maxsus tamg'ani uchratish mumkin, - deydi qadimshunos Gennadiy Ivanov. - Bu borada hozircha ikki xil taxmin bor. Birinchisi, tamg'aning xum idish pishirilmasdan turib qilinganidan kelib chiqadigan bo'lsak, u xumni yasagan ustaga emas, buyurtmachiga tegishli. Ikkinchisi, qal’ada o'ziga to'q dehqon yashagan va u qo'l ostidagi hududlardan soliqlar yig'ib turgan. Xumdagi belgilar orqali esa ma’lum bir hududlardan olingan soliqlar, yig'imlar belgilangan bo'lishi mumkin.

Olimlar qal’a-qo'rg'onda quduqlar va turli chiqindilarni tashlashga mo'ljallangan quvurlar, ya’ni "badrab"larni ham alohida qiziqish bilan o'rganmoqdalar. Shaharda madaniyat naqadar yuksak bo'lganini o'rganishda bu qurilmalar va unda ko'plab idishlar, kundalik turmushda ishlatilgan buyumlarning topilishi yangi ma’lumotlar to'plashda qo'l kelmoqda.

ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Varaxsha hududida shunga o'xshash saksondan ortiq tepalik mavjud bo'lib, ularning har birida nafaqat o'lkamiz tarixi, balki insoniyat tamadduniga oid eng noyob va nodir ma’lumotlarni olish mumkin. Bugun bu yerdagi izlanishlar dunyoning yetakchi arxeolog-olimlari tomonidan e’tirof etilayotgani ham bejiz emas, albatta.

Bu yerda mavjud xarobalarning saqlanib qolgan balandligi yer sathiga nisbatan sakkiz metrga teng bo'lib, har bir davrga tegishli madaniy qatlamlar gorizontal emas, tik, ya'ni qavat-qavat tartibda joylashgani tadqiqot ishlarining samarali va muntazam olib borilishini ta'minlamoqda. Bu bir tomondan har bir davrga taalluqli ma'lumotlarni to'plash ishlarini osonlashtirsa, ikkinchi tomondan arxeologlarning "Uch kulox" manzilida dastlabki odamlar qachondan boshlab yashaganini o'rganishlari uchun yordam beradi. Madaniy qatlamlar yonma-yon bo'lsa, unda bu maskan ma'lum bir asrlardagina gullab-yashnagan deyish mumkin bo'lardi, ammo bu yerda madaniyat uzoq vaqt davomida bir xil rivojlangan, bir necha asrlar davomida qal'a Buyuk Ipak yo'li orqali o'tuvchi savdogarlarga ham xizmat ko'rsatgan.

- Shu paytgacha, bu yerda odamlar III-IV asrlardan boshlab yashagan degan fikrda edik, - deydi arxeologiya guruhi rahbari Franka Filipponi. - Aynan shu yilgi tadqiqotlar natijasida aniqlangan madaniy qatlamlardan tashqari tuproq qavatlari ostida avvalroq davrga tegishli qatlamlar borligi ma'lum bo'ldi. Qazuv ishlari natijasida madaniy qatlamlar IV asr va undan oldinroqqa tegishliligi aniqlandi. Lekin hali o'rganilmagan qatlamlar chuqurligi bir necha metrni tashkil etadi. Bu esa "Uch kulox" tepaligi va uning atrofidagi hududlarda ilk odamlar ancha oldin yashaganidan darak beradi.

Bu manzildan topilgan muhim moddiy-madaniy namunalar Buxoro davlat muzey qo'riqxonasining arxeologiya bo'limi ko'rgazmalar zalida saqlanyapti. Topilmalar orasida sopol buyumlar, haykalchalar, tangalar, muhrlar, turli xildagi taqinchoqlar va tugmalar bor.

- Buxoroda ikkita guruh ishlamoqda, - deydi Buxoro davlat muzeyi qo'riqxonasi arxeologiya bo'limi boshlig'i Yulduz Hamroyeva. - Birinchi guruh Paykent xarobalarida ish olib borsa, ikkinchi guruh "Uch kulox"da tadqiqot ishlarini amalga oshirayapti. Har yili bu yerda ish olib borayotgan guruh tomonidan muzeyimizga 300-400 ga yaqin juda qimmatli eksponatlar topshirilmoqda. Ularning ko'pchiligi muzeyimiz ko'rgazmalaridan o'rin oldi. Qolaversa, arxeologiya fondimizda mingdan ziyod topilmalar mavjud. Ularni ham yaqin kelajakda to'liq o'rganib, xalqimizga taqdim etish niyatimiz bor.

Bu manbalar tarix zarvaraqlaridan o'rin olishi uchun yana bir oz vaqt talab etiladi. Ammo, shunisi aniqki, "Uch kulox" va unga o'xshash arxeologiya manzillaridan topilgan manbalar orqali o'tmishning ilk o'rta asrlar va o'rta asrlarga oid tarixi yanada oydinlashadi.

Muzeyning arxeologiya fondini nafaqat xalqimiz, balki insoniyat tarixini o'rganishdagi eng muhim manbalar to'plangan xazinaga o'xshatish mumkin. Chindan ham yurtimiz madaniyati, san'ati, ilm-fanining taraqqiyot ildizlari shu qadar chuqurki, ularni o'rganishda arxeologik izlanishlar ham muhim samara bermoqda.

1932 -yili mahalliy cho‘pon *Panjikent* yaqinidagi Mug‘ tog‘idan kutilmaganda o‘rab boylangan savat va noma’lum yozuvlar bitilgan ipak qog‘oz varaqlarini topib oladi. Mug‘ tog‘idagi qal’ada olib borilgan qazishmalar Panjikent hokimi *Devashtich* arxivining VII-VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin hujjatlarini topish imkonini berdi. So‘g‘d hujjatlari ilk o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘ldi. Jumladan, ular ijtimoiy-iqtisodiy munosbatlar tarixi hamda So‘g‘d zodagonlari va taniqli kishilari hayotiga oid muhim ma’lumotlarga ega.

Mug‘ hujjatlarida saroy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi davlat amaldorlari va xodimlari orasida xo‘jalik boshlig‘i - *framandor*dan tashqari *bosh kosagul,bosh bog‘bon, bosh kohin, bosh tabib* va *soliq yig‘uvchilar* ham qayd qilingan.

Yirik dehqonlarning Xorazm, So‘g‘d va Toharistondan topib tekshirilgan uy-qo‘rg‘onlari burjli mudofaa devorlari va kamondan o‘q otishga mo‘ljallangan shinaklariga ega bo‘lgan. Qo‘rg‘onga kirish joyining ro‘parasiga o‘rnatilgan xabar beruvchi qo‘riqlov minorasi oldidagi suv to‘ldirilgan xandaq tepasiga o‘rnatilgan ko‘tarma ko‘prik orqaligina o‘tish mumkin bo‘lgan. Qo‘rg‘onlarni nayza bilan qurollangan jangchilar qo‘riqlab turgan. Tahlikali xabar bo‘lganda jangchilar devor va burjlardagi o‘z o‘rinlariga shoshilganlar. Dushmanlar qasrga kirish uchun xandaqni ko‘mishlari, darvozani buzishlari lozim bo‘lgan. Qasr himoyachilari devordan turib ularning boshiga tosh uloqtirganlar, qaynoq suv quyganlar, nayza, yoy o‘qlarini yog‘dirganlar.

Shahar hukmdorlarining boy va keng uylari hamda hashamatli saroylari bo‘lgan. Buxoro hukmdorlarining ko‘hna *Varaxsha* shahridan ochib o‘rganilgan saroyi shu taxlitda bo‘lgan. Uning qabulxonasi devoriy tasvirlar bilan ziynatlangan.

Varaxsha va Surxon vohasidagi *Bolaliktepa* manzaralarida boy kiyimdagi, qo‘lida qilich, xanjar va qadah ushlab turgan erkaklar qiyofasi aks ettirilgan. Ular xotirjam ziyofat ustida, yumshoq so‘rilarda yonboshlagan holatda yoki shirin suhbat qurayotgan qiyofada tavsirlangan. Ularning ko‘pchiligining hayotida ziyofatlar, ov va harbiy bellashuvlar muhim o‘rin tutgan.

**Varaxsha** — qadimiy shahar xarobasi. Buxorodan 40 km shimoliy-g`arbda, Dashti Urganji ko`lining qadimiy Rajfandun vohasida joylashgan. Varaxsha maydoni 9 ga va balandligi 10—20 metrli ulkan tepa shaklida saqlangan.

### *Tarixi*

Varaxsha va uning atrofida V. A. Shishkin (1937-39, 1947-54) keng ko`lamda arxeologik tadqiqotlar olib borgan; A. Muhammadjonov (1975—77), O. V. Obelchenko (1977—79), G. V. Shishkina (1987—90) ham Varaxshaning ayrim

qismlarida qazishmalar olib borishgan. Arxeologik qazishmalardan ma`lum bo`lishicha, Varaxsha mil. av. 2-asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istehkomli qishloqlar tarzida qad ko`targan.

Varaxsha harobalarining shimoliy g`arbida qadimiy qo`rg`onlardan birining tashqi devori hamda yarim doira shakldagi ichki sahni 4,5×5 metrli burji kavlab o`rganilgan. Devorning qalinligi 1,8—1,9 m va hajmi 37×41×10 sm bo`lib xom g`ishtdan qurilgan. Devor va burjlarida ichki tomoni 38—40 sm, tashqarisi 75—80 sm, kengligi 20—22 sm bo`lgan paykonsimon nishon tuynuklari ochilgan.

Mil. av. 2—1-asrlarda va mil. 1—2 asrlarda Varaxsha va uning atrofida madaniy hayot gullagan. 3—4-asrlarda Varaxsha tanazzulga uchragan. 5-asrda Varaxsha yana tiklanib Buxoroning qadimiy hukmdorlari — buxorxudotlarnint qarorgohiga aylangan. Shu davrda Varaxsha mustahkam devor bilan o`ralgan, uning janubiy qismida ark qurilgan. 8—10-asrlarda ayniqsa obod bo`lgan. Varaxsha va uning atroflari 12 kanal bilan sug`orilib, Rajfandun vohasidagi eng yirik va markaziy qal`alardan biriga aylangan.

Buxoro va Xorazm oralig`idagi karvon yo`li Varaxsha orqali o`tgan[1]. Har o`n besh kunda Varaxshada bir kunlik, yil oxirida 20 kunlik bozor sayli (navro`zi kasho varzon, ya`ni dehqonlar yangi yili) o`tkazilgan[2]. Buxorxudotlar qarorgohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. 11—12-asrlarda uning hududi eniga 6 km dan ziyod bo`lgan. 12-asrda Varaxsha vohasidagi hayot to`satdan noma`lum sabablarga ko`ra to`xtab qolgan.

### *Me`morligi va san`ati*

1949—54 yillarda Varaxsha tarixi va me`morligi o`rganildi. Kvadrat shakldagi yirik xom g`ishtlardan qo`shminora tarzida o`rab chiqilgan balandligi 15 m bo`lgan tagkursilarning biriga podsho saroyi va ikkinchisiga soqchixonali darvozaxona bino qilingan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo`laksimon (navkarxona va darvozaxona) xonalar mavjud bo`lgan.

Arkning markazida janub tomoni mudofaa devoriga yondoshgan Varaxsha hukmdorining saroyi joylashgan. U Sharqiy (11,5×17 m) va G`arbiy (6,6×7,25 m) mehmonxona hamda Qizil xona (zal) (8,5×12 m) lardan iborat bo`lgan. Saroy g`arb tomonidan 3 ravoqli ganchkori ustunlar o`rnatilgan hashamatli peshayvon bilan o`ralgan. Ayvon ravoqlarining ustunlari va toqilari ganchkori qabartma tasvirlar hamda turli xil girixlar bilan bezatilgan.

Saroyning Kizil xona va Sharqiy mehmonxonalari to`la kavlab ochilgan. Xona devorlari mayda somonli loy suvoq ustidan yupqa ganch suvoq qilinib, devoriy rasmlar qizil, sariq, kulrang, qora, zangori, pushti va jigarrang bo`yoqlar bilan

bezatilgan. Ularda turli xil manzaralar, fil mingan shahzoda va chokarlarning old va ortdan chovut solgan qoplonlar bilan olishuvi; qayrilib nishonga kamondan o`q uzayotgan ot ustidagi chavandoz, qanotli tuya shaklidagi oltin taxtda o`tirgan hukmdor tasvirlangan. Sharqiy mehmonxona devorida tiz cho`kib, qo`lida qadah tutgan malika, belida shamshir, bir qo`lida qisqich ushlagan podshoh, o`rtada vazasimom otashgoxda yonib turgan muqaddas olov-azarxurro, otashgoxdan o`ngda beliga xanjar taqilgan shahzodaning tiz cho`kib ibodat qilayotgan tasviri yoki sovut va dubulg`a kiygan, qo`llarida nayza, qalqon ushlagan suvoriylarning jang qilayotgan, shuningdek butazor, to`qay ichidagi ov manzarasi kabi tasvirlar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori naqshlar bilan bezatilgan ekan. Ko`plab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida hovuzda suzib yurgan baliqlar, yelkasidan o`q yegan arhar, yelib borayotgan jayran, bedanalar, ayol boshli baxt qushi — Humo, hamlaga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bog`lagan suvoriy hamda ko`pdan-ko`p ayollarning bosh qismlari bilan bir qatorda turli xil islimiy va girih parchalari uchraydi.

**Afrosiyob** — Samarqandning qadimgi xarobasi. Bu nom tarixiy manbalarda qadimgi Samarqandga nisbatan faqat 17-asrdan boshlab uchraydi. Qadimgi Samarqand sug`d manbalarida Smarakanve deb atalgan. Mil. av. 4-asrda Samarqand Aleksandr Maqsuniy qo`shinlari tomonidan istilo etilgach, yunon mualliflari kundaliklarida Maroqanda sifatida eslatiladi. Maroqanda Smarakanve ning yunoncha tarjimasi. Movarounnahrda somoniylar hokimiyat tepasiga kelgach, qadimgi Smarakanve 9-asrdan boshlab Samarqand deb atala boshlandi.

### *Tarixi*

11 — 15-asrlarda turkiy tilda bitilgan adabiyotlarda Samarqand Semizkent sifatida uchraydi. 15 — asrdan forsiy va turkiy tillardagi manbalarda bir xilda Samarqand nomi ishlatiladigan bo`ldi.

Afrosiyob hozirgi Samarqandning shim. chegarasiga tutashgan keng bo`sh tepaliklar bo`lib, uning maydoni 219 ga. Tepalikning shim. Siyob arig`i bilan chegaralangan. Jan. tomondan „eski shahar“ deb atalgan Samarqandga qo`shilib ketgan. Shaharning dastlabki tarixi haqida yozma manbalarda ma`lumotlar juda kam uchraydi. Ko`hna shaharda o`tkazilgan arxeologik qazishlar esa bunday ma`lumotlarni ko`proq bermoqda.

Arxeologik qazishmalar bir necha metr qalinlikdagi madaniy qatlamlar qanday bo`lganligini ko`rishga, boylar va kambag`allarning uylarini, hunarmandlarning ustaxonalarini, savdogarlarning do`konlarini, kucha va maydonlarni, shohona

saroylar va ibodatxona, masjid va madrasalarni, mudofaa inshootlarini, shaharning suv bilan ta`minlash tizimi va h.k.ni aniqlashga yordam beradi.

Afrosiyob va uning topilmalariga qiziqish 1868 yilda Chor Rossiyasi tomonidan Samarqand bosib olingandan keyin boshlandi. Afrosiyobda dastlabki qazish ishlari bilan mayor Borzenkov (1874), podpolkovnik V. V. Krestovskiy (1883), sharqshunos olimlar N. I. Veselovskiy (1884-85, 1895), V. V. Bartold (1904) va V. L. Vyatkin (1905; 1912— 13)lar shug`ullanishdi. 1919 yilda M. YE. Masson, V. L. Vyatkin tadqiqot boshlagan joylarda qazish ishlarini davom ettirib, somoniylar saroyi (9-asr) xarobalarini ochdi. 1925, 1929—30 ylarda V. L. Vyatkin Afrosiyobda qazish ishlarini davom ettiradi va uning turli davrdagi tarixiga oid ko`plab materiallar to`playdi. Ammo 1930 yillarga qadar Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimgi Samarqand tarixiga doir juda kam materiallar bergan. Urushdan keyin O`zbekiston FAning Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan Afrosiyob I. Terenojkin tomonidan Afrosiyobda jiddiy dala tadqiqotlari o`tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamidan miloddan avvalgi 6—5-asrlarga taalluqli buyumlar, uy-joy xarobalari topildi. V. Afrosiyob Shishkin (1958-66) va Ya. F. G`ulomov (1967—70)lar rahbarligida olib borilgan keng ko`lamli arxeologik qazishlar natijasida qadimgi madaniy qatlam materiallari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966 yil 13 iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o`rganishni tashkil etish maqsadida Respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko`ra, Afrosiyob „arxeologik qo`riqxona“ deb e`lon qilinib, uni o`rganish ishiga Toshkent va Samarqand davlat universitetlari hamda Madaniyat vazirligining San`atshunoslik instituti ham safarbar etildi. Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko`p asrlik yoshi, balki uning har xil davrlardagi tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergan buhronlar davri aniqlandi. Samarqand yushshdlarining shohona saroyi ochildi.

Afrosiyobda topilgan arxeologik materiallar Samarqand miloddan avvalgi 8—5-alarda Sug`diyonaning markaziy shahri sifatida vujudga kelganligini ko`rsatadi. Mil. av. 329 yilda shahar Aleksandr Maqduniy qo`shinlari tomonidan vayron etilgan, uning izlari hozirgacha shahar mudofaa inshootlarida yaxshi saqlangan. Mil. av. 3 — 1-asrlarda, Kushonlar saltanati davrida shahar hayotida yuksalishlar yuz bergan. Mil. av. 3-asrda shahar qo`shaloq mudofaa devori bilan o`rab olingan. U davrlarning qalin ma-daniy qatlami Afrosiyobning shim.da, uning arki a`losi joylashgan qismida yaxshi saqlangan. Arxeologik materiallar va yozma manbalarda ta`kidlanishicha, bu zamonda Samarqand orqali Buyuk ipak Yo`li o`tgan, ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik rivoj topgan. Ilk o`rta asrlarda Samarqand Sug`diyonaning bosh shahri sifatida nufuzli mavqega ega bo`lib, shahar ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tub o`zgarishlar yuz berdi. Badavlat dehqon xo`jaliklari kuchaydi, xuddi shu kezlarda ularning qasrlari joylashgan Afrosiyobning shim. qismi mudofaa devori bilan o`rab olindi. Bu holat

Movarounnaxr va unga qo`shni viloyatlarda ham yuz berdi. Bu davrda Samarqand hukmdorlari „Ixshid“, Buxoro hukmdorlari esa „Buxorxudot“ deb atalgan. 712 yilda arablar fotixi Qutayba ibn Muslim qo`shin tortib kelganda, Samarqandning mudofaa devorlari mustahkam bo`lib, atrofida suv to`la xandaq bor edi. Qutayba Samarqanda Farg`ona, Shosh va turklardan yordamga kelgan lashkarlarni enggach, ko`maksiz qolgan Sug`d hokimi G`urak noiloj u bilan sulh tuzdi, shaharning ichki qismi (shahriston)ni arablarga bo`shatib berishga majbur bo`ldi. Arxeologik topilmalar islomga zid bo`lgan haykal va devoriy rasmlarning ataylab qilich bilan chopilganini isbotlaydi.

9-asrning ikkinchi choragidan Movarounnahrda hokimiyat somoniylar qo`liga o`tdi. Buxoro ularning markaziga aylandi. Shu davrda Samarqand iqtisodiy va madaniy jihatdan tez rivojlandi. Afrosiyobda somoniylar davrida o`ymakor ganch naqshlar bilan bezatilgan saroylar, badavlat dehqon xonadonlari, masjid va madrasalar, hammom va kanalizasiyalar, tosh ko`chalar topilmoqda. Shaharni suv bilan ta`minlash og`irligidan aholining ehtiyojini qondirish uchun shahar hayotining dastlabki yillaridayoq Darg`om tomonidan kanal qazib, suv keltirilgan. Ana shu kanal izlari hozirgi shahar xiyobonining jan.da, Alisher Navoiy haykali qad ko`tarib turgan maskanda ochib o`rganildi. Bu kanal Registon maydoni orqali Hazrati Xizr masjidi tomon yo`l olgan. Tarixiy manbalarga ko`ra Afrosiyobga jan.dan kiraverishda shahar xandaqi ustiga pishiq g`ishtlardan ravoqli suvay-irg`ich qurilib, uning tepasidan katta ariq o`tkazilgan. Bu ariqni „Juyi arziz“ („Qo`rg`oshin ariq“) deb ataganlar. Ariq shu erda uchga bo`lingan va shahar oralab Siyob arig`i bo`yiga borgan.

10-asrning oxirida Movarounnahrda hokimiyat qoraxoniylar qo`liga o`tganida xam Samarqanda savdo, hunarmandchilik, shahar obodonchilik ishlari davom etadi. Shaharning hunarmandchilik qiyofasi kuchayib, zodagon dehqon qasrlari endi shahar tashqarisida, ularning dala hovlilarida markazlashadi. 1220 yilda Chingizxon qo`shinlari „Juyi arziz“ to``g`onini buzib, shaharni suvsiz qoldirdi. Shahar mudofaachilari tengsiz jangda taslim bo`ldilar. Bosqinchilar shaharning devor va darvozalarini vayron qilib saroy, masjid va madrasalarga, aholi xonadonlariga o`t qo`ydilar. Aholining katta qismi jangda qirildi, hunarmandlar Mo`g`ulistonga haydab ketildi. Shaharni so`nggi mudofaachilari Jome masjidiga yashirinib, qarshilikni davom ettirdilar. Ularning olovda yongan tanalari jang kiyimida bizgacha etib kelib, arxeologik qazish vaqtida topildi. „Qo`rg`oshin ariq“ qayta tiklanmadi. Afrosiyobda suvsiz qolgan aholi Siyobdan charxpalakda suv chiqarib, kun kurgan, so`ng aholi bora-bora Ani butunlay tashlab ketgan. Kimsasiz xarobaga aylangan qadimgi Samarqand avvallari „Hisori ko`hna“, „Qal`ai Hisor“ atalib, 17-asrdan boshlab aholi orasida „Qal`ai Afrosiyob“ yoki „Afrosiyob“ deb atala boshlangan.

Afrosiyobda qazishma ishlari ayniqsa Samarqandda O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti tashkil topgach, keng ko`lamda kuchaydi. Ya.

G`. G`ulomovdan so`ng Afrosiyobdagi arxeologik qazishmalarga G. V. Shishkina, Sh. Toshxo`jaevlar rahbarlik qildi. Keyingi yillarda (1989 yildan) Afrosiyobni arxeologik jihatdan tadqiq etish ishiga fransuz arxeologlari — Pol Bernar, Frans Grene va boshqa jalb etilgan. Fransuz arxeologik missiyasi O`zbekiston arxeologlari bilan (M. Isomiddinov va boshqalar) hamkorlikda Afrosiyobni o`rganishda qatnashmoqsa. O`zbek va fransuz olimlarining hamkorlikda olib borgan tadqiqot natijalari qadimgi Samarqand tarixiga oid qator masalalarga aniqlik kiritdi, ya`ni miloddan avvalgi 6—5-asrlarga taalluqli shahar mudofaa devorlari ostidan gu-valaqdan qurilgan yanada qadimgi devor qoldiqlari ochilib, Samarqandning yoshi miloddan avvalgi 8-asr o`rtalariga oid ekanligi isbotlaydi; shaharning arki a`lo qismidan milodiy 8-asrga oid murabba (70x70) shaklidagi Samarqand ixshidlarining mahobatli saroyi qoldikdari ochildi. Afrosiyobda arxeologik tadqiqot ishlari davom etmoqda.



Toshkent kuranti necha yillik tarixlarga guvoh bo'lib kelmoqda. Bu minora ortiqcha bezak talab etmaydi, qiyofasi esa hech bir zamonda eskirmagan. Har chorak, yarim va bir soatda zang urib turadigan mahobatli inshootni poytaxtimizning ramzi, urib turgan yuragiga qiyoslash mumkin.Kurant me'moriy inshooti dunyoning sanoqli davlatlaridagina mavjud. Xususan, Buyuk Britaniyadagi Big-Ben va bundan bir necha yil muqaddam Eronda barpo etilgan kurant soatlari mamlakatlarning o'ziga xos ramzi sanaladi. Ular orasida 1947 yil 30 aprelda qurilib, foydalanishga topshirilgan Toshkent kuranti kelib chiqish tarixi, mustahkamligi va milliy uslublari bilan alohida ajralib turadi.

Shahar me'moriy ansamblining Markaziy xiyobonidagi tarkibiy qismi bo'lgan Toshkent kurantining tarixi juda qiziq. 1947 yilda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alaba sharafiga shaharning qoq markazida g'alaba monumenti qurilishi rejalashtiriladi. Yodgorlik ikki oy ichida qurilib bitkazilib, hozirgi kurant joylashgan minora qad rostlaydi. Yodgorlik o'sha yili Toshkentda qurilgan Alisher Navoiy nomidagi teatr binosining me'morchilik usuli ta'sirida ishlanadi. Ammo, yodgorlik ochilishiga sanoqli kunlar qolganda, qurilish mutlaqo boshqacha ko'rinish kasb etadi. Kutilmaganda yodgorlik o'rniga 1947 yilning aprelida Kurant qad rostlaydi. Uning me'mori A.Muhamedshin, bezagida Usta Shirin qatnashgan.

Ma'lum bo'lishicha, Kurant soati Germaniyadan olib kelingan ekan. A.Ayzenshteyn, V.Solihov, L.Malikov, A.Xitsan, G.Streltsovlardan iborat soatsozlar brigadasi 4 tsiferblatli qilib Toshkent kurantini o'rnatishgan. Ular orasida, ayniqsa, Ayzenshteynning tashabbusini alohida ta'kidlash joiz. Aynan u tomonidan Kurant soati 1946 yilda sovg'a qilingan. Aytishlaricha, leytenant Toshkent shahrida tug'ilib o'sganligi uchun bu noyob tuhfani ona shahriga taqdim etgan.

Toshkent shahar hokimligi binolardan foydalanish departamenti birinchi o'rinbosari Temur Raxmetovning aytishicha, Kurant arxitektura jihatidan juda pishiq va mustahkam qurilgan. Uni qurishda milliy me'morlik va amaliy bezak san'ati an'analari qo'llanilgan.

- G'ozg'on marmari bilan qoplangan va jezdan ishlangan metall qismlari o'zaro uyg'unlashgan me'moriy inshoot 1948 hamda 1966 yilgi yer silkinishlariga bardosh berdi, - deydi Temur Raxmetov. - Har ikkala zilzilada ham Kurant mustahkamligini isbotlab, chiroyini yo'qotmadi. To'g'ri, 1966 yilgi tabiiy ofatdan minoradagi soat buzilgan, ammo zudlik bilan ta'mirlanib, ishga tushirilgan. Kurantning balandligi 28,7 metr. O'lchovi 4,1x4,1 metr bo'lgan minoraning ichida maxsus xona mavjud bo'lib, unda soatni yurgizadigan mexanizm bor. Mexanizm xonasiga minora ichida o'rnatilgan zinapoya orqali chiqib boriladi. Hech kuzatganmisiz, odamlar xoh transportda yoki piyoda bo'lsin, ushbu minora oldiga kelganda boshlarini ko'tarib, soatga qarashadi, keyin esa kimningdir harakati tezlashsa, birov xotirjam tin oladi. Uning har bir zangi kishini hamon sergaklik va hushyorlikka chaqiradi, hayot davom etayotganligini eslatib turadi.

*Hozir dunyodagi eng katta kurant soati Eronda joylashgan. 70 tonnalik beton poydevorga o'rnatilgan soatning umumiy og'irligi 750 kg. Diametri 15 metr, daqiqani ko'rsatuvchi mil 7,5 m.




**4 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 4.4.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| Talabalar soni: | Vaqti: 2 soat |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Ikkinchi jahon urushi yillarida san’at.Ilmiy tadqiqot ishlari, arxeologik ekspeditsiya faoliyatlari.<br>2. Baraxsha va Afrosiyobda arxeologik ishlar olib borilishi. Kino san’ati.<br>3. Me’morchilikda yangi texnologiyalarning yaratilishi. Kurant binolarining qurilishi. |

| **Mashg`ulotning maqsadi:** Sovet mustabid tuzumi davrida O’zbekiston madaniyati va san’ati. O’zbek madaniyati va san’atida badiiy hayot to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
|---|---|
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Ikkinchi jahon urushi yillari san’ati haqida tushuncha beradi.<br>* Ilmiy tadqiqot ishlari, arxeologik ekspeditsiya faoliyatlarini tushuntirib beradi.<br>* Baraxsha va Afrosiyobda arxeologik ishlar olib borilishi haqida gapirib beradi.<br>* Kino san’ati to'g'risida gapirib, foto suratlar orqali izohlaydi.<br>* Me’morchilikda yangi texnologiyalarning yaratilishi, hamda kurant binolarining qurilishi haqida tushuncha beradi. | * Ikkinchi jahon urushi yillarida san’at to'g'risida gapirib beradilar.<br>* Ilmiy tadqiqot ishlari, arxeologik ekspeditsiya faoliyatlarini o'rganib, muhokama qiladilar.<br>* Baraxsha va Afrosiyobda arxeologik ishlar olib borilishini tahlil qilib, o'rganadilar.<br>* Kino san’ati to'g'risida o'rganganlarini muhokama qiladilar.<br>* Me’morchilikda yangi texnologiyalarning yaratilishi, hamda kurant binolarining qurilishi o'rganib, tahlil qiladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

### 4.4.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Ikkinchi jahon urushi yillarida san’at.Ilmiy tadqiqot ishlari, arxeologik ekspeditsiya faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?.<br>2. Baraxsha va Afrosiyobda qanday arxeologik ishlar olib borilgan?.<br>3. Kino san’ati to'g'risida nimalarni bilasiz?.<br>4. Me’morchilikda yangi texnologiyalarning yaratilishi va kurant binolarining qurilishi to'g'risida gapirib bering?. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| (10 minut) | baholaydi. | |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**mavzu bo'yicha glossariy**

**madrasa** — oliy islom diniy ta'lim muassasasi

**mardikorlar** — yollanma mehnatchilar

**mirobboshi** — Buxoro amirligidagi suv ta'minoti boshlig`i

**mirshabboshi** — Buxoro amirligida bosh politsiyachi

**mirshablar** — Buxoro amirligidagi politsiyachilar

**5 – mavzu: Mustaqillik yillarida O’zbekiston madaniyati va san’ati. 8 – soat.**

**1 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

6. Mustaqillik yillarida O’zbekistonda madaniy hayot
7. Me’morchilik san’ati. Me’morchilikda jiddiy o’zgarishlar sodir bo’lishi.
8. "Turkiston saroyi", "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi", "Sheraton mehmonxonasi", me'moriy majmualar, "Imom Buxoriy", "Xotira va qadrlash", "Shahidlar xotirasi" va boshqa me'moriy obidalarning qurilish uslublari, ko'rinishlari.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi qo'lga kiritilgach, hayotning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'tgan qisqa vaqt ichida O''zbekistonda asrlarga tatigulik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

2002-yilda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Shaharsoz1ik» kodeksi kuchga kirdi. 2003-yilda kapital qurilish sohasida ham islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2003-yil6-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida» gi farmoni, shunga muvofiq Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari qabul qilindi va qurilish tizimi mexanizmi tubdan o'zgartirildi. Qurilish mexanizmi rivojlangan demokratik mamlakatlardagidek, toia shartnomaviy narxlarga o'tib, inshootning asosidan boshlab, uni jihozlash va ishga tushirish tanlov savdolari g'oliblari bo'lgan pudratchi tashkilotlar zimmasiga yuklatiladi. «Yagona buyurtmachi xizmati-injiniring» kompaniyalari tashkil qilindi.

Mustaqillik yillarida 135 ming ga yangi yerlar o'zlashtirildi, 1138 km dan ortiq xo'jaliklararo kanallar tortildi, 414 ta gidrotexnik inshootlar va nasos stansiyalari qurildi Hajmi 600 mln $m^3$ ni tashkil etgan Arnasoy suv ombori qurib bitkazildi. Hajmi 200 mln $m^3$ bo'lgan Rezaksaroy suv ombori bunyod etildi. Talimarjon GRES qurildi, ko'plab irrigasiya inshootlari barpo etildi. Qo'ng'irot soda zavodi qurildi. Asaka shahrida 1996-yilda O'zbekiston tarixida ilk bor «O'zDEU avto» avtomobil zavodi qurilib ishga tushirildi 1997-yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, keyinroq «Sho'rtangazkimyo» majmuasi, «Ko'kdumaloq» va «Sho'rtan» kompressor stansiyalari kabi o'nlab zamonaviy arxitekturadagi yirik sanoat korxonalari qurilib, foydalanishga topshirildi. Paxta tozalash zavodlari qurilishlari avj olib ketdi



*Qo 'ng 'irot soda zavodining umumiy ko 'rinishi*



*Milliy yo 'sinda qurilgan Yangiyo 7 paxta zavodining darvozaxonasi*

«Qobul-Farg'ona Ko LTD», «Bursel-Tashkent-Tekstil», Jizzaxda «UzEKSAYD», Jalolquduq tumanida «Oyim tekstil», Shahrixon tumanida «Anteks». Qashqadaryoda «QashTEKS», «Oqsaroyto"qimachi» singariqo'shmakorxonalar, «Baytekstidjaret» chet el korxonasi, «Alesta-Glass» sho'ba korxonasi, «Tashtekstil», «To'rtko'ltekst», «Ay Demir tekstil» va boshqa ko'plab chiroyli, ixcham to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari yaratildi. To'qimachilik, pardozlash va tikuv ishlab chiqarish korxonalaridan iborat zamonaviy to'qimachilik komplekslari barpo etildi.

Qo'shni davlat hududidan o'tgan 423 km li temir yo'li o'rniga «Navoiy-Uchquduq-Sultonuizdag-Nukus» temir yo'li (358,1 km) Amudaryo ustidagi zamonaviy ko'prigi bilan birga qurilib, 2004-yil mart oyida foydalanishga topshirildi.



*Amudaryo ustida barpo etilgan zamonaviy ko'prik*

Yangi zamonaviy temir yo'l qurilishi tufayli respublika ichida yuk tashish harajatlari hisobidan yiliga 20 mln AQSh dolloridan ortiq, xalqaro yuk tashish inobatga olinadigan bo'lsa, 36 mln AQSh dolloridan ortiq mablag' tejalib qolinmoqda. «Uchquduq-Misken-Sultonuizdag» temir yo'l tarmog'ida milliy va zamonaviy me'morchilik uslublari asosida infrastruktura obyektlari qurilib, ishga tushirildi. «Tashguzar-Boysun-Qumqo'rg'on» temir yo'l tarmog'i qurildi, bu esa janubiy mintaqalarning rivojianishiga katta turtki bo'ldi va mamlakatimiz temir yo'l mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo'shdi. Bu temir yo'lning loyihaviy uzunligi 221,6 km ni tashkil etadi. Tog'li noqulay va murakkab sharoitdan, balandlik va egriliklardan o'tgan yo'lning umumiy uzunligi 123 km ni tashkil etadi. Bu muhandislik inshooti tog'li hududlarda qurilgan O'zbekistondagi birinchi temir yo'l sifatida tarix sahifalariga bitildi.

O'zbekiston temir yo'llari bo'ylab ko'plab inshootlar yangilandi, infrastrukturalar zamonaviylashtirildi.



*Termiz shahrining yangi temir yo 7 vokzali*



*Guliston shahrining zamonaviy temir vo'l vokzali*

Mustaqillik yillarida zamonaviy va ravon sement-beton qoplamali yo'llar 21 km ga, asfalt-beton qoplamali yo'llar 1553 km ga, qora qoplamali yo'llar 353 km ga uzaytirildi. "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining «Qamchiq» va «Rezak» devonlarida 2,5 km li tunnellar turgan holda, yo'llarning 94-214-kmlari qayta qurildi



*Tog'lardagi egri-bugri, qiya avtomobil yo 'llari*

«Toshkent-Termiz» avtomobil yoiidan jami 135 km ta'mirlandi. «G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynov» xalqaro avtomobil yo'lining «Qo'ng'irot-Beynov» oralig'idagi 348 kilometri yangidan qurildi. «Toshkent-Chorvoq dam olish zonasi» yo'nalishida 100 km li yo’l zamonaviy talablar asosida qayta qurildi. Chirchiq daryosi ustiga uzunligi 232 m ni tashkil etgan ulkan ko'prik, 72 m li yoM o'tkazgich barpo etildi. 1991-2006-yillarda 290 joyda jami uzunligi 9642 m boMgan ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar qurildi, 412 joyda - 10325 m boMgan ko'priklar qayta qurildi va ta'mirlandi.

Binolar va inshootlarni zamonaviy arxitektura talablari asosida barpo etishda tarkibiga 70 dan ortiq yirik, o'rta va kichik korxonalarningbirlashishi asosida tuzilgan «O'zqurilishmateriallar» aksiyadorlik kompaniyasini o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi vaqtda kompaniya korxonalarida 100 dan ortiq nomdagi qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqda Sement, ohak, gips, shifer, shisha, torn materiallari, quruq aralashmalar, gips karton, keramik plitkalar, marmar va boshqalar shular jumlasidandir.

Sement ishlab chiqarish yiliga 5,1 mln tonnaga yetdi. Mamlakatimizda 40 tadan ortiq marmar, 16 ta granit, 5 ta gabbro, 1 ta travertin konlari mavjuddir. Ularning umumiy zahirasi 80 mln $m^3$ dan ortiq bo'lib, hozirgacha izlab topilgan konlardagi mahsulot 100 yildan ortiq vaqtga yetishi aniqlangandir.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin milliy me'morchilik va shaharsozlikning rivoj lanishiga ham keng y o' liar ochildi. Arxitektura va shaharsozlik masalalariga katta ahamiyat berilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Trezidentining 2005-yil 30-avgustdagi 165-sonli «Shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida»gi qarori chiqdi.

Bunga javoban mamlakatimizda loyihalash va loyihalash ilmiy -tadqiqot institutlarida me'morlar va muhandislaming ijodiy faoliyati yanada rivojlanib ketdi. «Toshkentboshplan» LITI da Toshkent shahri va uning tevarag - atrofini 2015-yilgacha rivojlantirishning bosh reja sxemasi ishlab chiqildi *(13.13-rasm).* Shuningdek, Toshkent viloyati shaharlarining rejaviy sxemasi tuzildi. Toshkent viloyati tumanlarining 2020-yilgacha qurilish bosh rejasining sxemasi ishlab chiqildi. Chimgan - Chorvoq dam olish zonalarining rivojlanish sxemalari *{13.14-rasm),* Samarqand shaharining 2025 yilgacha(/J. 75-rasm) vaviloyatdagi 3 tashaharning rivojlanish bosh rejalari ishlab chiqildi, shu viloyatdagi 980 ta qishloq aholi hududi bosh rejalar va sxemalar bilan ta'minlandi. «O'zshaharsozlik LITI» tomonidan Namangan. Navoiy, Qo'qon, Termiz va

boshqa ko'plab shaharlarning ham bosh rejalari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etilmoqda.



*Toshkent shahri bosh rejasining sxemasi*



*Chimgan dam olish zonasining planirovkasi*



Mustaqillik sharofati bilan matnlakatimiz rahbariyati siyosatida millat o'zligini anglash manbai bo'lgan ulug' ajdodlarimizning ma'naviy merosiga e'tibor kuchaydi. Tarixiy shaharlarda ulkan restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Samarqandda Bibixonim, Buxoroda Kalon masjidlari, Termizda Sulton Saodat diniy ma'muriy ansambli ta'mirlandi. Qarshi, Shahrisabz, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Termiz, Navoiy va boshqa shaharlarda ham restavratsiya ishlari rivojlanib ketdi. Toshkent shahrida tarixiy Baroqxon mad-rasasi joylashgan hududda milliy uslubdagi ulug'vor inshoot -Hazrati Imom arxitekturaviy ansambli xalqimizga taqdim etildi Ta''kidlash joizki, ushbu yangi masjid binosi atigi 100 kun ichida qurib bitkazildi.

YUNESKO ning butun insoniyat uchun bebaho bo'lgan tarixiy shaharlari ro'yxatidan o'rin egallagan Buxoro va Xiva shaharlari qatoriga Samarqand va Shahrisabz kiritildi. 2007-yilda Toshkent shahri islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilindi.



*Toshkentda milliy uslubda yangi qurilgan Hazrati Imom masjidining umumiy ko'rinishi (2007-yil)*



*Milliy uslubda baraban shaklida bajarilgan proyomli gumbazning ichki ko'rinishi*



*Hazrati Imuni musjidi komleksidagi milliy uslubda isiiumgan zamonaviy binoning umumiy ko'rinishi*

Toshkent, Shahrisabz va Samarqand shaharlariga Amir Temur haykallari o'rnatildi Imom al-Buxoriy, al-Farg'oniy, al-Moturdiy, al-Marg'inoniy, at-Termiziylarga bag'ishlangan me'moriy majmualar, Toshkentda «Shahidlar xotirasi» yodgorligi va boshqa obidalar barpo etildi. Bu inshootlarning bunyod etilishida an'anaviy shakllar(arka,qobiqlihajm,gumbazvahokazo)qo'llanildi va rivojlantirildi, bog'-rog'lar yaratish san'ati takomillashdi, arxitektura va san'atning tarixiy an'anaviy bog'liqligi rivoj topdi (ornamentli pardozlash, fasadlarga plastik ishlov berish, ganch, yog'och o'ymakorligi va hokazo).

*Samarqandshahrida o'rnatilgan Amir Temur haykali*

1988-yili Umumjahon islom madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligini nishonlandi. Shu

munosabat bilan Prezidentimizning tashabbusi va rahbarligida, Poyariq tumanining Xo'ja Ismoil, Eski Xartang qishlog'ida qo'nim topgan allomaning qadamjoylarida milliy uslubdagi ulkan majmua bunyod etildi

2005-yilda Shohi Zinda, Bibixonim majmualari orasidagi buyum bozori o'rnida obodonlashtirilgan yangi xiyobon tashkil etildi. Samarqand viloyat hududida joylashgan boshqa tarixiy, me'moriy obidalarga ham, katta hajmdagi ilmiy izlanishlar va ta'mirlash ishlari olib borildi.



*lmom al-Buxoriy me 'moriy majmuasi ichidagi maqbara*

Buxoro viloyati hududida 2003-yilda buyuk alloma Abduxoliq G'ijduvoniyning 900 yillik yubileyi nishonlanishi munosabati bilan GMjduvon shahri markazi hamda allomaning me'moriy majmuasi, shuningdek, buyuk pir Bahouddin Naqshbandiy va ul zotning volidasi Orifa ona ziyoratgohlari qaytadan ta'mirlandi va atrof hududlar obodonlashtirildi



*2003-yilda ta'mirlangan Bahouddin Naqshbandiy me'moriy majmnasining katta hovuz tomonida ko 'rinishi*



*2003-yilda bunyodetilgan milliy uslubdagi ayvonlardan birining naqshli shifti*

Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi o'tkazilishi munosabati biian shahardagi 52 ta tarixiy yodgorlik ta'mirlandi. Jumladan, Registon maydoni qaytadan obodonlashtirildi. Poyi Kalon me'moriy majmuasi, Toki Sarrafon, Toqi Telpakfuro'shon, Toqi Zargaron, savdoga, hunarmandchilikka mo'ljallangan toqlar va boshqalar qayta ta'mirlanib, hozirgi vaqtda Buxoroning eng gavjum hududlaridan biriga aylantirildi. «Fitrat», «Istiqlol» nomli bog'lar barpo etildi. Somoniylar istirohat bog'i qayta o'zlashtirilib foydalanishga topshirildi. Xotira xiyoboni tashkil etilib, Motamsaro ona haykali o'rnatildi. Yetti pir silsilasiga kiruvchi Xoja Orif Moxitobon ar-Revgariy, Xoja Maxmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Xoja Said Amir Mirkulol kabi mutafakkir ulamolar va avliyolarning ziyoratgohlari milliy me'morchilik uslublari asosida ta'mirlandi.

Surxondaryoda «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi. Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi. Bunday tadbirlar tufayli viloyatdagi al-Hakim at-Termiziy, Qirqqiz, Sulton Saodat majmualari, Kokildor Ota xonaqohi, Imom Iso at-Termiziy maqbarasi, Qoratepa. Fayoztepa kabi Budda ehromlari ta'mirlandi, yangi-yangi inshootlar tiklandi



*Termiz shahrida milliy uslubdu bunyud elilgan tarix muzeyi binusi*

Farg'onada Marg'ilonning 2000 yillik yubileyi nishonlandi, al-Farg'oniy oromgohi barpo etildi, ko'plab zamonaviy binolar va inshootlar yaratildi, tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi

«Sharq gavhari» deb tan olingan Xiva shahrining 2500 yilligi Jaloliddin Manguberdining 800 yillik yubileyi va «Avesto» ning 2700 yilligi nishonlandi.



*Quva shahri. Yangi qurilgan al-Farg'oniy me 'moriy ansambli*



*. Ichan qal'a muzey - qo 'riqxonasining umumiy ko 'rinishi*

Navoiy viloyatida «Qosim Shayx» tarixiy majmuasi, «Mir Said Bahrom» maqbarasi, Chashma, «Sardoba», «MavIono Orif Dexgorroniy», «Shohimardon» tarixiy yodgorliklari, «Oqmachit», «Toshmachit», «Karvonsaroy » va boshqa tarixiy yodgorliklar qayta ta'mirlandi, 2006-yilda «Xotira maydoni» tashkil etildi, Navoiy shahrida yangi Jome masjidi qurilib foydalanishga topshirildi



*Navoiy shahrida bunyod etilgan Jome masjidining umumiy ko rinishi*

Milliy me'morchilik tarixiy an'anaiari qator jamoat binolarining arxitekturaviy badiiy qiyofasida o"z o'rnini topdi. Toshkentdagi Oqsaroy Temuriylar muzeyi Qatag'on qurbonlari muzeyi (2001-yil), O'zbekiston milliy akademik drama teatri (2001-yil), Nukusdagi Berdaq muzeyi (2001-yil) va boshqalar ana shular jumlasidandir. Mumtoz yo'nalishdagi milliy me'morchilikning o'ziga xos yechimi Toshkent shahari hokimiyati binosi Oliy Majlis binosi Toshkentdagi forumlar binosi (2009-yil) arxitekturasida o'z o'rnini topgan. Birinchi ikkala binoda bayroq shtokli yirik gumbazlar qo'llanilgan. Binolarning intereridan ganch, yog'och o'ymakorlik ishlari va tasviriy san'at namunalari o'z o'rnini topgan.



*Toshkent shahri. Milliylik va zamonaviylikni o 'zidajo etgan Oqsaroy binosining umumiy ko rinishi*

1936-yil 9-apreldaShahrisabzningXo'jailg'orqishlog'idabuyuk sohibqiron, yirik davlat arbobi Amir Temur dunyoga kelgan edi. 1996-yilda uning 660 yillik yubileyi nishonlandi. Shu munosabat bilan Toshkent shahrida Amir Temur muzeyi binosi bunyod etildi. Muzey Amir Temur xiyoboni tevaragida joylashtirildi.



*Toshkent shahridagi Temuriylar muzeyi binosi*

Toshkent shahri hokimligi binosi Movarounnahr ko'chasida joylashgan. Bu binoda milliy va zamonaviy uslublar uyg'unlashgan, noyob me'moriy yechim o'z o'rnini topgandir.



*Toshkent shahri hokimligi binosining noyob arxitekturasi*

Oliy Majlis binosi qator ustunlar bilan qurshalgan gumbazli qilib ishlangan. U Toshkent shahrining Xalqlar do'stligi maydonida joylashgan. Binoning bosh elementi majlislar zali bo''lib, markazlashma hajm-rejaviy me'moriy yechimda bunyod etilgan. Barcha fasadlari bir xil, bu jihatdan to'rttala fasadi ham bir xil bo'lgan qadimgi Ismoil Somoniy arxitekturasiga mos keladi. Shakllar yaqqolligi, ranglar tiniqligi kishini e'tiborini tortmasdan qolmaydi.



*. To'rttala fasadi ham bir xil bo'lgan Oliy Majlis binosining umumiy*

*ko 'rinishi*



*Oliy Majlis binosining intereri*



*Milliy uslubda zamonaviy qurilish materiallari asosida Chorsuda buny od-etilgan jamoat binosi*

Mustaqillik davrida zamonaviy arxitekturada yangicha uslub yuzaga keldi. 1998-2001-yillarda bunyod etilgan «Interkontinental» mehmonxonasi, biznes markazi, O'zbekistonning milliy banki, «Radisson» mehmonxonasi va qator boshqa binolarda yangicha stil o'z ifodasini topgan

«Interkontinental» mehmonxonasi Amir Temur ko'chasida joylashgan bo'lib, u 10 qavat, 246 xonadan tashkil topgan.

Milliy bank binosi mamlakatimiz mustaqil rivojlanishining ramzi sifatida ko'kka bo'y cho'zgan. Zamonaviy hajmiy kompozitsiya va dizaynga ega. Mamlakatimiz me'morchiligidagi yangi yo'nalishlarni belgilab berdi.



*Toshkent shahridagi milliy bank binosining tunda ko rinishi*



*Toshkent shahridagi «Radisson» mehmoivconasining umumiy ko'rinishi*

Toshkentning noyob me'moriy va konstruktiv yechimdagi teleminorasi yaqinida Tennis korti bunyod etilgan. Uch ming o'ringa mo'ljallangan bu yopiq tennis korti binosi o'ziga xos arxitekturaviy va funksional yechimi bilan jahonning eng yaxshi sport inshootlaridan qolishmaydi. U o'ziga xos shaklda metall konstruksiyalardan bunyod etilgan. To'siq konstruksiyalarida zamonaviy materiallar ishlatilgan.



*Toshkent shahridagi ustunsiz yopiq tennis kortining tashqi ko 'rinishi*

*lorqada teleminora)*



*Yopiq tennis kortining intereri*



*. Qiyofasi tubdanyangilangan Toshkent shahridagi ma'muriy binoning umumiy ko 'rinishi.*

«Interkontinental», «Sheraton», «Meridian», Buxoroda «Bux-oro», Samarqandda «Afrosiyob», Toshkentda rekonstruksiya qilingan «O'zbekiston», «Yoshlik», «Dedeman» singari mehmonxonalar dunyo standartlariga to'la javob

beradi. Ularda o'ziga xos milliylik va umum-bashariy umumiylik o"z aksini topdi



*Dedeman mehmonxonasining umumiy ko rinishi*



*Buxoro shahridagi «Buxoropalas» mehmonxonasi*

. ***Samarqand shahridagi «Afrosiyob» mehmonxonasi***

Samarqand shahrida shuningdek zamonaviy «Prezident-otel» meh-monxonasi bunyod etildi. Uning 164 ta notneri (48 ta 1 o'rinli 1 xonali, 100 ta 2 o'rinli 1 xonali, 12 ta 2 o'rinli 2 xonali, 4 ta nomer prezident apartamenti hukumat boshliqlarini joylashtirish uchun) bor. O'rtasi 7 qavat balandlikda keng atriumdan iborat. Bu yerda uchrashuv va dam olish joylari restoran, bufet, ma'muriyat xonasi, xizmat ko'rsatish xonalari, sartaroshxonalar joylashgan.



*Milliy uslubdu bunyod etilgan Buxoro shahridagi «Osiyo» mehmonxonasi.*

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunga javoban mamlakatimizda ta'lim tizimida tub islohotlar ro'y berdi. Ta''lim va tarbiya, kadrlar tayyorlash sifatini keskin oshirish o'z navbatida yangi tipdagi o'quv yurtlarini, zamonaviy binolar va inshootlar yaratishni taqozo etdi. Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari binolarini yaratish zaruriyati paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 23-sentabrdagi 406-sonli qarori bilan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularni mablag' bilan ta'minlash dasturi tasdiqlandi. Ishlab chiqilgan loyihalar g'oyasi, shakli va mazmuni bilan davlatimiz Prezidenti shaxsan tanishib, ularni yanada mazmunli bo'lishi borasida o'zlarining qimmatli maslahatlarini berdilar.

Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 14-avgustdagi 338-sonli va 2003-yil 29-oktabrdagi 473-sonli qarorlarga muvofiq, 1998-2009 yillarda 118420 o'quvchi o'rinli 176 ta akademik litsey va 1 014 504 o'quvchi o'rinli 1691 ta kasb-hunar kollejlari qurish va rekonstruksiya qilib foydalanishga topshirildi. 1998—2005-yillar mobaynida mamlakatimizda 54585 o'rinli 76 ta akademik litseylar va 533155 o'rinli 730 ta kasb-hunar kollejlari qurilib, foydalanishga topshirildi  2007-yilga kelib ularning soni 1200 taga yetdi. Shu jumladan, Andijonda 70 ta, Buxoroda 50 dan ortiq, Qoraqalpog'istonda 52 ta, Samarqandda 53 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar qurildi.



*. Tashkent davlat konservatoriyasining yangi binosi*



*Qarshi shahridagi Olimpiya zahiralari kollejining umumiy ko 'rinishi*



*Toshkent xalqaro aloqalar va diplomatiya universiteti akademik litseyining umumiy ko 'rinishi*



*Buxoro shahridagi akademik litsey binosining bosh fasadi*



*Qoraqalpog'iston. Bo 'ston shahridagi musiqa kolleji binosining umumiy ko 'rinishi*



13.63- rasm. Urganch shahridagi turizm kolleji binosining umumiy ko'rinishi

*Chirchiq shahridagi Olimpiya zahiralari kolleji sport zalining intereri*

Yangi tipdagi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar arxitekturaviy yechimlarini o'ziga xos xususiyatlari o'quv va ishlab chiqarish xonalari, sport-sogiomlashtirish inshootlari, xo'jalik komplekslarini loyihalash bilan bog'liqdir. Ba'zi birlari qishki bog' va uch tomonlama yoritish tizimi bilan ham barpo etilgan (masalan, Toshkent qurilish va kommunal xo'jalik kolleji, Andijon sport kolleji).

Talabayoshlarning"Universiada"sport o'yinlarigaatabBuxoroda 22 ming, Samarqandda 24 ming tomoshabinga mo'ljallangan va foydalanish har taraflama

qulay bo'lgan zamonaviy stadionlar, sport zallari barpo etildi  Qarshi shahrida ham bunday o'yingoh qurib foydalanishga topshirildi.



*Qarshi shahri o'yingohining umumiy ko'rinishi*



*Qarshi shahri o'yingohining ichki qismi*



*Xukusdagi universal sport zalining umumiy ko rinishi*

Istiqlol yillarida mamlakatimiz poytaxti - Toshkent shahri ham torn ma'noda kundan kunga rivojlanib, o'zgacha chiroy ochdi. Toshkentda ko'plab zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, turar-joy binolari, madaniy-maishiy obyektlar, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, bolalar sport maskanlari, banklar, bozorlar, to'yxonalar, supermarketlar, minimarketlar va boshqa xildagi binolar va inshootlar bunyod etildi. O'nlab bog'lar, oromgohlar va dam olish maskanlari yaratildi. Toshkentning eski shahri ham yanada ko'rkalamlashdi. Toshkent shahrining obro' - e'tibori butun dunyoga taralib «Sharq darvozasi» deb tan olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va bevosita rahbarligida mazmunan va shaklan tamomila yangi Mustaqillik maydoni barpo etildi. Bu yerda keng ko'lamdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi binolari tubdan rekonstruksiya qilindi. O'zbek milliy me'morchiligining elementlarini o'ziga jo etgan salobatli Senat binosi O'zbekiston poytaxtining Bosh maydoniga o'zgacha me'moriy mazmun baxsh etdi Senat, Vazirlar Mahkamasi va Moliya vazirligi binolari birgalikda maydonning me'moriy kompleksini shakllantirdi. Maydon

kompozitsiyasi takrorlanmas tashqi qiyofaga ega bo'lib, arxitektura kompozitsiyasining markazini tashkil etdi.



*Mustaqillik maydonidagi, Senat binosi*

Bosh maydonga kiraverishda «Ezgulik arkasi» bunyod etildi .O'n olti marmar ustunni tutashtirib turgan mahobatli arkatomon eltuvchi oppoq yo'lak. tepasida charx urayotgan turnalar, behadik laylaklarkattama'noniko'zlab ishlandi.Istiqlolningdastlabkikunlarida o'rnatilgan yer sharining ramziy timsoli - «Mustaqillik monumenti» dunyoda O'zbekiston degan yangi davlat paydo bo'lganining, o'zbek xalqini chin ozodlikka erishganinig yorqin ifodasi bo'ldi.



*Mamlakatning Bosh maydonida jovlashgan tubdan rekonstruksiya qilingan Moliya vazirligining zamonaviy binolari*



*Mustaqillik maydoni. O'n olti ustunli Ezgulik arkasi*

O'zbekiston Respublikasiningyoshlik belgisi, ezgulikning ramzi sifatida ushbu monument ona bilan bola aks ettirilgan «Baxtli ona» bronza haykali bilan boyitildi . Mustaqillik va ezgulik monumenti bosh maydonga o'zgacha fayz kiritdi.



*Bosh maydondagi Musiaqillik va ezgulik monumenti*

Ezgulik arkasi maydonining yangi mazmunini kashf etdi, u mustaqil O'zbekistonning pok va ezgu maqsadlarining ramzi boidi.

Maydon obodonlashtirildi va ko'kalamlashtirildi, gullar va yam-yashil maysazorlarga boMindi. Mikroiqlimni yaxshilash maqsadida ko'plab favvora yaratildi .



*Mustaqillik maydonida qurilgan zamonaviy favvoralar*

Quyidagi poytaxt bosh maydonining tarixiy rivojlanishiga oid tasvir keltirilgan bo"lib, unda bu maydonning 1950, 1960. 1970-yillardagi holatlari va 2005-yildagi chiroy ochgan davri tasvirlangan.




*Poytaxt bosh maydonining tarixiy rivojlanishiga oid lavha*

Mustaqillik maydonining shimol tomonida Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan vatandoshlarimizga bag'ishlangan Xotira maydoni Motamsaro ona haykali bilan barpo etildi.



*Noyob me 'moriy yechimda bezakli ishlangcm Xotira maydoni. Bir qismining umumiy ko rinishi*

Bosh maydon ezgulik arkasining shimoli-sharq tomonida 10 yillab qurilishi tugallanmagan bino o'rniga ko'p qavatli baland zamonaviy biznes-markaz binosi bunyod etildi



*Tashkent shahridagi biznes-markaz binosi (orqadagi baland bino)*

Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'ni tashkil etilishi munosabati bilan (1991—1994-yillar) Toshkent shahrining markaziy maydonlaridan biri to'la rekonstruksiya qilindi. Bu yerda Mustaqillik va Navro'z bayramlari tadbirlari tantanali ravishda o'tkaziladigan bo'ldi. Bog' manzarasi sun'iy ko'l bilan yanada go'zallashdi va so’limlashdi.

Bog'ni rekonstruksiya qilishdan maqsad aholi va shahar mehmonlarini dam olishi uchun odatiy qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat edi. Davlatimiz Prezidenti takliflariga ko'ra bog'ning g'arb tomonida, ya'ni tinch dam olish joyida tasviriy va amaliy san'at, kiyimlar modelini ko'rgazma qilish va boshqa maqsadlar uchun ko'rgazma paviloni bunyod etildi



*Alisher Navoiy nomli milliy bog 'ning umumiy ko 'rinishi*



*Alisher Navoiy nomli milliy bog’da ko’rgazma paviloni*

Pavilon to'g'ri burchakli ayvon tipidagi inshoot bo'lib, perimetrlari bo'yicha yog'och ustunlarga o'rnatilgan. Atrof-muhit bilan aloqani yaxshilash va xonalarni yorug' qilish maqsadida inshootning tashqi devorlari o'rniga vitraj qo'llanildi.



*Tashkent shahridagi zamonaviy o 'ziga xos me 'moriy yechimdagi akvaparkning umumry ko 'rinishi*

Bog'-rog' yaratish san'atining an'anaviy yechim usullariga murojaat qilish boshqa joylar shaharsozligidan ham o'rin egalladi. Andijonda «Bog'i Bobur», Urganchda Amir Temur va shoirlar bog'lari, Namanganda Bobur skveri, Qo'qonda Muqimiy va Furqat nomli bog'lar, Navoiy shahrida Alisher Navoiy nomli. Buxoroda Somoniy nomli bog' va Madaniy markaz shular jumlasidandir. O'zbekistonning zamonaviy shaharlarida, xususan ularning loyihalarida sifat jihatdan yangicha yechim - tabiiy muhitni landshaft bilan boyitish masalasiga katta e'tibor berildi Vatanimizda ko'plab oromgohlar yaratildi



*Urganch shahri.* Avesto bog’ining umumiy ko’rinishi



*Jizzax shahrida sun’iy soy bo'yidagi «Istiqlol» bolalar bog'i*



*Noyob shaklda suv havzasi bilan birga bunyodetilgan Andijon shahri amfitealrining umumiy ko'rinishi*



*Bo 'stonliq tumani Chorvoq sohilida barpo etilgan «Piramida» mehmonxonalar kompleksi*



*Jizzax shahridagi Soliq inspeksiyasi binosi*

Mamlakatimiz shaharlarida ko'plab zamonaviy bank binolari qurilib, foydalanishga topshirildi.



*Toshkeni shahridagi zamonaviy usltibda ishlangan banklar assotsialsiyasi binosining wnumiy ko rinishi*



*Bitxoro shahridagi zamonaviy uslubdu ishlanganyoy shaklidagi sanoat - qurilish banki binosining umumiy ko 'rinishi*



*Guliston shahridagi Asaka banki binosining boshfasadi*

Mamlakatimiz Prezidenti bozorlar qurilishi ishlariga jiddiy e'tibor berdilar. Natijada barcha shaharlar va tumanlarda zamonaviy bozorlar komplekslari qaror topdi .



*Namangan shahridagi Jahon bozorining kirish qismi*

Mustaqillik sharofati bilan Toshkent shahrida metroning ko'plab bekatlari (masalan, Yunusobod yo'nalishida oltita bekat) ishga tushirildi. Mamlakatimizning barcha shaharlarda turar-joy va yangi - yangi jamoat binolari, savdo inshootlari, oshxona, choyxona, to'yxonalar, sport komplekslari qurish, servis xizmati ko'rsatish, mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqaturdagi maishiy xizmat obyektlari bunyod etish ishlari rivoj topdi (masalan,



*Zamonaviy qurilish materiallaridan Buxoro shahrida bunyod etilgan o 'ziga xos uslubdagi shaxsiy turar-joy binolaridan birining boshfasadi*




*Toshkent binolaridan birining umumiy ko 'rinishi*

Ularning soni ko'pligi sababli hammasini bitta kitobda keltirisiining imkoniyati bo'lmadi. Biroq, yuqorida bayon etilgan fikrlar va keltirilgan misollardan ko'rinadiki, mustaqillik davrida O'zbekiston milliy me'morchilik san'ati judatez sur'atlar bilan yanada o'sdi, arxitekturaning yashiringan yangidan -yangi qirralari kashf etildi.

Me'morlar shaharlarni yanada ko'rkam qilish, binolar va inshootlarning zamonaviy va an'anaviy yechimlarini uyg'unlashti-rish yo'Iidatinimsiz ijod qildilar. Ular izlanishlarolib borib, betakror loyihalar yaratdilar va yaratmoqdalar. Arxitektorlar, muhandislar, binokorlar va xalq ustalarining ijodiy hamkorligi yangi pag'onaga ko'tarildi. Yurtimizda haqiqiy arxitektura asarlarini, binolar va ularning komplekslarini barpo etib, Vatanimizning yanada obod bo'lishida kattadan katta hissa qo'shmoqdalar.

Kelgusida O'zbekiston milliy me'morchiligini yanada rivojlantirish, arxitekturada mahalliy shart-sharoitlarni to'la hisobga olish, qadimiy shaharlarimizning afsonaviy qiyofalarini tiklash maqsadida Yurtboshimizning bevosita tashabbuslari bilan avval ochilgan Toshkent arxitektura-qurilish va Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutlari qatorida, Xiva davlat universiteti va Buxoro texnologiya instituti tarkiblarida arxitektura – qurilish fakultetlari tashkilqilindi. Ushbufakultetlarham yosharxitektorlarni amaliyotga yetkazib berish va tarixiy me'morchilik maktablarini qaytadan tiklash borasida samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda hozirgi vaqtda rivojlangan demokratik mamlakatlar arxitekturasi yutuqlarini hisobga olgan holda, zamonaviy qurilish materiallari (metall, beton, g'isht, yog'och, plastik, shisha singari zamonaviy materiallardan) va konstruksiyalaridan oqilona foydalanib. yangicha binolar va inshootlar barpo etilmoqda, rekonstruksiya ishlari rivojlanmoqda, me'moriy yodgorliklar restavratsiyasi tubdan yaxshilanmoqda.

Milliy shart - sharoitlar, demografik holatning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olib, an'anaviy zamonaviy uslublarni mohirona uyg'unlashtirib kelayotgan me'morlar va xalq ustalari, an'anaviy va zamonaviy konstruksiya va materiallarni qo'llab ish ko'rayotgan muhandislar. O'zbekiston milliy me'morchiligi va binokorligining ravnaqi, Vatan obodonchiligi yo'lida ijodiy faoliyat ko'rsatmaqdalar. Tinimsiz izlanishlar olib borib, vaqt silsilasiga bardosh beradgan. keyingi avlodlarga ham xizmat qila oladigan mustahkam, g'ururlansa arzigulik yangidan yangi binolar va inshootlar, ularning ansambllarini yaratish, shahar va qishloqlarimizning yanada ko'rkam va obod qilish yo'lida ijodiy mehnat qilmoqdalar.

Toshkent Teleminorasi

**Toshkent teleminorasi Ismail tomonidan qurilgan** O‘rta Osiyodagi eng baland binodir. Uning balandligi 375 metrdir. Rasmiy tilda **Toshkent teleminorasi H-375m obyekti** deb ataladi. Teleminora 1978-yildan boshlab, 6 yil davomida qurib bitilgan. 1985-yilning 15 yanvarida ishga tushirilgan.

**Mundarija**

[yashirish]


- 1Minora haqida ma’lumot
- 2Tarixi
- 3Teleminora raqamlarda
- 4Minora qo‘llanishi
- 5Galereya
- 6Havolalar
- 7Manbalar

Minora haqida ma'lumot[tahrir]

Teleminora tarxi

| | |
|---|---|
| Qurilish boshlangan yil | 1978 |
| Teleminora Mualliflari | Y.P. Semashko va N.G. Terziyev-Sarukov |
| Konstruktorlar | Y.P. Morozov va M.D. Musheyev |
| Qurilish vaqti | 6 yil |
| Ishga tushirlgan vaqti | 15-yanvar 1985-yil |
| Teleminora balandligi | 375 metr |
| Teleminora poydevorining balandligi | 11 metr |
| Umumiy massasi | 6000 tonnadan ortiqroq |
| Hajmi | 55500 $m^3$ |
| Qurilishda ishlatilgan materiallari | Payvandlangan po'lat |
| Inshoot mustahkamligini ta'minlash usullari | Har biri 93 metrlik uchta konussimon oyoqlar |
| Tarqatiluvchi davlat telekanallari soni | 4 |
| Tarqatiluvchi davlat radiokanallari soni | 5 |

| | |
|---|---|
| Aylanuvchi ikki zalli „Koinot“ restorani, balandlik | 120 metr |
| Tomosha maydoni, balandlik | 115 metr |
| Tezkor liftlar soni (tezligi 4,8 m/s’dan kam emas) | 3 |

Ishga tushirilayotgan paytida Toshkent teleminorasi jahonda balandligi bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinda turgan. O‘shanda u Toronto, Moskva, Nyu-York va Tokiodagi inshootlar qatorida dunyoning buyuk minoralari xalqaro federatsiyasining a’zosiga aylangan. Bugungi kunda u Markaziy Osiyoning shu xildagi yagona va eng baland binosi hisoblanadi. MDH davlatlari teleminoralari ichida esa, Ostankinodan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi. [1]

## Tarixi[tahrir]

XX asrning 60-yillariga kelib televideniye va radio O‘zbekiston madaniy hayotida mustahkam joy egallay boshladi. 1957-yilda bunyod etilgan 180 metrlik birinchi O‘zbekiston telemarkazi 4 millionlik poytaxt va Toshkent viloyati aholisi ehtiyojini yetarlicha qondirish, televizion ko‘rsatuvlarni ko‘paytirish va tog‘li tumanlarga dasturlarni yetkazishga ojizlik qilib qoldi.

1971-yilning 1-sentyabrida O‘zbekiston Aloqa vazirligi (hozirgi Respublika Aloqa va axborotlashtirish agentligi) tasarrufida Toshkent radiotelevizion uzatish markazi qurilishi direksiyasi tashkil etildi. Qisqa fursat ichida yangi teleminora loyihasini tayyorlashga kirishildi. Loyiha juda sinchkovlik bilan o‘rganildi, qayta-qayta sinovlardan o‘tkazildi. Chunki bunday balandlikdagi inshoot qurilishi hali tajribada bo‘lmagandi.1978-yilda teleminora qurilishi boshlandi.

Har qanday inshootning mustahkamligi albatta poydevoriga bog‘liq. Teleminoraning to‘rt tayanchi va unga tutashgan uchta oyoqlari 11 metrlik chuqurlikdan ko‘tarilib chiqilgan, bir-biri bilan bog‘lanmagan temir-beton asoslarga tayangan bo‘lib, muvozanatini o‘ta yuqori darajada ushlab turishga qodir klassik tizim yaratildi.

Teleminora qurilishi “11-Balandqurilish” boshqarmasi quruvchilari tomonidan amalga oshirildi. 1984—85-yillardagi qahraton qish sharoiti, balandlik va muntazam shamol, tobora yuqorilab borayotgan qurilmalar nishab o‘lchovini to‘g‘ri olish oson kechmadi. Qurilishda Rossiyalikmutaxassislar ham faol ishtirok etishgan. Minora qurilishi 25 tonna yukni 240 metr balandlikka ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘lgan maxsus kran yordamida amalga oshirilgan. [2]

1985-yil 15-yanvarda Poytaxtning Yunusobod tumani Bo‘zsuv yoqasida Toshkent teleminorasi qad rostladi, inshootning eng baland nuqtasida bayroq hilpiray boshladi.

## Teleminora raqamlarda[tahrir]

Balandligi — 375 m. *(14 ta to‘qqiz qavatli uy va yana bitta bir qavatli uyning umumiy balandligi bilan teng)* Poydevor chuqurligi — 11 m Qurilmaga tirgak bo‘lib turgan po‘lat oyoqlar uzunligi — 93 m Po‘lat oyoqlar poydevori diametri — 15 m Teleminora qurilish materiali — yaxlit payvandlangan po‘lat Minoraning og‘irligi (jihozlarsiz) — 6000 tonna. *(Bu 6192 dona „Neksiya“ avtomobilining jamlangan og‘irligiga teng.)*

Teleminoraga chiqish uchun Shveytsariyaning uchta “Shindler” lifti o‘rnatilgan bo‘lib, ularning tezligi 1 soniyada 4,8 metrni tashkil qiladi.

## Minora qo‘llanishi[tahrir]

Toshkent teleminorasining asosiy vazifalari tele- va radiouzatuvdir. Signal Toshkent shahri, Toshkent viloyati, qisman Sirdaryo viloyati hamda Qozog'iston janubiga uzatiladi. Bundan tashqari gidrometeorologiya xizmati ham o‘taladi.

**Temuriylar tarixi davlat muzeyi** — Toshkentdagi Amir Temur xiyoboni yaqinida bunyod etilgan tarix muzeyi (1996). Muzey binosi o‘rta asr me’morligi an’analari asosida aylana tarxli, tomi gumbazli qilib, maxsus temirbetondan yaxlit supa ustiga qurilgan. Bino 3 qavatli, bal. 31 m (diametri — tashqi tomoni 70 m, ichkisi 50 m), uni qurishda temir ustun, g‘isht, turli beton blok va yengil tayyorlangan sun’iy qurilish uskunalari qo‘llanilgan. Devor yuzasini pardozlashda ganch, marmar va sopol koshinlar ishlatilgan. Qurilishda Toshkent sh. hokimiyati, "Turon" firmasi, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish. birlashmasi, "Oniks" korxonasi (30 dan ortiq kattakichik hajmdagi billur qandillar, 500 ta yoritgichli, og‘irligi 2 t, bal. 8 m "Zumrad" qandil ishlab bergan), "Us to" birlashmasi qatnashgan.

Muzeyga marmar zinalar orqali bosh tarzi (Amir Temur xiyobonidan)dagi 3 eshikdan kiriladi. 14 ta yog‘och o‘ymakorligidagi eshik o‘ziga xos. Atrofi peshayvonli, qator ustunli (20 ta, bal. 10 m, muqarnas boshali, poyustuni kulrang marmardan ishlangan), turunjlari sirkori sopol bilan bezatilgan, binoning tashqi devori yuzasida "suls" uslubida insonni yaxshilikka undovchi so‘zlar bitilgan. Bino asosida foye, magazinlar, ma’muriyat, vestibyul, kassa, axborotma’ruza zali va boshqa texnik xizmat xonalari joylashgan. 1qavatda ko‘rgazma va kinoleksiya zali (200 o‘rindiqli) bor. 2qavatdagi ko‘rgazma zali 8 bo‘limdan iborat. Ko‘rgazma zalidagi Temuriylar tarixiga oid noyob eksponatlar O‘zbekiston viloyatlaridagi yirik muzeylardan keltirilgan, shuningdek, 1996 yilda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ko‘rgazmadagi eksponatlar qam muzeyga o‘tkazilgan. Muzeyda arxeologiya,

etn., numizmatika yodgorliklari, qo‘lyozmalar, tasviriy san’at namunalari bor. Shuningdek, I. Karimovning Amir Temurga bo‘lgan hurmatini ifodalovchi dil so‘zlari va "Temur tuzuklari"dan keltirilgan iboralar eksponatlarni mazmunan boyitgan.

Ko‘rgazma zalining markazidagi devoriy tasvirdan "Buyuk Sohibqiron — buyuk bunyodkor" nomli 3 qismdan iborat asar o‘rin olgan. Birinchisi — "Tug‘ilish" qismida Sohibqironning tug‘ilishi bilan bog‘liq urfodatlar ramziy tasvirlarda ifodalangan. Ikkinchisi — "Yuksalish"da "Rosti—rasti" ("To‘g‘rilik najotdir") degan shior oltin harflar bilan bitilgan. Bu qismning markazida taxtda o‘tirgan Sohibqironning vazir, ulamo, harbiy a’yonlar davrasidagi mashvaratlari aks ettirilgan. Pastroqda esa Sohibqironning nabira va abiralari (Muhammad Sulton, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur) bobolaridan meros qolgan tuzuklarni mutolaa qilayotganlari va Amir Temur yaratgan me’moriy obidalar tasvirlangan. Uchinchisi — "Faxrlanish" bo‘limida merosning avloddanavlodga o‘tib kelayotganlik g‘oyasi o‘z aksini topgan. Muzeyga har yili 100 mingdan ziyod tomoshabin kiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**


1. Sh.R.Mirzayev. M.M.Vahitov. Me’morchilik 1-qism. Toshkent, 2012.

2. Sh.R.Mirzayev. M.M.Vahitov. Me’morchilik 2-qism. Toshkent, 2012.

3. M.M.Vahitov. Sh.R.Mirzayev. Me’morchilik 3-qism. Toshkent, 2012.

4. O.K.Apuhtin. Tasviriy san’at asoslari. Toshkent, 1967.

5. M.Nabiyev. B.Azimova. Rasm chizishni o’rgatish metodikasi. Toshkent, 1976.

6.M.M.Vohidov. Sh.R.Mirzayev. Binolar va inshoatlat konstruksiyalari. Toshkent, Mehnat, 2003.

7.Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. Buxoro, 2009.

8. Vohidov M.M. O’zbekiston milliy me’morchiligi. Buxoro, 2009.

9. Vohidov M.M. Binokorlik bezakchiligi. Buxoro, 2009.

10. I.M.Azimov. O’zbekiston naqshu-nigorlari. Toshkent, G’G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.

11. Vohidov M.M. Samarqand arxitektura yodgorliklari. Buxoro, 2009.

12. Vohidov M.M. Xiva me’moriy obidalari. Buxoro, 2009.

13. Teshaboyev R.D. Fuqoroi binolarining me’morchilik konstruksiyalari va qismlari. Toshkent, o’qituvchi, 2012.

14. O’zbekiston arxitekturasi va qurilishi Toshkent, 2006, №3.

15.O’zbekiston ensiklopediyasi 1-14 tomlar. Toshkent, 1971-1980.

16. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 tomlar. Toshkent, 200-2006.

17. QMQ 2.01.94. Loyihalash uchun iqlimiy va fizik geologik ma’lumotlar. Toshkent, 1993.

18. Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистанаб Т, 1969.

19. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Бухариские Записки. Ташкентб Издательство литературы и исскуство а имени Гафура Гуляма, 1985.

20. Sh.Xayitov. O’zbekiston –jahon sivilizatsiyasining beshigi. “Noshir” nashriyoti, 2012.

21. Internet ma’lumotlari. Ziyonet.uz.

**4 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 5.1.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Mustaqillik yillarida O’zbekistonda madaniy hayot<br>2. Me’morchilik san’ati. Me’morchilikda jiddiy o’zgarishlar sodir bo’lishi.<br>3. "Turkiston saroyi", "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi", "Sheraton mehmonxonasi", me'moriy majmualar, "Imom Buxoriy", "Xotira |

| | |
|---|---|
| | va qadrlash", "Shahidlar xotirasi" va boshqa me'moriy obidalarning qurilish uslublari, ko'rinishlari. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot, me'morchilik san'ati to'g'risida bilimga ega bo'lish | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Mustaqillik yillarida O’zbekis-tonda madaniy hayot to'g'risida tushuncha beradi<br>* Me’morchilik san’ati. Me’morchilikda jiddiy o’zgarishlar sodir bo’lishini izohlaydi.<br>* "Turkiston saroyi", "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi", "Sheraton mehmonxonasi", me'moriy majmualar, "Imom Buxoriy", "Xotira va qadrlash", "Shahidlar xotirasi" va boshqa me'moriy obidalarning qurilish uslublari, ko'rinishlarini slaydlar orqali namoyish etib, tushuntirib beradi. | * Mustaqillik yillarida O’zbekistonda madaniy hayot to'g'risida tushunchaga ega bo'lib, gapirib beradilar.<br>* Me’morchilik san’ati. Me’morchilikda jiddiy o’zgarishlar sodir bo’lishini tahlil qilib, tushuntiradilar. .<br>* "Turkiston saroyi", "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi", "Sheraton mehmonxonasi", me'moriy majmualar, "Imom Buxoriy", "Xotira va qadrlash", "Shahidlar xotirasi" va boshqa me'moriy obidalarning qurilish uslublari, ko'rinishlarini gapirib beradilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**5.1.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi**

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1.Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot qanday bo'lgan?<br>2. Me'morchilik san'ati to'g'risida nimalarni bilasiz?<br>3. Me'morchilikda qanday jiddiy o'zgarish-lar sodir bo'lgan?.<br>4. "Turkiston saroyi", "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi", "Sheraton mehmonxonasi", me'moriy majmualar, "Imom Buxoriy", "Xotira va qadrlash", "Shahidlar xotirasi" va boshqa me'moriy obidalarning qurilish uslublari, ko'rinish larito'g'risida gapirib bering?. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Yakuniy bosqich. | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| (10 minut) | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**2 - mashg'ulot: 2 - soat**

**Reja:**

1. Rassomchilik san'atining kengayishi. Rassomlarning milliy tarixga munosabati, murojati.

2. San'atda tarixiy portret va kompozisiyalarning paydo bo'lishi. Amir Temur, Murzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari.

3. Natyurmort, portret va boshqa janrlar. Tasviriy san'atda rangtasvir.

4. Haykaltaroshlik san'ati.

## Mustaqillik yillarida O`zbekistonda badiiy adabiyot, me`morchilik, amaliy san`at va kino ravnaqi.

Mustaqillik sharofati bilan badiiy ijodiyot, badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqida hukmronligidan, illatlardan ozod bo'ldi. Badiiy adabiyotda milliylik, mingyillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Ijodiy faoliyatda mustaqillikni asrab-avaylash, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash, yurtdoshlarimiz ongida milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish kabi masalalar bosh mavzu sifatida o'rin egalladi. Jadidchilik harakati namoyandalarining, sovet davrida qatag'on qilingan millatparvar yozuvchi va shoirlarning asarlari, Qur'on va hadislar nashr etildi va keng kitobxonlarga yetib bordi. Milliy adabiyot rivojiga H. S. Karomatovning „Qur'on va o'zbek adabiyoti", O. Sharafiddinovning „Cho'lponni anglash", B. Qosimovning „Maslakdoshlar" asarlari ijobiy ta'sir ko'rsatdi Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron, To'ra Mirzo kabi ijodkorlarimizning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz, sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa buyuk zotlar siymolari yangicha badiiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritildi. Shukrulloning „Kafansiz ko'milganlar" romanida, To'lepbergen Qayipbergenovning „U dunyoga, bobomga xat" asarida, Nazar Eshonqulovning „Qora kitob" povestida,

O‘tkir Hoshimovning „Tushda kechgan umrlar“ romanida, Xudoyberdi To‘xtaboyevning „Qasoskorning oltin boshi“ romanida, Oygul Muhammad qizining „Jannat qushi“ romanida, Tog‘ay Murodning „Otamdan qolgan dalalar“ romanida mustabid sovet davrida yuritilgan shovinistik siyosatning qatag‘onlik, zo‘ravonlikka asoslangan mohiyati, xalq boshiga solingan tashvish-u kulfatlar, g‘am-g‘ussa alamlari tasvirlangan. Tohir Malikning „Shaytanat“ (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning „Tutash olamlar“ asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafratlanish tuyg‘ulari o‘z aksini topgan. Omon Muxtorning „To‘rt tomon qibla“ nomli trilogiyasi, Barat Boyqobulovning „O‘zbeknoma“ tarixiy-falsafiy va ma’naviy-ma’rifiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning „Biz kim, o‘zbeklar“ asari, Azim Suyunning „Oq va qora“, A. Qutbiddinning „Izohsiz lug‘at“ she’rlari zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin ifodasidir. O‘zbekiston Prezidenti, respublika hukumati ijod ahliga katta g‘amxo‘rlik qilmoqda. Iste’dodli adiblar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlanmoqda. Abdulla Oripov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov, To‘lepbergen Qayipbergenovlar mamlakatimizning oliy mukofoti — „O‘zbekiston Qahramoni“ unvoni bilan taqdirlandilar. Ko‘plab shoir va yozuvchilar yuksak saviyadagi badiiy asarlar uchun o‘tkazilgan tanlovlarning sovrindorlari bo‘ldilar. Me’morlik. Mustaqillik yillarida o'zbek me’morligining hamma turlari — fuqaro me’morligi, ma’muriy-madaniy qurilish, landshaft, bog'- park san’ati, shaharsozlikda yangilanish sodir bo'la boshladi. Qurilish va dizayndagi jahonning eng yangi texnologiyalari an’anaviy milliy mumtoz me’moriy san’at tamoyillari bilan uyg'unlashib, yangi me’moriy g'oyalar olamga kirib kela boshladi. Mustaqillik yillari shaharsozlikda mavjud bo'lgan va shakllangan loyiha va rejalar qayta ko'rib chiqildi, ular yangi me’moriy g'oyalar bilan boyitildi. Respublikaning poytaxti Toshkent, viloyat markaz va qishloqlari loyihalari ko'rib chiqildi. Bu loyihalami amalga oshirishda an ’anaviy milliy me’morlik san’ati an’analarining jahon me’morlik san’atining so'nggi yutuqlari bilan uyg'unligiga e’tibor berildi. Mustaqillik yillari milliy merosga e’tibor kuchaydi. Awalgi davrlarda qurilgan binolarda ta’mirlash, qayta qurish va modernizatsiyalash ishlari olib borildi. Saqlanib qolgan me’moriy obidalar qaytadan tiklana boshlandi, tevarak-atroflari obodonlashtirildi. Bu tadbirlar, ayniqsa, qadimiy shaharlar qiyofasini o'zgartirib, unga yangi davr ruhini baxsh etdi. Nur va maysaga burkangan tabiat qo'ynida bu obidalar o'zining yangi umrini boshladi. Bu hayotga qaytarilgan yodgorliklar mazmunan yangi hayotga kirdi. Ularning katta qismi davr talabi va imkoniyatlari asosida ma’lum mazmunga ega bo'lgan binolarga aylantirildi. Shu yodgorliklarda muzey, salon, xalq ustalari ijodi uchun ijodxonalar tashkil etildi. Bu binolarning yashash uchun zarur bo'lgan qismlari qayta ishlanib, zamonaviy kommunikatsiya, kanalizatsiya va isitish masalalariga e’tibor berildi. Shunday tadbirlar XX asr me’morligiga nisbatan ham ishlatildi.

Jumladan, 1989— 1992-yillari qurib tugatilgan «Turkiston» saroyi interyerlari me'mor Farhod Tursunov loyihasi asosida qayta ishlab chiqilib, san'at sintezining bugungi kun namunasi yaratildi. 1898-yili m e'mor V. S. Geytselman loyihasi asosida qurilgan Amaliy(Real) o'rta o'quv yurti binosi ma'muriy markazga, XX asr boshlarida me'mor G. Svarichevskiy loyihasi asosida qurilgan sobiq Marin o'quv yurti Fransiya elchixonasi uchun moslashtirildi. Bunday misollami davom ettirish mumkin. Lekin bir narsa e'tiborliki, bu ta'mirlash vaqayta qurish ishlarida yodgorliklarning asosiy xususiyatlari, davr ruhini o'zida ifodalovchi tashqi qobig'i to'liq saqlanilishiga e'tibor berilgan. Bu hol uni davrlar, asrlar osha yaratilgan va yaratilayotgan yodgorliklar ichida betakror bo'lishi va muhit rang-barangligi, avlodlar taraqqiyotining bir-biri bilan uzviylik belgisidir. Mustaqillik yillari respublikada katta qurilish ishlari amalga oshirilib, faxrlanishga arziydigan oliymaqom inshootlar barpo etildi, jahon andozasiga mos tekis yo'llar, keng va yorug' ravoqli bozorlar, me'morlikning so'nggi andozalarida bajarilgan mehmonxonalar qad ko'tardi. Bu amaliyotda milliy mumtoz san'at an'analari, jahon me'morlik san 'atining yutuqlaridan ijodiy foydalanildi. Bu esa shu davr qurilmalarining betakror ko'rinishini belgiladi. Bu xususiyat ma'muriy va madaniy binolar, ularning badiiy konstruktiv yechimida o'z ifodasini topdi. Turkiston saroyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimligi, Sheraton mehmonxonasi, Al-Buxoriy, Al-Faig'oniy, Xotira va qadrlash, Shahidlar xotirasi va boshqa me'moriy majmualarda shu yangi jarayonlar o'zini yaqqol ko'rsatadi, davr ruhi o'z ifodasini topdi. Park-bog' san'ati, landshaft me'morligi ham shu jarayondan chekkada qolmadi. Yangi hayvonot bog'i, Akva park, Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog' shu o'rinda e'tiborga loyiq. Mustaqillik yillari diniy qadriyatlarning tiklanishi ham me'morlik san'ati mazmunida o'z aksini topdi. Masjidlar ta'mirlanib, atrofi obodonlashtirildi, yangilari barpo etildi. Shunday yodgorliklardan biri Toshkentdagi Zayniddin bobo Juma masjidi bo'lib, unda an'anaviy me'morlik uslubi yangi texnologik jarayonlar bilan boyitilgan. Xasti Imom me'moriy majmuasi ham shu yangi davrning mahsuli bo'lib, u awal qurilgan me'moriy yodgorliklar, Baroqxon madrasasi, Suyunchixon maqbarasi va boshqa me'moriy yodgorliklar bilan uyg'unlikda yagona majmuani tashkil etadi. O'zbek me'morlik san'atida mustaqillik yillarida yaratilgan me'moriy obidalar davr taraqqiyotini, tinchlik, osoyishtalik va xalqning bunyodkorlik ruhini va buyuk kelajak sari intilishini aks ettiruvchi ko'zgusi - ramzi sifatida idrok etiladi. Amaliy san'at rivojini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va hukumat qarorlari, ularning amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining rivojlantirilishiga qaratilgan tadbirlari belgiladi. «Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab-qo'ltiqlash tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, «O'zbekiston xalq ustasi» unvonining ta'sis etilishi bu jarayonda muhim omil bo'ldi. Amaliy-bezak san'ati va hunarmandchilik bozor iqtisodiga moslashib bordi. Uning tur va

janrlari bozor iqtisodi bilan bog'liq holda rivojlandi. Shu sohaga oid shaxsiy ustaxona va korxonalar tashkil etildi va etilmoqda, muzeylar ochilmoqda. Mustaqillik yillarida kulolchilik san’ati ham o'zining yangi davrini boshladi. Uning yetuk vakillari Akbar Rahimov, Sharofiddin Yusupov, Xudoyberdi Haqberdiyev, Sharif Azimov shu yillarda akademik unvoniga sazovor bo'ldilar. Bu san’atkorlaming har biri o'z uslubiga ega va bir- biridan asarlarni yaratish uchun ashyo tanlash, ularga shakl va bezak berishda ajralib, kulolchilik san’atining bugungi rang-barangligini belgilaydi. 90-yillardan o'ymakorlik san’ati, ayniqsa, uning yog'och o'ymakorligi turlarining haqiqiy rivojlanish davri bo'ldi. Uning maishiy va monumental yo'nalishlarida ko'plab asarlar yaratildi va yaratilmoqda. 90-yillar oxirlaridan esa uning mahobatli turi keng rivoj topdi. Barpo etilgan me’moriy majmualarda, ayniqsa, tarixiy sanalar bilan bog'liq turlarida bu san’at o'zining salmoqli o'rnini egallab davr mazmuni bilan boyidi. Bu sohada mehnat qilgan xalq ustasi Abdug'ani Abdullayevga O'zbekiston xalq qahramoni unvoni berildi. Shu yillardan boshlab barpo etilgan Samarqandda buyuk mutafakkir Al-Buxoriy, Farg'onada munajjim Ahmad al-Farg'oniy, Toshkentda Xotira va qadrlash, Shahidlar xotirasi maydonlaridagi me’moriy majmualar, ma’muriy, madaniy binolarda shu san’at o'zining o'rnini oldi. Yog'och o'ymakorligi san’atning boshqa mahobatli turlari bilan birgalikda shu davrdagi san’at uyg'unligining ajoyib yodgorligiga aylandi. Badiiy kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, chinni san’ati ham o'zining davr ruhi bilan sug'orilgan asarlarini dunyoga keltirdi.

**Kino san`ati**. Mustaqillik yillarida kino san’ati ham rivojlandi. Kino san’atining ijodkor ustalari — Shuhrat Abbosov, Yo‘ldosh A’zamov, Elyor Eshmuhamedov, Ali Hamrayev, Rashid Malikov, Jahongir Fayziyev, Sharof Boshbekov va boshqalar zamonaviy kinofilmlar yaratish ishlarida peshqadamlik qildilar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xususiy kinostudiyalar vujudga keldi. 1992-yil fevralda Latif Fayziyevning dastlabki xususiy kinostudiyasi „Fayzifilm“ ro‘yxatga olindi. 1996- yilda „O‘zbekfilm“ tasarrufida 8 ta studiya, shuningdek 30 ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi.1996- yil 29-aprelda e’lon qilingan „O‘zbekkino davlat aksionerlik kompaniyasini tuzish to‘g‘risida“gi Prezident farmoni milliy kino san’atining rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Farmonning ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi „O‘zbekkino“ davlat aksionerlik kompaniyasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to‘g‘risida“ qaror qabul qildi. Qarorga binoan „O‘zbekkino“ davlat aksionerlik kompaniyasi tuzildi. Mazkur kompaniya Davlat mulk qo‘mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki tomonidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. „O‘zbekkino“ kompaniyasi qoshida Respublika kino arboblari ijodiy assotsiatsiyasi ta’sis etildi. Kino tarmog‘i tashkilotlariga davlat budjetidan ajratiladigan har yillik dotatsiyalar 2000- yilgacha saqlab qolindi. Kino sohasining iqtidorli yoshlari uchun xorijiy kino akademiyalari va o‘quv markazlarida o‘qish, malakasini

oshirish ishlari amalga oshirildi. 1991—2002- yillarda O‘zbekiston kinostudiyalarida 60 ga yaqin badiiy filmlar suratga olindi. „Temir xotin“, „Ko‘zlarim yo‘lingda“, „Dallol“, „Sharif va Ma’rif“, „Tilla bola“, „Buyuk Amir Temur“, „Yulduzingni ber, osmon“, „Kenja singil“, „Voiz“, „O‘tgan kunlar“, „Piyoda odam“ va boshqa filmlarda milliylik va yangi, zamonaviy ijodiy erkinlikning an’anaviy badiiy uslub bilan uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ldi. 1997-yilning 22—29-may kunlari Toshkentda jahonning 32 ta davlati va 8 ta xalqaro tashkilotning madaniyat va san’at arboblari ishtirokidagi „Umuminsoniy qadriyatlar va milliy taraqqiyot“ shiori ostida XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo‘lib o‘tdi. „Buyuk Amir Temur“ filmini yaratishdagi operatorlik mahorati uchun Rifqat Ibrohimovga xalqaro jyurining maxsus mukofoti — „Neksiya“ avtomashinasi berildi. Mustaqillik yillarida o‘nlab hujjatli kinofilmlar yaratildi. „O‘zbekiston bahori“ (rej. Sh.Qurbonboyev, E.Xachaturov), „Mustaqillikning besh yilligi“ („O‘zbekiston havo yo‘llari“ milliy kompaniyasining faoliyati haqida), „Ulkan odim“ („O‘zDAEWOOavto“ zavodi haqida) shular jumlasidandir. Milliy ma’naviyat, ma’rifat namoyandalari faoliyatiga bag‘ishlangan „Istiqlol fidoyilari“ ruknidagi hujjatli filmlar, XX asrning 20-yillarida Germaniyada ta’lim olgan iste’dodli yoshlarimizga bag‘ishlangan „Ular Germaniyada o‘qigan edilar“ filmlari yaratildi. Prezident Islom Karimovning „O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida...“ nomli asari asosida yaratilgan beshta videofilm, „O‘zbekiston Qahramonlari“ ruknidagi kinoocherklar, „Umid qaldirg‘ochlari“ hujjatli filmi va boshqalar bugungi hayotimizni, istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimizni teran anglab olishga ko‘maklashmoqda.

## Teatr, sirk, musiqa va qo`shiqchilik san`ati va taraqqiyoti.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayonida teatr san’ati ham rivojlandi. 1993-yilda foydalanishga topshirilgan „Turkiston“saroyi Vatanimizning va xorijlik atoqli teatr arboblarining, ijodiy guruhlarning sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, Abbos Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. Respublika Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi „O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi, 1998- yil 26- martdagi „O‘zbekistonda teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida“gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo‘llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda „O‘zbekteatr“ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma’naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otuvchi spektakllar yaratishda, iste’dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko‘maklashdi. „O‘zbekteatr“ birlashmasi va barcha teatrlar 5 yilga barcha turdagi soliqlardan

ozod qilindi. Murakkab o‘tish davri qiyinchiliklariga qaramasdan bironta teatrning yopilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Teatr binolari ta’mirlandi, ichki jihozlari yangilandi. Alisher Navoiy nomli davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995-yilda bepul ajratilgan 47 mln iyen (1500 ming AQSH dollari) qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 36 ta professional teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Har bir viloyatda qo‘g‘irchoq teatrlari bolalarga xizmat ko‘rsatmoqda. 1996- yilda Toshkentda Koreya drama va estrada milliy teatri tashkil etildi va shu yilning dekabr oyida o‘z faoliyatini boshladi. Davlat akademik rus drama teatri 1999-yilda hozirgi zamon talablari darajasida tubdan qayta qurilgan muhtasham binoga ko‘chirildi va o‘zining 64-teatr mavsumini yangi binoda boshladi. 2001- yilda respublika teatr san’atida muhim tarixiy voqea sodir bo‘ldi. Hamza nomidagi O‘zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunalari va mebellar bilan jihozlandi. 2001- yil 21- sentabrda Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi, O‘zbekiston Milliy akademik drama teatri deb ataldi. Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e’tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari „Sohibqiron“, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri „Jaloliddin Manguberdi“, Abror Hidoyatov nomli O‘zbek davlat teatri „Buyuk ipak yo‘li“ kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo‘ydi. O‘zbekistonda Respublika va xalqaro teatr festivallari bo‘lib o‘tdi. 1992-yil mart—aprel oylarida bo‘lib o‘tgan „Navro‘z“ mintaqaviy festivalda Markaziy Osiyo mamlakatlari teatrlarining eng yaxshi sahna asarlari namoyish etildi. 1997-yil oktabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan „Teatr: Sharq-G‘arb“ xalqaro festivalda Yaponiya, Hindiston, Syangan, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san’atkorlarining chiqishlari bo‘ldi. Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan festivalda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O‘zbekiston teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSH, Belgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarida qiziqarli spektakllar bilan ishtirok etdilar. Teatr san’atining rivojiga, iste’dodli aktyorlarni izlab topishiga talabalarning „Nihol“ respublika festivali, „aktyor mahorati“ festivallari, yoshlar teatrlarining „Humo“ festivallari ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Muxtasar aytganda, respublikamiz teatr san’ati xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma’naviyatini boyitish, ular ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdira borish, vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish, axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda 1992- yilda „O‘zbekdavlatsirk“respublika birlashmasining tashkil etilishi sirk san’atining rivojlanishida, yosh iste’dodli ijrochilarni qo‘llab quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Toshkent sirki zamonaviy talablar asosida qayta ta’mirlandi, unga dorbozlar sulolasi asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyevnomi berildi. An’anaviy sirk san’atining unutilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Iste’dodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996- yilda estrada-sirk kolleji ochildi. Respublika shaharlarida

faoliyat yuritayotgan sirk guruhlari soni ko‘paydi. Agar 1990-yilda 7 ta an’anaviy sirk guruhi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2001-yilda ularning soni 20 tadan oshdi, sirkchilarning ijrochilik mahoratlari o‘sdi. O‘zbekiston sirk ustalarining chet ellarga gastrol safarlari uyushtirildi. Misr, Iordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Hindiston, Xitoy, Suriya, Livan, Eron, Birlashgan Arab Amirligida gastrol safarlarida bo‘lgan respublikamiz sirk ustalari O‘zbek milliy sirk san’atini namoyish etdilar.

Olimjon Toshkenboyev rahbarligidagi „O‘zbekiston dorbozlari“ guruhi 1996-yildan boshlab Yevropa mamlakatlarida gastrol safarida bo‘lib, 2000 dan ziyod tomosha ko‘rsatdilar. 15 yoshli Karima Zaripova 1997-yil yanvarda Parijdagi Buglion sirkida bo‘lgan yosh sirk artistlarining xalqaro festivalida qatnashib „Plastik etyud“ (besuyak o‘yini) janrida festivalning O‘zbek sirki Toshkent hayvonot bog‘I eng oliy mukofoti — oltin medalni qo‘lga kiritdi. 1998-yilda Toshkent sirkida Karima Zaripova rahbarligida iste’dodli yoshlarga ko‘maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi. Studiya bolalarga sirk sirlarini o‘rgatib, katta manejga yo‘llaydi. O‘zbek sirkchilari 1999-yilda Birlashgan Arab Amirligining Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro festivalda, 1999-yilda Saratov shahrida bo‘lib o‘tgan Butunrossiya sirk festivalida, 2000-yilda Xitoyning Uxan shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro sirk festivalida, 2001-yil yanvarda Belgiyaning Lyej shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa sirklarining 10-festivalida muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o‘rinlarni egalladilar. Sirkchilarimizning sa’yharakatlari natijasida o‘zbek sirkiga xos turli nomer va attraksionlar xalqaro sirk dasturlaridan o‘rin egalladi. 1993-yilda Toshkentda yangi „Hayvonot bog‘i“ ochildi.

Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qo‘shiqchilik san’ati rivojlandi. Respublika Madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan „Xalq ijodi va madaniy-ma’rifiy ishlar respublika markazi“, markazning viloyatlardagi bo‘limlari musiqa va qo‘shiqchilik san’atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko‘rik-tanlovlar, festivallar tashkil etmoqda. 1992-yilda Toshkentda „Asrlarga tengdosh navolar“ va „Boqiy ovozlar“, Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo‘qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazdi. 1994-yil may oyida Parijda bo‘lib o‘tgan „Sharq musiqasi“ festivalida Munojot Yo‘lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib, o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’atini jahonga namoyish etdilar. 1996-yil aprel oyida Turkiston saroyi, Bahor majmuasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan „O‘zbeknavo“ gastrol-konsert birlashmasi xalq orasidan iste’-dodli qo‘shiqchilarni izlab topish va ko‘rik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qo‘shiqchilik san’ati bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlarni amalga oshirdi. Musiqa-raqs san’atini rivojlantirish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-dekabrdag „O‘zbekiston — Vatanim

manim“qo‘shiqlar bayrami to‘g‘-risida“gi farmoni qo‘shiqchilik san’atini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 1996-yil ko‘rik tanlovini o‘tkazish barcha viloyat, shahar va tumanlarida „O‘zbekiston — Vatanim manim“ Milliy musiqa va qo‘shiqchilik qo‘shiq tanlovining birinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi, unda 54 mingdan ziyod qo‘shiqchilar qatnashdi. Tanlovning yakunlovchi bosqichi avgust oyida o‘tdi. 700 ta qo‘shiqchi qatnashdi, ulardan 10 tasi mukofotlandi. O‘zbekiston Prezidentining 1996-yil 27-avgustdagi farmoni bilan bunday ko‘rik tanlov har yili avgust oyida o‘tkaziladigan bo‘ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni „O‘zbekiston — Vatanim manim“ qo‘shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida yuzlab Vatan, mustaqillikni e’zozlovchi yangi qo‘shiqlar yaratildi. „O‘zbekiston — Vatanim manim“, „Men seni sevaman — O‘zbekiston“, „Vatan yagonadir“, „Mustaqillik gullari“, „Ona yurtim“, „O‘zbekiston askarlari“ qo‘shiqlari shular jumlasidandir. 1997- yil 11- martda qabul qilingan Respublika hukumatining „Sharq taronalari“ Xalqaro musiqa festivalini o‘tkazish to‘g‘risida“ qarori musiqa san’atining noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, rivojlantirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qildi. 1997- yil 25- avgust — 2- sentabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan „Sharq taronalari“ birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san’atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdilar, festivalda yangragan o‘zbek ohanglari, kuy-qo‘shiqlari jahon uzra aks-sado berdi. Ozarbayjonlik Simara Imonova oliy mukofot — Granpriga sazovor bo‘ldi. 1- o‘rin Munojot Yo‘lchiyeva va hindistonlik Shainu Khulanaga nasib etdi. Har ikki yilda Samarqandda „Sharq taronalari“ Xalqaro festivalini o‘tkazish an’anaga aylandi. Samarqand. „Sharq taronalari“ xalqaro musiqa festivali. Mustaqillik yillarida musiqa san’atining rivoj topishiga 1995-yildan boshlab o‘tkazilayotgan „Ilhom – XX“, „Ilhom – XXI“ xalqaro musiqa, „Ofarin“ respublika estrada festivallari, xalqaro simfonik musiqa, katta ashula, maqom, to‘y marosimi qo‘shiqlari festivali har yili 31- avgust va 21- mart kunlari o‘tkazilayotgan Mustaqillik va Navro‘z kunlariga bag‘ishlangan bayram tantanalari ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

**Tasviriy san’at.** Mustaqillik yillari tasviriy san’atga ham o 'z o'zgartirishlarini kiritdi. Bular san’atda mafkuraviy nazoratni bekor qilinishi natijasida ijod erkinligini qo'lga kiritgan rassomlarning uslubiy rang-baranglikda ijod qila boshlashlarida ko'rinadi. Ijod erkinligi san’atda izlanishlar, turli uslub va yo'nalishlaming rivojlanishiga olib keldi. ; Realistik san’at(hayot shakllari asosiga qurilgan san’at) va avangard — modernizm san’atlarining o'zaro raqobati kuchaydi. San’atning baholash mezoni ham o'zgarib, ijodkorning shaxs ichki kechinmalari, o'y va xayollarini, ong ostida yotgan murakkab tuyg'ularni qanchalik ifodaviy shakl va ramzlarda ko'rsata olishi bilan belgilana boshladi. Mustaqillik yillari rassomlik san’atining mavzusi kengaydi. Rassomlaming milliy tarixga murojaati natijasida taqiqlangan jabhalari qayta ko‘rib chiqildi. Ular xolisona baholandi. Shu davrdan yangi-yangi mavzular, eng avvalo, milliy tarix bilan bog'liq voqealar

ko'pchilik rassomlarni o'ziga jalb etdi. San’atda milliy tarix bilan bog'liq portret va kompozitsiyalar paydo bo'ldi. Tarixiy shaxslar sohibqiron Amir Temur, ulug' olim Mirzo Ulug'bek, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari uchun tanlovlar e’lon qilindi. Tanlovda Amir Temurning etalon portreti sifatida O'zbekiston xalq rassomi professor Malik Nabiyevning «Amir Temur portreti» asari qabul qilindi. Malik Nabiyev tarixiy janrda samarali mehnat qilib kelayotgan rangtasvirchilardan. U 1950-yillarda Abu Rayhon Beruniyning ikonagrafik portreti uchun o'tkazilgan tanlovda g'olib bo'lib, uning asari etalon uchun qabul qilingan edi. Deyarli 50 yildan keyin rassomning yana-yangi tanlovda g'olib bo'lishi uning shu soha bilimdoni ekanligini ko'rsatadi. Bu portret ustida rassom uzoq izlanishlar olib borgan va asari uchun tarixchi Ali Yazdiyning Temur haqidagi tavsifi, Temurning vatani Shahrisabzda mahalliy tiplami kuzatish va o'rganish hamda antropolog olim Sergey Gerasimovning Temurning boshjfuyagi asosida yaratgan haykal portreti asos bo'lgan. Portretda rassom Temurga xos shijoat, g'ayrat, doim atrofga sinchkovlik bilan boquvchi zabardast, qo'llari katta (Ali Yazdiy uni shunday ta’riflagan), yoshi o'ta boshlaganiga qaramay tetik bo'lgan shaxs qiyofasini gavdalantirgan. Sohibqironning ustidagi bezakdor kiyimi, qo'lidagi qilichi uning oliy hukmdorligidan darak beradi. Ulug' olim Mirzo Ulug'bek portreti uchun o'tkazilgan tanlov g'olibi Akmal Ikromjonov, milliy qahramon Jaloliddin Manguberdining To'ra Kuryazov tomonidan yaratilgan ikonagrafik portretlari ham tarixiy materiallarni chuqur o'rganish, qiyosiy taqqoslash asosida yuzaga kelgan. Bu portretlaming har biri o'zining g'oyaviy plastik yechimiga ega. Lekin ularda mualliflarning tasvirlanuvchi shaxsga bo'lgan zo 'r e’tibori va faxr tuyg'ulari yotadi. Bu portretlar keyingi milliy tarixiy-tasviriy asarlar uchun asos qilib olindi. Tasviriy san’atda rangtasvir awalgi yillardagidek yetakchi o'rinni egallab, ayni shu san’atda izlanishlar olib borildi. Tarixiy mavzudagi asarlar asosan realistik talqin etilishi bilan xarakterlanadi. Mustaqillik yillarida xalq qahramonlari Alpomish, Spitamen, Go'ro'g'li siymolari birinchi bor rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika san’atida yaratildi. Temur davri malikalari qiyofasi ochildi. Bu yillarda milliy mavzuga e’tiboming ortishi tarixiy janr rivojiga katta turtki berdi. Temur va temuriylar davriga atab shu yillarda qator janrli kompozitsiyalar paydo bo'ldi. Malik Nabiyev, Chingiz Axmarov, Ne’mat Qo'ziboyev, Qutlug' Basharov,Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Sa’dulla AbduIIayev, Erkaboy Masharipov, Alisher Aliqulov va boshqalar shu mavzuda yirik asarlaryaratishdi. Har bir zamon o‘z zamondoshlarining qiyofasini ko‘rishni istaydi. Bu tabiiy. Chunki davr kishilarining ruhiy olami, ularning borliqqa, tabiatga bo'lgan qiziqishlari shu san’atda o'z ifodasini topadi. Sobir Rahmetov, Muhammad Nuriddinov, Yigitali Tursunnazarov, Chori Bekmirov, O. Bakirov, Bahodir Salomov va boshqa rassomlar ijodida shu san’atning yangi qirralarini ko'rish mumkin. Manzara va natyurmort janrida ham shakl, nur va rangga boy salmoqli asarlar yaratildi. Rahim Ahmedov,

Ne'mat Qo'ziboyev, Akmal Ikromjonov, Anvar Mirsoatov, Yunusovlarning manzara va natyurmortlari o'zining his-tuyg'ularga boy U xislatlari bilan yangi davr ruhini ifodalaydi. Mustaqillik yillari miniatyura san'atining haqiqiy rivojlanish davri bo'ldi. Ayniqsa, lokli miniatyura san'ati o'zining kamolotiga erishdi. Shomahmud Muhammadjonov, G'ayrat Kamolov, Toir Boltaboyev, Xurshid Nazirov, Alisher Yo'ldoshev, Bahodir Yo'ldoshev, Ubaydulla Qosimov kabi miniatyurachilar ijodida shu san'atning ajoyib namunalari yaratildi. Bu san'atda Niyozali Xolmatov akademik unvoniga sazovor bo'ldi. Mustaqillik yillarida, realistik san'at yo'nalishi bilan bir qatorda avangard san'ati yo'nalishlari o'ziga yo'l ochib bordi. O'z ijodini akademik san'at yo'nalishida boshlab katta yutuqlarga erishgan Bahodir Jalolov, Vyacheslav Oxunov, Akmal Nuriddinov (Akmal Nur), Jamol Usmonovlar avangard san'atidagi ijodi e'tiborli. Bu san'atkorlar g'arb akademik san'ati an'analarini chuqur o'zlashtirgan va o'z vaqtida shu san'atning nodir namunalarini yaratgan.bo'lsalar, 90-yillardan keyin avangard san'atida e'tiborga loyiq asarlar yaratib munozaralarga tomoshabinni chorlaydigan san`atkorlarning ishlarida xayoliy tasavvurlarga burkangan, ramziy assotsiativ shakllar majmuasida sharqona ohangli, falsafiy xayollarga olib ketuvchi murakkab kompozitsiyalar gavdalanadi. Ulaming keyingi yillarda yaratgan asarlarida erkin, har qanday pand-nasihat, biror-bir g'oyani asoslash yoki targ'ib qilish emas, balki erkin holda shoirona xayollarga berilish, dunyo va tabiat mo'jizalaridan hayratlanish ko'proq namoyon etiladi. Rang, shakl, ramzlar esa shu xayollami materiallashtiradi. Mustaqillik yillarida monumental san'at ham o'zining yangi bosqichini boshladi. Bu davrda barpo etilgan ma'muriy-madaniy binolar san'atkorlar asari bilan bezatildi. Rassomlar haykaltarosh, o'ymakor va naqqoshlar, me'morlar bilan hamkorlikda san'at sintezining ajoyib namunalarini yaratdilar. Landshaft arxitekturasi, vitraj, koshinkorlik, kulolchilik, kandakorlik, badiiy shisha bu san'atda o'z o'rnini topdi. Turkiston saroyi, Biznes markaz, Interkontinental, Sheraton va Meridian mehmonxonalari, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimiyati, Oliy majlis binosi, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda qurilgan madaniy va ma'muriy binolar yangi davr ruhini o'zida mujassamlashtirdi. Mustaqillik yillari grafika san'ati texnika va texnologiyalar bilan boyidi-kompyuter texnologiyalari bu san'atga bo`lgan talabni butunlay o ‘zgartirib yubordi. Poligrafiya ishlari sifat jihatidan yangilandi. Plakat, amaliy grafikada kompyuter o'zining mustaqil o'rnini egalladi. Bu yillardan grafikaning qalamtasvir va bosma grafikaning gravyura turlari yetakchi o'rinni egalladi. Ularda ham realistik va avangard yo'nalish, ham milliy romantizm xususiyatlari uyg'unligi izlanish maydoniga kirdi. Mustaqillik yillari haykaltaroshlik san'ati uslubiy rang-barangligi bilan xarakterlanadi. Dastgoh, monumental, dekorativ va mayda haykaltaroshlikda asarlar yaratildi. Lekin monumental va mayda haykaltaroshlik bu san'atda yetakchi o'ringa chiqdi. Monumental haykaltaroshlikda tarixiy mavzudagi asarlar realistik uslubda

bajarildi. Tarixiy shaxslar, sarkardalar, xalq qahramonlari Amir Temur, Zahiriddin Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Farg'oniy, Alpomish haykallari yaratilib, maydonlarga o'rnatildi. Yozuvchi, shoir, rassom, bastakor va boshqa ziyolilar xotirasi uchun me’moriy-memorial haykallar majmualari yaratildi. Mustaqillikdan keyingi yillar mahobatli haykaltaroshlik uchun sermahsul bo'ldi, respublika va xorijda ko'plab yodgorliklar o'rnatildi. Agar shularni birma-bir ko'zdan kechiradigan bo'lsak, shu san’atda ham yangi jarayonlar boshlanganligining shohidi bo'lamiz. Jumladan, mustaqillik yillarining dastlabki yillarida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nomi bilan atalgan Milliy bog'ning baland qismida barpo etilgan me’moriy haykaltaroshlik majmuasi ajralib turadi. Samarqandlik haykaltaroshlar Eynulla Aliyev boshchiligida bajarilgan bu majmua o'z atrofiga katta maydonni birlashtirib markazga aylangan. Haykal tepalikda atrofi ustunlar bilan o'ralgan gumbazli ayvon ichida — ko'shkda o'rnatilgan. Alisher Navoiy haykali shu ko'shk bilan yaxlit idrok etilgan holda kishini o'ziga jalb eta boshlaydi va shu asnoda uning mazmuni ochiladi. Bronzadan yasalgan bu yodgorlikda tomoshabin tomon shaxdam harakatda odimlab kelayotgan shoir aks ettirilgan. Haykal harakatga boy. Bu harakat shoimfng orqaga tashlangan qo'l va old tomonda turgan hassada kuchaytirilgan. Haykalga xos bo'lgan yana bir fazilat bu asarni uzoq va yaqindan ko'rishga mo'ljallanganligida. Unga uzoqdan nazar tashlanganda yaxlit harakatdagi siymo ko'rinsa, yaqinlashgan sari uning o'rnida shohona libosdagi kiboriy shaxs gavdalanadi. Uning bejirim soqol-mo'ylablari, yelkadan oshib orqaga tashlangan hilpirab turgan sallamatosining jimjimalari diqqatni torta boshlaydi va uzoqlarga tikilgan ma’nodor ko'zlari uning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Haykal o'rnatilgan ayvonning ship halqasiga o'zbek, rus, ingliz tillaridagi Navoiyning do'stlik va tinchlikni qadriashga bag'ishlangan to'rtligi esa mazkur majmua mazmunini yanada boyitadi. Mustaqillik yillari mahobatli haykaltaroshligining yana bir tomoni shundaki, bu yillardan boshlab uzoq vaqt tilga olinmagan yoki taqiqlangan mavzularda birinchi bor keng ko'lamda haykallar ishlari amalga oshirildi. O‘tmishning buyuk sarkarda va xalq qahramonlari, qatag'on yillari qurbonlariga atab yodgoriikiar yaratildi. Shunday mavzuda ishlangan dastlabki haykal bu buyuk sohibqiron Amir Temurga bag‘ishlandi. U 1993-yili poytaxt Toshkentda uning markaziy xiyobonida, Amir Temur tavalludining 560 yilligini nishonlash tantan alari kunlari esa sohibqironning ona yurti Shahrisabzda, davlatining poytaxti Samarqandda ochildi. Har uchala haykal bir-biridan o‘zining kompozitsion yechimi va ruhiy holatining qirralari bilan ajralib turadi. O‘tirgan holatda ishlangan Samarqanddagi yodgorlikda tinib-tinchimas, huzur-halovatni bilmagan, bezovtalik doimiy hamrohi bo`lgan sarkarda gavdalansa, vatani Shahrisabzda o'rnatilgan haykalida yurtidan turib uzoqlaiga boqqan sarkarda siymosi paydo boMadi. Toshkent yodgorligi biroz oldin ishlangan bo`lishiga qaramay uchlikka yakun yasagandek tuyuladi. Unda uzoq janglardan g'olib qaytgan sarkardani olqishlayotgan xalq oldida ot

jilovini tortib to'xtatib, unga baxt-saodat, tinchlik tilagandek qo'llarini yuqoriga ko'targan holda ishlangan. Haykalning tagkursisiga yozilgan «Kuch - adolatdadir» hikmati kompozitsiya mazmunini chuqurlashtirib, go'yo buyuk sohibqironning jonli ovozi eshitilayotgandek tuyuladi. Bu haykallar an’anaviy realistik san’atning hikoyanavis yo'nalishida ishlangan bo'lib, ulardagi har bir chiziq va shakl, hayotiy maishiy buyum va unsurlar asar mazmunini chuqurlashtirishga qaratilgan. Bu asarlar ham uzoq va yaqin idrokka mo'ljallangan. Asaming bunday yechimi tomoshabinga tasvirlanuvchi haykalni uzoq vaqt tomosha qilish va asta u bilan muloqot qilish imkoniyatini tug'diradi. Biz ta’riflayotgan mazkur haykallar akademik Ilhom Jabborov boshchiligida amalga oshirilgan. Ilhom Jabborov o'tgan asming 70-yillaridan yog'ochda ishlagan plastik ishlari bilan tanila boshlad i. Uning «Xayol» 1971 (y o g 'o c h ) , «Mashrab» 1974, «Oqshom» (yog'och, shamot aralash) 1980, «Falak gardishi», «Dam olish» kabi asarlari dastgoh san’atning o'ziga xos ko'rinishlari edi. Ijodkor mahobatli san’atda mehnat qilib Navoiy, Mashrab, Furqatga bag'ishlangan asarlari maydonlarga o'rnatildi. Mustaqillik yillaridan boshlab uning ijodida mahobatli san’at yo'nalishi yetakchilikka chiqib, respublikaning bir qator shahar va qishloqlarida uning loyihasi asosida haykallar o'rnatildi, Toshkentning bosh maydonidagi Ona haykali, Farg'ona va Quvadagi Ahmad al-Farg‘oniy me’moriy-haykaltaroshlik majmualari shular jumlasidan. Shuni ta’kidlash kerakki mustaqillik yillarida maydonlarga haykallar o'rnatish jarayoni shahaming qayta qurish va obodonlashtirish ishlari bilan birga amalga oshirilib borildi. Natijada shaharlarda chin ma’nodagi sajdagohlar yuzaga kelib shahaming katta xiyobon va maydonlari ko‘rkini ochib bordi. Xorazmda “Avesto” bog‘i, Termizdagi «Alpomish» haykal majmuasi shu o'rinda e ’tiborga loyiq. Qachonlardir qattiq taqiqlangan, keyin esa oqlangan “Alpomish” dostoni va uning bosh qahramoni Alpomishga atab Termiz shahrida o'rnatilgan ramziy haykal majmuasi o'zbek haykaltaroshligining mustaqillik yillaridagi yana bir qirrasini namoyon etadi. Bu haykalda doston mazmunini to'liq tasvirlashga harakat qilingan. Bu haykal va undan pastroqdagi bo'rtma tasvirlarda ko'zga tashlanadi. Mazkur majmuada shakllar ifodaliligiga e’tibor berilgan. Shakllarning rang-barangligi butun kompozitsiya asosini tashkil etib, unga harakat va rivoj baxsh etadi. Majmuada ramziy ma’noga e’tibor berilgan. Shartli belgi va unsurlar uning mazmunini yoritishga xizmat qiladi. Jumladan, Alpomish qo'lidagi o'qsiz kamon ozodlik va erkinlik belgisidek qabul qilinsa, uning qo'liga qo'ngan qush — kabutar tinchlik va yaxshilikdan xabarlar tarqatuvchi jarchi ma’nosi bilan butun kompozitsiya mazmunini to'ldiradi. «Alpomish» haykaltaroshlik majmuasini b ir guruh haykaltaroshlar A. Rahmatullayev, Q. Norxo'rozov, U. Mardiyev va I. Podosinnikovlar ishlagan. Bu haykaltaroshlar allaqachonlar tanilgan, ijodlarini o'tgan asming 60-80-yillarida boshlagan bo'lishlariga qaramay, mustaqillik yillarida ularning mahobatli asarlarida davr ruhi mujassamlasha bordi. Mustaqillik yillarining

yana bir sharofati bu haykaltaroshlarimizning xorij davlatlar uchun tarixiy shaxslarga bag'ishlangan haykallar buyurtmasini bajarishlaridir. Bu borada akademik haykaltarosh/Ravshan Mirtojiyevning ijodi e'tiborli. Uning qator asarlari ko'pgina xorij mamlakatlarining shaharlarida o'rnatildi. Ravshan Mirtojiyev ham o 'z ijodini tarixiy shaxslar siymosining haykalini yaratishdan boshladi. Mayda haykaltaroshlikda nafis asarlar yaratish bilan sohasining nozik sirlariga kirib borgan haykaltarosh mahobatli haykaltaroshlikning janrli yechimini tanlab, asarlarining fazoviy hajmiy ifodaliligiga erishdi. Uning Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligiga bag'ishlab ishlagan Andijondagi shoir va sarkarda haykali o'zining plastic yechimining betakrorligi bilan ajralib turadi. Davrning dastgoh haykaltaroshligi ham e'tiborli. Shu san'at turida qiziqarli izlanish va jarayonlar ro'y berdi. Bu san'atda birinchi bor rang va shakl masalalari ko'tarilib ulaming plastik san'at idrokidagi o'rni borasida mashqlar amalga oshirildi. Shunday jarayonni boshlagan toshkentlik haykaltarosh Damir Ro'ziboyevning loyihalari e 'tiborga tushdi. 1998-yili amalga oshirgan «Jaz ijrosiga hamohang badihalar» turkumi yangi jarayon, ijodkorning erkin fikrlashi va kundalik hayotni kuzatish paytidagi nozik ichki kechinmalari ifodasi edi. Haykaltaroshlik san'ati bu — shakllar san'ati, shuning uchun uni ko'p hollarda plastik san'at, ya'ni nozik tuslanish va harakat san'ati deyiladi. Bu san'at shu jihatlari bilan musiqaga yaqinlashib ketadi. Damir Ro'ziboyev shu yangi loyihasida rang va shakllar o'yinini musiqa bilan ko'rishga va mulohaza qilishga chorladi. Loyiha jaz musiqasi jarangida idrok etilishi, yangi davr izlanishlarining yangi mahsulidek qabul qilindi. **O'ymakorlik san'ati**. 90-yillardan o'ymakorlik san'ati, ayniqsa, uning yog'och o'ymakorligi turlarining haqiqiy rivojlanish davri bo'ldi. Uning maishiy va monumental yo'nalishlarida ko'plab asarlar yaratildi va yaratilmoqda. 90-yillar oxirlaridan esa uning mahobatli turi keng rivoj topdi. Barpo etilgan me'moriy majmualarda, ayniqsa, tarixiy sanalar bilan bog'liq turlarida bu san'at o'zining salmoqli o'rnini egallab davr mazmuni bilan boyidi. Bu sohada mehnat qilgan xalq ustasi Abdug'ani Abdullayevga O'zbekiston xalq qahramoni unvoni berildi. Shu yillardan boshlab barpo etilgan Samarqandda buyuk mutafakkir Al-Buxoriy, Farg'onada munajjim Ahmad al-Farg'oniy, Toshkentda Xotira va qadrlash, Shahidlar xotirasi maydonlaridagi me'moriy majmualar, ma'muriy, madaniy binolarda shu san'at o'zining o'rnini oldi. Yog'och o'ymakorligi san'atning boshqa mahobatli turlari bilan birgalikda shu davrdagi san'at uyg'unligining ajoyib yodgorligiga aylandi. Badiiy kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, chinni san'ati ham o'zining davr ruhi bilan sug'orilgan asarlarini dunyoga keltirdi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1.N. AbduIIayev. “0 ‘zbekiston san’ati tarixi” T.: 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

2. Usmonov Q. “O‘zbekiston tarixi (Milliy istiqlol davri)—T.: „O‘qituvchi“ NMIU, 2007.

3.Rajabov. Q. “O`zbekiston tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrdan bugungi kungacha) T.: „O‘qituvchi“ NMIU 2014.

4. “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” T. 1-12. T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti 2000-2006

**2 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 5.2.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Rassomchilik san’atining kengayishi. Rassomlarning milliy tarixga munosabati, murojati.<br>2. San'atda tarixiy portret va kompozisiyalarning paydo bo'lishi. Amir Temur, Murzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari.<br>3. Natyurmort, portret va boshqa janrlar. Tasviriy san'atda rangtasvir.<br>4. Haykaltaroshlik san’ati. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Mustaqillik yillarida O’zbekiston madaniyati va san’atining rivojlanishi, yuksak cho'qqilarga ko'tarilishida | |

| | |
|---|---|
| rassomchilik, haykaltaroshlik san'atining o'rni va ahamiyati to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Rassomchilik san'atining kengayishi. Rassomlarning milliy tarixga munosabati, murojati to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>* San'atda tarixiy portret va kompozisiyalarning paydo bo'lishi. Amir Temur, Murzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari tuzilishini tushuntirib, undagi chizgilarni izohlaydi .<br><br>* Natyurmort, portret va boshqa janrlar. Tasviriy san'atda rangtasvirni tushuntirib, izohlaydi.<br><br>* Haykaltaroshlik san'ati to'g'risida tushuncha beradi. | * Rassomchilik san'atining kengayishi. Rassomlarning milliy tarixga munosabati, murojatini o'rganadilar, fikr bildiradilar.<br><br>* San'atda tarixiy portret va kompozisiyalarning paydo bo'lishi. Amir Temur, Murzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari ko'rib chiqib, muhokama qiladilar, tahlil qilib, fikr bildiradilar.<br><br>* Natyurmort, portret va boshqa janrlar. Tasviriy san'atda rangtasvir to'g'risida gapirib beradilar.<br><br>* Haykaltaroshlik san'ati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 5.2.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Rassomchilik san’atining kengayishi. Rassomlarning milliy tarixga munosabati, murojati to'g'risida gapirib bering?<br>2. San'atda tarixiy portret va kompozisiyalarning paydo bo'lishi. Amir Temur, Murzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdilarning ikonagrafik portretlari to'g'risida tushuncha bering?.<br>3. Natyurmort, portret va boshqa janrlar haqida nimalarni bilasiz?.<br>4. Tasviriy san'atda rangtasvir qanday ko'rinishda bo'lgan?.<br>5. Haykaltaroshlik san’ati to'g'risida gapirib bering?. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini | Savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| Yakuniy bosqich. (10 minut) | ma’lum qiladi. | |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

**3 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**Reja:**

4. Mustaqillik yillarida amaliy san’at rivoji. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va hukumat qarorlari, ularning amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining rivojlanishiga qaratilgan tadbirlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. "O'zbekiston xalq ustasi" unvonining ta'sis etilishi.
6. Mustaqillik yillarida kulolchilik.

**3 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 5.3.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.** |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Mustaqillik yillarida amaliy san'at rivoji. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va hukumat qarorlari, ularning amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining rivojlanishiga qaratilgan tadbirlari.<br>2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. "O'zbekiston xalq ustasi" unvonining ta'sis etilishi.<br>3.Mustaqillik yillarida kulolchilik. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston madaniyati va san'atini rivojlantirishdagi farmonlari va qarorlarini o'rganib, hayotga tadbiq etish. O'zbek madaniyati va san'atida badiiy hayot to'g'risida tushuncha berish, bilimlarini rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Mustaqillik yillarida amaliy san'at rivoji. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va hukumat qarorlari, ularning amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining rivojlanishiga qaratilgan tadbirlari to'g'risida tushuncha beradi.<br>* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining | * Mustaqillik yillarida amaliy san'at rivoji. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va hukumat qarorlari, ularning amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining rivojlanishiga qaratilgan tadbirlari ma'ruzada tinglab tahlil qiladilar, fikr bildiradilar.<br>* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining kelgusidagi |

| | |
|---|---|
| kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash tadbirlari to'g'risida"gi farmonini o'qib eshittiradi va talabalarning fikrini tinglaydi. "O'zbekiston xalq ustasi" unvonining ta'sis etilishi to'g'risida tushuncha beradi.<br><br>* Mustaqillik yillarida kulolchilik qay tarzda rivoj topa boshlaganli-gini tushuntirib, izohlaydi?. | rivojini davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash tadbirlari to'g'risida"gi farmoni o'qib o'rganadilar.<br><br>*"O'zbekiston xalq ustasi" unvoni to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar.<br><br>* Mustaqillik yillarida kulolchilik san'ati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar, fikr almashadilar. |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**5.3.2-Ma’ruzaning texnologik xaritasi**

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| I-bosqich. Kursga va | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari | Tinglaydi. |

| | | |
|---|---|---|
| mavzuga kirish. (20 minut) | bilan tanishtiradi. | |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Mustaqillik yillarida amaliy san’at rivoji. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va hukumat qarorlari, ularning amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining rivojlanishiga qaratilgan tadbirlar to'g'risida nimalarni bilasiz? .<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. "O'zbekiston xalq ustasi" unvonining ta'sis etilishi to'g'risida nimalarni bilasiz?.<br>3. Mustaqillik yillarida kulolchilikning rivojlanishi to'g'risida gapirib bering?. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya kuniy bosqich. (10 minut) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |
| | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini | Yozadi. |

| | | |
|---|---|---|
| | beradi. | |

**4 – mashg'ulot: 2 – soat.**

**Reja:**

3. Mustaqillik yillari yog'och o'ymakorligi, uning maishiy va monumental turlarining keng rivojlanishi.
4. Mustaqillik yillarida barpo etilgn me’moriy majmualar.

## O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qurilgan 10 ta ko‘rkam bino va inshootlar (foto)




"UZ24” nashri so‘nggi 23 yil davomida respublikamizda qurilgan ko‘rkam 10 ta bino va inshootlar ro‘yxatini tuzib chiqdi.

1. "Minor” jome’ masjidi



Toshkent shahri markazida joylashgan "Minor” jome’ masjidi 2013-yilda qabul qilingan "Toshkent shahrining Minor mahallasi hududida masjid barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga binoan barpo etilgan. Masjid bir paytning o‘zida 3 mingdan ziyod namozxonni bag‘riga sig‘dira oladi.

Masjidning bosh binosi – ikki qavatli xonaqoh, ikkita peshtoq, balandligi 38 metr bo‘lgan ikkita minora va bir gumbazdan iborat. Masjid hovlisining ikki tomonida milliy yog‘och o‘ymakorligi uslublarida bezatilgan ustunlar o‘rnatilgan. Bo‘zsuv yoqasigacha ko‘rkam maysazorlar va xiyobon yaratilgan.

Masjid 2014-yil 1-oktabrda rasman ochildi.

2. Hazrati Imom majmuasi



2007-yil boshida Prezidentimiz Farmoni bilan Hazrati Imom (Hastimom) jamoatchilik jamg‘armasi tashkil etilib, Hazrati Imom majmuasining asl tarixiy qiyofasini tiklash maqsadida bu yerda keng ko‘lamli qurilish-ta’mirlash va obodonchilik ishlari olib borildi.

Xazrati Imomning yangi ko‘rinishi qadimiy an’analar asosida yaratilgan bo‘lib, u ikki gumbaz va ikki minoradan iborat. O‘ng minora xorazmlik ustalar, chap minora samarqandlik hunarmandlar tomonidan bunyod etilgan. Minoralarning uzunligi 53 metrni tashkil etadi. Masjidga kiraverishda sandal daraxtidan ishlangan 20 ta ganch tushirilgan ustunli ayvon joylashgan. Gumbazlar darchalarining alohida loyihalashtirilishi, quyosh nurlarining tongdan ufqqa qadar masjidni yoritib turishiga imkon yaratgan. Ikki gumbazning ichki qismi tilla suvi bilan yurgizilgan.

3. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi



Kutubxona O‘zbekiston Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2002-yil 12-apreldagi Vazirlar Mahkamasining "Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy

kutubxonasini tashkil etish haqida”gi Qaroriga muvofiq "Milliy” maqomini oldi.

2011-yil yangidan qurilgan kutubxona binosi yetti qavatli bo‘lib, yer ostidagi ikki qavati fonddan iborat. Kitoblarni sifatli saqlash uchun zamonaviy mobil stellaj olib kelindi. Ilgari so‘ralgan kitob yo gazeta-jurnalni o‘quv zaliga keltirish uchun kutubxonachi opalar kamida yarim soat yo‘l bosishiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugun bu jarayon 345 metrli telelift va 100 kilogramm yukni ko‘tarishga mo‘ljallangan lift vositasida bajarilmoqda.

Shuningdek, bu yerda O‘zbekiston Milliy kutubxonasi hamda Simpoziumlar saroyini birlashtirgan "Ma’rifat markazi” ham qad rostlagan.

Milliy va zamonaviy arxitektura uslublarini o‘zida mujassam etgan bu muhtasham koshona Mustaqillik maydoniga tutash hududda Yoshlar ijod saroyi, Tasviriy san’at galereyasi, "Poytaxt” biznes markazi kabi mahobatli inshootlar bilan yaxlit kompozitsiya hosil qilgan.

Bino yo‘laklariga oq marmarlar yotqizilgan. Majmua derazalariga sakkiz qirrali yulduz shaklidagi uzun panjaralar o‘rnatilgan. Bino tashqarisida betakror landshaft dizayni va musiqiy favvora sayrgohga aylangan.

Saroyning 1 000 o‘rinli katta zalida me’moriy yechimiga ko‘ra dunyo tajribasida kam uchraydigan gumbaz atrofi bo‘ylab joylashtirilgan 36 ta deraza kun davomida tabiiy yorug‘likni ta’minlaydi. Deraza osti va gumbaz ichidagi maxsus moslamalar yordamida zal havosi muntazam yangilanib turadi.

Davlatimiz rahbarining g‘oyasi asosida Simpoziumlar saroyi vestibyulidagi devorlarga yoqut, feruza, zumrad, lojuvard, malaxit (yashiltosh), yashma kabi noyob, tabiiy va qimmatbaho toshlardan yasalgan mahobatli ikki panno shakli, naqshlar tushirilgan.

4. "Bunyodkor” sport majmuasi



2012-yil 28-sentabr kuni Toshkentda "Bunyodkor” sport kompleksining ochilishi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ham qatnashdi. Shu kuni o‘zbek futbolining 100 yilligi nishonlandi.

"Bunyodkor” sport majmuasi o‘z ichiga 56 gektar maydonni egallagan 7 ta zamonaviy maydon, bolalar-o‘smirlar futbol maktabi, basseyn va boshqa zamonaviy inshootlarni qamrab olgan.

Stadion 2008—2012-yillar davomida qurilgan bo‘lib, 34 ming kishiga mo‘ljallangan.

5. "Poytaxt” biznes markazi



"Poytaxt” biznes markazi 2010-yilda ochilgan bo‘lib, Mustaqillik maydoniga yaqin hududda joylashgan. Biznes markazida ijaraga beriluvchi ofislar, "Mustaqillik” mehmonxonasi, Kizilkum Gold restorani, bar, fitnes-markaz hamda anjumanlar zali joylashgan.

6. Farg‘ona viloyati Teatr-konsert saroyi



Mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligi arafasida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Farg‘ona viloyat markazida Teatr-konsert saroyi bunyod etildi. U 2014-yilning 6-dekabr kuni tantanali ravishda ochildi.

Mazkur san’at saroyi 1 000 o‘rinli bo‘lib, milliy va zamonaviy me’morchilik an’analarini o‘zida uyg‘unlashtirgan. Eshik va ustunlari sharqona naqshlar bilan bezatilgan.

3. "Buxoro madaniy markazi” majmuasi



Prezident Islom Karimov g‘oyasi, tashabbusi va rahnamoligida barpo etilgan "Ko‘hna va boqiy Buxoro” monumenti, viloyat musiqali drama teatrining muhtasham binosi hamda amfiteatrni o‘z ichiga olgan "Buxoro madaniy markazi” majmuasi 2010-yil 30-avgustda ochilgan.

"Ko‘hna va boqiy Buxoro” monumentining markaziy qismida uch avlod—baxtiyor yosh oila: ota-ona va bola, barhayotlik timsoli—nihol o‘tqazayotgan bobo va nevara hamda uy qurayotgan ota va farzandning barelyefli haykallari ifodalangan.

Madaniy markaz hududidagi barcha yo‘llar salobatli "Ko‘hna va boqiy Buxoro” monumenti yonida tutashadi. Obidaning baland tepasida ulkan Yer shari o‘rnatilgan. Unda mustaqil O‘zbekiston xaritasi tilla rangda naqshlangan.

. Andijondagi "Hamkor” biznes markazi



2011-yil Andijon shahrida "Hamkor” xalqaro biznes markazi ochildi.

5 qavatli markaz "Hamkorbank” aksiyadorlik-tijorat banki tomonidan bunyod etildi. Markazda tadbirkorlar uchun ofislar, konferens-zal, o‘quv markazi, mehmonxona, restoran, bank bo‘limi, kinozal, kafe-bar, qator savdo do‘konlari mavjud.

. Temuriylar tarixi davlat muzeyi



18 oktabr — Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochilgan kun. Muzey 1996-yili Sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Amir Temur xiyoboniga tutash hududda barpo etilgan. Binoning butun aylanasi bo‘ylab joylashgan ayvonni oq ustunlar ko‘tarib turibdi. Muzeyning balandligi 31, diametri 70 metr. Muzey gumbazini yoritib turgan "Zumrad” deb nomlangan qandilning og‘irligi 2 tonnadan oshadi. Unga 500 ta yoritgich o‘rnatilgan.

Muzey 3 qavatdan iborat. Birinchi qavatida xazinaxona, kutubxona, anjumanlar zali, ma’muriyat joylashgan. Ikkinchi qavatdagi devor markazidan "Buyuk Sohibqiron — buyuk bunyodkor” deb nomlangan panno joy olgan. Uchinchi qavatdan Markaziy Osiyoning ilk Uyg‘onish davridan to Sohibqiron davrigacha va temuriylar hayotidan hikoya qiluvchi eksponatlar, rang-barang osori atiqalar o‘rin olgan.

Bugungi kunda muzeyda temuriylar tarixidan so‘zlovchi 3,5 mingdan ziyod eng noyob yodgorliklar saqlanmoqda.

**"Chorvoq oromgohi” yoki "Piramidalar” sog‘lomlashtirish markazi**



Sog‘lomlashtirish markazi Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida joylashgan. Piramida shaklidagi uchta binoda turli sinfdagi restoran, bar, biznes-markaz, anjumanlar zali, trenajer zallari, tibbiyot punkti singari jami 208 ta nomer bor.

Xotira va qadrlash maydoni

Vikipediya, ochiq ensiklopediya

**Xotira va qadrlash maydoni** — Toshkent shahridagi me’moriy majmua; 1999 y. O‘zbekiston Respublikam Prezidenta Islom Karimov tashabbusi va rahbarligida barpo etilgan. Mustaqillik maydonilaya shim.dagi xiyobonda, mangu alanga yodgorligi atrofida joylashgan bo‘lib, maydon kengligini davom ettirib turadi. Maydonning to‘riga Motamsaro ona haykali o‘rnatilgan

(haykaltarosh I. Jabborov). Xiyobonning uz. 60 m, uning shim. va jan. tomonida ayvonlar qad ko'targan, ayvonlar tokchalariga o'rnatilgan metall taxtalarga 2-jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik barcha jangchilarning ismsharifi bitilgan. Ayvonlar milliy an'anaviy me'morlik uslubida ustunli, vassajuftli qilib qurilgan. Majmuani bunyod etishda va o'ymakorlik bilan jozibador bezashda respublikadagi mohir ustalar: A.A6dullayev (Qo'qon), X. Bog'bekov (Xorazm), H. Odilov, S. Rahmatullayev (Toshkent), h1.Sohibnazarov (Samarkand), Y.To'laganov (Andijon) shogirdlari bilan birgalikda qatnashgan (xuddi shunday me'moriy inshootlar respublika viloyatlarining markazlarida ham bunyod etilgan).







**4 - mashg'ulot: 2 – soat.**

**– KEYS – STADI**

## O’qitishning keys – texnologiyasi

### 5.4.1. O’qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Talabalar soni:** | **Vaqti: 2 soat** |
| **Mashg`ulot shakli** | **Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali - ma’ruza.** |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Mustaqillik yillari yog'och o'ymakorligi, uning maishiy va monumental turlarining keng rivojlanishi.<br>2. Mustaqillik yillarida barpo etilgn me’moriy majmualar. |
| **Mashg`ulotning maqsadi:** Mustaqillik yillarida o'zbek madaniyati va san'atining rivojlanishi, yuksak cho'qqilarga ko'tarilishi va jahonga tanilishi to'g'risida tushuncha berib, talabalarning bilimlarini yanada rivojlantirish. | |
| **Pedagogik vazifalar** | **O'quv faoliyati natijalari:** |
| * Mustaqillik yillari yog'och o'ymakorligi, uning maishiy va monumental turlarining keng rivojlanishi to'g'risida tushuncha beradi.<br>* Mustaqillik yillarida barpo etilgan me’moriy majmualarni slaydlar orqali namoyish etib, ularning qurilishi to'g'risida tushuncha beradi. | * Mustaqillik yillari yog'och o'ymakorligi, uning maishiy va monumental turlarining keng rivojlanishi o'rganib, tahlil qiladilar, fikr bildiradilar.<br>* Mustaqillik yillarida barpo etilgan me’moriy majmualar, ularning qurilish tarixi to'g'risida gapirib beradilar. . |
| O'qitish usullari va texnika | Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov. |
| O'qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, mel, latta, skoch, A3 formatli qog`oz. |
| O'qitish shakllari | Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash |

| | |
|---|---|
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

## 5.4.2-Ma'ruzaning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (20 minut) | 1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. | Tinglaydi. |
| | 1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi . | Yozadi, tinglaydi. |
| II-bosqich. Asosiy (50 minut) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi:<br>1. Mustaqillik yillari yog'och o'ymakorligi, uning maishiy va monumental turlarining keng rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?.<br>2. Mustaqillik yillarida barpo etilgan me'moriy majmualarni aytib bering?. | Savollarga javob beradi. |
| III-bosqich. Ya | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi. | Savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| kuniy bosqich. (10 minut) | 3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi. | Tinglaydi. |
| | 3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi | Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. | Yozadi. |

## “O`zbekiston madaniyati va san’ati tarixi” fani uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

### Rahbariy adabiyotlar:


1 O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, “O’zbekiston”, 2006 yil.

2. “Ta`lim to’g’risida”gi Qonun. T., “O’zbekiston”, 1997 yil.

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., “O’zbekiston”, 1997 yil.

4. “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to’g’risida”. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Xalq so’zi”, 1998 yil 25 sentyabr’.

5. “O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi qarori. “Xalq so’zi”, 1998 yil 28 iyul’.

6. Karimov I. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. Toshkent, “O’zbekiston”, 1993y.

7. Karimov I. O’zbekiston-bozor munosabotlariga o’tishning o’ziga xos yo’li. Toshkent, “O’zbekiston”, 1993y.

8. Karimov I. Istiqlol va ma`naviyat. Toshkent, “O’zbekiston”, 1994y.

9. Karimov I. Amir Temur – faxrimiz, g’ururimiz. Asarlar. 5-jild. Toshkent, “O’zbekiston”, 1996y.

10. Karimov I. “Tarixiy xotirasiz, kelajak yo’q”. Toshkent, “SHarq”, 1998 y.

11. Karimov I. “Milliy mafkura haqida”. Toshkent, “O’zbekiston”, 2000 y.

12. Karimov I. “YUksak ma`naviyat-engilmas kuch”. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2008 y.

13.Buyuk va muqaddassan, Mustaqil Vatan. Toshkent, ,,O`qituvchi nashriyoti” matbaa ijodiy uyi , 2011 y

14. .Karimov I.AO`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, Toshkent, 2011.

15. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida Farmoni «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 8 fevraldagi 28 (6722)-sonida e’lon qilingan. 2017 yil 7 fevral,PF-4947-son qarori.

16. Sh.Mirziyoyev. "Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”.- Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza // Xalq so’zi gazetasi . 2017 yil 16 yanvar, № 11.

## Asosiy adabiyotlar:

15. Abdullayev N.U. San’at tarixi. 1 – tom. – T.: O’qituvchi, 1986.
16. Abdullayev N. San`at tarixi.-T.: O`qituvchi 1987 y. 1-jild.
17. Abdullayev N.U. San`at tarixi. 2-tom . T.: San`at,2001
18. Azizxo`jayev A. Davlatchilik va madaniyat. –T.:Sharq,1997.
19. Zohidov P. Me`mor olami.-T.:Qomus,1996.
20. Oydinov N. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari.-T.:qituvchiZiyo,1997.
21. Oydinov N. O`zbekiston tasviriy san`ati tarixidan lavhalar.-T.: O`qituvchi,1997.
22. Rtveladze E.V.,Sagdullayev A.S. Pamyatniki minuvshix vekov.-T.:Uzbekistan,1996.
23. Tulenov J.,G’ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish.-T.:O’zbekiston,1996.
24. O’zbekiston san’ati.(1991-2001yillar)-T.:Sharq,2001.

25.Fozilov S.,Yuldosheva U. Mustaqillik koshonalari.-T.:Xalq merosi,2002.

26.Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati.-T.:1994.

27.Xoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati.-T.:Sharq,2005.

28.Haqqulov A. Ta'mir san'ati.-T.:Mehnat,1991.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild, T., Fan, 1968 y.

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.,1993 y.

3. Abulg'oziy. SHajarai turk. T., "Cho'lpon", 1992 y.

4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., "SHarq", 2000 yil.

5. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi yozma manbalari. T., 1991 yil.

6. Vanberi X. "Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi". T., "Fan", 1990 y.

7. Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., 1998 yil.

8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "O'zbekiston", 2001yil.

9. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., "SHarq", 1998 y.

10. Muxammadjonov A.R. "Amir Temur va temuriylar davri", T., "Fan", 1991 y.

11. Narshaxiy M. "Buxoro tarixi", T., "Kamalak", 1991y.

12. Nizomulmulk. "Siyosatnoma", T, "Adolat", 1997 y.

13. Sagdullaev A.S. "O'zbekiston ilk manbalarda" , T., 2012 y.

14. Toshev Nuryog'di. Jaloliddin Manguberdi. T.

15. Usmonov Q, Sodikov M., Burxonova S. "O'zbekiston tarixi". T., "Iqtisod-moliya", 2006 yil.

16. SHoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., 2001 yil.

O'zbekiston tarixi. Prof. R. Murtazoeva taxriri ostida. T., 2005 yil.

17.O'zbekistonning yangi tarixi. 1-jild. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., "SHarq", 2000 yil.

18. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-jild. Sovet mustamlakachiligi davri. T., "Sharq", 2015yil.

19.SHarafiddin Ali YAzdi. Zafarname. / Perevod i kommentariy A.Axmedova. Tashkent, „Fan”, 2010

20. O’zbekistonning yangi tarixi. 3-jild. Mustaqil O’zbekiston tarixi. T., “Sharq”, 2014yil.